O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TAHRIRIYAT HAY’ATI
Bosh muharrir: prof. Nabiyev D.H.
Bosh muharrir o‘rinbosari:
f.-m.f.d. Bekpulatov I.R.
Mas’ul kotib: dots. Ne’matova Y.O.
Tahririyat hay’ati a’zolari:
prof. Bahriddinova B.M.
prof. Bo‘riyev O.B.
prof. Yoziyev L.Y.
prof. Jabborov A.M.
prof. Jabborov X.J.
f.-m.f.d. Imomov A.A.
prof. Kamolov L.S.
prof. Kuchboyev A.E.
prof. Mengliyev B.R.
prof. Normurodov M.T.
prof. Nurillayeva Sh.N.
prof. Nurmanov S.E.
p.f.d.Oripova N.X.
prof. Ochilov A.O.
prof. Tojiyeva G.N.
prof. To‘rayev D.T.
prof. Umirzakov B.Ye.
prof. Xayriddinov B.X.
prof. Xolmurodov A.E.
prof. Choriyev S.A.
prof. Shodiyev R.D.
prof. Shodmonov N.N.
prof. Erkayev A.P.
prof. Ernazarova G.X.
prof. Eshov B.J.
prof. Qurbonov Sh.Q.
prof. Qo‘yliyev B.T.
prof. Bekmurodova G.H.
prof. Imanova G.T.
prof. Bobonazarov G‘.Y.
prof. Shukurov O.M.
prof. Yusupova A.Sh
f.f.d. Imomova G.M.
dots. Ro‘ziyev B.X.
dots. Eshqorayeva N.G‘.
dots. Xolmirzayev N.S.
dots. Hamrayeva Y.N.
dots. Rizayev B.X.
dots. Nashirova Sh.B.
f.f.f.d. Musayeva D.T.

2025
2(1)

QarDU xabarlari
Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal

Muassis: Qarshi davlat universiteti
Jurnal Qashqadaryo viloyati Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2010.17.09 da № 14–061 raqamli guvohnoma bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan.

Musahhihlar:
Shodmonova D.E.
Tursunboyev B.N.
Pardayeva D.R.

Sahifalovchi:
Yuldoshev D.N.

Texnik muharrir:
Raxmatov M.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarorlari bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, tarix, falsafa, siyosatshunoslik, filologiya, pedagogika-psixologiya va iqtisod fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2009-yilda tashkil etilgan.

Yiliga 4 marta chop etiladi.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:
Pochta manzili: 180003, Qarshi, Ko‘chabog‘,17.Qarshi davlat universiteti, Filologiya fakulteti binosi, 107-xona.
Telefon: 97-222-10-80
TelegramID:
https://t.me/Qardu_Xabarlari2024
Elektron pochta:qardu_xabarlari@mail.ru
Veb-sayt:
https://qarshidu.uz/oz/page/ilmiy-jurnal-NEW

Ijtimoiy-gumanitar fanlar

Jurnaldan olingan materiallarga “QarDU xabarlari” jurnalidan olindi”, degan havola berilishi shart. Mualliflardan kelgan materiallar egalariga qaytarilmaydi.

MUNDARIJA

TARIX

Ernazarov A.X. G‘uzor bekligining madaniy hayotiga chizgilar (XIX asrning oxiri – XX asr boshlari)…… 4
O‘ralov G‘.A. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish sohasidagi davlat siyosati va uning mohiyati……... 7
Djurayev R.X. XX asrning 60–70-yillarida chorvachilikdagi kadrlar masalasi…….. 11
Ishquvatov V. O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ayollarning gender tengligi masalalari (Tarixiy-ijtimoiy tahlil)……. 15
Mallayeva F.R., Sayidov M.X. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyati neft-gaz sanoatining rivojlanishi…….. 19
Elmuratov I.G. Qoraqalpog‘istonda dastlabki ilmiy ekspeditsiyalar tarixidan…… 24
Rahmonkulova O.A. Mustaqillikning dastlabki yillarda iqtisodiy islohotlar natijasida janubiy viloyatlarda ishbilarmon, tadbirkor ayollar faoliyatining rivojlanishi va uning ahamiyati…… 28
Rahmonov Sh. Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash va ularni qalbakilashtirish jinoyatlari tarixi haqida…… 32
Hamdamov A.T. Milliy olimpiya qo‘mitasining maqsadi, vazifalari va funksiyalari…….. 37
Hamdamova A. Sh. O‘zbekiston Respublikasida gender tengligining tarixi va rivojlanish tendensiyalari…….. 41
Muxamedova M.S. XX asr boshlarida O‘zbekiston muzeylarining rivojlanish jarayonlarining o‘rganilishi…… 46
Eshov B.J. Buyuk Ipak yo‘lining janubiy tarmoqlaridagi o‘zaro aloqalarning tahlillari….. 51

FALSAFA

Usmonova L.R. Zamonaviy fan falsafasining asosiy muammolari (muammolar va yechimlar)……... 55
Sunatov D.H. Milliy madaniy makonda axloqiy ong yuksalishiga ta’sir etuvchi omillarning ba’zi jihatlari……... 58
Qurbonov T.H. O‘zbekistonda jamiyat transformatsiyasining asosiy yo‘nalishlari…… 62
Anvarova L. Tejamkorlikning mehnat samaradorligini ta’minlashdagi ahamiyati…….. 66
Boysunov J.X. Yoshlar ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o‘rni…… 70

FILOLOGIYA

Ochilova H.A. O‘zbek tilida irreal so‘roq va uni ifodalovchi vositalar xususida……. 73
Jumayeva K.T. Muhammadrasul Mirzo “Devon”i leksikasining qiyosiy va statistik o‘rganish natijalari…….. 76
Musayeva D.T. Badiiy adabiyotda psixologizmning o‘rni……... 81
Usmonova M.K. XIX asr o‘zbek ijtimoiy-siyosiy leksikasining tematik guruhlarga ajratilishi……. 84
Kenjayev T. Zamonaviy adabiy tafakkur va Fitrat konsepsiyasi…….. 89
Baxriddinova B. O‘zbek me’yoriy lug‘atchiligi: muammo va yechimlar…… 94
Shahanov B.Ch. Badiiy asarda qahramon va ma’naviy mezonlar sintezi (Nazar Eshonqul hikoyalari misolida)…… 98
Ne’matova Y.O. Oykonimiya masalasining turkologiya va o‘zbek tilshunosligidagi nazariy tahlili 103
Kamolova N. Epik qolip shakllari va tasvir vositalarining doston strukturasidagi o‘rni….. 107
Noraliyeva D. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida uslubiy vositalarning o‘rni..... 110
Niyazova D.X. Matn yaratilishida pretsedent birliklarning o‘rni……... 113

PEDAGOGIKA

Radjabova I. Dars mashg‘ulotlarini hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etishda tayaniladigan ilmiy-pedagogik tamoyillar……. 118
Nuraliyeva O‘.Sh. Kurashchi talabalarning texnik va jismoniy tayyorgarligini majmuaviy aylanma mashg‘ulot uslubida samarali rivojlantirish..... 124
Xurramov J.Q. Maktab o‘quvchilarining tezlik-kuch qobiliyatlarini ekstensiv-oraliqli aylanma mashg‘ulot uslubi vositasida rivojlantirish…….. 129
Khazratqulova O.A. Pedagogical and psychological foundations of improving educational tasks in philological education…… 132
K.Dusyorova Yoshlar tarbiyasida axborot madaniyatini shakllantirish..... 135
Xolmurodova L.E., Salimova A.B. Kimyoda moddalarni simmetrik ko‘rinishlarga ajratish asosida o‘qitish metodikasi takomillashtirish uslublari..... 139
Bo‘riyeva T.A. Tajriba jarayonida bolalarning tabiatga oid tadqiqiy-ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi..... 142
Abduraxmonova T.R. Yuqori molekulyar birikmalar kimyosi fanidan polimerlar sintezi mavzusini grafik organayzerlar hamda axborot kommunikatsion texnologiyalari asosida o‘qitish…… 146
Jabbarova L.T. Muzey binolari dizaynining me’moriy va badiiy xususiyatlariga oid xorijiy tadqiqotlarning o‘rganilishi…… 152
Zaripov N.N. Informatika fanini o‘qitishda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish metodikasi..... 157
Rajabov M.B. C++ dasturlash tilida maktab o‘quvchilarining grafik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi……. 161
Samandarova Sh.M. Studying linked lists and simple operations performed on them using swot analysis in dynamic data structures…….. 165
Abdusamiyev D.A. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish kasbiy identifikatsiyaning namoyon bo‘lish omili sifatida……... 169
Razzoqov I.D. Fizika fanini o‘qitishda multimediali texnologiyalardan foydalanish samaradorligi……..... 173
Meyliyev A.X. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni strategik boshqarishning integrativ tizimi..... 177
Toshpulatov A.X. Adabiyotni tarix fani bilan gorizontal, vertikal bog‘lab o‘qitishda o‘quvchi badiiy tafakkurini rivojlatirish shakl, metod va vositalari..... 182
Mustafoyev E. Oliy ta’lim muassasalarida fizika yo‘nalishi talabalarini amaliy kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or mahalliy va xorijiy tajribalar tahlili..... 187

PSIXOLOGIYA

Muqimova D.Sh. Ilmiy uslubdagi matnlarni tushunishda til vositalarining psixolingvistik tahlili..... 193

G‘UZOR BEKLIGINING MADANIY HAYOTIGA CHIZGILAR (XIX asrning oxiri – XX asr boshlari)

Ernazarov Azim Xudoyqulovich
Osiyo texnologiyalar universiteti
Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar
kafedrasi dotsenti v.b., t.f.f.d (PhD)
ernazarov.85@bk.ru
ORCID-0009-0001-2825-8068
UDK 94:(575.152)

Annotatsiya. Ushbu maqolada G‘uzor bekligi davrida adabiyot sohasida ko‘plab shoirlar yetishib chiqqanligi, ular amirlik adabiyoti rivojiga emas, balki vatanimiz madaniyatiga ham katta hissa qo‘shganligi, jumladan, Ahmad Donish davri ma’rifatparvarligi, xususan, Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy hayot, uning mehnatkash xalq ruhiyatiga ta’sirini o‘rganish, milliy o‘zlikni anglashda, tariximizni o‘rganishda katta ahamiyatga ega ekanligi ilmiy dalillar asosida yoritib berilgan.

Shuningdek, maqolada beklik hududida faoliyat yuritgan madrasalar har qaysisi o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari (karomatlari) bilan mahalliy aholi va xorijiy sayyohlar uchun ahamiyatli ekanligi bilan ajralib turganligi, aholining turli tabaqa vakillarining ta’lim olishi uchun nafaqat erkaklar, balki ayollar ta’limiga e’tibor qaratilganligi to‘g‘risidagi ilmiy va arxiv ma’lumotlari dalillari asosida tahlil etib berilgan.

Tayanch so‘zlar: Madaniy-ma’naviy, hadisshunos, muhaddis, ilmiy meros, tasavvuf nomoyandalari, G‘uzor bekligi, adabiyot sohasi, shoirlar, tarixiy asar, hajv san’ati, Ahmad Donish, ma’rifatparvar, huquqiy va falsafiy fikrlar, madrasa, maktab ta’limi, xattotlik san’ati.

DRAWINGS ON THE CULTURAL LIFE OF THE GHUZOR BEYLIK (PRINCIPALITY) (Late 19th - Early 20th centuries)

Abstract. In this article, it is highlighted on the basis of scientific evidence that many poets developed in the field of literature during the period of Guzor noble-province, that they made a great contribution not only to the development of Emirate literature, but also to the culture of our country, including the enlightenment of the Ahmad Donish era, in particular, the socio-political life in Bukhara, its impact on the psyche of the working people, the understanding of national identity, and the study of our history.

Also, in the article, the information about the fact that each of the madrasahs operating in the belik area is distinguished by its unique features (characteristics) and is important for local residents and foreign tourists, and that attention is paid to the education of not only men but also women for the education of representatives of different classes of the population, is analyzed on the basis of scientific and archival data.

Keywords: Cultural-spiritual, hadith scholar, muhaddis, scientific heritage, Sufism figures, Guzar noble-province, literature, poets, historical work, comic art, Ahmad Donish, enlightener, legal and philosophical thoughts, madrasa, school education, poetry art.

Kirish. Buxoro amirligi(1756–1920)ning nufuzli bekliklaridan biri G‘uzor bekligi madaniy-ma’naviy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarda yetakchi shaharlardan biri bo‘lganligi tarixdan ma’lum.

Xususan, g‘uzorlik hadisshunoslardan sanalgan Abu Horun Muso ibn Ja’far al-Xuzoriy al-Keshiy xuzorlik olimlardan biri bo‘lib, ilm o‘rganish maqsadida Iroq, Hijoz shaharlariga boradi, keyinchalik Xurosonga qaytib, Ahmad ibn Solih al-Makkiy va Muhammad ibn Zanbur al-Makkiydan ta’lim olib, zamonasining muhaddislardan bo‘lib yetishadi. Ustozlar tarbiyasini olgach, o‘zi ham keyinchalik Hammod ibn Shokir an-Nasafiy va Muhammad ibn Zakariyo an-Nasafiy kabi hadisshunoslarni tarbiya etgan[1:168-169].

Ummaviylar davlati tarixiga bag‘ishlab yozilgan “Ad-davlatu al-Umaviyya” asarining muallifi shayx Muhammad al-Xuzoriy ham “Xuzor” diyorining olimlaridan biri sanaladi. Shayx Abu Abdulloh Muhammad ibn Ibrohim al-Xuzori al-Yamani bo‘lib oltmish yil umr kechirgan, undan “Al-Mufid fi ilmi al-qiroat as-samoniya” asari meros qolgan[2:89].

Tadqiqot metodologiyasi. G‘uzorda yashab ijod qilgan yana bir tasavvuf olimi Muhammad Xojai Xindu ibn Xojai Kalon ibn Muhammad (Basir) al-Xuzoriy bo‘lib, taxminan XVI asrda yashagan, dastlabki ilmni G‘uzorda olgach, keyinchalik ilm tahsilini Buxoro va Samarqand madrasalarida davom ettiradi. Ustozi vafotidan keyin Buxoroning Navohi degan manzilida maskan qilib, ko‘p shogirdlarni tarbiyalaydi.

Muhammad Xojai Xindu “Mazhar ul-ajoyib va majma” ul-g‘aroyib” asarining muallifidir. Mazkur asar O‘zFAShI qo‘lyozmalar fondida inv №-8176/1 raqam ostida saqlanmoqda[3:1].

Hofiz Basir Muhammad al-voiz al-Xuzoriy, u kishining ustozi hazrat mavlono Ali Bovardiy, u kishining ustozi mavlono Alouddin Maktabdor Obiziy, u kishining ustozi Sa'dudiddin Qoshg'ariy, u kishining ustozi Nizomuddin Xomush Farkatiy, u kishining ustozi xoja Alouddin Attor, u kishining ustozi hazrat xoja Bahouddin Naqshband[4:89] bo'lgan.

Hofiz Basir Muhammad al-voiz al-Xuzoriyning shogirdi amir Ali Azizon Samarqandiy Mazohiniy, u kishining shogirdi Mustafoquli Azizon turkman, u kishining shogirdi Hasanquli Azizon Xorazmiy, u kishining shogirdi qozi Muhammad Azizon Xorazmiy, u kishining shogirdi Jonmuhammad Azizon Xorazmiy hisoblanadi.

Shuningdek, Abu Horun Muso ibn Ja'far al-Xuzoriy al-Keshiy, shayx Muhammad al-Xuzoriy, Shayx Abu Abdullah Muhammad ibn Ibrohim al-Xuzori al-Yamani, Muhammad Xojai Xindu ibn Xojai Kalon ibn Muhammad (Basir) al-Xuzoriylar ham o'sha davrda yashab, ijod etishgan, biroq ularning ilmiy merosi hozirgi kungacha o'rganilgan emas.

Natijalar va muhokama. Tasavvuf nomoyandalari va hadisshunoslar asarlari qatorida xuzorlik hattotlar, jumladan, Mirzo Omon ibn Eson Xuzoriy tomonidan Abulg'ozi Bahodirxon qalamiga mansub bo'lgan "Shajarai tarokima" asari mohirlik bilan ko'chirilgan. "Shajarai tarokima" asarining mazkur nusxasi hijriy 1341/1923-yilda ko'chirilgan, hozirda O'zFAShI qo'lyozmalar fondida inv №-1223 raqami ostida, Mirzo Fayzulloh Xuzoriy Mullo Muhammad Rahim Bobo devonayi Namangoniyning "Mabdayi Nur" asarini ko'chirgan. O'zFAShI qo'lyozmalar fondida inv №-224/1 raqami ostida, hijriy1269/1852-1853-yilda ko'chirilgan, Mirzo Fayzulloh Xuzoriy Mullo Rahim Boboyi (Eshon shoh Mashrab devona) Namangoniyning "Devoni Mashrab" asarining O'zFAShI qo'lyozmalar fondida inv 224/P raqami ostida saqlanayotgan nusxasini, 1854-1855-yilda ko'chirgan, Xudoyquli Xuzoriy tomonidan Burxoniddin az-Zarnujiy al-Xanafiyning (1203-yilda yozilgan) qalamiga mansub bo'lgan "Ta'lim al-mata'limul ta'lim tariq al-olam" nomli asarini O'zFAShI qo'lyozmalar fondidagi inv № 8730/XU raqam ostida saqlanayotgan nusxasini mohirlik bilan ko'chirgan.

G'uzor bekligi davrida adabiyot sohasida ko'plab shoirlar yetishib chiqdi. Ular amirlik adabiyoti rivojiga emas, balki Vatanimiz madaniyatiga ham katta hissa qo'shdilar.

Amir Nasrullo hukmronligi davrida (1826-1860) G'uzor hokimi bo'lgan Muhammad Olimbekning topshirig'i bilan G'uzorda "Fathnomai Sultoniy" ("Sulton zafarnomasi") nomli tarixiy asar yozildi[5:207-208].

"Fathnomai Sultoniy" asarining birinchi qismi marhuma O.D. Chexovich tarafidan rus tiliga tarjima qilingan. Tarjimaning qo'lyozmasi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanmoqda[9].

To'ralar, hokimlar o'zgarib turgani bilan xalqning ahvoli yaxshilanmadi, xalq og'ir ahvolda yashadi. Ana shu davrda to'ralar, boylar zulmiga qarshi turuvchi va o'z noroziligini ochiq bayon qiluvchi kishilar ham chiqa boshladi. XIX asrda yashab o'tgan mardtepalik Mulla Islom ana shunday kishilardan biri edi.

Mulla Islom Xo'jaqul o'g'li XIX asrning o'rtalarida G'uzorning Eskibog' qishlog'ida tug'ilgan bo'lib, u Islomiy taxallusi bilan asarlar yozgan. Buxoro amirligiga mansub G'uzor to'raligi mahkamasida mirzolik vazifasida ishlagan Mulla Islom o'z davrining ilg'or kishilaridan biri edi. Mehnatkash xalqning azob-uqubatga to'la hayoti, amir va uning amaldorlari xaloyiqqa ko'rsatayotgan zulmi Mulla Islom qalbida amirlik tuzumiga qarshi nafrat va g'azab uyg'onishiga sabab bo'ldi. Islomiy mazlum kishilarga, xo'rlangan va haqorat qilinganlarga ariza yozib berganligi (shunisi qiziqarliki, keksa kishilarning guvohlik berishicha, to'ra oldiga kelgan arzgo'ylarning arizasini u ko'pincha she'riy yo'l bilan bitgan), oddiy mehnatkash xalqqa xayrixohligi va, nihoyat, to'ra hamda uning amaldorlarini ochiqdan-ochiq hajv ostiga olgan asarlari uchun yuqori tabaqa vakillarining qahr-g'azabiga duchor bo'lgan. Dastlab u mirzolik mansabidan chetlatilgan, keyinchalik G'uzor to'rasi tomonidan bir necha marta kaltaklangan va zindonga tashlangan. Zulm-istibdod avj olgan zamonda yashagan shoir asrimizning 20-yillarida vafot etgan[6:4].

Islomiy o'z asarlarini bir devonga to'plaganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Lekin bu devon hozirgacha topilgan emas. Bizgacha shoirning o'g'li Mulla Fuzayl Islomov og'zidan yozib olingan ikkita asari: "O'pay" radifli g'azali va bir hajviyasi yetib kelgan. Bu asarlar shoirning qalami o'tkir bo'lgani va asar badiiy jihatdan pishiq ekanligidan dalolat beradi. Ayniqsa, uning "Bir bazm haqida hajv" nomli asari satira tig'ining beomonligi va badiiy-poetik xususiyatlari bilan Mavlono Muqimiyning hajviy she'rlariga o'xshab ketadi. Kunduz kunlari xalq qonini zulukday so'ruvchi,

kechalari esa bema'ni aysh-ishratga berilgan amaldorlarning manfur basharasi va kirdikorining Islomiy qalamidagi tasviri ayrim o'rinlarda ulug' Navoiyning "Hayratul-abror" dostonidagi shoh saroyida uyushtirilgan bazmlarni hajv qilishga bag'ishlangan o'rinlarga, ayniqsa, ichimlikni ko'p iste'mol qilganidan telba it darajasiga tushib qolgan ba'zi kishilarni masxara etuvchi misralarda bayon etilgan tanqidiy fikrlarga yaqin turadi.

Hajviyada jamiyatning oliy tabaqasiga mansub bo'lgan o'ndan ortiq amaldor va ularning xushomadgo'y malaylari tomonidan uyushtirilgan bazmning jirkanch oqibatlari fosh qilingan. Shoir mazkur she'ri uchun G'uzor to'rasi Said Akramxon tomonidan ellik darra bilan jazolandi va bir oy mobaynida zindon mashaqqatlarini chekishga majbur bo'ldi.

G'uzor shahrida yashagan ko'plab shoir va olimlarning nomlari ayrim manbalardagina saqlanib qolgan, xolos. Fayzullo Xuzoriy ismi ayrim adabiyotlarda qayd etilgan bo'lsa-da, lekin uning asarlari va hayoti haqida ma'lumotga ega emasmiz.

Ahmad Donish XIX asrning 70-yillari oxirida Buxorodan uzoqlashtirilib, G'uzorga qozi qilib yuboriladi. U 1885-yilga, amir Muzaffar vafotiga qadar, shu yerda yashab ijod etdi. Ahmad Donishni chiroyli husnixat sohibi bo'lgani uchun, mang'it amirlari saroyiga xizmatga olishgan. Donish tez orada amir saroyining bosh mirzasiga aylanadi[10].

Ahmad Donishning malakali husnixat egasi bo'lishi, geometriya, tarix, falsafa kabi fanlarni yaxshi bilishi, saroy xizmatkorlari orasida shuhratini yanada oshirgan. Xususan, Buxoro amirining o'zi ko'p masalalarda u bilan maslahatlashib ish ko'rgan. Ahmad Donish ma'lum vaqtlarda amir saroyida bosh me'mor vazifasida ham ishlagani, uning arxitektura sohasida ham o'z davri uchun a'lo darajadagi bilimga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

U 1875-1882-yillarda "Navodir ul-vaqoe'" ("Nodir voqealar") asarini yozadi. Mazkur asarda u mavjud qonun va davlat tartibini takomillashtirish orqali odil podshohning qo'li bilan qayta qurish mumkin deb hisoblagan. Ahmad Donish asarda amirga davlat boshqarish ishlarini qayta qurishni maslahat berdi va buning uchun amir g'azabiga uchrab, G'uzorga jo'natildi. Ahmad Donish o'zining "Nodir voqealar" asarini shu yerda yaratadi.

Ahmad Donish davri ma'rifatparvarligi, xususan, Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy hayot, uning mehnatkash xalq ruhiyatiga ta'sirini o'rganish, milliy o'zlikni anglashda, tariximizni o'rganishda katta ahamiyatga ega ekanligi, xususan, shu zamin farzandi bo'lgan Ahmad Donishdek buyuk siymoning hayot yo'li ibratlidir[7:4]. "Navodir ul-vaqoe'" XIX asr ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va falsafiy fikrlar oqimining ulkan ma'naviy merosi hamda nodir tarixiy manbadir.

Ahmad Donish "Tarjimayi ahvoli mang'itiya (Mang'it amirlari tarixi)", "Jadvali soati tulu' va g'urubu shash (Kun chiqish va botish soatlari)", "Taqvimi soli asb (Ot yili kalendari)", " Risolai fi amali kurra", "Munozara al-Kavokib", "Favondi mutafarrika dar ilmi nujum" kabi asarlarni yaratib, o'z ijtimoiy-falsafiy fikrlarni ilgari surish bilan birga, aniq fanlarning bilimdoni ekanligini namoyish etgan.

Maorif sohasida Buxoro amirligining boshqa bekliklari kabi G'uzor bekligida ham oliy ta'limga asoslangan madrasalar mavjud bo'lgan.

Madrasada mullalar (tolibi ilmlar) ta'lim olishgan. Dars jarayoni islomiy qonun-qoidalarga tayangan holda olib borilgan. Har bir madrasaning o'z egasi bor edi. Musulmon ruhoniylari vaqf yerlarining bevosita egasi edilar. Tokzorlar, tegirmonlar, moyjuvozlar, maktab, madrasa, kutubxonalar va turli imoratlar vaqf qilinib, diniy muassasa va tashkilotlarga berilishi mumkin edi.

Beklikda shu kabi madrasa ham vaqf qilib berilgan bo'lib, u shariat qonunlari asosida qozi tomonidan tasdiqlanib, uning muhri bosilgan edi. Muhrsiz vaqf qilingan narsa haqiqiy hisoblanmas edi[8:7]. XIX asrning boshidanoq G'uzorda oliy darajadagi madrasalar bo'lib, ularda ko'p mullalar ta'lim olishgan. Bu Amir Haydar va Hakimbek xatlarida qayd etilgan.

Bu davrda G'uzor bekligida juda ko'p diniy maktablar ishlab turgan. Bular asosan boshlang'ich maktablar edi. Beklikda muallimlikni kasb qilib olgan maktabdorlar, diniy ta'lim berish uchun ochilgan maktablar ham mavjud edi. Eng yaxshi maktabdorlar diniy ta'limdan tashqari birmuncha umumiy ta'lim ham berar edi. Ularning shogirdlari, odatda, mashhur shoir va adiblardan bir nechtasining devonlarini o'qib tushirardi, xat-savodini chiqarib, hisobdan ham bir qadar dars olardi. Maktabdorlarning shogirdlari, odatda, o'ziga to'q, badavlat oilalar farzandlaridan iborat bo'lgan. Shogirdlar o'qishni tugatganlaridan so'ng, bir qismi olgan bilimlarini savdo-sotiq ishlarida, kosibchilikda ishlatar, ba'zilari xattotlikni kasb qilib olar, bir qismi madrasaga kirar edi.

G'uzor bekligidagi maktabdorlar qo'lidagi shogirdlar sakkiz yilga yaqin tahsil ko'rganlar.

Maktablarning asosiy qismi, jumladan, qishloq maktablarining ko‘pchiligi oddiy musulmon boshlang‘ich maktablari edi. Ularda domla-imomlar yoki machitda xizmat qiluvchi biror din xodimlari muallimlik qilganlar.

Kambag‘al yoki hunarmand, odatda, farzandini o‘qishni tamom qilmasidan ancha ilgari maktabdan chiqarib olib, xo‘jaligida dastyor qilib ishlatishga majbur bo‘lardi, chunki farzandining o‘qishga kitobi bo‘lmasdi, qolaversa, savodini ishga soladigan joy ham yo‘q edi. Eski maktab kichkina bo‘lib, unda o‘rta hisobda 10-12 nafar shogird tahsil olardi. Madrasa uchun esa alohida bino qurilib, u, odatda, tevarak-atrofdagi binolardan hashamati bilan ajralib turardi.

XX asr boshlarida G‘uzor bekligidagi o‘rta madrasalarda, odatda, bittadan mudarris bo‘lardi. Shu mudarrisning o‘zi boshlang‘ich ta’lim mantiq ilmlari bilan birga, arab grammatikasidan ham, shariat asoslaridan ham dars berardi. Maktab va madrasalarda faqat erkaklar o‘qirdi. Shaharda ba’zan ayrim mudarrislarning xotinlari (otinoyilar) boshlang‘ich diniy ta’limdan dars berishardi. Ularda ruhoniylar domla, imomlarning, badavlat savdogarlarning qizlari, ba’zan o‘g‘il bolalar ham o‘qishardi. Maktablarda o‘zbek, arab va fors-tojik tillarida dars berilardi.

Xulosa va takliflar. Buxoro amirligi Chor Rossiyasi tasarrufiga o‘tganidan keyin o‘lka tarixini, o‘tmishini, geografik o‘rnini o‘rganishga katta e’tibor berildi. XIX asrning ikkinchi yarmida bir qancha rus olimlari, tarixchilari Buxoro amirligini o‘rganish bo‘yicha ish olib bordi. P.I. Lerx, V.V. Bartold, V.L. Vyatkin, M.A. Terentev, L.A. Ziminlarning G‘uzor bekligi tarixi, geografik o‘rni, xalqi, arxeologik yodgorliklari borasida o‘tkazgan ilmiy-tadqiqotlar natijasida anchagina qimmatli ma’lumotlar to‘plandi. Ular olib borgan ilmiy tadqiqotlar fanni rivojlantirishga qo‘shilgan katta hissa bo‘libgina qolmay, G‘uzor bekligi tarixi uchun ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulkarim Ibn Muammad as-Sam’oniy. Kitob al-ansob (Nasabnoma. VIII-XII asrlarda yashagan o‘rtaosiyolik allomalar haqida ma’lumot). Tarjimonlar: Xoja Abdulgafur Razzoq Buxoriy, Komiljon Rahimov. tadgaza.ig sayti. –Toshkent. –B. 168-169.

2. Ernazarov A. G‘uzor bekligida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar.(XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari). –Qarshi, 2023.

3. O‘zFAShI qo‘lyozmalar fondida inv №-8176/1 raqam

4. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Arab yozuvidan tabdil etgan, kirish va izohlar mualliflari Sh.Vohidov, I.Bekchanov va N.Polvonov. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. –B. 89.

5. Ahmedov B.A. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. –Toshkent: O‘qituvchi, 1991. –B. 207-208.

6. Sharipov Sh. Islomiy. Yangi hayot. // 1993. №16. –B.4.

7. Rahmonov T., Orziyev M. Ikki tarixiy siymo: Ahmad Donish va Sadriddin Ayniy. –Buxoro: Durdona, 2015. – B.4.

8. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Том II. С.-Петербург: 1911. С. 7.

9. Зафарномайи Хусравий. (Бухоро амирлиги амир Насруллоҳ даврида). Форс-тожик тилидан таржимонлар, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифлари Шодмон Воҳидов ва Шерали Жўраев. –Тошкент: Тарихий мерос, 2011.

10. Жўраев А. Ғузор тарихи. -Тошкент: Turon zamin ziyo, 2017.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATI VA UNING MOHIYATI

O‘ralov G‘aybulla Aliqulovich
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi
oralovgaybulla@gmail.com
ORCID 0009-0006-2827-331X
UDK 950:796.5-05(021)

Annotatsiya. O‘zbek xalqining boy madaniy merosi, uning qadriyatlari va tarixiy irsini saqlashga yo‘naltirilgan faoliyatlar davom etmoqda. Yodgorliklar va madaniy meros obyektlariga nisbatan yangi, zamonaviy yondashuvlar va me’yorlar ishlab chiqildi, ularni saqlash va yangidan tiklash jarayonlarida ilmiy va texnikaviy yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etdi. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekistonning madaniy identitetini mustahkamlashga va xalqning milliy xotirasini saqlashga xizmat qilmoqda. Shu asnosida ularni o‘rganish, sovet yillarida xarobaga aylantirilgan yodgorliklarni ta’mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari olib borildi. Shu nuqtayi nazardan ham moddiy madaniy meros obyektlari muhofazasini kuchaytirish, tarixiy-madaniy meros obyektini asrab-avaylash, kelajak avlodga ularning bemisl go‘zalligini saqlagan holda yetkazish, mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish maqsadida yurtimizda qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Tayanch so‘zlar. O‘zbekturizm, Amir Temur, turizm, Ko‘kgumbaz, Buyuk Ipak yo‘li, Chubin.

STATE POLICY IN THE FIELD OF TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN IN THE YEARS OF INDEPENDENCE AND ITS ESSENCE

Abstract. Activities aimed at preserving the rich cultural heritage of the Uzbek people, their values and historical heritage continue. New, modern approaches and norms have been developed in relation to monuments and objects of cultural heritage, scientific and technical in the processes of their preservation and restoration. the use of approaches became important. This, in turn, serves to strengthen the cultural identity of Uzbekistan and preserve the national memory of the people. repairs and reconstruction of monuments were carried out. From this point of view, it is necessary to strengthen the protection of material cultural heritage objects, to preserve historical and cultural heritage objects, to present their incomparable beauty to future generations. A number of normative and legal documents were adopted in our country in order to preserve and increase the tourism potential of our country.

Keywords. Uzbek tourism, Amir Temur, Tourism, Kokkumbaz, Great Iraq Road, Shubin.

Kirish. O‘zbekiston mustaqillikka erishgan ilk kunlaridan boshlab, boshqa sohalar kabi, Respublika hududidagi moddiy va nomoddiy yodgorliklarga munosabat ham tubdan o‘zgardi. Mustaqillik davrida yodgorliklar faqat tarixiy va madaniy meros sifatida emas, balki milliy g‘urur manbai sifatida ham qarala boshlandi. Bu davrda yodgorliklarni saqlash, tiklash va ularning ahamiyatini kelajak avlodlarga yetkazish bo‘yicha bir qator yirik loyihalar amalga oshirildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, determinizm tamoyillari, tizimli yondashuv, xolislik tamoyillari kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq taraqqiyotning ustivor yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilgani turizmning ushbu sohaning rivoji uchun zarur tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning vujudga keltirilgani bunda turizm sohasiga oid ishlab chiqilgan ilk me’yoriy hujjat – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 27-iyuldagi 447-sonli “O‘zbekturizm” MKni tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni [1] va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 20-oktyabrdagi 484 sonli “O‘zbekturizm” Milliy Kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari haqida”gi Qarori [2] mamlakatimizda jahon andozalariga javob beradigan turizm tizimini barpo etish, ushbu soha boshqaruvini takomillashtirish, uning iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish, shuningdek, mamlakatimizda mavjud bo‘lib va u sobiq Shuningdek, “O‘zbekturizm” Milliy Korporatsiyasini tuzish ham ushbu turizm sohasini yanada rivojlantirish va xalqaro miqyosda O‘zbekistonni taniqli qilish bo‘yicha muhim qadamdir.

“O‘zbekturizm” MK ning tashkil etilishi, barcha turistik xizmatlar va infrastruktura obyektlarini bir tizimda boshqarish, yangi xizmatlar va mahsulotlarni ishlab chiqish, milliy turizm brendini yaratish kabi vazifalarni o‘z oldiga qo‘ygan. Mazkur farmon va qarorlar orqali turizm sohasidagi davlat siyosatini yanada rivojlantirish, xalqaro standartlarga mos ravishda yangi xizmat turlarini joriy etish, turizmni iqtisodiy o‘sish manbaiga aylantirish kabi muhim maqsadlarga erishish rejalashtirilgan. Shunday qilib, ushbu tashabbuslar O‘zbekiston turizm sohasining yangi davriga o‘tishini va uning butun dunyo miqyosida rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi [3:110].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-fevraldagi 64-sonli qarori madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish va saqlash, shuningdek, turizm salohiyatini oshirish sohasidagi muhim va dadil qadamlardan biri bo‘ldi. Ushbu qaror, avvalo, O‘zbekistonning boy madaniy merosini asrab-avaylash, uni avloddan-avlodga yetkazish va dunyo miqyosida tanitish maqsadida qabul qilindi.

1992-yilgi qaror, tarixiy yodgorliklarni qayta tiklash, ularning holatini yaxshilash, arxeologik va me’moriy obidalarni to‘g‘ri boshqarish tizimini yaratish kabi vazifalarni o‘z ichiga olgan. Shu bilan birga, bu qaror madaniy yodgorliklarni turizm sektori uchun ham muhim resurs sifatida ko‘rish, mamlakatning turistik salohiyatini rivojlantirish va uning xalqaro darajada tanilishini ta’minlashga qaratilgan edi.

Bu qaror madaniy va tarixiy obidalar, shuningdek, turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasida hukumat tomonidan amalga oshirilgan dastlabki jiddiy tashabbuslardan biri sifatida tarixda qoladi. Qaror asosida, O‘zbekistonning turizm va madaniyat siyosati doirasida bir qator qonunlar va normativ hujjatlar ishlab chiqildi, bu esa turizmni milliy iqtisodiyotning muhim sohalaridan biriga aylantirish imkonini berdi.

Shu tariqa, 1992-yilgi qaror O‘zbekistonning madaniy yodgorliklarini muhofaza qilish va

ularni turizm sohasiga jalb qilish bo‘yicha kuchli asos yaratdi, shuningdek, turizmni iqtisodiy rivojlanishning muhim yo‘nalishiga aylantirish uchun imkoniyatlar yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1994-yil 29-dekabrda “Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to‘g‘risida” qaror qabul qildi.[4] Qarorga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi va moliya vazirligi bir oy muddatda Fanlar akademiyasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari bilan birgalikda Amir Temur nomi bilan bog‘liq obidalar va qadamjolarni ta’mirlash, konservatsiyalash va obodonlashtirish dasturlarini ishlab chiqish yuklatilgan edi.

1994-yilda Shahrisabzdagi mavjud 19 ta tarixiy madaniy yodgorlikning 16 tasi respublika ahamiyatiga ega bo‘lib [5:128], ulug‘ alloma Mirzo Ulug‘bekning tavalludining 600 yilligiga tayyorgarlik munosabati bilan shahardagi “Koba”, “Chorsu”, “Kunduzak”, “Og‘alik” yodgorliklari to‘liq ta’mirlandi. Bu yodgorliklar nafaqat tarixiy va madaniy merosni saqlash, balki Shahrisabzni turizm markaziga aylantirish uchun ham muhim ahamiyatga ega edi. Mirzo Ulug‘bekning tavalludi va uning ilmiy, madaniy yutuqlarini nishonlash uchun amalga oshirilgan bu ishlar, nafaqat O‘zbekistonning tarixiy obidalarini asrab-avaylash, balki jahon miqyosida uning madaniy merosini tanitish uchun ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Yodgorliklarni ta’mirlash va restavratsiya qilish ishlari, Shahrisabzni o‘zining me’moriy obidalariga ko‘ra jahon turizm xaritasiga kiritish maqsadida amalga oshirildi. Mirzo Ulug‘bekning 600 yillik yubileyi munosabati bilan amalga oshirilgan bu ishlar O‘zbekistonning tarixiy merosini yanada yaxshiroq saqlash, dunyo miqyosida tanitish va turizmni rivojlantirishga xizmat qildi. Ko‘kgumbaz, tarixiy hammom, Chubin yodgorliklarini ta’mirlash davom ettirildi, shahar tarixiy turistik shahar sifatida ko‘rkam shaharga aylanib bordi.

1994-yilda ishlab chiqilgan “Turistik korxonalarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish dasturi” chuqur tizimli – institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirishda juda katta ahamiyat kasb etdi. 1994 – 1995-yillar mobaynida “O‘zbekturizm” Milliy Kompaniyasining 87,8 foiz turistik obyektlari xususiylashtirildi va davlat tasarrufidan chiqarildi [6].

1995-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklashda O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi[7] Farmoni Buyuk Ipak yo‘lida turistik aloqalarni tiklash, O‘zbekistonning tarixiy va madaniy merosini saqlash, shuningdek, iqtisodiy va madaniy rivojlanishni ta’minlash borasida strategik ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bu yo‘l, qadim zamonlarda Sharq va G‘arb o‘rtasida savdo, madaniyat va ilm-fan almashinuvi uchun muhim yo‘l bo‘lgan va uning rivoji O‘zbekiston uchun turizm va xalqaro aloqalar sohasida katta imkoniyatlar yaratmoqda. Qashqadaryo viloyatining markaziy shaharlari – Qarshi va Shahrisabzda madaniy meros obyektlarida ta’mirlash, konservatsiyalash va muzeylashtirish ishlari olib borildi. Bu ishlar, nafaqat tarixiy yodgorliklarni saqlash, balki Buyuk Ipak yo‘lini o‘rganish va u bilan bog‘liq turizm salohiyatini rivojlantirish maqsadida amalga oshirildi.

1996-yil aprel oyida O‘zbekiston “Butunjahon madaniyat va tabiat merosini saqlash konvensiyasi”ga qabul qilindi. Mazkur konvensiyaning umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan boyliklarni hisobga olish “Butunjahon merosi ro‘yxati”ga 1996-yil iyun oyida respublikaning 22 ta tarixiy yodgorligi ro‘yxati yuborilgani [8] madaniy merosni asrab-avaylash, targ‘ib etish hamda turizm rivoji uchun qilinishi lozim bo‘lgan amaliy ishlarimiz natijasi ekanligidan dalolat beradi. O‘zbekistonning moddiy va madaniy merosini o‘rganish, muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalarini nazorat qilish va boshqarish uchun davlat muassasalari qayta tashkil etilib, ularning faoliyati takomillashtirildi. Bu jarayon, mamlakatning madaniy merosini saqlash, ilmiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash va xalqaro miqyosda tanitish maqsadida amalga oshirilgan. Ushbu harakatlar O‘zbekistonning moddiy va madaniy merosini asrab-avaylash, xalqaro miqyosda tanitish va mamlakatning ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilgan strategik qadamlardan biridir.

Mazkur muassasalar rahbarligida davlat muhofazasiga olinishi zarur yodgorliklar ro‘yxati kengaytirildi. Shu paytga qadar yetarlicha o‘rganilmagan yodgorliklarda ilmiy tadqiqotlar olib borish, tiklash va ulardan respublika iqtisodiy salohiyatini oshirishda, turizmni rivojlantirishda keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi davlat dasturlari ishlab chiqildi. Shu munosabat bilan tarixiy-me’moriy yodgorliklar va shaharsozlik obyektlarini qamrab olgan xalqaro sayyohlik yo‘nalishlari yo‘lga qo‘yildi.

1999-yilning 20-avgustida esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “Turizm

to‘g‘risida”[9]gi Qonun qabul qilindi. Qonun hujjatlari millatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlashga ko‘maklashish hamda xalqaro turizm bozoriga uzviy qo‘shilish, O‘zbekistonning madaniy-tarixiy va ma’naviy merosini jahon hamjamiyatida targ‘ib qilish, shuningdek, sayyohlarga xizmat ko‘rsatish sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish, mamlakatning turizm va madaniyat sohasidagi strategik dasturiga aylangan. Ushbu dastur, nafaqat O‘zbekistonning tarixiy boyliklarini saqlash, balki ularni jahon miqyosida tanitish va sayyohlarni jalb qilish orqali iqtisodiy va madaniy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashni maqsad qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2000-yil 18-martdagi 911-sonli – “Turistik xizmatlarni sertifikatsiyalash haqida” [10]gi Qarori turizm obyektlari sonini ortishi uchun shart-sharoitlar yaratib berdi.

2000-yildan boshlab, Respublikamiz turizm sohasi yuqori sur’atlar bilan rivojlanish pallasiga kirdi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Turizm sohasidan olinayotgan daromadlar yiliga 20 % va undan ortiq foizlarda o‘sdi. 2001-yilning oxirida Afg‘onistondagi tolibonlarga qarshi harakatlarning boshlanishi o‘lkamizga kelayotgan turistlar oqimini ikki yil davomida ancha kamaytirib yuborishiga sabab bo‘lgach, 2003-yilning ikkinchi yarmiga kelib, o‘lkamiz turizmi yana o‘zini o‘nglab oldi [11].

O‘zbekistonning 2001-yil 30-avgustdagi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni, mamlakatning madaniy merosini asrab-avaylash, saqlash va undan samarali foydalanish bo‘yicha aniq huquqiy asoslarni yaratdi. Bu qonun orqali O‘zbekiston jahon hamjamiyatiga o‘z madaniy merosini yanada ko‘proq tanitish, sayyohlarni jalb qilish va ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyatlarini yaratdi. Ushbu qonun 7 bob 33 ta moddadan iborat bo‘lib qonunning asosiy maqsadi yurtimizning umummilliy boyligi bo‘lmish madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo‘ldi. Mazkur qonunda madaniy meros obyektlariga nisbatan asosiy tushunchalar (ansambl, diqqatga sazovor joylar, yodgorliklar, madaniy meros obyektlari, nomoddiy madaniy meros obyektlari) mazmun mohiyati va tuzilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Respublika ahamiyatidagi moddiy madaniy meros obyektlarining, shu jumladan, Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan obyektlarning hududlari va muhofaza hududlaridan foydalanish tartibotlarini tasdiqlab; tarixiy-madaniy qo‘riqxonalarni, muzey-qo‘riqxonalarni va tarixiy manzilgohlarni tuzish tartibi hamda saqlash tartibotini belgilab; madaniy meros obyektlarini tarixiy-madaniy ekspertizadan o‘tkazish tartibini belgilab berdi.

O‘zbekistonning moddiy va madaniy merosini o‘rganish, muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalarini nazorat qilish va boshqarish uchun davlat muassasalari qayta tashkil etilib, ularning faoliyati takomillashtirildi. Bu jarayon, mamlakatning madaniy merosini saqlash, ilmiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash va xalqaro miqyosda tanitish maqsadida amalga oshirilgan. Ushbu harakatlar O‘zbekistonning moddiy va madaniy merosini asrab-avaylash, xalqaro miqyosda tanitish va mamlakatning ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilgan strategik qadamlardan biridir.

So‘nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirish, turistlarga yetarli sharoitlar yaratish, turizm infratuzilmasini shakllantirish hamda turistlarning xavfsizligini ta’minlash borasida belgilangan chora-tadbirlar huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlanib borildi.

Xulosa va takliflar. Xulosada shuni aytish mumkinki, mustaqillik yillarida O‘zbekiston madaniy merosini asrab-avaylash va ulardan samarali foydalanish borasida izchil va maqsadli ishlar olib borildi. Madaniy meros obyektlarini saqlash, ularni ilmiy jihatdan o‘rganish va turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan davlat siyosati shakllantirildi va amalda joriy etildi. Bu jarayonlarning natijasida mamlakatning madaniy va tarixiy obidalarini himoya qilish tizimi takomillashtirildi, shuningdek, turistik salohiyatni oshirish uchun zarur infratuzilma yaratildi.

Davlat tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar va qarorlar, xususan, “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar madaniy merosning saqlanishi va ilmiy izlanishlar olib borish uchun mustahkam huquqiy asoslar yaratdi. Bu o‘z navbatida, arxeologik, me’moriy va madaniy yodgorliklarni saqlash va ularni turizm maqsadlarida foydalanish borasida muhim qadamlarni tashlashga imkon berdi.

Shuningdek, O‘zbekistonning madaniy merosini sayyohlik maqsadlarida rivojlantirish, uning turistik salohiyatini oshirish va jahon hamjamiyatida tanitish uchun keng qamrovli loyihalar amalga oshirildi. Bularning barchasi O‘zbekistonning iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga, xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilishga, ularni qayta ta’mirlash-tiklash ishlariga, madaniy meros obyektlarini imkon qadar asl ko‘rinishida saqlab qolishni ta’minlashga, ushbu obyektlarda turizm salohiyatini oshirish, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda va bunday jarayonlar davlatning hamda jamiyatdagi qadriyatlarning saqlab qolinishi va keyingi avlodga yetkazilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy va madaniy yodgorliklarning holatini doimiy ravishda nazorat qilib borish, bu boradagi ayrim negativ holatlarning oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va viloyat hokimliklari qoshida tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish davlat inspeksiyasi tashkil etildi. Ushbu idoraning inspektorlari zimmasiga joylarda tarixiy va madaniy yodgorliklar holatining monitoringini yo‘lga qo‘yish hamda muntazam ravishda tegishli davlat organlariga takliflar bilan chiqish vazifasi yuklatildi.

Respublika hukumati tarixiy va madaniy yodgorliklarni qayta tiklash ishiga katta e’tibor qarata boshladi. Bu ishlar asosan davlat byudjeti hisobidan amalga oshirildi. Ayni vaqtda homiylar, xayriya jamg‘armalari va “Oltin meros” jamg‘armasining imkoniyatlari ham ishga solindi. Amalga oshirilgan bunday keng ko‘lamli ishlar tarixiy obidalarning umrini uzaytirish va yangi turistik marshrut yo‘nalishlarini tashkil etish imkoniyatlarini yaratishi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekturizm” MKni tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni ./ Xalq so‘zi. 1992-yil 27- iyul, 183- son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekturizm MK faoliyatini tashkil etish masalalari haqida”gi Qarori // Xalq so‘zi, 1992-yil 22-oktyabr, 289-son
3. Allaberganov A.A. Turizm industriyasi. – Toshkent:Talqin, 2004. –B.110
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 29 декабрдаги 630-сонли қарори.
5. Ҳакимов Н. Жўрақулов О. Шаҳрисабз тарихи. –Toshkent, 2001. –B. 128.
6. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi joriy arxiv materiallari. 2022-yil,yanvar.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 2-iyundagi PF-1162-sonli “Buyuk Ipak yo‘lini qayta tiklashda O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar” Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009, 25-son, 282-modda.
8. O‘zMA, M-7-fond, 1-ro‘yxat, 369-yig‘ma jild, 81-varaq.
9. O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi 830-I-sonli “Turizm to‘g‘risida”gi Qarori. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999, 9-son, 227-modda.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 18-martdagi 911-sonli “Turistik xizmatlarni sertifikatsiyalash haqida”gi Qarori. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to‘plami, 2013-yil, № 34, st. 465.
11. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi joriy arxiv materiallari. 2022-yil, yanvar.

XX ASRNING 60–70-YILLARIDA CHORVACHILIKDAGI KADRLAR MASALASI

Djurayev Ravshan Xurramovich
O‘zbekiston Milliy universiteti
Jahon tarixi kafedrasi dotsenti (PhD)
ravshandjurayev@gmail.com
ORCID 0000-0002-9073-8155
UDK 94(575.171)(072)

Annotatsiya. 1950–1960-yillarda O‘zbekiston SSRda chorvachilik xalq xo‘jaligining muhim tarmog‘i bo‘lib, respublika iqtisodiyotida katta o‘rin egallagan. Davlat tomonidan chorvachilikka e’tibor kuchaytirilib, yaylovlar kengaytirildi, yem-xashak bazasi mustahkamlandi. Sut, go‘sht, jun, charm mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshdi. Kolxoz va sovxozlar chorvachilikni rivojlantirishda asosiy rol o‘ynadi. Texnika va ilm-fan yutuqlari joriy etilib, zotdor chorva yetishtirishga e’tibor berildi. Chorvachilik mahsulotlari ichki bozor va eksport uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur maqolada XX asrning 60–70-yillarida O‘zbekiston SSRdagi kolxoz va sovxozlarda chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi kadrlar, ularning ijtimoiy himoyasi, mehnatga rag‘bat tizimlari haqida mulohazalar qilinadi.

Kalit so‘zlar. Chorvachilik, sovxoz, kadrlar muammosi, ijtimoiy himoya, sut, cho‘chqachilik.

THE ISSUE OF LIVESTOCK PERSONNEL IN THE 60S-70S OF THE 20TH CENTURY

Abstract. In the 1950s-1960s, animal husbandry was an important branch of the national economy of the Uzbek SSR and occupied a large place in the republic's economy. The state increased attention to

animal husbandry, expanded pastures, and strengthened the fodder base. The volume of production of milk, meat, wool, and leather products has increased. Collective and state farms played a key role in the development of animal husbandry. Advances in technology and science have been introduced, and attention has been paid to breeding pedigree livestock. Livestock products have become important for the domestic market and exports. This article discusses personnel engaged in animal husbandry in collective and state farms of the Uzbek SSR in the 60s-70s of the 20th century, their social protection, and labor incentive systems.

Keywords. Animal husbandry, state farm, personnel problem, social protection, dairy, pig farming.

Kirish. KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar Soveti 1966-yil 16-mayda “Ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishdan kolxozchilarning moddiy manfaatdorligini oshirish to‘g‘risida”gi 372-sonli qarori qabul qilingan edi[1]. Ushbu qarorga ko‘ra mamlakatdagi har bir kolxozda kolxozchilarga kafolatlangan mehnat haqini tegishli kategoriyalardagi sovxoz xodimlarining tarif stavkalariga baravar keladigan qilib to‘lash usulini joriy qilishni va ularning ish haqlari yetishtiriladigan mahsulot miqdori va sifatiga bevosita bog‘liq qilib qo‘yilishi belgilangan edi.

Ushbu qaror O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1966-yil 28-iyuldagi 393-sonli qarori bilan ma’qullangan edi. Qarorga muvofiq barcha ishlar ishning murakkabligiga, mas’uliyatliligiga, sermehnat bo‘lishiga qarab sovxozlarda qo‘llaniladigan tarif setkalari razryadlariga taqsimlangan. Ot qo‘shib va qo‘l kuchi bilan bajariladigan hamda mexanizatsiyalashtirilgan ishlarning normalari mutaxassis va kolxozchilarni keng qatnashtirib tartibga solindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, determinizm tamoyillari, tizimli yondashuv, xolislik tamoyillari kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Bunday tartib chorvachilik sovxozlariga ham nisbatan qo‘llanilishi belgilandi. Jumladan, har 100 ta sovliqdan kamida 95 qo‘zi olib, ularni onasidan ajratguncha omon saqlaganlik uchun shu sondan ortiq omon saqlangan qo‘zilar qiymatining ellik foizigacha bo‘lgan qismi, plandan oshirib olingan qorako‘l teri uchun plandan ortiq olingan mahsulot qiymatining ellik foizigacha, plandan oshiq qirqib olingan jun uchun oshirib olingan jun qiymatining ellik foizigacha qo‘shimcha oylik yozilishi belgilangan edi.

Katta qo‘ylarni 97 foizdan ortiq omon saqlagan cho‘ponlar uchun qo‘ylar qiymatining ellik foizini to‘lab berish majburiyati yuklangan edi. Undan tashqari cho‘ponlar brigadasiga natura bilan qo‘shimcha ravishda quyidagilar berilishi belgilandi. Agar yil boshiga bo‘lgan har 100 sovliqqa onasidan ajratish vaqtigacha 95 tadan 100 boshgacha qo‘zi o‘stirilgan bo‘lsa har o‘ninchi qo‘zi va 100 sovliqqa onasidan ajratish vaqtigacha 100 dan ortiq o‘stirilgan har beshinchi qo‘zi, egizaklik biostimulyatori ishlatilgan qo‘y otarlarida esa har 100 sovliqqa 100 tadan ortiq o‘stirilgan har o‘ninchi qo‘zi berilgan[2].

Qorako‘l qo‘ychiligida qo‘zilarni onadan ajratish vaqtiga yuzta sovliqqa qancha ishga yaroqli qo‘zi chiqqanligini hisoblashda terisini olish uchun so‘yilgan qo‘zilar hisobga olinadi, basharti urg‘ochi qo‘zilar o‘stirish to‘g‘risidagi planli topshiriq bajarilgan bo‘lsa, bu qo‘zilar hisobga kirmagan.

Yil davomida 97 foizdan ortiq omon saqlangan katta qo‘ylardan va onalaridan ajratilgandan keyingi yosh qo‘ylardan yarmi berilgan. Katta bo‘rdoqi qo‘ylarga hamda onalaridan ajratgandan keyin o‘tlatib semirtiriladigan yosh qo‘ylarga qarovchi cho‘ponlarga, boqib yoki o‘tlatib semirtirish davri badalida to go‘shtga topshirguncha plandan ortiq qo‘shilgan vaznining ellik foizigacha qadar natura holda berilgan.

Cho‘chqa boqiluvchi sovxozlarda esa quyidagicha qo‘shimcha haq berilishi belgilangan. Rejani oshirib bajarganligi uchun plandan oshirib olingan mahsulot qiymatining ellik foizigacha berilgan.

Shuningdek, asosiy va bir marta bolalatiladigan urg‘ochi cho‘chqalarga ikki oylikkacha bo‘lgan cho‘chqa bolalari bilan birga qarovchi cho‘chqaboqarga – asosiy urg‘ochi cho‘chqalardan onadan ajratishgacha tirik vazni 12 kilogrammdan kam bo‘lmagan va bir marta bolalatiladigan urg‘ochi cho‘chqalardan tirik vazni 10 kilogrammdan kam bo‘lmagan cho‘chqa bolalari olish va o‘stirish planini oshirib bajarganlik uchun yozilgan.

Katta-katta turkum bo‘rdoqi cho‘chqalarga qarovchi cho‘chqaboqarga, basharti mexanizatsiyalashtirilgan ustanovkalar ishlatilsa, semirib qo‘shilgan vazn planinini oshirib bajarganlik uchun plandan ortiq qo‘shilgan vaznning xarid narxidagi qiymatidan 20 foizgacha qo‘shimcha haq to‘lanishi belgilangan edi. Barcha jins va yoshlardagi turkum cho‘chqalar

boqilayotgan cho‘chqa fermalarida qo‘shimcha haq plandan oshirib olingan mahsulot, cho‘chqa bolalari va semirib qo‘shilgan vazn uchun yozilgan. Shuningdek, material pul sarflarni tejaganlik uchun, tejalgan bevosita sarflar qiymatining ellik foizi to‘langan.

1966-yil 29-iyulda O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining “Chorvachilikni yanada rivojlantirish va nasl-urchitish ishlarini yaxshilash choralari to‘g‘risida”gi 405-sonli qarori qabul qilingan[3].

KPSS XXIII syezdi tomonidan 1966–1970-yillarda xalq xo‘jaligini rivojlantirishning besh yillik plani yuzasidan qabul qilingan direktivalarda chorvachilikni rivojlantirishning muqarrar sur’atlarini vujudga keltirish, jamoat chorvachiligining iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lishini yanada yuksaltirish, chorva mollarining mahsuldorligini oshirish, mol ozuqasi bazasini mustahkamlash asosida mol tuyog‘ini ko‘paytirish yo‘li bilan go‘sht, sut, tuxum, jun yetishtirishni ko‘paytirish zaruriyati belgilangan.

Respublika kolxoz va sovxozlari KPSS Markaziy Komitetining 1965-yil martdagi Plenumida tuzib chiqilgan iqtisodiy tadbirlar sistemasini izchillik bilan amalga oshira borib, o‘tgan yilda chorvachilikning mahsuldorligini bir qancha oshirishga va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni ko‘paytirishga erishdilar[4], ekinlarning strukturasini birmuncha yaxshiladilar va bedapoyalarning maydonini kengaytirdilar. Keyingi yillar mobaynida ko‘p kolxoz va sovxozlarda chorvachilikni ixtisoslashtirish va chorva mollarining sifatini o‘zgartirish ishlari olib borildi, mollarni sun’iy qochirish usuli joriy qilinishi natijasida chorva mollarining nasl sifati bir muncha yaxshilandi.

Ammo ko‘pgina kolxoz va sovxozlarda chorva mollarini mukammal boqish va to‘g‘ri asrash ishlari yaxshi tashkil qilinmagan, nasl urchitish ishlariga yetarli darajada e’tibor berilmagan, nasldor qoramollarning salmog‘i past, chorva mollarini sun’iy qochirish usuli yetarli darajada va yaxshi ravishda amalga oshirilmagan, podani to‘latish uchun yosh molni, ayniqsa buzoqlarni ko‘plab o‘stirish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan, zootexnik tadbirlar o‘z holiga tashlab qo‘yilgan, bu esa, chorva mollarining mahsuldorligi pasayishiga sabab bo‘lgan va go‘sht, sut va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirishning ko‘payishi sekinlashgan.

Davlat nasl urchitish zavodlari va naslchilik xo‘jaliklari o‘z ishini yaxshilash borasida muhim rol o‘ynagan bo‘lsa ham, o‘z oldida turgan muhim vazifalarni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitlarga ega bo‘lmagan[5].

Respublikada qoramol urchitadigan nasl zavodlari va reproduktor-nasl urchitish xo‘jaliklarining soni yetarli emas edi. Nasl urchitish xo‘jaliklarining ko‘pchiligida chorva mollari mukammal boqilmaydi va noqulay binolarga joylashtirilgan, mehnat talab etuvchi jarayonlar yaxshi mexanizatsiyalashtirilmagan, seleksiya ishlarining planlari yo‘q. Chorva mollarining istiqbolli nasllari ko‘paytirish uchun aniqlanmagan, zavodning o‘ziga xos bo‘lgan chorva mol tipi vujudga keltirilmagan, qorako‘lchilikda va sergo‘sht, seryog‘, serjun qo‘ychilikda nasl urchitish ishlari o‘z holiga tashlab qo‘yilgan edi. Ko‘p xo‘jaliklarda asossiz ravishda turli nasl mollari ko‘paytirilgan, bu esa nasl urchitish ishining chalkashib ketishiga sabab bo‘lgan va ishning saviyasini pasaytirib yuborgan.

Nasl ishlari va chorva mollarini sun’iy qochirish davlat stansiyalari yillar davomida tashkiliy jihatdan mustahkamlanmagan bo‘lib, ular yangi jihoz va uskuna, transport vositalari bilan yaxshi ta’minlanmagan, malakali kadrlar yetishmovchiligi mavjud bo‘lib, shu sababdan chorva mollarining sifatini yaxshilash ishlarini amalga oshirishda kolxoz va sovxozlarga yetarli darajada amaliy yordam ko‘rsata olmagan. Chorva mollarini sun’iy qochirish texniklari ko‘pgina xo‘jaliklarda yetarli darajada malakaga ega bo‘lmaganlar, ularning qo‘nimsizligi, transport bilan ta’minlanish darajasining pastligi muayyan muammolardan biri bo‘lgan. Zootexnik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan edi.

Qorako‘lchilik, chorvachilik va veterinariya ilmiy tekshirish institutlari hamda ularning eksperimental bazalari nasl urchitish, chorva mollarini sun’iy qochirish ishlarini yaxshi yo‘lga qo‘yishda, urg‘ochi mollarning qisir qolishiga qarshi kurashishda kolxoz va sovxozlarga, davlat nasl urchitish stansiyalariga, davlat nasl urchitish xo‘jaliklariga yetarli darajada yordam bera olmagan, nasldor chorvachilikning asosiy amaliy masalalarini kam o‘rganishgan, nasl tajribasi va nasllarni iqtisodiy jihatdan baholash, qo‘chqor, buqa, takalarning nasldorlik sifatini tekshirish ishlarini olib bormagan edi. Bularning hammasiga O‘zbekiston SSR Qishloq xo‘jaligi ministrligi, Qoraqalpog‘iston ASSR Ministrlar Soveti, viloyat va tuman ijroiya komitetlari chorvachilikdagi nasl urchitish ishlariga yetarli darajada e’tibor bermagan. Qisqa muddat ichida chorva mollarining

mahsuldorligini keskin ravishda oshirish va chorva mahsulotining tannarxini kamaytirish imkonini beradigan bu muhim ishga nopisandlik bilan qarayotgan rahbarlar ko‘pchilikni tashkil qilgan.

O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti yerdan foydalanishni yaxshilash tadbirlarining amalga oshirilishi, paxta va bedani almashlab ekishni joriy qilib, dehqonchilik madaniyatini yuksaltirish, chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlash uchun haqiqiy shart-sharoit yaratib berishini inobatga olgan holda, chorva mollarining naslini takomillashtirish, respublikaning hamma xo‘jaliklarida nasl urchitish ishini tubdan yaxshilash yo‘li bilan kam mahsuldor hayvonlarni yuqori mahsulot beradigan hayvonlar bilan almashtirish, yetishtirilayotgan mahsulotning tannarxini arzonlashtirish ishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan edi[6].

Yuqoridagi muammolarni manzilli hal qilish maqsadida kolxoz va sovxozlar, davlat naslchilik va urchitish stansiyalari, O‘zbekiston SSR Qishloq xo‘jaligi ministrligi, Qoraqalpog‘iston ASSR Ministrlar Sovetiga alohida vazifalar yuklatilgan[7]. Sut va sut-go‘sht yetishtiruvchi chorva xo‘jaliklarida sut sog‘ish, sutda yog‘ va oqsil moddasini ko‘paytirish, go‘sht yetishtiruvchi tarmoqda chorva mollarining tez o‘sib, yetilish qobiliyatini oshirish, ularning go‘sht sifatini yaxshilash, sarflangan ozuqadan yuqori darajada naf olish, qorako‘lchilikda jaket sort qorako‘l terilar yetishtirishning hamma choralarini ko‘rib ko‘paytirish, sur qorako‘l terilarini va sherozi qorako‘l terining nodirroq sortlarini yetishtirishni ko‘paytirish va sifatlarini yaxshilash, sergo‘sht, serjun qo‘ychilikda dag‘al jun qirqishni ko‘paytirish va uning sifatini yaxshilash, yarim mayin junli sergo‘sht-serjun qo‘y turlarining guruhlarini vujudga keltirish, ularning tez o‘sib, yetilish qobiliyatini oshirish, qo‘ylarning go‘shtdorligini oshirish va go‘sht sifatini yaxshilash, cho‘chqachilikda urg‘ochi cho‘chqalarning serpusht va sersut bo‘lishini ta’minlash, cho‘chqa bolalarining tez o‘sib, yetilish qobiliyatini oshirish, boqishning sifatini yaxshilash, sarflangan mol ozuqasidan yuqori darajada naf olish, echkichilikda sovet zotli serjun echkilarning sonini hamma choralarini ko‘rgan holda ko‘paytirish, echkilarning jun mahsuldorligini oshirish, sanoatbop tivit beradigan echki podalarini vujudga keltirish, parrandachilikda sertuxum tovuqlarni ko‘paytirish, nasl sifatini yaxshilash, parrandalarning tez yetilish qobiliyatini oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilandi[8].

Xulosa va takliflar. Qarorga muvofiq, O‘zbekiston SSRda qoramol zotlarini rayonlashtirish amalga oshirildi. Jumladan, Toshkent viloyatining Kalinin va Yangiyo‘l tumanlarida olachipor va shvits zotli, Sirdaryo viloyatining Guliston, Sirdaryo, Kirov, Paxtaorol, Jetisoy, Jizzax, Yangiyer, Forish, Zomin, Ilich tumanlarida bushuyev, avliyoota, shvits, olachipor, Farg‘ona viloyatining Kirov, Bog‘dod, Quva tumanlarida shvits, olachipor, Andijon viloyatining Andijon, Namangan tumanlarida olachipor, shvits, Samarqand viloyatining Ishtixon, Narpay, Samarqand tumanlarida krasnostep, olachipor, Buxoro viloyatining Buxoro, Vobkent, Kogon tumanlarida krasnostep, olachipor, Qashqadaryo viloyatinining Koson, G‘uzor, Qamashi, Shahrisabz, Yakkabog‘, Qarshi va Chiroqchi tumanlarida shvits va krasnostep, Surxondaryo viloyatining Termiz tumanida shvits, Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston ASSRning barcha tumanlarida krasnostep zotli qoramollarni urchitish belgilab berildi[9]. Shuningdek, qoramol zotlarini rayonlashtirishga bog‘liq harakatlar natijasida shvits zotli qoramollar urchitiladigan tumanlarda olatog‘ zotli qoramollar, olachiporga ustuvorlik berilgan hududlarda Estoniya zotli, krasnostep zoti belgilangan joylarda qizil Estoniya, qo‘ng‘ir Latviya sigirlari, rayonlashtirilmagan hududlarda esa qozoqi oqbosh, santagertruda, aberdin-angus, gereford, qolmiq zotli mol turkumlari ham iqlimlashtirilgan. Buning sababi maxsus sergo‘sht mollar, buqalarni ko‘paytirish orqali davlat buyurtmalarini oshig‘i bilan bajarishga intilish edi[10].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ЎзМА, Р.837-фонд, 41-рўйхат, 544-иш, 3-варақ.
2. ЎзМА, Р.837-фонд, 41-рўйхат, 544-иш, 11-варақ.
3. ЎзМА, Р.837-фонд, 41-рўйхат, 544-иш, 87-варақ.
4. Хамдамов А. Себестоимость продукции скотоводства и пути ее снижения (на примере колхозов Самаркандской области Узбекской ССР). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Ташкент, 1971. – С.3.
5. Ўз МА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 1701-иш, 31-варақ.
6. Kulmatov R. Great Ideas and Ecological Mistakes // Science and Life -Tashkent. 1991. No. 2. -P. 12.
7. NAUz. Fund 837, inventory 41, file 1309, sheet 55.
8. NAUz. Fund 837, inventory 41, file 1684, sheets 77-78.
9. NAUz. Fund 837, inventory 41, file 1684, sheets 41-79.
10. NAUz. Fund No. 2742, inventory 1, file No. 152, sheets No. 148-149

O‘ZBEKISTON IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTIDA AYOLLARNING GENDER TENGLIGI MASALALARI
(Tarixiy-ijtimoiy tahlil)

Valiqul Ishquvatov
I.A. Gersen nomidagi Rossiya davlat
pedagogika universitetining Toshkent shahridagi filiali
direktorining birinchi o‘rinbosari, tarix fanlari doktori
ORCID 0009-0005-2127-0565
UDK 305-055.2(575)

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayonida ayollarning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi faol ishtiroki hamda gender tenglik masalalarining dolzarbligi atroflicha yoritilgan. Mamlakatda gender tenglikni ta’minlash, ayollar huquqlarini himoya qilish va ularning siyosiy-ijtimoiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish borasida olib borilayotgan tizimli islohotlar, qabul qilingan qonunlar va dasturlar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada xotin-qizlarning jamiyat taraqqiyotidagi roli, ularning siyosiy hayotda faollashuvi, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashdagi ishtiroki hamda mahalla institutining rivojida tutgan o‘rni batafsil ochib berilgan. Ayniqsa, yosh avlodni ma’naviy barkamol shaxs etib tarbiyalash, kasb-hunar egallashga yo‘naltirish va ularning kelajakdagi faoliyatiga ko‘maklashish jarayonlarida ayollarning faol ishtirok etishi alohida tahlil qilingan. O‘zbekistonda gender tenglik tamoyillarining amaliyotga joriy etilish jarayoni va xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish borasidagi dolzarb masalalarni yoritib berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ayollar, gender tenglik, ijtimoiy hayot, siyosat, davlat va jamiyat, ta’lim-tarbiya, barqarorlik, taraqqiyot, yoshlar, qonun, farmon, strategiya.

THE ROLE OF WOMEN IN THE SOCIO-ECONOMIC LIFE OF UZBEKISTAN ISSUES OF GENDER EQUALITY
(Historical and social analysis)

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the role of women in the state and public life of Uzbekistan amid the ongoing large-scale reforms, their active participation in socio-economic life, and the relevance of gender equality issues. It examines the systemic reforms, adopted laws, and programs aimed at ensuring gender equality, protecting women's rights, and expanding their participation in political and social processes. Furthermore, the article thoroughly explores the role of women in the development of society, their increasing political engagement, their contribution to maintaining socio-spiritual stability, and their significance in the development of the mahalla institution. Special attention is given to the active involvement of women in the process of nurturing a morally mature younger generation, guiding them towards acquiring professional skills, and supporting their future careers.The study also highlights the integration of gender equality principles into practice in Uzbekistan and addresses the pressing issues related to enhancing the socio-economic activity of women in society.

Keywords: women, gender equality, public life, politics, state and society, education, stability, development, youth, law, decree, strategy.

Kirish. O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, fuqarolik jamiyati qurilishidagi ishtirokini ta’minlash, xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda gender tenglik masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishlariga keng shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Chunki mustaqillik yillarida ayollar O‘zbekiston Respublikasini barqaror va tinch yo‘l bilan rivojlanishida o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shib kelayotganliklari bunga yaqqol dalildir. Bu borada ayniqsa 2018-yil 3-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni ayollarning o‘rnini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga xizmat qildi [1. 04. 2018 y].

Ayniqsa 2021-yilgacha mamlakatda ayollarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi faoliyati, ayniqsa, iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish masalasida ham ancha o‘sishga erishilgan. O‘sha davrda mahalliy vakillik organlarida ayollar ulushi 16 % ni, Qonunchilik palatasida 17,5% ni, Senatda esa ularning salmog‘i 15% ni tashkil etmoqda. Ijro organlarida 3.4 %, sud organlarida 22,7 %, ishlab chiqarishda ham oldingi davrlarga nisbatan ikki barobar ortgan [2. B. 506] ligining o‘ziyoq ayollarning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni ortib borayotganligini tasdiqlaydi.

Metod va metodologiya. Maqola barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarda qabul qilingan obyektivlik, izchillik, tarixiy hamda ijtimoiy voqea va hodisalarni xronologik asosda o‘rganish,

manba va dallilarga tayanish va ularning haqqoniyliga asoslanish tamoyillari negizida yoritildi. Maqolada ayrim manbalarni kontent-tahlili, kuzatuv hamda ekspert-so‘rov metodlari asosida yoritilgan. Shu bilan birga, maqola gender tenglikning mohiyati va funksiyalariga oid tadqiqotlar natijalari bugungi kunda ayollar turmush tarzini ijobiy tomonga o‘zgarishiga, ularning ma’naviy-axloqiy xususiyatlarini shakllantirishga, ular ongida ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarning muhim subyekti sifatidagi o‘rnining oshishiga xizmat qiladi. Har qanday ilmiy tadqiqot nazariy-metodologik jihatdan o‘rganilganligi bilan barcha fanlarda alohida o‘ringa ega. Shu boisdan ushbu maqola tarix fanidan tashqari, falsafa, madaniyatshunoslik va sotsiologiya fanlari asosida olib borilgan tarixiy-etnografik manbalarni o‘rganish, tahlil qilish va ekspert tahlil metodlariga asoslangan holda yoritildi.

Natijalar va muhokama. Ayollarga e’tibor, ularni e’zozlash, ehtirom ko‘rsatish o‘zbek xalqiga xos olijanob xususiyatlardan biridir. Shu ma’noda, O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeyini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik tarixiy ishlar amalga oshirilayotgani chuqur hayotiy asosga ega. Jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ko‘p jihatdan ayollarga, oilaga bo‘lgan munosabat va e’tibor bilan belgilanishi bejiz emas.

Tadqiqotchilarning qayd etishicha, respublikamizning ayrim kasb-hunar kollejlari bitiruvchi qizlari orasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnomalar asosida o‘qishni bitirib ushbu sohada ishlashini, ya’ni fermer bo‘lishni ayrim qizlar istaydilar, biroq mehnatning bu turiga intiluvchilar ulushi uncha ko‘p emas: yigitlarda- 16,9%, qizlarda-6,4 %. Boshqacha aytganda, hozirgi davr qishloq yoshlari mehnatning qishloq xo‘jaligi turiga qiziqishni yo‘qotmoqdalar. O‘qishni davom ettirishni xohlaydigan o‘quvchilar orasida agronom bo‘lishni istaydigan yigitlar hammasi bo‘lib 33 nafar ekanligi (5,4 %), qizlardan birortasida bunday kasbga intilish yo‘qligi buning isboti hisoblanishini hal etilishi lozim bo‘lgan muammolardan biridir [3.B.72-73].

Shuningdek, mahallada ma’naviy-g‘oyaviy tarbiya ishlarini tashkil etish va unga doir chora-tadbirlar ishlab chiqish, yoshlar orasida mafkuraviy profilaktikani olib borishda ayollarning roli alohida ahamiyatga ega. Bu borada “Yangi O‘zbekiston” da 2020-yilga kelib ayollar faoliyati taraqqiyotning yangi bosqichiga kirdi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni e’lon qilindi [9. №37]. Ushbu farmon asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi qarori qabul qilindi [4. №37]. Mazkur qarorda ayollarning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rnini oshirish borasidagi vazifalari belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra “Xotin-qizlarga diniy bilimlar va milliy diniy an’analar asosini egallashda yordam ko‘rsatish, xotin-qizlarni diniy bag‘rikenglik, barcha boshqa diniy konfessiyalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalash, jamiyatda diniy va dunyoviy qarashlar qarama-qarshiligiga yo‘l qo‘ymaslik, diniy ekstremizm va aqidaparastlikning mamlakatimizdagi osoyishta hayot va ijtimoiy siyosiy barqarorlikni buzishga qaratilgan, g‘ayriinsoniy, zararli g‘oyalarning jamiyatda tarqalishiga qarshi kurashish” vazifalari belgilangan [5. B. 5-6].

Mazkur qaror hamda ularni amalga oshirishini ta’minlash bo‘yicha tashkiliy, tashviqot chora-tadbirlari Dasturida belgilangan vaziflarni bajarish maqsadida joylarda “Mahalla fuqarolar yig‘inining diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy masalalari bo‘yicha maslahatchilari” tayinlanadigan bo‘ldi. Bunday lavozimga aholi bilan yaqindan ishlash, jumladan, aholi o‘rtasida obro‘-etiborga ega bo‘lgan, milliy, diniy an’analar va rasm-rusumlar borasida katta tajribaga ega hamda o‘zi o‘rnak va bosh-qosh bo‘la oladigan ayollar tayinlanishi belgilab qo‘yildi.

Ya’ni, mahalla raisi maslahatchisi lavozimining maqsadi quyidagilardan iborat bo‘ldi:

– mahalla hududidagi aholi, birinchi navbatda, yoshlar ongida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish;

– namunali, milliy, diniy an’analar hamda urf–odatlarni saqlash va rivojlantirish;

– jamiyatda ma’naviy muhit barqarorligini hamda millatlararo do‘stlik va hamjihatlik ishlarini tizimli tarzda amalga oshirish kabilar [6. 2005 y].

Jamiyatimizda ayollarga e’tibor, ehtirom ko‘rsatish xalqimizga xos oliyjanob xususiyatlardan biri sifatida mahallalarda xotin-qizlarning o‘rni va mavqeyini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik tarixiy ishlar amalga oshirilayotgani chuqur hayotiy asosga ega

ekanini tasdiqlaydi. Jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ko'p jihatdan ayollarga, oilaga bo'lgan munosabat va e'tibor bilan belgilanishi bejiz emas.

Yangi O'zbekistonda 2019-yil 2-sentyabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun xotin-qizlarning ijtimoiy o'rnini ko'tarib, ularni himoya qilishda muhim asos rolini o'ynadi [7. 03/19/562/3681-son]. Oliy Majlis Senatida "Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi" tashkil etildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev gender tenglik borasida Oliy Majlis Senatidagi nutqida kishilar ongidagi mavjud milliy stereotiplar xususida gapirib, sharq ayolini avvalambor ona, oila degan muqaddas qo'rg'onning qo'riqchisi sifatida hurmat qilmog'imiz to'g'ri bo'lishini, ammo har bir ayol jamiyat va davlatning oddiy bir kuzatuvchisi emas, balki mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha izchil demokratik islohotlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerakligini uqdirgan edi. Shu kuni Prezidentning taklifiga binoan, mamlakat tarixida ilk bor Senat raisligiga ayol kishi saylandi. So'nggi yillarda respublikamizda gender tenglik masalasiga bag'ishlangan 25 ta qonun qabul qilindi. Mamlakat tarixida birinchi bor Milliy Parlamentdagi xotin-qizlar soni oshib, ular BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi.

Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash" deb nomlanib, unda keyingi besh yil ichida amalga oshirilishi zarur bo'lgan ustuvor masalalar belgilandi. Ushbu strategik dasturlarda belgilangan jamiyatimizda xotin-qizlarga nisbatan bo'layotgan tazyiq va zo'ravonliklarga nisbatan murosasiz bo'lish, ularning huquqlari manfaatlarini ta'minlash, gender tenglik siyosatini izchil davom ettirish, xotin-qizlarning turli yo'nalishlardagi faolligini oshirish, xotin-qizlarning ta'limning barcha ko'rinishlarida va kasb olishlari uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, ayollar tadbirkorligini kengaytirish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etishini anglatadi. Respublikamizning barcha hududlarida, ayniqsa, qishloq hududlarida xotin-qizlarga berilayotgan xizmatlar, ayniqsa tibbiy-ijtimoiy xizmatlar turlarini yanada kengaytirish, ular orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga oid ishlar samaradorligini oshirish belgilangan [8. № 22. 01. 2022].

Keyingi yillarda respublikamizda gender tenglik masalasiga bag'ishlangan 25 ta qonun qabul qilindi. Mamlakat tarixida birinchi bor milliy Parlamentdagi xotin-qizlar soni oshib, ular BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston-2030 strategiyasi" da esa 25-maqsadda ayollar gender tengligi masalasi borasida alohida masalalar mavjud. Ushbu dasturda belgilangan jamiyatimizda xotin-qizlarga nisbatan bo'layotgan tazyiq va zo'ravonliklarga nisbatan murosasiz bo'lish, ularning huquqlari manfaatlarini ta'minlash, gender tenglik siyosatini izchil davom ettirish, xotin-qizlarning turli yog'nalishlardagi faolligini oshirish, xotin-qizlarning ta'limning barcha ko'rinishlarida va kasb olishlari uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, ayollar tadbirkorligini kengaytirish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etishini anglatadi.

Islohotlarning bugungi bosqichida mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasidagi islohotlar tizimli davom ettirilyapti. Bu ishlarni yangi pog'onaga olib chiqish maqsadida 2030- yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilindi. Erkaklar va ayollar uchun nikoh yoshi 18 yosh etib belgilandi, ayollar mehnati to'liq yoki qisman qo'llanilishi taqiqlanadigan mehnat sharoiti noqulay bo'lgan ishlar ro'yxati bekor qilindi. Ichki ishlar tizimida xotin-qizlar bilan ishlash masalalari bo'yicha inspektor lavozimi joriy etildi.

Tarixiy raqamlarga ko'ra 2017–2023-yillarda rahbarlik lavozimlarida ayollar soni 27 foizdan 35 foizga oshdi. O'zbekistonda xotin-qizlar manfaatlari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Jumladan, mamlakatda so'nggi 7 yil ichida rahbarlik lavozimlarida ayollar soni oshib, parlament faoliyatida esa 32 foizga yetdi. Jamiyatda ayollarga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor natijasida bugungi kunda ularni nafaqat ijtimoiy himoyalash, balki davlat va jamiyat boshqaruvi, jumladan, agar soha hayotida yanada samaraliroq ishtirok etishini ta'minlash, ishlab chiqarish, xususan, qishloq xo'jaligi sohalariga faol jalb etish, ular faoliyatidan yanada kengroq foydalanishni nazarda tutadi.

Bu borada 2024-yil 10-fevralda Oliy Majlis Senatining "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasi gender tenglikka erishish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarning ijrosi hamda 2024-yilda amalga

oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori e’lon qilindi [9. //lex.uz/docs/6855158].

2024-yilga kelib O‘zbekistonda xotin-qizlarning boshqaruv lavozimdagi ulushi iqtisodiyotning tarmoqlar kesimida tahlil qilish ko‘rsatganidek, qurilish sohasida ayol rahbarlar 4,3 foizni, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi sohasida 6,3 foizni, tashish va saqlash sohasida 7,6 foizni, sanoat sohasida 8,6 foizni, moliyaviy va sug‘urta faoliyati sohasida 11,6 foizni, savdo sohasida 11,8 foizni, yashash va ovqatlanish xizmatlari sohasida 14 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, “Rahbar ayollar maktabi” o‘quv dasturining 99 nafar bitiruvchisi Milliy kadrlar zaxirasi ma’lumotlar bazasiga kiritilgan bo‘lib, ularning atigi 10 foizi rahbarlik lavozimlariga tayinlangan [10. ://lex.uz/docs/6855158]..

Senat qarorida davlat boshqaruvi organlarida xotin-qizlarning ulushini oshirish bo‘yicha samarali choralar ko‘rilmaganligi ta’kidlangan. Unda qayd etilishicha, Din ishlari bo‘yicha qo‘mitada xotin-qizlarning ulushi 9,1 foizni, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida 11,2 foizni, Suv xo‘jaligi vazirligida 11,6 foizni, Tashqi ishlar vazirligida 12,8 foizni, Qishloq xo‘jaligi vazirligida 16,2 foizni, Transport vazirligida 16,8 foizni, Energetika vazirligida 16,7 foizni, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligida 17,5 foizni tashkil etadi. Shuningdek, ushbu ko‘rsatkichning tuman, shahar hokimliklari devonidagi tahlili 117 ta tuman (shahar) hokimligida 2–12,7 foizni, 63 tasida 13–20 foizni tashkil qilishi – bu past ko‘rsatkich sifatida baholangan. Qarorda mazkur kamchiliklarni bartaraf etish belgilanganligi bu masalada kelajakda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlar talaygina ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab jamiyatimizda ayollarga e’tibor, ularni e’zozlash, ehtirom ko‘rsatish agrar soha boshqaruvi va ishtirokida ayollarning o‘rniga e’tibor yuqori bosqichga ko‘tarilganiga yana bir bor guvoh bo‘ldik. Ammo mamlakatimizda xotin-qizlarning tadbirkorlik, qishloq xo‘jalik sohalari va boshqaruvdagi o‘rni va mavqeyini yanada oshirish borasida talaygina muammolar borligini, anchagina ishlarni amalga oshirish zarurligini hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Bular ayollarning agrar soha tadbirkorligidagi ishtirokini kengaytirish, ularga kreditlar, mikrokreditlar ajratishda ayrim imtiyozlar berish, ular uchun munosib, xavfsiz mehnat sharoitlarini ta’minlash kabilardir. Ayniqsa, mamlakatimizda taraqqiyotning o‘zagi hisoblangan agrar soha rivojida ayollarning o‘rni va mavqeyini yanada oshirish nuqtayi nazaridan quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

birinchidan, soha rivoji va uni boshqarishda ayollarning o‘rni va mavqeyini oshirish uchun tadbirkorlik sohalariga ayollarni yanada kengroq jalb etish;

ikkinchidan, ayollarning agrar sohadagi tadbirkorlik faoliyatini yanada kengaytirish nuqtayi nazaridan ularga kreditalar, mikrokreditlar ajratishda ayrim imtiyozlar berish;

uchinchidan, sohani yanada rivojlantirish istiqbollarini aniq belgilash uchun ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini yanada kengaytirish;

to‘rtinchidan, ayollarning jamiyatni modernizatsiya qilish va boshqarishdagi ishtiroki va sohani rivojlantirish istiqbollarini ommaviy axborot vositalarida yanada kengroq targ‘ib qilishga erishish**;**

beshinchidan, soha uchun kadrlar tayyorlash tizimining yangi yo‘nalishlarini, ayol kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish borasida tegishli oliy ta’lim muassasalarida ayol kadrlar tayyorlovchi maxsus mutaxassislik yo‘nalishlarini ko‘paytirish kabilardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni. //“Xalq so‘zi”gazetasi. –Toshkent, 2018-yil. 4-fevral.

2. Said-Gaziyeva N. Davlat xizmati va inson huquqlari: nazariy-huquqiy masalalar.// Jamiyatni demokratlashtirish va inson huquqlarini ta’minlash – O‘zbekiston tajribasi. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2008- y, 506-bet.

3. Ubaydullayeva R, Ata-Mirzayev O, Umarova N. O‘zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi (ilmiy-o‘quv qo‘llanma). –Toshkent, 2006. 72-73 betlar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni // “Xalq so‘zi”, 2020-yil 20-fevral, №37.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-yil 20-fevral, №37-son.

6. Quronov M. va boshqalar. Mahallada g‘oyaviy targ‘ibot. –Toshkent, 2009.-B. 5-6.

7. Fuqarolar yig‘inlarining diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi faoliyati to‘g‘risidagi Namunaviy Nizom. –Toshkent, 2005.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019 y., 03/19/562/3681-son;
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Yangi O‘zbekiston. № 22.
10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasi gender tenglikka erishish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarning ijrosi hamda 2024-yilda amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarori. https://lex.uz/docs/6855158.

MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VILOYATI NEFT-GAZ SANOATINING RIVOJLANISHI

Mallayeva Feruza Radjabaliyevna
Qarshi davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi, katta o‘qituvchi
Tarix fanl.fals. doktori(PhD)
Feruzamallayeva74@gmail.com
Sayidov Muslimbek Xusanovich
Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti
1-kurs magistranti
Muslimbeksayidov78@gmail.com
ORCID 0009-0001-4838-8759
UDK 250:552.578.(021)

Annotatsiya. Maqola Qashqadaryo viloyati neft-gaz sanoatining rivojlanishi, soha istiqbollari va mavjud muammolar tahliliga bag‘ishlangan. Xususan, Respublikaning eng asosiy sanoat zonalaridan biri bo‘lgan Muborak neft-gazni qayta ishlash korxonasi tarixi haqida ko‘plab fakt va argumentlar, statistik ma’lumotlar, O‘zbekistonda mustaqillik davrida sanoatni rivojlantirishga qaratilgan davomli va izchil siyosat, Qashqadaryo viloyatining sanoat sohasida respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga munosib ulushi, Respublika energetika sanoati tizimining muhim bo‘g‘ini, Dehqonobod kaliyli o‘g‘itlar zavodi kabi yirik ishlab chiqarish quvvatlari, Mustaqillik yillarida Muborak gazni qayta ishlash zavodi faoliyati yangicha yondashuvlar asosida olib borilganligi, Energetika vazirligi tomonidan Talimarjon elektr stansiyasining 1-agregati qurilishini yakunlash va ishga tushirish bo‘yicha ishlar olib borish, Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy o‘zgarishlar Qashqadaryo viloyatining yirik sanoat mahsulotlarini yetkazib beruvchi hududga aylanganligi, 2012-2013- yillarda propan-butan aralash gazlarini yetkazib berish texnologik tizimi yiliga 258,3 ming t. siqilgan gaz va 125 ming t. gaz kondensati ishlab chiqarishga erishdi, Mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, raqobatbardosh va import o‘rnini bosuvchi yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish maqsadida respublikamizning bir qator hududlarida Sho‘rtan GKMning shu‘ba korxonalari tashkil etilganligi alohida ahamiyatga egali haqida ma’lumotlar ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Muborak neft-gaz korxonasi, Sho‘rtanneftgaz, O‘rtabuloq, Dengizko‘l Xauzak, Zevarda, Kultak, Qandim, Somontepa, mashina va uskunalar, qurilmalar, uzatuvchi qurilmalar, bino, transport vositalar.

DEVELOPMENT OF THE OIL AND GAS INDUSTRY OF KASHKADARYA REGION DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE.

Abstract. The article is devoted to the development of the oil and gas industry in the Kashkadarya region, the prospects of the industry, and an analysis of existing problems. In particular, there are many facts and arguments about the history of the Mubarak oil and gas processing enterprise, one of the main industrial zones of the republic, statistical data, a continuous and consistent policy aimed at developing industry in Uzbekistan during the period of independence, a worthy contribution to the socio-economic development of our republic in the industrial sector of the Kashkadarya region, an important link in the energy industry system of the republic, large production capacities such as the Dehkanabad Potash Fertilizer Plant, the fact that the Mubarak gas processing plant was carried out based on new approaches during the years of independence, the Ministry of Energy carried out work on completing the construction and commissioning of the 1st unit of the Talimarjon power plant, the economic changes carried out during the years of independence have turned the Kashkadarya region into a region supplying large industrial products, in 2012-2013 the technological system for supplying propane-butane mixed gases produced 258.3 thousand tons of compressed gas and 125 thousand tons of achieved gas condensate production, and in order to develop local production and launch the production of new types of competitive and import-substituting products, subsidiaries of the Shurtan Gas Processing Plant have been established in a number of regions of our

republic.

Keywords: Muborak oil and gas enterprise, Shurtanneftgaz, Ortabulok, Dengizkul-Khauzak, Zevarda, Kultak, Kandym, Somontepa, machinery and equipment, devices, transmission equipment, building, transport vehicles.

Kirish. XX asrning so‘nggi o‘n yilligi va XXI asrning boshi tarixi tarixda o‘zining mazmuni, mohiyati, jarayonlarining tezkorligi, voqea-hodisalarning shiddatliligi bilan alohida ajralib turadi. Bu davrda jahon mamlakatlari o‘zining rivojilanishida yangi bosqichga ko‘tarildi.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari mustaqillik yillarida o‘ziga xos yutuqlar va qiyinchiliklar yo‘lini bosib o‘tdi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi zamonaviy tarixi kontekstida Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalari rivojlanib yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Qashqadaryo viloyati yuksak iqtisodiy salohiyati, rivojlangan sanoati va qishloq xo‘jaligi bilan O‘zbekiston taraqqiyotida muhim o‘rin egallab kelmoqda”[1]. Biroq Qashqadaryo viloyatida yuz berayotgan muhim o‘zgarishlar, sanoat sifatida asoslab berilmagani muammoning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, determinizm tamoyillari, tizimli yondashuv, xolislik tamoyillari kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokama. O‘zbekistonda mustaqillik davrida sanoatni rivojlantirishga qaratilgan davomli va izchil siyosat olib borildi. Respublika hukumati tomonidan mamlakat iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib yangi sanoat korxonalarini barpo etish, faoliyat ko‘rsatib turgan korxonalarni texnik jihatdan modernizatsiya qilish natijasida ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish masalasi asosiy vazifa etib belgilandi.

Qashqadaryo viloyati sanoat sohasida respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga munosib ulush qo‘shib keldi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: tabiiy gaz va neft qazib olish, gazni qayta ishlash, qurilish materiallari, mahsulotlarini ishlab chiqarish va boshqalar voha sanoatining asosini tashkil etdi. Xususan, “Sho‘rtan neft-gaz”, “Muborak neft-gaz” korxonalari, “Sho‘rtangaz-kimyo” majmuasi, Dehqonobod kaliyli o‘g‘itlar zavodi kabi yirik ishlab chiqarish quvvatlari mamlakatimiz sanoatining lokomotivlari bo‘ldi.

Respublika energetika sanoati tizimining muhim bo‘g‘ini - **Talimarjon GES**ning qurilishi 1991 yil boshlangan bo‘lib, uning umumiy loyihaviy quvvati 3200 MGVtni tashkil etdi[2]. Bu majmua mustaqillikning dastlabki yillarida ishga tushirilgan korxonalaridan biri bo‘lib, Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan ulkan inshoot bo‘ldi[3]. Uning asosiy yoqilg‘isi tarkibida oltingugurt miqdori kam bo‘lgan tozalangan gaz bo‘lib, “Sho‘rtangaz” gaz konlaridan ta’minlandi. 1999-yilda Talimarjon GES qurilish boshqarmasi tomonidan olti oylik reja 135 %ga bajarilib, 578 mln 602 ming so‘mlik reja 782 mln 12 ming so‘mga teng ish amalga oshirildi[4]. 2004-yil noyabrida esa GESning 800 MGVt quvvatga ega birinchi bloki ishga tushirilishi o‘z navbatida yirik iste’molchilar – neft-gaz sanoat korxonalari, suv xo‘jaligi obyektlari va boshqa iste’molchilariga vohada ishlab chiqarilgan elektr energiyasini yetkazib berish imkoniyati tug‘ildi[5]. Shu bilan birgalikda, GES uchun zarur asosiy yonilg‘i - tabiiy gazni evaziga mamlakat shimoliga jo‘natish, u yerda ishlab chiqarilgan elektr energiyasini janubga uzatishdek. katta xarajat talab qiladigan amaliyotga chek qo‘yildi[6]. .

2004-2014-yillar davomida Talimarjon GESda 54 mlrd kvt/soatdan ko‘proq elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Quvvati 450 MVtli 2 ta bug‘-gaz qurilmasini barpo etish bo‘yicha ishlar olib borildi va bu loyihaning bosh pudratchisi – Janubiy Koreyaning “Hyundai Engineering and Construction” va “Daewoo International Corporation” kompaniyalari konsor-siumi tomonidan mahalliy subpudratchi tashkilotlar bilan hamkorlikda qurilish montaj ishlari bajarildi[7]. Natijada 2016-yilda Talimarjon GESda jami quvvati 900 MVt bo‘lgan bug‘-gaz qurilmalari ishga tushirildi[8]. Bu yurtimizda jami ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining taxminan 12% aynan Talimarjon GES hissasiga to‘g‘ri keldi. O‘zbekiston energetika tizimining ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va tejamkor texnologiyalardan foydalanishni ko‘zda tutuvchi ushbu bug‘-gaz qurilmalarining ishga tushirilishi bilan stansiyaning umumiy quvvati 1700 MVtga yetkazildi. Shu tariqa yiliga qo‘shimcha 7,2 mlrd kvt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo‘ldi[9].

Energetika vazirligi tomonidan Talimarjon elektr stansiyasining 1-agregati qurilishini yakunlash va ishga tushirish bo‘yicha ishlar olib borildi. Yevropa Ittifoqi komissiyasi loyihaning

mustaqil ekspertizasini o‘tkazishda yordam berdi hamda texnologik jarayonlarni boshqarishning zamonaviy avtomatlashtirilgan uskunalarini ishlab chiqish va yetkazib berish uchun kompaniyani tanlash bo‘yicha tender tashkil etildi[10].

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy o‘zgarishlar Qashqadaryo viloyatini yirik sanoat mahsulotlarini yetkazib beruvchi hududga aylantirdi. Voha sanoatida asosiy tarmoq hisoblanuvchi yoqilg‘i energetika sohasini rivojlantirishga katta e’tibor berildi. Ushbu sohada to‘rtta yirik korxona, xususan, “Sho‘rtangaz-kimyo” majmuasi, “Ko‘kdumaloq gaz”, “Hisor neft-gaz” va Talimarjon GESning 1-bloki kabilar ishga tushirildi[11].

O‘rganilayotgan davrda Qashqadaryo viloyati neft va tabiiy gaz zaxiralari bo‘yicha mamlakatda peshqadam bo‘ldi. Respublikada qazib olingan tabiiy gazning 70%, neftning qariyb 78%, gaz kondensatining 80% voha ulushiga to‘g‘ri keldi[12]. Viloyatda Ko‘kdumaloq, Muborak, Pomuq kabi neft-gaz, Sho‘rtan, Zevardi, G‘uzor, Janubiy Pomuq, Qamashi, Alan singari tabiiy gaz va Qo‘shquduq neft konlari mavjud edi[13].

Respublikamiz neft-gaz sanoatini yanada rivojlantirish maqsadida “O‘zbekneftgaz” Milliy korporatsiyasi tomonidan xorijiy investorlar ishtirokida qator ustuvor loyihalar amalga oshirildi[14]. Jumladan, O‘zbekistonning “O‘zbekneftgaz” korporatsiyasi AQShning “Enron Corporation” korporatsiyasi o‘rtasidagi 200 mln dollarlik qo‘shma korxonani moliyalashtirish imkoniyatini ko‘zda tutuvchi moliyalashtirish va sug‘urtalash to‘g‘risidagi protokol imzolandi[15].

Muborak va Sho‘rtan gaz konlari katta investitsiyalarni talab qiladigan maxsus texnologik yondashuvni talab qildi. Gaz va gaz kondensatini olish ancha murakkab jarayon bo‘lib, muayyan korxonalarda ularni ishlab chiqarish bo‘yicha o‘ziga xos qiyinchiliklar ham mavjud bo‘ldi.

Viloyatdagi konlardan har yili oltingugurt mahsuloti 330 ming tonna ishlab chiqarildi. Shuningdek, oltingugurt eksporti hajmini oshirish uchun uni 200 ming tonnagacha hajmda granulyatsiya qilish va qadoqlash masalasi o‘rganildi. Ushbu loyihani amalga oshirish 20-25 million dollarga baholandi.

O‘zbekiston yoqilg‘i-energetika sanoatining yirik korxonalaridan biri **Muborak gazni qayta ishlash zavodi** hisoblanib, qayta ishlangan tabiiy gaz, qattiq va suyuq holatdagi oltingugurt, barqarorlashtirilgan gaz kondensati, suyultirilgan gaz (propan va butan fraksiyasi) ishlab chiqarishga yo‘naltirildi. Zavodning xom-ashyo bazasi “Muborakneftgaz” unitar sho‘ba korxonasining gazining tarkibi yuqori oltingugurtli “O‘rtabuloq”, “Dengizko‘l”, “Hauzak” hamda gazining tarkibi past oltingugurtli bo‘lgan “Zevarda”, “Qultoq”, “Pomuq”, “Alan”, “Ko‘kdumaloq” konlari edi[16].

1995-yilda Kellog (AQSh) va Nisho Iwai (Yaponiya) konsorsiumi Ko‘kdumaloq konida kollektorga gazni qayta quyish uchun kompressor stansiyasini qurdi. Ushbu texnologiyadan foydalanish gaz kondensatini olish koeffitsiyentini 0,30 dan 0,70 gacha oshirdi. Ushbu loyihaga jalb qilingan xorijiy sarmoya miqdori 142 million dollarni tashkil etdi[17].

Mustaqillik yillarida Muborak gazni qayta ishlash zavodi faoliyati yangicha yondashuvlar asosida olib borildi. Zavodda mahsulot ishlab chiqarish hajmi va sifat darajasi izchil ravishda oshirib borildi. 1992-yil dekabrida gazni qayta ishlash quvvati yiliga 25 mlrd metr³ga yetkazilib, qayta ishlash qurilmalari soni 18 taga oshirildi. Ko‘kdumaloq kompressor stansiyasining 1997-yil 14-iyulda ishga tushirilishi[18] 24.2 mlrd metr³ tabiiy gaz olindi va shundan 225 mlrd metr³ iste’molchilarga ajratildi. Bundan tashqari, 273 ming tonna oltingugurt, 524 ming tonna kondensat ishlab chiqarildi[19]. 1999-yilda 24 milliard 425 mln metr³ gaz ishlab chiqarish rejalashtirilib, amalda esa 24 milliard 562 mln metr³ gazni qayta ishlashga muvaffaq bo‘lindi. Bundan tashqari, rejadagi hisob-kitobga nisbatan quruq gaz ishlab chiqarish hajmi 106 %ga, oltingugurt ishlab chiqarish hajmi esa 102 %ga oshirildi.

.Muborak gazni qayta ishlash zavodi dunyoning bir qancha mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘ydi. Misol sifatida, Germaniya, Fransiya, AQSh, Yaponiya, Ispaniya, Chexiya va yaqin xorijdan zavodga absorbentlar, katalizatorlar, noyob kimyoviy reagentlar va reaktivlar, kimyoviy asbob-uskunalar keltirib o‘rnatildi. Shunga ko‘ra mahsulot ishlab chiqarish hajmi ham ko‘paytirildi.

Muborak gazni qayta ishlash zavodi 2000-yil 25-maydan boshlab “Muborak gazni qayta ishlash zavodi” unitar shu‘ba korxonasi deb yuritildi. Shu yilda 27 mlrd 324 mln metr³ gaz qayta ishlandi, 556 ming tonna stabillashtirilgan kondensat, 13,5 ming tonna suyultirilgan gaz va 217,5 ming tonna oltingugurt ishlab chiqarildi.

O‘tgan vaqt davomida muassasada uchta yangi qurilma tizimi ishga tushirilishi natijasida

2 mlrd metr³ gazni qayta ishlash imkoniyati yaratildi. Korxonada 2002-yilda 27 milliard metr³dan ortiq gaz qayta ishlandi hamda 556 ming tonnadan ko‘p gaz kondensati, 216 ming tonnadan ortiq oltingugurt yetkazib berildi. Shuningdek, 2003-yilda qo‘shimcha 16 ta ishlab chiqarish sexi ham faoliyat yuritdi.

2005-yil mart oyida zavodda 4 blokli gazni propan vositasida sovitish bilan tayyorlash kompleksi foydalanishga topshirildi. Natijada tozalangan gazni yetkazishdan oldin quritib berib, yiliga 13,6 mlrd metr³ gazni quritish sharoiti yaratildi. Bunda chet eldan ammiak moddasi keltirishga sarflangan mablag‘lar to‘liq tejalib, samaradorlik oshirildi[20].

. Muborak GQIZ ishlab chiqargan mahsulotlar jahon miqyosida yuqori baholandi. AQSh, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Rossiya, Malayziya firmalari bilan imzolangan shartnoma asosida chetga gaz kondensati eksport qilindi. Xorij kompaniyalari bilan hamkorlik natijasida maxsus qurilma tizimi insho etildi. Ilg‘or texnologiyaga asoslangan bu qurilma chiqindi gazlarni qayta ishlab, yiliga 18 ming tonna qo‘shimcha oltingugurt ajratib olish imkonini berdi. Shuningdek, ushbu qurilmaning foydalanishga topshirilishi atmosfera ifloslanishini ma’lum miqdorda oldini oldi. .

Umuman olganda, zavod ishga tushgan paytdan to 2006-yilga qadar 645 milliard metrkubga yaqin tabiiy gaz qayta ishlandi, shuningdek 9 mln 400 ming tonnaga yaqin oltingugurt, 8 mln 500 ming tonnaga yaqin gaz kondensati, 162 ming tonnadan ortiq suyultirilgan gaz ishlab chiqarildi. Muborak GQIZda ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, mahsulotlarni eksport qilish barobarida bunyodkorlik va obodonchilik ishlari ham olib borildi. Bu ishlarda 1992–2002-yillarda korxonada rahbarlik qilgan N. Zayniyevning xizmatlari katta bo‘ldi[21].

2012-2013-yillarda propan-butan aralash gazlarini yetkazib berish texnologik tizimi yiliga 258,3 ming t. siqilgan gaz va 125 ming t. gaz kondensati ishlab chiqarishga erishdi. 2015 yilda korxonada bir yilda 12 mlrd metr³ tabiiy gazni qayta ishlash, 258 ming tonnagacha suyultirilgan gaz va 125 ming tonna gaz kondensati olish imkoniga ega gazdan propan-butan aralashmasi tayyorlash majmuasi ish boshladi. Bu kompleksning 1-bosqichi 2010-yil noyabr oyida ish boshlagan bo‘lsa, ikkinchi va uchinchi bosqichlari 2013 yil mart va avgust oylarida foydalanishga topshirilib, samara bera boshladi. Jami qiymati 244 mln AQSh dollariga teng bo‘lgan ushbu loyiha “O‘zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasi, O‘zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki va Xitoy taraqqiyot bankining krediti jalb etilishi orqali mablag‘ bilan ta’minlandi.

Zavodda mahsulot ishlab chiqarish miqdori o‘sib, 2016-yilda yiliga 33,5 mlrd³ metr tozalangan va quritilgan tabiiy gaz, 417000 t texnik oltingugurt, 186000 t gaz kondensati, 258000 t suyuq uglevodorodli suyultirilgan gaz tayyorlash darajasiga oshirildi[22]. Yoqilg‘i-energetika sohasida yangi sanoat obyektlarining barpo etilishidan maqsad faqatgina yuqori mahsuldorlik emas, ayni paytda energiyani tejash, ekologiyaga minimal ta’sirni ta’minlashga qaratilgan yangi texnologiyalarni qo‘llash ham demakdir. Aynan shu maqsadda 2020-yil 28-avgustda zavodda suyultirilgan gaz ishlab chiqarish qurilmasi foydalanishga topshirildi. Qurilishi 3 yil davom etgan ushbu qurilma yiliga 38,4 ming tonna suyultirilgan gazni ishlab chiqarish imkoniga ega edi. Muborak GQIZda propan-butan aralashmasini olish qurilmasi 4-liniyasi ish boshlashi siqilgan tabiiy gazni ishlab chiqarilishini ko‘paytirishga yordam berib, sanoat va turar-joy kommunal xo‘jaligi tashkilotlarining mazkur mahsulotga bo‘lgan ehtiyojini qoplashga sababchi bo‘ldi.

Muborak GQIZning ishlab chiqarish obyektlari nafaqat Qashqadaryoda, balki Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarida ham joylashgan edi. 600 ga yaqin burg‘ilash qurilmalaridan foydalangan holda 33 konda neft va gaz qazib olinib, qayta ishlandi. “Ko‘kdumaloq”, “Zevarda”, “Alan” singari konlarida 7 ta kompressor stansiyalari faoliyat ko‘rsatdi. Zavodda 12 millatga mansub 3200 ga yaqin kishi mehnat qildi.

Istiqlol yillarida korxonaning ko‘plab ilg‘orlari yuksak mukofotlar bilan taqdirlandi. Xususan, Q.Mo‘minov “O‘zbekiston Qahramoni”, N.Zayniyev, O‘.Umarov, B.Rustamov, Sh.Ko‘klamovlar O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan sanoat xodimi va “Mehnat shuhrati” ordeni bilan, O.Shatalin, Q.Ro‘ziyevlar “Do‘stlik” ordeni, S.Xushbaqov “Fidokorona mehnatlari uchun” ordeni bilan mukofotlandilar.

. 2020-yilda ish boshlaganiga 40 yil to‘lgan voha sanoati rivojida muhim o‘rin tutuvchi **Sho‘rtan neft-gaz korxonasi**da ham ishlab chiqarish hajmi o‘sib bordi. G‘uzor yaqinidan uzunligi – 18,5 km, kengligi –17, chuqurligi – 476 metrli dastlabki gaz koni ochilgach, shu asosda

uglevodorod xomashyosini o‘zlashtirish boshlandi. Natijada hududning gaz zaxirasi 635 mlrd metr³ga yetdi. 1996-yilda Sho‘rtan gaz ishlab chiqarish boshqarmasida esa 13 ta batareyaning qurilishi, 2 blokda rekonstruksiya ishlari tugallanishi esa gaz ishlab chiqarish miqdorini kuniga 5 mln metr³ga oshirdi. .

1998-yilning dekabrida “Qarshineftgaz” neft konlari boshqarmasi tugatilib, bir necha konlar “Muborakgaz”, ayrimlari esa “Sho‘rtangaz” gaz konlari boshqarmasiga qo‘shib yuborildi. Bunga Sho‘rtan hududida “Shakarbuloq” neft mahsuldor konining ochilishi sabab bo‘ldi. O‘z navbatida bu boshqarmalar bir vaqtning o‘zida gaz va neft qazib chiqarishni o‘z zimmasiga oldi. Chunki neft konlaridan bir vaqtning o‘zida neft, oltingugurt, gaz, kondensat va boshqa qazilma boyliklarni ajratib olish markazlashtirildi. Shu sababli ham Qashqadaryo viloyati hududidagi 3 tashkilotning biri tugatilib, “Muborakneftgaz” va “Sho‘rtanneftgaz” unitar shu‘ba korxonalari sifatida faoliyat boshladi. . Shuni ta’kidlash joizki, Sho‘rtan gazining tarkibi nihoyatda boyligi bilan ajralib turadi. Unda propan, butan va kimyo sanoatida ishlatiladigan boshqa elementlar aniqlandi[23]. . .

“Sho‘rtanneftgaz” (nizom jamg‘armasidagi ulushi 50%), Shveysariyadagi “Zeromax Gmbh”(25%) va Buyuk Britaniyadagi “Arch Energy Ltd”(25%) ishtirokida “Sho‘rtangazmahsulot” qo‘shma korxonasi tuzildi. 2008-yil iyul oyida korxonada yiliga 6 mlrd kubometr gazni qayta ishlash, suyultirilgan gaz va kondensat ishlab chiqarishga mo‘ljallangan gazdan propan butan aralashmasi olish qurilmasi ishga tushirildi. Natijada ishlab chiqarish quvvati yiliga 3 mlrd metr³ tabiiy gazni qayta ishlab, undan 28 ming tonna propan, 25 ming tonna butan hamda 21 ming tonna kondensat ajratib olish imkonini berdi.

. 2019-yilda “Sho‘rtanneftgaz” mamlakatda ishlab chiqarilgan yonilg‘i mahsulotlariga qayta ishlangan gazning 26%, neftning 30,6% 25,5% – kondensat, 35,7% – propan-butan, 0,6% – oltingugurt bilan ulush qo‘shdi. 2020-yilda esa bu yerda suyultirilgan gaz ishlab chiqarish bloki ish boshladi. Gaz 12 ta kondan qazib olinib, 140 ga maydondagi ishlab chiqarish va qayta ishlash zavodida uchta kompressor stansiyasi majmuasiga uzatildi. AQSh, Rossiya, Ukrainadan zamonaviy gaz turbinalari bilan ta’minlangan uskunalar keltirildi. Shuningdek, tashkilot “Hisorneft-gaz”, “Epsilon Development” va “Lukoyl” kompaniyalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi[24].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida zamonaviy, jahon andozalariga mos keluvchi sanoat korxonalari barpo etildi. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya va modernizatsiya qilish bo‘yicha davlat dasturi amalga oshirildi. Bundan tashqari, import o‘rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahalliy xomashyodan foydalanishni ko‘paytirish maqsadida korxonalarda yangi texnologiyalarni joriy etish izchil amalga oshirib borildi. Qashqadaryo viloyatida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqarishda raqobat muhitini yaratish, soliq yukini yengillashtirish, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovini kamaytirib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – B.313.

2. Olimjonov O. va boshq. O‘zbekiston hududlari mustaqillik yillarida. –Toshkent: Sharq, 1996.– B.172.

3. Ergasheva J. O‘zbekiston tarixini o‘rganish jarayonida Qashqadaryo sanoatining vujudga kelishi va rivojlanishi tajribasidan yosh avlodni tarbiyalashda foydalanish. –Toshkent: Fan, 2000. –B.19.

4. Yuksaklik sari // Nishon tongi,1999 yil, 16 iyul.

5. Qarang: Qashqadaryo viloyati istiqlol yillarida. Mualliflar guruhi rahbari A. Erkayev.– Toshkent: Ma’naviyat, 2007.– B.14; O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 8-jild. –T.: O‘zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. –B.242.

6. Temirov B.Talimarjon IESning quvvati va qudrati // Qashqadaryo, 2015-yil, 8-avgust.

7. Jo‘rayev M. 10 yilda 54 milliard kVt/soat elektr energiyasi // Qashqadaryo, 2015-yil, 31-mart.

8. Abdurahmonov Q. O‘zbekistonda inson omili va manfaatlari – eng oliy qadriyat. –Toshkent, 2017.– B.337.

9. Muhammadiyev A. Energetika tizimida yana bir istiqbolli loyiha // Xalq so‘zi, 2016-yil, 25-avgust. № 165 (6600).

10. O‘zMA M-37-fond, 1-ro‘yxat, 1631-ish, 68-varaq.

12. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.–Toshkent: O‘zME DIN., 2004.–B.242.

13. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B.313.

14. Soliyev A.O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi.– Toshkent, 2014. – B.287.
15. O‘zMA M-37-fond, 1-ro‘yxat, 1631-ish, 23-varaq.
16. O‘zMA M-37-fond, 1-ro‘yxat, 1631-ish, 65-varaq.
17. O‘z MA M-37-fond, 1-ro‘yxat, 1631-ish, 23-27varaqlar .
18. O‘z MA M-37-fond, 1-ro‘yxat, 1631-ish, 23-varaq.
19. Omonov O. Muborak gazni qayta ishlash zavodi–35 yoshda.-Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.- B. 9.
20. Temirov B. Ikkinchi bosqich nihoyasiga yetkazildi // Qashqadaryo, 2007-yil, 30 yanvar.
21. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi (QVHA), 858-fond, 1-ro‘yxat, 77-ish, 9-varaq.
22. QVHA 858-fond, 3-ro‘yxat, 1-ish, 2-varaq.
23. Nizayev T.“O‘zbekneftgaz”:Yer osti boyliklari – respublika aholisi va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish uchun.– Pv.uz.– 2020-yil, 6-mart.
24. Темиров Б.“Oltin yo‘l GTL” бренди остида // Қашқадарё, 2012 йил, 27 июль.

QORAQALPOG‘ISTONDA DASTLABKI ILMIY EKSPEDITSIYALAR TARIXIDAN

Elmuratov Ikmatulla Gaybullayevich
Qoraqalpoq davlat universiteti (PhD) dotsent
ikmatulla.elmuratov@gmail.com
ORCID 0009-0002-2110-4426
УДК 930.2(575.172) «19»

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshlarida Qoraqalpog‘istonda ilmiy kadrlarlarga bo‘lgan talab va davlat tomonidan amalga oshirilgan dastlabki ilmiy-tadqiqot ishlari haqida so‘z boradi. Shuningdek, maqolada hududga dastlabki amalga oshirilgan ekspeditsiyalarda qoraqalpoq xalqining madaniyatini, adabiyoti hamda tilshunosligining asoschilari va etnik tarixiga tegishli izlanishlar yoritiladi. Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston hududida katta tadqiqot ishlarini amalga oshirish natijasida Orol dengizi holatlarini o‘rganish, turkolog olimlar ekspeditsiyasi, etnografik ekspeditsiya, qoraqalpoq tili grammatikasini o‘rganish, qoraqalpoq tilidagi dastlabki darsliklarning chop etilishi maqolada ko‘rsatilgan. 1920-yillarning o‘rtalarida Qoraqalpog‘iston hududida ilmiy-tadqiqot ishlari va qimmatbaho boyliklaridan biri bo‘lgan baliq turlari va zaxirasi, Amudaryoning quyi oqimida geologik izlanishlar olib borilishi va natijalari maqoladan o‘rin olgan. Qoraqalpog‘iston avtonomiyasi ilmiy-tadqiqot ishiga yanada ko‘proq e’tibor qaratilishi, kompleks ilmiy tadqiqot institutini shakllantirish loyihasining tasdiqlanishi, institutda: 1) tarix bo‘limi; 2) geologiya-tuproqni o‘rganish bo‘limi, uning tarkibida botanika bo‘yicha kichik bo‘lim tashkil topishi; 3) pedologiya-pedagogika bo‘limi; 4) etnologiya va tilshunoslik bo‘limi; 5) biologiya bo‘limi; 6) iqtisodiyot bo‘limlarining tashkil etilishi va ushbu bo‘limlarda mehnat qilgan ilm ziyolilari haqida so‘z yuritilgan.

Tayanch so‘zlar: Qoraqalpog‘iston, ilmiy kadrlar, ilm-fan, tadqiqot ishlari, ekspeditsiya, qoraqalpoq tili, etnomadaniyat.

FROM THE HISTORY OF THE FIRST SCIENTIFIC EXPEDITIONS IN KARAKALPAKSTAN

Abstract. This article examines the demand for scientific personnel in Karakalpakstan at the beginning of the 20th century and the initial research work being conducted by the state. The article also covers research related to the founders of Karakalpak culture, literature, and linguistics, as well as the ethnic history of the Karakalpak people during the first expeditions to the region. The article demonstrates that as a result of large-scale research conducted by the Academy of Sciences in Karakalpakstan, the state of the Aral Sea was studied, expeditions of Turkologist scholars and ethnographic expeditions were organized, the grammar of the Karakalpak language was examined, and the first textbooks in the Karakalpak language were published. It describes scientific research work in Karakalpakstan in the mid-1920s, including the study of fish species and their stocks, which are one of the valuable resources of the region, as well as the results of geological research in the lower reaches of the Amu Darya. The article also discusses the increased attention to research work in the Karakalpakstan Autonomous Region, including the approval of a project to establish a comprehensive research institute consisting of the following departments: 1) historical; 2) geological and soil science with a botany subdivision; 3) pedological and pedagogical; 4) ethnology and linguistics; 5) biological; 6) economic. The scientific intelligentsia working in these departments is mentioned.

Keywords: Karakalpakstan, scientific personnel, science, research work, Expedition, Karakalpak language, ethnoculture.

Kirish. Bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko‘tarishni talab qilmoqda. Zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin. Mazkur sohani va olimlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlatimizning ustuvor vazifalaridandir. Bu boradagi ishlar bugun izchil va tizimli ravishda davom ettirilmoqda [1]. Mustaqillikning dastlabki yillarida tilimiz, dinimiz va tariximizni o‘rganishga katta etibor qaratildi.

Ilm-fanni rivojlantirishda tarix fani ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi. Sababi o‘tmishimizdagi rivojlanish va kamshiliklarni ko‘rsatgan holda real voqelikka nazar tashlaymiz.

XX asr boshlarida Markaziy Osiyo davlatlari kabi Qoraqalpog‘istonda ham mahalliy xalq vakillari orasida ilmiy kadrlar sezilarli darajada kam edi. Rus olimlari o‘lkaning tarixini, iqtisodiyoti, geografiyasi, tabiiy boyliklari, ishlab chiqaruvchi sohalar turlari va madaniyatini tadqiq qilishdi. Rus olimlarning mamlakatning tabiiy boyliklarini o‘zlashtirish va boshqarish uchun mo‘ljallangan ilmiy-texnik mashg‘ulotlari reja asosida tizimli rivojlanishni boshlagan. Bunday muammo butun Markaziy Osiyo respublikalarining har birida bo‘lganligi va davlatlararo milliy kadrlarga bo‘lgan talabning oshishi XX asr boshida katta yeshim talab etgandi. Bu o‘z navbatida Markaziy Osiyo davlatlarida ilmiy-tadqiqot ishlari keng turda yo‘lga qo‘yildi, mahalliy xalq vakillaridan ilmiy kadrlar tayyorlandi. Buni o‘z navbatida Qoraqalpog‘istondagi ilm-fanning rivojida ham ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarixiylik, qiyosiy va muammoli-xronologik tahlil usullaridan foydalanildi. Unda XX asr boshlarida Qoraqalpog‘iston hududidagi dastlabki amalga oshirilgan ekspeditsiyalarda qoraqalpoq xalqining madaniyatini, adabiyoti hamda tilshunosligining asoschilari va etnik tarixiga tegishli izlanishlar hamda ilmiy-tadqiqot ishlarida qimmatbaho boyliklaridan biri bo‘lgan baliq turlari va zaxirasi, Amudaryoning quyi oqimida geologik izlanishlar tahlil etilgan.

Natijalar va muhokama. Markaziy Osiyo respublikalarida bo‘lganidek, Qoraqalpog‘istonda ham ilmiy kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. 1926-yilda Qoraqalpog‘iston avtonom viloyat partiya qo‘mitasining ikkinchi plenumi qarorida Qoraqalpog‘iston avtonom viloyatining tabiiy boyliklarini o‘rganish bo‘yicha qaror qabul qilingan [2].

Dastlab 1920-yillarning o‘rtalarida Qoraqalpog‘iston hududida ilmiy-tadqiqot ishlarining bir nechta ilmiy ekspeditsiyalari o‘rganilgan. Orol dengizi bo‘yicha 1925-yil L.S. Berg tomonidan ilmiy ekspeditsiya dengiz suvini o‘rgandi va ekspeditsiya davomida Qoraqalpog‘istonning qimmatbaho boyliklaridan biri bo‘lgan baliq turlari va zaxirasi, Orol dengizi holatlari o‘rganilgan. Ekspeditsiya materiallari ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, baliqchilik xo‘jaligini yo‘lga qo‘yishga yordam bergan [3]. 1924-1934-yillar I.P. Gerasimov Qoraqalpog‘iston hududida geomorfologik izlanishlar olib borgan.

Amudaryoning quyi tomonida, 1931-yil A.D. Arxangelskiy tomonidan geologik izlanishlar olib borilgan. 1926-yil turkolog olim professor N.A. Baskakov rahbarligidagi etnografik ekspeditsiya o‘z ishini boshlagan. Ekspeditsiya 1926, 1928, 1929-yillarda faoliyat olib borgan [4]. Uning faoliyatida o‘zlarini filologiya fanlari sohasiga bag‘ishlagan bir qancha mahalliy olimlar qatnashdi. Bu ekspeditsiya qoraqalpoqlarning madaniyatini, turmushini va tilini tadqiq qilishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Qoraqalpoq tilini o‘rganish dasturi 1930-yilda SSSR Fanlar akademiyasi va Qozog‘iston alifbosini o‘rganish qo‘mitasi tomonidan Qoraqalpog‘istonga S.Y. Malov jo‘natilgan. Uning oldiga qoraqalpoq tili orfografiyasining to‘g‘ri talqinini tuzish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish va qoraqalpoq tili grammatikasini tiklash vazifasi qo‘yildi.

S.Y. Malov boshchiligida etnografik-lingvistik ekspeditsiyasi tashkil etildi va uning tarkibiga “Mehnatkash qoraqalpoq” gazetasi muharriri T.S. Safiyev, xalq ta’limi vazirligi ilmiy xodimi N.A. Baskakov, viloyat muzeyi boshlig‘i I.V. Torchinskaya hamda etnograf A.Davlet [5], shuningdek, shu vaqtlardagi Qoraqalpog‘istonning yosh olimlari K. Ayimbetov, B. Yergaliyev, G. Ubaydullayev, yozuvchi M. Daribayev kirdi [6]. Ekspeditsiya muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Qozog‘iston xalq ta’lim komissariyatining ilmiy-metodik soveti va yangi qozoq alifbosi markaziy komiteti ekspeditsiyasining yakunlari bo‘yicha rezolyutsiyasida: “Qoraqalpoq lingvistik ekspeditsiyasi rahbari S.Y. Malovning g‘ayrati va katta tajribasi natijasida o‘zining xalq orasidan manba yig‘ish ishini muaffaqiyatli tamomladi”, – deb baholadi. Ekspeditsiya qoraqalpoq tili bo‘yicha boy materiallar yig‘di. Shu yig‘ilgan materiallar asosida S.Y. Malovning “Qoraqalpoq tili haqida maqolalar”, T.S. Safiyevning “Kegayli, Chimboy tumanlaridagi qoraqalpoqlarning xalq ijodiyotining namunalari” nomli ishi, N.A. Baskakov va T. Bekimbetovning “Qorao‘zak va Qo‘ng‘irot tumanlaridagi qoraqalpoqlarning xalq ijodiyotining namunalari” nomli ilmiy-ijodiy va ilmiy-metodik ishlari nashr qilingan [7]. 1930-yillar boshlaridan boshlab SSSR Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston hududida katta tadqiqot ishlarini yurgizishga kirishdi [8]. 1931-1932-yillarda Akademiya Qoraqalpog‘istonning ishlab chiqaruvchi kuchlarini va madaniyatini tadqiq qilish bo‘yicha kompleks ekspeditsiya tashkillashtirib, uning tarkibida geoximiya otryadi, Sulton Uvays tog‘ otryadi, G‘arbiy-Qo‘ng‘irot otryadi, geobotanika otryadi, cho‘llarni tadqiq

qilish otryadi va boshqa otryadlarni jalb qildi.

Kompleksli ekspeditsiyaning tadqiqot ishlari Qoraqalpog‘istonning butun hududiga yoyildi. Ekspeditsiyaning A.S. Poretskiy, F.Rusakova, K.S. Afanasev tarkibidagi geobotanika otryadi olib borgan ishlari natijasida Qizilqumning Qoraqalpog‘iston bo‘limi barcha hududidagi o‘simliklar zaxirasi haqida ma’lumotlar berildi. Ekspeditsiya tomonidan Qoraqalpog‘istonning tabiiy yaylovlari tadqiq qilinib, ular qishloq xo‘jaligi uchun foydalanishga berildi. 1920-yillarning o‘rtalaridan boshlab mahalliy xalq vakillaridan ham ilmiy ishlar bilan shug‘ullanuvchi kadrlar yetishib chiqa boshladi. Qoraqalpog‘iston avtonom oblastining tuzilishi bilan, kichik bo‘lsa ham, dastlabki ilmiy institutlar tashkillashtirila boshladi. Viloyat partiya komitetining 1926-yil 12-dekabrdagi xalq ta’limi bo‘limi qarori asosida 1928-yili viloyat xalq ta’limi bo‘limi qoshida metodik byuro tashkillashtirildi. Ilmiy-metodik sektorning atrofiga asosan amaliyotchilardan iborat bo‘lgan yosh lingvistlar, filologlar to‘plandi. Ularning dastlabki ishlaridan maqsad qoraqalpoq adabiy tilini rivojlantirish, folklorshunoslikka doir materiallarni yig‘ish va o‘rganish, darsliklar hamda yordamchi o‘quv qurollarini tayyorlash bo‘ldi. Ilmiy-metodik sektorning tarkibida ilmiy-terminonologik bo‘lim faoliyat yuritdi.

Qoraqalpoq xalqining madaniy turmushidagi katta voqea bu qoraqalpoq tilidagi dastlabki darsliklarning chop etilishi bo‘ldi. 1925-yilgacha qoraqalpoq tilida katta yoshdagilar uchun, shuningdek, umumiy ta’lim beruvchi qoraqalpoq maktablarida qozoq, o‘zbek, tatar tillaridagi darsliklar foydalanilib kelingan. Qoraqalpoq mehnatkashlarining savodsizligiga barham berish, yoshlarga o‘z ona tilida bilim berish vazifasi qoraqalpoq tilida darsliklarning to‘xtovsiz tuzilishini talab qildi.

Qoraqalpoq tilidagi eng birinchi darsliklar tuzishni Seyfulg‘abit Majitov (1869-1938) boshlab berdi. U o‘z davrida Qoraqalpog‘istondagi eng ziyoli odamlarining biri edi [9]. Uning dastlabki darsliklarni tuzishga tortilish vaziyati shunday bo‘ldi. Qoraqalpog‘iston oblasti partiyasi bo‘limi va Qoraqalpog‘iston avtonom viloyati sovetlarining birinchi tashkillashtiruvchi syezdi (1925 y.) Qozog‘iston bo‘yicha partiya qo‘mitasi bilan Qozog‘iston hukumati oldiga qoraqalpoq tilining imlosini va shu tilda darsliklar tuzishga ko‘maklashish masalasini qo‘ydi. Bu muammoni hal qilish uchun Qoraqalpog‘istondagi tilshunos olimlar orasidan S. Majitov nomzodi ma’qullanib, u Toshkentdagi Qozoq ta’lim institutiga chaqirilgan.

Bu yerda o‘zbek, qozoq olimlaridan yordam olib, S. Majitov qoraqalpoq tilidagi dastlabki darsliklar bo‘lgan “Alifbe”, “O‘qish kitobi”, “Yegedeler savoti”, “Kattalar savodi” nomli kitoblarni tuzib chiqdi. O‘sha kitoblar 1925-yilda Toshkentda chop etildi. S. Majitovga bu ulkan ishni amalga oshirishda Toshkentdagi Qozoq ta’lim instituti xodimlari yordam berdilar. A.A. Divayev, keyinchalik esa K. Ayimbetov va B. Ergaliyevlar hammuallifligida “Qoraqalpoq tilining alifbosi” kitobi chop etildi [10].

Yosh ilmiy xodimlarning kuchi bilan 1927-yildan boshlab tarixiy hujjatlarni, etnografik materiallarni to‘plashga kirishildi. Biroq 30-yillarning boshlariga qadar Qoraqalpog‘istonda ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiz va yetarli darajada shakllanmagan vaziyatda bo‘lgan edi.

Qoraqalpog‘istonda ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish bo‘yicha 1931-yilda qaror qabul qilingan. Ushbu qarorda: “Qoraqalpog‘iston avtonomiya viloyatini iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, qoraqalpoq xalqining tarixiy-inqilobiy yo‘lini, etnologik-etnografik va boshqa xususiyatlarini tubdan o‘rganish, Qoraqalpog‘iston avtonomiyasi ilmiy-tadqiqot ishiga yanada ko‘proq e’tibor qaratilishi ko‘rsatilgan [11]. Shu maqsadda viloyat partiya qo‘mitasi Qoraqalpog‘iston avtonom viloyatida kompleks ilmiy tadqiqot institutini shakllantirish loyihasini tasdiqladi. Institut 1931-yil avgustda ochildi [12]. Institut oltita bo‘limdan tashkil topdi: 1) tarixiy revolyutsiya bo‘limi; 2) geologiya-tuproqni o‘rganish bo‘limi, uning tarkibida botanika bo‘yicha kichik bo‘lim tashkil topdi; 3) pedologiya-pedagogika bo‘limi; 4) etnologiya va tilshunoslik bo‘limi; 5) biologiya bo‘limi; 6) iqtisodiyot bo‘limi. Institut respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda, madaniy inqilobni amalga oshirishda, qoraqalpoq xalqining ma’naviyatiga xos madaniyatini tuzishda katta rol o‘ynagan.

1932-yil oxirida Ilmiy-tadqiqot institutida bor-yo‘g‘i 10 nafargina ilmiy xodim ishlagan. Ko‘p o‘tmay institutda oliy ma’lumotli 50 nafar ilmiy xodim ish boshlagan. Ularning ichida besh nafar professor va olti nafar dotsent bo‘lgan [13].

Institutning tarix bo‘limi SSSR Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti ko‘magida qoraqalpoq xalqining tarixini o‘rganishni boshladi. Bo‘lim “1916-yilgi xalq qo‘zg‘oloni (arxiv materiallari bo‘yicha)”, “Rus imperializmi va Xiva xonligi (1873 - 1920 y.y.)”,

“Amudaryoning quyi yonbag‘rining iqtisodiy ocherklari” kabi mavzularni o‘rgandi [14].

Qoraqalpoq tilini tadqiq qilishda ham institut katta yutuqlarga erishdi. Bu sohada amalga oshirilgan ishlarning natijasida qoraqalpoq tili grammatikasi bo‘yicha kitoblar chiqdi. 1932-yilda T.S. Safiyev tahririyatida ayniqsa, kompleks ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy xodimi N.A. Baskakov tomonidan yozilgan “Qoraqalpoq tilining qisqacha grammatikasi” katta ahamiyat kasb etdi [15]. “U qoraqalpoq tili grammatikasi bo‘yicha birinchi kitob edi. Bu turkologiyadagi ulkan yutuq!” - deb yozilgan. Institutning katta yutuqlaridan yana biri qoraqalpoq tilining imlosini ishlab chiqishi bo‘ldi. Bu orfografiya 1932-yilda 1-orfografik konferensiyada chop etildi va Qoraqalpog‘iston ASSR hukumati tomonidan qabul qilindi. Uning tuzuvchilari G. Asqarov, G. Ubaydullayev va K.Ayimbetovlar bo‘ldi [16]. Institutdagi o‘quv dasturlarni, darsliklarni tuzishda xalq ta’limi muassasalari katta yordam berishdi. 1930-yillar boshidan boshlab aspirantura orqali yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash boshlandi. 1932-1935-yillari Moskva ilmiy-tadqiqot institutining aspiranturasida O‘zSSR Fanlar akademiyasining ilmiy a’zosi, tarix fanlari doktori Y.M. Do‘sumov, pedagogika fanlari doktori J.A. Urumbayevlar ta’lim olganlar.

Qoraqalpoq xalqining o‘tmishdagi tarixini o‘rganishda S.P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi yangi sahifani ochgan.

1934-yilda bir qator ilmiy ishlar, jumladan, A.Qidirbayev va K.Yermanov tomonidan “Qoraqalpoq tili fonetikasi va morfologiyasi” va N. Daukarayevning “Qoraqalpoq tilining sintaksisi” nomli asarlari bosmadan chiqqan. Bu kitoblar uzoq yillar davomida respublika maktablarida qoraqalpoq tili bo‘yicha darslik bo‘lib xizmat qilgan.

Qoraqalpoq tilining terminologiyasi va lug‘atlar tuzish sohasida ishlar olib borilib, shuning natijasida urushdan oldingi yillarda S.B. Bulatovning “Fizika bo‘yicha ruscha-qoraqalpoqcha lug‘at”, O.Boleshov hamda K. Kaniyevning “Matematika terminlarining ruscha-qoraqalpoqcha lug‘ati”, Sh.Baltabayevning “Botanika bo‘yicha ruscha-qoraqalpoqcha terminologik lug‘at”lari chop etildi. K. Kaniyev tomonidan qoraqalpoq tili shevalarining singarmonizmga boyligini yanada kengroq yoritish maqsadida ularni tadqiq etish yo‘lga qo‘yilgan.

1934-yilda Qoraqalpog‘iston kompleks ilmiy-tadqiqot instituti professori A.A. Sokolovning rahbarligi ostida lingvistik-folklorshunoslikka oid ekspeditsiya tashkil etilib, uning ishtirokchilari qoraqalpoq folklorining turli janrlari bo‘yicha boy material to‘planganlar. Ekspeditsiya tarkibida professor S.Y. Malov, N.A. Baskalov, N. Daukarayev, M. Daribayev va boshqalar ish olib bordilar. To‘plangan materiallar qoraqalpoq tilining alifbosi, imlosi, terminologiyasini takomillashtirish ishlarida katta yordam bergan .

Qoraqalpog‘istonning yosh adiblari ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Shuningdek, N. Daukarayev, I.T. Sag‘itov va K. Ayimbetovlarning qoraqalpoq adabiyoti masalalariga bag‘ishlangan maqolalari chop etilgan [17]. Bular mahalliy xalq vakillari orasidan yetishib chiqqan birinchi olimlar hisoblanadi.

Qoraqalpog‘istonda Najim Daukarayev, I.T. Sagitov, K. Ayimbetov, J.A. Urumbayev, G. Ubaydullayev, A. Qidirbayev, S. Majitov, A. Aytsheyev, B. Ergaliyev, K. Irmanov va yana boshqa olimlar o‘zlarining ilmiy-tadqiqot ishlarini shu davrlarda boshlashgan.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligi va tilshunosligining asoschilaridan biri bo‘lgan N. Daukarayev (1905-1953-yillar) 1930-yilda Olmotadagi Qozoq pedagogika institutini tugatib, Qozog‘istonning Qo‘stanay shahrida pedagogika texnikumida o‘zining o‘qituvchilik faoliyatini boshladi. 1932-1934-yillar Ural pedagogika institutida va shu yerdagi tibbiyot texnikumida qozoq tili va adabiyoti bo‘yicha ma’ruzalar o‘qigan. 1934-yilda u Qoraqalpog‘istonga qaytib kelib, Qoraqalpoq Davlat o‘qituvchilar institutida qoraqalpoq tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, dotsent bo‘lib faoliyat olib borgan. Shu vaqtdan boshlab, u qoraqalpoq tili va adabiyotini tadqiq etish bo‘yicha ancha samarali ishlar olib borgan. 1937-yilda uning ikkita ilmiy ishi: “Qoraqalpoq tilining sintaksisi”, “Qoraqalpoq alifbosining taraqqiyoti” bosmadan chiqdi. U o‘sha vaqtlarda qoraqalpoq adabiyotiga oid dasturlar tuzish bo‘yicha ham bir qancha samarali ishlar olib borgan.

Filologiya fanlari doktori K.M. Maksetov, N. Daukarayev “Folklordan boshlab hozirgi zamon qoraqalpoq adabiyotigacha fundamental ilmiy asarlarning asosini soldi”, — deb ko‘rsatgan I.Qosimbetov.

Qoraqalpog‘iston ilm-fanining yuksalishida tarix fanlari doktori, professor Yangibay Muhammadovich Do‘sumovning qo‘shgan hissasi beqiyosdir.

Y.M. Dosumov 1905-yilda Qoraqalpog‘iston ASSRning hozirgi To‘rtko‘l tumanida dehqon oilasida tug‘ildi. 1932-yildan boshlab Y.M. Do‘sumov Moskvadagi ilmiy-tadqiqot

institutida aspirant sifatida o‘z ilmiy faoliyatini boshladi. Y M. Do‘sumov Qoraqalpog‘iston ASSRdan chiqqan birinchi fan nomzodi. U 1939-yilda Moskva davlat pedagogika institutida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan, 1961-yilda esa doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpog‘istonda ilm fanning rivojlangan sohalari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari kengaygan. Mahalliy kadrlar bilan fundamental ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Rus olimlarining maqsadli ekspeditsiyalariga milliy kadrlar aralashuvi natijasida ilmiy tadqiqot rejalariga o‘zgarishlar kiritilgan. Qoraqalpoq tilining terminologiyasi va lug‘atlar tuzish sohasida ishlar olib borilib, shuning natijasida milliy darsliklar ishlangan.

Mustaqillik yillariga kelib O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Qoraqalpog‘iston ilimiy tadqiqot institutlari tomonidan katta ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu ilmiy loyihalar davlatimizning ertangi kuniga ichonshli dadil qadam hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Илм-фан ютуқлари тараққиётнинг муҳим омили.// “Халқ сўзи” газетаси. 2016 йил, 31 декабрь, №259 (6694).
2. Қосымбетов И. Қарақалпақ совет интеллигенциясының тарийхынан. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1970. – 38 б.
3. Сулайманов С. Арал теңизи Әмиўдәрья суў жоллары тарийхы. (XIX әсирдиң 70-жыллары-XX әсирдиң 80-жыллардың биринши ярымы) – Нөкис: Қарақалпақстан, 2023. – 36 б.
4. Шалекенов У.Х. Очерки по истории культуры советской Каракалпакии. - Нукус: Каракалпакстан, 1960. – 105 с.
5. Малов. С.Е. Заметки о каракалпакском языке. - Нукус: Каракалпакстан, 1966. – 6 с.
6. Очерки истории Каракалпакской АССР, т. II. - Нукус: Каракалпакстан, 1977. – 200 с.
7. Айтмуратова Ж. Қорақалпоғистон маданияти тараққиётида фан, адабиёт ва санъат арбобларининг тутган ўрни. – Нукус: Nur turan print, 2024. 6 -б.
8. Материалы по производительным силам Узбекстана, вып. 1. Каракалпакская АССР. - Ташкент, 1950. – 9 с.
9. Айтмуратова Ж. Қорақалпоғистон маданияти тараққиётида фан, адабиёт ва санъат арбобларининг тутган ўрни. – Нукус: Nur turan print, 2024. – 6 с.
10. Қосымбетов И. Қарақалпақ совет интеллигенциясының тарийхынан. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1970. – 40 б.
11. Бекбергенов А., Пахратдинов Қ. Қарақалпақ тилин иззертлеўшилер. (Биобиблиографиялық очерклер). – Нөкис: Қарақалпақстан, 2000. – 3 б.
12. Қосымбетов И. Қарақалпақ совет интеллигенциясының тарийхынан. Нөкис: Қарақалпақстан, 1970. – 43 б.
13. Қосбергенов Р. Каракалпакстанда Совет власты жылларында илимниң раўажланыўы. Нөкис: Қарақалпақстан. 1957, – 8 б.
14. Баскаков Н. Комплексный научно-исследовательский институт Каракалпакской АССР. - Научный журнал «Просвещение национальностей», 1932, № 8-9, 115-с.
15. Баскаков Н. Краткая грамматика Каракалпакского языка. - Турткуль: Каракалпакстан, 1932. – 25 с.
16. “Совет Қарақалпақстаны” газетасы, 1962-ж. 21-декабрь.
17. Есемуратов Г.,Даукараев Н. Илимий-биографиялык очерк. Нөкис: Қарақалпақстан, 1965.–50 б.

MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARDA IQTISODIY ISLOHOTLAR NATIJASIDA JANUBIY VILOYATLARDA ISHBILARMON, TADBIRKOR AYOLLAR FAOLIYATINING RIVOJLANISHI VA UNING AHAMIYATI

Rahmonkulova Oksana Alikulovna
T.f.f.d (PhD), dotsent.
Qarshi davlat universiteti,
oksanarahmonkulova@gmail.com
ORCID 0009000695457469
UDK 330.190.2:342.82(045)

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridayoq iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan islohotlar va ularning natijalari keltirilgan. Xotin-qizlarning ushbu islohotlarda ishtiroklari asoslangan. Ishbilarmon ayollar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, xotin-qizlar o‘rtasida mulkdorlar sinfini shakllantirish dolzarb masala ekanligiga urg‘u berilgan. Tadbirkor ayollar mehnati va imkoniyatlari tahlil etilgan. O‘zbekistonda iqtisodiyotning rivojida ayollar hissasi ahamiyati yoritilgan. Tadbirkor, ishbilarmon ayollar amaliy faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlar ilmiylashtirilgan. Statistik raqamlar bilan tahlil etilgan. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tadbirkor xotin-qizlarning

o‘ziga xos muammolarini tahlil qilish bilan birga, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir huquqiy asoslari keltirilgan. Xorijiy jamg‘armalar, bank tizimlarida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq yechimlar dalillangan. Xronologik ketma-ketlikda tahliliy yondashuv metodidan foydalanib faol tadbirkor xotin-qizlarning faoliyatidan misollar keltirilgan. Respublikada tashkil etilgan “Hunarmand” uyushmasi, viloyatlarda tashkil etilgan bo‘linmalarning funksional vazifalari haqidafikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada xotin-qizlarning ish bilan ta’minlanish jarayonida tadbirkor ayollarning o‘rni borligi dalillangan hamda amaliy natijalari ko‘rsatilgan. Xotin-qizlarning bandligi, yaxshi mehnat sharoitlari ta’minlanganligi, ishlab chiqarish salohiyatining ortishi mamlakatimiz iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutishi xulosalangan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlik, ishbilarmon ayol, fermer ayol, bandlik, xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash, xotin-qizlar uchun kredit to‘lovlari, oilaviy tadbirkorlik.

THE DEVELOPMENT OF THE ACTIVITY OF BUSINESSMEN AND ENTREPRENEURIAL WOMEN IN THE SOUTHERN REGIONS AS A RESULT OF ECONOMIC REFORMS IN THE FIRST YEARS OF INDEPENDENCE AND ITS SIGNIFICANCE

Abstract. This article presents the reforms aimed at supporting economic activity in our country in the early years of independence and their results. The participation of women in these reforms is justified. It is emphasized that supporting the activities of businesswomen and forming a class of owners among women is a pressing issue. The work and opportunities of women entrepreneurs are analyzed. The importance of women's contribution to the development of the economy in Uzbekistan is highlighted. Data related to the practical activities of entrepreneurs and businesswomen are scientifically analyzed. They are analyzed with statistical figures. Along with analyzing the specific problems of women entrepreneurs in Kashkadarya and Surkhandarya regions, the legal basis for supporting them is presented. Solutions related to supporting women in foreign funds and banking systems are substantiated. Examples of the activities of active women entrepreneurs are presented in chronological order using the analytical approach method. The article discusses the functional tasks of the "Khunarmand" association established in the republic and its divisions in the regions. The article also proves the role of women entrepreneurs in the process of providing women with employment. The practical results are shown. Employment of women, ensuring good working conditions. It is concluded that increasing production potential plays an important role in the economic life of our country.

Key words: economic reforms, entrepreneurship, business woman, woman farmer, employment, women's employment, loan payments for women, family business.

Kirish. XX asr ikkinchi yarmi – XXI asrda dunyo miqyosida ayollarga bo‘lgan munosabatdagi o‘zgarishlar va gender tengligi masalasining barqaror rivojlanish omili deb hisoblanishi natijasida xotin-qizlar masalasiga global muammolar sifatida e’tibor qaratila boshlandi. Bu esa o‘z navbatida xotin-qizlar muammolarini hal qilishning yangicha tamoyillarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqardi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti sharoitida ayollarni ishlab chiqarish sohalarida jalb etish borasida respublika miqyosida bo‘lganidek, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ham xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ishbilarmon ayollar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, xotin-qizlar o‘rtasida mulkdorlar sinfini shakllantirishga dolzarb masala sifatida qaraldi.

Tadqiqot metodologiyasi.Respublika xotin-qizlarining iqtisodiy hayotdagi o‘rni bo‘yicha ijtimoiy fanlarning turli sohalarida ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan, ular xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va ularning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish hamda yechimini hal qilishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga egadir. Xususan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyati xotin-qizlarining jamiyat iqtisodiy hayotidagi o‘rni masalasi alohida, maxsus tadqiq etilmagan. Shu bois o‘rganilgan tadqiqot natijalari, arxiv materiallari, gazeta-jurnallar tarixshunoslig nuqtayi- nazardan tahlil etishda asos vazifasini o‘taydi. Ayniqsa O‘zbekiston milliy arxivining M-37 fondi, Qashqadaryo viloyat davlat arxivining 829-fondi, Surxondaryo viloyat arxivining 1091-fondi, “Tadbirkor ayol” uyushmasining hisobot jildlari mazkur maqolada ko‘rsatilgan dolzarb muammoni yechimi uchun uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama. Masalan, tadbirkorlarni xorijiy jamg‘armalar orqali qo‘llab-quvvatlash maqsadida BMTning “Ayol va taraqqiyot” dasturi asosida Chiroqchi tumanidagi “Beshchashma” jamoa shirkat xo‘jaligi tadbirkor ayollariga 160 ming AQSH dollari hisobida viloyat xotin-qizlar o‘quv markazlarida seminar va tadbirlar uyushtirish uchun ajratildi. Bunga bevosita BMT ning O‘zbekistonda rivojlantirish bo‘yicha texnik maslahatchisi Abegar Vilmarning

hissasi katta bo‘ldi. U 1997-yilda O‘zbekistonga kelib Qashqadaryo viloyatida “O‘zbekistondagi ayollar mavqeyini ko‘tarish” loyihasini birinchi Chiroqchi tumanida 2 ta ayollar trening markazini ochishdan boshladi. Ya’ni “Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish doirasida nodavlat va notijorat tashkilotlarini rivojlantirish”[1] loyihasi. Natijada, shu dastur asosida tadbirkorlikni rivojlantirish istagidagi tadbirkor ayollar uchun 300 ming AQSh dollari hisobida mikrokredit loyihalashtirildi [2].

1995-yil tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullangan ayollar Qashqadaryo viloyatida 1573 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 1996-yilga kelib tadbirkor ayollar 2019 nafarga yetdi. Surxondaryo viloyatida bu ko‘rsatkich 1995-yili 145 nafarni tashkil etib, 1996-yili esa 195 nafarga yetdi [3]. Demak, Qashqadaryo viloyatida bir yil mobaynida tadbirkor ayollar soni 446 nafarga, Surxondaryo viloyatida esa 50 nafarga oshdi [4]. O‘zbekistonda hunarmandlarning huquqlarini himoya qilish, qulay ish sharoitlarini yaratish maqsadida ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirildi [5]. Shulardan biri sifatida bunday samarali ishlar natijasida mamlakatda tadbirkorlik subyektlarining ko‘payishi, turli mahsulotlarni ishlab chiqarishga bo‘lgan talabning yildan yilga oshishi tadbirkorlarning hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga bo‘lgan rag‘batini kuchaytirdi. Tadbirkorlik sohasida hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda va turli yo‘nalishlarini rivojlantirishda yangi an’analar bilan boyitish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 31-martdagi PF-1741-sonli Farmoni [6] asosida 1997-yil 4-yunda “Hunarmand” uyushmasi tashkil etildi. Respublika bo‘yicha uyushmaning 13 ta boshqarma, 153 ta hududiy bo‘limi faoliyat ko‘rsatdi [7].

Bugungi kunda xotin-qizlar tadbirkorlikda rasmiy ro‘yxatdan o‘tgach e’tirof etilsa-da, aslida ularning soni yuz minglab, chunki o‘zbek xonadonlariga kirganda qo‘lda to‘qilgan gilamlar, qo‘lda tayyorlangan uy jihozlarini ko‘rish mumkin. Ayniqsa Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida ishsiz deb e’tirof etilgan aksariyat ayollar ham nimadir yaratadi. Masalan, gilam to‘qiydi, ko‘rpa-to‘shak, kashtachilik, tandir yasash, savat to‘qish, sut-qatig‘ni qayta ishlab ro‘zg‘ori uchun moddiy boylik yaratadi.

Imkoniyatlar samarasi sifatida, ayollar tomonidan tashkil etilgan korxonalar 1997-yilga kelib Qashqadaryo viloyatida 53tani, Surxondaryo viloyatida esa 56tani tashkil etdi. Shuningdek, xotin-qizlar tomonidan xorijiy investitsiyalar asosida faoliyati yo‘lga qo‘yilgan korxonalar soni Qashqadaryo viloyatida 37tani, Surxondaryo viloyatida esa 30tani tashkil etdi [8].

Qashqadaryoda mustaqillikning ilk yillarida Gulchehra Pirimqulova, Nazira Shodmonovalar tadbirkorlikni rivojlantirishda katta hissa qo‘shdilar. Jumladan, ular tomonidan qurilgan “Navro‘z”, “Mehriyona” maskanlari Qarshi shahrining ko‘rkiga ko‘rk qo‘shdi [9].

Maktab-kollejlar uchun qulay mebel ishlab chiqara boshlagan Salomat Kamolova rahbarlik qilayotgan “Qarshimebel” jamoasi, shuningdek, Respublika Prezidenti sovriniga sazovor bo‘lgan Qarshi tumanidan Xumora Bekmurodova, Shohida Tursunova, “Hunarmand” uyushmasining Shahrisabz hududi rahbari Gulnora Odilovalar izdoshlari ko‘paydi [10].

Arxiv ma’lumotlariga ko‘ra, Surxondaryo viloyatida 1997-yil 6800 obyekt xususiylashtirildi. Bunday obyektning yarmida, ya’ni 3400 tasida xotin-qizlar faoliyat olib bordi. Shuningdek, viloyatda yakka tartibda faoliyat ko‘rsatgan tadbirkorlar soni 9 ming nafardan ortiq bo‘lib, ulardan 6 ming nafarga yaqinini xotin-qizlar tashkil etdi [11].

1998-yilga kelib Surxondaryo viloyatining shahar, tuman va qishloqlarida xususiy va kichik korxonalar negizida hissadorlik jamiyatlarini tashkil etgan ayollar safi anchayin kengaydi. Jumladan, faol tadbirkor ayollardan Zumrad Haitova (Qumqo‘rg‘on tumani), Sayyora Jovliyeva (Termiz tumani), Ruqiya Panjiyeva (Oltinsoy tumani), Gulsina Dilmuhammedova (Qiziriq tumani), Dilbar Yo‘ldosheva (Denov tumani), Beg‘am Soyipova (Boysun tumani), Malika Poshshayevalarning faoliyatlari [12] e’tiborga molik bo‘ldi. Xuddi shunday tadbirkor ayollar Qashqadaryo viloyatida ham yuqori ko‘rsatkichiga ega. Masalan, Feruza Xudoyqulova (Shahrisabz tumani), Zaynab Gulbayeva (Qarshi shahri), Go‘zal Sharopova (G‘uzor tumani), Raqiba Shavliyevalar shular jumlasidandir [13].

Surxondaryo viloyatida xususiy tadbirkorlikni va o‘rta biznesni jadal rivojlantirish asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish uchun qulay shart-sharoit yaratilib, jamiyatda tadbirkorlik muhiti shakllandi. Respublikada hunarmand, tadbirkor, fermerlarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 1998-yil “Tashabbus–98” ko‘rik-tanlovi tashkil etildi (O‘zbekistonda 1995-yildan buyon tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Tashabbus” ko‘rik-tanlovi o‘tkaziladi). Termiz shahrida bo‘lib o‘tgan viloyat bosqichida “Eng yaxshi tadbirkor ayol” sovrini tashkil etilib,

unga Termiz shahridagi “Navro‘z” xususiy firmasining rahbari Tamara Kenjaboyeva munosib ko‘rildi. “Tashabbus” ko‘rik-tanlovining tuman, shahar bosqichida jami 585 nafar tadbirkorlik subyektlari ishtirok etib, ulardan 236 nafari tadbirkor, 130 nafari dehqon-fermer va 219 nafari yakka tartibdagi hunarmandlardan iborat edi. “Tashabbus” ko‘rik-tanlovining viloyat bosqichida tuman va shahar bosqichi g‘oliblaridan 15 nafari tadbirkor, 14 nafar dehqon-fermer va 15 nafar hunarmand ishtirok etdi. Ko‘rik-tanlovning viloyat bosqichida “Kamol” dehqon fermer-xo‘jaligi boshlig‘i Eshmurodova Saida faxrli ikkinchi o‘rinni egallab, mini traktor bilan mukofotlandi [14].

1998–1999-yillar mulkdor ayollar sonini ko‘paytirish maqsadida Surxondaryo viloyatida qo‘shimcha 24 nafar ayollarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga ruxsat berildi. Birja savdolari orqali 20 nafar tadbirkor ayolga umumiy bahosi 2,2 mln. so‘mdan ortiq bo‘lgan 9,5 ming kv. metr yer maydoni ajratildi [15].

Qashqadaryoda “Tadbirkor ayol” uyushmasi yordami bilan ulgurji savdo bilan shug‘ullanuvchi Dilorom Qurbonovaga o‘z firmasini ochishda, Selina Veraga “Chevar” restoranini ochishda, Koson tumanida Risolat Ergashevaga aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish firmasini ochishga, G‘uzor tumanida Xosiyat O‘rinovaga maishiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha imtiyozli kreditlar olishda amaliy ko‘mak berildi [16].

Iqtisodiy sohada xotin-qizlarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida vohalarda muhim vazifalarga e’tibor qaratildi. Xotin-qizlar tomonidan kichik va o‘rta, qo‘shma korxonalar tashkil etish va ularga ko‘maklashish, ikkinchidan, hududlarda tadbirkor va ishbilarmon ayollar safini oshirish, uchinchidan, xotin-qizlar uchun imtiyozli kreditlar berish hamda ularning miqdorini ko‘paytirish, to‘rtinchidan, ishbilarmon ayollarni rag‘batlantirish, ularni xususiylashtirish jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlash kabi muhim vazifalar shular jumlasidandir [17].

Respublikaning boshqa viloyatlari singari Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ham tadbirkorlik ishlari “Tadbirkor ayol” uyushmasi bilan hamkorlikda boshlangan. Jumladan, bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda Surxondaryo viloyatida birinchi bo‘lib 1993-yili “Qumqo‘rg‘on” savdo-sotiq tashkiloti Zumrad Haitova tomonidan hissadorlik jamiyatiga aylantirildi. U o‘zining aksiyalarini sotdi va 140 nafar kishini ish bilan ta’minlab ishlab chiqarish faoliyatini yo‘lga qo‘ydi [18].

1994-yil Angor tumanida “Qorasuv” jamoa xo‘jaligi hududida “Ali-bobo” fermer xo‘jaligi tashkil etildi. Xo‘jalikda S. Mamanova tashabbusi bilan 300 bosh qoramol boqilib, davlatga go‘sht sotildi [19]. 1994-yil Denov shahridagi “Gulnora” xususiy firmasi G.Haydarova rahbarligida tashkil etildi. Ushbu firma asosan keng iste’mol mollarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanib, tadbirkorlik faoliyatini olib bordi [20].

Bu kabi tadbirkor ayollar Qashqadaryo viloyatida ham uchradi. Masalan, 1994 yil Qarshi tumanida X.Bekmurodova tomonidan “Xumor” fermer xo‘jaligi, N.Xudoyqulova tomonidan esa “Ulug‘bek” nomli shirkat xo‘jaligi tashkil etildi [21].

Mamlakatda tadbirkorlik subyektlarini mikrokreditlashga oid me’yoriy-huquqiy asos yaratilgani tadbirkor ayollar faoliyatini rivojlantirish uchun zarur moliyaviy manbalarni ajratishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Tadqiqot natijasiga ko‘ra, O‘zbekistonda tadbirkor ayollar boshlang‘ich kapital manbaining 67 foizi oilasi, turmush o‘rtog‘idan, 33 foizi bank kreditlaridan jalb qilinishi [22] aniqlandi.

Respublikada 2013-yilga kelib tadbirkorlarning 50 %ini ayollar tashkil etdi. Tadbirkor ayollarning 62 %i o‘rta maxsus ma’lumotga, 24 %i o‘rta ma’lumotga, 14 %i oliy ma’lumotga ega. Ayollar rahbarlik qilayotgan korxonalarda umumiy ishchilar sonining 48 %ini ayollar tashkil etdi [23].

Xulosa va takliflar. Xullas, o‘rganilayotgan davrda janubiy viloyatlarda ishbilarmon tadbirkor ayollar faoliyati rivojlanib, amaliy natijalarga erishildi.

Mamlakatda ayollarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ularning erkinligi, moddiy ahvolini yaxshilash bo‘yicha ko‘plab samarali ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida xotin-qizlarning bandligi, yaxshi mehnat sharoitlari ta’minlandi. Ishlab chiqarish salohiyatining ortishi mamlakatimiz iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutib kelmoqda. Masalaning yechimida xotin-qizlar o‘rtasida tadbirkorlik, kasanachilik mehnatini qo‘llash sohasini kengaytirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlariga ayollarni jalb qilish ko‘rsatkichini kiritish maqsadga muvofiqdir

Foydalanilgan adabiyotlar

1. QVHA, 829-fond, 15-ro‘yxat, 89-ish, 27-varaq.
2. QVHA, 829-fond, 15-ro‘yxat, 56-ish, 5-varaq.

3. O‘zMA, M-37 fond, 1-ro‘yxat, 2559-ish, 133-varaq.
4. O‘zMA, M-37 fond, 1-ro‘yxat, 2559-ish, 133-varaq.
5. Qashqadaryo viloyat “Tadbirkor ayol” uyushmasining 2014-yil uchun tayyorlangan hisoboti papkasidan.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 31-martdagi “Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atni yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-1741 sonli Farmoni // https://lex.uz/docs/168968
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 4-iyuldagi “Hunarmand” xalq hunarmandlari uyushmasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to‘g‘risida”gi 282-sonli Qarori // https://lex.uz/docs/540056
8. O‘zMA, M-37-fond, 1-ro‘yxat, 2559-ish, 133 varaq.
9. QVHA, 829-fond, 15-ro‘yxat, 66-ish, 3-varaq.
10. QVHA, 829-fond, 15-ro‘yxat, 66-ish, 3– 4 varaqlar.
11. SVDA, 1091-fond, 1-ro‘yxat, 547-ish, 58- varaq.
12. SVDA, 1091-fond, 1-ro‘yxat, 830-ish, 32– 33 varaqlar
13. QVHA, 829-fond, 15-ro‘yxat, 62-ish, 52-varaq.
14. SVDA, 1091-fond, 1-ro‘yxat, 830-ish, 30-varaq.
15. SVDA, 1091-fond, 1-ro‘yxat, 547-ish, 93-varaq.
16. QVHA, 829-fond, 15-ro‘yxat, 62-ish, 74-varaq.
17. Qashqadaryo viloyat hokimligining 2004-yilgi hisobot papkasidan.
18. SVDA, 1091-fond, 1-ro‘yxat, 547-ish, 51-varaq.
19. SVDA, 1091-fond, 1-ro‘yxat, 547-ish, 51-varaq.
20. SVDA, 1091-fond, 1-ro‘yxat, 547-ish, 52-varaq.
21. Inomova S. E’zozli ayol iqboli: davr – jamiyat – shaxs. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – B.28.
22. O‘z MA, M-170-fond, 1-ro‘yxat, 280-ish, 71-varaq.
23. O‘z MA, 170-fond, 1-ro‘yxat, 280-ish, 89-varaq.

HUJJATLAR, SHTAMPLAR, MUHRLAR, BLANKALAR TAYYORLASH VA ULARNI QALBAKILASHTIRISH JINOYATLARI TARIXI HAQIDA

Shavkat Rahmonov
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti
rahmonovshavkat64@gmail.com
ORCID 0009-0002-9345-2737
УДК 343.7(091)

Annotatsiya. Mazkur maqolada hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalarning vujudga kelishi, ularga bo‘lgan ehtiyoj hamda ularning shakllanishi, qalbakilashtirilishi tarixi hamda javobgarlik masalalari yoritilgan. Avvalo, soxta hujjatlar, shtamplar, muhrlar va blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish hamda g‘ayriqonuniy muomala qilish holatlari ana shunday hujjatlar, shtamplar, muhrlar va blankalar bilan ijtimoiy munosabatlar yuzaga kelgan vaqtdan boshlanadi. Chunki har bir hujjat, blanka yoki ma’lumotnoma shaxslarga u yoki bu harakatlarni qilish, muayyan yuridik aktni bajarish, muayyan huquq va imtiyozlardan foydalanish uchun shaxsda ana shunday hujjat mavjud bo‘lishi talab etiladi. Lekin bu kabi hujjatlarga ega bo‘lmagan shaxslar esa hujjatlar, shtamplar, muhrlar yoki blankalarni qalbakilashtirib, yoki qalbaki hujjatlardan foydalanib hal qilishga harakat qiladilar.
Kalit so‘zlari: jamiyat, davlat, fuqarolar, hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar, soxta hujjatlar, qalbakilashtirish, tayyorlash, foydalanish, javobgarlik.

ABOUT THE HISTORY OF THE CRIMES OF MAKING DOCUMENTS, STAMPS, SEALS, BLANKS AND COUNTERFEITING THEM

Abstract. This article covers the issues of the emergence of documents, stamps, seals, blanks, their need and the history of their formation, forgery, as well as responsibility. First of all, cases of making fake documents, stamps, seals and blanks, counterfeiting them and illegal treatment begin at a time when social relations with such documents, stamps, seals and blanks occurred. Because, each document, letterhead or reference persons is required to have such a document in a person in order to make these or that actions, to carry out a certain legal act, to exercise certain rights and privileges. But individuals who do not have such documents try to solve documents, stamps, seals or blanks by counterfeiting them or using forged documents.
Keywords: society, state, citizens, documents, stamps, seals, blanks, false documents, forgery, preparation, use, liability.

Kirish. Jamiyat rivojlanib borgan sari fuqarolar va ular o‘rtasidagi aloqalar, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy hayotini tartibga soluvchi qonun hujjatlari borgan sari ko‘payib

boradi. Natijada ularning faoliyatini tartibga solish uchun ko‘plab hujjatlar, shtamplar, muhrlar va turli-tuman blankalar ishlab chiqiladi va insonlarning turli sohalardagi faoliyatini tartibga solishda foydalaniladi.

Bu haqida o‘tgan asrning o‘rtalarida nemis kriminologi Frenk Tannenbaum “jamiyat qanchalik murakkablashib borsa, unda individga shunchalik qiyin bo‘lib boraveradi. Rioya qilinishi kerak bo‘lgan juda ko‘p miqdordagi sanksiya va qonunlar, ularning buzilishini ham ko‘paytiradi”[1] deb yozgan edi. Uning ushbu so‘zida ham ma’lum darajada haqiqat bor, chunki tarixiy manbalardan ma’lumki, u davrlarda ko‘plab yuridik harakatlar og‘zaki ravishda hal qilingan, odamlar uchun “lafz” (berilgan va’da) qat’iy bo‘lib, bergan so‘zida turmagan shaxslar yolg‘onchi hisoblangan va unga keyinchalik ishonishmagan.

Shu bois tadqiq qilinayotgan mavzu, ya’ni hujjatlarni soxtalashtirish holatlari tarixiga bir nazar tashlashni lozim topdik.

Soxta hujjatlar, shtamplar, muhrlar va blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish hamda g‘ayriqonuniy muomala qilish holatlari ana shunday hujjatlar, shtamplar, muhrlar va blankalar bilan ijtimoiy munosabatlar yuzaga kelgan vaqtdan boshlanadi. Chunki har bir hujjat, blanka yoki ma’lumotnoma shaxslarga u yoki bu harakatlarni qilish, muayyan yuridik aktni bajarish, muayyan huquq va imtiyozlardan foydalanish uchun shaxsda ana shunday hujjat mavjud bo‘lishi talab etiladi. Lekin bu kabi hujjatlarga ega bo‘lmagan shaxslar esa hujjatlar, shtamplar, muhrlar yoki blankalarni qalbakilashtirib, yoki qalbaki hujjatlardan foydalanib hal qilishga harakat qiladilar. Vaholanki, qalbaki hujjatlardan foydalanish jamiyat, davlat va fuqarolar manfaatlariga ma’lum miqdorda zarar yetkazadi. Shuning uchun bu kabi g‘ayriqonuniy harakatlarga har doim ham javobgarlik belgilangan.

Chunki har qanday jamiyatda ham hujjatlar, shtamplar, muhrlar va blankalarni qalbakilashtirishdan himoya qilish va ulardan g‘ayriqonuniy foydalanishning oldini olishga ehtiyoj zarurati bo‘lgan. Hujjatlarning vujudga kelishi va ular bilan muomalada bo‘lish qoidalarining ishlab chiqilishi bilan hujjatlarning qalbakilashtirilishi uchun javobgarlik yuzaga keladi. Bunday javobgarlik dastlab sud (qozi) mahkamasida nizolarni hal qilish zarurati sababli paydo bo‘lgan. Aslida o‘zbek xalqi ham jahondagi ko‘plab xalqlar singari chuqur ildizli, boy madaniy, ma’naviy, huquqiy va siyosiy meroslarga boy xalq hisoblanadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, O‘zbekiston hududlarida davlatchilik shakllanganiga 2750 yildan ko‘p vaqt o‘tgan. Mamlakatimiz olimlarining ta’kidlashicha, bu haqida jahondagi ko‘plab davlatlar ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlarining kutubxonalarida, arxiv va muzeylaridagi fondlarga ming-minglab yuridik hujjatlar (farmonlar, yorliqlar, inoyatnomalar, vasiqalar)[2] yuzlab yuridik asarlar, ularga yozilgan sharhlar saqlanmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimizda o‘tgan asr mobaynida hujjatlar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish uchun javobgarlik belgilangan qonun normalarini qisqacha tahlil qilishni lozim topdik.

Binobarin, O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng, 1864-1991-yillar mobaynida O‘zbekistondagi qonunlar Chor Rossiyasi qonunlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib qoldi. Chunki O‘rta Osiyo Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingunga qadar hududdagi Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklarida asosan shariat qonunlari amalda bo‘lgan. Shuning uchun shariat normalari asosida berilgan hujjatlar deyarli bir biridan farq qilmagan[3].

Buxoro amirligi va Xiva xonligi Rossiyaga protektorat qaram davlat sifatida saqlab qolindi. Qo‘qon xonligiga qarashli hududlar va Buxoro amirligining ayrim hududlarida Turkiston general-gubernatorligi va Turkiston harbiy okrugi tuzilib, Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi. Natijada mahalliy aholi uchun shariat qonunlari, ko‘chib kelganlar uchun esa Rossiya qonunlari qo‘llanila boshladi. Chunki Rossiya uchun bosib olingan hududlarda shariat qonunlari va odat normalarini saqlab qolish hududlarni boshqarishda juda ham qo‘l kelar edi. Prof. F.Bakirovning ta’kidlashicha, o‘sha davrdagi qozilar sudida quyidagilar, ya’ni birinchisi – iqror (da’vogar yoki javobgarning iqrorligi), ikkinchisi guvohlik (shohidlik) – guvohlar tomonidan berilgan ko‘rsatuvlar bo‘lsa, uchinchisi – qasam dalil hisoblangan. “Shariat” bo‘yicha musulmonlar yolg‘on gapirmaydigan kishilar deb taniladi. Shu sababli qozilar sudida hujjatlarni qalbaki deb bo‘lmas edi. Agarda hujjat qalbaki bo‘lsa, e’tiborsiz qoldirilar edi[4]. Lekin ishlar Turkiston general-gubernatorligida ko‘rilganda 1845-yildagi Sud Nizomi asosida hal qilingan bo‘lib, bu Nizomda har qanday shaxslar tomonidan hujjatlarni soxtalashtirishning bir necha turlari uchun javobgarlik

nazarda tutilgan edi. O‘rta Osiyo bir yuz o‘ttiz yilga yaqin Rossiyaga qaram bo‘lganligi va uning katta qismi Rossiya hududi tarkibiga kirganligi uchun O‘rta Osiyo qonunchiligi va hujjatlar ishlab chiqishda Rossiyaning ta’siri juda kuchli bo‘ldi. Ma’lumki, Rusda eng qadimgi huquqiy manba “Russkaya Pravda” qonunlar to‘plami hisoblanadi. Lekin ushbu qonunlar to‘plami yaratilgan davrda hujjatlar bo‘lmagan, biron bir faktni tasdiqlash uchun guvohlar yoki tegishli nishonalar bo‘lishi talab etilgan va shunga qarab faktning mavjudligiga ishonch hosil qilingan. Rusda hujjatlarni qalbakilashtirish jinoyat sifatida ilk bor 1550-yildagi Sud Nizomida ko‘rsatilgan bo‘lib, Nizomning 4-moddasiga ko‘ra pora evaziga sud majlisining soxta bayonnomasini tuzgan, guvohlar yoki tomonlarning ko‘rsatuvlarini noto‘g‘ri qayd qilgan d’yak da’vo miqdorining yarmini to‘lashi va qamoq jazosiga hukm qilinishi lozim bo‘lgan. Da’voning qolgan yarmini d’yakni nazorat qilish majburiyati yuklangan to‘ra qoplagan. D’yak mirzasi bunday jinoyat uchun og‘ir jazoga hukm qilingan[5].

Shundan keyin 1649 va 1845-yillarda qabul qilingan Nizomlarda hujjatlarni soxtalashtirish jinoyat sifatida alohida bobda berilgan bo‘lib, 1845 yildagi Nizomda hujjatlarni soxtalashtirganlik uchun javobgarlik ancha kengaytirilgan. Unda hujjatlarni soxtalashtirishga doir normalar uch bo‘limda berilgan bo‘lib, ular “Hukumatga qarshi jinoyatlar to‘g‘risida”, “Majburiyatlar Nizomiga qarshi jinoyatlar” va “Mulkiy huquqlarga qarshi jinoyatlar”ga ajratilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, soxtalashtirish va qalbakilashtirish tushunchalari turli ma’nolarga ega bo‘lib, soxtalashtirish faqat hujjatlarga nisbatan sodir etishni nazarda tutgan bo‘lsa, qalbakilashtirish esa pul, tamg‘a, muhr va hokazolarga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lib, ushbu Nizom Rossiya tomonidan bosib olingan va Rossiya hududiga qo‘shilgan hududlarda ham amalda bo‘lgan.

Xuddi shunday, ushbu Nizom O‘rta Osiyoning Turkiston general-gubernatorligi hududiga kirgan joylarda ham joriy qilingan bo‘lib, mahalliy qozilar faqat uncha xavfli bo‘lmagan, davlat uchun hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmagan jinoyat ishlari va mahalliy fuqarolarning ishlarini ko‘rishgan. Davlatga qarshi va og‘ir jinoyatlarni Chor Rossiyasi tomonidan tayinlanadigan harbiy sudlar ko‘rgan. Bugungi kun nuqtayi nazari bilan tahlil qilganimizda, ushbu Nizomning 416-moddasi e’tiborga molik bo‘lib, mazkur moddada “Mansabdorning o‘ziga ishonib topshirilgan hujjatlarni ehtiyotsizlik oqibatida yo‘qotganligi”, shuningdek, xazinachining kvitansiyalar, blanklarni yo‘qotganligi uchun javobgarlik nazarda tutilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunda har bir yo‘qotilgan varaq uchun xazinachi jarima to‘lagan va lavozimidan chetlatilgan bo‘lib, bu qilmishni qasddan sodir qilgan taqdirda xazinachi mansab soxtakorligi uchun javobgarlikka tortilgan (480-modda), xuddi shunday blanklarni yo‘qotganlik uchun ham shunday jazo berilgan (1156-modda)[6].

Mazkur Nizomda har qanday shaxslar tomonidan soxtalashtirishning ko‘plab turlari uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lib, bular quyidagilardan iborat bo‘lgan, ya’ni – Hukumat vakolatlarini bajaruvchi Senat nomidan farmonlar tuzish (292-modda); Guberna boshqaruvlari hamda boshqa sud va hukumat idoralari yoki boshliqlari, yoxud qonunan tasdiqlangan jamoat muassasalari nomidan ko‘rsatmalar, qarorlar va boshqa hujjatlar tuzish (294-modda); - Mazkur farmonlar, manifestlar, reskriptlar, ajrimlar, ko‘rsatmalar va hokazolarga tuzatishlar yoki o‘zgartirishlar kiritish (292-294-moddalar); - Hokimiyatni egallash maqsadida soxtakorlikdan foydalanish (290-modda); - Aybsiz kishini jinoiy jazoga tortish uchun soxtakorlikdan foydalanish (298-modda);

- Davlat mulkini o‘zlashtirish va boshqacha talon-toroj qilish uchun soxtakorlikdan foydalanish (554-modda); - Biron bir boshqa jinoyatni sodir etish uchun soxtakorlikdan foydalanish (299-modda); - Kasallik, qashshoqlik va hokazolar haqidagi soxta guvohnomalarni mahalliy idora yoki mansabdor shaxs tomonidan berilgan deb taqdim etish (300-modda); - Rasmiy hujjatlarni o‘g‘irlash, yashirish, yo‘q qilish yoki o‘zgartirish yoxud boshqa xil soxtakorlikka amaldorlarni og‘dirish (382-modda); -Notariuslarda tuziluvchi hujjatlarni soxtalashtirish (1690-modda); - Vasiyatnomalarni soxtalashtirish (1691-modda); -Yer-mulk hujjatlarini soxtalashtirish (1692-modda); Boshqa shaxs tomonidan qalbakilashtirilgan hujjatlardan foydalanish (1697-modda); - Soxta hujjatlarni sotish, berish, o‘tkazish, sotib olish va boshqacha tarzda egallash (1698-modda); - Soxta hujjatlarga imzo chekish (1696-modda) kabilar. Mulkiy-huquqiy munosabatlarni tasdiqlovchi hujjatlar, shu jumladan, pul belgilari, veksellar, qarz tilxatlari va shu kabilar mulk tushunchasiga kirgan va mulkiy jinoyatlarning tushunchalarini tashkil etgan bo‘lib, bunda ularning rasmiy yoki norasmiy xususiyati ahamiyatsiz bo‘lgan. Bundan tashqari, Nizomda g‘ayriqonuniy

ravishda naf ko‘rish maqsadida o‘zganing yer-mulk rejalari, kitoblari va hujjatlarini o‘g‘irlash (1657-modda), o‘zganing uyidan, jamoat joylaridan boshqa joylardan aybdor uchun ayon bo‘lgan rasmiy hujjatlarni o‘g‘irlash uchun javobgarlik nazarda tutilgan. 1917-yil oktyabr to‘ntarishidan so‘ng O‘rta Osiyo sobiq Sovetlar mamlakati tarkibiga kirganligi bois Turkiston Avtonom Respublikasi Sovet davlati tarkibiga kirdi va 1920-yilga kelib Buxoro amirligi va Xiva xonligi tugatilganidan keyin Sovet qonunlari O‘rta Osiyoda ham amal qila boshladi. Shundan so‘ng 1917-yildan keyingi davrlarda hujjatlarni qalbakilashtirishga jinoyat turi sifatida qaraldi. Huquqshunos olim P.G.Mishuninning yozishicha, “1918-yilda Revolyutsion Tribunallar tomonidan hukm etilganlarning o‘n to‘qqiz foizi poraxo‘rlik, soxtakorlik va Sovet hujjatlaridan aksilinqilobiy maqsadlarda g‘ayriqonuniy foydalanganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan[7]. Butunrossiya Markaziy ijroiya qo‘mitasi 1919-yil 20-oktyabrda tasdiqlangan “Inqilobiy Harbiy Tribunallar haqida”gi Nizomda faqat “shaykaga birlashgan” jismoniy shaxslar tomonidan hujjatlarni qalbakilashtirganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan edi.

Natijalar va muhokama. Sobiq Ittifoqning birinchi Jinoyat kodeksi 1922-yilda qabul qilinib, bu kodeks 1926-yilgacha, ya’ni O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi qabul qilingungacha O‘zbekiston hududida ham amalda bo‘ldi va bu Jinoyat kodeksida hujjatlarni qalbakilashtirganlik uchun bir nechta jinoyat tarkiblari nazarda tutilgan bo‘lib, xususiy shaxslar tomonidan sodir etiluvchi soxtakorliklar “Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar” bobida, ya’ni “mandatlar, guvohnomalar va boshqa huquqlar beradigan yoki javobgarlikdan ozod etadigan hujjatlarni qalbakilashtirish (85-modda) berilgan bo‘lsa, harbiy majburiyatdan bo‘yin tovlash maqsadida “hujjatlarni qalbakilashtirish” (81-modda) [8] singari jinoiy jazoga tortiladigan qilmishlar qayd etilgan. Rasmiy va oddiy hujjatlarni, shuningdek, tilxatlarni g‘araz maqsadda qalbakilashtirish mulkka qarshi jinoyatlar to‘g‘risidagi bobda qayd etilgan (189-modda) bo‘lib, kodeksning 85 va 189-moddalardagi jinoyatlarga berilgan ta’riflar uncha aniq emas. Masalan, huquqshunos B.I. Pinxasovning yozishicha, “shaxsiy hujjatlarni qalbakilashtirish faqat g‘arazgo‘ylik niyatida sodir etilgan taqdirdagina jazoga tortilishi mumkin”[9], deyilgan. Shuningdek, ushbu kodeksning 92-moddasida ishlarni to‘g‘ri hal qilish yoki muassasaning faoliyat ko‘rsatishiga to‘sqinlik qilish maqsadida davlat muassasalaridan rasmiy yoki shaxsiy hujjatlarni o‘g‘irlash, yashirish, yo‘q qilish uchun javobgarlik nazarda tutilgan edi.

Mazkur 1922-yildagi Jinoyat kodeksidan hozirgi zamon tahririda “foydalanish”ning variantlaridan biri “xalq sog‘lig‘i, jamoat xavfsizligi va ommaviy tartibni saqlash” qoidalarini buzganlik to‘g‘risidagi bobda “o‘zganing hujjati bilan yashaganlik” uchun javobgarlikni nazarda tutadi[10].

Shundan keyin X chaqiriq Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining 2-sessiyasi tomonidan 1923-yil 10-iyulda qabul qilingan. “RSFSR Jinoyat kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qarori[11] bilan 85-moddadan “mandatlar, guvohnomalar va boshqa huquqlar beradigan yoki javobgarlikdan ozod etadigan hujjatlarni qalbakilashtirish”, shuningdek, 81-moddadan “harbiy majburiyatdan bo‘yin tovlash maqsadida hujjatlarni qalbakilashtirish chiqarib tashlandi.

1924-yilda sobiq Turkiston Avtonom Respublikasi, Buxoro va Xiva xalq Respublikalari o‘rnida sobiq ittifoq tarkibiga kiruvchi Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil etildi va sobiq ittifoq tarkibiga kiruvchi Ittifoqdosh Respublikalar o‘zlarining qonunlarini qabul qila boshladilar.

Shundan keyin 1926-yil 16-iyunda O‘zbekiston SSRning Jinoyat kodeksi qabul qilindi va ushbu kodeks qabul qilinib amalga kiritilgunga qadar O‘zbekiston SSR hududida va Tojikiston Avtonom Respublikasi hududida (u vaqtda Tojikiston Avtonom Respublika sifatida O‘zbekiston SSRning tarkibiga kirgan) RSFSR Jinoyat kodeksi amalda bo‘lgan edi. Ushbu kodeksning 95-moddasida tanga pullarni davlat xazina bitimlarini (yirik pullarni) kasb sifatida soxtalashtirganlik uchun hamda chet el valyutasini soxtalashtirganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan edi. Mazkur moddaning 2-qismida pochta to‘lov belgilarini, temir yo‘l va suv transporti chiptalarini hamda boshqa transportdan foydalanish hujjatlarini, bunday transportlarda yuk tashish hujjatlarini qalbakilashtirganlik yoki kasb sifatida ularni sotganlik uchun javobgarlik belgilanib, bunday jinoyat uchun uch yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi, birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilganlik uchun esa mol-mulk musodara qilinib, o‘lim jazosi berish, yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lganda esa qattiq nazorat ostidagi ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan edi. Mazkur kodeksning 96-moddasi 1-qismida davlat yoki jamoat tashkilotlari tomonidan beriladigan muayyan huquq beradigan yoki muayyan majburiyatdan ozod etadigan

guvohnoma yoki boshqa hujjatlarni o‘zining kasbi sifatida qalbakilashtirganlik, shuningdek, shunday (qalbakilashtirilgan) hujjatlarni kasb sifatida sotganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan edi. Ushbu moddaning 2-qismida shunday jinoyat kasb sifatida sodir etilgan bo‘lmasa, ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan edi. Moddaning 3-qismida qalbakilashtirilgan hujjatlardan foydalanib, jinoyat sodir qilganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan edi. 1926-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksi 103-moddasida davlat korxonalarining normal faoliyat olib borishiga to‘sqinlik qilish maqsadida ularning rasmiy va rasmiy bo‘lmagan hujjatlarini talon-toroj qilish, zarar yetkazish, yashirish yoki nobud qilish uchun javobgarlik belgilangan edi. O‘sha moddaning 2-qismida shunday harakatlar davlatning o‘ta maxfiy va o‘ta muhim hujjatlariga nisbatan qilingan bo‘lsa, uch yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan edi.

Shuni alohida ta’kidlash mumkinki, 1926-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksi amalga kiritilgunga qadar faqat rasmiy hujjatlargina emas, balki har qanday hujjatni qalbakilashtirganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lsa, (1922-yildagi RSFSR Jinoyat kodeksida) O‘zbekiston SSRning 1926-yildagi Jinoyat kodeksining 96-moddasida faqat muayyan huquq beradigan yoki muayyan majburiyatdan ozod qiladigan hujjatlarni qalbakilashtirganlik uchun javobgarlik nazarda tutildi. Lekin ushbu kodeksda muhrlar, shtamplar va blankalarni qalbakilashtirganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmagan edi. Demak u davrlarda muhrlar, shtamplar va blankalar jinoyat qonuni muhofazasi doirasiga kiritilmagan bo‘lgan. 1950-yillarda sobiq ittifoqqa taraqqiyotning yangi bosqichi kirib keldi va ko‘plab qonunlar yangidan qabul qilina boshlandi. Xususan, 1958-yilda “SSR Ittifoqi va ittifoqdosh Respublikalar jinoyat qonunlari asoslari” qabul qilinib, ushbu qonun asosida SSSR tarkibiga kirgan barcha ittifoqdosh respublikalar o‘zlarining yangi Jinoyat kodekslarini qabul qila boshladilar. Xuddi shunday, 1959-yilda qabul qilingan O‘zbekiston SSRning Jinoyat kodeksining 197-moddasida muhr, shtamp va qat’iy ro‘yxatda bo‘lgan blankalarni soxtalashtirganlik uchun javobgarlik belgilandi.

SSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va Xalq Komissarlari Kengashining 1932-yil 27-dekabrdagi Qarori bilan tasdiqlangan “Pasportlar to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, pasport blankalarini qalbakilashtirganlik uchun ham xuddi muhr, shtamp va hokazolarni qalbakilashtirganlik kabi bir xil javobgarlik belgilandi. Shuningdek, 1959-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksida hujjatlar bilan g‘ayriqonuniy muomala qilish jinoyat tarkiblari ancha tartibga keltirilib, aynan qanday hujjatlar bilan muomala qilish qoidalarini buzish jinoyat ekanligi aniq belgilab qo‘yildi. Vaholanki, ushbu kodeksning 196-moddasida davlat muassasalari, korxonalar yoki jamoat tashkilotlaridagi hujjatlar, shtamplar, pechatlar va blankalarni o‘g‘irlash yoki ularga zarar yetkazish uchun javobgarlik belgilangan bo‘lsa, 197-moddasida esa hujjatlar yoki pechat va shtamplarni qalbakilashtirish va ulardan foydalanish uchun javobgarlik nazarda tutilgan edi. Alohida ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlar, shtamplar, pechatlar va blankalarni o‘g‘irlash yoki ularga zarar yetkazish javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat sifatida deb qaralib, 196-moddaning 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilingan. Fuqarolarning pasporti, harbiy bileti yoki boshqa muhim shaxsiy hujjatini o‘g‘irlash uchun ushbu moddaning 3-qismida javobgarlik belgilangan edi. Davlat va jamoat idoralarining biror bir huquq beradigan yoki majburiyatdan ozod etadigan turli hujjatlari hamda guvohnomalaridan qalbakilashtiruvchining o‘zi yoki boshqa shaxs tomonidan foydalanish maqsadida qalbakilashtirish, shuningdek qat’iy hisobdagi blankalar, shtamp yoki pechatlarni qalbakilashtirganlik uchun ushbu kodeksning 167-moddasida javobgarlik belgilangan edi. Hujjatning qalbakiligini bila turib, ulardan foydalanish uchun ushbu moddaning 2-qismida javobgarlik belgilangandi.

Shundan keyin O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosatining 1971-yil 14-iyuldagi Farmoniga muvofiq JKning 197- moddasiga “Pochta to‘lovi belgilarini va transport biletlarini qalbakilashtirish” uchun javobgarlik kiritildi[12]. Ushbu moddaning 2-qismida yo‘lovchilarning transportda yurishi yoxud yuk tashishi uchun qalbaki biletlar yoki boshqa hujjatlarni kasb tariqasida tayyorlaganlik yoxud sotganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilandi[13]. O‘zbekistonimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, 1994-yil 25-sentyabrda qabul qilingan Jinoyat kodeksining qabul qilinishida ham 1959-yildagi Jinoyat kodeksida hujjatlarni qalbakilashtirish bo‘yicha normalardan foydalanilgan deb aytishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Jinoyat qonunchiligida rasmiy hujjat deb berilgan bo‘lsa-da, aynan rasmiy hujjat qanday hujjat ekanligiga ta’rif berilmagan.

Shunga ko‘ra, quyidagilar taklif qilinadi:

1. Jinoyat kodeksining 8-bo‘limi (Atamalarning huquqiy ma’nosi)ga “Rasmiy hujjat”

degan atamaning ta’rifini qo‘shish:

“Rasmiy hujjat” – huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan fakt va voqealarni tasdiqlovchi, lozim darajada tuzilgan va zaruriy rekvizitlari (shtamp, imzo, muhr, sana, tartib raqami) mavjud bo‘lgan muayyan huquq beradigan yoki muayyan majburiyatdan ozod etadigan yozma hujjat.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 25-iyuldagi “Rasmiy davlat hujjatlarini tayyorlash, hisobga olish, saqlash, topshirish hamda ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 283-son qarori bilan tasdiqlangan “Rasmiy davlat hujjatlarini tayyorlashga buyurtma berish, ularni tayyorlash, hisobga olish, saqlash va topshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning ilovasidagi “Rasmiy davlat hujjatlari ro‘yxati”ning V bandidagi “Huquq beruvchi yoki majburiyatlardan ozod qiluvchi hujjatlar” ro‘yxatiga “Davlat idoralari tomonidan beriladigan muayyan huquq beradigan yoki muayyan majburiyatdan ozod etadigan barcha yozma yoki elektron hujjatlar” degan jumlani kiritish taklifini beramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фокс В. Введение в криминологию. – М.: Прогресс, 1985. – С. 19.
2. Ахмедов Б.Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 364 б.
3. Муқимов З. Ўзбекистон ҳуқуқининг тарихий манбалари. – Самарқанд: Зарафшон, 1995.-107 в.
4. Ф.Бакиров. Чор Туркистонида суд, шариат ва одат. – Т.: Фан, 1967. – 22 в
5. Российское законодательство X-XX веков. – М.: 1984. Т.1. с. 53, 134-135.
6. Преступные деяния по Уложению о наказаниях уголовных и исправительных и Уставу о наказаниях налагаемых Мировыми Судьями с приведвением статей уголовного уложения, разъяснениями кассационных департаментов Сената и толкованиями известных русских криминалистов. – Одесса, 1910. – с. 43, 417-418, 601.
7. П.Г.Мишунин. Очерки по истории советского уголовного права 1917–1918 годов. – М., 1954. – с. 129
8. Уголовный кодекс РСФСР. – Краснодар, 1923. – с.27, 28, 52.
9. Пинхасов Б.И. Защита документов по советскому праву. – Т.: Узбекистан, 1976. – с. 8-10.
10. Уголовный кодекс РСФСР. – Краснодар, 1923. – с. 29, 56.
11. Сборник документов по истории уголовного законодательства СССР и РСФСР 1917-1952. – М., 1953. С.159-167
12. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1971 йил 19-сон, 145-модда.
13. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1983 йил 1-сон, 1-модда.

MILLIY OLIMPIYA QO‘MITASINING MAQSADI, VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI

Hamdamov Alisher Tohir o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi
a_hamdamov96@mail.ru
ORCID 0009-0001-9366-3799
УДК 393.0 (047)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasining (MOQ) sport va jismoniy madaniyatni rivojlantirishdagi roli ilmiy asosda yoritilgan. MOQning sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, Olimpiya ta’limi va qadriyatlarini ommalashtirish, xalqaro sport aloqalarini kengaytirishdagi faoliyati tahlil qilinadi. Nodavlat notijorat tashkilot sifatida u o‘z ishlarini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi (XOQ) nizomlari, Olimpiya Xartiyasi asosida olib boradi. MOQ sport tashkilotlari, murabbiylar, sportchilar, hakamlar va faxriylar manfaatlarini himoya qilish, sport kadrlarini tayyorlash, xalqaro tadbirlarda mamlakat delegatsiyalariga boshchilik qilish kabi vazifalarni bajaradi. Shuningdek, u xalqaro sport federatsiyalari bilan hamkorlikda sport diplomatiyasini rivojlantirish, xalqaro dasturlarda ishtirok etish va sport orqali milliy manfaatlarni ilgari surishda muhim o‘rin egallaydi.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, jismoniy tarbiya va sport, milliy sport turlari, XOQ, OOK nodavlat notijorat tashkilot, xalqaro sport, sport uyushmalari, “Olimpiya birdamligi”, Olimpiya o‘yinlari, Osiyo o‘yinlari, ma’naviy-ruhiy tarbiyalash.

PURPOSE, TASKS AND FUNCTIONS OF THE NATIONAL OLYMPIC COMMITTEE

Abstract. This article provides a scholarly overview of the role of the National Olympic Committee of Uzbekistan (NOC) in the development of sports and physical culture. It analyzes the NOC’s efforts to promote a healthy lifestyle, popularize Olympic education and values, and strengthen international sports relations. As a non-governmental and non-profit organization, the NOC operates in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan, the regulations of the International Olympic Committee (IOC), and the Olympic Charter. The article examines the Committee’s functions, such as supporting sports organizations, coaches, athletes, referees, and veterans; training sports personnel; and leading national

delegations in international competitions. It also highlights the NOC's role in advancing sports diplomacy, participating in international programs, and representing national interests through sport in collaboration with international federations and Olympic bodies.

Keywords: healthy lifestyle, physical education and Sports, National Sports, IOC, OOK non-profit organization, International Sports, Sports Associations, "Olympic Solidarity", Olympic Games, Asian Games, spiritual and spiritual education.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasining dasturiy maqsadi - sport va jismoniy madaniyatni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, Olimpiyadaga oid talim, Olimpiya qadriyatlari ommalashtirish, xalqaro aloqalarni mustahkamlash ishlarida ishtirok etadi, sport murabbiylari va sport tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida faoliyat yurituvchi tashkilotdir.

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi (MOQ) nodavlat notijorat tashkilot bo‘lib, u o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi (XOQ), Olimpiya Xartiyasi va O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi Ustavi asosida amalga oshiradi.

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O‘zbekistonda Olimpiya harakatini rivojlantirish, olimpizm g‘oyalarini keng targ‘ib etish;
2. Respublika sport delegatsiyalarining Olimpiada, Osiyo, Butunjahon yoshlar o‘yinlarida vakili bo‘lish;
3. Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi, Osiyo Olimpiya Kengashi, boshqa mamlakatlar milliy olimpiya qo‘mitalari, xalqaro sport federatsiyalari va uyushmalari bilan qalin hamkorlik qilish, XOQning "Olimpiya birdamligi" dasturida ishtirok etish;
4. Respublika, aholisini jismoniy va ma'naviy tarbiyalashga, jismoniy tarbiya va sport, ayniqsa, milliy sport turlari, nogironlar o‘rtasida sportni rivojlantirishga har taraflama ko‘maklashish;
5. Mamlakat terma jamoalari va sport zaxiralarini tayyorlashda davlat, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlariga ko‘maklashish;
6. Yoshlarni boshqa mamlakatlar sportchilari bilan do‘stlik va birodarlikni mustahkamlash, musobaqalarda halol sport kurashi olib borish, raqibiga oliyjanoblik bilan munosabatda bo‘lish tamoyillari asosida tarbiyalash;
7. O‘zbekiston sportchilari yutuqlarini keng targ‘ib etish;
8. Sport kadrlari o‘rtasida tajriba ayirboshlash, ular malakalarini oshirish uchun anjumanlar, seminarlar tashkil etishdan iborat.

O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi o‘zining asosiy maqsad va vazifalarini ro‘yobga oshirishda jismonan sog‘lom, ma'naviy yetuk, yuksak intellektual salohiyat, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, kelajakka ishonch bilan qaraydigan barkamol avlodni tarbiyalash asosiy vazifalar sifatida belgilandi. Mamlakatimizda orqaga qaytmaydigan, misli ko‘rilmagan islohotlar, sohada amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar talaba-yoshlarda zamonaviy dunyoqarash, ularning ongida vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usi, milliy g‘urur va iftixorning shakllanishida, o‘z Vataniga xizmat qilish kabi yuksak tuyg‘uni kamol toptirishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixchilari tomonidan eng kam o‘rganilgan yo‘nalishlaridan biri – bu sport tarixidir. Ammo O‘zbekiston sporti masalasi maqola, monografiya va o‘quv qo‘llanma ko‘rinishida nashr etilishi bilan birga, qator dissertatsiya ishlari ham himoya qilindi. Bu tadqiqotlarda asosan O‘zbekistonda sport sohasini rivojlantirish, ayniqsa, sportchi qizlarning turli musobaqalarda erishgan yutuqlarini yoritib berishga harakat qilingan. X.A. Botirov, R. Abdumalikov, M. Muhitdinov, F. Xo‘jayev, A.K. Akromov, A. Imomxo‘jayev, J. Toshpo‘latov, E. Ernazarov, L.A. Jalolov, O.Begimqulov, G.R. Asatova kabi mualliflarning izlanishlari diqqatga sazovor bo‘lib, ular o‘z tadqiqotlarida O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasining yo‘lga qo‘yilishi bilan bog‘liq tarixiy jarayonlar xususida o‘z fikr-mulohazalarini bayon etgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekistonda olimpiya sportini rivojlantirishga oid tadqiqot usullari va sport sohasi tarixiga doir ma'lumotlarni kengaytirishga hamda o‘rganishga oid ilmiy xulosalar va yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, tadqiqotda olimpiya sporti sohasining holati, o‘zgarishlari, muammolari tarixiy nuqtayi nazardan xolisona, haqqoniy yoritilganligi, xulosa, tavsiya va takliflaridan mazkur soha bilan bog‘liq fanlardan o‘quv dasturlari, o‘quv qo‘llanmalari tayyorlash hamda sport sohasiga doir davlat dasturlarini ishlab chiqishda bevosita qo‘llanilishi mumkinligi bilan izohlangan. Milliy olimpiya qo‘mitasi joriy arxivi, O‘z DJTSU joriy arxivi va kutubxonasida saqlanayotgan sohaga

oid hisobotlar va adabiyotlar, davriy nashr materiallari asosida yozilganligi, og‘zaki suhbatlar o‘tkazilganligi, tadqiqot natijalari vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilangan.

Tahlil va natijalar. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan amaliy ishlar natijasida milliy ta’lim dasturlariga binoan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yuksak intellektual salohiyatga ega bo‘lgan, yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash ishlari yo‘lda qo‘yildi.

Keyingi yillarda olimpiya sporti rivojlanishining raqamli ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili, jismoniy tarbiya, olimpiya sport va olimpiya harakatining uzluksiz tizimlarining shakllanish jarayonlarini o‘rganish eng dolzarb, umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lgan sohaga aylandi.

Milliy olimpiya qo‘mitasining dasturiy maqsadlaridan yana biri – bu, eng avvalo, olimpiya harakatining qadimgi tarixi va zamonaviy Olimpiya o‘yinlari, xalqaro sport va olimpiya harakati tarixini o‘rganish, olimpiya sportining vujudga kelishi, xalqaro sport va olimpiya harakatining turli davrlarda rivojlanish va taraqqiy etishining umumiy qonuniyatlarini aniqlash, ularni tahlil qilish bilan shug‘ullanadi. Olimpiya harakatining ilmiy-nazariy asoslarining rivojlanishi, olimpiya harakati tizimlarining shakllanishi to‘g‘risidagi mavzular, olimpiya harakati va olimpiya o‘yinlari rivojlanishining xususiyatlari, uning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish, olimpizm asosiy tamoyillari va olimpiya madaniyati, qadriyatlarining ahamiyatini o‘rganish bo‘yicha qarorlar qabul qilib boradi.

Yangi O‘zbekistonda bunyod etilayotgan demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurilayotgan bir sharoitda jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya universiteti va Respublika va viloyatlarda oliy o‘quv yurtlarining jismoniy tarbiya fakultetlari, kasb-hunar maktablarida jismoniy tarbiya bo‘limlari faoliyatlari takomillashtirib borilmoqda.

Milliy olimpiya qo‘mitasining dasturiy maqsadlarini amalga oshirishda Yangi O‘zbekistonda sportni rivojlantirish Davlat dasturi Konsepsiyasi jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari rivojlanishining tashkiliy-huquqiy va moliyaviy asoslarini belgilab berdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 6-iyundagi o‘quvchi va talabalarni sportga yanada kengroq jalb qilish maqsadida uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish borasidagi qarorida umumta’lim maktablarning o‘quvchilari, kasb-hunar o‘quvchilari va oliy ta’lim muassasalari talabalarining sport o‘yinlari tashkil qilib borildi[1].

Mamlakatimizda sportning 50 dan ortiq yo‘nalishi ommalashgan va shundan 30 tasi Olimpiada musobaqalari dasturiga kiritilgan[4]. Shuningdek, 2004-yil ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha jami 84 ta federatsiya faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular qat’iy belgilangan reja asosida faoliyat ko‘rsatib bordi.

Sportni yanada rivojlantirish, sohadagi islohotlar mohiyatini keng ommaga targ‘ib etish maqsadida 2003-yil 4-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ommaviy sport targ‘ibotini kuchaytirish haqidagi qarori[2] qabul qilindi. Qarorga muvofiq O‘zbekiston televideniyesida maxsus “Sport” kanali tashkil qilindi[13].

Tahlillar shundan dalolat beradiki, kundan kunga sport bilan shug‘ullanuvchilar ko‘lami ortib bordi. Respublikada bolalar sportini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish tadbirlari tufayli o‘quvchilar o‘rtasida muntazam shug‘ullanuvchilar ko‘rsatkichi ortib bordi. Sport turlari 2005-yilda 43 tadan 2015-yilda 59 tagacha yetgan bo‘lsa, 2030-yilgacha bu ko‘rsatkich 86 taga yetkazish rejalashtirilgan.

Jahondagi nufuzli “Finansial Times” nashrining ta’kidlashicha, Olimpiya medallari, mamlakatning sport olamida erishayotgan yutuqlari davlatning umumiy rivojlanish va insoniy taraqqiyot darajasini bildiradi.

Sportchilarimiz oxirgi Olimpia o‘yinlarida g‘oyat keskin bellashuvlarda yuksak jasorat va matonat ko‘rsatib, 8 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza medalni qo‘lga kiritganligi, mamlakatimizning taraqqiyot borasidagi yuksak salohiyatini ifoda etadigan yorqin natija bo‘ldi.

Mamlakatimiz ishtirokchi davlatlar orasida umumjamoa hisobida 13-o‘rinni, Osiyo qit’asida 4-o‘rinni, turkiy va islom mamlakatlari hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi bo‘yicha 1-o‘rinni egalladi. Barchamizni quvontirgan bu natijalar O‘zbekiston tarixida ilgari hech qachon bo‘lmagan yutuqlardir[5].

O‘zbekistonda xalqaro arenalarda yuqori natijalarga erishgan sportchilarni taqdirlash bo‘yicha doimiy ravishda chora-tadbirlar olib borildi. O‘z o‘rnida bu kabi tadbirlar sog‘lom avlod

tarbiyasida ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shuningdek, Taraqqiyot strategiyasi hamda “O‘zbekiston-2030” strategiyalarida yoshlarni sog‘lig‘ini mustahkamlash, ular o‘rtasida sportni yanada kengroq ommalashtirish tadbirlarni kuchaytirish xususida ham keng qamrovli fikr-mulohazalar bildiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi qarorida sport sohasini yo‘lga qo‘yish, sohani boshqarishni takomillashtirishga yo‘naltirilgan qonunchilikni yanada takomillashtirish xususida ham fikrlar bayon etiladi. Qarorda sportning turli yo‘nalishlari moddiy ta’minotini yaxshilash, sport majmualarini barpo etish, ularni modernizatsiya qilish, mazkur sohada xususiy sektorni rivojlantirish, sport maktablarini tajribali murabbiylar bilan ta’minlash, o‘quvchilar o‘rtasidan iqtidorli bolalarni tanlab olish va ularni turli sport musobaqalariga tayyorlash kabi vazifalar belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyunda PQ-3031-sonli qaroriga muvofiq “Jismoniy tarbiya va sport a’lochisi” ko‘krak nishoni ta’sis etildi. Shuningdek, mazkur qarorda yoshlarning sport bilan doimiy shug‘ullanishi uchun zamonaviy talablarga mos sport zallari bunyod etish zarurligi ta’kidlandi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kurash” milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 2-oktyabrdagi PQ-3606-sonli Qarorining qabul qilinishi o‘quvchi, talaba – qizlar o‘rtasida “Kurash” milliy sport turini yanada ommalashtirish, o‘quvchi, talaba-yoshlarda kurash mashg‘ulotlari va musobaqalari sog‘lom avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘zbekistonda har yili sport bo‘yicha o‘tkaziladigan musobaqalarda 1,2 million nafardan ortiq xotin-qiz qatnashdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 19 mart kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va sportni targ‘ib etishga doir beshta muhim tashabbus ilgari surildi.

2020-yil 24-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sportni ommalashtirish chora-tadbirlari haqidagi PF-5924-sonli Farmonida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda respublika aholisining 19 %i jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullandi. Sport sohasini isloh qilishning 2025-yilgacha bo‘lgan davrdagi asosiy yo‘nalishlarida bu raqamni 30% ga yetkazish vazifasi qo‘yildi[16]. Shuningdek, ushbu Farmonda sport sohasini rivojlantirish asnosida aholi salomatligini mustahkamlashga ko‘maklashadigan dasturlarni ishlab chiqish, yoshlarni sportga jalb etish, bolalar orasidan iqtidorlilarni tanlab olish, murabbiylar uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjudligi to‘g‘risidagi dolzarb vazifalar belgilandi[15].

Xulosa. Xullas, O‘zbekistonda mustaqillik yillarida davlat va jamiyatning turli yo‘nalishlarida shiddat bilan davom etayotgan islohotlar o‘z o‘rnida jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirishni kun tartibiga dolzarb qilib qo‘ydi. Natijada yoshlar orasida sportni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish tadbirlari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Olimpiya sportini rivojlantirishning huquqiy asoslari mustahkamlab borildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Bugun biz yurtimizda keng ko‘lamli islohotlar va jadal o‘zgarishlarni amalga oshirmoqdamiz. Va bu yo‘lda jismoniy sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish bizning ustuvor vazifamiz va biz buning uchun bor kuch va mablag‘larimizni safarbar etamiz” deb ta’kidlaganidek, bugungi kunda ham bu masala davlat siyosatining ustuvor vazifasi ekanligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. (2023) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parijda bo‘lib o‘tgan XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etgan O‘zbekiston sport delegatsiyasi vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi. Toshkent, 2024 yil.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

4. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12-jild. – B.576 – 582.

5. Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya va sport tarixi. – T., 2013. – B.105.

6. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi huquqiy hujjatlar to‘plami. – T., 2016. – B.215.

7. Shakarjonova K.T., Djalilova L.A. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi // Zamonaviy ta’lim, 2016. – № 6-son.– B. 63-70.

8. Ahmedov J. Kurash yoshlarda ma’naviy-axloqiy fazilatlar va milliy iftixor tuyg‘usini shakllantish vositasi sifatida // “Zamonaviy sportda muammo va yechimlar” xalqaro anjuman to‘plami. – Chirchiq: 2021.

– B.174 – 175.

9. Xudoyberdiyeva N. Jismoniy tarbiya va sport sohasida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish: Pedagog. fanl. fals. dokt. diss... – Chirchiq, 2020.

10. Yo‘ldoshev M.R. Yosh futbolchi qizlarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyatini takomillashtirish: Pedagog. fanl. fals. dokt. diss. – Chirchiq, 2021.

11. “O‘quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zR Vazirlar Mahkamasining Qarori, 06.06.2003.

12. Xalq so‘zi, 2003-yil 5-noyabr.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyunda qabul qilingan “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-son Farmoni, 24.01.2020.

15. Boltaboyev M. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi islohotlarning tashkiliy-huquqiy asoslari // “Fan – sportga”, 2020 yil,1-son. –B.2-5.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-son Farmoni, 24.01.2020.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GENDER TENGLIGINING TARIXI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Hamdamova Aziza Sharif qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi
a_hamdamova@mail.ru
ORCID 0009-0002-7437-0111
УДК 363.0 (034)

Annotatsiya. Maqolada gender xususiyatlari insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi va ishlab chiqarish jarayonini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Tarixdan ma’lumki, gender tenglik masalasi doim dolzarb bo‘lib kelganligi ilmiy asosda ochib berilgan.

O‘tmishda ayollar bilan erkaklar o‘rtasida teng huquqlilik bo‘lmaganligi bois ayollarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy huquqlari uzoq davr mobaynida buzilib kelgan. Gender tengligi g‘oyasi evolyutsiyasi juda uzoq tarixiy jarayon hisoblanadi. Dunyo miqyosida va yurtimizda kishilik jamiyatining ijtimoiy tenglik g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan gender evolyutsiyasi jarayonini tadqiq etish juda muhim hisoblanadi. Tarixdan ma’lumki, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ayollar jismoniy imkoniyatlaridan kelib chiqib, ko‘proq o‘simliklarning ildizlarini qazib olishga mas’ul bo‘lgan bo‘lsa, erkaklar ov qilishga mas’ul bo‘lishgan. Shuningdek, muzlik davrida ayollar olovning o‘chib qolmasligi, yashash makonining issiqligini saqlab turish va ovqat tayyorlashni o‘z zimmasiga olishgan. Tarixiy davrlarga e’tibor qaratsak, ona urug‘i davrida ayollar oilada ham jamiyatda ham yetakchilik qilgan. Ayol avlodning ko‘payishini ta’minlashidan kelib chiqib, avlod ayoldan hisoblangan. Ota urug‘i (patriarxat) davrida esa ijtimoiy munosabatlarda erkaklarning roli oshib borgan bo‘lib, erkaklar oilada, urug‘da, qabilada va davlatda boshliq sifatida ayollarga rahbarlik qila boshlagani turli ilmiy fakt va argumentlar yordamida tasvirlab berilgan.

Tayanch tushunchalar: gender xususiyat, oila, urug‘, qabila, gender evolyutsiyasi, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy huquqlari, huquqiy mavqeyi, xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlik, ibtidoiy jamoa tuzumi, jamiyatining ijtimoiy tengligi.

HISTORY AND DEVELOPMENT TRENDS OF GENDER EQUALITY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract. In the article, gender characteristics play an important role in regulating the development and production process of human civilization. Historically, it has been revealed on a scientific basis that the issue of gender equality has always been relevant.

Since there was no equality between women and men in the past, women's economic, social, political rights have broken down over a long period of time. The evolution of the idea of Gender equality is a very long historical process. It is considered very important to research the process of gender evolution, which is closely related to the idea of social equality of human society on a global scale and in our country. Historically, it is known that during the primitive community system, while women were responsible for extracting the roots of more plants, based on their physical capabilities, men were responsible for hunting. Also, during the ice age, women took it upon themselves not to extinguish the fire, to keep the living space warm, and to prepare food. Focusing on historical times, women also led the family in society during the mother-seed era. Based on the fact that the female provided for the reproduction of the Offspring, The Offspring was calculated from the female. In the era of the paternal lineage (patriarchy), however, the role of men in social relations increased, and the fact that men began to lead women as Chiefs in the family, in the

seed, in the tribe, and in the state was described using various scientific facts and arguments.

Basic conceptions: gender trait, family, seed, tribe, gender evolution, economic, social, political rights, legal status, harassment and violence against women, primitive community structure, social equality of society.

Kirish. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Hozirgi vaqtda xonadonlarimizning fayz-u farishtasi bo'lgan, farzandlarimizni barkamol insonlar etib tarbiyalashga munosib hissa qo'shayotgan ayollarimiz barcha islohotlarimizda faol ishtirok etmoqdalar. Hurmatli onalarimiz, opa-singillarimizga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining uzviy qismi bo'lib kelayotgani sizlarga yaxshi ma'lum. Shu bois xotin-qizlarimizning bandligini ta'minlash, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rni va nufuzini yanada oshirish, ularning o'z salohiyatini namoyon etishlari uchun sharoitlarni kengaytirish, gender tenglik, oila, onalik va bolalikni himoya qilish borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish asosiy maqsadimiz bo'lib qoladi[2]".

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridayoq xotin-qizlarning erkaklar bilan tengligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yildi. Xotin-qizlarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlovchi 22 ta qonun va 30 dan ortiq huquqiy-me'yoriy hujjatlarning qabul qilinganligi mazkur masala davlatning ustuvor vazifalardan biri ekanligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli Farmonining 1-ilovasida keltirilgan "2017–2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida ifodalanganidek, "Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash[1]" kabi vazifalarning belgilanishi ijtimoiy himoya borasida olib borilayotgan islohotlarning mohiyatini ochib beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev asarlaridagi xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishda davlat tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasidagi ijtimoiy sohani rivojlantirishga oid konseptual g'oyalar mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida olima D.A. Alimova o'zining ilmiy monografiyasi, bir qator ilmiy maqolalari va doktorlik dissertatsiyasida, N.D. Jo'rayeva va K. Nishonboyeva nomzodlik dissertatsiyalarida ilmiy xulosalar asosida yoritib berilgan.

Mustaqillik davrida xotin-qizlar masalasi va muammolarga yangicha yondashuv R.H. Murtazayeva, E.S. Sultonova, T.A .Egamberdiyeva, Y.A. Abdullayeva, G.J. G'aniyeva olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida ko'zga tashlanadi.

Xorij tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda ayollarni demokratiyaga, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy hayotga keng jalb etish, ularda davlat va jamiyat ishlarini boshqarish, yetakchilik, tadbirkorlik va intellektual salohiyatni oshirish muammolari, ayollar emansipatsiyasi, sovet davri murakkabliklari, islom olamida xotin-qizlar masalasiga doir turli noto'g'ri yondashuvlar ilmiy tarzda yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning asosiy masalasi sifatida xotin-qizlar masalasi davlatning ustuvor vazifalari qatorida ekanligini ko'rsata olish, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

Xotin-qizlarga oid dolzarb muammolar – odam savdosi qurboniga aylanib qolish, ayollar o'rtasida jinoyatchilikning ko'payishi va uning oldini olish, qishloq ayollari bandligini ta'minlashga asos bo'ladigan omillarni ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish masalasi asosiy o'rinni egallaydi.

Tahlil va natijalar. Tarixdan ma'lumki, gender tenglik masalasi doim dolzarb bo'lib kelgan. O'tmishda ayollar bilan erkaklar o'rtasida teng huquqlilik bo'lmaganligi bois ayollarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy huquqlari uzoq davr mobaynida buzilib kelgan. Gender tengligi g'oyasi evolyutsiyasi juda uzoq tarixiy jarayon hisoblanadi. Dunyo miqyosida va yurtimizda kishilik jamiyatining ijtimoiy tenglik g'oyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan gender evolyutsiyasi jarayonini tadqiq etish juda muhim hisoblanadi. Tarixdan ma'lumki, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ayollar jismoniy imkoniyatlaridan kelib chiqib, ko'proq o'simliklarning ildizlarini qazib olishga mas'ul bo'lgan bo'lsa, erkaklar ov qilishga mas'ul bo'lishgan. Shuningdek, muzlik davrida ayollar olovning o'chib qolmasligi, yashash makonining issiqligini saqlab turish va ovqat

tayyorlashni o‘z zimmasiga olishgan. Tarixiy davrlarga e’tibor qaratsak, ona urug‘i davrida ayollar oilada ham jamiyatda ham yetakchilik qilgan. Ayol avlodning ko‘payishini ta’minlashidan kelib chiqib, avlod ayoldan hisoblangan. Ota urug‘i (patriarxat) davrida esa ijtimoiy munosabatlarda erkaklarning roli oshib borgan bo‘lib, erkaklar oilada, urug‘da, qabilada va davlatda boshliq sifatida ayollarga rahbarlik qila boshladi.

Ayolga nisbatan oila qurish, avlod qoldirish va ro‘zg‘or yuritishga oid ehtiyoj sifatida qarash shakllanadi. G. O‘razaliyeva fikricha, patriarxat davrida ayollarning ijtimoiy qaramligini ayol va erkaklarning mulkka egalik huquqi kamsitilishi, ayolning turmush qurish, ajralish huquqlari tan olinmaganligi, sud ishlarida qatnashishi cheklanganligi ko‘rinadi, degan fikrga kelgan[11]. Fikrimizcha, ona urug‘i davrida ayollarning ijtimoiy-huquqiy mavqeyi odamlarning tabiiy shart-sharoitlar ehtiyojidan yuzaga kelgan bo‘lib, insoniyatning evolyutsion taraqqiyotining muhim bosqichi hisoblanadi. Lekin matriarxat va patriarxat davri madaniy formatsiyalarning o‘zgarishi va o‘zaro kurashida gender masalasi huquqiy jihatdan yetarli tadqiq etilmagan. Bizningcha, qadimgi matriarxiyaning yemirilishi va patriarxal madaniyatning vujudga kelishida jinslarning hokimiyat uchun kurashi asosiy o‘rin egallaydi. Hokimiyat maxsus madaniy va siyosiy voqelik sifatida nafaqat gender farqlarini o‘zlashtiradi, balki ulardan o‘z hukmronligini mustahkamlash manfaatlari yo‘lida faol foydalanadi. S.Chernixning qayd etishicha, patriarxat davri uzoq tarixiy muddatda ayollarga nisbatan ijtimoiy va ma’naviy kamsitilishlar ayollarning oilaviy hayotda va davlat boshqaruvi ijtimoiy faolligi susayib borishiga olib keldi. Doimiy qo‘rquv va xo‘rliklar ayollarning ma’naviy va jismoniy qulligiga yetarlicha sharoit yaratdi[12]. Miloddan avvalgi davrda ilk rivojlangan davlatchilik muayyan hukmdor nomi bilan bog‘langan qonunlar asosida amalga oshirilgan. Xususan, qadimgi Bobilda Xammurapi qonunlari[13] fuqarolik va jinoyat qonunlari yig‘indisi bo‘lib, unga binoan qizlar turmushga chiqqunlarigacha otasiga tegishli hisoblanar, er ularni otadan sotib olishi kerak edi. Shu tariqa qizlar daromad keltiruvchi manbaga aylantirilgan edi. Qadimgi dunyo tarixida yana bir muhim manba eramizdan avvalgi IV asrning oxirlarida hukmronlik qilgan Mauriya podshosi Chandraguptaning bosh vaziri Kautime tomonidan yozilgan “Siyosat ilmi”, “Artxashastra” nomli traktatlari hisoblanadi. Mazkur kitobda jamiyatdagi ko‘plab munosabatlar tartibga solingani holda ayollar huquqlari alohida keltirilmagan[14]. Qadimgi dunyo tarixida yana bir muhim jihat diniy ta’limotlar gender tengligi umuman jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda huquqiy asos vazifasini o‘tab bergan. Talmudda erkaklar ayollar bilan bahslashmasin, chunki ularning (ya’ni, ayollarning) aqli zaifroq bo‘ladi deyilgan[15]. Misrda erkak va ayol o‘rtasidagi nikoh munosabatlari shartnoma asosida belgilangan bo‘lib, Misr nikoh shartnomasida er xotiniga har yili ma’lum miqdorda sarmoya ajratishi, uyiga bironta begona ayolni olib kelmasligi va ushbu shartni buzsa, juda katta miqdorda jarima to‘lashga majburligi ko‘rsatilgan edi[16]. Bizningcha, qadimgi dunyo tarixida, birinchidan, hukmdorlar (Manu, Xammurapi) nuqtayi nazari bo‘yicha oila, jamiyat, davlatda ayol va erkakning o‘zaro munosabati huquqiy tartibga solingan bo‘lsa, ikkinchidan, hukmdor hokimiyatining huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilgan diniy adabiyotlar ham ayollarning huquqlarini ilohiy tartib asosida cheklashga harakat qilishgan. Shu orqali, jamiyatda erkaklarning hukmronligi va ayollar o‘rnini pasayishtirishga urunishlar bo‘lgan. Qadimgi Turonda yuzaga kelgan “Avesto”da ham ayollar va oila masalalari diniy qonuniyatlar asosida tartibga solingan bo‘lib, unda asosan ayolning oiladagi vazifalari, erning oilada ayolga bo‘lgan muomalasi, nikoh qurish shartlari kabi huquqiy masalalar tartibga solinadi. “Avesto”da qarindoshlarning o‘zaro oila qurishi qonun bilan qat’iy man qilingan. Ko‘p bolali ayollarga tuyalar berilgan. Bolasini nobud qilgan ayollar esa o‘limga mahkum etilgan. Shuningdek, oilasini, bolalarini sarson kilgan oila boshlig‘iga, zinoga berilgan erkak va ayolga nisbatan darra bilan kaltaklash yoki o‘lim jazosi qo‘llanilgan. Bir yo‘la 2-3 ta farzand ko‘rgan ayolga bir juft sog‘in sigir, sariq tuya berilgan, davlat xazinasidan nafaqa to‘langan[13]. Bizningcha, “Avesto”da erkak va ayolning huquqlarini ilohiy qonun asosida belgilash Oila, Jamiyat, Qabila, Davlat (“Nmana”, “Vis”, “Varzana”, “Daxyu”) izchilligini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan. Oilaviy munosabatlarning muqaddasligini ta’minlash bevosita davlat mustahkamligining omili bo‘lishini “Avesto”da ayol xiyonati qabila – urug‘ g‘ururi paymol qilinishi bilan tenglashtirilganligidan ham bilish mumkin. Keyinchalik islom dini vujudga kelishi bilan gender tengligi masalasi Qur’on, sunnat, ijmo, qiyos, ijtihod kabi islom huquqining manbalari bilan tartibga solish boshlandi. Islom dini “yosh” bo‘lishiga qaramay o‘z ta’limoti bilan ijtimoiy munosabatlarga tub o‘zgarishlar kiritdi. Jumladan, jamiyatda ayollarga bo‘lgan munosabat ham islom ta’limoti asosida ijobiy tus ola boshladi. Makkada Muhammad Payg‘ambar arablarning

johilona odatlarini qoralar ekan, shunday oyatlar ham nozil bo‘lgan: “... Tiriklayin ko‘milgan (har bir) qizdan so‘ralganda, ne gunohi uchun o‘ldirilgan, deb”, “Qaysi birlariga qiz (ko‘rgani haqida) xushxabar berilsa, g‘azabi kelib, yuzlari qorayib ketar. U (qiz)ni kamsitgan holda olib qolish yoki (tiriklay) tuproqqa qorish (to‘g‘risida o‘y surib), o‘ziga xushxabar berilgan narsaning “yomonligidan” (oriyat qilib) odamlardan yashirinib olur. Ogoh bo‘lingizkim, ularning bu hukmlar yaroqsizdir[4]”. Islom ta’limoti ayolni hayotning barcha jabhalari – ilm olishda, mehnat qilishda, meros olishda, jamiyat taraqqiyotida faol qatnashishda erkak bilan teng huquqli ekanligini e’tirof etadi. Islomda ayol bilan erkakning tengligi haqida tushuncha mavjud bo‘lsa ham, bunga yondashuvdagi o‘ziga xoslik ba’zi bir omillar bilan tushuntiriladi. Ya’ni, islomda erkak va ayol shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy huquqlarga bir xilda egaligi e’tirof etiladi. Bir so‘z bilan aytganda, Islom ta’limoti insoniyatga ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni, ularning ahamiyati, onalikni muhofaza qilish, asrash, erkaklarning ayollar oldidagi burchlarini belgilab, ayolning maqomini ko‘rsatib berganligi bilan ahamiyatlidir. Xalqaro huquqiy hujjat darajasida Yevropada ayollarning huquqlarini ta’minlash, ularni erkaklar bilan tengligi ta’minlash bo‘yicha kurashni ilk 1791-yilda Olimpiya De Guj tomonidan tayyorlangan fuqarolik va ayol huquqi deklaratsiyasi[12] bilan bog‘lash mumkin. Ushbu hujjatda ilk bor ayollarning erkin fikrlash va o‘z fikrini bildirish huquqiga ega ekanligi ochiq e’tirof etildi. XIX asrning 30–40-yillariga kelib Fransiyada sen-simonchilar va furyechilar inson huquqlari, shu jumladan, ayol huquqlarini himoya qilishni ham ijtimoiy vazifa darajasiga ko‘tardilar. Shu davrdan boshlab Fransiya, keyinroq esa Angliya, Germaniya, Norvegiya kabi davlatlar parlamentlarida ayollar masalalari, ularning teng huquqliligini ta’minlash masalasi tez-tez muhokama qilinadigan bo‘ldi. Uzoq davom etgan kurashlar natijasida XIX asrning o‘rtalariga kelib ayollar masalasining mavjudligi nafaqat kitoblarda, balki shu bilan birga davlatlar siyosatida ham tan olina boshladi. Umuman olganda, XIX-XX asrlarda avj olgan xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga oid barcha harakatlar – ta’lim dasturiga oid tabiiy huquqlarning xotin-qizlarga nisbatan ham qo‘llanilishini kengaytirish, ya’ni ovoz berish huquqi, erli ayolni himoya qilish orqali uning maqomini o‘zgartirish, bolaga vasiylik qiluvchi ayolning huquqiy maqomini yaxshilash, ajrashish haqidagi qonunlarni erkinlashtirish, oilali ayolni iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash, xotin-qizlar uchun oliy ta’limga, haq to‘lanadigan mehnatga, kasbiy faoliyatga yo‘l ochib berish kabilarni talab qilganlar. XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati xotin-qizlar masalasiga yondashishda tub burilish yasadi. Jadidlar jamiyatning yangilanishida barcha ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarda ayollarning rolini oshirishni targ‘ib qiladilar. Jadidchilarning fikricha, hal etilishi lozim bo‘lgan muhim hayotiy masalalar jamiyatning yarmini tashkil qiluvchi ayollar bilan bog‘liq. Shu bilan birga, ular Turkistondagi xotin-qizlarning o‘ziga xos ahvolini uzoq asrlardan buyon davom etib kelayotgan an’analar va islom qonunlari belgilab berishini hisobga oladilar. Oktabr to‘ntarishidan so‘ng sovet hukumati Sharq ayollarini ozodlikka chiqarish kampaniyasi kuchayib, ayollarning “Hujum” harakati tashkil etilib, uning asosiy maqsadi ko‘pxotinlikka qarshi kurash, balog‘at yoshiga yetmagan qizlarning barvaqt turmushga chiqishining oldini olish va qalin pulini yo‘q qilish edi[6]. Sobiq Ittifoq davrida SSSR Konstitutsiyasi bilan erkak va ayollar teng huquqliligi belgilangan bo‘lsa-da, ayollarning jismoniy imkoniyatlari, turli milliy mentalitetlardan kelib chiqib oilaviy ishlardagi majburiyatlari inobatga olinmagan holda hayotga tatbiq etildi[9]. Natijada ayollar Sobiq Ittifoq ishlab chiqarish mashinasining “roboti”ga aylandi. Ayollarning erkaklar bilan paxta dalalarida teng mehnat qilishi SSSR Konstitutsiyasi bilan mustahkamlangan teng huquqlilik deb baholandi. Mazkur holat millat genofondiga salbiy ta’sirini baholashning imkoni yo‘qdek tuyuladi. Bizningcha, Sobiq Ittifoq davrida ayollar huquqlarini ta’minlash “Hujum” kabi jamoat birlashmalariga yuklatilishi Kommunistik partiya sifatida bir jamoat birlashmasining boshqa jamoat birlashmasiga ayollar huquqlarini ta’minlash “imitatsiyasi” deb atash mumkin. Mustaqillik davrida gender tenglikni ta’minlash ko‘p jihatdan nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari tomonidan ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklarni teng huquqligi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo‘yilgan. Ushbu prinsipni amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklarga ta’lim olishda, kasbiy tayyorlanishda, ishda, mehnat uchun rag‘batlanishda va xizmat yuzasidan ko‘tarilishida teng huquqiy imkoniyatlar yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasi bilan belgilangan O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida

tengligi prinsipining Konstitutsiyaning 46-moddasi bilan nisbati ko‘plab bahs-munozaraga sabab bo‘lgan, deyish mumkin. Bizningcha, mazkur holat erkak va ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqlar bo‘yicha nafaqat teng huquq, balki teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qilgan. Mazkur norma bugungi kunda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’milashning xalqaro reyting va indekslari bo‘yicha muhim o‘rin egallaydigan gender tengligining zamonaviy tendensiyalariga to‘la mos keladi. Mazkur konstitutsiyaviy huquqning amalga oshirilishi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari, huquqni muhofaza qiluvchi va muhofaza qiluvchi organlarning javobgarligi ham deyish mumkin. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi bilan gender tenglikni ta’minlashga oid chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqishda dasturiy ahamiyatga ega bo‘lgan hujjat bo‘ldi. So‘nggi to‘rt yilda xotin-qizlar manfaatlariga doir, xalqaro standartlar asosida 24 ta me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Shulardan ikkitasi gender tenglikni va ayollarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgandir. BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida mamlakatimizda “O‘zbekistonning 2030- yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalari[2] qabul qilindi. O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi 5- maqsad – “Gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish”dir. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa choralarni qamrab oladi. Ushbu vazifalarni bajarish uchun barcha davlat organlari va tashkilotlari, muassasalari, shuningdek, davlat ahamiyatidagi jamoat tashkilotlari mas’ul etib belgilangan. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida milliy qonunchiligimizda ham o‘zgarishlar ro‘y berdi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar natijasida quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin: Birinchi, gender tengligini ta’minlash masalalari insoniyat tarixida jamiyatda yuz bergan iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Ayniqsa, ona urug‘i davrida ayollarning ijtimoiy-huquqiy mavqeyi odamlarning tabiiy shart-sharoitlar ehtiyojidan yuzaga kelgan bo‘lib, insoniyatning evolyutsion taraqqiyotining muhim bosqichi hisoblanadi. Lekin matriarxat va patriarxat davri madaniy formatsiyalarning o‘zgarishi va o‘zaro kurashida gender masalasi huquqiy jihatdan yetarli tadqiq etilmaganligi, bu borada aniq yondashuvlarni ishlab chiqishga to‘sqinlik qiladi; Ikkinchi, qadimgi matriarxiyaning yemirilishi va patriarxal madaniyatning vujudga kelishida jinslarning hokimiyat uchun kurashi asosiy o‘rin egallaydi. Hokimiyat maxsus madaniy va siyosiy voqelik sifatida nafaqat gender farqlarini o‘zlashtiradi, balki ulardan o‘z hukmronligini mustahkamlash manfaatlari yo‘lida faol foydalanadi. Quldorlik va O‘rta asrlarda gender tengligi masalalarining inqirozi deb baholash mumkin. Bunga o‘sha davrdagi ayollarning huquqlarini kamsitish va erkaklar tomonidan ularning huquq va erkinliklarini cheklashga bo‘lgan urunishlar sabab bo‘lgan. Uchinchi, ayollarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash va maqomini belgilashda Islom dini alohida muhim o‘rin egallaydi. Islom ta’limoti ayolni hayotning barcha jabhalari – ilm olishda, mehnat qilishda, meros olishda, jamiyat taraqqiyotida faol qatnashishda erkak bilan teng huquqli ekanligini e’tirof etadi. Islom dinining tarqalishi natijasida davlatlar va jamiyatlarda ayollarga bo‘lgan e’tibor, hurmat va ularning rolini oshirishga bo‘lgan intilish kuchaydi. Ushbu qarashlar kelgusida demokratik g‘oyalarning shakllanishiga, milliy konstitutsiya normalarini ishlab chiqishga xizmat qilgan; To‘rtinchi, gender tengligi bo‘yicha xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekistonning o‘rnini yaxshilash bo‘yicha nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rnini oshirish maqsadga muvofiq. Ayollarni ish bilan ta’minlash, ayollarni zo‘ravonliklardan himoya qilish, ayollarning ta’limga oid huquqlarini ta’minlash kabi muhim masalalar bo‘yicha hududlar kesimida manzilli ravishda NNTlarga ijtimoiy sheriklik asosida ijtimoiy buyurtma, subsidiya va grantlarni ajratish amaliyotini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli Farmonining 1-ilovasida keltirilgan “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” (Elektron resurs) .https//strategy regulation.gov.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila insitutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-sonli Farmoni // Xalq so‘zi, 2018-yil 3 fevral. –B.1-2.

3. Алимова Д. Женский вопрос в Средней Азии: история изучения и современные проблеми. – Тошкент: Фан, 1991.С.132.

4. Jo‘rayeva N.D. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotida xotin-qizlarning o‘rni: Tarix fanl. nomz. … diss. avtoref. –Toshkent, 2004. –B.32.

5. Murtazayeva R.H. Mustahkam oila – davlat va jamiyat asosi // Ilmli ayol – mustahkam oila tayanchi. Mintaqaviy ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2012-yil 13-aprel. –Toshkent–Urganch. B.10-17.

6. Sultonova E.S. Ayol davlatning rivojlanish strategiyasida. (Global muammo sifatida).– Toshkent: JIDU, 2005. –B.250.

7. Ubaydullayeva R.A. Ayol va huquq. Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari, 1999, № 3-4.B. 22-26.

8. Nishonboyeva K. O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasini hal etishning madaniy jihatlari (20-30 yillar): tajriba va oqibatlari: Tarix fanl. nomz. … diss. avtoref. –Toshkent, 1998.

9. Мизес фон Л. Индивид, рынок и правовое государство. – СПб.: Наука, 1999.

10. Плоссь Г. Женщина в естествоведении и народоведении. Т.1. – Сыктывкар-Киров: Ветка, 1995; Фромм Э. Мужчина и женщина. – СПб.: Питер, 1999.

11. G.B.O‘razaliyeva Gender munosabatlarining ayollar huquqiy madaniyatini takomillashtirishga ta’siri (sotsiologik tahlil) .

12. Черных Сергей Сергеевич Патриархат и матриархат в дискурсе философской антропологии: гендерные аспекты власти // Гуманитарий Юга России. 2018. №4.

13. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/patriarhat-i-matriarhat-vdiskurse-filosofskoy-antropologiigendernye-aspekty-vlasti (дата обращения: 29.12.2020).

14.Тураев Б. Законы Хаммурапи. – Стрелбитский Мультимедиа Публишинг, 2018.

15. Вырщиков Е. Г. Локаята и локаятики в древних источниках (палийский канон и «Артхашастра») //Ориенталистика. – 2019. – Т. 2. – №. 2. – С. 269-287.

15. Переферкович Н. Талмуд: Мишна и Тосефта. – Рипол Классик, 2013.

16. G.Matkarimova. Ayollar huquqi (monografiya) // Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2020. 192 b.

XX ASR BOSHLARIDA O‘ZBEKISTON MUZEYLARINING RIVOJLANISH JARAYONLARINING O‘RGANILISHI

Muxamedova Munisa Sabirovna
O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
munisa.muhamedova@mail.ru
ORCID 0000-0002-7574-9724
УДК.069.02(575.1)

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda muzeylar faoliyatining rivojlanishi, muzey amaliyotida ommaviy ishlar jonlantirilishi natijasida muzeybop materiallar to‘planish holati hamda ular asosida tashkil etilgan ko‘rgazmalar faoliyati o‘rganilgan. Muzeylar madaniyat, maorif va ommaning, ayniqsa, uzoq hududlarda faolligini oshirishga xizmat qilishdagi jarayonlari tahlil etilgan. Bu davrda muzeylarning g‘oyaviy targ‘ibot maskani sifatida ommalashtirilishi kabi muammoli vaziyatlarga qaramasdan ularning tarixiy-badiiy ilmiy tadqiqot va madaniy-ma’rifiy muassasa deb tan olinishi muzey ishiga ijobiy ta’sir qilish holatlari ham tadqiq etilgan. Maqolada ilmiy manbalar va nashrlarda yoritilmagan muzeylar tashrifi, ekskursiya holatlari, muzey turizmi hamda lektoriy va to‘garaklar faoliyatiga doir jarayonlar davriy nashrlar tahlili asosida dallillangan.

Kalit so‘zlar: xalq xo‘jaligi ko‘rgazmalari, madaniyat, maorif, ekskursiya, muzey chiptalari, fondlarni komplektlashtirish, o‘lkashunoslik muzeylari, ilmiy-tematik asos, statistika komiteti.

STUDY OF THE PROCESSES OF MUSEUMS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN IN THE BEGINNING OF THE 20th CENTURY

Abstract. In Uzbekistan, as a result of the development of museum activities and the activation of public works in museum practice, the condition of collecting museum materials and activities based on organization of exhibitions have been studied. Museums are analysed based on their activities to improve the culture, education and activity of the public, especially in remote areas. Museums are analysed on the basis of their activities to improve the culture, education and activity of the public, especially in remote areas. During this period, despite such complex processes that emerged in the popularization of museums as places of ideological propaganda, the fact that the museum was considered a historical-artistic, research and cultural-educational institution had a positive impact on the work of the museum. Based on the analysis of periodicals, the article substantiates the processes related to museum visits, excursions, museum tourism and the activities of lectures and clubs, which are not covered in scientific sources and publications.

Keywords: national economic exhibitions, culture, education, excursions, museum tickets, collection of funds, natural history, local history museums, scientific and thematic basis, statistical committee.

Kirish. O‘zbekistonda muzeylar faoliyatining shakllanish jarayonlari aynan XX asr boshlaridan rivojlana boshladi. Muzey va tarixiy madaniy yodgorliklarni saqlash masalalari nafaqat maxsus ilmiy manbalarda, balki turli davriy nashrlarda ham tahliliy asosda bayon etildi.

Bu davrda “Oina”, “Turkiston viloyati gazetasi”, “Sadoi Turkiston” va “Sho‘ro” vaqtli matbuot nashrlarida turli tarixiy yodgorliklar holati, ko‘rgazmalar xususida muntazam ravishda maqolalar chop etilib berilgan e’lonlar asosida tomoshabinlar tashrifi oshib bordi. 1917-yildan keyin O‘zbekiston muzeylari tarixida yangi davr boshlandi. Muzeylarda jonlanish kuzatildi: muzey ommaga yaqinlashishga harakat qildi, hafta davomida ish kunlari ko‘paytirildi, shu bilan birga tashrif soni ham ko‘paydi. O‘zbekiston muzeylariga tomoshabinlar tashrifini qayd etish XX asr boshidan boshlandi. Muzey kollektivi materiallarni ilmiy-tematik asosda to‘plash bo‘yicha muhim ishlarni olib bordi. Shuni aytish kerakki, muzey har kuni deyarli haftada 3 kun faoliyat olib borar edi. Bu holatlar, albatta, O‘zbekiston muzeylarining ijtimoiy-madaniy rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekiston muzeylarining rivojlanish faoliyati bo‘yicha ilmiy nashrlar asosan o‘sha davr nuqtayi nazaridan kommunistik mafkura negizida yaratilgan edi. XX asrning birinchi yarmidan boshlab I.A .Suxarev, Y.G‘. G‘ulomov kabi olimlar tadqiqotlarida bevosita moddiy-madaniyat yodgorliklarini o‘rganish yuzasidan olib borilgan turli ekspeditsiyalarning idmiy-amaliy natijalarini muzeyshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish, mavzuning nazariy muammolarini qiyosiy o‘rganish va xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi [8, 13]. Sovet davri tadqiqotlari orasida madaniy turizmning rivojlanishi bilan bog‘liq holda muzeylar faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarni ham alohida ko‘rsatib o‘tish o‘rinlidir [2, 22]. Shuni aytib o‘tish joizki, mazkur adabiyotlarda muzey ishi tarixi, muzey buyumlarini o‘rganish, saqlash, ekspozitsiya va ko‘rgazmalarni tashkil etish, ularning ilmiy-ma’rifiy, tarbiyaviy ahamiyati kommunistik mafkura g‘oyalari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda yoritilgan. Tarixiy-madaniy meros obyektlarida turizm va uni rivojlantirish masalalari esa ekskursiya olib borish jarayonlarini yoritish asnosida qisman tahlil etilgan.

Natijalar va muhokama. Toshkent muzey eksponatlari 1889-yili Toshkent fotosuratlari ko‘rgazmalarida, 1890-yili Turkiston qishloq xo‘jalig ko‘rgazmasida namoyish qilindi. Muzey 1900-yili xalqaro Parij ko‘rgazmasiga mahalliy aholi kiyim-kechaklari va ro‘zg‘or ashyolari, milliy cholg‘u asboblari, charm, shisha, metall buyumlari, arxeologiya va tabiat tarixi bo‘limi eksponatlarini yubordi [7, 49]. Etnografiya kolleksiyasining katta qismi esa 1906-yili Milan ko‘rgazmasiga jo‘natildi. Bu orqali O‘zbekistonning etnografik muhitini aks ettiruvchi kolleksiyalar xalqaro maydonda keng e’tirofga sazovor bo‘ldi.

O‘sha davr mahalliy muzeylar faoliyatini hozirgi bilan taqqoslash juda qiyin. Muzeylar fondi asosan arxeolog, etnograf va tadqiqotchilarning qiziqishlari ortidan yig‘ilgan va ular tomonidan ehson qilingan kolleksiyalarni shunchaki o‘zida saqlab turgan. Hukumatdan arzimas mablag‘ ajratilgan bo‘lib, asosan ko‘ngilli kolleksionerlardan yordam olingan. Muzey xodimlari ham mutlaqo bu soha vakillari bo‘lmagan. N. Sadikovaning “Madaniy yodgorliklar xazinasi” monografiyasida umumiy asosda muzeylarga bu davrda tomoshabinlarning tashrifi bo‘yicha quyidagi faktologik ma’lumotlar keltirib o‘tilgan edi: “Agar 1900-yili ekspozitsiyalarni 5400 kishi tomosha qilgan bo‘lsa, ularni 1908-yilning 7 oyi mobaynida – 10000, 1913-yili esa 3700 kishi kelib ko‘rdi [7, 45]. Shuni aytish kerakki, muzey har kuni ishlamas edi. Ekspozitsiyalarning hamma uchun ochib qo‘yilganligi tufayli madaniy oqartuv muassasi hisoblangan muzeylarning ahamiyati yana oshdi. Bu o‘rinda muzeylardagi tomoshabinlar sonining o‘sganligini ko‘rsatuvchi raqamlar diqqatga loyiqdir. Masalan, 1920-yili muzeylarni 25 ming kishi, shu jumladan, mahalliy millat vakillaridan 3 ming 750 kishi kirib ko‘rgan, ayollar esa mutlaqo kirmaganlar. 1924-yilning faqat to‘qqiz oyi mobaynida muzeylarni 600 ming kishi tomosha qilgan. Bulardan mahalliy millat vakillari 270 ming, shu jumladan, xotin-qizlar 7 ming kishini tavsiya etgan [7, 85]. Bu holat muzeylarga bo‘lgan qiziqish va ularning ahamiyati o‘sishini ko‘rsatadi. Shuningdek, xotin-qizlarning muzeylarga tashrifiga e’tibor qaratilsa, ayollarning bu davrda jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy faollashuvini ko‘rish mumkin.

Muzeylarga tashrifning juda kamligi, uning ijtimoiy hayotdan uzilib qolganligi ahamiyatsiz edi. Taqqoslash uchun keltirilgan sanalarga e’tibor qaratilsa, 1906-yilda Toshkent muzeyiga 4985 kishi tashrif buyurgan bo‘lsa, 1908-yilda yuqoridagi ko‘rsatkich 1010 taga kamaygan. Samarqand muzeyida esa tashrifchilar bir muncha kam kuzatilgan, masalan, 1896-yilda 103 kishi tashrif buyurgan bo‘lsa, 1909-yilda bu ko‘rsatkich faqatgina 33 tani tashkil etgan [9, 87]. 1914-yilga kelib tashriflar soni ko‘payib, 1658 kishini tashkil etgan. Bu davrda muzeylar muhim ma’rifiy markazlarga aylandi. Muzeylar faqatgina eksponatlarni ko‘rish emas, balki tarix, etnografiya va tabiiy-ilmiy bilimlar olishda muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

Inqilobdan keyin O‘zbekiston muzeylari tarixida yangi davr boshlandi. Muzeylarda jonlanish kuzatildi: muzey ommaga yaqinlashishga harakat qildi, hafta davomida ish kunlari ko‘paytirildi, shu bilan birga, tashrif soni ham ko‘paydi. Sredkomstarisning muzey qurilishi sohasidagi faoliyati yangilarini barpo etish va mavjud muzeylarni qayta qurib, ularni chinakam ilmiy yo‘nalishga solishdan iborat edi.

Bu jarayonda birinchi tashkil etilgan muzeylar sifatida Samarqanddagi muzey avvaliga 1896-yilda havaskorlik muzeyi sifatida tashkil etilgan edi. Lekin muzey o‘z ishini endi jonlantirayotgan bir vaqtda general gubernator M.Chernyaev muzeyni yoptirdi. Keyinchalik muzeyni qayta ochish masalasini o‘sha davrning ayrim ilg‘or fikrli rus olimlari va mahalliy o‘lkashunoslar bir necha bor o‘rtaga tashlaganlar. Chunki Samarqandning boy tarixiy o‘tmishi, uning moddiy madaniyati yodgorliklari, qadimiy ashyolar, Sharq qo‘lyozmalari va boshqa materiallarni to‘plash, asrash uchun muzey ochish lozim edi. Oradan 22 yil o‘tgach, Samarqand muzeyi qaytadan ochildi. Dastlabki vaqtlarda muzey Georgievskiy cherkovi qoshidagi xonalardan birida joylashgan bo‘lib, “Samarqand statistikasi komitetining muzeyi” deb nom olgan edi [1, 2]. Oradan 15 yil o‘tgach, o‘lkashunos V.L.

Vyatkin muzey uchun maxsus bino qurdirishga muvaffaq bo‘ldi. Yil sayin muzey Afrosiyob territoriyasi va shahar atroflaridan topilgan qadimiy ashyolar bilan boyib bordi. Muzey fondining boyishida va u uchun materiallar to‘plashda ziyolilardan Mirzo Buxoriy, Mirzo Abdurahmon, Mirzo Barot Mulla Qosimov, Xoji Yusuf Mirfayozov singari qadimiy yodgorliklarni to‘plovchi ilg‘or fikrli havaskorlarning xizmati katta bo‘ldi.

Dastlabki yillarda muzeyda to‘plangan ashyolar orasida sopol idishlar, qadimiy yodgorliklarning ayrim sirkor koshinlari, o‘zbek xalqining, uzoq o‘tmishini aks ettiruvchi, turmush va urf-odatlari haqida hikoya qiluvchi kiyim-kechaklar, mis va bronzadan yasalgan idishlar ko‘pchilikni tashkil etar, bu ashyolarni, ayniqsa, etnografik materiallarni to‘plash va ularni sistemaga solish, ilmiy o‘rganish qoniqarli darajada emas edi.

1924-yildan, O‘zbekiston SSR tashkil topgandan so‘ng muzey uchun materiallar to‘plash va uning fondini boyitish borasida qizg‘in ish boshlandi. Ko‘p o‘tmay u Samarqand okrug muzeyidan Respublika Markaziy muzeyiga aylantirildi [1, 3]. Eng nodir eksponatlar sifatida sug‘d xatlari yozilgan idishlar, naqsh solingan toshlar va XIX asrda xo‘jandlik o‘lkashunos olim Hoji Yusuf Mirfayozov tomonidan tayyorlangan globusni hamda Afrosiyob xarobalaridan topilgan saroy qoldiqlari va undagi naqshlarni aytish mumkin edi.

Samarqand muzeyida 1919-yilda 2395 tashrif, 1921-yilda 1036, 1923-yilda 27733 tashrif qayd etilgan. Muzey to‘plamlari tizimlashtirildi, muzey amaliyotida etiketaj va eksponatlar sharhiga rus tili hamda o‘zbek tillarida izoh yozish qo‘llanila boshladi [9, 88]. 1922-yildan muzeylarda maxsus ommaviy bo‘lim tashkil qilindi. Maxsus ekskursavod bilan muzeyni guruh-guruh bo‘lib tomosha qilish praktikasi keng qo‘llanila boshlandi. Ana shunday ommaviy ishlar jonlantirilishi natijasida muzeybop materiallar to‘plandi, ular ko‘rgazmaga qo‘yildi va tadbirlar muzeyni omma o‘rtasida targ‘ib qilishga yordam berdi, ommaviy-oqartuv ishlarini rivojlantirishga imkon berdi. Muzeylardagi ekspozitsiyalar orqali omma tabiat va tarix bilan tanishdi, ularga bilim tarqatildi, shunday yo‘llar bilan muzeylar o‘z oldiga qo‘ygan vazifani bajarib bordi [10, 32].

Boshqa tomondan esa markaziy shaharlarda yangi muzeylar tashkil etish ustida ish boshlandi. Bu hududning chekka joylarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasi, maishiy turmushi, muqim malakali muzey xodimlari yo‘qligi bilan belgilanar edi [7, 65]. Yangi muzeylar tashkil etish va joylardagi mavjud muzeylar ishini yo‘lga qo‘yishni uyushtirish masalalarini tezroq hal etish zaruriyati munosabati bilan Maorif Xalq Komissiariati huzurida viloyat muzeylari quyi bo‘limi tuzildi. Bundan tashqari, mahalliy muzeylar faoliyatini birlashtirish, ular ishini rejaviy asosda tarixiy bilimlar targ‘ibotida ilmiy axborotning markaziga aylantirib sotsialistik madaniyat yaratish muhim ahamiyat kasb etdi. Bu borada O‘rta Osiyodagi markaziy muzey bo‘lgan O‘rta Osiyo Bosh muzeyi o‘lkadagi muzeylarga yordam berib turdi va yangi muzeylar tashkil qilishda qatnashdi.

Ana shu davrda, ayniqsa, 1923–1924-yillarda ekspozitsiyani o‘lkashunoslik ruhida tashkil qilish maqsadida muzeylar qaytadan qurildi. Bir qancha yangi ekspozitsiyalar tashkil qilinishi bilan birga, o‘lkashunoslik profilida bo‘lmagan bo‘limlar (harbiy-tarixiy, hunarmandchilik sanoati va sanoat bo‘limlari) tugatildi. Shundan keyin muzeyda quyidagi bo‘limlar: paleontologiya hamda minerallarni o‘z ichiga olgan geologiya va fizik geografiya bo‘limi, etnografiya, arxeologiya va numizmatika bo‘limi ishlay boshladi [10, 31]. 1924-yil oxirida muzey zallariga 12 mingga yaqin

eksponat, 1925-yilda 28 mingta eksponat muzeylar faoliyatida yangilandi. Dastlab muzeyga kirish bepul bo‘lib, ekspozitsiyalar qayta tashkil qilingandan so‘ng pullik bo‘ldi. 1923-yildan e’tiboran ekspeditsiya vaqtida to‘plangan materiallar ayrim ko‘rgazma tarzida ko‘rsatila boshlandi.

Arxiv manbalarida bu davrda tomoshabinlar tashrifi statistikasi bo‘yicha O‘rta Osiyo Bosh muzeyiga tashrifchilar soni osha boshladi. 1922-yilda muzeyni 231225 kishi tomosha qilgan, shulardan 109245 tasi mahalliy xalq vakillari bo‘lgan. Asta- sekin Toshkentda muzeylar ko‘paygach, bu muzeyni tomosha qiluvchilar soni kamaydi.

Muzeyni tomosha qilgan kishilarning, ayniqsa, chet eldan kelgan kishilarning muzey haqida yozib qoldirgan so‘zlari qiziqarlidir. 1924-yilda Kominternning 5-kongressida qatnashgan amerikalik delegat Jems ”Mening uchun kutilmagan ajoyib bir narsa shu bo‘ldiki, men bu muzeyni tomosha qilib, Turkiston o‘lkasining flora va faunasiga doir kamdan kam uchraydigan va boy kolleksiyalar bilan tanishib chiqdim. Amerikalik uchun keng xalq ommasiga haqiqiy bilim beruvchi Sovet hukumatining boy faoliyati bilan tanishib chiqishdan ko‘ra oliyjanabroq narsa yo‘qdir” [10, 33].

1925-yil 17 noyabrda muzeyni ko‘rgan professor L.Bergning muzey ishlariga bergan bahosi ham yuqorida aytilgan fikrdan kam emas: “Toshkentni ko‘rganimdan beri o‘tgan 17 yil ichida muzey sohasida erishilgan yutuqlarni ko‘rib men hayratda qoldim. Toshkent o‘lka muzeyi muzey ishlari, hatto endigina yo‘lga qo‘yila boshlagan hozirgi vaqtda ham juda katta bilim muassasasi ahamiyatiga ega”. Lekin muzeylarda eski sistemasiga solinmasdan, ayrim tasodifan to‘plangan predmet va kolleksiyalar aralash holatda qo‘yilgan edi [10, 33].

Ko‘pincha ekspozitsiyaga qo‘yilgan ashyolar topilgan vaqtiga qarab joylashtirilgan edi. Keyinchalik, ekspozitsiyalar mavzularga ajratilib, ma’lum sistema bilan qo‘yilgan edi. Bu eski tartibga qaraganda oldinga bosilgan katta qadam bo‘ldi. Muzey ekspozitsiyalarini aniqlab, ayrim bo‘limlarga ajratib ko‘rsatish ilmiy ishlarini ham sistematik ravishda rivojlantirib borishga yordam berdi. Lekin ommani tematik ekspozitsiyalar bilan tanishtirish tajribasi undagi asosiy kamchiliklarni ham ochib berdi. Tomoshabinlar o‘lkaning tabiati, hayvonot dunyosi va tarixi to‘g‘risida bir butun, to‘la ma’lumotga ega bo‘lmasdan, balki ana shu to‘g‘rida uzuq-yuluq ma’lumot olar edilar. Mana shularning hammasi o‘lkaning tarixi, uning flora va faunasini batafsil va batartib o‘rganishga yordam bermas edi.

Aynan shu davrga oid, muzeylar tashkiliy faoliyatiga doir I.A. Suxarevning “Sovetskiy muzey” jurnalida nashr etilgan maqolasida, hattoki arxiv hujjatlarida uchramaydigan faktologik ma’lumotlar taqdim etilgan. “1924-yilda Buxoroda ilk bor Qori Yo‘ldoshev nomidagi muzey ochiladi, ammo muzey faoliyati shu yildayoq to‘xtatilib, 1925-yilda Zarafshon okrugi muzeyi, keyinchalik esa 1927-yildan Buxoro oblast o‘lkashunoslik muzeyi nomi bilan qayta tashkil etiladi” [9, 88]. Ekspozitsiya Ko‘kaldosh madrasasi hovlisidagi oltita xonaga joylashtirilgan bo‘lib, zarur talablarga javob bermas, shiftlar past va hajman kichik edi. Muzey kollektivi materiallarni ilmiy-tematik asosda to‘plash bo‘yicha muhim ishlarni olib bordi. 1927–1928-yillar mobaynida unga 5 ming 427 kishi tashrifi kuzatildi, ulardan 80 foizi mahalliy millat vakillari edi.

1924-yilda Toshkentda Markaziy badiiy muzeyi tashkil etiladi. Muzey kolleksiyasi asosan knyaz Nikolay Konstantinovichning san’at asarlari to‘plamlari bilan to‘ldiriladi. 1925-yilda Qo‘qon (keyinchalik Farg‘ona okrugi muzeyi) muzeyi tashkil etiladi. Ushbu muzey tashkil etilishiga baza sifatida 1924-yilda bo‘lib o‘tgan Farg‘ona qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasi predmetlari asos qilib olinadi. 1925-yilda yana Toshkent eski shahar muzeyi va Xiva shahrida muzey ochiladi [9, 87]. Muzey qurilishining ushbu davri xalq xo‘jaligining tiklanish davri bilan bir paytda sodir bo‘ladi va asosan har ikki tomonda ham o‘sish, rivojlanish kuzatiladi.

O‘zbekiston muzeylarining rosmana rekonstruksiyasi 1929-1930-yillarga to‘g‘ri keladi. Bu vaqtga kelib muzeylar tarmog‘ida katta o‘zgarishlar yuz beradi va bir nechta yirik muzeylar qayta tashkil etiladi. Umumiy ta’lim, o‘rta maxsus maktablar va oliy o‘quv yurtlarida ham muzeylarni ko‘rish o‘quv programmalariga kiritiladi. O‘lkashunoslik muzeylari bu borada katta tajribaga ega bo‘lib, ularning ekspozitsiyasida namoyishga quyilgan tabiat va tabiiy ilmiy jarayonlarga bag‘ishlangan eksponatlar tahlil jarayoni integratsiyasida ham muhim ahamiyat kasb etdi. 1933-yilda bo‘lib o‘tgan Butunittifoq muzeylar syezdida Xalq Maorifi Komissiariati rahbari A.S.Bubnov o‘z ma’ruzasida quyidagilarni ta’kidlab o‘tadi: “Bizga birinchi navbatda texnik, tabiiy – ilmiy, pedagogik, iqtisodiy va o‘lkashunoslik muzeylari bugungi kunda juda zarur. Bu muzeylar ommaviy oqartuv ishlarini rivojlantirish uchun o‘z metodik qo‘llanmalarini ishlab chiqishi va ular sirtqi va kunduzgi ta’lim o‘quv maqsadlarida keng qo‘llanilishi zarur” [4, 47]. Bu davrda

boshlang‘ich va o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari soni butunittifoq darajasida 25,6 mln.ni tashkil etib, ular muzeylarning aktiv tomoshabinlari sanalar edi.

Ta’limiy xarakterdagi ekskursiyalar faqatgina 3 yoki 5 ta muzey ashyosini qamrab olgan bo‘lib (jamiyatshunoslik, geografiya, tarix, fizika, kimyo fanlari doirasida) tashkil etilib, muzeydagi o‘quv kunlarida faqatgina bitta mavzu asosida muzey lektoriylari faoliyati tashkil etildi. Shahardan tashqaridan uzoqroq masofadan tashrif buyurgan o‘quvchilar esa uzoq yo‘l masofasini bosib o‘tish bilan birga, birgina mavzu bilan cheklanishlari ko‘p vaqt yo‘qotishlariga sabab bo‘lar edi [4, 47]. Bu borada barcha muzeylarga namuna sifatida tarixiy ahamiyatga ega adabiy yo‘nalishdagi muzeylardan L.N. Tolstoy muzeyi bo‘yicha ekskursiya metodlari bo‘yicha taqdimotlar o‘tkazildi. 1932-33-akademik o‘quv yili doirasida 261 ta ekskursiya olib borilgan bo‘lib, ularning barchasi maktab ekskursiyalari sanalar edi [11, 47]. Muzeylar targ‘ibotida birinchi navbatda ekskursiya ishlarida siyosiy-targ‘ibot jarayonlari muhim hisoblangan.

1933-yil boshlarida O‘zbekistonda ham 10 ta muzey mavjud bo‘lgan. Ular quyidagilar edi:

1. O‘rta Osiyo tarix va inqilob tarixi muzeyi, Toshkent shahrida.
2. O‘rta Osiyo tabiat va ishlab chiqarish kuchlari muzeyi, Toshkent shahrida.
3. O‘rta Osiyo okrug muzeyi, Toshkent shahrida.
4. O‘zSSR Markaziy davlat muzeyi, Samarqand shahrida.
5. Buxoro Davlat muzeyi, Buxoro shahrida.
6. Farg‘ona vodiysi tumanlararo muzeyi, Qo‘qon shahrida.
7. Farg‘ona shahar ilmiy muzeyi, Farg‘ona shahrida.
8. Namangan shahar muzeyi, Namangan shahrida.
9. Xiva muzeyi, Xiva shahrida.
10. Sherobod tuman muzeyi, Sherobod tumani markazida.

Bu davrda ushbu muzeylarning byudjeti va ularning o‘sishini quyidagi raqamlarda ko‘rish mumkin: O‘zSSR markaziy davlat muzeyining 1932-yildagi byudjeti (maxsus vositalardan tashqari) 109 963 rubl., 1929-1930-yillarda, ya’ni qayta tashkillashtirilgungacha bo‘lgan vaqtda esa 5 382 rublni tashkil qilgan. Bundan xulosa shuki, uch yil ichida muzey byudjeti 20 baravar o‘sgan. O‘rta Osiyo tabiat va ishlab chiqarish muzeyining byudjeti 1932-yilda 125 000 rublni, qo‘shimchasiga 42000 rubl ekskursiyalar hisobidan tushgan. Buxoro Davlat muzeyining byudjeti 1929-yilda 5000 rublni tashkil etgan bo‘lsa, 1932-yilda 44000 rublga o‘sgan, ekskursiyalardan bo‘lgan tushum hisobiga, ya’ni to‘qqiz baravar o‘sish kuzatilgan [9, 86]. Natijada muzeylarning byudjeti va moliyaviy holati bir oz yaxshilandi. Ushbu jarayonlarni muzeylarning ma’muriy qayta tashkil etilishi va ekskursiyada xizmat ko‘rsatish turlari bilan bog‘lash mumkin edi.

Muzeylar faoliyatining rivojlanish jarayonlari davr nuqtayi nazaridan batafsil yoritilgan “Sovetskiy muzey” jurnalining 1933-yil №2 sonida A.S. Kisilyovning ilmiy maqolasida [3,2] ekskursiyalar to‘lovi quyidagicha izohlangan edi: individual ekskursiyalar – 1 rubl, kasaba uyushmalari a’zolariga – 50 kop., guruhli ekskursiyalarga – 1 rubl, 25 tiyin, harbiy xizmat xodimlariga – 50 tiyin, (harbiy xizmat o‘tayotganlarga) 25 tiyin, inturist tashrifchilariga – 2 rubl qilib belgilangan edi. Ushbu toifalashgan to‘lov tizimi ilk samarali tajribaviy amaliyot sifatida ekskursiyadan tushgan mablag‘lar muzeylar byudjetini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynadi.

Xulosa va takliflar. Bu davrda O‘zbekistonda muzey to‘plamlari tizimlashtirildi, muzey amaliyotida etiketaj va eksponatlar sharhiga rus tili hamda o‘zbek tillarida izoh yozish qo‘llanila boshladi. Muzeylarda maxsus ommaviy bo‘lim tashkil qilindi. Ekspozitsiyalarning hamma uchun ochib qo‘yilganligi tufayli madaniy oqartuv muassasasi hisoblangan muzeylarning ahamiyati yana oshdi. Bu o‘rinda muzeylardagi tomoshabinlar sonining o‘sganligini ko‘rsatuvchi raqamlar diqqatga loyiqdir. Masalan, mahalliy millat vakillaridan tomoshabinlar atiga 12% ni tashkil etgan bo‘lsa, ayollar esa mutlaqo kirmaganlar. 1924-yilga kelib bu ko‘rsatkich 30% oshib, shu jumladan, xotin-qizlar 5% ni tashkil etgan. Maxsus ekskursavod bilan muzeyni guruh-guruh bo‘lib tomosha qilish praktikasi keng qo‘llanila boshlandi. Ana shunday ommaviy ishlar jonlantirilishi natijasida muzeybop materiallar to‘plandi, ular ko‘rgazmaga qo‘yildi va tadbirlar muzeyni omma o‘rtasida targ‘ib qilishga yordam berdi, ommaviy-oqartuv ishlarini rivojlantirishga imkon berdi. Muzeylardagi ekspozitsiyalar orqali omma tabiat va tarix bilan tanishdi, ularga bilim tarqatildi, shunday yo‘llar bilan muzeylar o‘z oldiga qo‘ygan vazifani bajarib bordi.

Ko‘pincha ekspozitsiyaga qo‘yilgan ashyolar topilgan vaqtiga qarab joylashtirilgan edi. Keyinchalik, ekspozitsiyalar mavzularga ajratilib, ma’lum sistema bilan qo‘yilgan edi. Bu eski tartibga qaraganda oldinga bosilgan katta qadam bo‘ldi. Muzey espozitsiyalarini aniqlab, ayrim

bo‘limlarga ajratib ko‘rsatish ilmiy ishlarini ham sistematik ravishda rivojlantirib borishga yordam berdi. Lekin ommani tematik ekspozitsiyalar bilan tanishtirish tajribasi undagi asosiy kamchiliklarni ham ochib berdi. Tomoshabinlar o‘lkaning tabiati, hayvonot daryosi va tarixi to‘g‘risida bir butun, to‘la ma’lumotga ega bo‘lmasdan, balki ana shu to‘g‘rida uzuq-yuluq ma’lumot olar edilar. Mana shularning hammasi o‘lkaning tarixi, uning flora va faunasini batafsil va batartib o‘rganishga yordam bermas edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бойтуллаев Р. Санъат хазинаси // Ўзбекистон маданияти. – Тошкент, 1978 йил 19 декабр. – № 100 (2366). Б.1-3.
2. Гласс Ю., Ланда Л. Музеи Узбекистана. Путеводитель-справочник. – Т.: Госиздат, 1961. – 182 с.
3. Кисилев А. О музеях и музейной работе // Советский музей. – Москва, 1933. – С. 4-8.
4. Поздняков Н. Работа со школой – на высшую ступень // Советский музей. – Москва, 1934. – №1. – С. 46-51.
5. Садикова Н. Музейное дело в Узбекистане. – Т.: Фан, 1975. – 290 с.
6. Садыков Х., Гласс Ю., Цой Е. Музеи Узбекистана. Путеводитель-справочник. – Т.: Фан, 1978. – 118 с.
7. Содиқова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Т.: Фан, 1981. – 266 б.
8. Сухарев И. Работы по этнографии и археологии в Узбекистанском государственном историческом музее // Советский музей. – Москва, 1936. – № 3. – С. 12-16.
9. Сухарев И. Современное состояние и очередные задачи музейного строительства в Узбекистане // Советский музей. – Москва, 1933. – №2. – С.86-96.
10. Содиқова Н., Буряков Ю. Тарихий ёдгорликлар хазинаси. – Т.: Фан, 1963. – Б.89.
11. Чиркова Н. О работе Толстовского музея со школами // Советский музей. – Москва, 1934. – С.46-51.

BUYUK IPAK YO‘LINING JANUBIY TARMOQLARIDAGI O‘ZARO ALOQALARNING TAHLILLARI

Eshov Boxodir Jo‘rayevich
Qarshi davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi professori
tarix fanlari doktori
eshovbakhodir@gmail.com
ORCID 0009-0003-6865-8765
UDK 94(575.171)(072)

Annotatsiya. Kishilik jamiyati paydo bo‘libdiki, uning taraqqiyot jarayoni hech qachon aloqalarsiz bo‘lmagan. Odamlar, urug‘ jamoalari, qabilalar, elatlar, xalqlar va nihoyat ularni hududiy-iqtisodiy va siyosiy birlashtirgan mamlakatlar o‘rtasida doimo aloqalar bo‘lgan va bu aloqalar tufayli yo‘llar paydo bo‘lgan. Biz qadimgi davr tariximizga nazar tashlar ekanmiz, kishilik jamiyatining bronza davridan e’tiboran, ba’zi joylarda undan ham ancha avval, ma’lum ixtisoslashgan yo‘llar paydo bo‘lganligini bilamiz. Ularning paydo bo‘lishida qabilalar, xalqlar va davlatlararo aloqalardan kelib chiqqan iqtisodiy, etnik, siyosiy va madaniy ehtiyojlar sabab bo‘ldi. Mashhur “Buyuk Ipak yo‘li” karvon yo‘lini Sharq va G‘arb o‘rtasidagi aloqalarning ko‘p asrlik timsoli deb atash mumkin. Qit’alararo yo‘l 10 ming kilometrga cho‘zilgan va Sharq mamlakatlarini O‘rtayer dengizi bilan birlashtiruvchi bog‘inga aylanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tayanch so‘zlar. Sug‘d vohasi, Toxariston, Turk xoqonligi, O‘tror, Choch, Ustrushona, Sug‘d, Yettisuv, Buyuk Ipak yo‘li, Qashqadaryo vohasi, Janubiy Sug‘d, O‘tror, Choch, Ustrushona, Hunarmand aholi.

ANALYSIS OF INTERCONNECTIONS IN THE SOUTHERN BRANCHES OF THE GREAT SILK ROAD.

Abstract. A human society has emerged, the process of its development has never been without communication. There have always been connections between people, clan communities, tribes, peoples, nations, and finally countries that united them territorially, economically, and politically, and because of these connections, roads appeared. When we look at our ancient history, we know that certain specialized ways have appeared since the Bronze Age of human society, and in some places much earlier. Their emergence was caused by economic, ethnic, political and cultural needs arising from tribes, peoples and interstate relations. The famous “Great Silk Road” caravan route can be called a centuries-old symbol of relations between the East and the West. We can see that the intercontinental road stretches for 10,000 kilometers and has become a garden connecting Eastern countries with the Mediterranean Sea.

Keywords. Sughd Oasis, Takharistan, Turkic Khanate, Otror, Choch, Ustrushona, Sughd, Yettisuv, Great Silk Road, Kashkadarya Oasis, South Sughd, Otror, Choch, Ustrushona, Craftsman population.

Kirish. O‘rta Osiyoning janubiy hududlari, aynan, Sug‘d va Xutan (Sharqiy Turkiston) hududlarining geografik joylashuviga qaraganda, Buyuk ipak yo‘lidagi savdo manzilgohlarining chorrahasidan o‘rin olgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi antik va ilk o‘rta asrlarda ushbu savdo yo‘lining qadimiy va muhim yo‘nalishi bo‘lgan “Janubiy tarmoq” bo‘ylab joylashganligi ma’lum. Shu bilan bir qatorda, Sug‘d o‘lkasidagi bir necha shaharlar, xususan, Janubiy Sug‘d ushbu tarmoq bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, sug‘dlik savdogarlarning mavqeyi Ipak yo‘li tijorat savdosi faoliyatida katta o‘rin egallaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, determinizm tamoyillari, tizimli yondashuv, xolislik tamoyillari kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Ma’lumki, Sug‘d vohasi ushbu savdo yo‘lining har ikkala tarmog‘i - Shimoliy va Janubiy yo‘nalish oralig‘ida o‘rin olgan bo‘lsa, ikkinchisi – qo‘shni Toxariston esa ko‘proq ikkinchi yo‘nalishdagi asosiy manzillardan biri edi. Shimoliy Afrika, Old Osiyo o‘lkalari va Yevropa savdo karvonlari O‘rta Yer dengizi qirg‘oqlaridan yo‘lga chiqib, Suriya, Iroq, Sosoniylar Eroni orqali Xurosonga kelgan savdo karvonlari ikki yo‘nalishda - Amudaryoning yuqori havzalari bo‘ylab, Badaxshondan Sharqiy Turkiston (Xutan)ga yoki Hindistonga, u yerlardan esa Xitoy va Tibetga borsa, Hindiston va Fors ko‘rfazidan shimolga qarab yo‘lga chiqqan tijoratchilar karvoni Toxariston orqali Sug‘dga borib, bu yerdan shimol, shimoli-g‘arb va shimoli-sharqqa – Yevrosiyo dashtliklari: Sharqiy Yevropa, Qora dengizning shimoli, Shimoliy Kavkaz, Volga-Ural bo‘ylari, Yettisuv, Sharqiy Turkiston (Koshg‘ar,Turfon) orqali Oltoy, Janubiy Sibir, Xitoy va Uzoq Sharq o‘lkalariga yetib borishar edi [1:11-32].

Hududdagi turli-tuman iqtisodiy-madaniy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari va yo‘nalishlariga bu davrda vujudga kelgan siyosiy vaziyat, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar sezilarli ta’sir ko‘rsatgani bilan qiyoslanadi.

Tarixchi tadqiqotchi va izlanuvchilarning fikricha, antik davrga kelib, O‘rta Osiyo aloqa yo‘llari tizimida muhim o‘zgarishlar yuz beradi [2]. So‘nggi antik davrda, ayniqsa, Eftaliylar davlati hukmronligi yillarida Janubiy Sug‘dning siyosiy va iqtisodiy mavqeyi yanada ortib, Naxshab shahri ushbu davlatning siyosiy markazlaridan biri bo‘lgani [3:313], Kesh shahri ma’lum bir muddat butun Sug‘dning siyosiy markaziga aylangani [4:316], bu davrda Sug‘dning Toxaristonga tutashgan joylari mavqeyi oshishida bosh omillarni tashkil etardi.

Ushbu tarixiy yo‘lning bu ikkita tarmog‘i qadimgi davrlar davomida o‘zaro bir-biri bilan aloqada bo‘lib, turli xalqlarning madaniy hamkorligini ta’minlashi bilan birga antik davr davomida Janubiy tarmoqning mavqeyi yuqori bo‘lib kelgan bo‘lsa, Turk xoqonligi davriga kelib Shimoliy tarmoqda rivojlanish jadallashgani kuzatiladi. Ayniqsa, quyi Sirdaryoning va uning o‘rta havzalarida o‘nlab yirik manzilgohlar va shaharlar tashkil topgani, O‘tror, Choch, Ustrushona, Sug‘d va Yettisuvda iqtisodiy taraqqiyot kuzatilib, bu holat xoqonlikning boshqaruv markazlari asosan Suyob (Yettisuv) va Choch voxasida va Sug‘dda joylashgani bilan izohlanadi [5:3-13].

Shu bilan birga, har ikkala tarmoqning katta qismi Turk xoqonligi tarkibidagi hududlarda bo‘lishi ushbu tarmoqlar bo‘ylab joylashgan savdo- iqtisodiy markazlarning xavfsizligini ta’minlashga xizmat qilgan. Shuningdek, xoqonlikning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy hayotida o‘ziga xos o‘rin egallagan, qadimdan hunarmandchilik hamda iqtisodiy masalarda mohir sug‘diy aholi bu davrda ham xalqaro savdoda faol ishtirok etib, Ipak yo‘li bo‘ylarida, xususan, Sirdaryoning quyi va o‘rta havzasi, Yettisuv va Sharqiy Turkiston, Urxun vodiysi (Mo‘g‘uliston), Shimoliy-g‘arbiy Xitoy kabi o‘lkalardagi tijoratning rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadilar. Turk xoqonligining asosiy tayanch hududlari hisoblangan bu hududlarga Sug‘d aholisining migratsiyasi kuchayishi oqibatida bir necha turkiy-sug‘diy yirik shaharlar paydo bo‘ladi. Sirdaryoning o‘rta oqimlari havzasidagi Forob (O‘tror), Isfijob (Sayram), Yettisuvdagi Taroz, Balosog‘un, Sharqiy Turkistondagi Beshbaliq (Turfon atrofi), Mo‘g‘ulistondagi Boybaliq kabi yirik shaharlarga asos solganlarning yoki ular aholisining ma’lum qismini sug‘diylar tashkil etishi [6:38-40] ham buni yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, antik davrdan boshlab Buyuk Ipak yo‘lining Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi tarixiy viloyatlardan o‘tgan yo‘nalishlari orasida G‘arbiy Sug‘dning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan Samarqand – Buxoro yo‘nalishi va uning tarmoqlarining ahamiyati ancha ortadi. Bu tarmoq asosan Zarafshon daryosi va

uning irmoqlari havzalaridan o‘tib, ilk o‘rta asrlar davri yozma manbalarida “Shohroh” (“Shoh yo‘li”, “Bosh yo‘l”) nomi bilan qayd etilgan. Hunarmand aholi va atrofi yashil bog‘larga o‘rangan o‘nlab o‘troq shahar va qishloqlardan o‘tuvchi bu yo‘nalish Samarqanddan Janubiy Sug‘d – Qashqadaryo vohasi orqali Amudaryoning o‘rta oqimidagi Termiz kechuvlaridan o‘tib, Toxaristonga eltuvchi eski yo‘nalishga nisbatan ancha qulay va samarali edi. O‘zining egallagan hududi va tabiiy geografik joylashuviga ko‘ra Sug‘d o‘lkasidan bir necha baravar yirik bo‘lgan qo‘shni Toxaristondan o‘tib esa Buyuk ipak yo‘lining aynan janubiy tarmog‘ida o‘rin olib, katta qismi adirlar va tog‘lar bilan qurshalgan hamda o‘z navbatida antik va ilk o‘rta asrlardagi karvon yo‘llaridan keladigan serdaromad boj yerlariga ega edi. Ulardan biri Darband o‘sha davr yozma manbalarida “Temir darvoza” ma’nosida qadimgi turk bitiklarida “Temir Kapig‘”, xitoy yilnomalarida “Tiye-men” (Temir darvoza), arab manbalarida “Bob al-xadid”, forsiy manbalarda “Dari Ohanin” nomlari ostida tilga olinishi bejiz emasdi.

629-yilda Toxaristonga kelgan xitoy rohibi Syuan Szan bu yerni quyidagicha ta’riflaydi: “Tiye-men (Temir darvoza)ning o‘ng va so‘l tomoni tog‘ga tutashgan. Tog‘ benihoya yuksak va tik qoyalardan iborat. Tor bir joy bo‘lishiga qaramay (bu yerdan) o‘tish qiyin va tahlikali. (Darvoza)ning ikki tomonidagi devor kabi qoya ham temir rangidadir. (Bu yerga) taxtadan qilingan temir darvoza joylashtirilgan va (bu darvozalar) temir qismlar bilan bir-biriga jipslashtirilib, mustahkamlangandir. Darvozalarning tepalarida anchagina qo‘ng‘iroqchalar osilgan. (Bu yer) oshib o‘tish qiyin va juda yaxshi qo‘riqlangani uchun ushbu joy shunday nomlangan”[7:35]

Sug‘d va Toxaristondagi qadimiy kanjina turklari bo‘yicha olib borilgan izlanishlarning ko‘lami unchalik keng emas. Z.V. Tug‘on ularni “kash” yoki “kanga” elati bilan tenglashtirib, “kanjak”, “kashli”, “kashar” kabi turkiy etnonimlar bilan aloqadorligini ta’kidlaydi[8:65]. Sh.S. Kamoliddinov esa ularni qadimgi yunon manbalarida kumed, arab-fors manbalarida esa kumiji, kumiji turklari deb keltirilgan elat bilan bir deb hisoblab, bitta elat - kumed nomining turlicha variantlaridir, deb fikr bildiradi [9].

Ushbu tarixiy madaniy viloyatlar orasida kechgan migratsiya jarayonlarida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va diniy omillar ham ma’lum darajada rol o‘ynaydi. Bu davrda Sug‘dda buddizmning ta’siri kuchayib, uning ildizi Kushon saltanati (mil.av. I - mil. III asrlar) davriga borib taqalishi bilan birga, ushbu e’tiqod an’analari ilk o‘rta asrlarda Toxariston viloyatida davlat dini darajasida bo‘lib, Sug‘d viloyatida ham o‘z ta’sirini ko‘rsata boshlaydi. Sug‘dda asosan zardushtiylik e’tiqodi o‘z mavqeyini saqlab qolgan, biroq har ikkala din tizimida o‘zaro ta’sir holatlari ko‘zga tashlanib, bu holat ko‘proq tasviriy san’atda o‘z aksini topadi. Afrosiyob, Panjikent, Bolaliktepa kabi saroy devoriy rasmlarida buddaviylikka xos an’analar – ilohlar tasviri, turli ramziy belgilar buning yaqqol misolidir. Shuningdek sug‘diylarga xos diniy an’analar Toxaristonga, xususan, uning shimoliy qismidagi hukmdorliklar – Chag‘oniyon, Termiz, Xuttal va Kubodiyon jamiyatiga ta’sir qilgan numizmatik materiallardan o‘rin olgan o‘sha davr boshqaruvi hamda diniy e’tiqodlari bilan bog‘liq sug‘diy iboralar uchrashida ham o‘z dalilini topadi.

Toxariston va Sug‘d o‘lkalarida migratsiya jarayonlari aynan ilk o‘rta asrlarga kelib yanada kuchayishi va unga sabab bo‘lgan omillar hamda natijalari ko‘proq har ikkala hududga mintaqaning shimoli-sharqiy hududlari – Oltoy, Sharqiy Turkiston va Yettisuvdan bo‘lgan migratsiyalarda ko‘rinadi.

Antik davrda Amudaryoning yuqori oqimidagi tog‘lik viloyat bo‘lgan Kumed va uning aholisi kumediylar yoki kumijiylar Sug‘d va Toxaristondagi etnomadaniy jarayonlarda faol ishtirok etgan qadimiy elat hisoblanadi. Arab manbalaridagi Badaxshon va qo‘shnilardagi tojik qabilalari va “Kumiji turk”lar orasida qandaydir bir bog‘liqlik ko‘rinib, yashash hududi Toxaristondagi Vashgird va Badaxshon oralig‘iga to‘g‘ri keluvchi kumijilar bu yerda azaldan yashagan aholisi bo‘lishi bilan birga, keyinchalik eftaliylar, so‘ngra esa turklar orasiga aralashib ketgani yoki qadimdanoq turkiy tilli bo‘lgani ehtimoldan yiroq emas. Ular boshqa xalqlar emas, turkiy elat, deb ko‘rsatilishi o‘z-o‘zidan bo‘lmasa kerak. Kumed o‘lkasi bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar yunon manbalaridan joy olgan. Ptolomey kartasi (II asr)da Comedae toponimi uchrab, uning joylashuvi Pomir tog‘lari tevaraklariga to‘g‘ri keladi. Ptolomeyning yozishicha, Baqtriyadan shimolga yo‘l olgan karvonlar tog‘li Kumed o‘lkasidan o‘tib, Sug‘diyonaga yetib borishgan. Xitoy rohibi Syuan Szan (639-645) Kyumito yoki Kyumichje deb ataladigan tog‘lik o‘lkaning kunbotar tomonida Kedulo (Xuttal) va Sug‘d o‘lkasi bilan tutash ekani haqida yozadi[10:7]. Janubda Shikini (Shug‘non), janubi-g‘arbda Fochu (Panj) viloyatlari bilan

chegaradosh bo‘lgan Kumed o‘lkasi ayrim paytlarda Xuttalga bo‘ysungan.

Buyuk ipak yo‘lining janubiy tarmog‘ida migratsiya jarayonlari, hamda bu jarayonlarning sabablari va oqibatlari masalalari bilan antik ilk o‘rta asrlar misolida o‘rganib chiqish shuni ko‘rsatadiki, bu davrda O‘rta Osiyoning janubiy hududlari – tarixiy Sug‘d o‘lkasi o‘zining siyosiy voqeliklarga qanchalik boyligi bilan ajralib tursa, etnomadaniy jarayonlarning bir qismi bo‘lgan migratsiyalarga ham to‘la bir tarixiy davr dalillanadi. Migratsiya jarayonlarining bosh sabablaridan biri avvalo, ushbu o‘lkaning tabiiy geografik joylashuvi va iqlim sharoiti bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan o‘nlab iqtisodiy markazlar-shaharlarning qadimdan turli el va elatlarni o‘ziga jalb qilib kelishi bilan bog‘langan.

Mintaqaning markaziy qismidan, xususan, Sug‘dning kichik hokimliklaridan ba’zi aholining VIII asr boshlarida sharqqa qarab ko‘chishi va Farg‘ona vodiysiga borib joylashganliklari Abu Ja’far at-Tabariyning “Tarix ar-rasul va-l-muluk” asarida qayd etilgan. Asarda Sug‘dni arablar egallagach bir qism ishtixonlik, faylik aholi Farg‘ona podshosidan boshpana so‘rab borganliklari haqida ma’lumot beriladiki, bu ma’lumot ham o‘sha davrdagi migratsiyalarning mohiyatini tushunib olishda yordam beradi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, biz o‘rganayotgan davr So‘g‘dning madaniy va savdo aloqalarida ichki omillar, ayniqsa, qo‘shni Toxariston va qisman, Sharqiy Turkiston hamda Ustrushona tarixiy-madaniy viloyatlarining ta’siri kuchli bo‘lgan. Bronza davri sharqdagi, xususan, Moxenjadaro, Xarappa, Elam kabi sivilizatsiyalarning ta’siri (uy-joy qurilishlar, asosan hunarmandchilik buyumlari) esa ko‘proq Shimoliy va Janubiy Baqtriyada (Surxon vohasi, Tojikiston, Afg‘oniston) kuzatiladi. So‘g‘d hududlaridagi qadimgi sharq madaniyatining ta’siri deyarli kuzatilmaydi.

Xulosa va takliflar. Buyuk ipak yo‘li va uning tarmoqlari orqali mintaqaning janubiy hududlarida turli madaniyatlarning – sharqiy eroniy, turkiy va hind urf-odatlarining o‘zaro aralashuvi natijasida o‘ziga xos etnik turli xillik vujudga kelib, bu holat qariyb bir yarim ming yildan beri bugungi kungacha u yoki bu darajada saqlanib kelayotganligi bilan muhim ahamiyatga egadir.

O‘rta Osiyodagi urbanizatsiya jarayonlari faqat ichki tabiiy-geografik va ijtimoiy-siyosiy sharoitlar hamda qo‘shni jamoalardagi madaniy ta’sir bilan bog‘liq bo‘lmasdan, avvalo, Yaqin va O‘rta Sharqdagi jahon urbanistik markazlari bilan ham chambarchas bog‘liq edi. Zarafshon va Qashqadaryo vohalarini o‘z ichiga olgan qadimgi So‘g‘diyona manzilgohlari rivojlanish tizimidagi jarayonlar ham qo‘shni hududlar bilan o‘zaro bog‘liq holda kechdi.

Zamonamiz davrida Markaziy Osiyoning janubiy hududlaridagi Pomir, Badaxshon, Hisor, Hindiqush va hatto Himolay tog‘lari etaklarida tojik, Tog‘li badaxshonliklar, pushtun kabi sharqiy eroniy va o‘zbek, turkman, qirg‘iz kabi turkiy millatlarning birgalikda yashashliklarini o‘sha davrlarning hosilasi deb hisoblash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonov U. Markaziy Osiyoning qadimgi yo‘llari. 11-32.
2. Shoniyozov K. Sh. Qarluq davlati va qarluqlar. –Toshkent, Sharq, 1999. – B. 124-144;
3. Mavlonov U. Markaziy Osiyoning qadimgi yo‘llari. – Toshkent: Akademiya, 2008. – B. 132.
4. Сулейманов Р. Х. Древний Нахшаб. - Т.: Фан, 2000. - С. 313-315
5. Togan A.Z.V. Eftalit Devletini Teskil Eden Kabilelere Dair // Fen-Edebiyat Fakultesi Arastirma Dergisi. Fas.:1, Sayi: 13. - Erzurum, 1985. - S. 65.
6. Камолиддин Ш.С. К вопросу об этнической принадлежности древних кумедов // Вопросы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии. Вып. 3. Древность. Средние века. Новое время / Под редакции Ш.С. Камолиддина. - Saarbrucken: LAP - Lambert Academic Publishing RU, 2018. - С. 6.
7. Бичурин Н. Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. - М. - Л.: Изд. АН СССР. Том II. - 1950. - С. 316.
8. Boboyorov F. Tun yabgu-xoqon ... — B. 35
9. Xatamova M. Turk xoqonlarining Chochdagi qarorgohlari: Jabgukat va Xotunkat // O‘zbekiston tarixi, №1, 2009. - B. 3-13.
10 Байтанаев Б. Древний Испиджаб. - Шымкент - Алматы, 2003. - С. 38-40.
11. Камолиддинов Ш.С. К вопросу об этнической принадлежности древних кумедов ... - С. 5-7.

ZAMONAVIY FAN FALSAFASINING ASOSIY MUAMMOLARI (MUAMMOLAR VA YECHIMLAR)

Usmonova Laylo Raxmatullayevna
SamDTU Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti (PhD)
ORCID 0000-0002-7269-9688
laylo.usmonova89@gmail.com)
UDK 1(091)

Annotatsiya. Bugungi kunda zamonaviy falsafa chuqur anglash va tahlil qilishni talab qiladigan ko‘plab dolzarb muammolarga duch kelmoqda. Ular orasida Postmodern tendensiyalar va globallashuv natijasida yuzaga kelgan inqiroz ajralib turadi, bu esa inson mavjudligining maqsadlari va qadriyatlarini yangitdan ko‘rib chiqishni va an’anaviy axloqiy me’yorlarga yangicha yondashuvni talab qiladi. Zamonaviy falsafa nafaqat o‘tmish an’analarini davom ettiradi, balki insoniyat oldida turgan murakkab masalalarni hal qilish yo‘llarini topishga intilib, hozirgi muammolarga faol javob beradi. Mazkur maqolada keng tarqalgan falsafiy muammolar, bugungi kunda dunyoning falsafaga munosabati, zamonaviy falsafa va klassik falsafa o‘rtasidagi farqlar muhokama qilinadi.Shuningdek, globallashuv fenomeni madaniy va ma’rifiy jihatdan zamonaviy falsafiy taqqoslashning imkoniyatlari va istiqbollari madaniyatning asosiy xususiyatlari sifatida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: muammo, zamonaviy falsafa, komparativistika, paradigma, rivojlanish, dunyoqarash, madaniyat, fan.

MAIN PROBLEMS OF MODERN PHILOSOPHY OF SCIENCE (PROBLEMS AND SOLUTIONS)

Abstract. Nowadays, modern philosophy is faced with many urgent problems that require deep understanding and analysis. Among them, postmodern trends and the crisis caused by globalization stand out, which requires a new revision of the goals and values of human existence and a new approach to traditional moral norms. Modern philosophy not only continues the traditions of the past, but also actively reacts to the problems of the present, seeking to find solutions to the complex problems facing humanity. This article discusses general philosophical issues, the attitude of the modern world to philosophy, and the differences between modern and classical philosophy. The phenomenon of globalization in the cultural and educational aspect is also analyzed, as well as the possibilities and prospects of modern philosophical comparison as the main characteristics of culture.

Keywords: problem, modern philosophy, comparative studies, paradigm, development, worldview, culture, science.

Kirish. Bugungi kunda falsafaning zamonaviy muammolarini hal qilish texnologik taraqqiyot va globallashuv sharoitida jamiyat oldida turgan qiyinchiliklarni hisobga oladigan kompleks yondashuvni talab qiladi. Bunda turli xil falsafiy an’analar o‘rtasidagi muloqot va gumanistik yondashuvlarni birlashtirish orqali yangi muammolarni qayta ko‘rib chiqish zarurati vujudga keladi, ya’ni madaniyat, fan va donishmandlikning asoslari zamonaviy qarashlar asosida ko‘rib chiqilishini taqozo etadi.

Fan, madaniyat, falsafa kabi so‘zlar polisemantik tushunchalardir. Ularning o‘ndan ortiq asosiy va yuzlab yordamchi ta’riflari mavjud. Har qanday davr madaniyatdagi muhitiga mos keladigan ta’riflarga e’tibor beradi va eng muhimi, ular bilan o‘zaro ta’sirlarning noyob konstruksiyasini o‘rnatadi. Bunday kombinatsiyalar soni juda ko‘p, shuning uchun har qanday faylasuf va har qanday shaxs muammoga o‘z nuqtayi nazariga ega. Ba’zida bu nuqtayi nazar ma’lum sharoitlarda juda aniq bo‘lgan kosmik qonunga o‘xshaydi. Zamonaviy falsafa klassik falsafa shakllantirgan tushunchalarga nisbatan mutlaqo boshqacha tarzda ishlaydi. Zamonamiz faylasufi klassik davr faylasufidan farq qiladi. U bilimi kam odamlar bilan emas, balki yoshligidan keng dunyoqarash va ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lgan jamiyat bilan shug‘ullanadi. Aynan ushbu dunyoqarash orqali falsafiy fikr shaxsni mustaqil fikrlashga va yashashga undash uchun rivojlanishi kerak.[1;152]

“XXI asr insoniyatdan fan-texnika taraqqiyotini yangicha sifat bosqichiga ko‘tarishni talab qilmoqda. Bizningcha, esa mana shu talab doirasida yanada olg‘a bosishimiz uchun zarur bo‘lgan tafakkur islohotlarini jadallashtirishimiz va buning vositasida, avvalo, o‘zimizda sog‘lom ehtiyojlarni shakllantirishimiz lozim. Gap shundaki, har qanday rivojlanish mavjud holatdan qoniqmaslikdan paydo bo‘ladi. Ya’ni, mavjud holatdan qoniqish turg‘unlikni yuzaga keltiradi. Insonning o‘zida yangi ehtiyojning hosil bo‘lishi taraqqiyot manbaidir. Hozirgi davrda aqlan zukko, izlanuvchan, qat’iyatlik bilan mustaqil mulohaza fikrlovchi yoshlarda zamonaviy jamiyatni ilmiy texnik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi ulkan kuch-quvvat bo‘lib, ular kelajakda barcha

sohalarda jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi lozim bo‘lmoqda” [9;68].

Texnologiyaning rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan axloqiy dilemmalar jamiyat va shaxslar uchun bugungi kun qadriyatlarini hisobga oladigan yangi axloqiy asos va standartlarni yaratishni talab qiladi. Bunda yangi kashfiyotlarga moslasha oladigan va ilmiy paradigmalarning tanqidiy tahlilini taklif qiladigan fan falsafasini rivojlantirish muhimligini ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy jamiyatning eng dolzarb muammolari – bular barqarorlik, ilm-fandagi yangi yondashuvlar, yangi jamiyatning demokratik shakllarini takomillashtirish, fan va texnika yutuqlaridan odamlar manfaati uchun foydalanishdir. Ular har bir kishidan o‘z faoliyatiga chuqur mas'uliyatni his qilishi, ongli munosabatni talab qiladi. Shu munosabat bilan axloqiy mas’uliyat, tanlov erkinligi va har bir shaxsning zamonaviy tarixiy o‘zgarishlarda haqiqiy ishtiroki ahamiyati beqiyos darajada oshib bormoqda. K. Yaspers jamiyatining hozirgi holatini inqiroz deb ta’riflaydi. “Ming yillar davomida inson dunyosini tashkil etgan narsalar hozirgi paytda halokatga uchraganga o‘xshaydi... hamma narsa shubha ostida bo‘lib qoldi, hamma narsa xavf ostida” [8;334].

Inson muammolari har doim falsafa uchun muhim bo‘lgan. Hozirgi vaqtda ular shaxsni har tomonlama va uyg‘un tarbiyalashning amaliy vazifasi bilan bog‘liq holda, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu vazifani amalga oshirish shaxsning ijtimoiy shakllanishi, uning individualizatsiyasi va ichki qonuniyatlarini jiddiy falsafiy va sotsiologik o‘rganishni talab qiladi.

Faylasuf V.S. Stepin ta’kidlaydiki: “Bugungi kunda ijtimoiy rivojlanishning jadal sur’atlari odamlar hayotida ko‘p narsani o‘zgartirmoqda. Texnogen tsivilizatsiyaning bir qator asosiy qadriyatlari muammoli bo‘lib, yangi qadriyatlarning o‘sish nuqtalari paydo bo‘lmoqda. O‘z navbatida ularni tahlil qilish qanchalik hayotiyligini, qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini aniqlash kerak. Menimcha, ushbu dasturni amalga oshirish zamonaviy falsafiy tadqiqotlar va madaniyat fanlarining xilma-xilligi uchun eng istiqbolli vazifadir” [2;274].

Insoniyat yana bir bor jahon tarixi paradigmasining o‘zgarishini boshdan kechirmoqda. XXI asrning birinchi choragi globallashuv jarayonlarining kuchayishi bilan o‘zini namoyon qildi, bu esa o‘z navbatida madaniy va ijtimoiy hayotning bir nechta burilishlariga olib keldi. Politsentrik, ko‘p qutbli dunyo g‘oyasi faqat kategorik imperativ uslubida qoldi. Insoniyat mavjudligining yaqinlashib kelayotgan shakli, agar u ro‘y bersa, nafaqat sanoat sivilizatsiyasi davrida yo‘qolgan ma’noni odamlarga qaytarishi, balki xavfli axborot texnologiyalari va biotexnologiyalar birlashishi xavfining oldini oladi [6;22].

Zamonaviy falsafa nafaqat mavjud muammolarni tahlil qilishi, balki ularni hal qilishda faol ishtirok etishi, jamiyat va insonning uyg‘un rivojlanishiga hissa qo‘shadigan yangi g‘oyalar va yondashuvlarn itaklif qilishi kerak. Qiyosiy tadqiqotlar muammosi globallashuv va madaniy almashinuv sharoitida, ayniqsa dolzarb bo‘lib qoladigan turli xil falsafiy an'analar va fikrlash tizimlarini tushunish va taqqoslash zarurligidir. Taqqoslash falsafiy maktablar o‘rtasidagi umumiy mavzular va farqlarni ochib beradi, bu esa mahalliy va universal masalalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu usul bir qator qiyinchiliklarga ham duch keladi, shu jumladan soddalashtirish va stereotiplash xavfi, shuningdek, turli xil falsafiy g‘oyalar rivojlangan kontekstlarni yetarli darajada talqin qilish qiyinligi. Ma’nolarni buzmaslik va har bir an’ananing o‘ziga xosligini saqlab qolish uchun madaniy, tarixiy va ijtimoiy jihatlarni hisobga olish muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tarixiylik, obyektivlik, abstraklikdan konkretlikka qarab borish, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil singari umumilmiy va umumfalsafiy metodlardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Zamonaviy falsafa jamiyat, davlat, shaxsning destabilizatsiyasi, fan maqomidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq barcha jarayonlarni aks ettirdi. Bunga imperializmning ijtimoiy-iqtisodiy qarama-qarshiliklari, ommaviy jamiyatning paydo bo‘lishi, davlatdagi jarayonlarning mafkurasi, eski munosabatlar va sinf bo‘linmalarining buzilishi, kompyuter ishlab chiqarishining joriy etilishi, tabiatshunoslikka, ilmiy va texnologik inqiloblar, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, eski aloqa shakllarini almashtirish, “yangi o‘rta sinf” maydoniga kirish, fan va texnologiyaning kuchli rivojlanishini kiritish mumkin. Analitik va ratsional falsafa madaniyatning o‘zgargan ramzlarini va inson hayotining mazmunli masalalarini aks ettirish, talqin qilish, tushuntirishga qaratilgan ma’lum bir ijodga aylanadi[3].

Zamonaviy jamiyatda yangi ilmiy g‘oyalar jadal izlanmoqda, an’anaviy yondashuvlar qayta ko‘rib chiqilmoqda, barcha sohalarda qadriyatli ustuvorliklarni aniqlash bo‘yicha fuqarolik tashabbusi rivojlanmoqda. Globallashuv va madaniy o‘ziga xoslik masalalarini hal qilish uchun

multikulturalizm va madaniyatlararo muloqot g‘oyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu esa yanada keng qamrovli universal jamiyatni yaratishga imkon bermoqda.

Zamonaviy dunyoning murakkabliklari falsafiy bilimlarning differensiatsiyasiga olib keladi. Ko‘p sonli yondashuvlar, tushunchalar, nazariyalar, atrofdagi dunyo hodisalarini alohida anglash zarurati falsafada turli xil mustaqil sohalarning paydo bo‘lishini taqozo etmoqda: ta’lim falsafasi, texnologiya falsafasi, fan falsafasi, huquq falsafasi va boshqalar.[4;19].

Yangi texnologiyalarning jamiyatga ta’siri axloqiy dilemmalarga olib kelishi mumkin, masalan ma’lum otlar maxfiyligi muammosi va sun’iy intellektdan foydalanishning axloqiy jihati. Ekologik muammolar ekologik inqirozni va insonning tabiatga bo‘lgan munosabati va uning oldidagi javobgarligining falsafiy jihatlarini ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi. Madaniy o‘zgarishlar va bag‘rikenglik muammolari ham falsafiy jihatlarga ega. Tengsizlik, kamsitish va murosasizlik inklyuzivlikka erishish va farqlarga bardoshli va barqaror jamiyat yaratishga to‘sqinlik qiladi. Ijtimoiy adolat va ijtimoiy tengsizlik muammolari bizning davrimizda tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Daromadlar, resurslardan foydalanish va imkoniyatlarning tengsizligi sharoitida ba’zi odamlar ijtimoiy va iqtisodiy mavqeyi tufayli teng imkoniyatlardan mahrum bo‘lishlari mumkin. Ushbu muammolarning har biri o‘ziga xos falsafiy jihatlarga ega va jamiyatda jiddiy tashvish tug‘diradi. Ushbu muammolarni hal qilish nafaqat davlatning harakatlarini, balki har bir insonning ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ham talab qilishini tushunish muhimdir. [5;131].

Falsafiy ta’limda falsafiy tafakkurning oziga xosligi muammoni ko‘rish ufqini kengaytiradi, uni tadqiq etishga nisbatan yangicha, o‘ziga xos yondashuvlarni taklif qiladi, shu jumladan, fanga bunday yondashuvlarni ilgari surishga ko‘maklashadi. Zero, aniq ta’riflar va ishonchli dalillarga tayanadigan fan o‘z fikrlari va xulosalarida bunday erkinliklarga yo‘l qo‘ya olmaydi. Vaholanki, falsafiy tafakkur mulohaza yuritish va baholashlarga nisbatan erkin yondashuvsiz o‘zining betakrorligini yo‘qotadi[9;71]. Darhaqiqat, falsafa nafaqat zamonaviy muammolarini tushunishga yordam beradi, balki ularni hal qilish yo‘llarini ham taklif qiladi. Doimiy o‘zgarishlar va qiyinchiliklar bor bo‘lgan sharoitda falsafa murakkab masalalarni tahlil qilish, tushunish va hal qilish uchun muhim vosita bo‘lib, muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tanqidiy fikrlash va axloqiy ongni shakllantiradi.

Barcha zamonaviy mojarolar, shuningdek, muammolar asosida, natijada inson hayotining ma’naviy manbalarining tanazzulga uchrashi muammosi mavjud. Bunda falsafiy komparativistikaga ekzistensial xarakterdagi vazifalar va masalalarni hal qilish roli berilgan. XXI asr odamining qarashlari dunyoga yaxlit falsafiy qarashni talab qiladi. Zamonaviy global dunyo G‘arb va Sharq falsafasining tajribalarini mujassam etgan sintetik tuzilmalarga muhtojdir. Falsafiy yo‘nalishlarning xilmaxilligi bilan ularning umumiyligi va aniqligi tobora ko‘proq kuzatilmoqda. Borgan sari tadqiqotchilar umumiy falsafiy madaniyat haqida gapirishmoqda.[6;23].

Agar inson hayoti davomida o‘zi, oilasi, qarindoshlari va do‘stlari, tanlagan faoliyat sohasi, Vatani, umuman insoniyat uchun, uning bir qismi bo‘lgan tabiat uchun nima qilishi kerakligi haqidagi savollarga javob beradigan qadriyatlar, maqsadlar va ideallar, xulq-atvor tamoyillari tizimini qurishni va izchil amalga oshirishni boshlasa, salbiy ta’sirlarga muvaffaqiyatli qarshi tura oladi. Inson o‘z farzandlariga, avlodlariga nimani qoldirishi kerakligi haqidagi savollarga javob beradigan tizimni qurish va o‘zida mujassam etishi zarurdir. Falsafaning fan sifatida va zamonaviy jamiyatda o‘quv sohasi sifatida tutgan o‘rni, avvalambor, odamlarga ushbu tizimni qurish va amalga oshirishda yordam berishdan iborat.[7;9].

Zamonaviy jamiyatda komparativistika dialogik va fanlararo yondashuvlar kabi yangi texnika va yondashuvlarni taklif etadi, bu esa falsafiy tizimlar o‘rtasidagi yanada samarali o‘zaro ta’sirga hissa qo‘shishi mumkin. Bu soha, shuningdek, turli falsafiy qarashlarni birlashtirish orqali ekologiya, axloq va ijtimoiy adolat kabi dolzarb global muammolarni hal qilish imkoniyatlarini ochadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, zamonaviy hayotimizdagi falsafiy muammolar va ularning yechimlarini topish muhim ahamiyatga ega. Chunki ular hozirgi paytda mavjud qiyinchiliklar va muammolarni yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Bir qator ijtimoiy-madaniy omillar ta’siri ostida, shuningdek, antropologik va uslubiy jihatlar birinchi o‘ringa chiqqan falsafiy muammolarni o‘zgartirish jarayonida falsafa zamonaviy madaniyatning maxsus sohasi-falsafiy madaniyat shaklida rivojlanadi. Karl Yaspers so‘zlariga ko‘ra, “Falsafaning muammolari doirasiga, avvalo quyidagilar kiradi: kategoriyalar va usullarni shakllantirish, falsafa tarixini o‘rganish, ontologik muammolarni ishlab chiqishdir” [8;500]. Zamonaviy falsafadagi taqqoslash usuli dunyoqarashning xilmaxilligi sharoitida tushunish ufqlarini kengaytirish va yechimlarni

topish uchun muhim vositalardan biridir. Umumbashariy ziddiyatlar va dunyoning bo‘linishi tahdidi sharoitida qiyosiy falsafaga murojaat qilish inson hayoti, birdamlik va insoniyatning ma’naviy birligi qadriyatiga asoslangan falsafiy dunyoqarashni yakuniy tasdiq topishiga yordam berishi kerak. Chunki zamonaviy, global dunyo madaniyatlarning muqarrar interpenetratsiyasi, madaniy hududlarning chegaralarini yo‘q qilish bilan tavsiflanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Исмаилова Э.Р. Проблемы философии в современном мире // Скиф. 2018. №11 (27)
2. Степин В.С. Цивилизация и культура. – Санкт-Петербург, 2011.
3. Мурадов Санжар Аслонович - «Актуальные исследования» №44 (123), ноябрь 22
4. Козлова Татьяна Александровна, Полякова Юлия Олеговна, Леонтьева Дарья Александровна. Актуальные проблемы философии образования в современную эпоху // КНЖ. 2020. №2 (31).
5. Шафигуллин Василий Абдуллович. Философские проблемы современного общества // Социология. 2023. №2.
6. Меджидова, Н. [2022]. Компаративный анализ современных философско- антропологических концепций. - Журнал «Metafizika», 5(4).
7. Арепьев Е.И. Роль философии в современном мире. Сборник статей по итогам научно-практической конференции с международным участием «Проблемы философии: история и современность». - Курск, КГУ, 18–21 мая 2018 г.
8. Ясперс К. Смысл и назначение истории.-М., 1994.
9. To‘xtayev H.P.Yoshlarma’naviyqadriyatiniyuksaltirishdafalsafiytafakkurningo‘rni // “Murakkab jarayonlarning zamonaviy metodologiyasi va tizimli tadqiqotlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. –Namangan, 2023.
10. Nugmanovna M. A. The role of social control in the legal socialization of the individual //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 5. – C. 712-721.

MILLIY MADANIY MAKONDA AXLOQIY ONG YUKSALISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNING BA’ZI JIHATLARI

Sunatov Dilshod Hoshimovich
Qarshi davlat universiteti dotsenti
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
sunatov_d@bk.ru
ORCID 0009-0003-8044-3687

UDK 100.63(021)

Annotatsiya. XXI asrda insoniyat hayotida yuz berayotgan barcha hodisa, voqea, jarayonlar axloqiy tarbiya borasdagi muammolarning ortga qaytmas darajada kengayib borishiga olib kelishi, bu esa jahonda bir qator o‘ziga xos tuzilish va xususiyatlarga ega bo‘lgan global va lokal ahamiyatga molik axloqiy makonlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi ushbu maqolaning dolzarbligini ifodalaydi. Mazkur maqolada, milliy madaniy makonda axloqiy ongga ta’sir qiluvchi ba’zi omillar falsafiy tahlil qilinib, axloqiy omillarning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib berish, jamiyatning madaniy taraqqiy etishiga ularning ijobiy ta’sir etish doirasi va ko‘lamini aniqlash va tahlil qilish muhimligiga e’tibor qaratildi hamda axloqiy ong taraqqiyot belgilari sifatida shaxs ma’naviy ozodligining oshishi (ayniqsa, virtual olamda), axloqiylik prinsiplarini jamiyatning barcha sohalarida ta’sir darajasining oshishi va mustahkamlanishi, ziddiyatli, nizoli vaziyatlarda axloqning tinch bartaraf eta olish qobiliyatining shakllanishi, axloqsizlik sodir etilganda oshkora norozichilik kayfiyatini bildira olishi, axloq ilmining fan sifatida ta’lim tizimida mustahkam o‘rnashib borishi kabi xulosalarga kelindi. Shuningdek, yoshlar dunyoqarashining o‘zgaruvchanligi va unga ta’sir qiluvchi omillarni, milliy qadriyatlarning axloqiy ongga ta’sirini hamda globallashuv jarayoni madaniyatlar integratsiyasini kuchaytirib, madaniy makonda transformatsion o‘zgarishlarni keltirib chiqarayotgani hisobga olinib, milliy madaniy makonda axloqiy ongning yuksalishiga ijobiy ta’sir etuvchi ba’zi axloqiy omillar: ta’lim, din hamda internet texnologiyalari falsafiy rakursda ochib berildi.

Kalit so‘zlari: madaniy makon, ilm-fan, ta’lim va tarbiya, maorif, jadid ma’rifatparvarlari, axborot-kommunikatsiya maydoni kompyuter texnologiyalari, internet, virtual muloqot, globallashuv, din, islom dini, islomiy qadriyatlar.

SOME ASPECTS OF FACTORS AFFECTING THE RAISING OF MORAL AWARENESS IN THE NATIONAL CULTURAL SPACE.

Abstract. The relevance of this article is expressed in the fact that all the events, incidents, and processes taking place in the life of humanity in the 21st century have led to an irreversible expansion of the problems of moral education, which has led to the emergence of a number of moral spaces of global and local importance in the world, which have a number of unique structures and characteristics. This article philosophically analyzes some factors that affect moral consciousness in the national cultural space, draws

attention to the importance of showing the specific characteristics of moral factors, identifying and analyzing the scope and scale of their positive impact on the cultural development of society, and concludes that signs of moral consciousness development include an increase in the spiritual freedom of the individual (especially in the virtual world), an increase and strengthening of the influence of moral principles in all spheres of society, the formation of the ability to peacefully resolve moral conflicts in conflict situations, the ability to openly express discontent when immorality is committed, and the firm establishment of moral science as a subject in the education system. Also, taking into account the variability of youth worldviews and the factors influencing them, the influence of national values on moral consciousness, and the fact that the globalization process is increasing the integration of cultures and causing transformational changes in the cultural space, some moral factors that have a positive impact on the rise of moral consciousness in the national cultural space: education, religion, and Internet technologies were revealed from a philosophical perspective.

Keywords: cultural space, science, education and upbringing, enlightenment, modern enlighteners, information and communication space, computer technologies, internet, virtual communication, globalization, religion, Islamic religion, Islamic values.

Kirish. Bugun har qanday madaniy makonning kengayib borishi, bir qator subyektlarning mazkur makonda olib borayotgan madaniy faoliyatlari darajasiga bog‘liq bo‘lib, uning kvintessensiyasini axloqiy ongdagi bo‘lgan o‘zgarishlar tashkil qilmoqda. Yoshlar dunyoqarashining o‘zgaruvchanligi va unga ta’sir qiluvchi omillarni, milliy qadriyatlarning axloqiy ongga ta’sirini hamda davlat boshqaruvida madaniy makon shakllarining ahamiyatini o‘rganish borasida ilmiy-nazariy tadqiqotlarni olib borish davr talabiga aylanib bormoqda.

Globallashuv jarayoni va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichida bilim, axborot kommunikatsiyalar, din – axloqiy ongga ta’sir etuvchi omillar sanaladi. Har doim yurt taraqqiyoti uchun bilim va ma’rifatga tayanilgan. Xalqning aqliy salohiyati boyishi uchun bevosita bilmlarning o‘rni beqiyos bo‘lsa, maorif – yurt farovonligini ta’minlashda asosiy kuch. Yuqorida qayd etilgan dolzarb vazifalar mohiyatidan kelib chiqib, madaniy makondagi paradigmatik shakllarning axloqiy ong bilan aloqadorligi masalalari va milliy madaniy makonda axloqiy ongga ta’sir etuvchi omillarga e’tibor qaratish juda muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ilm-fan, har davrda ham mamlakat rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun muhim vosita sanalgan. Millat ravnaqi, yurt farovonligi, Vatan taraqqiyoti uchun o‘z bilimi, salohiyatini har bir shaxs safarbar qilishi kerak. Bu esa o‘sha yurtning madaniyati va ijtimoiy hayotining taraqqiy etishiga imkon yaratadi. Ta’limsiz inson, uning qobiliyatlari va ijodiy kuchlari o‘sishi mumkin emas, zero, ta’lim (fan bilan bir qatorda yoki u bilan birga) rivojlanishning muhim resursiga aylanadi[1].

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda ta’lim – bir tomondan, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi, boshqa tomondan esa dunyoqarashni shakllantirish manbai, jamiyatning madaniyatlilik darajasining yuqori ko‘rsatkichi hisoblanadi. Chunki mamlakat qudrati, avvalo, ta’lim tizimi bilan belgilanadi. XXI asr dunyo ta’lim tizimida barqaror taraqqiyotni ta’minlab beruvchi asosiy omillar e’tirof etildi va 2030-yilgacha belgilab berilgan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “sifatli ta’lim olish va ijodiy qobiliyatni rag‘batlantirish”[2] dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Ta’lim makoni talabaga yo‘l tanlash erkinligini berish orqali umumiy-normativ talablar bilan ta’limga oid individual ehtiyojlar o‘rtasidagi ziddiyatni yechish imkoniyatini beradi[3]. Dunyoda ta’lim mamlakatning iqtisodiy barqarorligi omili, insonning ma’naviy kamoloti, shaxslararo munosabatlarda tenglik, bilim va e’tiqod uyg‘unligini ta’minlash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yagona ta’lim makonini yaratish, dunyoda tinchlikni qaror toptirish omili ekanligi ayon bo‘lmoqda. Yusuf Xos Xojib “Olamga odam tushgandan buyon (ya’ni odam yaratilgandan buyon) zakovatlilar ezgu siyosat yuritib keladilar. Qaysi davrda bo‘lmasin, bilimlilarga buyukroq o‘rin nasib bo‘lib keldi”[4], – deydi.

Jadid ma’rifatparvarlarimiz ham bilim, ma’rifatni jaholatga qarshi eng muhim vosita sifatida qarashganini ta’kidlash lozim. Behbudiy “Padarkush” romani orqali bilimsizlik yovuzlikka, jaholatga yo‘l ochishini ta’kidlaydi[5]. Axloqiy bilimlar yoshlar madaniy faoliyatning asosi bo‘lishi lozim. Madaniy makonni shakllantirish va yuksaltirishda muhim sanalgan bilim axloqqa ijobiy ta’sir etuvchi eng muhim omillarda biri hisoblanadi[6]. Shuning uchun buyuk mutafakkirlarimiz ta’lim va tarbiyani uzviylikda olib borish lozimligini uqtirishgan. Demak, ta’lim sohasida innovatsiyon texnologiyalarni joriy etib, yoshlarni puxta bilim egallashiga imkoniyatlarni oshirish, jamiyatning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini zamonga mos, yetuk va raqobatbardosh mutaxassislarni bugungi kun talabi asosida ishlab chiqarish hamda yangi O‘zbekistonga o‘z hissasini qo‘sha oladigan, yuksak ma’naviyatli, go‘zal axloqli xislatlarga ega bilimli yoshlarni

tarbiyalab, voyaga yetkazish, eng muhim vazifalardan bo‘lishi darkor. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Biz maktabgacha ta’lim, o‘rta maktab va oliy ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy xalqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisblaymiz”[7], – deb ta’kidlab o‘tadi. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmon, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun shak-shubhasiz, sohaning zamonaviy taraqqiy etishi uchun yangi qadamlarni tashlashga yordam beradi. Ushbu qonun va farmonlar doirasida o‘qitish tizimining yangi usullari amaliyotga joriy qilindi. Xususan, “online”(masofaviy), sirtdan turib ta’lim olish, fakultativ va xorijiy ta’lim bilan qo‘shma hamkorlikda ta’lim olish turlari tashkil etildi. Bundan tashqari, kasb o‘rgatuvchi o‘quv markazlar faoliyati ish boshladi. Oliy ta’lim tizimiga yoshlarni qamrab olish imkoniyatlari ko‘paytirilib, ularni talabalikka qabul qilishning adolatli va shaffof usuli yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga ta’lim beruvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishga keng sharoitlar yaratildi. Ularning maoshlari oshirilib, yillik ustamalar to‘lash tizimi joriy etildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida qo‘yilgan maqsadga erishish uchun natijani ideal, aqliy kutish, buning uchun ilmiy va kognitiv harakatlarni amalga oshirish talab etiladi. Odamzod tabiat olamida yashaydi va aqlli mavjudod sifatida har tomonlama faoliyat yuritib madaniy makonini kengaytirib borishi bilan bir qatorda axloqiy ongni shakllanishiga va o‘zgarishiga zamin yaratadi. Bu esa stixiyali tarzda emas, balki tartibli ravishda amalga oshiriladi. Xo‘sh, shunday ekan, madaniy makonda axloqiy ongga ta’sir qiluvchi omillarning xususiyatlari va atributlari ham o‘zgaruvchan tarzda namoyon bo‘ladi. Qo‘yilgan muammoning yechimini topishda ilmiy bilishning analiz va sintez, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Axloqiy ongga ta’sir qiluvchi omillardan sanalgani axborot maydoni, xususan, internet texnologiyalarini ta’kidlash o‘rinlidir. Bugun insoniyat strategik taraqqiyot yo‘nalishini belgilab beruvchi hamda muayyan makon va zamonga tobe bo‘lmagan yagona axborot makoni sifatida yuzaga kelayotgan informatsion asrga qadam qo‘ydi. Texnika taraqqiyoti insonlar hayotiga internetni olib kirdi va yer yuzidagi odamlarning barchasini informatsion aloqa almashinishini ta’minladi. Texnika olamidagi inqilob, komyuterlashgan texnologiyalarning ommalashib borishi, internetning tobora taraqqiy etishiga sabab bo‘ldi. Bu esa yangi virtual madaniy makonni va yangi axborot maydonini vujudga keltirdi. Axborot maydoni madaniy makonning tarkibiy qismi va uning axloqiy ongga ta’siri tobora kuchayib bormoqda. Ammo bugun u madaniy makonning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida alohida tadqiqotni talab etadi.

Virtual borliq tushunchasi nisbatan yaqinda ilmiy leksikaga va kundalik hayotga kirib keldi. Uning bir nechta ma’nolar kasb etishini izohlab o‘tamiz: birinchidan, axborot bilan bog‘liq faoliyatlarning maxsus sohasi; ikkinchidan, bilish chegarasining kengayishi va informatsiyalarning ko‘payishi; uchinchidan, turli vaziyatlarni modellashtirish asosida muammolarni oson bartaraf etish usuli; to‘rtinchidan, davlatlar hamda shaxslararo aloqa vositasi va madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot negizida jahon madaniy makoniga qo‘shilish usuli. Axborot oqimlarining kuchi madaniy aloqalarni rivojlantirishni rag‘batlantiradi, ommaviy auditoriya bilan haqiqiy muloqot qilish imkoniyatini ochadi va shu bilan birga, o‘ta individual muloqot holatini yaratadi[8]. Biz axborot makonini axloqiy ongga ta’sir etuvchi omil ekanligiga e’tiborimizni qaratamiz. Shu boisdan ham har bir davlat o‘zining samarali axborot siyosatini olib borishda informatsion vositalarga tayanadi. Globallashuv jarayonida axborot ham ijobiy, ham salbiy kuch sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kun axborot oqimining jadallashuvi sabab salbiy axborot xuruji kengayib borishi natijasida ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar juda notekis tarzda namoyon bo‘lmoqda. Madaniy ehtiyojlarni aniqlash, ularni qondirishning chora-tadbirlarini amalga oshirish imkoniyatlarini tavsiflash lozim. Bu esa, atrof-muhit va ijtimoiy tafakkur o‘rtasidagi munosabatlarda o‘z aksini topadi. Tadqiqotchi M. Sharipov, G‘arb madaniyatining boshqa mintaqalarga tiqishtirish holatlari insoniy tamoyillarga zid ekanligini uqtiradi. “G‘arbning madaniy qadriyatlarini faol targ‘ib qiluvchi demokratiya mafkurasi uning kuchli ta’siri ostida bo‘lgan mamlakatlarga G‘arb ommaviy madaniyati namunalarini tarqatayotgan zamonaviy ommaviy axborot vositalaridir”[9].

Mamlakatimizda axborot sohasini jahon andozalariga moslashtirish hamda axborot xurujlarini oldini olish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Demokratik islohotlar davrida mamlakatimizda 200 dan ortiq qonun hujjatlari ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilib, 1500 dan ortiq ommaviy axborot vositalari faoliyat ko‘rsatmoqda, internetdan

foydalanuvchilar soni 23 milliondan oshdi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi fikrlari e’tiborga molik: “Bugun biz dunyodagi uzoq-yaqin davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlab, yurtimizdagi demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirishga intilar ekanmiz, boshqa sohalar qatori ommaviy axborot vositalari faoliyati bo‘yicha ham hali ko‘p ish qilishimiz kerakligini yaxshi tushunamiz. Ommaviy axborot vositalari so‘zda emas, amalda “to‘rtinchi hokimiyat” darajasiga ko‘tarilishi zarur. Bu – zamon talabi, islohotlarimiz talabi”[10].

Axborotlashgan dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashuvi jarayoni kuchaymoqda. Bu ijobiy holat bo‘lib, uning natijasida odamlarning tasavvur dunyosi, ong va tafakkuri o‘zgaradi. Xo‘sh, yoshlarda kommunitsiya madaniy makonida o‘zini tutishining axloqiy qoidalari nimalardan iborat? Real hayot bilan virtual hayotdagi axloqiy qoidalar bir-biriga to‘g‘ri keladimi, degan savol tug‘ilish tabiiy hol.

Birinchidan, yosh avlodning ma’lum qismida an’anaviy qadriyatdan, axloq-odobdan uzoqlashish holatlarini vujudga keltiradi.

Ikkinchidan, yuzma-yuz munosabatda bo‘lmaslik erkinlikni yuzaga keltiradi. Virtual muloqot paytida insonda fenomenal axloqiy erkinlik paydo bo‘ladi va u bevosita jamiyatdagi axloqiy me’yorlarni inkor etadi.

Uchinchidan, so‘zlashuvda jargon (so‘zlarni buzib gapirish), vulgarizm (fahsh, so‘kinish, haqoratli so‘zlar) va varvarizm (boshqa tillardagi so‘zlardan qo‘pol foydalanish)dan erkin foydalanilishi va bu bevosita milliy tilninig buzilishiga olib kelishi orqali aks etmoqda.

To‘rtinchidan, globallashuv jarayoni texnikadan foydalanish madaniyatini taqozo etmoqdaki, bu aynan axloqiy madaniyatga tegishlidir. Ba’zan inson texnikaning egasi emas, quliga aylanib qolayotgani, undan o‘z ehtiyoj doirasida foydalanmasligi, boylik orttirish manbai, o‘z yovuz maqsadlariga erishish vositasiga aylantirib borayotganligi hech kimga sir emas.

Beshinchidan, muomala va nutq madaniyati, masalan, internet kabi virtual muloqot vositasida yoshlarning o‘zaro yozishmalarini o‘qiganda ularda nutq madaniyatining pastligi, yoki telefonda bemalol oilaviy muammolarni ommaga eshittirib baqirib gapirayotganlarni uchratish bugun tabiiy holga aylanmoqda. Internet orqali turli bo‘htonlarning tarqatilishi, inson obro‘-e’tiboriga, ayniqsa, yoshlarning axloqiy ongiga, ma’naviy olamiga katta zarar yetkazmoqda. Bunday xavf-xatarlarni oldini olish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Madaniy makonda axloqiy ongga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil sifatida dinni ko‘rsatish mumkin. Axloqiy ong islom dinining falsafiy negizlarida an’ana, urf-odatni inson takomilidagi o‘rni va roliga muhim ahamiyat berilganligini ham alohida e’tiborga olish zarur. Islom dini mazmunining markaziy g‘oyasini jamiyat hayoti va shaxsiy hayotdagi barcha muammolarni hal etish uchun inson o‘zi ruhan, vijdonan pok, iymonli, e’tiqodli, halol bo‘lishi kerakligi tashkil etadi. Ma’naviy-axloqiy kamolotga bo‘lgan ehtiyojning bir ko‘rinishi – bu jamiyatning dinga bo‘lgan ehtiyojidir. Agar xalqning mana shu ehtiyoji qondirilmas ekan, jamiyat ma’naviy-axloqiy jihatdan qashshoq bo‘lib qoladi.

Dinga nisbatan shakllangan yangicha munosabat tufayli mustaqil O‘zbekistonda xalqni ma’naviy-axloqiy va ma’rifiy jihatdan yuksaltirish bilan bog‘liq ezgu ishlarni amalga oshirishda islom dinining imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Chunki islom dini asrlar davomida odamlarni ulug‘ maqsadlar sari birlashishga, milliy, irqiy kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslikka, mehnatsevarlikka, mehr-oqibatlilikka chorlab kelgan. Mustaqilligimizni mustahkamlash, yurtimizda tinchlik, osoyishtalik, ahillikni ta’minlashda islom dinining ahamiyati kattadir.

Islom dinida turmush madaniyati, insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda hamisha adolat, insof, halollik, bag‘rikenglik, insonparvarlik bo‘lishi talab etilganligini ta’kidlash lozim. Bu haqida Qur’oni Karim va Hadisi shariflarda ta’kidlab o‘tilgan[11]. Ammo mustamlakachilik davrlarda islom dinining yuqorida sanab o‘tilgan inson ma’naviy-axloqiy kamolotidagi ijobiy ahamiyati nafaqat unutib qo‘yildi, balki ular jamiyat hayotiga, inson turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi aqidalar sifatida qoralanib, ularga qarshi keskin kurashlar olib borildi. Qur’oni Karim, Hadislar va shariat hukmlarida olg‘a surilgan ma’naviy-axloqiy kamolot mezonlarini bilmaslik, ularni bilishga yo‘l bermaslik oqibatida jamiyat ma’naviy ongida bo‘shliq hosil qilib, madaniy makon yuksalishiga to‘sqinlik qildi.

Buyuk muhaddislarimiz merosida, tasavvuf ta’limotida madaniy makonda e’tiqod va axloq, ilm va ma’rifat masalasiga katta e’tibor qaratiladi. Shu orqali odamlarni yaxshilikka, savob ishlar qilishga da’vat etiladi.

Xulosa va takliflar. Demak, jamiyatda turli faoliyat bilan shug‘ullanuvchi subyektlarning ijtimoy-madaniy harakatlar ko‘lami nihoyatda kattaligi, shu jamiyat madaniy makonining murakkab tizimdan iboratligini anglatadi. Axloqiy omillar ham shu tizimni harakatga keltiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi va madaniy makonni boyitib boraveradi. Shu munosabat bilan axloqiy omillar umumiy ijtimoiy, sinfiy, hududiy, shaxsiy, jamoaviy, oilaviy va hokazolar orqali namoyon bo‘ladi.

Xulosalarni optimallashtirsak, **birinchidan,** har bir davrda jamiyat va insonlar o‘rtasidagi axloqiy me’yorlar yangilanib, o‘zgarib, takomillashib boraveradi. **Ikkinchidan**, jamiyatning rivojlanib borishi inson axloqiy-madaniy ongini shakllantirsa, shaxs to‘plagan axloqiy praktika jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. **Uchinchidan,** ijtimoiy sohalarning takomillashib, rivojlanishib borishi jamiyat madaniy makoniga ijobiy ta’sir etadi, ammo axloqiy taraqqiyot har doim ham jamiyat bilan uyg‘un rivojlanavermaydi. Buni o‘tgan tarix o‘z tajribasi orqali bir necha bor isbotlagan. **To‘rtinchidan,** etnik madaniyat va uning asoslari, an’analari, ikkinchi tomondan, globallashuvning tezlashuvi natijasida ommaviy madaniyatning jadallashuvi ta’siridagi ziddiyatli tendensiyalar axloqiy ongning shakllanishi va madaniy makon yaxlitligini davlat iqtisodiy-siyosiy mexanizmlari ta’minlashini taqozo etadi. **Beshinchidan,** Uzluksiz ta’limning murabbiylik soatlarida axloqiy ong shakllanishiga ijobiy ta’sir etuvchi moddiy va nomoddiy madaniyatimiz namunalari aks etgan video darslarni joriy etish, bizning nazarimizda qo‘yilgan muammoning ma’lum darajada yechimi hisoblanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Муҳамедова З. Таълим фалсафаси. – Тошкент: ТошМИ, 2004. – Б.14-15.
2. Inncheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and euitable quality education ang lifelong learning for all (Word Education Forum**, 19-22-**may **2015,** Incheon, Republic of Korea).
3. Sunatov Dilshod Hoshimovich. (2024). Milliy madaniy makonda axloqiy ongga ta’sir qiluvchi omillar. *Proceedings of International Educators Conference*, *3*(1), 390–398.
4. Юсуф Хос Ҳожиб .Қутадғу билиг. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 95.
5. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Падаркуш . – Тошкент: Маънавият, 1996. – Б. 114.
6. Sunatov D. H. The effect of globalization and localization of moral consciousness on cultural space //Актуальные вопросы гуманитарных наук: теория, методика, практика. – 2022. – С. 105-112.
7. https://president.uz/uz/lists/view/3864 // Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 30 сентябрда Тошкентда бўлиб ўтган Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқидан.
8. Sunatov Dilshod Hoshimovich. (2023). INTERRELATIONSHIP OF CULTURAL SPACE AND PARADIGMS OF MORAL CONSCIOUSNESS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *11*(9), 218–226.
9. Шарипов М.Р. Глобализация и кризисы мировой цивилизации // Власть. 2010. № 6. – С. 120.
10. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2 жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. –Б. 485-486.
11. Қуръони Карим. (таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур) – Тошкент: Чўлпон, 2001. – Б. 561.

O‘ZBEKISTONDA JAMIYAT TRANSFORMATSIYASINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Qurbonov Tohir Hamdamovich
Qarshi davlat universiteti falsafa va sotsiologiya kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi.
tohir-qurbonov1969@mail.ru
ORCID 0009-0008-3283-7274

УДК 392.0 (045)

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy transformatsiya jarayonlari va unda ilmiy bilimlarning o‘rni tahlil etilgan. Transformatsiya tushunchasi va uning turlicha talqin etilishi, konstruktiv va destruktiv yo‘nalishlari, ijtimoiy madaniy transformatsiya, kibernetik yondashuvlar, “bilim jamiyati”, “bilim iqtisodiyoti”, “axborot jamiyati” ilmiy asosda ochib berilgan.

Bugungi davrda axborotga bo‘lgan talab har qachongidan ko‘ra ham yuqoridir. Shunday ekan, xolis va haqqoniy axborotlarni tarqatish, ommaning bu mahsulotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari insoniyatga aqlni shoshiradigan darajada keng imkoniyatlar va o‘zgarishlar tuhfa etayotganligini hammamiz ko‘rib turibmiz.

Imkoniyat va o‘zgarishlar iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalarning barchasini qamrab olgandir. Kelajakda insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi, uning taqdiri ana shu o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilish

va ulardan kelajakda yanada taraqqiy etish maqsadida foydalana olishga bog‘liqdir. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi o‘zgarishlarni o‘rganish, ularni tahlil etishga oid juda ko‘plab ilmiy yondashuvlar, g‘oyalar paydo bo‘ldi. Ularning ko‘pchiligida sodir bo‘layotgan zamonaviy globallashuv, axborotlashuv jarayonlari natijasida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayonlari deb atalmoqda. Shu bois maqolamizda jamiyat transformatsiya jarayonlarining mohiyati, mazkur atamaning paydo bo‘lish tarixi, transformatsiya jarayonlarining determinantlari, bu jarayonda bilimlarning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritamiz.

Tayanch tushunchalar: transformatsiya, globallashuv, “modernizatsiya”, konstruktiv yo‘nalish, destruktiv yo‘nalish, ijtimoiy madaniy transformatsiya, kibernetik yondashuv, “bilim jamiyati”, “bilim iqtisodiyoti”, “axborot jamiyati”, sivilizatsiya, jamiyat transformatsiyasi.

MAIN DIRECTIONS OF SOCIAL TRANSFORMATION IN UZBEKISTAN

Abstract. The article analyzes the processes of social transformation and the role of scientific knowledge in this. On a scientific basis, the concept of transformation and its various interpretations, constructive and destructive directions, socio-cultural transformation, cybernetic approaches, "knowledge society", "knowledge economy", "information society" are revealed.

In the modern era, the demand for information is as high as ever. Therefore, the dissemination of unbiased and truthful information and meeting the public's need for this product are becoming one of the urgent issues of today. We all see that modern information technologies provide humanity with a wide range of opportunities and changes that confuse the mind.

Opportunities and changes may have spanned all areas of the economy, culture, and social sphere. The development of human civilization in the future and its fate depend on an in-depth analysis of these changes and the ability to use them for further progress in the future. A huge number of scientific approaches and ideas have emerged concerning the study of changes at the present stage of society's development and their analysis. The changes that occur in many of them as a result of the processes of modern globalization and informatization are called socio-cultural transformation processes. Therefore, in this article we will reflect on the essence of community transformation processes, the history of the term, the determinants of transformational processes, and the importance of knowledge in this process.

Basic conceptions: civilization, mentality, national mentality, nation lifestyle, society, transformation of society, spirituality-national mentality, national consciousness, cultural heritage, humanism, nation, collective.

Kirish. Ma’lumki, hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan bir paytda butun dunyoda globallashuv jarayoni ketmoqda. Bugungi davrda axborotga bo‘lgan talab har qachongidan ko‘ra ham yuqoridir. Shunday ekan, xolis va haqqoniy axborotlarni tarqatish, ommaning bu mahsulotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda.
Zamonaviy axborot texnologiyalari insoniyatga aqlni shoshiradigan darajada keng imkoniyatlar va o‘zgarishlar tuhfa etayotganligini hammamiz ko‘rib turibmiz.

Bu imkoniyat va o‘zgarishlar iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalarning barchasini qamrab olgandir. Kelajakda insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi, uning taqdiri ana shu o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilish va ulardan kelajakda yanada taraqqiy etish maqsadida foydalana olishga bog‘liqdir. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi o‘zgarishlarni o‘rganish, ularni tahlil etishga oid juda ko‘plab ilmiy yondashuvlar, g‘oyalar paydo bo‘ldi. Ularning ko‘pchiligida sodir bo‘layotgan zamonaviy globallashuv, axborotlashuv jarayonlari natijasida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayonlari deb atalmoqda. Shu bois maqolamizda jamiyat transformatsiya jarayonlarining mohiyati, mazkur atamaning paydo bo‘lish tarixi, transformatsiya jarayonlarining determinantlari, bu jarayonda bilimlarning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritamiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Transformatsiya konsepsiyasi bir qator mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan. “Raqamlashtirish” atamasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini mustahkamlash bilan bog‘liq holda paydo bo‘ldi. Ba’zi olimlar, masalan, Y.L. Vartanova, M.I. Makseyenko, S.S. Smirnov bu tushunchani axborotni raqamlarga tarjima qilish va shu bilan birga, ta’limning infratuzilmaviy, boshqaruv, xulq-atvor va madaniy komponentlari deb hisoblaydilar [5]. Ushbu ta’lim nazariyasidan kelib chiqqan holda, mualliflar V.P. Lebedeva, V.A. Orlov, V.A. Yasvin va boshqalarning asarlarida tahlil etilgan.

Virtual (elektron) makon – bu faqat virtual shlemlari, virtual ko‘zoynaklari va boshqalar kabi qo‘shimcha vositalar yordamida qayta tiklanishi mumkin bo‘lgan nomoddiy makonning bir turi hisoblanadi. O.V. Bashirina, Y.P. Korotenkov, A.A. Kuznetsov, Y.V. Ogorodnikov, I.V. Robert, N.V. Strekalova, T.N. Suvorova, A.V. Uvarov, Y.V. Chernova va A.V. Shimurzoyeva tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, asosiy rol subyektiv va uslubiy komponentlarga, qolgan

komponentlar, masalan, dasturiy ta’minot va texnik vositalar yordamchi bo‘lgan [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Mualliflarning turli yodashuvlaridan kelib chiqib, jamiyatda to‘laqonli hayotga tayyor bo‘lgan bilimli odam bor degan an’anaviy g‘oya o‘zgarib bormoqda, deb hisoblaydi. Asosiy savodxonlik (o‘qish, yozish va hisoblash qobiliyatlari) bilan bir qatorda, o‘qimishli odam hamkorlik qilish, nostandart vazifalarni yaratish va muammolarni hal qila olishi, qat’iyatlilik, qiziquvchanlik tashabbuskorlik va hokazolarga muhtoj [7]. Jahon iqtisodiy forumi materiallarida raqamli iqtisodiyotda har bir inson ushbu kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi [4].

Tahlil va natijalar. Eng avvalo transformatsiya tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, transformatsiya so‘zi (ital. transformare – o‘zgartirmoq, o‘zgartirish) ma’nosini bildirsa, “trans” so‘zi lotinchasiga, “forma” – ko‘rinish, qiyofa, obraz, tashqi ko‘rinish ma’nosini bildiradi. Demak, transformatsiya jarayoni shaklning boshqa shaklga o‘tishidir. “Transformatsiya” atamasi o‘tgan asrning o‘rtalaridan ijtimoiy fanlarda muomalaga kiritilgan bo‘lsa-da, dastlab bu tushuncha “modernizatsiya” tushunchasi sifatida qo‘llaniladi. Faqatgina XX asrning 80-yillaridan boshlab bu atama mustaqillik, zamonaviy jamiyatlarning tadqiqotlarini aks ettiruvchi tushunchaga aylanadi. Ilmiy adabiyotlarda ko‘p mualliflar transformatsiya tushunchasini keng qamrovli va tubdan o‘zgarish, tizimni tashkil etuvchi elementlarining sifatiy o‘zgarishi sifatida ta’riflaydilar. Bu atama Rossiya ilmiy adabiyotlarida ijtimoiy o‘zgarishlar ma’nosida qo‘llanadi. Transformatsiya jarayoni ko‘p vektorlik o‘zgarishlarni amalga oshirish sur’atlarining jadalligi hamda bu o‘zgarishlarda subyektiv omillar ta’sirining yuqoriligi bilan ajraladi. Ijtimoiy transformatsiya jarayonlarning mazmuni va uning oqibatlari, uning ahamiyati to‘g‘risida juda ko‘plab fikr va mulohazalar borki, biz ularning ba’zilariga to‘xtalib o‘tamiz.

I.A. Batanov fikriga ko‘ra, transformatsiya – transformatsiya obyektida morfologik, strukturaviy, funksional va boshqa tubdan o‘zgarishlarni sodir etuvchi, yaratuvchanlik va degradatsiya qilish yo‘nalishlariga ega bo‘lgan chuqur va sifatiy o‘zgarishlardir. Guranov fikriga ko‘ra, transformatsiya o‘zgarishlari sifatiy, neadditiv, kompleks, ko‘pincha qaytmas xarakter kasb etadi va tadqiqot olib borilayotgan tizimning yangi xususiyatlarini kashf etishga, jarayonlarni esa yangicha yondashuv asosida tadqiq etishga yordam beradi. Bunday ta’riflarni juda ko‘plab keltirish mumkin. Nazarimizda, V.V. Lokosov ta’rifi transformatsiya jarayonlarining mohiyatini o‘zida to‘liqroq ifodalashga yordam beradi. U transformatsiya jarayonini obyektiv xarakterga ega ekanligini ko‘rsatib, jamiyatda yangi, rivojlanganroq ijtimoiy tizimni shakllantirish zaruriyati sifatida ifodalaydi. Shu ma’noda bu jarayonni o‘tish davri sifatida ham ta’riflash mumkin. Aytishimiz mumkinki, bu davr jamiyatning salbiy xarakterga ega bo‘lgan, taraqqiyotni to‘xtatadigan o‘tmishidan voz kechib, yangi maqsad va g‘oyalar sari intilishidir, jamiyatning “dinamik xaos” holati hamdir. Tizim qanchalik murakkab bo‘lsa, u shunchalik beqaror bo‘ladi. Shu bois ijtimoiy transformatsiya jarayonlari davrida ijtimoiy to‘qnashuvlarning kuchayishi va keskinlashuvi kuzatilishi mumkin. Bu jarayon o‘zida destruktiv va konstruktiv imkoniyatlarni jamlaydi. Bu fikrni Gnutov ham tasdiqlaydi va bu jarayonning konstruktiv, destruktiv yo‘nalishlarini e’tirof etadi.

Birinchi konstruktiv transformatsiya jarayoni natijasida jamiyatda butunlay yoki uning ayrim sohalarining progressiv rivojlanishi ta’minlanadi.

Ikkinchi destruktiv transformatsiya jarayonlari ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Birinchi destruktiv transformatsiya jarayonlari natijasida ijtimoiy strukturalarning arxaizatsiyasi sodir bo‘ladi, ya’ni bunda guruh, shaxs, barcha jamiyat tarixan shakllangan, mavjud murakkab muammolarga mos kelmaydigan madaniy dastur asosida faoliyat olib boradi. Ikkinchi ko‘rinishdagi destruktiv transformatsiya jarayonlarida esa jamiyatda jinoyatchilikning o‘sishi, korrupsiyaning rivojlanishi kuzatiladi. Bunday transformatsiya oqibatida jamiyatda ijtimoiy anomiya kelib chiqadi. Ya’ni ijtimoiy va madaniy tizimlarning o‘zaro muvofiq kelmay qolishi sodir bo‘ladi. Bunga ijtimoiy transformatsiya jarayonlarida jadallashtirib yuborilishi sabab bo‘ladi. Ijtimoiy makromuhit tezlik bilan o‘zgaradi, ammo nisbatan o‘zgarishlarga inert hisoblangan individni o‘z ichiga oluvchi mikro muhitda bunday o‘zgarishlar nisbatan sekinroq kechadi. Natijada individ makromuhit o‘zgarishlariga moslasha olmaydi, kelajagiga ishonch yo‘qoladi, befarqlik paydo bo‘ladi. Mavjud ijtimoiy qadriyatlarga ishonchsizlik natijasida jinoyatchilik kuchayadi. Zaslavskaya bunday holatlar postkommunistik jamiyatlari rivojlanishining dastlabki bosqichlarida kuzatilganini ta’kidlaydi. Ijtimoiy transformatsiya jarayonlari mazmunini ijtimoiy o‘zgarishlarning tizimli o‘zgarishi tashkil etadi, ko‘lamini esa ma’lum tarixiy davrga tegishli ijtimoiy makonda obyekt sifatidagi ijtimoiy tizimlarning strukturaviy parametr, funksiya va

strukturaviy tashkil etuvchi darajalarining yagona o‘lchovga asosan o‘zgarishi tashkil etadi. Demak, bundan xulosa qilib aytish mumkinki, bu jarayonning mohiyati ijtimoiy tizimning yangi mazmunga ega bo‘lgan yangi sifatga o‘tishidir. Bu jarayon mavjud taraqqiyot qonunlari va jamiyatdagi institutlar, individlarning maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati natijasida jamiyatning yangi sifatiy holatga o‘tishi sodir bo‘ladi.

Ijtimoiy madaniy transformatsiya jarayonlari ijtimoiy faol subyektlar (individ, ijtimoiy guruhlarning) ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga moslashuvining endogen mexanizmi sifatida ta’riflanadi. Ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayonlari obyektiv jarayon bo‘lib, ijtimoiy faol subyektlarning o‘z-o‘zini o‘zgartirish, kollektiv faoliyatni tashkil etish yoki barham berish qobiliyati vositasida amalga oshadi. Shu ma’noda ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayonlarining qonuniyatlari transmilliy, transijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy madaniy transformatsiya jarayonlariga “kibernetik yondashuv” ham mavjuddir. Kibernetik yondashuv va tizimlar nazariyasiga ko‘ra, jamiyat murakkab, ehtimol va tasodiflarga xos bo‘lgan murakkab tizim hisoblanadi. Shuningdek, jamiyat ko‘plab – tashkilot, korxona, texnik va axborot tizimlaridan iboratdir. Ular jamiyatdagi turli huquq, an’ana, fan va adabiyot kabi institutlar, temir yo‘llar va telefon aloqalari tizimini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayonlari bu yondashuvga ko‘ra ijtimoiy ongga axborotlarning ma’lum miqdori bilan ta’sir qilish orqali sodir bo‘ladi. Ijtimoiy ongda vujudga keladigan transformatsiya jarayonlari uchun zarur bo‘ladigan axborot miqdori ham ko‘rsatiladi. Kibernetik yondashuvga ko‘ra, ijtimoiy transformatsiya natijasida jamiyatning tuzilishi, tarkibi, ijtimoiy ong va ijtimoiy tizimdagi ijtimoiy axborot o‘zgaradi. Jamiyatni bir tizim deb olsak, mazkur tizim elementlari bo‘lgan insonlararo munosabatlarning usullari va jamiyat strukturasida o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Natijada jamiyat o‘zining evolyutsion rivojlanishining yangi pallasiga qadam qo‘yadi. Jamiyatning murakkab tizim ekanligini hisobga olsak, bu tizimning murakkabligi borgan sari oshib boradi. Transformatsiya jarayoni progressiv evolyutsion jarayon bo‘lib, u o‘zidan oldingi davrning ijobiy elementlarini saqlab qoladi. Bunda jamiyat strukturasining barcha pog‘onalarida, uning mikrostrukturalaridan (oila, uy-xo‘jaligi, kichik tadbirkorlik korxonalari) tortib, davlat muassasalarini o‘z ichiga oluvchi makrostrukturalari gacha o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bunday ijtimoiy transformatsiya jarayoni urushlarsiz, evolyutsion yo‘l bilan sodir bo‘ladi. Zamonaviy ijtimoiy tizimlarning murakkab tizim ekanligi sababli kibernetik yondashuvga ko‘ra, ijtimoiy transformatsiya sodir bo‘lishi uchun katta miqdordagi axborotlar va bu axborotlarni transformatsiya sodir bo‘layotgan jamiyatga singdirish talab etiladi va bu axborot miqdori 1013 va 1014 baytni tashkil etishi ta’kidlanadi. Kibernetik yondashuv xulosalariga ko‘ra, birinchidan, ijtimoiy transformatsiya jarayonlari katta miqdordagi axborotlarni uzatish bilan xarakterlanadi. Ikkinchidan, ijtimoiy transformatsiya jarayonida jamiyat murakkab tizim sifatida o‘zining konkret strukturasidan kelib chiqib rejadagi o‘zgarishlarga mos keluvchi axborotlarni tanlab olishi va transformatsiya jarayonlari sodir bo‘layotgan jamiyatga singdirishi talab etiladi. Uchinchidan, mazkur axborotlarni singdirish, tatbiq etish vositalari va buning uchun zarur bo‘ladigan mablag‘ bilan ta’minlanishi zarur. Bu maqsadlarning vositalari bo‘lib, gazeta, jurnal, kompyuter saytlari va tarmog‘i, o‘quv muassasalari, qayta tayyorlash kurslari va hokazolar xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. Jamiyat hayotida sodir bo‘ladigan bunday ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayonlari futurologlar tomonidan ham e’tirof etilgan. Masalan, D.Bellning postindustrial jamiyat, Gelbreytning yangi industrial jamiyat, E.Tofflerning “Uchinchi to‘lqin”, Bjezinskiyning texnotron jamiyat to‘g‘risidagi asarlarida ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayonlari ochib berilgan. P.Drakerning “Postkapitalistik jamiyat” asarida esa bilimlardagi transformatsiya jarayonlari, uning mohiyati va uch bosqichi ko‘rsatib beriladi.

D.Bell o‘z asarlarida jamiyatdagi yangi ijtimoiy-madaniy transformatsiya natijasida yangi postindustrial jamiyat vujudga kelishi va u quyidagi belgilari bilan ajralib turishini bashorat qiladi. U quyidagi belgilardan iborat:

1) ishlab chiqarishning asosini tashkil etuvchi nazariy bilimlarning markazlashuvi;

2) iqtisodiy, muhandislik va ijtimoiy muammolarni hal qilishda yangi texnologiyalarning yaratilishi;

3) informatsiya va bilim ishlab chiqaruvchi intellektuallar sinfining vujudga kelishi;

4) iqtisodiyotda tovar ishlab chiqarishdan ko‘ra xizmatlar sohasi tomon siljishning sodir bo‘lishi;

5) meritokratiya boshqaruv usuliga o‘tilish;

6) axborotga asoslangan iqtisodiyotning shakllanishi.

Ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayonlari madaniyatning bir bo‘lagi bo‘lgan bilimlarda ham namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008.–176 b.
5. Долгих А.Й. Рациональное и рациональность.// Вестник Вятского государственного университета, 2007, №17.
6. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. J.1.- T.:O‘zb.fayl. milliy jam. nashr., 2019.
7. Халтурин А.Н. Этнические потребности: сушность и классификация.// Манускрипт, 2016, №10.
8. Erkayev A.E. Ma’naviyatshunoslik. J.1. – T.: Ma’naviyat, 2018.
9. Xonazarov Q. Milliy mentalitet – taraqqiyot omili. // Muloqot.-2000-, №3.-B. 3.
10. Bekmurodov M. O‘zbek mentaliteti. – Toshkent, 2001.- 95 b.

TEJAMKORLIKNING MEHNAT SAMARADORLIGINI TA’MINLASHDAGI AHAMIYATI

Anvarova Lobarxon
Turon universiteti o‘qituvchisi, PhD
lobaranvarova1998@mail.com
ORCID 0009-0001-7189-5097
UDK 10:331(021)

Annotatsiya: Maqolada mehnatning samaradorligini aniqlash imkonini beradigan mezon – tejamkorlik xususida fikr yuritiladi. Chunki barcha davrlarda ham amalga oshirilgan mehnat samarasi yaratilgan mahsulotlar hajmi bilan resurslarning sarflarini me’yori o‘rtasidagi muvofiqlikka, isrofgarchilikka barham berilgani holatiga bog‘liq bo‘lgan. Zamonaviy iqtisodiyotda esa tejamkorlik korxona va tashkilot, kompaniya va firmalardagi mehnatning samarasini ko‘rsatuvchi asosiy mezonlardan biriga aylandi. Maqolada o‘z faoliyatini zamonaviy tavsiyalar asosida yo‘lga qo‘yishga odatlangan firmalar ekologik jihatdan toza uskuna va jihozlarni xarid qilishga, ularning imkoniyatlaridan kengroq foydalanishga, shu yo‘l bilan resurslarni tejashga intilib kelishayotgani ham fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: tejamkorlik, mehnatning samaradorligi, zamonaviy iqtisodiyot, tashkilot, kompaniya va firmalardagi mehnatning samarasi, ekologik muhit, resurslar, mahsulotlar, milliy iqtisodiyot.

THE IMPORTANCE OF SAVINGS IN ENSURING LABOR EFFICIENCY

Abstract. The article discusses the criterion that allows determining the efficiency of labor - economy. Because in all periods, the effectiveness of labor has depended on the correspondence between the volume of products created and the rate of resource consumption, and on the elimination of waste. In the modern economy, economy has become one of the main criteria for indicating the effectiveness of labor in enterprises and organizations, companies and firms. Because "in the current market economy, one of the important directions for increasing the efficiency of social production and service provision is economy. The author also puts forward recommendations that allow achieving economy. He also emphasizes that companies that are accustomed to conducting their activities on the basis of modern recommendations are striving to purchase environmentally friendly equipment and devices, use their capabilities more widely, and thus save resources. In some institutions, a whole set of programs and activities that allow for resource management and research have been developed and are being implemented consistently and systematically over the long term.

Keywords: Economy, labor efficiency, Modern economy, labor productivity in organizations, companies and firms, ecological environment, resources, products, national economy.

Kirish. Mehnatning samaradorligini aniqlash imkonini beradigan mezon – bu tejamkorlikdir. Chunki barcha davrlarda ham amalga oshirilgan mehnat samarasi yaratilgan mahsulotlar hajmi bilan resurslarning sarflarining me’yori o‘rtasidagi muvofiqlikka, isrofgarchilikka barham berilgani holatiga bog‘liq bo‘lgan. Zamonaviy iqtisodiyotda esa tejamkorlik korxona va tashkilot, kompaniya va firmalardagi mehnatning samarasini ko‘rsatuvchi asosiy mezonlardan biriga aylandi. Chunki “hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri

tejamkorlikdir. Milliy iqtisodiyot o‘sishining jadal sur’atlarini ta’minlash uchun ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy-texnikaviy negizlarini mustahkamlash, qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish, ishchi kuchi resurslarining samarali bandligini ta’minlash kabi dolzarb muammolarning yechimi ham ko‘p jihatdan tejamkorlikka bog‘liq”

Tejamkorlik ishlatiladigan resurslarga bo‘lgan oqilona munosabatni ifodalaydi. Bu munosabat resurslar shakliga qarab, ko‘plab yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Mazkur yo‘nalishlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- turli uskunalar, vositalar va xomashyolarni o‘z ichiga oluvchi iqtisodiy resurslar tejamkorligi. Uskuna va vositalar korxona faoliyatining xarakterini belgilab beradi. Umuman, uning o‘z maqsadiga erishishi imkoniyatlari ham shundan kelib chiqadi. Ularning oqilona sarflanishi, bu boradagi isrofgarchiliklarning bartaraf qilinishi mazkur yo‘nalishdagi tejamkorlikning asosini tashkil etadi. Natijada yaratilayotgan mahsulotlarning sifati va xaridorligi yuksaladi. Shuningdek, korxona jamoasi a’zolarining ish joyidagi faoliyati mahsuldor tus oladi. U ishlab chiqarish bilan bog‘liq yo‘qotishlarni kamaytirishda ham qo‘l kelishi mumkin. Biroq tejab-tergash deganda ma’nan eskirib bo‘lgan hamda biror bir naf keltirmay qo‘ygan jihozlar-u inshootlarni ham o‘jarlik bilan saqlash tushunilmaydi. Faoliyat uchun zarur bo‘lgan ashyolarni hech bir asossiz kamaytirish ham tejamkorlik emas. Bunda turli resurslardan ularning yaroqliligi muddati davomida oqilona foydalanish, xomashyo isrofgarchiligining oldini olish nazarda tutiladi. Resurslarning bunday unumli sarf-xarajati rentabellikni oshirishning asosiy yo‘li hisoblanadi;
- tashkilot ixtiyoridagi mablag‘lar majmuini o‘zida mujassam qilgan moliyaviy resurslar tejamkorligi. Bunday munosabat negizini mablag‘larning maqsadga muvofiq xarajati tashkil qiladi. Moliyaviy resurslarning oqilona sarflanishi o‘ta muhim ahamiyatga ega. Mutaxassislarning mulohazalariga qaraganda, mavjud moliyaviy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, ular sarfini atigi 1 foizga qisqartirish orqali iqtisodiy samaraning milliardlab so‘mga oshishiga erishish mumkin. Korxona o‘z sarflariga oqilona tus bera olsa, tejalgan mablag‘ hisobiga yangi texnika vositalarini o‘zlashtirish va shu orqali xodimlarning ish joyidagi faoliyati natijadorligini oshirish imkoniga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, mablag‘larning unumli xarajat qilinishi mehnatga jalb etilgan kishilar uchun qulay sharoitlar yaratishga, ular faoliyatini moddiy jihatdan tizimli ta’minlashga zamin yaratadi. Mablag‘lar oqilona sarfining uzoq muddatli mahsuli ham shuning bilan bog‘liq:
- muayyan mahsulot hajmini ishlab chiqarish yoki aniq bir xizmat shaklini amalga oshirish uchun ketgan sa’y-harakatlarni mujassam qiluvchi mehnat resurslari tejamkorligi. Ularning uquv bilan yo‘lga qo‘yilishi tejamkorlik sifatida tavsiflanadi. Buning natijasida qisqa muddatda ko‘proq vazifalarni ado etib ulgurish imkoni paydo bo‘ladi. Mazkur intensivlik yaratilgan mahsulotlar hajmiga ham ta’sir ko‘rsatadi, albatta. Ta’kidlash mumkinki, ushbu tejamkorona yondashuv mahsuldor mehnatni yuzaga keltiruvchi bosh omillardan yana biri sanaladi. Shu boisdan ham ko‘plab korxonalar o‘z faoliyatining samarasini oshirishda tejamkorlikning bu yo‘nalishiga alohida e’tibor beradilar;
- kompaniya yoki firmadagi ishlab chiqarish jarayonini boshqarayotgan kadrlar va tarkibiy tuzilmalar, boshqarishda qo‘llanilayotgan uslublar va usullarni o‘z ichiga oluvchi boshqaruv resurslari tejamkorligi. Ushbu kadrlar salohiyati, tarkibiy tuzilmalar miqdori, boshqaruv uslublari va usullarining korxona ishlab chiqarish ehtiyojlariga mutanosibligi boshqaruv resurslari tejamkorligining asosini tashkil etadi. Bunday mutanosiblik muhim iqtisodiy vazifalarni qisqa muddatda bajarish, korxona ichidagi ishlab chiqarish munosabatlarini muvofiqlashtirish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, boshqaruv resurslari tejamkorligi ishlab chiqarish jarayonini ortiqcha byurokratik to‘siqlardan xalos qiladi, mehnat jamoasidagi ma’naviy-ruhiy muhitni sog‘lomlashtiradi;

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Jamoadagi mehnat samarasi nafaqat iqtisodiy (oqilona marketing, resurslardan ratsional foydalanish, ish unumi va h.k.), balki ijtimoiy-ma’naviy (korxona jamoasining hamjihatligi, undagi ma’naviy-ruhiy muhit, jamoa a’zolari o‘rtasidagi aloqalar xarakteri va h.k.) omillar bilan shartlangandir. Aniq bir ish joyida amalga oshirilgan faoliyat natijadorligi va mahsuldorligi korxona maqsadiga erishishning asosiy omilidir. Tushunchaning tor ma’nodagi talqinini, masalan, Q.Abdurahmonov, A.Avazov, E.Starkova, S.Veretexina va boshqa ko‘plab iqtisodchi olimlarning asarlarida ko‘rish mumkin. Mahsuldorlik va natijadorlikning ma’naviy-madaniy qimmati jamiyatdagi muhitga ham ijobiy tus berishda uni

adolat va insonparvarlik tamoyillariga moslashtirishda namoyon bo‘ladi. Tushunchaning keng ma’nodagi talqinini, masalan, I.Aliev, N.Gorelov, L.Ilina, X.Galiullin, G.Yermakov, S.Xolmuratov va boshqa ko‘plab faylasuf va iqtisodchi olimlarning asarlarida ko‘rish mumkin. Bu davrda M.Xayrullayev va E.Yusupov kabi faylasuflar ijtimoiy taraqqiyotga nazariy asos bo‘ladigan g‘oyalarni targ‘ib qilishni, Oybek va Abdulla Oripov kabi ijodkorlar kishilar madaniy saviyasini yuksaltiradigan asarlar yaratishni, Y.G‘ulomov va P.Habibullayev kabi olimlar ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan kashfiyotlar qilishni, R.Choriyev va Ch.Ahmarov kabi musavvirlar betakror san’at asarlari tayyorlashni, H.Toshirov, T.Musayev, A.Mamaturdiyev, Y.Turg‘unov, S.Nishonov, G‘.G‘osidinov kabi o‘z vaqtida butun mamlakat bo‘ylab nom qozongan dehqonlar ulkan hosillar olishni kanda qilganlari yo‘q. Biroq samarali va natijador mehnatga ijtimoiy ehtiyoj mavjud bo‘lmagan, tashabbuskorlik rag‘batlantirilmagan sharoitda bularning barchasi tipik holat emas, ayrimlik sifatida qolaveradi. Shuni ham ta’kidlab o‘tmoq darkorki, iqtisodiyot sifatan o‘zgarib borayotgan sharoitlardagina tejamkorlik haqida gapirish mumkin. Miqdoriy o‘zgarishlarga erishish maqsad qilingan sharoitlarda mazkur omilga jiddiy e’tibor qaratilmaydi. Chunki bunday vaziyatlarda o‘sish miqdoriy omillar (ko‘p miqdordagi ishchi kuchidan foydalanish, yangi korxonalar qurish, ko‘p miqdordagi jihoz va uskunalarni ishlatish, yangi yerlarni muomalaga kiritish, yangi konlar ochish, tog‘-kon ishlab chiqarish hajmini oshirish, resurslar miqdorini ko‘paytirish imkonini beradigan tashqi savdo va hokazo) evaziga ta’minlanadi. Bunday sharoitda ishchilarning malakasi va ular mehnati unumdorligi, asbob-uskunalar sifati va texnologiya o‘zgarmasdan qolaveradi. Zaruriy resurslardan oqilona foydalanish, ularni tejab-tergash masalasi ham soyada qolib ketadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Jamoalardagi funksional vazifalar samaradorligini oshirishga qaratilgan konseptual yondashuvni yaratishda, xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnatini muhofaza qilishni kuchaytirish bo‘yicha muvozanatli mehnat munosabatlarini qo‘llab-quvvatlash, to‘sqinlik qilayotgan muammoli masalalarga barham berishga oid islohotlarni amaliyotga tatbiq etish jarayonlarida metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Xususan, ikkinchi jahon urushidan keyingi 30 yil davomida mamlakat iqtisodiyoti jadal rivojlana bordi. Lekin u jalb etilgan resurslarni tobora ko‘proq xarajat qilishni taqozo etaverdi, ularni tejab-tergash esa diqqatdan chetda qolaverdi. Natijada iqtisodiy, moliyaviy, mehnat, boshqaruv resurslari mutlaqo tejalmay qo‘ydi. 1983-yilga kelib, SSSR iqtisodiyoti milliy daromadning 1 birligi uchun neftni AQShga qaraganda 2,2 barobar, temirni – 3,7 barobar, sementni – 2,9 barobar ko‘p ishlatadigan bo‘lib qoldi.

E’tiborli tomoni shundaki, rivojlangan mamlakatlarda davlatning o‘zi korxona va firmalarni resurslarni tejab-tergashga muttasil undab turadi. Bu holat V.I. Sokolov va A.V. Korneevlarning maqolasida AQSh misolida ayniqsa diqqatga sazovor tarzda ochib beriladi. Mualliflar ta’kidiga ko‘ra, mamlakat bemisl resurslar hajmiga egaki, bu boylik yurtning uzoq muddatli ravnaqini ta’minlashga xizmat qiladi. Biroq bu boylik ulardan bamaylixotir foydalanish mumkinligini anglatmaydi. Zamonaviy sharoitlarda ularni o‘ta qat’iylik bilan tejash zarurligi ayon bo‘lib bormoqda. Bunday vaziyatda tejamkorlik kayfiyatini shakllantirish, korxonalarni shunday kayfiyatda faoliyat ko‘rsatishga undash vazifasi aynan davlatning zimmasiga tushmoqda[5.3.20].

Natijalar va muhokama. Moliyaviy beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillar ko‘payib borayotgan bir vaziyatda ravnaq topgan diyorlarda moliyaviy mablag‘larni tergashga tendensiyaviy tus berishga intilinmoqda. Hukumatlar shu maqsadda mutaxassislar va ekspertlarga mamlakat korxonalarining moliyaviy ahvoliga doir ma’lumotnomalar tayyorlashga, ularda tejamkorlikni ta’minlash imkonini beradigan tavsiyalar majmuini shakllantirishga buyurtmalar bermoqdalar. Bu buyurtmalarning natijalari muttasil ravishda e’lon qilib borilmoqda hamda korxona rahbariyatiga taqdim qilinmoqda. Bu amaliyot, ayniqsa, Germaniya hayotida yaqqol ko‘rinmoqda.

Mehnat resurslarining tejalishini ta’minlaydigan amaliy tavsiyalar ham talaygina. Iqtisodchi olimlar buning uchun, eng avvalo, ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishni taklif etadilar. Ushbu jarayonning takomillashtirilishi mehnat resurslaridan foydalanish samarasini benihoya oshiradi. Mehnat resurslarini astoydil tejab-tergash niyatida bo‘lgan korxona va tashkilot

rahbarlari uning bilan bog‘liq ma’lumotlarni muttasil tahlil qilib boradilar. Bunday monitoring muammoli vaziyatlarni aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi. Biroq mehnat resurslarini samarali tejab-tergash imkonini beradigan eng maqbul yo‘l – jamoa a’zolariga bo‘lgan e’tiborning oshirilishidir. Yalpi e’tibor jamoada faoliyat ko‘rsatib kelayotgan kishilarning ham kasbiy, ham axloqiy fazilatlarini takomil toptiradi. Ularning saviyasini yuksaltiradi, dunyoqarashiga insonparvar tus beradi. Mazkur choralar turkumiga jamoa a’zolarining salomatligini asrashga e’tibor, ularning ish joyidagi faoliyati bilan maishiy turmushi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash masalalari ham kiradi. Bularning barchasi xodim faoliyati mahsuldorligi va natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ravnaq topgan diyorlarda mehnat resurslari tanqisligiga duch kelish xavfi yuzaga kelayotgan bir sharoitda ularni tejab-tergashga doir tavsiyalarga e’tibor oshib bormoqda. Jumladan, Yevropa Ittifoqida bu tavsiyalar asosida “Elning bandlikka doir rahbariy ko‘rsatmalari” shakllantirilgan va qabul qilingan. Unda mehnat sharoitlarini takomillashtirish orqali resurslarni asrab-avaylash, katta yoshdagi ishga yaroqli kishilar faoliyati faolligini talab darajasida saqlab turish masalalariga alohida e’tibor beriladi. Bu choralar hozircha korxona va tashkilotlardagi mehnat mahsuldorligini saqlab turishga imkon yaratmoqda.

Yetakchi mamlakatlardagi subyektlarning boshqaruv bilan bog‘liq resurslarni tergash borasidagi tajribalari ham e’tiborga sazovor. Yillar o‘tgani sayin ushbu subyektlar turkumida boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan xodimlarni aniqlashga qaratilgan choralarni tizimli ravishda amalga oshirayotganlari ko‘payib bormoqda. Ilg‘or kompaniyalarda rahbarlik qilish uchun tanlangan xodimlar bilan alohida ishlash yo‘lga qo‘yilgan. Bu ishlar davomida bo‘lajak rahbarlar to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga, korxona faoliyatini tugal rejalashtirishga o‘rgatiladi. Ularning ko‘plab xodimlarning birgalikdagi faoliyatlarini tashkil etishga doir uquvlari kengaytiriladi. Shuningdek, bo‘lg‘usi rahbarlar mehnat bilan mashg‘ul bo‘lgan kishilarning (jamoa a’zolarining) faoliyatini muvaffaqiyatli nazorat qilishga tayyorlanadi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi mulohazalardan xulosa chiqarish mumkinki, tejamkorlik korxona va tashkilotlar faoliyatining, xodimlarning ish joyidagi sa’y-harakatlari mahsuldorligi va natijadorligini ko‘rsatuvchi ikkinchi mezondir. U jamoa ixtiyoridagi turli resurslarga bo‘lgan oqilona munosabatda o‘z ifodasini topadi. Mazkur mezon intensiv iqtisodiyot sharoitidagina jiddiy ahamiyat kasb qiladi. Binobarin, tejamkorlik shunday tipdagi iqtisodiyotni qaror toptirayotgan O‘zbekiston sharoitida ham ahamiyatlidir. Uning iqtisodiy amaliyotda chuqur ildiz otishi uchun mazkur imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda iqtisodiy, moliyaviy, mehnat, boshqaruv resurslarining isrofiga sabab bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish zarur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shodmonov Sh. Tejamkorlikning umumiqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuni va undan amalda foydalanish.// Iqtisod va moliya, 2017, №3.- 4-b.

2. Аджиева А.И., Чомаева С.У. Оптимизация денежных средств и денежных эквивалентов предприятия.// Естественно-гуманитарные исследования, 2021, №6.- 28-34-c.

3. Melenberg A. Dorogu stroili iz chelovecheskogo materiala.// Novaya gazeta, 2011, 8 iyulya.

4. Zahirova G.M., Qodirov S.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda mahalliy hokimiyat organlarining roli.// Mamlakatni modernizasiyalash sharoitida O‘zbekiston iqtisodiyotini boshqarishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.- T.:O‘zMU, 2016.- B.21.

5. Соколов В.И., Корнеев А.В. Особенности современного использования природно-ресурсного потенциала США.// США и Канада: экономика, политика, культура, 2014, №4.- С.3-20.

6. Anvarova L.Sh. Labor efficiency-life economic development factor // International bulletin of Applied Sciences and Technology. –USA, 2023. -Vol.3, Issue 05. -PP.918-922.

7. Abdullayeva D.K., Nurullayeva Sh.T. Sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish zaruriyati.// O‘zbekiston statistika axborotnomasi, 2023, №4.

8. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti.- T.: Mehnat, 2009.

9. Abulqosimov H.P., Ashurova M.X. Ishchi kuchi sifati va raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.// Iqtisod va moliya, 2014, №9.- 18-27-b.

10. Axmedxodjayev X.T., Kazakov O.S., Axmedov R.M. Mehnatni ilmiy tashkil etish.- T., 2010.

11. Choriyev A. Inson falsafasi. Ijtimoiy tarbiya. Uchinchi kitob.- Qarshi: Ilm-fan-ma’naviyat, 2024.

YOSHLAR MA’NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Boysunov Jonbek Xidirovich
Qarshi davlat universiteti, f.f.f.d. (PhD)
boysunovjonbek@gmail.com
ORCID 0009-0009-7023-7197
UDK 37.018.43 (045)

Annotatsiya. Ushbu maqolada millat, davlat yoki jamiyatning milliy taraqqiyoti uning zamirida yaratilgan milliy qadriyatlarning uyg‘unligi, millat rivojiga to‘g‘anoq bo‘ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish, milliy qadriyatlar va milliy g‘oyaning o‘zaro uzviy aloqadorlikda ekanligi, yoshlar hayotida, umuman ijtimoiy taraqqiyotning ma’lum davrlarida moddiy va ma’naviy qadriyatlar eng dolzarb masalalardan biri ekanligi, yoshlarga xalqimizning ajdodlardan avlodlarga meros tarzida kelayotgan milliy qadriyatlarini uzoq tarixiy jarayonda shakllangan ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi yoritilgan. Muallif qadriyatlar sohasidagi millat va unga xos belgilar, jihatlar, xususiyatlar, ularning vujudga kelish jarayonlariga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatgan hudud, u bilan bog‘liq tuyg‘ular, millatning madaniyati, u yaratgan madaniy boyliklar va ma’naviy meros bilan bog‘liq qadriyatlarni ilmiy talqinlar va misollar orqali yoritib bergan.
Kalit so‘zlar: milliy qadriyat, yoshlar, milliy-ma’naviy meros, madaniyat, mafkura, ma’naviyat, ezgulik, odamiylik.

THE ROLE OF NATIONAL VALUES IN SHAPING THE SPIRITUAL WORLDVIEW OF YOUNG PEOPLE.

Abstract. This article discusses the national development of a nation, state, or society as a result of the harmony of national values created at its core, the elimination of negative vices that hinder the development of the nation, and the promotion of national values and the national idea is inextricably linked, material and spiritual values are one of the most pressing issues in the lives of young people, and in certain periods of social development in general, and the need to instill in young people the national values of our people, inherited from their ancestors and generations, and respect for the motherland, which was formed in a long historical process,highlight the priority of characteristics such as loyalty to the memory of generations, respect for elders, modesty, and thoughtfulness. The author presents the values related to the nation and its unique characteristics, aspects, and characteristics, the region that has had a certain influence on the processes of their emergence, the feelings associated with it, the culture of the nation, the cultural wealth it has created, and the spiritual heritage through scientific interpretations and examples.
Keywords: National value, youth, national-spiritual heritage, culture, ideology, spirituality, goodness, humanity.

Kirish. Bugungi kunda ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarning jadal rivojlanishi insoniyat global muammolarini hal etishning nafaqat optimal yo‘llarini izlash, balki moddiy va ma’naviy qadriyatlarini asrash va kelajak avlodga yetkazish kabi masalalarni ishlab chiqishni ham taqozo etmoqda. Insoniyat tarixidan bizga ma’lumki, har bir jamiyat, millat, xalq, o‘z kelajagi, kelgusi avlodlarini yuksak ma’naviyatli, ilmli va eng asosiysi, baxtli bo‘lishlari uchun kurashadi.

Shuning uchun ham mamlakatimizda bu masala Prezidentimiz e’tiboridan chetda qolmagani asoslidir. Ya’ni, “Aslida, har qanday islohotning eng muhim samarasi, avvalo, xalqning ma’naviy-ruhiy qarashlaridagi yangilanish jarayonlari, milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan e’tibori yuksalishi, mamlakatda yuz berayotgan o‘zgarishlar uning hayotiga, taqdiriga daxldor bo‘lganini chuqur his qilishi va shundan xulosa chiqarishi bilan belgilanadi. Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Mafkura deganda, avvalo fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan”[1].

Haqiqatdan ham, bugungi tezkor jarayonda qadriyatlarning yoshlarni tarbiyalashdagi o‘rni kattadir. Avvalo, qadriyatlar jamiyatimiz boyligi, poydevori bo‘lib, u o‘tmish bilan bugungi kun va kelajakni bog‘laydigan vositadir.

Har bir millat o‘z milliy qadriyatiga ega. Binobarin, uning har bir mamlakat, har bir xalq rivoji uchun imkoniyatlaridan qay darajada foydalanish – demokratik jamiyatni barpo etishda muhim o‘rin egallaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada analiz va sintez, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, obyektivlik, tizimlilik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. O‘zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishning milliy, umumbashariy tamoyillarini har bir xalqning qadriyatlarisiz, alohida ajratib bo‘lmaydi. Shu o‘rinda xo‘sh, “qadriyat” so‘zi nima ma’noni anglatadi degan tabiiy bir savol tug‘iladi. “Qadriyat”

atamasi bizga arabcha “qadr” so‘zidan kirib kelgan bo‘lib, bugungi kunda bu tushuncha borliq va jamiyatdagi biror bir narsa va hodisaning kishilar o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy munosabatlardagi tutgan muhim ahamiyatni ifoda etish uchun qo‘llanilmoqda. Bu masalaning bir tomoni. Uning ikkinchi tomoni shundan iboratki, “qadriyat” so‘zi qadim zamonlarda paydo bo‘lgan va barcha xalqlar tillarida mavjuddir.

Har bir millatning o‘z qadriyatlari, madaniyati, tili, an’analari, urf-odatlari, marosim va odob normalari bor. Dunyoda aholisi son jihatdan ko‘p yoki kamroq xalq bo‘lishi mumkin, ammo madaniy va ma’naviy sohada bir-biridan kam yoki ortiq millat yo‘q. Ayni paytda sotqin millat ham, qoralash huquqiga ega bo‘lgan millat ham yo‘q. Ammo har bir millatning o‘ziga xos o‘tmishi, madaniy va ma’naviy qadriyatlari, milliy qahramonlari, boshqa millat tomonidan tahqirlanishi aslo mumkin bo‘lmagan urf-odatlari, turmush tarzi va qon-qarindoshlik belgilari mavjud.

Milliy qadriyatlar – xilma-xil shaklda, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo‘ladi, ya’ni o‘ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qiladi. Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni ta’minlovchi qadriyatlar – qon-qarindoshlik, madaniy-ma’naviy yaqinlik, o‘tmish va ma’naviy meros, ona-yurt tuyg‘usi va boshqalar – nisbatan barqaror bo‘g‘inlar hisoblanadi. Bunday bo‘g‘inlar milliy qadriyatlar tizimida tarixiy jarayonlar davomida tez o‘zgarib turadigan ba’zi kundalik yoki amaliy ahamiyatga molik bo‘lgan qadriyatlarga nisbatan o‘z o‘rni va ahamiyatini uzoqroq saqlab qolishi bilan ajralib turadi. Millatning tarixiy-etnik xususiyat va belgilarining ijtimoiy ahamiyatini va shu millat kishisi uchun qadrini saqlab qolishi tabiiy zaruriyat hisoblanadi.

Sharqda milliy qadriyatlarni yoshlar ongi va qalbiga singdirish oiladan boshlanadi. Jumladan, yoshlar kattalardan: suvga tupurma, non ustiga narsa qo‘yma, nonning uvog‘i ham non, yoshi ulug‘larning yo‘lini kesib o‘tma, ota-onangning gapini ikkita qilma, ustozingni hurmat qil, atrofingga befarq bo‘lma kabi nasihatlarni eshitib, turli rivoyat, maqol, hikmatlarni tinglab, xotiralarida saqlab voyaga yetadilar. Yoshlar bizning kelajagimiz, ular ota-ona va ajdodlarimiz ishining davomchilari hisoblanadi. Bizning asosiy maqsadimiz – milliy va ma’naviy qadriyatlar asosida komil insonni tarbiyalashdir. Komil inson deganda, eng avvalo, dunyoqarashi keng, vatanparvar, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan, mas’uliyatli va sog‘lom kishilarni tushunamiz. Inson faqat tarbiya orqaligina komillikka erishadi. Uning ma’naviy darajasi atrofida yuz berayotgan voqea-hodisalarni qanday qabul qilishi va mustaqil baholay olishiga ham bog‘liq. Shunday ekan, ta’lim tizimi va mahallada yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini mustahkamlashda milliy qadriyatlarga oid boy ma’naviy merosimizdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

“Avesto”dagi “Ezgu fikr – ezgu so‘z – ezgu amal” g‘oyasi bo‘yicha fikr yuritish, Qur’oni karim, hadisi sharif kabi muqaddas manbalarda keltirilgan ma’naviy-ma’rifiy o‘gitlar orqali yoshlar ongida ruhiy poklik, e’tiqod tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Har bir xalqning milliy qadriyatlarini uning tarixi, ma’naviyati, madaniyati, o‘ziga xos urf-odatlari, an’analarisiz tasavvur qilish qiyin. “Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim”[2].

Qadriyatlar – ma’naviy kamolot asosiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotga ta’sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi. Keyingi vaqtlarda tarbiya masalasida qo‘lga kiritilgan yutuqlarimiz qatori oilada, maktabda, ta’lim muassasalarida milliy, umuminsoniy qadriyatlarning, an’analarning ustuvorligiga erishildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[3], – degan fikrlari yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida yetuk, barkamol etib tarbiyalashda barchamizga kuch-g‘ayrat bag‘ishlamoqda.

Safo Ochil o‘zining “Mustaqillik va tarbiya masalalari” nomli risolasida “Milliy qadriyatlar ota-bobolardan bizgacha yetib kelgan udumlar: Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, Navro‘z, urug‘-don ekish va hosil bayramlari, beshik to‘yi, sunnat to‘yi, o‘g‘il uylantirish va qiz chiqarish bilan bog‘liq to‘ylar, uy-joy to‘yi, qazo bilan bog‘liq turli ma’raka-marosimlar, shuningdek, xalqning har xil an’analari – hashar, ota-onalarga hurmat, yoshlarga izzat, qariyalarga muruvvat, milliy odob-axloq me’yorlariga amal qilish, ilm olish, oila mustahkamligiga erishish, ustozlar qadriga

yetish, vafot etganlar qabrini ziyorat etish, xalqqa muhabbat, Vatanni sevish va ardoqlash, askarlikka o‘z ixtiyori bilan borish, baynalmilalchi bo‘lish, muloyim va shirinsuxanlik va shu kabilarni o‘z ichiga qamrab oladi”[4].

Ta’kidlash joizki, diqqat va mahorat bilan eshitish odobi va malakasiga “mahorat bilan eshitish” bilimlarini mustahkamlash orqaligina ega bo‘lish mumkin. Yoshlarning eng sof tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oilada ota-onaning qalb qo‘ridan chiqadigan mehr-muhabbati, shirin so‘zi orqali shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – ezgulik, oliyjanoblik, mehr-oqibat va or-nomus kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila muhitida qaror topadi. Shunday ekan, oilada nojo‘ya ish qilib qo‘ygan bola yig‘laganda ona yoki ota do‘q urib, “Hoziroq yig‘ini to‘xtat!”, deb qattiq gapirishi yaramaydi. Chunki, bola noto‘g‘ri yoki ayb ish qilganini o‘zi ham anglagan va qo‘rqib ketganidan yig‘lab yuborgan bo‘lishi mumkin. Bu holatda ota yoki ona bolani bag‘riga bosib, tinchlantirib, unga ehtiyot bo‘lish kerakligini aytishining o‘zi kifoya. Aksincha, ota-ona o‘zidan itarib, uni jazolab, qo‘pol muomalada bo‘lsa, bola “stress” yoki “shok” holatiga tushib, uning nutqiga, fikrlashiga, eshitish, xulosa chiqarish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu o‘rinda Yusuf Xos Hojibning “Kishi uchun juda kerakli bo‘lgan ikki a’zo bor: biri – til, boshqasi – yurak. Til so‘z uchun, yurak, ko‘ngil esa shu so‘zdan lazzatlanishi uchun berilgan” degan fikri ota-onalarni va yoshlarni go‘zal, chiroyli so‘zlaydigan, ma’naviy barkamol, yuksak odob va ilm egasi bo‘lishlarida qo‘l keladi. Mamlakatimizda bugungi globallashuv jarayonida yoshlarni milliy qadriyatlar asosida intellekti yuqori va vatanparvar qilib tarbiyalashga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Abdurauf Fitrat o‘zining “Oila” nomli asarida bolalarni “diqqatlari va zehnlari chuqur va jiddiy bo‘lishiga o‘rgating.... Ko‘rganlari ustidan tez xulosa chiqarmasinlar”, – deya ta’kidlab, farzand tarbiyasiga e’tibor berish lozimligini uqtiradi.

Inson ma’naviy olami bo‘yicha o‘nga yaqin maqolalar muallifi Abduxalil Mavrulov o‘zining “Vatanni sevish mas’uliyati” kitobida yoshlar haqida shunday fikrlarni ilgari surgan: “Yoshlarimizning aksariyati davrning ruhini to‘g‘ri his etmoqda. ... Ayni paytda yoshlarda aql va farosatning mutanosibligini ta’minlashga bo‘lgan intilish jamiyat barqarorligini mustahkamlovchi omil sifatida baholanishi mumkin. ...Erishilgan yutuqlar qatori yoshlarimizning ayrim qismida mavjud bo‘lgan, ba’zan yangidan paydo bo‘layotgan salbiy holatlar, ushbu vaziyatga ayrim kattalarning munosabati-yu o‘sha yoshlarning bunday illatlarga nisbatan yondashuvi xavotirli. Ba’zi yoshi ulug‘larning yoshlarimiz dunyoqarashidagi muayyan salbiy o‘zgarishlarga nisbatan “zamon o‘zgardi, yoshlar ham o‘zgardi-da yoki bunday holni “tabiiy jarayon” sifatida tahlil etishga urinishlar ham mavjudki, bu har qanday ilm ahlini tashvishga solishi tabiiy”[5].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy, siyosiy va axloqiy qadriyatlarning o‘rni beqiyos bo‘lishiga qaramasdan, ijtimoiy jarayonlar ta’sirida kishilarning qadriyatlar to‘g‘risidagi qarashlari o‘zgarib bormoqda. Bu borada bir qancha ijobiy tadbirlar amalga oshirilmasin, qadriyatlar o‘zining ijtimoiy, falsafiy, tarixiy, tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotib qo‘ymoqda. Aslida, qadriyatlar o‘tmish bilan hozirgi kun o‘rtasidagi vorisiylikni ifodalaydi, shu tufayli unda millatning tarixi, o‘tmish hayoti, madaniyati gavdalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi, 2020-yil, 22-dekabr
2. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to‘plami). –T.: O‘zbekiston, 1997. B.198;
3. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: O‘zbekiston, 2016.B.146.
4. Safo Ochil. Mustaqillik va tarbiya masalalari. – T.: O‘zbekiston, 1995. B.5-6
5. Mavrulov A. Vatanni sevish mas’uliyati. –T:“Sano-standart” B. 46.
6. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2010. B. 241.
7. Jalolov H. Oila, mahalla va maktab hamkorligi // Tarbiya. №2 (6), 2006. B.13
8. Murodov M. Yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarning pedagogik imkoniyatlari. “Milliy urf-odat, marosim va an’analarning shaxs ma’naviy kamolotidagi o‘rni” mavzusidagi konferensiya materiallari. –Toshkent: 1998. –183 b.
9. Qodirova Z., Karimova Z. Milliy qadriyatlarni ta’lim tizimiga tatbiq etishning psixologik jihatlari. - Toshkent: Tafakkur, 2010;
10. G‘aybullayev O.M. Shaxs va jamiyat estetik madaniyatining dolzarb masalalari. Falsafa, fan, ta’lim. Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. –Toshkent: 1-qism, 2010. -334 b.

O‘ZBEK TILIDA IRREAL SO‘ROQ VA UNI IFODALOVCHI VOSITALAR XUSUSIDA

Ochilova Habiba Akramovna
Qarshi davlat universiteti
Lingvistika kafedrasi tayanch doktoranti
ochilovahabiba827@gmail.com
ORCID 0009-0001-3325-8505
UDK 415=943.75(045)

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilida irreal so‘roq gaplar va ularning lingvistik xususiyatlari tahlil qilindi. Irreal so‘roq gaplar mazmunan ehtimollik, gumon yoki noaniqlikni ifodalovchi gaplardir. Maqolada bu turdagi gaplarning hosil bo‘lish yo‘llari, morfologik va sintaktik xususiyatlari, shuningdek, ularni ifodalovchi asosiy vositalar, jumladan, modal so‘zlar, so‘roq olmoshlari va intonatsiya tahlil qilindi. Irreal so‘roq gaplarning uslubiy va kontekstual vazifalari, nutqiy jarayondagi o‘rni va ularning kommunikativ ahamiyati haqida batafsil ma’lumot berildi. Shu bilan birga, o‘zbek tili misolida turli adabiy va og‘zaki nutq namunalarida irreal so‘roq gaplarning qo‘llanilishi ko‘rib chiqildi. Maqola tilshunoslik sohasida irreal so‘roq gaplarni tadqiq qilishning ilmiy asoslarini kengaytirishga qaratilgan bo‘lib, u o‘zbek tili strukturasi va funksional semantikasi bo‘yicha yangi yondashuvlarni taklif etadi.

Tayanch so‘zlar: irreal so‘roq, gumonli so‘roq, noaniqlik, ehtimollik, modal so‘zlar, so‘roq olmoshlari, intonatsiya, morfologiya, sintaksis, kommunikativ ahamiyat, nutqiy jarayon, o‘zbek tili, adabiy nutq, og‘zaki nutq, uslubiy vazifalar.

IRREAL QUESTIONS IN UZBEK LANGUAGE AND ON THE MEANS OF THEIR EXPRESSION

Abstract. The article analyzes irreal interrogative sentences in the Uzbek language and their linguistic characteristics. Irreal interrogative sentences are those that express probability, doubt, or uncertainty. The article examines the ways these types of sentences are formed, their morphological and syntactic features, as well as the main means of expression, including modal words, interrogative pronouns, and intonation. Detailed information is provided about the stylistic and contextual functions of irreal interrogative sentences, their role in the speech process, and their communicative significance. Additionally, the use of irreal interrogative sentences is discussed through various examples of literary and spoken discourse in the Uzbek language. The article aims to expand the scientific foundations of researching irrealis interrogative sentences in the field of linguistics and offers new approaches to the structure and functional semantics of the Uzbek language.

Keywords: irreal question, dubitative question, uncertainty, probability, modal words, interrogative pronouns, intonation, morphology, syntax, communicative significance, speech process, uzbek language, literary speech, oral speech, stylistic functions

Kirish. O‘zbek tilining morfosintaktik tizimida so‘roq gaplarning ahamiyati yuqori bo‘lib, ularning xususiyatlarini aniqlash masalasi ko‘plab tadqiqotchilar e’tiborini tortib kelmoqda. So‘roq gaplar inson muloqotida muhim rol o‘ynaydi, chunki so‘roq gaplarga bilish jarayonining asosiy vositasi sifatida qaraladi. So‘roq gaplarning murakkab va ko‘p qirraliligi ularni tasniflashda turli yondashuvlarni talab qiladi. Lingvistik adabiyotlarda so‘roq gaplarning shakliy va ma’noviy jihatdan tasnifi bo‘yicha turli nazariyalar ilgari surilgan bo‘lsa-da, bu sohada hali ham ko‘plab muammolar va noaniqliklar mavjud. So‘roq gaplar nafaqat ularning yuzaki tuzilishi, balki kontekstual va pragmatik jihatlari ham inobatga olingan holda ko‘rib chiqilishi zarur. Shuningdek, so‘roq gaplarning mantiqiy va semantik o‘ziga xosliklari, ularning turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda qanday qabul qilinishi ham e’tiborga olinishi kerak. O‘zbek tilida so‘roq gaplarning tasnifi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham lingvistik tahlilning dolzarb masalasi hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida so‘roq gaplar turli ko‘rinishlarda va vazifalarda o‘rganilib, ularning grammatik, semantik va kommunikativ xususiyatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Irreal so‘roq gaplar, ya’ni gumon va ehtimollikni ifodalovchi gaplar ham tilshunoslikda ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu gaplar nutq jarayonida noaniqlik va gumonli munosabatni ifodalashda, suhbatning boshqa ishtirokchilariga ma’lum bir vaziyatga nisbatan ko‘rsatma yoki talqin berishda faol qo‘llaniladi.[4,72]

O‘zbek tilshunosligida irreal so‘roq gaplarni o‘rganish bo‘yicha qator ilmiy yondashuvlar mavjud bo‘lsa-da, bu soha maxsus o‘rganilmagan. Masalan, A. Mahmudov (2007) o‘zining “So‘roq gaplarning semantik va uslubiy xususiyatlari” nomli maqolasida irreal so‘roq gaplarning grammatik strukturalari va uslubiy funksiyalarini tahlil qiladi[2, 112]. Shuningdek, D. Karimova (2015) tomonidan so‘roq gaplarning pragmatik jihatlari o‘rganilib, gumonli so‘roq gaplarning

kontekstual ahamiyatiga urg‘u beriladi[1,83]. V. Jumanov (2023) o‘zining “Pragmatik transpozitsiya hodisasi yohud so‘roq gaplarda pragmatik ko‘pma’nolilikning yuzaga kelishi” nomli maqolasida ta’kidlashicha, “So‘roq gaplar pragmatik transpozitsiya hodisasi tufayli ular doirasida yuzaga keladigan so‘roq gaplarning tasdiq yoki buyruq nutqiy aktlari vazifasida keladi. Matn sharoitiga ko‘ra so‘roq semasi neytrallashib, xabar berish va harakatga undash ma’nolari faollashadi va pragmatik ko‘pma’nolilikni yuzaga keltiradi”[8,161-163].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda irreal so‘roq gaplarni o‘rganish uchun kompleks lingvistik yondashuv qo‘llanildi. Avvalo, deskriptiv tahlil metodi asosida o‘zbek tilida irreal so‘roq gaplarning morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlari aniqlandi. Buning uchun o‘zbek tili grammatikasi va uslubiy lug‘atlaridan foydalanilib, mavjud nazariy ma’lumotlar umumlashtirildi.

Komponent tahlil metodi yordamida irreal so‘roq gaplarni shakllantiruvchi vositalar, jumladan, modal so‘zlar, yuklamalar va fe’l shakllari sinchiklab tahlil qilindi. Shuningdek, gapning mazmuni va konteksti o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashda kontekstual tahlil metodi qo‘llanildi.

Tadqiqotda adabiy va ommabop matnlardan misollar yig‘ilib, ular ustida diskursiv tahlil amalga oshirildi. Ushbu misollar yordamida irreal so‘roq gaplarning kommunikativ funksiyalari va stilistik qo‘llanilishi ko‘rib chiqildi.

Shuningdek, qarama-qarshi tahlil metodi orqali irreal so‘roq gaplarning boshqa so‘roq gap turlaridan farqlari ajratildi. Natijada olingan ma’lumotlar tizimlashtirilib, irreal so‘roq gaplarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning o‘zbek tili tizimidagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslandi.

Bugungi kunda antroposentrik paradigma har qanday tadqiqotlar markazida inson nutqini qo‘ymoqda, mana shunday vaziyatda uni pragmatik aspektda o‘rganilishga ehtiyoj bor.

Yuqorida keltirib o‘tilgan jihatlardan kelib chiqib, so‘roq gaplarning turlari, xususan, irreal – noaniq, gumonli so‘roq gaplar, ularni hosil qiluvchi vositalar, qo‘shimchalar o‘zbek tilida ayrim darslik va qo‘llanmalarda yo‘l-yo‘lakay tilga olinganini aytmaganda, maxsus o‘rganilmagan.[5][6] “O‘zbek tili grammatikasi” kitobining II tomida so‘roq gaplarga umumiy ta’rif berilib, grammatik vositalar hisoblangan – *a, -ya, -da, -ku, nahotki* so‘roq yuklamalari yordamida tuzilgan so‘roq gaplarda so‘roq intonatsiyasining roli katta ekanligi misollar bilan asoslab berilgan: “*O‘z ixtiyori bilan-a?* (A. Qahhor). *Demak, olg‘a qarab, g‘arb tomon ekan-da?”* (O. Gonchar). “*Nahotki, buni bizning sinfimizdagilardan birortasi qilgan bo‘lsa?”* (V. Oseeva). “*Nahotki, morze alifbesini bilmasalaring?* (V. Oseyeva)”. Ammo *–mi, -chi* yuklamalarida esa intonatsiya u qadar kuchli bo‘lmasligining guvohi bo‘lish mumkin: “*Un to‘rt so‘m? Saksonta qovungayammi?”* (Oybek)[9,103].

Shaxs va narsalar haqida fikr yuritilganda ***kim, nima*** predmetlarning belgi-xususiyatlarini aniqlash lozim bo‘lgan so‘roq gaplarda ***qanday, qaysi, qancha, necha, nima*** olmoshlari harakat-holatning bajarilishi yoki predmetning mavjudlik o‘rni, payti, holati, sababi, maqsadini aniqlash uchun ***qayerda, qachon, qanday, qanday qilib, nechun, nima uchun, nima sababdan, nima maqsadda*** kabi so‘roq olmoshlari asosiy vazifani bajarishi quyidagi misollar bilan talqin qilingan: 1) “*Kim u, orqangizdan o‘g‘ri mushukday, qayga kirib chiqmang, poylagan battol?”* (K. Simonov). 2) “*Jamiki kambag‘al xalq. Qolni qo‘lga berib, yaktan bo‘lib tursa, kimning haddi bor! mardikor olishga?”* (O‘ybek). 3) “*G‘azaldan bu kabi zavq olmagan kim?”* (Uyg‘un). 4) “*Mening benom do‘stim, sog‘misiz. Qanday — ozodlik haykali ostida ahvol?”* (K. Simonov). 5) “*Qaysi In’omjon?”* (A. Qahhor). 6) “*Nima maslahat berasiz?”* (A. Qahhor). 7) “*Gulom aka, o‘sha vaqtlarda qancha hosil olgan edingiz?”* (A. Qahhor). *8) “Necha pul berdingiz? – dedi Safarov xiyol tabassum bilan”* (A. Qahhor). 9) “*Hozir bir sentner paxta necha mehnat kuniga tushadi?”* (A. Qahhor). 10) *“Qayerda edingiz shuncha kunlardan beri!”* (B. Polevoy). 11) “*Men qayoqdan bilaman uning nima niyatda olib kelganini*?”(A. Qahhor*). 12) “Qachondan beri? – dedi Bo‘riboy aka”* (A. Qahhor).[9,104]

Manbada ba’zi hollarda yolg‘iz intonatsiya, gap mazmuni va ba’zan ayrim leksik va grammatik elementlar yordamida so‘roq gap tuzilishi mumkinligi masalasiga ham urg‘u berib o‘tilgan: “*Buyrug‘ingizni bajarishga ruxsat eting, o‘rtoq mayor?”*, “*Ota, juda xayol surib qoldingiz?”* (A. Qahhor). “*Abdug‘affor ota, yangi ro‘zg‘ormiz deysiz-u, bugundan boshlab yangi to‘shlar-u, tovoqlarga boy bo‘lib qolibsiz?”* (R. Fayziy). “*Haydar chorboshi deb eshitganingiz bormi?” “Tangriqulhojining kuyovi oqtovuqlik Haydarponsad?”* (A. Qahhor). “*Keling, o‘g‘lim... Bemahalda qolibsiz?”* (A. Qahhor).” *...fonusni uning ...yuziga tutib: – Yo‘l bo‘lsin? – dedi”* (A. Qahhor). “*Xo‘sh, – dedi Bo‘taboy aka, – bugun o‘qishga bormadingiz?”* (A. Qahhor)[9,105].

Shuningdek, mazmunida gumon ottenkasi kuchliroq ifodalangan gumonli so‘roq gaplar, mazmunidan gumon ma’nosi anglashilib turgan so‘roq gaplarning kesim tarkibida uchraydigan ***-a(r)*** yoki ***-dir*** affikslari va ***kerak, shekilli, muncha, balki*** kabi elementlarning roli ham katta ekanligi qayd etilgan. Masalan: “1) *Sizni qiziqtiradigan savollar bordir?”* (B. Polevoy). 2) “*Ehtimol, uning yuragi qushdek tipirchilayotgandir?”* (B. Kerboboyev). 3) “*Bunaqada kechgacha ancha ish qilib qo‘yarsiz? Kechgacha yana uch barobar bo‘lar?”* (A. Qahhor). 4) “*Siz mening oldimga borib, o‘z ishlaringizni aytgan edingiz, esingizda bo‘lsa kerak?”* (P. Tursun). 5) “*Aftidan, bular ham ratsionalizatorlar bo‘lsa kerak?”* (A. Surkov). 6) “*Bu imorat otangizdan qolgan bo‘lsa kerak? – deb so‘radi”* (A. Muxtor). 7) “*Hoy-hoy, o‘rgilay otasi, muncha qiynaysiz uni?!” “Ilgari durust edi shekilli?* (A. Qahhor). 8) *Xudo bilsin, so‘zingiz balki yolg‘on*?” [9,105].

Mazkur manbada so‘rash mazmuni ta’kidlangan so‘roq gaplarda grammatik vositalarning birdan ortiq bo‘lishi mumkinligi ham ko‘rsatib o‘tiladi. Masalan: “1) *Dadam qayerda-a?”* (O‘ybek). 2) “*U o‘ylaydi, u hayot-ku-a?!”* 3) “*Nega Lenin bo‘lmaydi nomzod?!”* (M. Shayxzoda) 4) “*Oppoq qiz, kiyiming yomon-ku-a...”* (O‘ybek*). 5) “Muhiddin aytdimikan-a?”* (R. Fayziy). 6) “*Necha yoshga kirgan edim-a?”* [9,105].

Mualliflar so‘roq gaplarning nutqiy hodisalar jarayonidagi semantik jihatlarini tahlil qilar ekanlar, gumonli so‘roq gaplarning mohiyatini kesim tarkibida uchraydigan vositalar va ohang tashkil qilishini asoslab beradilar.

A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov va Sh.Yusupovalar muallifligida nashr etilgan darslikda so‘roq gaplar va ularning xususiyatlari haqida quyidagi fikrlar keltiriladi: “Ba’zan darak ma’nosini ifodalash uchun so‘zlovchi darak shaklidan (qolipidan) emas, balki so‘roq gap shaklidan (qolipidan) foydalanadi. Masalan: – *Buni kim bilmaydi?*”[3,91].

“Bunday so‘roq gaplar javob talab qilmaydi. Javobi shu gapning o‘zida bo‘ladi. So‘roq gap kesimi bo‘lishsiz fe’llar bilan ifodalangan bo‘lsa, tasdiq darak gap ma’nosini; aksincha, bo‘lishli fe’llar bilan ifodalangan bo‘lsa, inkor gap ma’nosini bildiradi. Masalan: – *Bu daraxtni kesishga kim jur’at qiladi? (“Bu daraxtni kesishga hech kim jur’at qilolmaydi”* ma’nosini bildiradi)”.

“So‘roq gap orqali ifodalangan darak ma’nosi darak gap orqali ifodalangan darak ma’nosidan kuchliroq bo‘ladi. Shuningdek, so‘roq gap shakli orqali buyruq ma’nosi ham ifodalanishi mumkin. Masalan: – *Yurmaysizmi?” (“yuring”* ma’nosida)”.

“So‘roq gap orqali ifodalangan buyruq ma’nosi buyruq gap orqali ifodalangan buyruq ma’nosidan kuchliroq bo‘ladi.”[3,92]

A.G‘ulomov va M. Asqarovalar hammuallifligida nashr etilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida so‘roq gap turlari xususida quyidagilar bayon etiladi: “So‘roq gapning xususiyatlari, ba’zan faqat so‘roqni bildiradi. *Karima uydami?* Ba’zan ham so‘roq, ham hayratlanishni, so‘roq yo‘li bilan ifodalangan taajjubni bildiradi. *Shunday issiq kunda ham yomg‘ir yog‘adimi? – Iye, Latofatxon urushga ketganmi?* – A.Qahhor. Ba’zan so‘roq bilan birga turli hayajonlar, tuyg‘ular ifodalanadi. *Kino boshlandimi?* Ba’zan so‘roq yo‘li bilan berilgan buyruq ifodalanadi. *Tezroq bormaysanmi?!*”[7,61]

Mualliflar tomonidan darslikda so‘roq gaplarning shubha, gumon ottenkasini bildirishi mumkinligi (*Soat yetti bo‘lib qoldi, kino boshlanguncha yetib borarmikanmiz? – ...yetib borishimiz gumon*), so‘roq yo‘li bilan berilgan taxminni bildirishi, bu kabi gaplar so‘roq-gumon gapga ancha o‘xshasa ham, lekin ayrim xususiyatlari bilan undan ajralib turishi qisqacha talqin qilib berilgan. (*Hoy qizcha, sen brigadir Karimovning qizi emasmisan?)*

Xususan, A. G‘ulomov va M. Asqarovalar so‘roq gaplarni tahlil qilish jarayonida *-mi* yuklamasining *-mikin, -mi ekan, -mikan* bo‘lishli formalarida qo‘llanilishi gumon, shubha ottenkasini kuchaytirib, mazmunni ko‘pincha inkorga yaqinlashtirishini ta’kidlab o‘tadilar: “*U kitobni keltirganmi? ...keltirganmikin? U kitobni berarmikin?* (berishi gumon, bermasa kerak)”[7,63]

Natijalar va muhokama. Tahlil natijalari o‘zbek tilidagi irreal so‘roq gaplar turli ifodalovchi vositalar orqali shakllantirilishini ko‘rsatdi. Ular ba’zi fe’llar orqali shubhali yoki ehtimoliy holatlarni ifodalagan, so‘roq olmoshlari va so‘zlari yordamida gapning noaniqligi kuchaytirilgan, taxminiy va salbiy fe’l shakllari irreal holatlar uchun asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Bu vositalar yordamida o‘zbek tilida irreal so‘roq gaplar reallikdan uzoq, tasavvurga asoslangan yoki shubhali holatlarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu gaplar turli muloqot kontekstlarida, xususan, ilmiy, badiiy va kundalik nutqda ishlatilib, fikrni chuqurroq ifodalash va

mulohaza yuritish imkonini beradi. Natijada irreal so‘roq gaplar o‘zbek tilining boy so‘roq gaplar tizimini yanada rang-barang qiladi va muloqotda noaniq va shubhali holatlarni yoritishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Maqolamizda ta’kidlanganidek, so‘roq gaplar sintaksis, semantika va pragmatika nuqtayi nazaridan o‘rganilishi kerak. Ular oddiy va murakkab strukturalarga, shuningdek, real (javobni aniq bilishimiz kerak) va irreal (javobni taklif qiluvchi) so‘roqlarga bo‘linadi. Shuningdek, so‘roq gaplar lingvistik maqsadga qarab, turli xil kommunikativ uslublarda ishlatiladi: so‘roq gaplar nafaqat bilim olish, balki suhbatni boshqarish, tasdiqlash, shubha qilish va boshqa ko‘plab maqsadlar uchun ham ishlatiladi.

Shu o‘rinda, o‘zbek tilida irreal so‘roq gaplarni tadqiq qilishda tilning kontekstual xususiyatlarini, uning pragmatik imkoniyatlarini inobatga olish zarur. Masalan, irreal so‘roq gaplarning ma’no va tuzilishi o‘zgarishi mumkin, ayniqsa, matn kontekstida yoki tildagi psixologik va madaniy omillarni hisobga olgan holda. Shu sababli, so‘roq gaplar turlari nafaqat sintaktik nuqtayi nazardan, balki ma’no va funksiyalari nuqtayi nazaridan ham tasniflanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova D. (2017). O‘zbek tilining sintaksisi. –Toshkent:Universitet nashriyoti.
2. Mahmudov A. (2007). So‘roq gaplarning semantik va uslubiy xususiyatlari. –Toshkent: Fan
3. Nurmonov A, Mahmudov N, Sobirov A, Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. *Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining 3-bosqich talabalari uchun darslik* Qayta ishlangan, to‘ldirilgan uchinchi nashri Toshkent: Ilm-Ziyo – 2010, 91- bet
4. Rashidova G. (2019). O‘zbek tili pragmatikasida gumon ifodalari. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti nashriyoti.
5. Sharipov B. (2020). Tilshunoslik va pragmatika: Nazariy va amaliy masalalar. –Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
6. Yusupov A. (2018). O‘zbek tilida so‘roq gaplar: Lingvistik xususiyatlari va ularning pragmatik roli. –Toshkent: Fan.
7. G‘ulomov A.G‘ va Asqarova M.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. (Sintaksis) –T.: O‘qituvchi, 1965. –316 bet.
8. Jumanov V. Pragmatik transpozitsiya hodisasi yoxud so‘roq gaplarda pragmatik ko‘pma’nolilikning yuzaga kelishi. // QarDU xabarlari, 1/2(57)2023. – B.161-163
9. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Т.: Фан, 1976. (А. С. Пушкин номидаги Тил ва адабиёт ин-ти). II т. Синтаксис. [Масъул муҳаррирлар: Ғ. А. Абдураҳмонов ва бошқ.]. 1976. 560 б. Грамматика узбекского языка, т. II. Синтаксис.
10. Нурмаҳанова А.Н. Тасдиқни билдирувчи дарак гаплар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1964. –№2. – Б. 52–57.
11. Лутфуллаева Д.Э. Тасдиқ гапларда инкор ва шаклий-мазмуний номувофиқлик: Филол.фан.ном....дис. – Тошкент, 1997. – 140 б.
12. Мўминов К. Инкор категориясининг айрим стилистик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1981. – №4, 27–30 б.
13. Нурманов А. Тасдиқ ва инкор конструкцияларининг сигнифинатив оппозициялари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1981. – №6, 28–31 б.
14. Рустамов Т. Ҳозирги замон ўзбек тили гап бўлакларида инкорнинг ишлатилиши. Ўзбек тили грамматикаси ва пунктуацияси. – Тошкент, 1959.

MUHAMMADRASUL MIRZO “DEVON”I LEKSIKASINING QIYOSIY VA STATISTIK O‘RGANISH NATIJALARI

Jumayeva Kamola Tursunaliyevna
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi kattasi o‘qituvchisi (PhD)
Kamoladjumayeva091@gmail.com
ORCID 0009-0006-4425-4047

UDK 821.512.133.09

Annotatsiya. Maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan Muhammadrasul Mirzoning umri davomida tuzgan “Devon”i o‘zbek mumtoz adabiyotida yaratilgan nisbatan kichik bo‘lgan deyarli barcha janrlarda bitilgan asarlarni jamlash barobarida, o‘zi xorazmlik bo‘lishiga qaramay, adabiy an’ana bo‘lmish qarluq lahjasining me’yorlariga qat’iy va to‘la amal qilgan.

“Devon”da o‘zlashma so‘zlarning qo‘llanish adadi turkiy so‘zlar miqdoridan ko‘p, bu albatta, mumtoz adabiyotning an’anaviy tamoyili hisoblanadi, biroq bu birliklarning turkiy tilga og‘ish xususiyatlari (yasovchi qo‘shimchalarning qabul qilish imkoniyatlari) hamda o‘z qatlam lug‘aviy birliklarining hozirgi o‘zbek tiliga munosabati muqoyasa qilinganda, asarning leksik jihatlari, yangi o‘zbek tili davri shakllanib

bo‘lganligidan dalolat beradi. Demak, hozirgi o‘zbek adabiy tilining me’yorlari tarixiy sharoit bilan bog‘liq holda emas, balki evolyutsion taraqqiyot natijasida – lingvistik hamda ekstralingvistik me’yorlar asosida shakllanganligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: me’yor, leksika, chog‘ishtirish, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, arabiy qatlam, eroniy qatlam, turkiy so‘zlar, lug‘at, tarixiy-etimologik qatlam.

RESULTS OF A COMPARATIVE AND STATISTICAL STUDY OF THE LEXICAN VERB OF MUHAMMADRASUL MIRZO "DEVON"

Abstract. In the article, the "Devon" composed by Muhammadrasul Mirza, who lived in Khorezm in the second half of the 19th century - the beginning of the 20th century, compiled the relatively small works of Uzbek classic literature in almost all genres, despite being from Khorezm, he strictly followed the norms of the literary tradition, the Karaluq dialect.

The number of native words in "Devon" is greater than the number of Turkish words, which is of course a traditional principle of classical literature, but when comparing the deviation characteristics of these units to the Turkish language (possibility of acceptance of formative suffixes) and the relation of the lexical units of their own layer to the current Uzbek language, the lexical aspects of the work are evidence of the formation of the new Uzbek language period. gives Thus, it shows that the norms of the current Uzbek literary language were formed not in connection with historical conditions, but as a result of evolutionary development - on the basis of linguistic and extralinguistic norms.

Keywords: norm, lexicon, collation, "Annotated dictionary of the Uzbek language", Arabic layer, Iranian layer, Turkish words, dictionary, historical-etymological layer.

Kirish. Leksik statistika, garchi, tashqi tomondan qaraganda, “quruq” dalillar (faktlar) yig‘indisidan iborat riyoziy birliklarga o‘xshab ko‘rinsa-da, ushbu usul tadqiqot manbai mansub bo‘lgan davr tilining asosini belgilash, muallifning individual nutqiy mansubligini aniqlash, bu orqali esa hozirgi o‘zbek adabiy tilining yuzaga kelishida muhim vazifa o‘tashiga xizmat qilganligini ko‘rsatadi. Demak, ayni tamoyil asar leksikasida qo‘llanilgan so‘z formalari, leksemalar miqdorini belgilashda tadqiqotchiga aniq, ishonchli xulosalar chiqarish uchun muhim imkoniyat sanaladi.

Ma’lumki, X-XIX asr o‘zbek adabiy tili uchun asosan uch tarixiy qatlam xosdir: 1) turkiy qatlam; 2) arabiy qatlam; 3) eroniy qatlam.

“So‘zning qatlamga oid bo‘lishi uchun ma’lum bir tilning lug‘at tarkibida so‘zlarning kelib chiqishi, qaysi tilda yasalganlik va qaysi til orqali boshqa tilga o‘tganligiga ko‘ra bo‘linishi hisobga olinadi. Shunday holatlarda so‘zlar qatlamga (tarixiy-etimologik qatlam) kiritiladi. Har bir tilning lug‘at tarkibida ikki qatlam – o‘z qatlam va o‘zlashma qatlam bo‘lishi tabiiy. O‘z qatlam birliklarini shu tilda eng qadimgi davrlardan boshlab qo‘llanilib kelinayotgan, mazkur til bilan qarindosh bo‘lgan boshqa tillarda ham uchraydigan, shu tilning ichki qonuniyatlari asosida yasalish xususiyatiga ega so‘zlar tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tavsiflash, qiyoslash, leksikologik tadqiqotlarda esa qisman riyoziy-miqdoriy tahlil usullaridan foydalanildi. Shunga muvofiq o‘z qatlam so‘zlarining talqinini keltirish barobarida o‘zlashma qatlamga oid leksik birliklarning o‘zlashish natijasida ona tilimizning o‘z mulkiga, boyligiga aylanib ketish sabablari ochib berilgan. O‘zbek tilida o‘zlashma qatlamlar qaysi tildan yoki qaysi til vositasida kirib kelganligiga ko‘ra arabcha so‘zlar qatlami, fors-tojikcha (eroniy) so‘zlar qatlami, ruscha-baynalmilal so‘zlar qatlamiga bo‘linadi. So‘zlar ma’lum bir qatlamni hosil qilishi uchun ma’lum bir miqdorda bo‘lishi lozim. Agar boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar yakkam-dukkam bo‘lib, ko‘pincha boshqa bir til (uchinchi til) vositasida kirib kelgan bo‘lsa, bunday so‘zlar lug‘aviy unsur deb nomlanishi yoritib berilgan. Masalan, eski o‘zbek tilida *nilufar, sandal, nil, chodir, tovus* kabi sanskritcha, arab tili orqali kirib kelgan *afyun, sabun, zumurrad, fonus, qaysar, faylasuf* kabi yunoncha so‘zlar lug‘aviy qatlamni tashkil etmaydi, balki lug‘aviy elementlar sifatida ishlatiladi.

Turkiy so‘zlarning aksariyati ko‘plab qarindosh tillar uchun mushtarak qatlam ekanligi ma’lum. Shuning uchun asl turkiy qatlamga mansub so‘zlar umumturkiy leksika, umumturkiy qatlam tushunchalari ostida tahlil qilindi[1,53-b].

“Devon” leksikasidagi 3555 leksemadan 2764 tasining hozirgi o‘zbek adabiy tilida va hozirgi o‘zbek shevalarida uchrashi yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Mirzo qo‘llagan turkiy so‘zlar 670 ta bo‘lib, umumiy leksikaning 19 foizini tashkil etadi.

Bu so‘zlar fonetik jihatdan bir bo‘g‘inlidan 3 bo‘g‘inligacha ikki fonemadan (*al*) to 9 fonemagacha (*kuchsizlik*) ko‘rinishda bo‘ladi.

“Devon” leksikasida bir fonemadan tashkil topgan leksik birlik ham mavjud. Chunonchi,

ko‘rsatish olmoshi – *u* hamda uchinchi shaxs birlikdagi kishilik olmoshi – *u*. Hozirgi o‘zbek tilidagi 3-shaxs kishilik olmoshi *u* “Devon”da *ul* va *u* shakllarida qo‘llanilgan.

1. Ikki fonemali bir bo‘g‘inli turkiy TEQ ga mansub so‘zlar *undosh-unli* va *unli-undosh* ko‘rinishidadir. Bunday ko‘rinishdagi so‘zlarning asosiy qismini otlar, son va sifatlar, olmoshlar, fe’llar va undovlar tashkil etadi: *al (old), al (qo‘l), ay-, bu, de-, el, et-, ich, ich-,, ichra, iki/ikki, il-, in, in-, ip, ish, iz, ne, o‘l-, o‘p-, o‘q,*

2. Uch fonemali bir bo‘g‘inli so‘zlar undosh-unli-undosh tipida bo‘ladi. Ko‘plab olimlarimizning fikrlariga qaraganda, bunday tuzilishdagi so‘zlar tub va qadimgi turkiy so‘zlardir. Qolgan ko‘rinishdagi so‘zlar (*unli-undosh-undosh-unli, undosh-unli-undosh-undosh*) etimologik jihatdan shu tipdagi so‘zlar sanaladi.

Undosh-unli-undosh tuzilishidagi so‘zlar “Devon”da ko‘plab qo‘llangan va ular barcha so‘z turkumlariga taalluqlidir: bar, beg, bel, ber-, bir, biz, bo‘l-, boq-, bor, bor-, qosh, qoz-, qul, qush, qut, san, sen, sin-, siz, so‘r-, so‘z, soch, sog‘, sol, sur, suv, suy, teg-, tek, teng, tep-, tez, tig‘,tik-, til, to‘k-, to‘y-, tog‘, tom, top-, tog‘, tor, tosh, tot-, toy, tub, tun, tur-, tush-, tut, tut-, tuz, tuz-, yig‘-,yil, yo‘l, yo‘q, yuk, yuz.yur-, yut-.

3.Turkiy TEQ ga mansub 4 fonemali bir bo‘g‘inli so‘zlar unchalik ko‘p emas. Ularning barchasi *undosh-unli-undosh-undosh tuzilishidadir: ko‘ks, qayt-, qo‘rq, tort-.*

4. Uch fonemali ikki bo‘g‘inli so‘zlar *unli-undosh-unli* tipida. Bunday tuzilishdagi so‘zlar unchalik ko‘p emas: *edi, esa, ila.*

5. To‘rt fonemali ikki bo‘g‘inli turkiy TEQ ga kiruvchi so‘zlar juda ham ko‘p bo‘lib, ular *unli-undosh-undosh-unli, undosh-unli-undosh-unli, unli-undosh-unli-undosh* tipidadir. Ularning barchasi tarixan yasama so‘zlar bo‘lsa ham hozirgi vaqtda soddalanishga uchrab, yagona o‘zakka aylangan va ulardagi “yasamalilik” belgilari yo‘qolgan: *ancha, anda, andak, angla-, ayla-, ayoq, ayru, ayur-, beza-, emdi, erdi, ersa, erur, ichra, ilik, inon, izla-, kibi, nega, nima, o‘lja, o‘luk, o‘rin, o‘rta-, o‘run, o‘sha, o‘yna-, o‘zga, og‘iz, olda (alda-), oyon-, oyoq, oyril, oyro‘, oyru, qari, qaro, qayu, sayi, tani-, tila-, to‘la, uzra, yala-, yaqo, yara, yaro-, yona, yoru-.*

6. Mirzo “Devon”ining leksikasidagi 5 fonemali ikki bo‘g‘inli so‘zlarning turlicha ko‘rinishdagi tiplari mavjud bo‘lib, ular asosan quyidagicha: (unli-undosh-undosh-unli-undosh qolipida) *andak, aylan-, ayrul-, barcha, birov, bo‘yin, bog‘la-, bugun, bukun, butun, buzuq, chiniy, chuchuk, dudoq, ermas, ermish, hindu, kerak, kimsa, kirpik, ko‘mak, ko‘ngil/ko‘ngul, kulgu, kunduz, nachuk, nayla, netak, netong, o‘rgil-,o‘tdek, o‘tlig‘, ortuq, otlan, oydek, oylan, oyon-, oyoq, qachon, qarog‘, qatla-, qatra, qayda, qayg‘u, qaysi, qizil, qo‘zg‘a-, qonlig‘,quloq, qursha, quyosh, sekri-, so‘ngra, sovug‘, sutdek, suyak, tashla-, tegru, tirguz-, tirnog‘, tongla, tufrog‘/tufroq, tunlig‘,tuyoq, tuzliq, uyg‘ot-, yig‘la-, yo‘qsa.*

7. Olti fonemali ikki bo‘g‘inli so‘zlar ham juda ko‘pchilikni tashkil etadi. Bunday so‘zlar bayoz leksikasida *(undosh-unli-undosh-undosh-unli-undosh): aningdek, biryon, chirmash-, kunduz, mandek, manglay, o‘rmala-, qarmoq, qildek, qonlig‘, qutqar, sanchil-, sandek, sansiz, sendek, sensiz, sevunch, sutdek, tarqal-, telmur-, tezlik, tirguz-, tirnog‘, turluk, tuzliq, yalg‘on, yanglig‘, yastan-, yo‘qlig‘, yolbor-, yolg‘on, yolg‘uz.*

8. 8 fonemali uch bo‘g‘inli so‘zlar ko‘p emas. Odatda, ular *undosh-unli-undosh-undosh-undosh-unli-undosh* fonetik tuzilishda qo‘llangan: *yigitlik.*

9. 9 fonemali uch bo‘g‘inli so‘zlar ham oz: *undosh-unli-undosh-undosh-unli-undosh-undosh* tipidadir (*bormoqliq*).

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, “Devon”dagi yasama so‘zlarning o‘rtacha uzunligi 8-9 fonemali, so‘zformalar esa 5-6 fonemalidir.

Mirzo ijodining to‘liq mahsuli bo‘lgan bu bayoz nazm janrida bitilganganligi bois qo‘llangan arabcha leksemalar kitobiy uslubga mos keladi. Shunisi diqqatga sazovorki, arabiy kalimalar, asosan, badiiylikni shakllantiruvchi leksik imkoniyat hisoblanib, shoir o‘zidan oldin o‘tgan she’riyat “sultonlari” – Alisher Navoiy, shuningdek, o‘zi alohida qayd etgan ustozlari – Munis, Ogahiy ijodlariga ergashganligidan dalolat beradi. Arabcha so‘zlar mumtoz eski o‘zbek tilida bitilgan badiiy asarlar tilida iste’mol etilgan leksik birliklar maqomida bo‘lib, shoir ko‘zlagan badiiyatni shakllantirish vazifasini bajargan.

Eroniy tilli xalqlar bilan turkiy ulusning aloqalar ildizi juda qadimga borib taqaladi. Buni o‘z vaqtida, ya’ni X asrdayoq M.Koshg‘ariy ham ta’kidlangan edi. Demak, turkiy-forsiy ikki tillilik mazkur xalqlar o‘zaro aloqalarining mushtarak va qadimiyligini yaqqol ko‘rsatadi. Ko‘plab eroniy so‘zlar V-IX asrlardayoq turkiy tillarga kirib kelgan edi. Eski o‘zbek tiliga bu so‘zlar eski turkiy va boshqa tillardan meros bo‘lgani uchun ham *non, shakar, to‘n, osh* kabi so‘zlar allaqachon butunlay

o‘zlashib ketgan.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions). Qatlamga oid leksik birliklarning o‘zlashma deb nomlanishi uchun u shu tilda o‘zlashgan, so‘zlovchilarning ko‘pchiligi uchun tushunarli bo‘lishi lozim. Agar chet so‘zlar tilda butunlay o‘zlashmagan, ko‘pchillkka tushunarli bo‘lmasa, yozuvchi va shoirning didiga ko‘ra ishlatilsa, bunday so‘zlarni o‘zlashma qatlamga kiritish mumkin emas (chunonchi, so‘zlovchi ma’nosida; «nutqning sohibi ixtisoslari» iborasini ishlatish). Bunday so‘z va iboralar manba tili nomi bilan (arabcha yoki forscha so‘zlar (iboralar) deb ataladi, o‘zlashma qatlamga shartli ravishda kiritiladi”.[2,14-b]

Shubhasizki, bu qatlamlar ichida juda qadimgi davrlardan boshlab xalqimiz tilida qo‘llanib kelinayotgan xitoycha, so‘g‘dcha, yunoncha, mo‘g‘ulcha, hindcha kabi tarixi tamoman boshqa tillarga borib taqaladigan so‘zlar ham bo‘lishi tabiiy. Lekin bunday so‘zlarni alohida guruhlarga ajratish ham munozarali, ham fan uchun ahamiyati unchalik muhim emas. Chunki o‘zbek xalqi hech qachon yunonlar bilan bevosita aloqada bo‘lmagan va ulardan so‘z qabul qilib, Muhammadya’qub Muhammadyusuf ularga so‘z bermagan. Bunday so‘zlar tilimizga arablar tomonidan o‘tgan, shuning uchun ularni arabiy so‘zlar sifatida baholash lozim.[3,61-b]

Yuqorida ta’kidlanganidek, tadqiq manbaimiz bo‘lgan hijriy 1323 – milodiy 1905-1906-yillarda Muhammadya’qub Muhammadyusuf tomonidan nasta’liq xatida ko‘chirilgan “Devoni Mirzo” nusxasi 2698 bayt, yoki 5396 misradan iborat ulkan memuar asar – bayozdir. Mazkur 4456 bayt – 8912 misrada qo‘llanilgan so‘zformalar miqdori 35133 dan ortiq bo‘lib, 3555 leksemani tashkil etadi. Bunda so‘zlarning turli fonetik variantlari, ular orasida vazifaviy-ma’noviy (funksional-semantik) farqlar yo‘qligi uchun bir leksema sifatida qabul qilindi. Mas.: *ato/ota, oltin/oltun, ortuqsa/ortuqsi, tihi/tihiy, toki/tokim, asra/osra, turlik/turluk, uzom/izom, shakar/shakkar, bila/bilan/birla, jori/joriy, ko‘ngil/ko‘ngul, qadd/qad, xinoli/xinolig‘* va boshqalar. Alohida-alohida so‘z sifatida forsiy izofa qismlari ham olindi, chunonchi, *duoyi davlat (1/2), duoyi xayr (3/3), to‘tiyi nutq (4/1), baloyi hajr (4/2), to‘tiyoyi chashm (11/2), fazoyi anjuman (12/2), mayi gulrang (12/2)* kabilar. Shuningdek, so‘zlovchi ongida osonlikcha ayrim-ayrim so‘z sifatida farqlanadigan arabiy izofa zanjirlaridagi har bir qism alohida qism (komponent) sifatida tasavvur qilinadi: *baytul-ehzon (18/2), ko‘hlul-basar* (37/1). Bir so‘z sifatida qo‘shma so‘zlarni ham qabul qilish mumkin, *gulruxsor (18/2), kamandoso (21/2) mirzoboshi (4/1), oshiftahol, sarvqad* (25/1) kabilar ham bitta so‘z sifatida sanaldi.

Tarixiy-etimologik jihatdan ushbu 3555 leksema quyidagicha tarixiy etimologik qatlam (TEQ) larga bo‘lish mumkin.

1.Turkiy so‘zlar – 670 ta (umumiy leksikaning 19 foizini tashkil etadi).

1-jadval.

	Jami so`zlar		**O`TIL da bor so`zlar**		**NAIL da bor so`zlar**		**Eskirgan so`zlar**		**Nom lar**		**Shevaga xos so‘zlar**			
											O‘XSHLda bor so‘zlar		**O‘XSHLda yo‘q so‘zlar**	
	soni	foiz	soni	foiz	soni	foiz	soni	foiz	soni	foiz	soni	foiz	soni	foiz
Turkiy so‘zlar	672	19									312	10	40	1
v) arabiy-turkiy	38	1	36		24	1								
g) eroniy-turkiy	80	2	3	001	3	001								
g) arabiy-eroniy-turkiy	30	1	45	3	44	2								
Arabiy so‘zlar	1504	39	642	31	773	37		403	19,5					

Eroniy so‘zlar	1254	34.5	578	28	676	33		160	8					
a) sof eroniy	1054	30	517	25	599	29								
b) arabiy-eroniy	200	6	61	3	77	4								
JAMI	**3555**	100	2776	79,3	2058	58,8	981				14	007	14	007

2.Fors-tojikcha so‘zlar – 1059 ta (29 foiz),

3.Arabcha so‘zlar – 1498 ta (42 foiz),

4.Aralash holdagi so‘zlar – 328 ta (10 foiz).

Ulardan:

a) arabcha-fors-tojikcha (kelib chiqishi jihatidan arabcha, ammo fors-tojikcha so‘z yasovchi qo‘shimchalar bilan hosil bo‘lgan so‘zlar) – 198 ta (6 foiz),

b) arabcha-turkiy – 36 ta (1 foiz),

v) eroniy-turkiy – 78 ta (2,3 foiz),

g) arabiy-eroniy-turkiy – 28 ta (0,9 foiz).

Bu dalillarni quyidagicha bir jadvalda ko‘rsatish mumkin (1-jadval):

“Devoni Mirzo” bayozidagi bu ko‘rsatkichni lug‘at boyligi aniq sanalgan Alisher Navoiyning “Lisonut-tayr” va Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asarlari bilan solishtirsak, quyidagi dalillarni ko‘rsatadi: (3-jadval).

2-jadval.

Asarlar	Arabcha so‘zlar	Fors-tojikcha so‘zlar	Turkiy so‘zlar	Aralash so‘zlar
“Lisonut tayr”	40 foiz	26 foiz	24 foiz	10
“Shayboniynoma”	38,5	25	32,5	4
“Shajarai turk”	22,5	11,5	28,5	35,5
Mirzo “Devon”i	42 foiz	29 foiz	19 foiz	10

Xulosa va takliflar. Keltirilgan talqin, tahlil va jadvallardan ko‘rinib turibdiki, “Devon”da qo‘llanilgan turkiy so‘zlar “Lisonut tayr”ga nisbatan bir oz ko‘p, “Shayboniynoma” dostonidagidan esa salgina kamdir. “Shajarai turk”, avvalo, nasriy asar bo‘lganligi bois, undan keyin esa Abulg‘oziyning turkiy tilning imkoniyatlarini yorqin ko‘rsatishga jazm etib: “*Barcha bilingkim, bizdin burun turkiy tarix aytqanlar arabiy lug‘atlarni qo‘shub tururlar va turkiyni ham saj’ qilib tururlar, өzlärining hunarlari va ustāzlarini xalqqa ma’lum qilmaq uchun. Biz munlarnің hech qaysisini qilmaduq, anің uchunkim, b kitābni oqug‘uvchi va tinglag‘uvchi, albatta, turk bolg‘usi turur. Bas, türklärgä turkāna aytmaq, kerāk, tā ularnің barchasi fahm qilg‘aylar*”, degan qaroriga sodiq qolib, turkiy so‘zlarning adadini boshqa TEQlarga nisbatan ustunligiga erishgan. “Devon” she’riy bayoz bo‘lganligi sababli unda an’anaviylikka ergashish, ya’ni o‘zidan oldin yashab ijod etgan shoirlar, xususan, Alisher Navoiy an’anasini davom ettirish g‘oyasi kuchli bo‘lganligi bois turkiy so‘zlarning miqdori boshqa TEQdagi so‘zlardan ancha-muncha past. Bu “qusur”ni shoir yana badiiylik imkoniyatlaridan foydalangan holda aralash so‘zlar hisobidan eroniy TEQ so‘zlari miqdori bilan tenglashtira olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Бегматов Э. Ўзбек тили тарихий лексикологияси. –Тошкент: Фан, 1981. –Б. 53.

2. Неъматов Ҳ., Аҳматов Н. Ўзбек тилининг тарихий лексикологияси. – Бухоро, 1987. – Б. 14.

3.Жумаев Т. Умар Боқий асарларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз.дисс. –Тошкент, 1997. –Б. 61.

4.Адизова Б.Н. Бухоро тумани микротопонимларининг лексик-семантик тадқиқи: Филол.фан. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2021. – 132 б..

5.Адизова Б.Н. Бухоро тумани микротопонимларининг лексик-семантик тадқиқи: Филол.фан. б. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф.
– Бухоро, 2021. – 128 б.

6.Бегматов Э. Ўзбек исмлари. –Т.: 1991,– 284 б.; Бегматов Э. Номшунослигимизнинг тадқиқ йўллари // Тил ва адабиёт таълими, 1992, 2-сон, – Б. 3-5.

7.Бегматов Э. Ўзбек исмлари. –Т.: 1991,– 284 б.

8.Бегматов Э. Номшунослигимизнинг тадқиқ йўллари //Тил ва адабиёт таълими, 1992, 2–сон, – Б. 3-5.

9.Бегматов Э. А. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965. – 24 б.

10.Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Т.: Фан, 2007. – Б. 29.

11.Дусимов З. Топонимы Северного Хорезма: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1970. – 182 б.

12.Зарипов Б.П. Зоонимларнинг бадиий санъат турларини ҳосил қилишдаги иштироки: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – 24 б.

13.Караев С. Опыт изучения топонимики Узбекистана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1969. – 24 .

BADIIY ADABIYOTDA PSIXOLOGIZMNING O‘RNI

Musayeva Dilsuz Tuychiyevna (PhD)
Qarshi davlat universiteti Lingvistika kafedrasi dotsenti v.b.
musayeva.dt@qarshidu.uz
ORCID 0009-0008-8032-967X
UDK 82-1/-9:159.9

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy adabiyotda inson shaxsi markaziy tasvir obyekti hisoblanib, uning ichki dunyosini ochib berish muhim sanalishi haqida so‘z yuritiladi. XIX asr oxiridan boshlab psixoanalitik yondashuv shakllanib, XX asrda adabiyotshunoslik, sotsiologiya, etika, estetika va san’at sohalarida psixologik tahlilning keng qo‘llanilishiga zamin yaratdi. V. Vundt, Z. Freyd va K. Yung tadqiqotlari inson ruhiyatini o‘rganishda yangi usullarni taklif etib, badiiy asarlarda qahramon shaxsiyatining murakkab jihatlarini yoritishda psixologizmning ahamiyatini oshirdi. Ijodkorlar inson kechinmalari, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar hamda hissiyotlar murakkabligini turli rakurslardan tasvirlab, psixologizmni badiiy ifodalashning yetakchi vositalaridan biriga aylantirdilar. Psixologizm barcha san’at turlarida uchrab, inson ruhiyatini anglashda gnoseologik ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: badiiy psixologizm, inson ruhiyati, ichki kechinmalar, psixoanaliz, yozuvchi mahorati.

THE ROLE OF PSYCHOLOGISM IN LITERATURE

Abstract. This article discusses how the human personality is considered the central object of depiction in fiction, and how it is important to reveal the inner world. From the end of the 19th century, the psychoanalytic approach was formed, which in the 20th century laid the foundation for the widespread use of psychological analysis in literary studies, sociology, ethics, aesthetics, and art. The research of W. Wundt, Z. Freud, and K. Jung proposed new methods for studying the human psyche. It increased the importance of psychologism in illuminating the complex aspects of the character's personality in literary works. Creators, depicting human experiences, conflicts between the individual and society, and the complexity of emotions from different angles, turned psychologism into one of the leading means of artistic expression. Psychologism is found in all types of art and has an epistemological significance in understanding the human psyche.

Keywords: artistic psychologism, human psyche, inner experiences, psychoanalysis, writer’s skill.

Kirish. Badiiy adabiyot xalqning ma’naviy dunyosini takomillashtirishni maqsad qilganligi sababli u insonlar qalbiga juda yaqin. Xalq og‘zaki ijodining noyob namunalaridan tortib, zamonaviy adabiyot namunalarigacha hayotni badiiy bo‘yoqlarda, obrazli tarzda jonli tasvirlaganligi, ifodalaganligi uchun odamlar qalbiga yaqinlasha olgan. Xalq yaratgan noyob asarlar, milliy adabiyotlarning eng sara namunalari insoniyatning ma’naviy takomili uchun xizmat qiladi. Jamiyatning yuksalishida fuqarolarning ma’naviy-intellektual darajasi katta ahamiyat kasb etadi. Bu tarixda isbotlangan hodisa. Yuksak ma’naviyatli shaxslar hatto tarixni o‘zgartira olganlar. Misol uchun, buyuk Temur, Navoiy yashagan davrlarni olaylik. XIV-XV asrlar dunyo tamaddunida o‘ziga xos hodisa bo‘lganligi ma’lum. “Ma’naviy va estetik takomil har qanday kasbdagi odam uchun ham zarur. U ijodiy tasavvur kuchini oshiradi, tasavvurni kengaytiradi, eng og‘ir sharoitlarda qat’iyatli, o‘ziga ishonchli, quvnoq va izchil bo‘lishga o‘rgatadi” [2], deb yozgan edi mashhur adib Asqad Muxtor. Darhaqiqat, ma’naviy takomilsiz, boyliksiz hissiz qalb toshga aylanadi. Shuning uchun komillikka yo‘naltirilgan ma’naviy-estetik didni tarbiyalash badiiy adabiyotning eng muhim vazifasi sanaladi. Badiiy adabiyot shaxsning o‘z-o‘zini anglashida, uni insonparvarlashtirishda beqiyos ahamiyatga ega. Adabiyot o‘zida xalq xotirasini mujassamlashtiradi, uning axloqiy ma’naviy qadriyatlarini asrlardan asrlarga, ajdodlardan avlodlarga olib o‘tadi.

Adabiyotlar tahlili. XIX asr oxirida yuzaga kelgan va XX asrda takomiliga yetgan psixoanalitik maktab barcha ziyoli qatlam vakillari diqqatini o‘ziga jalb qildi. Ushbu maktab I.Baxofenning 1861-yilda yozgan “Onalik huquqi” nomli ilmiy izlanishidan keyin tez rivojlana boshladi. Nemis olimi V.Vundtning “Xalqlar ruhiyati”, Z.Freydning “Tush ta’biri” kabi asarlari hamda K.Yungning tadqiqotlari ushbu oqimni shakllantirdi. Ushbu asarlar adabiyotshunoslik, siyosatshunoslik, sotsiologiya, etika, estetika, psixologiya va san’atning rivojlanishida salmoqli ahamiyatga molik bo‘ldi.

Ma’lumki, har qanday badiiy asarning tasvir obyektida inson shaxsi turadi. Insonga psixologik jihatdan yondashuv nihoyatda muhim sanaladi. Ushbu yondashuvda inson shaxsiga turli rakursdan yondashiladi. Ayrim ijodkorlar qahramonlari ruhiyatidagi ichki to‘qnashuvlarni ifodalasa, ayrimlari davr va shaxs ziddiyatlarini ochish nuqtayi nazaridan yondashadi, ba’zilari esa qahramonning hissiyotlari bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilishga urinadi. Shuningdek, adiblarning o‘zi qahramonlarining dunyoqarashini, tafakkur darajasini, iqtidori-yu, iste’dodini, qalb kechinmalarini yuqorida ta’kidlangan rakurslarda tasvirlaydi. Psixologizm barcha san’at turlarida ham ma’lum bir darajada mavjud bo‘lib, uning gnoseologik ahamiyatining eng muhim mezoni hisoblanadi.

Natijalar va muhokama. Jahon adabiyotida badiiy psixologizm shakllanishining yangi bosqichi esa buyuk rus yozuvchisi L.N. Tolstoy nomi bilan bog‘liq bo‘lib, uning asarlari roman janrining rivojlanishida haqiqiy burilish nuqtasini yasadi. Stern, Stendal va Dikkens Tolstoyning eng sevimli nasriy yozuvchilari edilar. Rus adibi ular ijodidan ko‘p narsani o‘rganib, inson psixologiyasiga yanada chuqurroq kirib bordi, inson qalbining ko‘p qatlamli, bir-biriga mos kelmaydigan harakatlarini ochib berdi. Psixologik tahlilning beqiyos ustasi sifatida u ruhiy jarayon natijalarini qayta yaratishda davom etdi. Tolstoy asarlaridagi ichki ritmning salmoqli qiyofasini, nafis uyg‘unlikni uqa olsak, hayotning benihoya murakkabliklarini his qilishga imkon beradigan tasavvur kuchini his qila olsak, uning xalqchilligini, Anna Karenina va Katyushalar shaxsiy fojiasining chuqur ijtimoiy ruhini anglay olamiz. Uning obrazlarida ifodalangan fikrlari shu qadar keng va haqqoniy, ular insoniyatning badiiy taraqqiyotida katta ahamiyatga egadir. Psixologik, analitik nasrning tolstoycha an’analari davom etib kelmoqda. Tolstoyning qahramonlari ruhan bezovta, fikrlovchi, izlanuvchan kishilardir. Tolstoy o‘z qahramonlarini badiiy jihatdan mukammal, o‘z kuchiga qat’iy ishongan, ruhiy qudratga ega shaxs sifatida tasvirlagan. U qahramonlari qalbiga teran nazar tashlaydi. Bu uning psixologik tahlil ustasi ekanligidan dalolatdir. Adib bezovta ruh, izlovchan tafakkurning harakatini, bu bilan shaxsning ma’naviy yuksalish dinamikasini ustalik bilan yorita olgan.

Adabiyotda psixologizmga moyillikning pasayishi, keskin ijtimoiy kurashlar (inqiloblar, urushlar va boshqalar) davrida kuzatiladi. Xuddi shuningdek, “…shaxsning qadr-qimmatidan boshqa g‘oya diqqat markazida bo‘ladi. Hal qiluvchi rolni uning ichki fazilatlari, “qalb dialektikasi”, ruhiy-psixologik murakkabligi va boshqalar emas, balki birinchi navbatda xatti-harakatlarning ijtimoiy aniqligi, u yoki bu jangovar harakatlarga haqiqiy sinfiy mansubligi, bevosita amaliy faoliyati o‘ynaydi” [5]. Olimning fikricha, ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar to‘lqini sustlashganda ham baribir psixologizm adabiy-estetik prinsip sifatida faollashadi.

XX asrning birinchi choragida g‘arb adabiyotshunoslik ilmida psixologik yo‘nalish Freyd asos solgan psixoanaliz ta’limoti asosida rivojlandi. Bu borada maxsus yo‘nalishlar yuzaga keldi. Psixoanaliz ta’limotiga ko‘ra, badiiy asar ongsizlik psixologiyasi bilan uzviylikda tahlil qilinadi. Badiiy asarda inson psixikasidagi ongsizlik holatlaridan kelib chiqqan harakatlarning natijasi tarzida qaraladi.

Ma’lumki, hech qaysi inson boshqa birovni uning o‘zi darajasida anglay olmaydi. Xuddi shuningdek, hech qaysi o‘quvchi, eng zukko kitobxon ham badiiy asarni uning muallifi darajasida idrok eta olmaydi yoki hayotiy tafsilotlarni to‘la anglay olmaydi. Ushbu qarash badiiy asarni tushunishga ham xos. Mabodo, zukko o‘quvchi biror asarni o‘qib, muallifning mulohazalariga hamohang fikrlarga kelsa ham, baribir, uning aynan nima demoqchi bo‘lganligini to‘la anglay olmasligi aniq.

Freyd “Shoir va fantaziya” asarida adabiyot ilmi bilan psixoanalizni chalkashtirmaslikni ta’kidlaydi. Freyd psixoanalizi ijodiy jarayonga tegishli. Ammo Freyd ta’limoti badiiy haqiqatni tushunishning birdan bir yo‘li ham emas. Badiiy adabiyotda tasvirlangan qahramon ruhiyatini talqin va tahlilida psixoanalitik usuldan samarali foydalanish mumkin. Ammo insonni to‘liq o‘rganish mumkin emas. Zero, inson oliyjanoblik borasida ham yagona jonzot, tubanlik borasida ham tanho jonzot. Inson shaxsi murakkab va sirlidir.

Birinchi jahon urushi tugagandan so‘ng XIX asr oxiri “estetik harakat” vakillari bo‘lmish modernistlar bilan realistik an’analar davomchilari o‘rtasida keskin chegara yuzaga keldi. D.Richardson va M.Sinklerl kabi yozuvchilarni o‘z ichiga olgan yangi psixologik maktabning rahbari Virjiniya Vulf o‘zining ijodiy tamoyillarini realistik uslubga bevosita qarama-qarshi qo‘yib, modernizm platformasini tashkil etdi. A. Bennet, G. Uells, J. Golsuorsi kabi yozuvchilar ijodidagi asosiy kamchilik, uning fikricha, dolzarb ijtimoiy va axloqiy muammolarning qo‘yilishidir. Badiiy tasvir mavzusi, uning fikricha, tez sodir bo‘ladigan ruhiy kechinmalarning eng yaxshi namunasi bo‘lishi kerak [10].

Realist yozuvchilar bir ovozdan modernistlar tomonidan adabiyotning axloqiy mazmunini buzayotganiga, adabiy personaj chegaralarining xiralashishiga qarshi chiqdilar. Ko‘p o‘tmay, burjua tanqidining sa’y-harakatlari bu qizg‘in muhokamada asarning rasmiy qurilishiga yondashuvdagi farqlarni birinchi o‘ringa olib chiqdi. Adabiyotda allaqachon mavjud bo‘lgan texnik konvensiyalar orqali, modernistlar ularni absurd darajasiga ko‘tardilar, shuningdek, syujet, uslub va axloqiy qonunlar haqidagi an’anaviy tushunchalarni rad etdilar. Modernistlarning psevdoinnovatsiyasi burjua tanqidi bilan qalqon darajasiga ko‘tarildi. Biroq eng mulohazali adabiyotshunos olimlar modernizm va realizm o‘rtasidagi asosiy farq inson shaxsiga qarama-qarshi yondashuv ekanligini aniqladilar. Antigumanizm, ijtimoiy faol pozitsiyadan chekinish – bular modernizmning asosiy farqlovchi belgilaridir.

Eng iqtidorli modernist oqimi vakillaridan biri, bu shubhasiz, irlandiyalik adib Jeyms Joys bo‘lib, o‘z vatanini ilk adabiy faoliyati chog‘ida erta tark etdi. J. Joysning hayotga bunday skeptik munosabatda bo‘lishiga sabab bo‘lgan sabablar turlicha. Ulardan biri, bizningcha, qul bo‘lgan irland xalqining baxtsiz taqdiri uning qalbida achchiq umidsizlik hissi uyg‘otgan edi. Jeyms Joys o‘zining realistik uslubda yozgan hikoyalarida mohir psixolog sifatida namoyon bo‘ldi. Biroq tez orada o‘z xalqiga hamdardlik, ularning taqdiri uchun qayg‘urish, umuman, insonga nisbatan shubha, istehzoli ironiya bilan almashdi. Joys asarlarida monologik, dialogik nutqlardan unumli va o‘rinli foydalanadi. Ana shu nutqlar orqali qahramonlarining ichki olamini bilib olamiz.

Zamonaviy adabiyot uchun, asosan, o‘tmish yozuvchilari yutuqlariga asoslangan J. Joys qalamiga mansub “*O‘liklar*” (*The Dead*) hikoyasi psixologik nasr namunalaridan biriga aylandi. Ushbu hikoya irland ruhiyati haqida ajoyib tasavvur uyg‘otadigan, pedagog va jurnalist Gabriel Konroyning o‘z-o‘zini anglashi haqidadir. J. Joys hikoyasi qahramonning psixologik holatlaridagi ketma-ket o‘zgarishlarga asoslangan. Konroyning ijtimoiy muvaffaqiyatsizligini ko‘rsatib, yozuvchi uning shaxsiy insoniy fazilatlarini sinab ko‘radi. Qahramon rafiqasi bilan ochiq suhbati chog‘ida hikoyaning birinchi sahifalarida Joys yaratgan obrazga mutlaqo zid ekanligining guvohi bo‘lamiz.

Xulosa. Insoniy iztiroblarni talqin qilish insonning barcha faoliyati - ruhiy holati, borliqqa va odamlarga bo‘lgan munosabati, o‘y-fikri, ichki kechinmalari, hatto muhabbatini talqin qilish demakdir. Chunki insonning birorta faoliyati u va bu ma’noda iztirobsiz kechmaydi. Yozuvchi o‘z qahramonlarini xolisona tirik, hayotiy, jonli odam sifatida tasvirlaydi. Ularning qanday odam ekanliklarini zohiriy emas, botiniy yoritadi. Ya’ni, ruhiy olamini muhit, davr bilan uyg‘unlikda katta falsafiy mushohada asosida teran tahlil qiladi. Ijodkorlarning badiiy psixologizmga qiziqishlarining bosh omili sifatida shuni qayd etishimiz mumkinki, tasvirlanayotgan obraz, qahramonning ruhiy dunyosiga chuqur kirib borilsagina, masalaning mohiyati teran anglanadi, voqea-hodisalarning yuzaga kelish sabablari yorqinroq tasvirlanadi. Biroq ma’lum tarixiy davrlarda psixologizm muammosiga qiziqish kuchaygan yoki uning sezilarli darajada pasayishi kuzatilganini ta’kidlash joizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асқад Мухтор. Адибнинг кўнгил дафтаридан // Тошкент оқшоми. –Тошкент, 1980. - 23 дек.
2. Асқад Мухтор. Ёш дўстларимга. –Тошкент, 1971. – Б. 72.
3. Bradbury M. The Social Context of Modern English Literature. Oxford: Blackwell, 1971, p. 277.
4. Edel L. The Psychological Novel 1900-1950, Lippincott: 1955, p.221.
5. Иезуитов А. Проблема психологизма в эстетике и литературе. В кн. : Проблемы психологизма в советской литературе. - Л., 1970. – С. 48.
6. Фрейд З. О психоанализе// Зигмунд Фрейд. Я и Оно - М.; Харьков, 1998. – С. 328
7. Umurov H., Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi. –Toshkent: Fan, -1983. - 147 b.
8. Quronov D., Rahmonov B. G‘arb adabiy tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari (o‘quv qo‘llanma-xrestomatiya). – Toshkent, 2008. – 316 b.
9. Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti manzaralari. – Toshkent, 2013. – B. 373.
10. Woolf V. The Common Reader. L., 1938. – P. 190.

XIX ASR O‘ZBEK IJTIMOIY-SIYOSIY LEKSIKASINING TEMATIK GURUHLARGA AJRATILISHI

Usmonova Mohira Kenjayevna
Qarshi davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID 0009-0006-1846-7719
usmanovamohira@gmail.com
UDK 811.512.1’373.45(091)

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek adabiy tilida shakllangan ijtimoiy-siyosiy leksika tematik guruhlarga ajratilgan holda lingvistik tahlil etiladi. Tarixiy va ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar natijasida o‘zbek tiliga kirib kelgan va faol ishlatilgan mansab-martaba nomlari, harbiy atamalar, ma’muriy-hududiy birliklar, sinfiy-siyosiy qatlamlarni bildiruvchi terminlar va hukumat organlari nomlari semantik maydonlar asosida tasniflanadi. Tadqiqotda XIX asr ijtimoiy hayotining tilga aks etishiga sezilarli hissa qo‘shgan Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi ilg‘or adabiy ijodkorlarning asarlari asosiy lingvistik material sifatida o‘rganiladi. Leksik birliklarning kelib chiqish manbalari – turkiy, arabiy, forsiy va rus tillari bo‘yicha o‘z va o‘zlashgan qatlamlarga bo‘linishi orqali ularning etimologik asoslari ham yoritiladi. Maqola ijtimoiy-siyosiy leksikaning tarixiy rivoji, uning mavzu doirasidagi shakllanishi va til tizimidagi o‘rnini ko‘rsatishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: XIX asr o‘zbek adabiy tili, ijtimoiy-siyosiy leksika, tematik tasnif, mansab-martaba atamalari, leksik tizim, o‘zlashma so‘zlar, adabiy manbalar asosidagi lingvistik tahlil

THE THEMATIC CLASSIFICATION OF 19th-CENTURY UZBEK SOCIO-POLITICAL VOCABULARY

Abstract. This article analyzes the socio-political vocabulary used in the Uzbek literary language of the second half of the 19th century through thematic classification. As a result of historical and socio-political changes, various lexical units—titles and ranks, military terms, administrative divisions, class-related terminology, and names of government institutions—became actively used and are here systematized according to semantic fields. Literary works by progressive authors such as Muqimiy, Furqat, Zavqiy, and Nodim, who reflected the socio-political realities of the time in their language, serve as the main source for this linguistic study. The vocabulary is divided into native and borrowed layers based on their etymological origins, including Turkic, Arabic, Persian, and Russian elements. The article aims to demonstrate the historical development of Uzbek socio-political vocabulary, highlighting the thematic scope and its functional role within the broader lexical system of the literary language of the era.

Keywords: 19th-century Uzbek literary language, socio-political vocabulary, thematic classification, titles and ranks, lexical system, loanwords, linguistic analysis based on literary sources

5. Karimov E. *Fitrat dramaturgiyasi: tarixiy-falsafiy tahlil*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – 208 b.
6. Jo‘raqulov U. *Fitrat konsepsiyasi va tarixiy tafakkur*. – Samarqand: Zarafshon, 2022. – 190 b.
7. Kenjaev T. A. *Adabiyotshunoslikda ilmiy-biografik manbalarni qayta baholash muammosi (Fitratshunoslik misolida)*: PhD dissertatsiya. – Toshkent: 2025. – 145 b.
8. Abdurauf Fitrat. Asarlar. 2 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2018. – 448 b.
9. Karimov N. O‘zbek adabiy tanqidchiligi: tarix va talqin. – Toshkent: Fan, 2007. – 240 b.
10. Xoldorov Q. Jadid adabiyoti va zamonaviylik. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021. – 192 b.

O‘ZBEK ME’YORIY LUG‘ATCHILIGI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Baxriddinova Bashorat
Qarshi davlat universiteti, professor
filologiya fanlari doktori
baxriddinova74@mail.ru
ORCID 0000-0003-3619-4102

UDK 811.512.133

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda o‘zbek adabiy tilining huquqiy-me’yoriy asoslari, joriy imlo me’yorlari, ularni takomillashtirish hamda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish va muloqot madaniyatiga o‘rgatishning muhim vositasi, yozma nutq ilmiy me’yorlarining huquqiy asosi hisoblangan imlo lug‘atlari, xususan, maktab imlo lug‘atchiligi tanqidiy nuqtayi nazardan o‘rganiladi. Bu borada mavjud muammolar, ularning ilmiy, amaliy yechimlari xususida so‘z boradi. Zamonaviy tilshunoslikda nutqning to‘g‘riligi haqidagi mavjud nazariyalarning qay darajada ustuvorligi, o‘zbek tili ilmiy me’yorlarining til tizimi va uzus bilan bog‘liq ravishda harakatdagi va tarixiy o‘zgaruvchanligini hisobga olib yangi imlo qoidalarini ishlab chiqish, mamlakatimizda me’yoriy lug‘atlar nashrini qat’iy nazoratga olish, lug‘at qonunchiligi darajasiga ko‘tarish zarurati yoritiladi. Bu esa amaliy tilshunoslikning imloga doir ilmiy-nazariy tavsiflarni ishlab chiqish bilan bir paytda ularni amaliyotga kiritish, tadbiq qilish jarayonlarini ham qamrab oladigan ortologiya, ortografiya, lingvodidaktika, pedagogik leksikografiya kabi yo‘nalishlarining hamkorlikdagi faoliyati bilan bog‘liq ekani ilmiy asoslanadi.

Kalit so‘zlar: imlo lug‘ati, me’yoriy lug‘at, lug‘at qonunchiligi, o‘quv lug‘ati, akademik imlo lug‘ati, o‘quv imlo lug‘ati, katta lug‘at, kichik lug‘at, orfografik minimum, ortologiya, ortografiya, lingvodidaktika, pedagogik leksikografiya, antropotsentrik lug‘at, varvarizmlar

UZBEK ORTHOLOGICAL LEXICOGRAPHY: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Abstract. The article critically examines the legal and normative foundations of the Uzbek literary language, current spelling standards, their improvement and an important tool for the formation of communicative competence and teaching a culture of communication, spelling dictionaries, in particular, school spelling dictionaries, which are considered the legal basis of scientific standards of written speech. The article discusses the existing problems in this regard, their scientific and practical solutions. The article discusses the priority of existing theories of speech correctness in modern linguistics, the need to develop new spelling rules, taking into account the dynamic and historical variability of the scientific standards of the Uzbek language in relation to the language system and the need to strictly control the publication of normative dictionaries in our country, and to raise the dictionary to the level of legislation. This is scientifically justified by the fact that it is related to the collaborative work of such areas of applied linguistics as orthology, orthography, lingodidactics, and pedagogical lexicography, which simultaneously cover the development of scientific and theoretical descriptions of spelling, as well as the processes of their implementation and application**.**

Key words: spelling dictionary, normative dictionary, dictionary legislation, educational dictionary, academic spelling dictionary, educational spelling dictionary, large dictionary, small dictionary, orthographic minimum, orthology, orthography, linguistic didactics, pedagogical lexicography, anthropocentric dictionary, barbarisms

Kirish. Ma’lumki, leksikografiya taraqqiyoti – bu jamiyat, millat, ilm-fan taraqqiyoti degani. Ya’ni muayyan tilda muayyan tipdagi lug‘atga ehtiyoj paydo bo‘libdimi, demak, mamlakatda shu soha rivojlanyapti. Bugungi kunda amaliy leksikografiya shu qadar taraqqiy etdiki, hatto bir lug‘atning deyarli qayta ishlanmagan yangi nashri nomiga *katta, kichik, o‘quv, akademik, universal, zamonaviy, yangi, eng yangi* kabi foydalanuvchining diqqatini jalb qilish, raqobat muhitida yutib chiqishga qaratilgan jumlalar qo‘shilgan son-sanoqsiz nashrlari yuzaga keldi. Biroq ushbu lug‘atlarning sifati qay darajada, ularning ishonchliligi kafolatlanlanganmi? Umuman, lug‘at nashri va lug‘at tijoratini qaysi tashkilot nazorat qiladi? Bunday vaziyatda ushbu savollarning tug‘ilishi tabiiy.

Kitob javonlari va elektron kitob do‘konlarni kuzatsangiz, eng ko‘p qidirilayotgan, eng katta daromad keltirayotgan kitob – lug‘atlar ekanining guvohi bo‘lasiz. Shak-shubhasiz aytish mumkinki, ayni paytda nashriyotlar uchun lug‘at savdosi eng serdaromad soha, lug‘atlar tijorat vositasiga aylandi. Shuni unutmaslik kerakki, lug‘at talabdan kelib chiqib taklif qilinayotgan faqat tijorat manbai emas, u, birinchi navbatda, o‘zi yaratilgan davrning ko‘zgusi hamdir. Agar gap hammamiz maktabda ilk bor uchratgan lug‘atimiz, tilning ilmiy me’yorlari, joriy imloning huquqiy asosi hisoblangan imlo lug‘atlari haqida ketayotgan bo‘lsa-chi?

Tadqiqot metodologiyasi. Turkiy, jumladan, o‘zbek meyoriy lug‘atchiligining shakllanish tarixi garchi XI-XII asrlarga (M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, M.Zamahshariyning “Muqaddimatul adab” va boshq.), borib taqalsa-da, bevosita o‘zbek tilida ilk meyoriy lug‘atlarning tuzilishi o‘tgan asrning 40-yillariga to‘g‘ri keladi. Xususan, imlo, adabiy talaffuz meyorlarining shakllanishida S.Ibrohimov, E.Begmatov, H.Uzoqov, A.G‘ulomov, M.Asomiddinova, O‘.Usmonovlarning (1; 2; 3; 4; 5; 6) ishlari, yozma nutqning punktuatsion meyorlarining shakllanishida K.Nazarov, Sh.Shoabdurahmonovlarning ishlari (7; 8), leksik va frazeologik meyorlar taraqqiyotida U.Tursunov, A.Mamatov, A.Madvaliyev (9; 10; 11), nutq madaniyati, stilistik meyorlar taraqqiyotida I.Qo‘chqortoyev, R.Qo‘ng‘urov, S.Karimov (12; 13) va boshqalarning xizmati katta bo‘lgan.

Taniqli lug‘atshunoslar V.A.Kozirev va V.D.Chernyaklarning “Ortologik lug‘at va nutq madaniyati” nomli maqolasida mualliflar so‘nggi yillarda nutqiy savodxonlikka o‘rgatish bilan bog‘liq lug‘atlar taqchilligi o‘ziga xos “leksikografik portlash”ni yuzaga keltirgani, kitob javonlarida sanoqsiz imlo lug‘atlari mavjud bo‘lsa-da, ularning barchasi ishonchli emasligini afsus bilan ta’kidlaydilar (14). Modomiki, leksikografiya sohasidagi yutuqlari bilan jahon leksikografiyasida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lgan tilda imlo lug‘atlari ishonchliligiga kafolat yo‘q ekan, bugungi kunda o‘zbek adabiy tilining huquqiy-me’yoriy asoslari qay darajada mustahkam, o‘zbek tilida adabiy tilning imloviy me’yorlarini belgilash, barqarorlashtirish, takomillashtirish hamda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish va muloqot madaniyatiga o‘rgatishning muhim vositasi, yozma nutq ilmiy me’yorlarining huquqiy asosi hisoblangan imlo lug‘atlarimiz, xususan, maktab imlo lug‘atchiligi ahvoli qay darajada, bu borada qanday muammolarimiz bor, uning ilmiy, amaliy yechimlari nima bilan bog‘liq? Zamonaviy tilshunoslikda o‘zbek tili ilmiy me’yorlarining til tizimi va uzus bilan bog‘liq ravishda harakatdagi va tarixiy o‘zgaruvchanligini o‘rganish yuzasidan qanday ishlar amalga oshirilyapti, nutqning to‘g‘riligi haqidagi mavjud nazariyalar qay darajada ustuvor? Bu kabi savollarning kun tartibiga qo‘yilishi tabiiy, albatta.

Natijalar va muhokama. Imlo lug‘ati adabiy rasmiy tilning yozma shaklidagi barqarorlikni ta’minlaydi, me’yorni belgilab beradi. U imlo qoidasiga mos yaratiladi. Imlo qoidasi huquqiy asosga ega, u hukumat qorori bilan tasdiqlanadi va shundan keyin kuchga kiradi, tuzilayotgan imlo lug‘atlari uchun asos vazifasini o‘taydi. Afsus bilan aytish kerakki, so‘nggi yillarda mutaxassis sifatida bizga berilayotgan eng og‘riqli, eng ko‘ngilni g‘ash qiladigan savollardan biri – “Qaysi imlo lug‘ati to‘g‘ri?”. Bu qanaqa savol? Nahotki imlo lug‘ati bo‘ladi-yu, uning to‘g‘ri-noto‘g‘risi bo‘lsa!

Haqiqatan ham bugungi kunda o‘zbek tili rasmiy amal qilinadigan doiralarda biz qaysi imlo lug‘atiga asosan ish ko‘rishimiz kerak?! So‘nggi besh-o‘n yil ichida turli mualliflar tomonidan yigirmaga yaqin katta-kichik imlo lug‘atlari nashr etilgan. Deyarli barchasining birinchi sahifasida “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Ilmiy kengashi nashrga tavsiya etgan” deb yozib qo‘yilgan. Ularning hammasi amalda, birortasi rasman inkor etilmagan. Yuqoridagi kabi savollaring o‘z-o‘zidan tug‘ilmayotganini mazkur lug‘atlarda bir necha so‘zning imlosidagi tafovutlarni keltirish bilan asoslash qiyin emas.

Eng ko‘p murojaat qilinayotgan elektron lug‘atlar, veb-muharrir, turli mobil qurilmalarda ishlashga mo‘ljallangan, matndagi ham imloviy, ham uslubiy xatolarni tuzatish, savodxon yozish uchun xizmat qiladigan matn tekshiruvi dasturlari haqida ham shu gapni aytish mumkin. Negaki ularning lingvistik ta’minoti yuqoridagi lug‘atlarga borib taqaladi. Imlo lug‘atini xohlagan kishi, xohlagan paytida qayta-qayta o‘zgartirib nashr etaverishga haqli emas! Bu nafaqat ziyoli qatlamni chalg‘itadi, balki o‘qish-o‘qitish ishlariga ta’sir etadi, eng asosiysi, milliy til me’yorlarining qat’iyligiga putur yetkizadi. Ayni paytda bir necha imlo lug‘atining rasman amalda ekani yuqorida aytilganidek “Qaysi imlo lug‘ati to‘g‘ri?” degan g‘ayriodatiy savolning yuzaga kelishiga sabab bo‘lyapti. Ochig‘i, hozir *sentabrmi, sentabrmi* degan savolga aniq javob bera olmasligimiz achinarli.

O‘zbek adabiy tilining joriy me’yorlarini mustahkamlash, yozma va og‘zaki nutqning amaldagi qoidalarini takomillashtirish vazifasini bajaruvchi ortologik vositalar – me’yoriy lug‘atlarni tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullanuvchi imlo lug‘atchiligimizning naqadar ayanchli ahvoldaligini allaqanday havaskor lug‘atchilar tomonidan tijoriy maqsadda nashrga tayyorlangan saviyasi haminqadar bo‘lgan lug‘atlar asosida emas, respublikada me’yoriy lug‘atlarni chop etishga mas’ul, bu sohaga yo‘naltirilayotgan katta-katta mablag‘lardan foydalanish imkoni yuqori bo‘lgan, sohaning eng yetuk mutaxassislari tomonidan tuzilgan imlo lug‘atlari misolida asoslashga harakat qilamiz.

1976-yilda S.I.Ibrohimov rahbarligida nashrga tayyorlangan kirill yozuvidagi 65 ming so‘zlikka ega, o‘z davri uchun akademik imlo lug‘ati maqomida bo‘lgan eng so‘nggi va mukammal imlo lug‘ati – “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” so‘zboshisida quyidagi jumlalarni o‘qiymiz: “Adabiy tilning imloviy normalarini belgilash nihoyatda qiyin va mas’uliyatli ishdir. Imlo masalalari o‘zbek tilshunosligida hali yetarli ishlanmagan va ilmiy umumlashtirilgan emas. (ta’kid bizniki – B.B.) Asar mualliflari buni to‘lig‘icha his etishadi va lug‘atda berilgan ba’zi so‘zlarning imloviy shakllari haqida boshqacharoq qarashlarning bo‘lishi ehtimolligini inkor etishmaydi” (15, 6).

Mazkur lug‘at chop etilgandan salkam qirq yil o‘tib – 2013-yilda professor N.Mahmudov tahriri ostida E.A.Begmatov va A.P.Madvaliyevlar muallifligida nashr etilgan imlo lug‘ati so‘zboshisida yana aynan shu kabi jumlalar takrorlanadi: “Adabiy tilning imloviy me’yorlarini belgilash g‘oyatda mas’uliyatli va qiyin ishdir. O‘zbek lug‘atchiligi tarixida hozirga qadar turli tipdagi o‘nlab imlo lug‘atlari tuzilgan bo‘lsa-da, bu tip lug‘atlarni tuzishning ilmiy asos va tamoyillari, lug‘atga kiritish lozim bo‘lgan materialning xarakteri va tarkibi, imlo lug‘atlari bilan kundalik yozuv amaliyotida yuz beradigan tafovutlar va ushbu asosda imlo qoidalarini takomillashtirib borish kabi ko‘pgina masalalar o‘zbek tilshunosligida hali yetarli tadqiq qilinmagan hamda nazariy asoslanmagan (ta’kid bizniki – B.B.)” (16, 4)

Oradan yana o‘n yil o‘tib 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Ilmiy kengashi tavsiyasiga ko‘ra Davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti buyurtmasiga binoan O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan nashr etilgan “27 000 ortiq (lug‘at sarvarag‘ida aynan shunday yozilgan!) so‘z va so‘zshakllarning to‘g‘ri yozilishi ko‘rsatib berilgan” “O‘zbek tilining o‘quv imlo lug‘ati” so‘zboshisida yana aynan yuqoridagi havolani uchratamiz: “Adabiy tilning imloviy me’yorlarini belgilash g‘oyatda mas’uliyatli va qiyin ishdir. O‘zbek lug‘atchiligi tarixida hozirga qadar turli tipdagi o‘nlab imlo lug‘atlari tuzilgan bo‘lsa-da, bu tip lug‘atlarni tuzishning ilmiy asos va tamoyillari, lug‘atga kiritish lozim bo‘lgan materialning xarakteri va tarkibi, imlo lug‘atlari bilan kundalik yozuv amaliyotida yuz beradigan tafovutlar va shularga bog‘liq holda imlo qoidalarini takomillashtirib borish kabi ko‘pgina masalalar o‘zbek tilshunosligida hali yetarli tadqiq qilinmagan (ta’kid bizniki – B.B.)”. (17, 5)

Xo‘sh, biz qachongacha “bu tip lug‘atlarni tuzishning ilmiy asos va tamoyillari, lug‘atga kiritish lozim bo‘lgan materialning xarakteri va tarkibi, imlo lug‘atlari bilan kundalik yozuv amaliyotida yuz beradigan tafovutlar va shularga bog‘liq holda imlo qoidalarini takomillashtirib borish kabi ko‘pgina masalalar o‘zbek tilshunosligida hali yetarli tadqiq qilinmagan” deb vaziyatdan chiqamiz?

O‘zbek tili imlo lug‘atchiligi tarixida eng katta nusxada nashrga tayyorlangan, nashri davlat tomonidan moliyalashtirilgan yuqorida keltirilgan uch lug‘atda ellik yildan buyon biridan ikkinchisiga ko‘chib yurgan satrlarning o‘ziyoq o‘zbek tilida imlo lug‘atchiligi ahvoli qay darajada ekanini ochiq-ravshan ko‘rsatmayaptimi? Yarim asr o‘tib ham bu tip lug‘atlarni tuzishning ilmiy asos va tamoyillari o‘zbek tilshunosligida hali yetarli tadqiq qilinmagan hamda nazariy

asoslanmagan bo‘lsa, imlo lug‘atlarida nima ayb?! Buni yana qancha kutish mumkin? Alifbodagi to‘rtta harfni o‘zgartirish ustida besh-olti yildan buyon bir qarorga kela olmayotgan tilshunosligimiz qachon imloni tartibga solishga diqqatini qaratadi? Qachon adabiy tilning oynasi bo‘lgan yozma savodxonlikni oshirish, antropotsentrik paradigmaning asosiy tadqiq omili til egasi – insonning tildan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatishga qaratilgan haqiqiy amaliy tadqiqotlarga yo‘l ochib beramiz?

Imloga doir asosiy muammolar o‘zlashma so‘zlarning yozilishi doirasida kuzatilmoqda. Joriy imlo qoidalari bo‘yicha yozilishida muammo yuzaga kelayotgan aksariyat so‘zlar asli lotincha bo‘lib, rus orfografiyasi prinsiplari asosida yozilgan, o‘zbek tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, vositachi til – rus tili orqali o‘zlashgan. Ikki undosh o‘rtasida *y* orttiriladigan so‘zlarni yozishda bir prinsip asosida yondashib bo‘lmaydi. Bu so‘zlarning aksariyati lotincha bo‘lib *y* siz yozilgan: *alumen aluminis*. Inglizcha lug‘atda *aluminium*. Rus tilida *алюминий*. O‘zbek tilida *aluminiy* shaklini tanlagan ma’qul. Ba’zi so‘zlar imlosini belgilashda fonetik xususiyatiga ham qarash kerak. Ba’zan u ni tushirish so‘z etimologiyasiga ta’sir etishi ham mumkin: *avantyurizm – avanturizm*.

O‘zbek tilining imlo qoidalari tasdiqlangandan so‘ng nashr qilingan imlo lug‘atlarida nutqimizda faol ishlatiladigan ko‘pgina o‘zlashma so‘zlarning imlosi belgilangan bo‘lib, ular lug‘at boshida berilgan imlo qoidalariga mos edi. Ayrim so‘zlar imlosi talaffuz uchun erish tuyulsa-da (*октябрь/oktabr, тюлень/tulen, шляпа/shlapa, этюд/etud, пляж/plaj, дюйм/duym*), o‘tgan davr mobaynida mazkur lug‘at asosida yaratilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, ommaviy axborot vositalari sabab omma shu shaklga moslasha boshlagan edi. Mazkur lug‘at ayrim kamchiliklardan xoli bo‘lmasa ham, imloda asosiy muammo keltirib chiqarayotgan tarkibida *e, ё, ю, я* grafemalari ishtirok etgan so‘zlar imlosini belgilashda xalq jonli talaffuzini inobatga olgan holda bitta prinsipdan kelib chiqib yondashilmagan edi. Masalan, *byuro, byurokrat, byust, gravyura, dvoryan, kompyuter, plyonka* so‘zlari va *glukoza, aluminiy, rukzak, illuziya, sujet, parashut, agglutinativ* so‘zlari imlosini belgilashda individual yondashilgan edi.

Shuningdek, arab yoki fors-tojik tilidan o‘zlashgan qator imlosi muammoli so‘zlar, masalan, *talafot-talofat-talofot, naqorat-naqarot, hashorat-hasharot, junbish-jumbish-junbush, arosat-arasot* kabi so‘zlarning, qolaversa, nafaqat tor doiralar hatto rasmiy doiralarda tilning joriy ilmiy me’yorlarini “nazar-pisand qilmay” qo‘llanishi ommalashayotgan so‘z: *Google, beeline, usell, e-mail, You Tube, Chrom, Galaxy, SHAREit, telegramm, Wi-Fi, WhatsApp, Iphon (ayfon), Windows;* jumla*: Мы открылись, Мой сам, I ❤ Qarshi;* chala o‘zlashma*: siti, sorri, gud bay, bay-bay, o key, chao, pliz, mersi* kabi turli ko‘rinishdagi termin-varvarizmlarning ilmiy asoslangan ortologik shaklini belgilash zamonaviy o‘zbek ortografiyasining dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Yuqoridagilar mustaqil davlatning rasmiy tili bo‘lgan ona tilimizning ilmiy me’yorlarini belgilab beradigan yagona va mukammal imlo lug‘atini yaratish yoki ular ichidan eng ma’qulini tanlab rasman e’lon qilishni talab etadi. Bir paytda bir necha mualliflarning subyektiv yondashuvi asosida tuzilgan imlo lug‘atining rasman amalda bo‘lishi imloni izdan chiqarishi tabiiy.

Xulosa va takliflar. Dunyoning aksariyat rivojlangan davlatlarida me’yoriy lug‘atlar, aynan orfografik lug‘atlarni tayyorlash va chop etish hukumat nazoratidagi strategik masalalardan hisoblanadi. Masalan, Amerikada *lug‘at qonunchiligi* degan tushuncha shakllangan bo‘lib, hozirga qadar S.Jonson lug‘ati (“A Dictionary of the English Language”, 1755) imlo lug‘atlarini yaratish uchun me’yoriy-huquqiy asos bo‘lib kelmoqda. Ingliz tilida ayni paytda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan imlo lug‘atlarining aksariyati “Barrington Stoke” bolalar nashriyoti tomonidan nashr etilsa, maktab o‘quvchilariga mo‘ljallangan lug‘atlar, odatda, Oksford universiteti nashriyotida “Oxford Dictionaries” seriyasida chop etiladi. (18) Lug‘at qonunchiligi bilan bog‘liq ushbu tajriba Rossiyada ham amalda. Rossiyada Ta’lim va fan vazirligi me’yoriy lug‘atlarni aprobatsiyadan o‘tkazish va chop etish bo‘yicha yagona tizimni shakllantirgan bo‘lib, bu vazifa bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lgan nashriyotlar ro‘yxatini tasdiqlagan. Unga ko‘ra ayni paytda zamonaviy rus tilidan foydalanilganda Rossiya Federatsiyasining davlat tili darajasida yondashadigan maxsus tashkilotlar – Rossiya Fanlar akademiyasining Rus tili instituti, “AST-PRESS”, “Flinta” nashriyotlari ushbu huquqni qo‘lga kiritgan.

Leksikograflar, odatda, til qonuniyatlarini me’yorda ushlab turish tarafdori bo‘ladi, til esa turli yo‘l bilan tinimsiz boyib, taraqqiy etib boradi. Bu, o‘z-o‘zidan, me’yorlarni mutlaqlashtirmaslik, muayyan davrlarda isloh qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Tilda imlosi muammoli so‘zlar talay. Imlo lug‘ati tilda paydo bo‘lgan yangi so‘zni zudlik bilan qamrab ola

olmaydi. Ziyoli qatlam, omma uni o‘zicha transliteratsiya qila boshlaydi. Aslida me’yor amaliyotga asoslanadi, uzusdan kelib chiqadi. Agar tilda lug‘atda aks etmagan muayyan so‘zni ko‘pchilik muayyan shaklda yozishga odatlangan bo‘lsa, shu shakl ortogramma sifatida tan olinadi.

Yuqoridagilar mamlakatimizda me’yoriy lug‘atlar nashrini qat’iy nazoratga olish, lug‘at qonunchiligi darajasiga ko‘tarish, mamlakatning eng kuchli, nufuzli olimlari, pedagoglarini unga jalb qilish, eng ishonchli nashriyotlar va ilmiy tadqiqot markazlariga mazkur ish bilan shug‘ullanish huquqi berish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shuning o‘ziyoq bugungi kunda amaliy tilshunoslikning imloga doir ilmiy-nazariy tavsiflarni ishlab chiqish bilan bir paytda ularni amaliyotga kiritish, tadbiq qilish jarayonlarini ham qamrab oladigan ortologiya, ortografiya, lingvodidaktika, pedagogik leksikografiya kabi zamonaviy yo‘nalishlarini mamlakatning bevosita til siyosatini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan sohalari sifatida tan olinishi, bu sohaga oid tadqiqotlarning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, moliyalashtirilishi, huquqiy kafolatining ta’minlanishini taqazo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Иброҳимов С. Нутқ маданияти ва адабий талаффуз ҳақида. – Тошкент: Фан, 1972. –54 б.
2. Бегматов Э. Адабий талаффуз маданияти. – Тошкент, 1982.
3. Усмонова Ў. Талаффуз нормаларини белгилаш масаласига доир // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1975. 6-сон.
4. Узоқов Ҳ. Ўзаро муомала ва орфоэпик нормалар. // ТошДУ илмий асарлари, №586 – Тошкент, 1979.
5. Ғуломов А. Адабий тил нормалари “Нутқ маданиятига оид масалалар”. Илмий тўплам. –Тошкент: Фан, 1973. – Б. 55-65
6. Асомиддинова М. ва бошқ. Ўзбек адабий талаффузи луғати. – Тошкент, 1984.
7. Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. –Тошкент: Фан, 1974.
8. Шоабдураҳмонов Ш. Пунктуация қоидалари. – Тошкент: Ўқувпеддавнашр, 1953.
9. Турсунов У., Ўринбоев Б. Навоий асарлари тилида лексик ва грамматик нормаларнинг белгиланиши // СамДУ асарлари, янги серия, №188. - Самарқанд, 1971. – Б. 3-7.
10. Маматов А. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: Фан, 1991. – **272** б.
11. Мадвалиев А. Ўзбек химия терминологияси ва унинг нормалашуви масалалари: фан номз. дисс. автор. – Тошкент, 1986.
12. Қўчқортоев И. Адабий тилнинг стилистик табақаланиши ва нутқ маданияти // “Нутқ маданиятига оид масалалар”. Илмий тўплам. –Тошкент: Фан, 1973. – Б.102-109.
13. Каримов С.А. Тил таълими ва меъёр. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – 267 б.
14. Козырев В.А., Черняк В.Д. Ортологический словарь и речевая культура. Образование и русский язык. – С.19-25. // https://cyberleninka.ru/article/n/
15. Иброҳимов С.И., Бегматов Э.А., Аҳмедов А.А. Ўзбек тилининг имло луғати. – Тошкент: “Фан”, 1976, 632 б.
16. Begmatov E.A., Madvaliyev A.P. O‘zbek tilining imlo lug‘ati (85000 so‘z) / N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 528 b.
17. O‘zbek tilining o‘quv imlo lug‘ati. A.Madvaliyev, Y.Odilov, A.Saidno‘monov. Muharrir N.Mahmudov. – Toshkent: Kafolat print company, 2023. – 412 b.
18. Robert Allen. Oxford School Spelling Dictionary. Oxford Dictionaries. Oxford University Press, USA; Revised edition, 2008. – P. 288.

BADIIY ASARDA QAHRAMON VA MA’NAVIY MEZONLAR SINTEZI

(Nazar Eshonqul hikoyalari misolida)

Shahanov Bobur Choriyevich

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Mustaqil tadqiqotchi

bobur shahanov@gmail.com

ORCID 0000-0003-1234-5678

UDK 82-311.3(575)

Annotatsiya. Mazkur maqola o‘zbek zamonaviy adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lgan Nazar Eshonqul ijodini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda yozuvchining hikoyalarida qahramon obrazining shakllanish jarayoni hamda bu obrazlar orqali ifodalangan ma’naviy mezonlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yoritiladi. Tadqiqotda badiiy qahramonlarning ruhiy iztiroblari, ichki ziddiyatlari va ularning jamiyatga, axloqiy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati chuqur tahlil qilinadi. Xususan, “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Sibizg‘a volasi”, “Maynum yetaklagan odam” kabi hikoyalar misolida ma’naviy inqiroz,

qadriyatlar tanazzuli, insoniylik, vijdon, sabr-toqat, haqiqat kabi tushunchalarning qahramon xarakterlari orqali badiiy ifoda topgani ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Badiiy qahramon, ruhiy izlanish, ma’naviy mezon, falsafiy tafakkur, badiiy timsol, ruhiyat, vijdon, badiiy-estetik yondashuv.

THE SYNTHESIS OF THE LITERARY CHARACTER AND SPIRITUAL VALUES IN FICTION

Abstract. This article is dedicated to the analysis of the works of Nazar Eshonqul, one of the prominent figures in modern Uzbek literature. It explores the process of character development in his short stories and the intrinsic connection between the protagonists and the moral-spiritual values reflected through them. The study focuses on the psychological struggles and internal conflicts of the characters, as well as their attitudes toward society and ethical principles. In particular, stories such as *“Shamolni tutib bo‘lmaydi”*, *“Sibizg‘a volasi”*, and *“Maymun yetaklagan odam”* are analyzed to reveal how concepts like spiritual crisis, moral decline, humanity, conscience, patience, and truth are artistically represented through the characters.

Keywords: literary character, spiritual quest, moral values, philosophical reflection, artistic symbol, inner world, conscience, literary-aesthetic approach.

Kirish. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng adabiyot yangi rivojlanish yo‘liga o‘tdi, unda insonparvarlik, milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy-ma’rifiy uyg‘onish g‘oyalari asosiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Bu jarayonda davlat tomonidan adabiyot va madaniyatga qaratilgan e’tibor, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3721-sonli, 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli Qarorlari, 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni Adabiyotshunoslikka yangi ilmiy-uslubiy yondashuvlarni olib kirdi. Ushbu hujjatlarda milliy adabiyotga zamonaviy yondashuv, bugungi adiblar ijodini chuqur o‘rganish hamda keng targ‘ib qilish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qayd etilgan bo‘lib, shu nuqtaiy nazardan zamonaviy o‘zbek adabiyotining bugungi taraqqiyotida Nazar Eshonqul nomi alohida o‘rin tutadi. U o‘z ijodida badiiy-estetik tafakkur, falsafiy yondashuv, ramziy obraz va ruhiy teranlikni uyg‘unlashtirgan yozuvchilardan biridir. Yozuvchining asarlarida inson hayoti, mavjudlik ma’nosi, ichki kechinmalar, jamiyatdagi buzilishlar va ruhiy tanazzul kabi masalalar badiiy-estetik qatlamda ifodalanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Muayyan badiiy asar so‘z quvvat-hofizasi vositasida inson ma’naviy-axloqiy olami o‘zgarishlarini tasvirlaydi, ruhiy tahlil jarayonida g‘oya ta’sir o‘tkazish usuli aniq estetik vazifa bajaradi. Ta’rif, tavsif hamda talqin uyg‘unligi adabiy talqin xususiyatini belgilaydi, matn aslida muallif va kitobxon manfaatlarini birlashtiradi. Poetik sathda tayanch markaz sifatida qahramon voqea-hodisa, manzara-holat va tasvir-ifodani ma’lum bir maqsadga yig‘adi, bog‘lovchi vosita inson iroda yo‘nalishini tadqiqot obyektiga aylantiradi. Ijodiy serkulyatsiya inson-tabiat-jamiyat uchligini nozik kuzatish maydonidan jonli mushohada maxrajiga yo‘llaydi. Shu o‘rinda Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasini tahliliga e’tibor qaratamiz: “Yuz yildan beri Tersotalik g‘ururi va faxri bo‘lib kelgan, zamonaviy qilib qurilgan ravoqli uylar qarshisida yuzdagi chipqondek qishloqqa ko‘rimsizlik va keksalik bag‘ishlagan, noma’lum va mudhish sinoatga to‘la qadim qo‘rg‘onni eslatuvchi Bayna momo uyini go‘yo unutishga va yo‘q qilishga mahkum etilgan xotiradek nihoyat buzib tashlashga kirishishdi: temir tirnoqli buldozerlar uy devorlarini qulatar ekanlar, uy bilan qo‘shib, o‘zlari ham nimalarnidir buzib, vayron qilishayotgandek, tersotaliklar bir chekkada jimgina kuzatib turishar va naq ellik yilcha taqdir beshafqat o‘yiniga qarshi kurasha-kurasha dunyodan yolg‘iz va izsiz o‘tish azobini ko‘tarib kelgan, hayoti hamon o‘zlariga tushuniqsiz va mavhum tuyuladigan Bayna momoni eslagan ayollar ko‘zlariga yosh olib, bolalarini bag‘irlariga bosgancha, olis va g‘amgin xotiralarga berilib, mung‘aygan bir alfozda o‘tirardilar” [6 ,432 b] “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi sobiq Ittifoqqa qarshi dahshatli aybnomadek yangraydi. Kollektivlashtirish siyosati salbiy oqibatlari natijasida ham eri, ham o‘g‘lidan ajralgan Bayna momo qalbida adoqsiz nafrat uyg‘onadi. Tersota qishlog‘i Rayim polvonda gunoh yo‘qligini yaxshi bilar, biroq o‘rtaga chiqishga birortasi jur’at qilolmaydi. Badiiy voqelik ibtidosidan intihosigacha kuchli fojiaviy ruh yetakchilik qiladi, vaqtida qishloq oldi uyi bo‘lgan imorat asta-sekin salobatini yo‘qotadi. Oddiy kundalik tashvishlar bilan andarmon bo‘lgan qahramon bug‘doydan un chiqarish uchun borganda,

Ollomurod tegirmonchi birorta erkakka qo‘shib berib yuborsa, unni o‘zi olib borishini aytganda Bayna momo keskin javob beradi: “qishloqda erkak yo‘q!”. Davr-u davron Zamon otboqarniki bo‘lganda, qishloq ahli u bilan murosa qilishga majbur bo‘lishardi.

Muallif obraz mantig‘ini jamiyat talabidan keltirib chiqaradi, ayol to vafotiga qadar ham tersotaliklarni kechirmaydi. Ko‘zi va qalbini nafrat olovi to‘sgan yetakchi qahramon shuurini isyon egallaydi, biroq bu isyon ko‘ngilda g‘alayon ko‘taradi. Ishning ko‘zini biladigan, aqlli va iste’dodli kishilarni mahv etgan qattol siyosat o‘zidan “olis va g‘amgin xotira” qoldiradi. Yillar kesimida vijdon azobida qiynalgan, aybdorlik hissini tuygan qariyalar qahramon tobuti ortidan ergashib, zamona zayli beshafqatligidan iztirob chekishadi.

Nazar Eshonqulning asarlari qahramonlari zuvalasi yaqin moziy loyidan qorilgan, ularning aksariyati sobiq Ittifoq sharoitida o‘zlikdan uzoqlashgan, bir xillikka mahkum, ruhiy zo‘riqishdan zada bo‘lgan kimsalar sanaladi. Voqea-hodisani san’at tilida qayta shakllantirishga harakat qiladigan yozuvchi inson hayotidagi keskin burilish pallasi, favqulodda vaziyatni fokus sifatida tanlaydi, shu tariqa har bir matnda xarakter tadriji birinchi planga chiqadi.[8, 2154 b] Muallif mubolag‘a yordamida tafsilotga qo‘shimcha ma’no yuklamasini ortadi, ayanchli-murakkab kechmish qahramon tavsifini berish barobarida jamiyat tutumi tajovuzini ham aks ettiradi. Tasvirda ustuvor kontrast belgilar odamzod omiliga negativ munosabatni shakllantiradi, so‘z ifoda yurishlari irratsional idrokni taqdim qiladi:

“Men keyingi yillardagi suratlar shunchaki qo‘l chiqib ketmasligi uchun chizilgan bo‘lsa kerak, degan fikrga kelgandim; bu yillardagi suratlarda huvillab qolgan qishloqlar va ko‘chalar, egalari tashlab ketgan uylar, o‘ziga chorlab turgan qabristonlar, o‘lim isi kelib turgan har xil qurollar, yig‘layotgan ayollar va bolalar, biyday dalani bosib ketgan o‘laksaxo‘r quzg‘unlar, murdalar ortilgan aravalar, panjarali kameralar, qandaydir qo‘rquvdan (xuddi “Pompeyaning so‘nggi kuni” kabi) dong qotib qolgan olomon, sirli maxluqlar, yirtqich hayvonlar, yuzlariga har xil jondorlar niqoblarini kiyib olgan odamlar (karnaval bo‘lsa kerak, deb o‘ylagandim), bazmu jamshid qilib o‘tirgan shotirlar, aroq navlari, turli xil taomlar, yalang‘och ayollar, mas’uma qizlar, qovjirab qolgan gullar suratlari aks etgan edi. Bu suratlar ilhom yoki maqsad bilan chizilganiga ishonish qiyin edi”. [6, 8 b]

“Maymun yetaklagan odam” dagi muhim jihat unda voqealar birinchi planda emasligidir. Nazar Eshonqul asarini mutolaa qilar ekansiz, XX asr o‘ttizinchi yillarida yuqori lavozimlarda ishlagan, o‘zicha tasviriy san’at bilan shug‘ullanadigan nuroniy nochor hayoti, holati, xatti-harakatlaridan voqif bo‘lib borasiz. “Agar bir umr e’tiqod qo‘yib, shunga ishonib, kurashib, yonib-kuyib yashasangiz-u, bir kuni e’tiqod qo‘yganingiz puch, yolg‘on va puflab shishirilgan sharday omonat, siz ezgulik deb sig‘ingan narsalar asli razolat ekanligini anglab qolsangiz, unday demasdingiz: ana shunday, umringiz yomonlik bilan yaxshilik farqi qolmagan, xuddi yo‘ldan chiqib ketgan shaldur-shuldir, bo‘m-bo‘sh aravaga aylanardik. Mana, ko‘p yillar yuqori rahbarlik vazifasida ko‘zi pishgan chol orttirgan tajribasi. [4, 93 b] Asl e’tiqod sog‘lom munosabatni taqozolaydi, ko‘r-ko‘rona maslak insoniyatni tanazzulga yetaklaydi. XX asr 30-yillarida mafkura ta’sirida harakat qilgan va yorqin istiqbolga ishongan rahbar xodim orzu-istaklari sarob ekanligini anglashi og‘ir taassurot uyg‘otadi, surat chizishni odat qilgan inson tasavvurlari rasmda jonlanadi. Butun bir avlod adashuvi va yanglish oqibatlari chol ruhiy holatida yorqin namoyon bo‘ladi, noqobil o‘g‘il salbiy kirdikorlari izdihomli umr qiymatini belgilaydi. Muallif qabariq tasvir, xarakterli detallar, ruhiyat tarangligini muayyan zanjirga tizadi.

Badiiy ijodda mayda-chuyda gaplar bo‘lmaydi. Badiiy g‘oyalar psixologiyasi — u yoki bu asarning tug‘ilish jarayonini o‘rganish nafaqat san’atkorning fikrlash tarzini, shuningdek, muayyan davrdagi ongi va dunyoqarashi bilan uzviy aloqadorlikda namoyon bo‘lgan obrazli tafakkur madaniyatini ham oydinlashtirish demak. Ahamiyatsiz, ko‘rimsizdek ko‘ringan u yoki bu detal san’atkor ongi, nigohi, nazari tufayli yombi yoqut misoli lovullab ketish jarayonini kuzatish zavq-surur bag‘ishlaydi.[5, 11 b] G‘oya va ruhiyat bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar, mazmun hayotiy ikir-chikirlar tahlili teranligini taqozolaydi. Badiiy asarda muallif biografiyasi va qahramon tarjimai holi manfaatlari to‘qnashuvi yuzaga keladi, yozuvchi ijodiy niyati hamda davr ruhiyati yaxlitligi adabiy mohiyatda yaxlitlashadi, qahramon voqelik mavhumligini aniqlovchi tayanch markaz vazifasini o‘taydi. Odatda, inson obrazi xususiyat va umumlashma yordamida moddiylashadi, matnda har bir tafsilot, manzara yoki chizgi qo‘shimcha estetik yuklamani shakllantiradi.

Adib ijodida qahramon poetik modusini belgilash muayyan estetik mezonlarga tayanadi, to‘g‘rirog‘i, ijodkor fitratdan badiiy obraz falsafiy konsepsiyasiga ko‘chadigan mantiqiy bog‘lam

o‘lchami janr koordinatalaridan kelib chiqadi. Aynan hayotiy material mavhumlik va xaosdan iborat ekan, ifoda uni individuallashtirish hamda umumlashtirish amalini bajaradi. Uzviy jarayonda “mayda-chuyda gaplar” uslubda qayta ishlanadi, tasvirda ustama vazifa oladi. Ruhiyat barcha badiiy hujayrlarni birlashtiradigan sath hisoblansa, muammo va adabiy talqin yozuvchi iqtidorini chamalashga imkon beradi. Til, nutq, dunyoqarash, bilim, saviya va salohiyat san’at asari uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi, estetik sezim matn dizaynini yaratadi: “Ammo bizga mishmishlar orqali yetib kelgan gaplarga qaraganda, Iskandar shu darajada ilohiy zotki, unga bandasi qo‘li tegsa, aqldan ozishi turgan gap, uning Axuramazdaga xos salobati, yuzidan, boshidan taralayotgan nur har qanday odamni gungu garang, zabonsiz qilib qo‘yadi. Bu ulug‘vorlik va zalvorga dosh berolmay miyasi chanoq ichida biqirlab qaynab-toshib ketadi. Soch va soqol o‘rnida nurlar taralib turadi, sartaroshlar bu nurlarni ustarasi tig‘lariga olaman deb hushlaridan ayriladi, deyishardi. U nuri ilohiy, u nuri ziyo, u koinot va olam mukammalligi ilkis namunasidir. Aqldan ozish, bir umr gung-lol bo‘lish, hayrat va zavol topish, uning shamsu qamar tal’atiga qiyoslashning, unga nafaqat tig‘ tegizish, balki qarashning o‘zi yetadi.[6, 406-407 b]

Yozuvchining “Sibizg‘a volasi” mif-hikoyasi (2005) Iskandar Zulqarnayn to‘g‘risidagi afsona asosiga qurilgan, asar uchta soqchi va oqsoq darbon shaharga tashrifi bilan boshlanadi. “Saroy allazamonlardan beri unut manzilga aylangan” ko‘chada joylashgan sartaroshxona soch-soqol oldirishga kelgan kishilar bilan gavjum, muayyan davrda sartaroshxonaga darbon va soqchilar kirib kelishi uning yopilishi hamda ustani saroyga olib ketish bilan yakun topardi. Xukmdor soch-soqolini olgan sartarosh gung va soqovga aylanar, ba’zan esdan ham og‘ib qolardi. Navbat shaharning eng zo‘r sartaroshiga kelgach, u Iskandar soch-soqolini oladi. Qo‘l haqini olib, uyga qushday yengil qaytgan qahramon avvalgi ustalar holatidan hayron qoladi. Biroq vaqt o‘tgan sayin uning shuurini hukmdor sochi orasidan chiqib turgan shox egallaydi, uni saroy xizmatchilari ogohlantirishgan, agar sir ochilsa, urug‘-aymog‘i bilan qatl etilishi bayon qilingan. O‘y-xayollar yigitni karaxt ahvolga solib qo‘yadi, oxir-oqibat u sirni quduqqa aytadi. Quduqdagi qamish o‘sib nayga aylanadi hamda jumlai jahonga Iskandar shoxi borligini oshkor qiladi.

Hikoya matnida yozuvchi o‘z niyatini yashirin tarzda bayon etadi, barcha imperiyalarga xos bir jihatni ta’kidlaydi: markazlashgan davlat, eng avval, shaxsni ideallashtiradi. Iskandar Zulqarnayn “ilohiy zot”, “Axuramazdaga xos salobati” dillarda doston, yuzi-ko‘zidan nur yog‘iladi. Hukmdor tarovati aqlni oladi, ustalar gung-soqovga aylanib qolishi mana shu sifatlar bilan sharhlanadi. Folklor talqini va mifopoetik tasavvur omuxtalashgan tasvirda reallik tuyg‘usi saqlanadi, haqiqat yuzaga chiqishi oson emasligini tasdiqlaydi. “Ruh va xulyo dunyosi” kiritma sifatida asarga sirli tus beradi, inson va jamiyat ziddiyatlari tahlil bo‘yog‘ini ancha quyuqlashtiradi.

“Sibizg‘a volasi” mif-hikoyasi qahramoni o‘z mohiyatiga ko‘ra adabiy qahramon doirasiga sig‘maydigan, ya’ni o‘zining mohiyat e’tiboriga ko‘ra mif qahramonlariga xos sifatlarni mujassamlashtirganligi bilan ajralib turadi. Chunki qadimgi miflarning qahramoni demiurg, ya’ni yaratuvchi-qahramon xaosning kosmosga aylanishi, yo‘qlikdan borliqning vujudga kelishi, olamdagi mavjudlikning paydo bo‘lishini ta’minlagan asotiriy personaj sifatida namoyon bo‘lgan. Shu tariqa u borliq olamning mavjud holatini vujudga keltirgan va qadimgi jamiyatdagi tartibotni o‘rnatgan, deb qaraladi. “Sibizg‘a volasi” mif-hikoyasi qahramoni sartarosh ham o‘z dardini o‘simlikka o‘tkazish orqali demiurgga xos xususiyatni ifoda etadi.[7, 22 b] Syujetda semantik transformatsiya hosil bo‘lishi mifni ijodiy tafakkur tipi darajasiga ko‘taradi, fikrlash malakasi motivizatsiya va stilizatsiyani bir-biridan tafovutlaydi. Ibtidoiy tasavvurdan muayyan dunyoqarash shakli yaratadigan istilohda borliq to‘g‘risidagi bilimlar takomillashadi, real vaqt birligida voqelikka bo‘lgan ongsiz hissiy munosabat inson va tabiat manfaatlarini uyg‘unlashtiradi, xayol ijod ruhiyatini tavsiflaydi. Asotir ommalashuvi ijro mahoratini taqozolaydi, unda inson ibtidosi hamda intihosi, kishilik jamiyati anglami hamda maqsad-intilishi yaxlitlashadi. Ishonch-e’tiqod yuzaga kelishi, bilish va idroklashga mayl, estetik baholash o‘lchami primitivligi did-saviyaga bog‘lanadi. Badiiy asar matnida afsona mohiyat yangilanishi jarayonini harakatga keltiradi. An’ana sifatida so‘z vositasi obrazli idrok silsilasi shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Badiiy to‘qima hayotiy fakt bilan qo‘shilgan, uyg‘unlashgan paytdagina chinakam umumlashma — badiiy obraz vujudga keladi. Badiiy to‘qima yozuvchining hayotga faol munosabati natijasida yuzaga keladi. Yozuvchi badiiy to‘qima yordamida konkret odamlarda mavjud bo‘lgan ijobiy va salbiy xislatlar va imkoniyatlarning hali ro‘yobga chiqmaganlarini ham xayolan ro‘yobga chiqarib tasvirlaydi, hayotiy faktni o‘z ijodiy maqsadiga muvofiq ravishda rivojlantirib. o‘zgartirib ko‘rsatadi.[3, 49 b] Hayot haqiqati badiiy to‘qima uchun o‘lchov mezoni

vazifasini o‘taydi, ifoda malakasi kitobxonni ishontira olsagina, poetik talqinni hosil qiladi. Pozitiv munosabati asar to‘qimalariga jon bag‘ishlaydi, faktik material qayta ishlangan shakli tasvir ruhiyatini shakllantiradi. Tasavvur illyuziyasi qahramon xarakteri yangilanishga imkon beradi, o‘zgargan badiiy voqelik emotsional bosqichdan ekspressiv mohiyatga o‘tib turadi, unda so‘z va g‘oya vazifalari tenglashadi:

Natijalar va muhokama. Nazar Eshonqulning qahramonlari tashqi faoliyatdan ko‘ra ichki ruhiy hayotda ko‘proq yashaydilar. Yozuvchining “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi realistik tasvirda yaratilgan bo‘lsa-da, relizmning turfa xil ko’rinishlari mavjud ekanligini namoyon qila olgan. Asarda oddiy o’zbek ayoli Bayna momoning fojeali hayoti bilan bir qatorda, jasur, matonatli hayoti haqqoniy yoritilgan. Asar qahramoni turmush o’rtog’i va farzandidan ayrilgandan so’ng, ularning o’limiga sababchi bo’lgan shaxsdan o’ch oladi. Lekin bu xususiyatni asarning eng so’ngida Bayna momo vafotidan so’ng tugun yechiladi. Asarda Bayna momo obrazi orqali o’z g’ururiga ega bo’lgan inson obrazi ifodalangan. U eri Rayim palvon va o’g’lining vafotidan so’ng o’z iztiroblarga burkanib hayot kechiradi. Hatto ularning o’limiga sababchi bo’lgan Zamon otboqarning o’limi ham uning qalbidagi iztiroblarni yo’qota olmaydi: “Barcha ayollar quvonchdan hammani bir bir quchib chiqadi deb o’ylashgandi. Ammo Bayna momo xabarni malikalardek xotirjam qabul qildi. Asarda shaxs qiyofasi, jamiyat hayotida o‘z o‘rnini topa olmagan alamzadaning ma’naviy qiyofasi, uning anglashlari, hissiy kechinmalari tamomila yangi rakurslarda ko‘rsatilishi e’tiborga loyiqdir.

“Maymun yetaklagan odam” hikoyasida uchta qahramon – yigit, rassom va uning o‘g‘li moziy-bugun-kelajak fokusini bir nuqtaga yig‘adi, aslida surat katta hayotiy tajriba hosilasi sanaladi. Adib sabab hamda oqibat mantiqiy aloqasini umumlashtiradi, suronli yillarda amalga oshirilgan faoliyat natijasida dahshatli fojialar sodir bo‘ladi. Badiiy chizgilar (huvillab qolgan qishloqlar, o‘ziga chorlab turgan qabristonlar, o‘lim isi anqib turgan qurollar, qo‘rquvdan qotib qolgan olomon, sirli maxluqlar, aroq navi, yalang‘och ayollar, qovjirgan gullar) voqelikdan kesib olingan muqoyasalar, ijodkor tafsilotni bo‘rttirish yordamida davr manzaralariga baho beradi. Rasm motivi muallifni ko‘pso‘zlikdan saqlaydi, tahlilni quyuqlashtiradi. Ota zimmasidagi burch farzand kamoloti bilan bog‘liq, nashavand, tekinxo‘r o‘g‘il inqirozga mahkum adashgan otalar qismatini yorqin tarzda ko‘rsatadi.

“Sibizg‘a volasi” hikoyasida esa inson va tabiat, tovush va xotira, madaniyat va unutilgan qadriyatlar o‘rtasidagi rishtalar obrazlar orqali tasvirlanadi. Sibizg‘aning sadosi – bu nafaqat oddiy cholg‘u vositasi, balki yo‘qotilgan hayot mazmunining ramziy ifodasidir. Qahramon ushbu tovush orqali o‘tmish va hozirgi zamon o‘rtasidagi yo‘qolgan bog‘liqlikni tiklashga harakat qiladi. Bu holatda tovush estetikasiga tayanilgan falsafiy motiv kuzatiladi. Qahramonlar faqat voqealar zanjirida harakat qiluvchi obrazlar emas, balki ichki dunyosi orqali voqelikni idrok etuvchi, uni o‘z ongida qayta yaratuvchi subyektlardir. Ular voqelikni passiv qabul qilmaydi, balki uni o‘z ruhiy kechinmalari, estetik sezgilari va falsafiy mulohazalari orqali sinchiklab tahlil qiladi, shu orqali hayot hodisalariga individual, ichki pozitsiyadan baho beradi. Bu esa Nazar Eshonqul yaratgan badiiy dunyoning chuqur tafakkur, ruhiy izlanish va falsafiy qatlamlar bilan boyiganligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Nazar Eshonqul hikoyalarida har bir jumla qahramonning ichki dunyosini ochib berar ekan, shu bilan birga o‘quvchini yangi mulohazalarga yetaklaydi. Adibning so‘zlari esa zo‘rma-zo‘rakilikdan yiroq, sokin, g‘amgin va yurakka yaqin ohangda yangraydi. Ular kishini chuqur o‘yga cho‘miltirib, o‘zini kashf etishga undaydi. Shu bois, yozuvchining hikoyalarini o‘qigan har bir kishi voqealar rivojidan ko‘ra, qalb ichkarisida kechayotgan sukutli to‘qnashuvlarni, hayotiy haqiqatni anglash jarayonini boshidan kechiradi. Nazar Eshonqulning ijodini sinchiklab o‘rganish – bu faqat bir yozuvchini emas, balki butun bir davrning ruhini, insoniyatning ichki iztiroblarini va adabiyotda yuz berayotgan o‘zgarishlarni anglash demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3721-sonli Qarori;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni;
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
4. Jovli Xushboq. Yuragimning surati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018
5. Rahimjonov N. Badiiy asar biografiyasi. – Toshkent: Fan, 2008.

6. Nazar Eshonqul. Saylanma. I qism – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 512 b.
7. Otojonova M.O. Hozirgi o‘zbek nasrida mifologizm. Filol. fanl. dokt. (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022.
8. B.Shahanov “Nazar Eshonqul asarlarida falsafiy-estetik motivlar” “Qo’qon DPI” ilmiy xabarlari jurnali 2025-yil 5-soni
9. Qozoqboy Yo‘ldosh “Yoniq so‘z” Toshkent “Yangi asr avlodi” 2006., 548 b
10. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007. – 351 b.
11. Burxonova F. Muallif adabiy-estetik qarashlari va ijodiy parallelizm (Nazar Eshonqul va Ulug‘bek Hamdam ijodi misolida): Filol. fanl. bo‘yicha fals. doktori diss. avtoref. – Toshkent. 2018.
12. “Hozirgi adabiy jarayon masalalari” xalqaro konferensiya materiallari to‘plami – Toshkent: “Fan” nashriyot, 2022.

OYKONIMIYA MASALASINING TURKOLOGIYA VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI NAZARIY TAHLILI

Ne’matova Yulduz Odiljanovna
Qarshi davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti
yulduznematova7@gmail.com
ORCID 0009-0007-5334-4818
УДК 413.13(045)

Annotatsiya. Toponimika – joy nomlarini o‘rganadigan fan sifatida tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, unda oykonimiya alohida yo‘nalish sifatida shakllangan. Oykonimiya – aholi joylarining nomlarini, ularning kelib chiqishini, ma’nosi va tuzilishini tadqiq etadigan sohadir. Turkiy tillar jumlasida o‘zbek tilida ham oykonimlar keng tarqalgan bo‘lib, ular orqali xalqning tarixiy, ijtimoiy, madaniy dunyoqarashi o‘z aksini topgan. Mazkur maqolada oykonimiyaning turkologiya va o‘zbek tilshunosligidagi nazariy-ilmiy tahlili yuritiladi. Turkiy tillardagi joy nomlarini o‘rganish tarixi, oykonimiyaga oid atamalar, oykonimlarning tuzilishi, ularning ijtimoiy, tarixiy va madaniy ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, o‘zbek tilidagi oykonimlarni o‘rganishdagi tilshunoslik yondashuvlar, tadqiqotchilar fikrlari va metodologik asoslar tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: oykonim, toponim, turkologiya, tilshunoslik, joy nomlari, leksik onomastika.
Annotation. Toponymy, as a branch of linguistics, studies place names and holds a significant position within the field. Within toponymy, oikonymy has emerged as a distinct subfield focusing on the names of inhabited localities, their origins, meanings, and structural features. In Turkic languages, including Uzbek, oikonyms are widely distributed and reflect the historical, social, and cultural worldview of the people. This article presents a theoretical and scientific analysis of oikonymy within the frameworks of Turkology and Uzbek linguistics. It explores the history of studying place names in Turkic languages, terminology related to oikonymy, the formation of oikonyms, and their socio-historical and cultural significance. Moreover, the article analyzes linguistic approaches, scholarly perspectives, and methodological foundations in the study of Uzbek oikonyms.
Keywords: oikonym, toponym, Turkology, linguistics, place names, lexical onomastics

Kirish. Taniqli nemis tilshunosi Y.Grimm: «Xalqlarning ko‘hna tarixi haqida darak beruvchi suyaklar, tobutlar va qurollardan ham afzalroq jonli vosita, dalil mavjud – bu ularning tilidir», – degan edi. Bu fikr xuddi toponimlar haqida aytilgandek. Grekcha “topos” — joy, o‘rin va “onoma” — nom so‘zlaridan yuzaga kelgan “toponim” atamasi, quruqlik yoki suvdagi tabiiy-geografik va inson tomonidan yaratilgan sun’iy obyektlar, joylar nomini anglatadi. Ular til orqali ifoda etilgan bo‘lib, muhit bilan bog‘lanishning muhim vositasi sanaladi.

Rus olimi N.I.Nadejdin bundan 150 yil muqaddam: «Yer – bu toponimlar vositasida insoniyat tarixi bitilgan kitobdir», – degan edi. Ushbu nodir va qadimiy til xalqimizning, ajdodlarimizning o‘z qo‘li bilan yaratilgan bebaho merosidir. E. Begmatov bu tilni boy ma’nolarga ega, mazmunan chuqur va ko‘p qirrali, ildizlari esa o‘tmishga borib taqaladigan qadim til sifatida baholaydi.[1]

Toponimlar — bu ona xalqimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida shakllantirilgan va avloddan avlodga o‘tib kelayotgan lisoniy hamda madaniy-ma’naviy meros namunalaridir. Ular orqali xalqning o‘tmishga oid kuzatuvlari, hayotiy tajribalari, dunyoqarashi va turli e’tiqodlari aks etgan. Agar toponimlar mazmuni, ularda yashiringan ijtimoiy, tarixiy, tabiiy va geografik axborotlar, nom qo‘yish tamoyillari hamda kelib chiqish manbalari lingvistik jihatdan tahlil qilinsa, bu ularning ichki mazmunini teran anglash imkonini beradi.

Toponimlarning eng ko‘p tarqalgan turi oykonimlardir. Ayrim toponimist olimlar oykonimlar sirasiga qishloq, shaharcha (posyolka), ovul, mahalla, guzar, ko‘cha nomlarini

kiritadilar. Jumladan, N.Oxunov toponimikaga oid ilmiy risolasida qishloq, kent, ovul, mahalla, qo‘rg‘oncha, guzar, ko‘cha nomlarini oykonimlar doirasida o‘rgangan. U oykonim termini haqida fikr yuritib, quyidagicha ta’rif beradi: “...aholi punktlari va uning ichki bo‘linishlari – qishloq, posyolka, ovul, mahalla, guzar, ko‘cha nomlari oykonimlar deb yuritiladi”.[2] S.Karimov, S.Bo‘riyevlar: “Oykonimlarni ikki guruhga bo‘lib qarash to‘g‘ri bo‘ladi: 1) ma’muriy hududlar nomlari: xoronimlar – viloyatlar, o‘lka va mamlakatlarning nomlari; 2) aholi yashaydigan joy nomlari – polisonimlar – shahar nomlari; komonim-lar – qishloq, ovul, guzarlar, mahallalar, xullas, kichik turarjoylarning nomlari”, – deb yozadilar.[3]

Onomastik lug‘atlarda, toponimikaga oid ayrim tadqiqotlarda esa oykonimlar guruhi boshqacharoq belgilanadi. Oykonim (grekcha oykos – «turarjoy» + onoma – «nom») shahar, shaharcha (posyolka), ovul, qishloq kabi aholi manzillarining atoqli otlari. Mahalliy xususiyatlardan kelib chiqib, oykonimlar guruhiga mahalla nomlarini ham kiritish mumkin. S.Karimov, S.Bo‘riyevlar bu guruhga kiritgan xoronimlar toponimlarning alohida turi, oykonimlar sirasiga mansub emas.

Oykonimlar tizimida o‘ziga xos darajalanish mavjud. Mahallalar majmui qishloq yoki shaharni tashkil etadi. T.Nafasov to‘g‘ri ko‘rsatganidek, qo‘rg‘onu qal’a, rabotu istehkomlar, qishloqlarning bunyod bo‘lishiga asos bo‘lganidek, qishloqlar shaharlarning paydo bo‘lishiga zamin vazifasini o‘tagan. Vaqt o‘tishi bilan qishloqlar kengaygan, bir-biriga qo‘shilib, yirik qo‘rg‘onlar barpo etilgan, ko‘chalar tuzilgan, guzarlar mahallarga aylangan va barcha tarkibiy qismlar birlashib, shahar maqomini kasb etgan.[4]

Tilshunoslikning oykonimlarni tadqiq etuvchi sohasi oykonimika, oykonimlar majmui oykonimiya deb ataladi: O‘zbekiston oykonimikasi, O‘zbekiston oykonimiyasi kabi.

Oykonimlar til birligi va mahsuli sifatida bir qator lisoniy xususiyatlarga, ya’ni atalish asosiga, leksik-semantik, yasalish, morfemik, grammatik xususiyatlarga ega. Oykonimlarga xos bunday lisoniy belgi-xususiyatlar oykonimika sohasida o‘rganiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy tahlil, tarixiy-lingvistik tahlil, sistemalashtirish metodlari qo‘llanildi. Turkologiyadagi va o‘zbek tilshunosligidagi asosiy manbalar o‘rganildi.

Natija va muhokama. Oykonimiya masalalari rus, Yevropa tilshunosligida, turkiy til-shunoslik (turkologiya)da, jumladan, o‘zbek tilshunosligida o‘rganilgan.

Ozarbayjon oykonimlari tadqiqi XX asrning 70-yillaridan bosh-landi. Dastlab A.G.Gasanov, R.A. Kerimlilarning ayrim oykonimlarga doir maqolalari e’lon qilindi.[5] A.Axundov, G.A.Gaybullayev bilan hamkorlikda Ozarbayjon oykonimlarini tasnif qilish masalalarini tadqiq etdi.[6] Shuningdek, A.Axundov Ozarbayjon toponimiyasidagi turkiy oykonimlarni o‘rgandi.[7]

G.A.Gaybullayev, A.G.Gasanovlar qadimgi turkiy leksik qatlam negizi-da shakllangan Ozarbayjon, xususan, Naxichevan Avtonom Respublikasidagi ayrim oykonimlarni o‘rgangan.[8] Shuningdek, G.A.Gaybullayev Ozarbayjon oykonimlari tizimiga mansub Deller, Tulu, Kesh, Shadili, Tubaket, Tulus, Chalgan, Kuzanli kabi etnooykonimlarni, oykonimlarning arabcha qatlamini tadqiq etgan.[9]

A.Guseynzade Zugulba oykonimi va ayrim qadimiy ozarbayjon oykonimlari yuzasidan maqolalar e’lon qilgan.[10] N.G.Mamedov tomonidan Balakan tumani oykonimlari o‘rganilgan.[11]

Tatar tilshunosligida ham oykonimlar ma’lum hududlar bo‘yicha o‘rganilgan. F.I.Gordeyev Mari Avtonom Respublikasidagi tatar tilida so‘zlashuvchi aholi yashaydigan hudud oykonomiyasini o‘rgandi.[12] L.V.Kuznetsova N.Frolov bilan hamkorlikda rus va tatar tillari aloqalarini Tyumen oykonimlari asosida tahlil qildi. Mazkur maqolada Tyumen toponimiya-siga doir rus va tatar tillari lug‘aviy birliklari asosida shakllangan oykonimlar lingvistik tahlil qilingan.[13] B.I.Zimin Tambov viloyatidagi mordovancha va tatarcha oykonimlarni,[14] tarixiy shaxs nomlari bilan atalgan Tatariston aholi manzillarining nomlari va etnooykonimlar G.F.Sattarov tomonidan tadqiq etilgan.[15] Bu tatar onomastikasidagi oykonimlarga oid ilk izlanishlar edi.

Qozoq nomshunosligida oykonimlar tadqiqi 1960 yillarda A.Abduraxmonov tomonidan boshlab berildi. Olim qozoq tili oykonim-larini o‘rganishni kichik maqolalar tarzida boshlab, nomzodlik dissertatsiyasiga, ya’ni monografik tadqiqotlar darajasiga olib chiqdi.[16]

G.Martinov Olmaota oykonimining nomlanish tamoyilini xuddi shu yillarda o‘rgandi.[17] Shuningdek, S.Nikitin tomonidan ham bir necha qozoqcha oykonimlar tadqiq etildi.

D.X.Karmisheva O‘rta Osiyo va Qozog‘iston oykonimlari yuzasidan kattagina maqola e’lon qilgan.[18]

T.To‘ychiyev ayrim qoraqalpoq tili oykonimlarini,[19] S.Ataniyazov Buldumsaz, Nukus kabi makrooykonimlarni o‘rgangan.[20]

1960-1970 yillarda o‘zbek tilshunosligida ham toponimik tadqiqotlar sezilarli darajada rivojlandi. O‘zbek toponimikasining shakllanishi va taraqqiyotida H.Hasanov, S.Qorayev, Z.Do‘simov, T.Nafasov, T.Enazarov, B.O‘rinboyev, N.Oxunov, Sh.Qodirova, L.T.Karimova, Y.Xo‘jamberdiyev, T.Rahmatov, J.Latipov kabi olimlarning xizmatlari tahsinga loyiqdir. Ana shu olimlarning yirik tadqiqotlari asosida o‘zbek toponimikasining tamal toshi qo‘yildi. Ularning tadqiqotlar aynan oykonimlar tadqiqiga bag‘ishlanmagan bo‘lsa-da, toponimlarning boshqa turlari doirasida oykonimlar ham tadqiq etildi.

Z.Do‘simovning nomzodlik dissertatsiyasi Xorazm toponimlarining shakllanishi, taraqqiyot bosqichlarini o‘rganishga bag‘ishlangan dastlabki tadqiqot edi. Unda bir qator joy nomlarining, jumladan, oykonimlarning tarixi va etimologiyasi haqida fikr yuritilgan. Ishda toponimlarning lingvistik xususiyatlari, yasalish qoliplari va tiplari tahlil qilingan. Tadqiqotda Xorazm, Urganch. Gurlan, Shovot, Mang‘it kabi oykonimlarning tarixi, etimologiyasi, grammatik xususiyatlari tahlili berilgan.[21]

L.G.Karimovaning ilmiy tadqiqotlarida Choyquruq, Qasiq, Cho‘rnoq, Qarnoq, Suvnoq, Chag‘a, Chilik kabi qishloq hamda shahar nomlarining etimo-logiyasi keng va chuqur yoritilgan. Olimaning ishlarida toponimlarni areal tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganishga qo‘l urilgan. Ishda toponim-larning yasalishi, tuzilishi, tarqalish doirasiga oid jadval va lingvistik xaritalar berilgan.

Jahongir Latipovning Marg‘ilon toponimiyasiga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasida ham shahar oykonimlari keng tahlil qilingan. Tadqiqotning «Marg‘ilon shahri toponimlarining leksik-semantik tasni-fi» nomli birinchi bobining «Marg‘ilon toponimlarining atalish xarakteriga ko‘ra tasnifi» nomli qismida To‘rato‘pi, Normuhammad Hojito‘pi, Bekto‘pi, Eskifurush, Kigizchilik, Sandiqchi, O‘qchi kabi tarixiy qishloq va shaharcha nomlari lingvistik tahlil qilingan. Olim qishloq va shaharcha nomlarini qishloqlarning geografik joylashish o‘rnini, hududning relyefi va fizik-geografik xususiyatlarini, tarixiy voqea-hodisalar bilan bog‘liq jarayonlarni, yangi an’ana va g‘oyalarni ifodalovchi toponimlar kabi turlarga ajratgan. Shuningdek, mazkur bobning ikkinchi qismida esa mahalla nomlari, to‘rtinchi qismida ko‘cha nomlarining atalish asosiga ko‘ra lingvistik tasnifi berilgan. Ishning xulosa qismida Marg‘ilon toponimlari doirasida to‘p // to‘pi, bo‘yi, ko‘cha, mahalla, qishloq tarkibli oykonimlar ko‘p uchrashi (To‘rato‘pi, Boyto‘pi, Soybo‘yi, Qo‘shko‘cha, Torko‘cha, Lo‘limahalla, Tojikmahalla, Tog‘lik qishloq kabi) ta’kidlangan.

O‘zbek tilshunosligida XX asrning 80-yillarida oykonimlar tadqiqi-ga bag‘ishlangan monografik ishlar ham yaratildi. S.Nayimov 1984 yilda Buxoro viloyati oykonimlari tadqiqiga bag‘ishlangan nomzodlik disser-tatsiyasini himoya qildi. Dissertatsiya ilovasida Buxoro viloyati oykonimiya-siga mansub 2567 ta nom keltirilgan. Dissertatsiyada Buxoro viloyati oykonimlarining nomlanish xususiyatlari, leksik-semantik, grammatik jihatlari yoritilgan.

M.N.Ramazonova esa 1986 yilda Toshkent viloyati oykonimlari taraq-qiyotiga doir nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

1998 yilda S.Qorayev O‘zbekiston oykonimiyasiga doir doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi va unga geografiya fanlari doktori ilmiy darajasi berildi.[22] Bevosita oykonimlar tadqiqiga bag‘ishlanmagan bo‘lsa-da, A.Aslonovning Shofirkon tumani mikrotoponimiyasiga oid nomzodlik dissertatsiyasida shu hududga mansub bir qator oykonimlar, ya’ni 169 ta qishloq nomi lingvistik tahlil qilingan.

O‘zbek tilshunosligida respublikamiz oykonimlari tadqiqi borasida N.Oxunovning faoliyati alohida o‘rin tutadi. Olimning joylarning nomlanish xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy risolasining katta qismi oykonimlar tadqiqiga bag‘ishlangan. Risolada oykonim termini, uning doirasi oykonimlarning muhim xususiyatlari, aholi maskanlarining nomlanish tamoyillari, oykonimlarning nomlanish asosiga ko‘ra turlari: etnooykonimlar (Qatag‘on, Kenagas, Do‘rmon, Saroy kabi), antropo-oykonimlar (Haqqulobod, Akbarobod, Usmoncheki, Do‘smatchek, Yusufqo‘rg‘oncha, Rizomahalla, Alimkent kabi), fitooykonimlar (Tolmozor, Ko‘kterak, Qayrog‘ochovul, Beshqayrag‘och, Sebzor, Ajriqli kabi), geomorfologik oykonimlar (Jarqishloq. Qiziljar, Yerjar, Chuqurko‘cha, Chuqurak, Do‘ngqishloq, Dashtqishloq kabi), ko‘chma oykonimlar (Chodaklik, Axsi, Kosonko‘cha kabi) atroflicha yoritilgan. Shuningdek, kitobda

oykonim-larda iqtisodiy turmushning aks etishi, ya’ni xalqning iqtisodiy turmush tarzi, kasb-kori, xo‘jalik faoliyatini aks ettiruvchi Ohangaron, So‘zangaron. Baxmalbob, Bo‘yrabop, Ko‘nchilik kabi oykonimlar, eshon, xo‘ja, shayx, so‘fi, to‘ra, bek, boy, qul kabi ijtimoiy terminlar vositasida shakllangan To‘raobod, So‘fimahalla, Xo‘jaobod, Eshonariq, Qultepa kabi oykonimlar haqida ham fikr yuritilgan, oykonimlarning leksik-semantik, etimologik, yasalish xususiyatlari tahlil qilingan.[23] Oykonimlarning tahlili faqat ularning leksik va etimologik xususiyatlarini aniqlash bilan cheklanmaydi, balki ular orqali xalqning tarixiy hayoti, yashash tarzi, tabiiy muhit bilan bog‘liq munosabati ham ochib beriladi. N. Oxunov tomonidan tayyorlangan lug‘at xarakteridagi risola ana shunday lingvomadaniy jarayonlarni namoyon etuvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu asarda respublikamiz hududidagi Avshar, Achchiqko‘l, Beshtom, Vaxim, Guzar, Iskovot, Zarkent, Mingbuloq, Samarqand, To‘da, Chimboy, Shohidon, Shahand, Qipchoq kabi yuzlab oykonimlar lingvistik va etimologik jihatdan izohi berilgan.[24] Bu kabi tahlillar oykonimiyani nafaqat tilshunoslik, balki tarixshunoslik, etnografiya, geografiya kabi fanlar bilan bog‘lovchi ko‘p qirrali sohaga aylantirganini ko‘rsatadi.Shu nuqtai nazardan qaralganda, Oxunovning tadqiqoti oykonimlarning paydo bo‘lishidagi omillar, ularning semantik tuzilishi, hamda xalq ongidan joy olgan tarixiy voqeliklarni ifoda etishi jihatdan katta ilmiy ahamiyatga egadir. Bu ishlar orqali oykonimlarni o‘rganish milliy ong va madaniy xotirani tiklashning samarali yo‘llaridan biri ekanligi yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Oykonimiya o‘zbek tilshunosligi va turkologiyaning muhim va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllangan bo‘lib, oykonimiya sohasidagi ilmiy ishlar xalqning tarixiy xotirasi, milliy ongi va madaniy merosini qayta kashf etish, milliy o‘zlikni anglash, til va tarix uyg‘unligini namoyon qilishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Turkiy tilshunoslik va o‘zbek onomastikasidagi ushbu yo‘nalishni yanada rivojlantirish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бегматов Э.А. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 10.
2. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 4-36.
3. Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 44.
4. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б.5.
5. Гасанов А.Г О некторых искажениях в написании ойконимов Азербайджанской ССР// Материалы научной конференции, посвященной изучению топонимии Азербайджана. – Баку: Элм, 1973. – С.104-106; Керимли Р.А. Некотроые замечания об азербайджанских ойконимах // Материалы научной конференции, посвящен-ной изучению топонимии Азербайджана. – Баку: Элм, 1973. – С.82-83.
6. Ахундов А.А., Гайбуллаев Г.А. Опыт классификация ойконимов Азербайджана. – НТ Азер. У – Баку, 1979. – №:2. – С.53-58.
7. Ахундов А. Тюркская топонимия Азербайджана // Ономастика Кавказа. – Махачкала, 1976. – С.102-106.
8. Гайбуллаев Г.А., Гасанов А.Г. О некоторых древнетюрских словах в топонимии Азербайджана. – Уз Азерб.У.Сер. Языка и литературы. – Баку, 1977. – №1. – С. 6-11; – О некоторых ойконимах Нахичеванской АССР. – Уз Азерб. У. Сер. Языка и литературы. – Баку, 1979. – №5. – С.10- 14.
9. Гайбуллаев Г.А. О происхождении некоторых этнотопонимов Азербайджана. – Докл.АН Азерб. – Баку,1978. – Т. 34. – №1. – С. 78-81; – Об арабском слое в азербайджанской топонимике. – Изв. АН. Азерб. Сер.Лит..., языка и искусства, 1976. – №1. – С. 80-88.
10. Гусейнзаде А.О происхождении топонима Зугульба // Ономастика Кавказа. – Махачкала, 1976. – С.101-108.; – Об одном древном этнотопониме Азербайджана (BILASUVAP) CT, 1980. – №5. – С. 30-35.
11. Мамедов. Н.Г. Балакэн рајонунун баз`и ојконимларинин мэншэји һаггында. – Докл. АН.Азерб. 1978, т.34, вып. 6. – С.53-55.
12. Гордеев Ф.И. Ойконимия татароязычных регионов Марийской АССР. – Диалекты и топонимия Поволжья. Выс. 2 . – Чебоксары, 1973. – С.46-52
13. Кузнецова Л.В., Фролов А.К. О взаимодействии русского и татарского языков (На материале топонимии Тюменской области). – НТ Тюмен. У., 1975, сб. 12. – С.97-102.
14. Зимин Б.И. Мардовские и татарские названия населенных пунктов Тамбовской области // Вопрос. краеведения в школа и пед.инс. -тах. – Тамбов, 1962. – С. 181-184.

15. Саттаров Г.Ф. Названия населенных пунктов Татарии, производные от древних тюрко - татарских личных имен // СТ. – 1979. – №2. – С. 37-48.; Саттаров Г.Ф. Татаристон районнары һам район узәкларенең шемнәре. – Казан утлары, 1970. – С. 156-159.
16. Абдурахмонов А.А. Вопросы топонимики Казахстана // Топонимика Востока. – М., 1962. – С. 46-53.; – Некоторые вопросы топонимика Казахстана: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1954. – 12 с.
17. Мартынов Г. Почему Алма-Ата? (К истории происхождения наименования нашего города). – Простор. – Алма-Ата, 1962. – №5. – С.125-127.
18. Кармаышева Д.Х. Об отрицательных последствиях переименования населенных пунктов Средней Азии и Казахстана // Топонимика Востока. – М, 1962. – С.168-174.
19. Туйчиев Т. Этнотопонимы и этническая география Джамбойского района // Ономастика Средней Азии. Вып. 2 – Фрунзе: Илим, 1980. – С.46-54; – Отражение этнонимов в топонимии Булунгурского района // Ономастика Средней Азии. Вып. 2 – Фрунзе: Илим, 1980. – С.34-35.
20. Атаниязов С. Булдумсаз // Памятники Туркменистана. – Ашхабад, 1977. – №2. – С.27-28.; – К этимологии топонима Нукус. – Изд. АН.Сер. обществе. Наук, 1977. – №4. – С.92-95.
21. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 104 б.
22. Караев С. Ойконимия Узбекистана: Диссертация на соискание ученой степени доктора географических наук в форме научного доклада. – Ташкент, 1998.
23. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 6-35.
24. Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 85 б.

EPIK QOLIP SHAKLLARI VA TASVIR VOSITALARINING DOSTON STRUKTURASIDAGI O‘RNI

Navbahor Kamolova
Osiyo texnologiyalari universiteti o‘qituvchisi
navbahor.kamalova@mail.ru
ORCID 0009-0007-9811-9411
УДК 39(575.1) 08

Annotatsiya. maqolada “Alpomish” dostonining o‘ziga xos xususiyatlari, obrazlari, syujet va kompozitsiyasi, liro-epik tuzilishi, badiiy-tasvir vositalarining matn badiiyati, qahramonlar xatti-harakati va ruhiy holatini ifodalashdagi o‘rni masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib beriladi. An’anaviy doston ijro etish usullari, baxshi badihago‘yligi, ustoz-shogird an’anasi va doston badiiyatida ushbu holatlarning o‘rni masalasi Umir shoir Safarov repertuaridan yozib olingan “Alpomish” dostonidagi bir qator uslubiy o‘rinlarni tahlil qilish orqali ko‘rsatib o‘tiladi. Ayniqsa, doston variantidagi epik qolip shakllari va badiiy-tasviriy vositalarning dostonchilik ijro an’analaridagi o‘rni, badiiy-tasviriy vositalardan foydalanishda baxshi mahorati va uning ijrosidadagi ahamiyati masalasi ilmiy jihatdan o‘rganildi. Chunki epik klishelardan baxshining mahorat bilan foydalanishi va unga rioya qilishi dostonchilik an’anlari va ustoz-shogird munosabatlaridagi ahamiyatli bo‘lgan jihatlardan hisoblanadi. Maqola bevosita mana shu kabi nazariy muammolarni qamrab oladi.
Kalit so‘zlar: baxshi, epik ijro, doston, qahramonlik, g‘oyaviy-badiiy, liro-epik tasvir, epik klishe.

THE PLACE OF EPIC CLICHES AND ARTISTIC ILLUSTRATIONS IN THE EPISTLE "ALPAMISH"

Abstract. The article presents a scientific and theoretical analysis of the specific features, images, plot and composition, lyrical-epic structure of the epic poem "Alpomish", the role of artistic and visual means in the expression of the textual art, the behavior and mental state of the heroes. The issues of traditional methods of performing the epic poem, Bakhshi's artistic style, the tradition of the master-disciple, and the role of these factors in the art of the epic poem are presented through the analysis of a number of stylistic places in the epic poem "Alpomish" recorded from the repertoire of the poet Umir Safarov. In particular, the role of epic clichés and artistic and visual means in the epic performance traditions, Bakhshi's skill in using artistic and visual means and their significance in the performance were scientifically studied. Because the skillful use and adherence to epic clichés by Bakhshi is one of the important aspects of the epic tradition and the teacher-student relationship. The article directly covers such theoretical problems.
Keywords: bakhshi, epic performance, epic, heroism, ideological-artistic, lyric-epic image, epic cliché.

Kirish. Qahramonlik eposi hisoblangan “Alpomish” dostoni xalqimiz etnomadaniy hayotida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Dostonning ko‘plab variantlari dostonchilik maktabi baxshilari repertuaridan yozib olingan bo‘lib, ularning har bir ijrosi, badiiylik imkoniyatlari baxshi iqtidori va dostonchilik an’analarining o‘zlashtirish, unga amal qilgan holda ijro etish imkoniyati bilan belgilanadi. Chunki doston ijro etishning o‘ziga xos an’analari bo‘lib, ushbu holat bevosita ustoz-shogird va epik ijodiyotning o‘ziga xos yozilmagan qonuniyatlari asosida davomiyligini saqlaydi.

“Alpomish” dostonining ko‘plab variantlarida ushbu holat saqlangan va asrlar mobaynida xalqimiz ma’naviy tafakkurining shakllanishida xizmat qilib kelayotganligi bilan ahamiyatlidir. Dostonning g‘oyaviy asosida qahramonlikni ulug‘lash, qahramon bo‘lib oila, yor va urug‘ hamda ona-Vatan himoyasida bo‘lish, urug‘ yaxlitligi uchun kurash maqsadi yetakchilik qiladi. “Oila uchun, yor uchun va shu bilan bog‘liq ravishda yangi tipdagi urug‘ birligi uchun kurash “Alpomish” eposida qo‘yilgan asosiy masaladirki, dostonning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilaganda, ana shunga diqqat qilish kerak bo‘ladi. ...Dostonda yorga erishish uchun qahramon bo‘lish, mard bo‘lish va dushmanga qarshi kurashish kerak, degan g‘oya bo‘rtib turadi”[1, 89]. Demak, dostonda ijtimoiy-maishiy va hayotiy detallar qahramonlik va vatanparvarlik motivlarida uyg‘unlashib, bu holat doston syujeti va bosh qahramonlar – Alpomish, Barchin timsolida o‘z yechimini topadi. Bugunga qadar “Alpomish” dostonining oltmishdan ortiq variantlari turli shaklda yozib olinib, ular ijrochi mahorati, uning epik an’analarga amal qilishi va badiiy qoliplardan o‘rinli foydalana olganligi bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, doston turli baxshi-shoirlar repertuaridan turli hajmda yozib olingan bo‘lib, uning badiiy jihatdan mukammalligi va epik kuychi improvizatsiyasi dostonchilik maktablari an’anasi doirasida amal qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi: maqolani tahlil va tadqiq etish jarayonida qiyosiy-tarixiy, struktural va etnofolkloristik metodlar asos vazifasini o‘taydi. Shuningdek, jahon va o‘zbek folklorshunos olimlari tomonidan olib borilgan eposshunoslikning nazariy muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlar tashkil etadi.

Natijalar va muhokama. “Alpomish” dostoni respublikamizning turli dostonchilik maktabi (Xorazm dostonchiligida ijro etilmaydi) baxshilari repertuarida ijro etilgan. Biz esa doston strukturasida muhim o‘rin tutgan epik klishe va badiiy-tsavir vositalarini SHerobod dostonchilik maktabi iqtidorli baxshisi Umir shoir Safarov repertuaridan yozib olingan doston misolida tahlilga tortsak. Chunki Baxining ushbu varianti Janubiy O‘zbekiston dostonchilik maktabi baxshilari repertuaridan yozib olingan variantlarning badiiy jihatdan mukammali va epik an’anani o‘zida yaxshi saqlaganligi bilan alohida ajralib turadi. “Surxondaryo va Qashqadaryo vodiylarida aytilib kelinayotgan “Alpomish” dostoni xususiyatlarini o‘zida saqlagan bo‘lib, bu vohadan yozib olingan variantlar orasida eng mukammali hisoblanadi” [2,48].

Epik qolip shakllari va badiiy-tasviriy vositalar ushbu doston variantida ham an’anaviy qolip vazifasini o‘taydi. Epik qoliplar doston strukturasida muhim ahamiyat kasb etib, ular an’ana doirasida umumlashgan, qat’iy ijroga moslashagn. Shulardan biri epik klishelar yoxud qaytariq o‘rinlar dostondan dostonga ko‘chib yuruvchi umumiy qolip shaklidagi ko‘rinish bo‘lib, kompozitsion jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Baxshi-shoirlarning dostonchilik an’analari doirasida dostonlarni ijro etish malakalari, bunda an’ana va badihaning o‘rni masalalarida akademik V. Jirmunskiyning turkiy xalqlar dostonchiligi borasidagi kuzatuvlari diqqatga sazovor. “Baxshi yodlanmagan matnni kuylaydi, u hech bo‘lmaganda qisman muayyan ssenariy bo‘yicha improvizatsiya qiladi, bunda ketma-ket epizod va vaziyatlarga qo‘shimcha ravishda an’anaviy odatiy joylar (otni egarlash, qahramonga nasihat, janglarni tasvirlash va hk) doimiy bo‘ladi. Albatta, bunday improvizatsiya faqat ma’lum bir puxta tashkil etilgan an’ana doirasida amalga oshiriladi. Bunda nafaqat syujetlar, motivlar va tasvirlar, balki doimiy stilistik formulalar, epitetlar, taqqoslash, frazeologik birliklar va boshqalar doimiy ravishda ishtirok etadi. Bu esa faqat an’ana va improvizatsiyaning kombinatsiyasidir”[3,79]. Demak, epik klishelar doston strukturasida voqealarni yaxlit tizimda davomiyligini saqlaydi. Ikkinchidan, epik klishelar doston voqealari., uning kompozitsion yaxlitiligini struktural jihatdan uyushtiradi va baxshiga badiha qilish imkoniyatini yaratadi. Chunki baxshi og‘zaki tarzda yod olingan matnni epik xotirasida saqlab, uning badiha qilish imkoniyatini hozirlaydi. Uchinchidan, epik klishelar dostonchi tayyorlash vazifasini o‘taydi. Shogird baxshilar ustozlaridan doston ijro etishni o‘rganar ekan, ustoz dastlab ularga terma va dostondagiasosiy o‘rinlarni yod oldirish orqali ularga matnlarni ijro etish usul va yo‘llarini o‘rgatadi. To‘rtinchidan, epik kleshilar yordamida baxshi xotirasida mavjud doston voqealari kompozitsion barqarorlikni ta’minlab, badiiy-tasvir vositalari asosida ijodkorga an’ana va badiha imkoniyatini yaratadi.

“Alpomish”[4] dostonidagi epik klishelar turli o‘rinlarda ifoda etilsa-da, biz ularnig ba’zi bir xususiyatlariga e’tibor qaratamiz. Dostonlarda epik o‘rinlar dastlab boshlanma qismida muhim o‘rin egallab, u epik zamonning o‘tmishga daxldorligidan dalolat beradi. “Qadim zamonda Boysun tomonda o‘zbek xalqlaridan qo‘ng‘irot urug‘idan Boybo‘ri va Boysari degan aka-uka o‘tgan edi. Boybo‘ri, Boysarining otasini Davanbiy der edilar. Davanbiyning otasini Alponbiy der edilar. Akasi Boybo‘ri, ukasi Boysarilar chorvadorlar edi. Ikkovi ham boy kishilar edi, Qo‘ng‘irotning

e’tiborli boshliqlari edi” (17-bet). Albatta, dostonlarda boshlama muhim o‘ringa ega bo‘lib, u birinchi navbatda voqealarning uzoq o‘tmishga aloqadorligini bildirib, auditoriyani o‘sha epik makon bilan bog‘laydi, ikkinchidan, qahramonlar shajarasi va u bilan bog‘liq ma’lumotlar umumiy tarzda o‘quvchi ko‘z o‘ngida badiiy tasvirlana boradi. Uchinchidan, syujet voqealarining turli jarayonlarda davom etishini ta’minlaydi. “Epik ijoddagi muqaddimaning o‘rganilishi, avvalo, doston strukturasining mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Epik asar syujetining keyingi rivojini ta’minlab beradi. Dostonda kechayotgan joy, asosiy obrazlar, epik asar asosida turgan voqelikning mohiyatini tushuntiradi. Muqaddimada ko‘pincha qahramon shajarasiga urg‘u beriladi, unda tilga olingan qahramon shunchaki, oddiy bir qahramon emas, balki bevosita ko‘k bilan, ilohiyot bilan bog‘lanishi urg‘ulanadi... Muqaddimalar:

1. Tinglovchini voqelikka tayyorlaydi, ya’ni ularni dostonning asosiy qahramonlari hamda voqea bo‘lib o‘tadigan joy bilan tanishtiradi.

2. Doston qamrab olgan voqelikni ko‘lami naqadar keng ekanligini urg‘ulaydi.

3. Badiiy asardagi motiv va syujetlarning rivojiga turtki beradi hamda ular o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi”[5,11]. Darhaqiqat, doston boshlamasidan epik qahramon Alpomish va Barchinlarning shajarasi, urug‘ birligi, hokimiyat boshqaruviga aloqador xususiyatlar ta’kidlanmoqdaki, buni biz doston mazmunida badiiy ifodasini topgan uch qahramonning alplik, ya’ni hokimiyat egasi sifatidagi faoliyatini ko‘rishimiz mumkin: Alpinbiy – Alpomish – Barchin. Baxshi esa ushbu tayyor qolip sifatida doimiy tarzda takrorlanib keluvchi ushbu elementlarni yodaki ijro etib, ularni har galgi ijrosida ommalashtirib, sayqallashtira boradi. Qahramonlar dostonlarda shunchaki dunyoga kelmaydi. Ushbu holat dostonning quyidagi davomiyligida epik kuychi tasvirida ochiqlana boradi: “Ikkovining o‘g‘il-qizi bo‘lmaganligi uchun to‘ylarda, ma’raka-majlislarda har xil gaplardan xafa bo‘lib, ikkovi ovga chiqib ketdi, ov qilaverdi” (17-bet). Doston boshlamasida keltirilgan an’anaviy epik klishening nafaqat matn strukturasi, balki asar g‘oyaviy maqsadini shakllantirishda ham ochg‘ich vazifa o‘tayotganligi ko‘zga tashlanmoqda. Qahramonlar ilohiy dunyoga kelib, Fozil shoir variantida Shohimardon ravzasiga farzand tilab borilsa, Umir shoir variantida ov jarayonida “kiyik bo‘g‘oz, yelini to‘lgan ekan, shuning uchun “bolalari ham xayf bo‘lmasin”(17-bet) deb otmaydilar. Bu esa islomiy e’tiqod va tafakkurdan avvalgi xalqimizning e’tiqodiga aloqador dunyoqarashining doston matnida saqlanish holatidir.

Epik klishelarning o‘ziga xosligi ijodkor badihasiga zamin tayyorlab voqealarni mantiqiy davom ettiradi. “Alpomish”dagi qahramonning Barchin yori taloshda ekanligi uchun safarga otlanish jarayoni tasvirida otni egarlash voqesi ham mavjud. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida epik qahramonga otni egarlash uchun uning sayisi Soqi xizmat qilsa, “Alpomish”da Qaldirg‘och ushbu vazifani bajaradi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Qaldirg‘och nafaqat Alpomishning singlisi, balki sayisi vazifasini ham o‘tamoqda. Ushbu jarayonning tarixiy asoslari borasida ilmiy mulohazalarni kuchaytirish doston syujeti, motiv va obrazlari genezisining qadimiyligi va doston strukturasida tutgan vazifasini o‘rganishda muhim ilmiy masala sifatida ahamiyatli ishlardan hisoblanadi. Doston voqealarida Qaldirg‘och tomonidan otni egarlash jarayoniga aloqador epizodlar quyidagicha tasvirini topadi: “Alpomish Alponko‘lda ot abzalining qoshiga bir ola otni tashlab turibdi. Alpomishga Qaldirg‘och:

Nima bo‘ldi? – dedi.

Alpomish aytdi:

Qultoy bobo shu otni berdi.

Qaldirg‘och otning oldiga, ortiga o‘tib, terilarini tashlab, mahkam belini tortdi” (87-bet). Matn tahlilidagi o‘rinlardan ko‘rinib turibdiki, epik klishelar faqatgina tayyor qaytariq o‘rin vazifasini emas, balki doston g‘oyaviy maqsadini, mazmun-mohiyatini shakllantirishda ham baxshilarga epik dunyoqarash, e’tiqodiy ifodalarni tasvirlash imkoniyatini yuzaga chiqara oladi.

Dostonlar kompozitsiyasi lirik va epik tasvir uyg‘unligidan iborat bo‘lib, har ikkala matn bayonning turli maqsad va vazifalarini bajaradi. Ayniqsa, epik klishelar bilan bir qatorda doston strukturasida tayyor holatda an’anaviy shakllangan badiiy-tasvir vositalari mavjudki, ular matn obrazliligi, ta’sirchanligi, qahramon ruhiy jarayoni va xatti-harakatini ifodalashda muhim ahamiyatli hisoblanadi. Badiiy tasvir va ifoda vositalari orqali ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati, badiiy so‘zni jonlantirishi, sifatlashi, o‘ziga xos uslubi va oraliq shakllar tilidagi emotsionallikning asoslari ko‘zga aniq tashlanadi[6,290]. Ayniqsa, doston badiiyligini oshiruvchi vositalardan ramziy obrazlar, doimiy sifatlash va o‘xshatishlar, mubolag‘a, turg‘un iboralarning farovonligi, doston tilida erkalovchi, kichraytiruvchi qo‘shimchalarning qo‘llanishi, saj’ va takrorlar baxshi mahorati asosida jonli kartina yaratadi hamda tinglovchiga badiiy quvvat bag‘ishlaydi.

Ikkinchidan, doston matnidagi badiiy vositalarning o‘ziga xos jihatlari voqealarga munosabat bildirish, ayniqsa, epik obrazlar, portret, tabiat tasvirini gavdalantirish, ularning epik jarayonga munosabati masalasi alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki badiiy-tasviriy vositalar yordamida baxshi qahramon hissiyoti, kechinmalari, ularning syujet tarkibidagi harakatlarini jonli ifodalash uchun maxsus yondashadi. “Alpomish”dagi ot ta’rifida Umir shoir o‘xshatishlardan quyidagicha mahorat bilan foydalana boradi:

Tulpor otning chatani
Misoli chordaraday,
Sirti bor qo‘rg‘on-qal’aday.
Cho‘lda ketib boradi
Osmondan engan boladay,
Ketishi yomg‘ir-jaladay (94-bet).

Baxshi birgina Boychibor obrazining harakatlarini jonli badiiy tasvirlash uchun turli narsa-hodisalarga qiyolamoqda.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, epik qoliplar va tasvir vositalarini dostonlar matni misolida tahlil qilish epik ijodiyotning o‘ziga xosligi, an’ana va badiha uyg‘unligi va baxshi mahorati masalalarini ilmiy o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. –Ташкент: Фан, 2008. –С89.
2. “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlari. –Toshkent: Fan, 1968. –Б.48.
3. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Л., 1974. -С. 79.
4. Alpomish. Doston. Aytuvchi Umir shoir Safarov. –Toshkent: Akademnashr, 2019. Misollarni ushbu dostondan olib, sahifasini qavs ichida ko‘rsatamiz.
5. Eshonqulov J. Mardlik va jasorat ulug‘langan doston // Alpomish. O‘zbek xalq dostoni. Aytuvchi Umir shoir Safarov, Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li. – Toshkent: 2019. – B.11-12.
6. Izzat Sulton. Adabiėt nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – B. 290.
7. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. –Toshkent: Musiqa, 2010.
8. Путилов Б.Н. Эпической сказительство. –М.:Восточная литература, 1994.
9. Turk halq edebiyati. –Anqara, 2021.

“GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” DOSTONIDA USLUBIY VOSITALARNING O‘RNI

D.Noraliyeva
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Noraliyeva@gmail.com
ORCID 0009-0009-5494-094X

UDK 821.512.133.09

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan biri bo‘lgan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil etiladi. Doston matni asosida unda qo‘llangan til birliklari – evfemizmlar, teonimlar, ramzlar, pretsedent nomlar kabi ifoda vositalari aniqlanadi va ularning semantik, stilistik hamda madaniy-ma’naviy yuklamalari ochib beriladi. Ushbu tahlil orqali nafaqat dostonning badiiy-estetik xususiyatlari, balki o‘zbek xalqining qadimiy dunyoqarashi, tafakkur tizimi, axloqiy tamoyillari va madaniy ko‘lamlari yorqin namoyon bo‘ladi. Evfemizmlar orqali xalqning nozik didi, odob-ahloq me’yorlariga hurmat bilan yondashuvi ifodalanadi. Teonimlar esa diniy tasavvurlar, e’tiqod tizimi hamda ilohiy kuchlarga bo‘lgan munosabatni yoritishga xizmat qiladi. Ramzlar orqali esa xalqning estetik qarashlari, falsafiy tafakkuri va hayotiy tushunchalari aks ettiriladi. Pretsedent nomlarning ishlatilishi esa doston matnida tarixiy shaxslar, muqaddas obrazlar yoki madaniy qadriyatlarning konnotativ yuki vositasida xalqning xotira madaniyatini, ma’naviy-madaniy merosga bo‘lgan yondashuvini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: og‘zaki ijod, teonim, pretsedent nomlar, lingvokultrema, lingvoma’naviyat, ramzlar, e’tiqod, ma’naviy qiyofa

Annotation. This research examines *“The Birth of Goro‘g‘li”*, a prominent example of Uzbek oral folk literature, through a linguoculturological approach. The study identifies and analyzes linguistic elements used in the text—such as euphemisms, theonyms, symbols, and precedent names—and explores their semantic, stylistic, and cultural-spiritual connotations. Through this analysis, not only the artistic and aesthetic features of the epic are revealed, but also the ancient worldview, system of thinking, ethical principles, and cultural values of the Uzbek people are vividly uncovered. Euphemisms reflect the people's refined taste and respect for moral norms; theonyms highlight religious perceptions, belief systems, and attitudes toward divine powers; symbols express aesthetic views, philosophical thinking, and life concepts of the people. The use of precedent names demonstrates the nation’s cultural memory and its reverent attitude

toward historical figures, sacred images, and cultural heritage. Overall, the study contributes to a deeper understanding of the linguistic and cultural representations embedded in traditional oral narratives and their broader significance in the context of national identity.

Keywords: oral folklore, theonym, precedent names, linguocultureme, linguospirituality, symbols, belief system, cultural identity

Kirish. Muayyan asar, u xoh hog‘zaki ijod namunasi bo‘lsin, xoh yozma adabiyotga tegishli bo‘lsin, undagi har bir voqelik, kechinma shu millatning orzu-umidlari, asar yaratilgan davr ruhi, xalqning milliy o‘ziga xosligi, ma’naviy qiyofasini gavdalantiradi. Zero, “Badiiy asarni tashkil etuvchi barcha elementlar, davr ruhi, personajlarning xatti-harakatlari va holatlari o‘sha millat milliy-madaniy muhiti ko‘zgusidir”[6].

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining o‘lmas namunasi hisoblangan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida ham boshqa xalq dostonlarida bo‘lganidek, xalqimizning milliy madaniyati, tarixiy voqelik va uning millat ruhiyatiga ta’siri, xalqning e’tiqodi, qarashlari, ma’naviy sifatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Doston, avvalo, badiiy asar. Shunday ekan, asar unda aks etgan voqelik orqali ekspressiv vazifa (hissiy ta’sir qilish) bilan birga kommunikativ (ma’lum bir voqea-hodisa haqida axborot berish) vazifasini ham bajaradi. Dostondan olingan kommunikativ ma’lumot bizga xalq o‘tmishi, orzu-armoni, ideallari, turmush tarzi, urf-odatlari, madaniy va ma’naviy qiyofasining shakllanish bosqichlari haqidagi axborotni yetkazadi. Dostonni o‘qir ekanmiz, xalqimizning tarixini o‘rganamiz. Asardagi voqelikni badiiy tasvirlash jarayonida doston yaratuvchisi bo‘lgan donishmand xalqning ma’naviy olamini dostondagi tasviriy vositalar yordamida anglaymiz. Xususan, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida tasvir vositalaridan bo‘lgan teonimlarning qo‘llanishi xalq e’tiqodini ko‘rsatuvchi lingvokultremalardan biridir. Butun yer yuzida har bir xalqning turmush tarzi o‘ziga xos urf-odatlar, an’analar, shuningdek, muayyan din, e’tiqod bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Inson yaralibdiki, uning o‘zi topinuvchi, e’tiqod qiluvchi, ishonuvchi, yordam so‘raladigan mavhum bir ilohiy qudrat haqidagi tasavvuri mavjud. Xuddi shunday onamastikaning tarkibiy qismi bo‘lgan teonimlar keng ma’noda insonlarning diniy-ilohiy qarashlaridan kelib chiqqan holda, ular nutqida ishlatiladigan ilohiy nomlardir. “Teonim (yunoncha *theos* “xudo” va -onim “ism” dan) – xudoning o‘ziga xos nomi**.** Teonimlarni o‘rganish onomastikaning bir tarmog‘idir. Jamiyat xudolarining nomlari ularning tillarining kelib chiqishini, shuningdek, ma’lum bir xudo haqidagi qarashlarini tushunishda foydali hisoblanadi”[10].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yoritishda tavsifiy (deskriptiv) metod, tahliliy (analitik) metod, qiyosiy (komparativ) metod, lingvopoetik metodlardan foydalanildi.

Natija va muhokama. Yozma adabiyotda, ayniqsa, xalq og‘zaki ijodida teonimlarning keng qo‘llanilishini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida ham teonimik leksik birliklar bir muncha uchraydi. Xudo, Yazdon, Ollo, Olloh, Haq kabi birliklar bir tomondan asar qahramonlarining ishonch, najot manbayini namoyon etsa, ikkinchi tomondan, xalqimizning diniy e’tiqodi, tarixi, madaniyatini o‘zida aks ettiradi. Dostonda qo‘llangan diniy-ilohiy leksikani islomgacha va islom dini ta’siri davri bilan bog‘liq teonimlarga bo‘lib tadqiq etish mumkin. Ular orasida Ajdarho, Dev, pari, jin arvoh kabi teonimlarni ham, islomiy e’tiqod, falsafaga ishonuvchi xalqning ko‘mak beruvchi kuchlari hisoblangan chiltonlarni ham uchratish mumkin. Chilton “afsonaviy kuch-qudratga ega, ko‘zga ko‘rinmas qirq ilohiy ruh. Afsonaviy tasavvurga ko‘ra qahramonning homiylari” [3] hisoblanadi. Dostonda chilton (*Omad tilang qirq chiltondan Omin, allayor, allayor* “G.t”161-bet), pari (… Ko‘hi Qofdan Yunus pari, Iram bog‘dan Misqol pari Go‘ro‘g‘libekka qiyomatli cho‘ri deb xatga yozib qo‘yilipti. “G.t”171-bet) so‘zlari ko‘p qo‘lladi. Nomshunos olim olim G.S. Snesarovning ta’kidlashicha, “bu (ajdarho, dev – ta’kid bizniki) nomlar O‘rta Osiyo va Qozog‘iston regionida keng tarqalgan to‘rtta mifologik obraz: Ajdarho, Dev, Pari, Jinlarni O‘rta Osiyo demonologiyasidagi salbiy qahramonlar nomlarini aks ettirgan teonimlarga kiritish mumkin”[5]. Lekin bu asarda pari salbiy obraz sifatida gavdalanmaydi, balki Go‘ro‘g‘lining umr yo‘ldoshlari, maslahatgo‘yi, yordamchisi, ajayib farzandlar tarbiyachi, qo‘yingki, oddiy o‘zbek ayoliga xos jihatlarni o‘zlashtirgan ilohiy kuch-qudrat sohibi sifatida namoyon bo‘ladi. Dostonda Xudo (bu teonim dostonda ko‘p o‘rinda qo‘llangan), Xizr (*Shunda bir sher mozoristonda yotgan ekan, bolaga qarab tashlandi. Shunda hazrati Xizr kelib sherni bir tarsaki urdi.* 63-b), Ollo (*Bor, Go‘ro‘g‘li, bir Olloga topshirdim. 84-b*) kabi teonimlarning qo‘llanishi doston matnida islom dini ta’siri yaqqol ekanligini ko‘rsatadi. Xizr obrazi mumtoz badiiy adabiyotda ham eng qo‘llanadigan teonimlardan biridir. Xizr, Hazrati Xizr, Xizr buva – islom rivoyatlaridagi shaxs, taqvodor inson. Xizr Qur’onda tilga olinmagan, lekin ulamolar Qur’onda “Allohning quli” nomi bilan tilga olingan shaxsni Xizr deb talqin

qiladilar. Xizrga odamlarda Allohga bo‘lgan e’tiqodni qo‘llab turish uchun Iso, Ilyos va Idris singari abadiy hayot ato etilgan. U hayot bulog‘idan “obi hayot” ichgan va umri boqiy bo‘lgan[11]. Xizr mumtoz adabiyotda ko‘pincha abadiy hayotni ifodalashda qo‘llansa, xalq dostonlarida va ayrim zamonaviy yozma nasriy asarlar (Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasida bosh qahramonga unga uchrashi yoki Luqmon Bo‘rixonning omadga erishgan yigit haqidagi “Chorbog‘ qo‘riqchisi yoxud Xizr ko‘rgan yigit”)da ham kishilarga yordam beruvchi, favqulodda omad keltiruvchi obraz sifatida gavdalanadi. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida ham Xizr har doim bosh qahramonni qo‘llab-quvvatlovchi, favqulodda holatlarda vaziyatdan chiqib ketishga ko‘maklashuvchi homiy sifatida ishtirok etadi. Bu esa asrlar davomida xalq ong-tafakkurida shakllangan ishonch, e’tiqodni ko‘rsatadi.

Har bir xalqning adabiyoti uning orzu-armonlari, istak-xohishlari, urf-odatlari, albatta, madaniyatini ko‘rsatuvchi yirik ko‘zgudir. Xususan, xalq dostonlarida ham milliy pretsedent birliklar xuddi shunday lingvokulturologik jihatdan ahamiyatlidir. Dostonlarda qo‘llangan Alpomish, Barchin, Go‘ro‘g‘li, Rustam kabi qahramon nomlari pretsedent birlik sifatida xalq madaniyatini ko‘rsatuvchi semaga ega bo‘lgan nomlardir. Chunki “badiiy asarda qo‘llangan pretsedent nomlar, eng avvalo, lingvopoetik ahamiyatga ega bo‘lgan muhim semantik-stilistik komponentlardan biridir. Shu bilan birga presedent nomlar qatnashgan matn o‘zida umumjahon yoki umummillat ilmi, adabiyoti, madaniyati va tarixiga doir axborotlarni saqlovchi kontekst vazifasini ham bajaradi. Bu, xususan, pretsedent nomlar matnda allyuziv nom sifatida qo‘llanganida voqe bo‘ladi. Ma’lumki, allyuziv nomlar mashhur adabiy yoki tarixiy-madaniy faktga ishora qiluvchi nom hisoblanadi”[7]. Birgina o‘rganish obyektimiz bo‘lgan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida Go‘ro‘g‘li nomining o‘ziyoq eng ko‘p tarqalgan, badiiy adabiyot eng ko‘p murojaat qiladigan pretsedent nomdir. Go‘ro‘g‘li so‘zi go‘rda tug‘ilgan, kur (mard, botir)ning o‘g‘li, ko‘r (otasi Ravshanga ishora, uning ko‘zi o‘yib olingan edi)ning o‘g‘li ma’nolari[2]da qo‘llanilishi ta’kidlansa ham, badiiy adabiyotda mardlik, jasorat, botirlik ko‘rsatuvchi qahramon, el-yurt mudofaasi uchun jon kuydiruvchi, xalqning farovonligi va tinchini o‘ylovchi hukmdor sifatida keng qo‘llanadi. Masalan, To‘ra Sulaymonning *“Go‘ro‘g‘li sulton bir yon, To‘ra Sulaymon bir yon”* misralari she’r sevgi, muhabbat mavzusida bo‘lgani uchun beixtiyor Go‘rog‘lining bu masalada doimiy kurashib, yovuzlar, yovuzliklarni yengib, o‘z muhabbatiga yetishishi ma’nosini anglatishini o‘quvchi darrov ilg‘aydi. Ba’zan pretsedent nomlarning o‘zi badiiy matn (she’riy misralar, nasriy parchalar)da aynan ishtirok etmasa-da, matndagi ayrim so‘z(lar) orqali shu nomga ishora qilishi ham kuzatiladi. Bunda o‘quvchidan biroz badiiy tafakkur, og‘zaki yoki yozma adabiyotdan xabardorlik talab etiladi. Misol uchun, Faxriyorning “Go‘rlar qisir, tug‘ishdan qolgan” misrasida yoki Najmiddin Ermatovning “Yo erk uchun alp tug‘gan Faqat mozormi, jo‘ra?” qo‘shmisrasida pretsedent nom sifatida Go‘ro‘g‘li so‘zi ishlatilmaydi. Lekin bu yerdagi *go‘r, tug‘moq; alp, mozor, tuqqan* so‘zlari orqali doston bilan tanish bo‘lgan aksar kishilar bevosita gap nima haqida ketayotganligini sezmay qolmaydi, albatta. Zamonaviy o‘zbek nasrida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ijodkor Nazar Eshonqulning “Go‘r o‘g‘li” romani nomi bizga bir qarashda, garchi qo‘shma so‘z sifatida yozilmagan bo‘lsa ham, yuqoridagi kabi “signal” berishi mumkin, ammo bu roman nomi, voqealar rivojining doston qahramoni bilan bog‘liqligi ancha yiroq ekanligi uni bu o‘rinda pretsedent nom sifatida qo‘llab bo‘lmasligini ko‘rsatadi.

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni xalqimizning ko‘p asrlik an’analari, milliyligini ko‘rsatuvchi lingvomadaniy til birliklariga boyligi bilan ahamiyatlidir. Dostonda ko‘p uchrovchi shunday lingvokulturemalardan biri ramzlardir. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ramzga shunday ta’rif berilgan: “Biror g‘oya, tushuncha, hodisa kabilarni ifodalovchi, eslatuvchi shartli belgi, ishora[8]”, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida esa mazkur atamaning voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli va badiiy shartlilik shakllaridan ekanligi, u majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilish bilan bog‘liq bo‘lishi hamda ko‘pma’noliligi bilan ajralib turishi izohlanadi[9]. Dostonda Odilxondan yengilgan Shohdorxonning tush ko‘rish epizodi mavjud. Podsho tushida ko‘rgan ikkita bo‘ri, ikki sher, qo‘y, bir lagan tilla, og‘izdan uchgan qush, vayron bo‘lgan imorat, shu’lasi hamma joyni yorug‘ qilgan oy, chinor, chinor soyasida soyalagan xaloyiq majozlari orqali anglashilgan ma’no, birinchi navbatda, doston islom dini va falsafasi asosida yashaydigan xalqning qarashlarini ifoda etadi. Bundagi majoziylikning xalq e’tiqodi bilan bog‘liqligini tushunish uchun podshoning tushini ta’bir qilgan Yusuf qur’andozning izohini ko‘zdan kechirish kifoya. U tushni quyidagicha ta’bir qiladi: ikkita bo‘ri Yovmit eldan kelgan Gajdumbek va Ravshanga ishora, podsho tepasidan sochilgan tilla – uning qoni, og‘zidan uchgan qush – joni, qulagan imorat – podshoning tanasi, chinor – Ravshanbek va uning avlodlari yoygan e’tiqod,

chinorda soyalagan xalq – shu e'tiqodga kirgan kishilardir. E'tiborga olish kerakki, tushda tasvirlanga chinor va uning atrofida soyalagan xalq bobolarimiz e'tiqod qilgan islom dini ta'limotini, chinorda soyalagan xalq esa shu e'tiqodga amal qiluvchi kishilar jamoasini bildiradi. Demak, bu ramziylik orqali xalqimizning o'tmishi haqida ham tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin.

Xulosa. Doston xalq tarixi, boshidan kechirgan voqeliklarni, uning madaniyati, ma'naviyatining shakllanish bosqichlarini ko'rsatuvchi ko'zgudir. "Zeroki, folklor asarlari ajdodlar va avlodlarning jonli aloqasi va vorisiyligini o'zida mujassamlashtiradi, xalq ijtimoiy-maishiy hayoti bilan bevosita bog'langanligi tufayli har bir kishiga o'z xalqi, uning tarixi va kelajagi, istiqboldagi orzu-umidlari bilan vobastalikni his etishga, amaliy faoliyatda esa yuksak axloqiy ideallarni asos qilib olishga yordam beradi"[1].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Go'ro'g'li (aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li, nashrga tayyorlovchi To'ra Mirzayev va Zubayda Husainova) 2. O'zbek xalq dostonlari. – Toshkent: Sharq NMAK, 2006. – B.3. – 448 b.

2. To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. – Toshkent: O'zME, 2018. – B.50. – 200 b.

3. Xalq og'zaki ijodi. Go'ro'g'lining tug'ilishi. – Toshkent: Yangi Poligraph Service nashriyoti, 2019. – B.161. – 207 b.

4. Ономастика Средней Азии. – Фрунзе, 1980. – С.275.

5. Снесаров Г.С. К истории некоторых категорий теонимов у народов Средней Азии и Казахстана // https://uz.wikipedia.org/wiki/Xizr

6. Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талкини: Филол. фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент. 2015. - 240 б.

7. Худойберганова Д. Прецедент номларнинг антропосентрик талқини.//Ўзбек тили ва адабиёти журнали. 2015-йил 2-сон. 41 бет.

8. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik, 4-jild. Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – B.384. – 824 b.

9. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-том. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – 247- бет.

10. https://findwords.info/term/theonym

11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xizr

MATN YARATILISHIDA PRETSEDENT BIRLIKLARNING O'RNI

Niyazova Dilbar Xoltemirovna
Qarshi davlat universiteti dotsenti
dilbarniyozova9@gmail.com
ORCID 0009-0003-5896-1461
UDK 81'42

Annotatsiya. Ushbu maqolada matn yaratish jarayonida pretsedent birliklarning tutgan o'rni va ahamiyati yoritilgan. Pretsedent birliklar madaniy xotirani aks ettiruvchi, matnga intertekstual va semantik boylik baxsh etuvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot davomida pretsedent birliklarning asosiy manbalari, ularning turlari (badiiy, diniy, tarixiy, folklor) va matnda bajaradigan vazifalari tahlil qilindi. Shuningdek, matnning kommunikativ samaradorligini oshirishdagi roli ko'rsatib berildi. Metod sifatida tahlil, taqqoslash, deskriptiv va kontekstual yondashuvlardan foydalanildi. O'zbek tilidagi badiiy va publitsistik matnlar asosida pretsedent birliklarning qo'llanish xususiyatlari o'rganildi. Maqolada pretsedent birliklar tadqiq etilgan ishlarda miflar, xalq qo'shiqlari, ertaklar, latifalar, maqol, turg'un o'xshatishlar, frazeologizm hamda mashhur shaxslar nomi pretsedent birlik sifatida qayd etilishi, hamda bunday birliklarning pretsedent nomlar, pretsedent jumlalar, pretsedent matnlar kabi turlarga ajratilishi haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: matn, personaj, til, nutq, pretsedent nomlar, pretsedent jumlalar, pretsedent matnlar.

THE ROLE OF PRECEDENT UNITS IN TEXT CREATION

Annotation. This article highlights the role and significance of precedent units in the process of text creation. Precedent units are interpreted as means that reflect cultural memory and enrich the text with intertextual and semantic depth. The study analyzes the main sources of precedent units, their types (literary, religious, historical, folkloric), and their functions within the text. In addition, their role in enhancing the communicative effectiveness of the text is demonstrated. Methods such as analysis, comparison, descriptive and contextual approaches were applied. The peculiarities of using precedent units in Uzbek literary and journalistic texts were examined. The article states that in the studies of precedent units, myths, folk songs, fairy tales, anecdotes, proverbs, fixed comparisons, phraseologisms, and the names of famous personalities are identified as precedent units, and such units are classified into types such as precedent names, precedent

sentences, and precedent texts.

Key words: text, character, language, speech, precedent names, precedent sentences, precedent texts.

Kirish. Hozirgi davr lingvistik tadqiqotlarida matnning tarkibiy, semantik va pragmatik xususiyatlarini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Matnning mazmuniy boyligi va ta’sirchanligi ko‘pincha uning tarkibida turli madaniy va ijtimoiy anglashuvlar, an’anaviy qadriyatlar, muayyan avlodning tajribalari bilan bog‘liq bo‘lgan til birliklaridan foydalanish orqali yuzaga chiqadi. Shu jihatdan pretsedent birliklar matn yaratish jarayonida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Pretsedent birliklar deganda keng auditoriya ongida barqaror shakllangan, umumiy madaniy, tarixiy yoki badiiy manbalarga tayanuvchi til birliklari tushuniladi. Bunday birliklar matnning intertekstual asosini mustahkamlab, muallifning g‘oyasini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi, o‘quvchi va tinglovchida qo‘shimcha assotsiatsiyalar uyg‘otadi, matnga dalolatli va emotsional rang-baranglik baxsh etadi. Ayniqsa, zamonaviy ommaviy axborot vositalari, badiiy asarlar hamda publitsistik matnlarda pretsedent birliklardan unumli foydalanish matnning stilistik boyligini ta’minlaydi va uning kommunikativ samaradorligini oshiradi. Ushbu maqolada matn yaratish jarayonida pretsedent birliklarning o‘rni, ularning asosiy turlari va vazifalari hamda o‘zbek tilidagi matnlarda qo‘llanish xususiyatlari tadqiq etiladi. Shu bilan birga, pretsedent birliklarning milliy mentalitet va madaniy xotira bilan bog‘liqligi ham tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Lingvomadaniy tahlilning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida til tizimidagi pretsedent birliklarning o‘rganilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ular lingvokulturologiya fanining tadqiqot obyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Pretsedent birliklarga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, pretsedent atamasi tilshunoslik sohasida ilk bor Y.N. Karaulov tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, u buni rus tilidagi “Rol pretsedentnix tekstov v strukture i funksionirovanii yazikovoy lichnosti” nomli maqolasida ifoda etgan[1].

Rus tilshunosligida pretsedent birliklar sifatida muayyan til egalarining lisoniy xotirasida saqlanadigan, ularga yaxshi tanish bo‘lgan hamda nutqiy faoliyatda tez-tez qo‘llanadigan shaxs nomlari, barqaror iboralar, jumlalar va matnlar qayd etiladi.[2]

YE.A.Naximova pretsedent fenomenlarni xalqning milliy ongida saqlanuvchi tizim sifatida baholaydi[3].

Rus tilshunosligidagi pretsedent birliklar tadqiq etilgan ishlarda miflar, xalq qo‘shiqlari, ertaklar, latifalar, maqol, turg‘un o‘xshatishlar, frazeologizm hamda mashhur shaxslar nomi pretsedent birlik sifatida qayd etiladi. Shunga ko‘ra bunday birliklarning pretsedent nomlar, pretsedent jumlalar, pretsedent matnlar kabi turlari ajratiladi[4].

N.Pyego-Gro intertekstuallikka bag‘ishlangan tadqiqotida pretsedent birliklarni to‘rt asosiy turga ajratadi: 1) Sitata; 2) Referensiya; 3) Qo‘shtirnoqsiz iqtibos; 4) Allyuziya[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini matn lingvistikasi, stilistika, pragmalingvistika va intertekstual yondashuvga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Ish davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Tahlil va taqqoslash usuli. O‘zbek tilidagi turli matnlar (badiiy, publitsistik va rasmiy uslubdagi) tarkibida pretsedent birliklarning qo‘llanish xususiyatlari tahlil qilindi va ularning mazmun, shakl hamda stilistik vazifalari taqqoslab ko‘rildi.
- Deskriptiv usul. Pretsedent birliklar namunalari aniqlanib, ularning tavsifi va matndagi funksional vazifalari izohlandi.
- Kontekstual tahlil. Birliklarning matndagi umumiy kontekst bilan uyg‘unligi, semantik bog‘lanishlari va ularning o‘quvchi idrokiga ta’siri o‘rganildi.
- Intertekstual yondashuv. Pretsedent birliklarning manbalari (ilmiy, diniy, folklor va badiiy matnlar) aniqlanib, ularning zamonaviy matnlar bilan uzviy bog‘liqligi o‘rganildi.
- Solishtirma metod. Pretsedent birliklarning o‘zbek tilidagi matnlarda va boshqa tillardagi matnlarda qo‘llanishidagi umumiy va farqli jihatlar qiyosiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot uchun asosiy empirik material sifatida o‘zbek yozma va elektron matbuoti, adabiy asarlar, ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan maqolalar hamda turli matn to‘plamlari tanlab olindi. Ushbu metodlar pretsedent birliklarning matn yaratuvchi va matn qabul qiluvchi jarayondagi kommunikativ ahamiyatini chuqur o‘rganish imkonini berdi.

Natijalar va muhokama. Pretsedentlik intertekstuallik tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, aslida, uning tarkibiga kiradigan hodisalardan biri hisoblanadi. Badiiy matnning lingvopoetik jihatlarini o‘rgangan – M.Yo‘ldoshev intertekstuallikka quyidagicha ta’rif beradi:“Ma’lum bir

badiiy matn tarkibida boshqa matnlarga tegishli unsurlarning mavjud bo‘lishi – bu o‘sha matnning intertekstuallik xususiyatini belgilaydi”[6].

Ayrim tadqiqotlarda pretsedentlik intertekstuallikning bir turi sifatida qayd etilgan[7]. Biz ham ushbu fikrni ma’qullaymiz. Pretsedentlik intertekstuallikning namoyon bo‘lish shakllaridan biri bo‘lib, til egalarining asosiy qatlamiga yaxshi tanish ekanligi, nutqda qayta-qayta qo‘llanishi bilan xarakterlanadi. Quyidagi matnlarga e’tibor bering:

Matnda keltirilgan kelinning onasiga – konfet fabrikasi, tog‘asiga – araq zavodi, o‘lgan buvisiga – yangi kafan ko‘chirmasi esa o‘zbek tilida so‘zlashuvchi til egalarining asosiy vakillariga “Uchrashuv” nomli telefilm orqali juda yaxshi tanish. (Bu so‘zlar O‘zbekiston xalq artisti Ergash Karimov tomonidan aytiladi) Shu sababli mazkur matn mazmunini tushunish uchun maxsus bilim talab etilmaydi. Binobarin, bu matn ko‘pchilikka tanish ekanligi va shu boisdan qayta tiklanish xususiyatiga egaligi bilan pretsedent matnga misol bo‘la oladi. Umuman, o‘zbek tilidagi mashhur she’r va qo‘shiqlardan, Qur’on va Hadislar, latifalar, ertak, rivoyat, kinofilmlardan olingan matnlarni pretsedent matnlar sirasiga kiritish mumkin. Ular matn tarkibida aynan yoki o‘zgartirilgan holatda qo‘llanishi mumkin.

Pretsedent birliklar tarkibida pretsedent nomlar alohida ahamiyat kasb etadi. V.A. Maslovaga ko‘ra, ma’lum millat vakillari uchun yaxshi tanish bo‘lgan matnlar yoki voqealar bilan bog‘liq shaxs nomlari pretsedent nomlar sifatida qaralishi mumkin. Masalan, Oblomov, Taras Bulba kabi.[8].

Aytish joizki, bu hodisa mumtoz adabiyotimizdagi talmeh san’ati – mashhur shaxslar nomini keltirish orqali biror voqeaga ishora qilish hodisasiga juda o‘xshaydi. Masalan, Lutfiyning YA’qub bikin ko‘p yig‘idin qolmadi sensiz Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma baytida Islom dini tarixidan ma’lum bo‘lgan YA’qub payg‘ambarning o‘z o‘g‘li Yusufdan ayrilgach, yig‘layverib ko‘zlari ko‘r bo‘lib qolishiga ishora bor.

Ta’kidlash joizki, pretsedent nomlar yuzaga kelish sabablariga ko‘ra turli manbalarga borib taqaladi. Ular badiiy hamda diniy matnlar, mashhur yoki qiziqarli voqealar, afsona va rivoyatlar, ertaklar, latifalar, qo‘shiqlar yoxud kinofilmlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, Layli, Majnun, Xizr, Nasriddin Afandi, Shum bola, Qorabotir, Tohir-Zuhra, Sotti kabi nomlar o‘zbek xalq orasida keng tanilgan.

O‘.Hoshimovning “Itbozga ehtirom” asarida Duxnovskiy familiyasi o‘zbeklar orasida qanday qilib pretsedent birlikka aylangani haqida so‘z boradi. Unga ko‘ra, o‘tgan asrning 80-yillari davomida yozuvchi qo‘liga DOSAAF nashriyoti tomonidan 1979 yilda chop etilgan itlar haqidagi bir kitob tushib qoladi. Ushbu nashrda I.Duxnovskiyning “Itlarga qanday laqab qo‘yish kerak” nomli maqolasi ham o‘rin olgan bo‘lib, unda Alisher, Nodira, Umar kabi bir qator ismlar itlar uchun laqab sifatida tavsiya etiladi. Bu holatga javoban O‘.Hoshimov “Do‘stlik hurmatdan boshlanadi” sarlavhali maqola yozib, uning bir nusxasini “ДОСААФ” nashriyotiga yuborgan. U yerdan hech qanday javob kelmaydi. Maqola esa respublikamiz gazetasida nashr qilinadi, yozuvchining kitobiga kiritiladi. Oradan bir necha yil o‘tgach, yozuvchi bir qishloqqa mehmonga borib, quyidagi voqeaga guvoh bo‘ladi: “Turfa xil mevalar g‘arq pishib yotgan keng sahnli hovliga kirishimiz bilan etak tomondagi molxona devori tagida yotgan, quloq-dumi kesilgan it vajohatli akillab qoldi. Mezbon itga hayqirdi: “Yot, Duxnovskiy! O‘chir ovozingni, Duxnovskiy!” It norozi alfozda g‘ingshib, nari ketdi.

Beixtiyor kulib yubordim... “Bunaqa laqabni qayerdan oldingiz?” desam, “sizning kitobingizdan”, dedi. Mezbonning aytishicha, shu qishloqning o‘zida oltita “Duxnovskiy” bor ekan!

Itbozga ko‘rsatilgan “ehtirom”dan xursand bo‘ldim...”. (O‘.Hoshimov. “Itbozga “ehtirom”)

Shuni ta’kidlash lozimki, pretsedent nomlar muayyan millat vakillarining milliy mentaliteti bilan bog‘liq bo‘lishi bilan birga global xarakterda ham bo‘lishi mumkin. Jumladan, o‘zbek o‘quvchisi Napaleon, Kolumb, Buratino, Charli Chaplin, Otello, Don Juan, Robinzon Kruzo, Jeki Chan, janob Bin kabi nomlar ishtirok etgan matnlar mazmunini hech bir qiyinchiliksiz qabul qilaveradi. Pretsedent nomlarning badiiy matndagi muhim psixolingvistik xususiyati shundan iboratki, ular matn o‘quvchisi ongida nomatniy ma’no, ya’ni matnga doir, lekin uning verbal tuzilishiga kirmagan qo‘shimcha ma’lumotlar[9] aktuallashuvini taqozo etadi. O‘quvchi bunda nomatniy ma’noning matnning pragmatik tuzilishidagi ahamiyatini ham bilishi muhimdir.

Pretsedent birliklar hisoblanuvchi pretsedent jumlalar ham til egalari lisoniy xotirasida saqlanuvchi birliklar bo‘lib, ularga barqaror birikmalar (frazeologizm, turg‘un o‘xshatish va

metaforalar, nutqiy etiketlar, maqol va hadislar) kiradi. Ayrim ishlarda pretsedent jumlalar qanotli so‘zlar, logoepistemalar deb ham yuritilgan[10].

Kuzatishlarimizga ko‘ra, pretsedent jumlalar ayniqsa so‘zlashuv uslubida juda ko‘p qo‘llaniladi. Xususan, kinofilm qahramonlari tilidan aytilgan ayrim gaplar yoki qo‘shiq satrlari kishilar o‘rtasida tez mashhur bo‘lib ketadi. Bunday jumlalarni til egalari o‘z nutqiy vaziyatiga moslagan holda ishlatadi. So‘rov natijasida quyidagi pretsedent jumlalar bugungi kunda ko‘p qo‘llanishi aniqlandi: Onamdan qolgan toshoyna qani? (“Uchrashuv” filmidan); O‘nta qo‘y nima bo‘ladi? (“Mahallada duv-duv gap” filmidan); Otamni uylantiraman deyapti (“Chinor ostidagi duel” filmidan); Siz o‘shami? (“O‘tgan kunlar” filmidan), – Nima haqida gaplashayapsizlar? – Shpionlar haqida. (“Kelinlar qo‘zg‘oloni” filmidan)

Ma’lumki, o‘zbeklarda dafndan so‘ng “Marhum qanday odam edi?” deb so‘rash odat tusiga kirgan. O‘.Hoshimov ushbu pretsedent jumla asosida quyidagi matnni yaratgan:

Umrida birovga yaxshilik qilmagan, aksincha, hammaning dilini og‘ritgan battol bir odam bandalikni bajo keltiribdi.

Odatdagi savol o‘rtaga tushibdi.

–Falonchi qanday odam edi?

Hech kimdan sado chiqmabdi. Savol tag‘in takrorlanibdi:

–Birodarlar, falonchi qanaqa odam edi?

Yana uzoq sukunat cho‘kibdi. Nihoyat, shu mahallada yashaydigan tish do‘xtiri o‘rtaga chiqibdi.

–Hamma tishlari butun edi, - debdi... O‘zbekning g‘alati donishmandligi bor (O‘.Hoshimov. “Taomil”).

Matndan ko‘rinadiki, Yaxshi odam edi o‘rnida qo‘llangan Hamma tishlari butun edi jumlasi orqali yozuvchi o‘zbek xalqi mentalitetining bir qirrasini ochib bera olgan.

Pretsedent birliklar orasida pretsedent matnlar muhim o‘rinni egallaydi. Y.N.Karaulov esa pretsedent matnlarga shunday ta’rif beradi: “Birdan ortiq shaxsga tegishli bo‘lgan, ularning bilish va hissiy munosabatlarida u yoki bu shaxs uchun ahamiyatli bo‘lgan, ya’ni mazkur shaxs bilan aloqador odamlarga juda yaxshi tanish bo‘lgan va, nihoyat, til egalari diskursida qayta-qayta murojaat qilinadigan matnlar”[10] pretsedent matnlardir.

V.V.Krasnix pretsedent matnlarni ijtimoiy, milliy hamda universal pretsedent matn turlariga ajratish fikrini ilgari suradi[11].

Pretsedent matnlar ikki xil tarzda – aynan yoki o‘zgartirilgan holatda qo‘llanishi mumkin. Masalan: Peshonamda nima bo‘lsa, shuni ko‘raman. Taqdirdan qochib, qayerga ham borardim?! Bandasining emas, Xudoning aytgani bo‘ladi”. (S.Nazarova. “Qorlar eriganda” hikoyasi). So‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan ushbu matn hadisi sharifda quyidagicha shaklga ega: “Abdulloh (ibn Mas’ud) rivoyat qiladilar: “Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam bunday dedilar: “Har qaysingizning vujudingiz onangiz qornida qirq kunda tarkib topgay, so‘ng yana shuncha kunda laxta qonga va yana shuncha kunda bir parcha etga aylangay. Keyin Olloh taolo (onangiz qorniga) bir farishtani yuborib, unga to‘rt so‘zni, ya’ni qanday ishlar qilmog‘ingizni, rizqingizni, umringizni va baxtsiz yokim baxtli ekanligingizni yozib qo‘ymoqni amr qilg‘ay. So‘ng jismingizga ruh pudalagay”[12].

Xulosa. O‘zbek tilidagi matnlar tahlili natijasida aytish mumkinki, til egalarining xotirasida nafaqat pretsedent matnlar, balki ularning mazmuniy-kompozitsion tuzilishiga xos bo‘lgan shakllar ham saqlanib turadi. Bunday shakllarga segmentli matnlar, parsellyativ matnlar, o‘xshatish, maqol, metafora asosida tuzilgan matnlarni, shuningdek, ilmiy uslubga xos ayrim matn turlarini, rasmiy uslubdagi hujjatlar matnini misol sifatida keltirish mumkin.

Ayonki, bunday matnlarning mazmuniy va kompozitsion tuzilishiga xos muayyan shakldagi til hodisalari mavjud. Ular so‘z yasalish qoliplari singari, matn muallifining lisoniy xotirasida ehtimoliy shaklda mavjud bo‘lib, nutq jarayonida turlicha mazmunga ega bo‘lgan matnlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Keltirilgan misollardan ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek tilida so‘zlovchilar ongida shakllangan pretsedent fenomenlar til tizimi ichida ham muayyan mikrotizim xosil qilgan. Ushbu birliklar milliy ong, milliy mentalitet va o‘zbekcha lisoniy tafakkur bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, yangi ilmiy izlanishlar uchun serqirra va mazmunli materiallar manbai hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гунько Ю.А. Особенности функционирования прецедентных высказываний в разговорной речи носителей русского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский гос.ун-т , 2002. – 24 с.

2. Красных В.В. Система прецедентных феноменов в контексте современных исследований / Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей. – М.: «Филология», 1997. Вып. 2. – С. 5-12; Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987; Маслова В. Лингвокультурология: Учеб. пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.

3. Нахимова Е.А. Прецедентные имена в массовой коммуникации // http www philology / ru/ linguistics 2 / narhimova 07 htm.

4. Красных В.В. Система прецедентных феноменов в контексте современных исследований / Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей. – М.: “Филология”, 1997. Вып. 2. – С. 5-12.

5. Пьего-Гро Н. Введение в теорию интертекстуальности. – М.: ЛКИ, 2008. – 240 с.

6. Юлдашев М.М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2009. – 316 б.

7. Орлова Н.М. Библейский текст – как прецедентный феномен: Автореф. дис. … д-ра филол. наук. – Саратов: Саратовский гос.ун-т им. Н.Г.Чернишевского, 2010. – 51 с.

8. Маслова В.А. Лингвокультурология. –М.: Academia, 2001. – С. 53.

9. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2004. – 283 б.

10. Арбузова В.Ю. Прецедентность в русском языке как лингвистический и культурный феномен на материале научных и эпистолярных текстов: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Елец: Елецский гос. ун-т, 2007. – С. 8;

11. Канаева Е.Н. Текстовые функции логоэпистемы: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М.: Гос. ИРЯ им. А.С.Пушкина, 2007. – С. 4.

12. Караулов Ю.Н. Язык и личность. – М.: Наука, 1989. – С. 216.

13. Красных В.В. Виртуальная реальность или реальная виртуальность. – М.: Изд-во “Диалог МГУ Москва”, 1998. – С. 19.

14. Наби Жалолиддин “Умар Хайём” роман – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 254.

DARS MASHG‘ULOTLARINI HAMKORLIK PEDAGOGIKASI ASOSIDA TASHKIL ETISHDA TAYANILADIGAN ILMIY-PEDAGOGIK TAMOYILLAR

Radjabova Inobat
Qarshi davlat universiteti,dotsent
radjabova.in@qarshidu.uz
ORCID 0009-0001 -7015-2451
UDK 371(045)

Annotatsiya. Globallashuv davri va fan-texnika taraqqiyoti tufayli axborotlar oqimi tezligi tasavvur yetmaydigan darajada kuchaygan hozirgi sharoitda ta’lim jarayonini hamkorlik pedagogika asosida tashkil etish, o‘quvchilar o‘quv muammosini mustaqil hal etish, shu bois hamkorlik pedagogikasi asosida qo‘llashda tayaniladigan asosiy ilmiy pedagogik tamoyillarni aniqlash ta’limda o‘qitish metodikasi fani uchun ham, ta’lim amaliyoti uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. O‘qitish jarayonini hamkorlik pedagogika asosida tashkil etish qandaydir shaxslarning shunchaki tashabbuskorligi, tajriba qilib ko‘rishga intilishi natijasi emas, balki insoniyat pedagogik tafakkuri taraqqiyotining qonuniy natijasi, o‘quvchi bilish faoliyatini yo‘lga qo‘yishning yuqori bosqichidir. Adabiyot mashg‘ulotlarida ijodiy iqlim yaratish uchun o‘quvchilarning o‘qituvchi aytganlarini shunchaki eslab qolishga emas, balki ijodiy ishlashga yo‘naltirilishdir.Ushbu maqolada hamkorlik pedagogika asosida o‘qitishning nazariy hamda amaliy qirralarini ko‘rsatib berishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: hamkorlik, tizimli ,tafakkur IMEN, ISHRN ТРИЗ ТРТЛ intellekt evristik kreativ**,** ilmiy, tadqiqotchi

SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL PRINCIPLES BASED ON ORGANIZING LESSONS ON THE BASIS OF COOPERATIVE PEDAGOGY

Abstract. In the current conditions, when the speed of information flow has increased unimaginably due to the era of globalization and scientific and technological progress, the organization of the educational process on the basis of cooperative pedagogy, the independent solution of learning problems by students, and therefore the identification of the main scientific pedagogical principles that are based on the application of cooperative pedagogy are of great importance both for the science of teaching methods in education and for educational practice. The organization of the educational process on the basis of cooperative pedagogy is not the result of the mere initiative of some individuals, their desire to experiment, but is a legitimate result of the development of human pedagogical thinking, a high stage of establishing student cognitive activity. To create a creative climate in literature classes, students should be directed not to simply remember what the teacher says, but to work creatively. This article is devoted to showing the theoretical and practical aspects of teaching on the basis of cooperative pedagogy**.**

Keywords: collaboration, systematic, thinking IMEN, ISHRN TRIZ TRTL intellect heuristic creative, scientific, research.

Kirish. Ta’lim jarayonida hamkorlik pedagogika asosida tashkil etish qandaydir shaxslarning shunchaki tashabbuskorligi, tajriba qilib ko‘rishga intilishi natijasi emas, balki insoniyat pedagogik tafakkuri taraqqiyotining qonuniy natijasi, o‘quvchi bilish faoliyatini yo‘lga qo‘yishning yuqori bosqichidir. Hamkorlik pedagogikasi falsafa, pedagogika, psixologiya kabi ilmlar taraqqiyotining qonuniy natijasi sifatida yuzaga keldi. Shu bois hamkorlik pedagogikasi asosida qo‘llashda tayaniladigan asosiy ilmiy tamoyillarni aniqlash ta’limda o‘qitish metodikasi fani uchun ham, ta’lim amaliyoti uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu usullarni qo‘llashda

a)o‘quvchilarda tizimli tafakkur va ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish;b) qiziqarli o‘quv muammosini qo‘ya bilish;v)ta’limning birgalik hamkorlikda amalga oshishiga erishish kabi muhim ilmiy-pedagogik tamoyillar mavjud. Hamkorlik pedagogikasining yuzaga kelishiga asos bo‘lgan ilmiy-pedagogik tamoyillarning birinchisi o‘quvchilarda tizimli tafakkur va ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga doir ko‘nikmalarni shakllantirishdan iboratdir. Ushbu tamoyil atrofimizdagi olamni bilishda obyektiv ravishda tayaniladigan eng muhim qonuniyatni anglatadi. Har qanday odam olamni qismlarga bo‘lib, navbatma-navbat emas, balki butunicha idrok etadi va o‘rganadi. Zero, obyektiv olamning o‘zi ulkan bir yaxlit tizimdir. Undagi har bir jihat boshqasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, birini bilib olmay turib, ikkinchisini tushunish mumkin emas. Bu bog‘liqlik cheksizlik qadar davom etadi, shu sababli ham insonning dunyoni bilishi hech qachon to‘xtashi, nihoyasiga yetishi mumkin emas.

Tadqiqot metodologiyasi . Pedagogika ilmida o‘quvchilarda tizimli tafakkur va ilmiy tadqiqotchilikka doir ko‘nikmalarni shakllantirish tamoyilining kashf etilishi va o‘qitish jarayoniga tatbiq qilinishi tarixi juda fojiali va qiziqarli kechgan. Toshkentda tug‘ilib o‘sgan, keyinchalik uzoq yillar Ozarbayjon va Belorussiyada umr kechirgan olim, injener, ixtirochi, yozuvchi va

pedagog Genrix Altshuller (1926-1998) degan g‘aroyib taqdirli kishi yigirma ikki yoshida ikkita ilmiy nazariyaga asos soladi. Ularning biri ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi (IMEN, русчаси – теория решения исследовательских задач ёки ТРИЗ) deb ataladi, ikkinchisi esa ijodkor shaxsni rivojlantirish nazariyasi (ISHRN, русчаси – теория развития творческой личности ёки ТРТЛ) tarzida nomlanadi. U 1948-yilda mana shu nazariyalarga amal qilinsa, mamlakatda ilm-u fan taraqqiyoti bir necha baravarga tezlashib, ixtirochilar miqdori keskin oshishini asoslab beradi, IMEN ijodiy jarayonning texnologiyasi sifatida yaratilib, har qanday ilmiy masalani hal qilishning taxminiy variantlarini minimum darajaga keltirib, to‘g‘ri yechimni tezroq topishni ko‘zda tutadi. Tizimli yo‘sinda fikrlashga asoslangan nazariyasida Altshuller ixtirochilik masalalarining ijodiy yechimini topishning quyidagi uch bosqichini ko‘rsatadi:

1. Masalani qo‘yish va uning odatdagi yo‘l bilan yechilishiga xalaqit beradigan qarama-qarshiliklarni aniqlash.

Oldingidan yuqoriroq yangi natijaga erishishga xalaqit beradigan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish.

Tizimning boshqa unsurlarini ham erishilgan yangi natijalarga muvofiqlashtirish.

G. Altshullerning bu nazariyasi inson hayotidagi barcha tizimlar faoliyatini yo‘lga qo‘yishga o‘zgacharoq nazar tashlashni taqozo qiladi. Jumladan, didaktikada ham IMEN pedagogikasi (русчаси - педагогика ТРИЗ) paydo bo‘ldi. Bunga ko‘ra ta’lim jarayonida yechilishi kerak bo‘lgan muammolarga muayyan sistema sifatida munosabatda bo‘lish orqali o‘quvchilarni tizimli taffakkur qilishga o‘rgatish ko‘zda tutilardi. Buning uchun o‘quvchilar o‘zlarini o‘rab turgan cheksiz-chegarasiz olamning ulkan bir tizim ekani, undagi har bir narsa-hodisa turli murakkab tizimlardan iboratligini, ular nimadandir kelib chiqqani va o‘z navbatida, nimanidir keltirib chiqarishini hisobga olishga odatlanishlari kerak bo‘ladi.

Shu ma’noda, ta’lim jarayonida o‘tiladigan har qanday o‘quv predmeti ham muayyan didaktik tizim shaklida mavjudligini, demak, olamni tizimli yo‘sinda o‘rganishgina samara keltirishi tushunib yetilishi zarur. Jumladan, har bir fan bo‘yicha o‘rganilishi ko‘zda tutilgan mavzular ham shunchaki, betartib va tasodifan mavjud bo‘lmay, bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib ketgan va bir-birini taqozo etadigan ilmiy-estetik tizim ekani hisobga olinishi kerak.

Olamdagi ilmiy, moddiy, biologik, badiiy-estetik, ijtimoiy, texnik va h.k. har qanday tizim muayyan qismlardan tashkil topgan butunlik hisoblanadi. Tizim hamisha muayyan o‘ziga xos belgilarga ega bo‘ladi va ma’lum vazifalarni bajaradi. Tizim davrlar o‘zgarishi bilan muayyan o‘zgarishlarga uchraydi. Har qanday tizim o‘zidan kattaroq usttizimning bir qismi sanaladi, o‘z navbatida, o‘zidan kichikroq osttizimlar uning qismlari hisoblanadi. Shu tariqa, har qanday tizim usttizim uchun qism, osttizim uchun qismlarni birlashtiruvchi yaxlitlik maqomida bo‘ladi.

Ta’lim jarayoni uchun o‘ta muhim hisoblangan tizimli tafakkur o‘rganilayotgan tizimning mohiyatiga uning har bir unsurini boshqa ko‘plab obyekt va hodisalar bilan birgalikda tekshirgandagina yetish mumkinligini ko‘zda tutadi. Dunyodagi hech bir narsa atrof-olam bilan aloqasiz mavjud bo‘la olmaydi. Lekin bu sanoqsiz aloqalarning hammasini to‘la hisobga olishning imkoni yo‘q. Shuning uchun ham bunday sanoqsiz aloqalar orasidan tizimning belgilari va vazifalariga ta’sir ko‘rsata oladigan darajadagi muhimlarini ajrata bilish lozim.

Natijalar va muhokama. O‘quvchilar ham tizim tarkibidagi aloqalarning muhimini nomuhimidan ajrata bilmasa, ta’lim jarayonida kutilgan samaraga erisha olmaydilar. O‘quvchilar o‘rganilayotgan tizimning eng muhim qismlarini ikkinchi darajali qismlardan, eng muhim vazifalarini nomuhimroq vazifalardan, eng kerakli aloqalarini unchalik zarur bo‘lmagan aloqalardan bexato ajrata olsalargina ijobiy o‘quv natijasiga erishishlari mumkin. Buning uchun o‘quvchilar tizim tushunchasining juda ham sertarmoq ekanini, istalgan bir tizim sanoqsiz kichik tizimlarga bo‘linishi yoxud tuganmas katta tizimlarning qismi bo‘lib kelishi mumkinligini bilib olishlari lozim. Misol uchun, “mumtoz adabiyot” tizim, “adabiyot” unga nisbatan usttizim, “mumtoz adabiy janrlar” “mumtoz adabiyot”ga nisbatan osttizim, “g‘azal” “mumtoz adabiy janrlar”ga nisbatan osttizim va h.k. Buni quyidagi jadval orqali vizual ifodalash mumkin:

1-chizma

tizim	**osttizim**	**ostosttizim**	**ostostosttizim**
Adabiyot	Mumtoz adabiyot	Mumtoz lirika	G‘azal

yoki

tizim	**Usttizim**	**ustusttizim**	**ustustusttizim**
G‘azal	Mumtoz lirika	Mumtoz adabiyot	Adabiyot

Har qanday odam tabiatida bo‘lgani singari ta’lim jarayonida o‘quvchilarida ham mavjud bo‘lgan qiziquvchanlik ulardagi tadqiqotchilik va ixtirochilik xususiyatining birinchi belgisidir. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarining yaxshi kuzatuvchilar bo‘lgani holda no‘noq tadqiqotchilar ekanini ta’kidlash kerak. Ular barcha o‘spirinlar kabi atrofdagi narsa-hodisalarni o‘tkir his etadilar, yaxshi esda saqlab qoladilar, lekin hamisha ham ulardan asosli ilmiy xulosa chiqara bilmaydilar. Mana shu qarama-qarshilikni yo‘qotish uchun ham adabiy ta’limi jarayoniga tadqiqotchilik xususiyatini joriy qilish lozim bo‘ladi.

Hozirgi adabiy ta’limida qaror topgan tayyor bilimlarni berib, ularni eslab qolish va so‘ralganda qaytarib aytishnigina talab etish tabiiy ravishda o‘quvchilarda konformizmni, ya’ni muayyan miqdordagi bilimlarni passiv eslab qolib, qaytarib aytib beradigan didaktik iste’molchilikni yuzaga keltiradi. Shuning natijasida bo‘lsa kerak, o‘tkazilgan tadqiqotda o‘quvchilari o‘tilgan mavzularni qaytarib aytib berish jihatidan u qadar oqsamasalar ham, bilimlarni amalga tatbiq etish, ayniqsa, notanish vaziyatlarda qo‘llash borasida tamomila no‘noq ekanliklarini ko‘rsatdi. Shu o‘rinda ulug‘ olmon pedagogi A. Distervegning: “Yomon o‘qituvchi haqiqatni yetkazib beradi, yaxshi o‘qituvchi esa haqiqatni o‘quvchilar bilan birga kashf etadi”,- degan gapi naqadar haq ekani ma’lum bo‘ladi. Chindan ham o‘quvchilariga ilmiy haqiqatlarni kashf etish imkonini bergan o‘qituvchining faoliyatigina samaralidir.

O‘qish jarayoniga tadqiqotchilikni tatbiq etish bugun ta’limning samaradorligini ta’minlaydigan muhim omildir. Bunda o‘qituvchi ilmiy tadqiqot bilan o‘quv tadqiqoti o‘rtasidagi farqqa e’tibor qaratishi lozim. Tadqiqotning bu ikki turi o‘rtasidagi asosiy farq ularning hajmi va yangilik darajasida namoyon bo‘ladi. Chunonchi, ilmiy tadqiqotda obyektiv ilmiy muammo hal etilsa, o‘quv tadqiqotida subyektiv, ya’ni o‘quvchining o‘zi uchun yangilik sanalgan ilmiy muammo yechilishi ko‘zda tutiladi. Aslida fanda bu muammo allaqachon o‘z yechimini topgan, lekin o‘zi uchun yangilik bo‘lgan bu muammoni o‘quvchi qayta kashf etishi lozim bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqot yo‘sinida tashkil etilgan ta’lim uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi (quyi) bosqichda muammoni ham, uni yechishning usullarini ham o‘qituvchi belgilab beriladi. Yechimni izlab topish va muammoni hal qilish esa o‘quvchilar zimmasida bo‘ladi. Ikkinchi (o‘rta) bosqichda o‘qituvchi faqat muammo qo‘yadi, uning yechimini esa o‘quvchilarning o‘zlari izlab topishadi.Uchinchi (yuqori) bosqichda muammo qo‘yish ham, uning yechimini topish ham o‘quvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Bu bosqichga yetish hamkorlikda ya’ni birgalikdagi ta’lim oldidagi erishilishi orzu qilinadigan yuqori natijadir. Bunga erishilganda, o‘quvchilar o‘zlarini o‘zlari o‘qitayotgan bo‘lishadi. Bu bosqichda muayyan fanning qaysi jihatlarini, qanday o‘rganish o‘quvchining o‘zi tomonidan belgilanadi. Bu to‘g‘rida metodist olima Q.Husanboyeva. “...o‘quvchi mustaqil ravishda muammoni o‘zi shakllantira olishiga erishish ta’limning maqsadlaridan biridir”,[3.14]- deydi.

O‘quvchilarni tizimli tafakkur va ilmiy tadqiqotchilik yo‘sinida ta’lim olishga o‘rgatish o‘z-o‘zidan amalga oshib qolmaydi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarida tadqiqotchilik va ilmiy izlanishga doir ilk ko‘nikmalarni shakllantirish yo‘lida muntazam ish olib borishi kerak. Ta’lim jarayoniga tadqiqotchilikni tatbiq etishda o‘quvchilarni kartochkadan foydalanishga o‘rgatish alohida o‘rin tutadi. Buning uchun o‘qituvchining o‘zi kartochkalardan foydalanish usullarini puxta egallagan bo‘lishi lozim. O‘quvchi dastlab adabiyot faniga doir har qanday qiziqarli materialni olib maxsus jildga to‘plashga o‘rgansa, muayyan vaqt o‘tgach, jilddagi materiallar miqdori ko‘payib, keraklisini topish qiyinlasha boradi. Shundan so‘ng katalogga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Yig‘ilgan materiallar muayyan tizimga solingani uchun katalog ularni topishni osonlashtiradi.Fikrimiz tushunarliroq bo‘lishi uchun katalogni chizma shaklida keltiramiz:

2-chizma

Kartochka №	Bo‘lim	Ochqich so‘zlar	Adres	Izoh
11	Adabiy tadqiqotlar	Doston, epos badiiyati, milliy ruhiyat, yangicha talqin	3/5	“Rustamxon” dostonini o‘tishda foydalaniladi

Katalogning birinchi bandi kartochkaning raqamini bildirib, u kartotekaga ham, kartochkaning o‘ziga ham qo‘yilgan bo‘ladi. “Bo‘lim” bandini har bir o‘quvchi o‘zining xohishidan kelib chiqib tashkil etadi. Chunonchi, u “Adabiyot haqidagi hikmatli so‘zlar”, “Yozuvchilar hayotidagi qiziqarli voqealar”, “Adabiy tadqiqotlar”, “Adabiy jarayondagi yangiliklar”,“Adabiyot o‘qitishdagi yangilanishlar” va h.k. tarzida nomlanishi mumkin. “Ochqich so‘zlar” kartochkadagi materialning mazmunini tez esga tushirib, tatbiq qilinadigan joyni belgilashni osonlashtiradi. “Adres” bandida kartochkaning nechanchi jildda turgani ko‘rsatiladi. Misol uchun, 3/5 raqami xalq dostonlari haqidagi 11- kartochka 3-jilddagi 5- raqamda ifoda etilganini bildiradi.

Adabiyot mashg‘ulotlarida ijodiy iqlim yaratish uchun o‘quvchilarning o‘qituvchi aytganlarini shunchaki eslab qolishga emas, balki ijodiy ishlashga yo‘naltirilishi kerak bo‘ladi. Albatta, bu osonlik bilan yuzaga kelmaydi. Adabiyot o‘qituvchisi ta’lim jarayonida o‘quvchilarini o‘ziniki bo‘lmagan haqiqatlarni ko‘r-ko‘rona takrorlashdan o‘zlarining haqiqatlarini kashf etishga boshqara olishi lozim bo‘ladi. Buning uchun o‘quvchilar o‘z oldilariga qo‘yilgan o‘quv muammolarini o‘zlari mustaqil hal etishlari zarur bo‘ladi. Shunda o‘quvchilar izlanish va kashf etish mashaqqati hamda lazzatini bevosita tuyadilar. To‘g‘ri yechimni topish uchun o‘quvchilar muammoni hal etishning turli yo‘llarini sinab ko‘rishlari, har xil farazlarni ilgari surishlari, mavjud dalillarni turlicha talqin eta bilishlari, masalani turlicha qo‘ya olishlari va o‘zlaricha tajriba o‘tkazishlari lozim.

O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash o‘zgalar tomonidan berilgan tayyor haqiqatlarni o‘zlashtirish orqali emas, balki shaxsan o‘zining tajribasi vositasida hosil bo‘lgan to‘xtamlar orqali shakllantiriladi. Buning uchun o‘quvchi o‘rganilayotgan har bir adabiy hodisaning ko‘plab ust va ost tizimlardan iborat o‘ziga xos yaxlit tizim ekanini anglab, qo‘yilgan muammolarni ana shu tizimga doir umumiy jihatlarni hisobga olgan holda hal etishi kerak bo‘ladi.

O‘qitish jarayoniga tizimli tafakkur va ilmiy tadqiqotchilik nuqtayi nazaridan yondashish o‘z-o‘zidan o‘quv muammosi masalasini o‘rtaga chiqaradi. Ta’limni muammoli yo‘sinda tashkil etish o‘qitish jarayoniga hamkorlik pedagogikasi asosida qo‘llashdagi ikkinchi muhim tamoyildir. Insoniyatning fikri tarixiga yengil bir nazar tashlangandayoq, odamzod azal-azaldan turli-tuman muammolarga duch kelgan, ularni yechishga uringan va hal etganini ko‘rish mumkin. Insoniyatning butun ilmiy-texnikaviy fikri taraqqiyotini turmushda uzluksiz ravishda vujudga kelib turadigan muammolarni hal etishdan iborat deyish mumkin. Aslida ta’lim ham ana shunday yo‘sinda tashkil etilsa, samarali bo‘ladi. O‘qishda muammoni hal etish o‘quvchining ta’lim mazmunini o‘zlashtirish maqsadida ilmiy bilishning obyektiv qarama-qarshiligini yengishga qaratilgan mustaqil faoliyatidir.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarining o‘z oldilariga qo‘yilgan ta’limiy muammoni yechishlari ko‘zda tutilar ekan, muammoning o‘quvchilarda mavjud tajriba va qiziqishlarga muvofiq kelishiga alohida e’tibor berish lozim. Aks holda, o‘quv muammosi yechilmay qoladi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar oldiga qo‘yiladigan o‘quv muammolari quyidagi talablarga javob berishlari maqsadga muvofiqdir:

3-chizma

№	**Talablar**
1	O‘quv muammosi o‘quvchilar talablari darajasida bo‘lishi kerak.
2	O‘quvchilar o‘quv muammolarini tanlash va ularni hal etish yo‘llarini belgilashda bevosita ishtirok etishlari zarur.
3	Tanlangan muammo, albatta, bir nechta yechimga ega bo‘lishi va o‘quvchilarga uni turli yo‘llar bilan to‘g‘ri hal etish imkoni berilishi lozim.
4	Muammo o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq bo‘lishi zarur. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning yoshiga nisbatan og‘ir muammo qo‘yilsa, yecholmay qiynaladilar va ko‘ngli sovuydi. Agar muammo yengil bo‘lsa, uni yechish o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lmaydi.
5	Muammoni tanlashda o‘quvchilarning oldingi tayyorgarligi va tajribasi hisobga olinishi darkor.
6	Qo‘yilgan o‘quv muammosi o‘quvchilarni qiziqtiradigan va ahamiyatli bo‘lishi kerak.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar oldiga qo‘yiladigan o‘quv muammolarning ularni o‘ziga jalb etadigan tarzda qiziqarli bo‘lishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Fransuz mutafakkiri Lui de Broylning: “Har qanday bilim hayrat va qiziqishning bolasidir”,- degan gapida jon bor.

Bir qator ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilan olib borilgan tadqiqotlar ko‘rsatdiki, ko‘pchilik o‘quvchilar olgan bilimlarini darsliklarda ko‘rsatilgan standart holatlarda tuzukkina qo‘llay oladilar. Ammo bilimlarini nostandart vaziyatlarda ishlata olmaganlaridek, maxsus mashg‘ulotlardan boshqa vaziyatlarda zarur axborotlardan foydalanib, o‘z bilimlarini oshirish yo‘llarini ham yaxshi bilishmaydi.

Ta’lim tajribasi shuni ko‘rsatadiki, to har bir o‘qituvchining o‘zi qo‘yilgan o‘quv muammosining o‘quvchilar tomonidan mustaqil yechilishi u bergan tayyor yechim va bilimlardan ko‘ra muhimroq ekanini to‘la anglab yetmaguncha o‘qish jarayoniga muammoni qo‘llab ham, hamkorlik pedagogikasidan ham to‘laqonli foydalanib bo‘lmaydi. Demak, o‘quvchilarning muammoli ta’lim olishlarini yo‘lga qo‘yish, avvalo, o‘qituvchilarda bu usulga ishonch paydo bo‘lganidan keyingina amalga oshadi.

Ta’limiy muammo o‘qituvchidan o‘quvchilarning izlanish-tadqiqot faoliyatlari jarayonining tashkilotchisi bo‘lishini talab etadi. U bu jarayonda mustaqil izlanish olib borayotgan o‘quvchilarga malakali maslahatchi, to‘g‘ri yo‘nalish bera oladigan yordamchi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Shuni aytish kerakki, garchi, zamonaviy ta’lim, ayniqsa, hamkorlik pedagogikasi o‘quv muammolarisiz tasavvur etib bo‘lmasa-da, butun o‘qitish jarayonini faqat muammoli yo‘sinda yo‘lga qo‘yib bo‘lmaydi. Chunki barcha mavzular bo‘yicha bir qancha yechimga ega bo‘lgan muammo topish va ularning har biri yuzasidan muammoli vaziyatlar yaratish juda ko‘p vaqtni oladiki, pedagogik amaliyotda buni amalga oshirish hamisha ham samarali bo‘lavermaydi. Lekin o‘quv muammosi boshqa shakl-u shamoyildagi darslar orasida fragmentar yo‘sinda ishlatilaveradiki, bu uni o‘qitish amaliyotiga tez-tez qo‘llash imkonini beradi.

Muammoli ta’limni yo‘lga qo‘yishda muammoli vaziyat yarata olish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, o‘quvchining oldida yechilishi zarur muammo turmas ekan, unda mustaqil fikrlashga ehtiyoj paydo bo‘lmaydi. Bu haqda metodist olima Q.Husanboyeva: “...adabiy masala qo‘yish o‘quvchilar mustaqil mutolaasini... ta’minlaydi, badiiy asarni o‘ylab o‘zlashtirish darajasiga faol ta’sir ko‘rsatadi,”[3.14]- degan qarashni bayon etadi. Muhimi shundaki, muammoli vaziyat ta’limiy muammoni yechishgagina qo‘l kelib qolmay, o‘quvchilarda muayyan ma’naviy sifatlar shakllanishiga ham xizmat qiladi. Chunki ma’lum psixik va intellektual murakkablik va qarama-qarshilikni yengib, muammoli vaziyatdan chiqib ketish orqali o‘quv muammosini yechish kichik guruhdagi o‘quvchilarning tafakkurigagina emas, balki ma’naviy sifatlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Negaki, bu holatda o‘quvchilarda, ruhshunoslar tili bilan aytganda, kuchli “hissiy intellekt” ishga tushadi va ularda shaxsga xos fazilatlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bu haqda ushbu muammoga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarda: “Adabiyot darslarida tashkil qilingan muammoli vaziyatlarda o‘quvchilarning mustaqil mulohaza yuritishi va adabiy asarlarni baholashi asosida ta’lim samaradorligini oshirishdan tashqari, ...ularda shaxslik sifatlarini shakllantirish maqsadi ham yotadi”[7.200],- deyilgan.

Pedagogika fani va amaliyotida muammoli vaziyat yaratishning psixologik va pedagogik kabi ikki turi borligi qayd etiladi. Psixologik nuqtayi nazardan muammoli vaziyat o‘quvchining o‘zida mavjud bilimlar bilan uning oldiga qo‘yilgan o‘quv muammosini yechish uchun zarur bo‘ladigan bilimlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik va qarama-qarshilikni anglashidan iboratdir. Agar o‘quvchi buni anglab yetmasa, izlanish yuzaga kelmaydi, muammo yechimini topmaydi. Psixologik ma’nodagi muammoli vaziyat obyektiv ravishda paydo bo‘ladi.

Pedagogik muammoli vaziyat o‘qituvchi tomonidan bilish obyektining muhimligi, qimmati, yangiligi kabi jihatlarini ochishga xizmat qiladigan xatti-harakatlar, bergan savollar, ko‘rsatgan yo‘nalishlar yordamida atay paydo qilinadi. Ko‘rinadiki, pedagogik muammoli vaziyat ta’lim subyektlari tomonidan uyushtiriladi. O‘quvchining muammoli ta’lim sharoitidagi faoliyati quyidagi bosqichlarda kechadi:



“**Qushni uchishga qafasda o‘rgatib bo‘lmaydi**”,[4.56] deydi zamonaviy ta’lim texnikasi

bo‘yicha betakror tadqiqotlar muallifi Anatoliy Gin. Xuddi shuning uchun ham o‘quvchilarni fikr qafasidan qutqarish, ta’lim jarayonini ularning tafakkur osmonida erkin parvoz qilishlariga imkon yaratadigan yo‘sinda tashkil etish o‘ta muhimdir. Buning uchun o‘qitish jarayonida yopiq topshiriqlarni imkon qadar kamaytirib, ochiq topshiriqlar tizimini yaratish va qo‘llash lozim bo‘ladi. Negaki, o‘quv jarayonidagi yopiq topshiriq o‘quvchilarni bitta to‘g‘ri javobni topishga odatlantiradi. Bunda o‘quvchilar kreativ (ijodiy) tafakkur qilishdan uzoqlashadilar. Ular muammoni yechishdan emas, to‘g‘ri javobni topishga e’tibor qaratadilar.

Ochiq o‘quv topshiriqlari o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, yo‘l izlash va topishga undaydi. O‘quvchilar izlanish va topish zavqini tuyadilar, o‘z tafakkur imkoniyatlarini sinovdan o‘tkazib boradilar. Bu hol ularni olam hodisalariga o‘z ko‘zi bilan qarab, o‘z fikrlari asosida baho berishga odatlantiradi. Chunki ochiq topshiriqlarning yechimi ko‘p bo‘ladi. Ochiq o‘quv topshiriq va muammolari didaktik samara keltirishi uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak bo‘ladi: a) berilgan shartlar muammoning yechimi uchun yetarli bo‘lishi; b)masala aniq qo‘yilishi; v) muammoda ziddiyat mavjudligi; g) muammoning bir necha yechimi borligi.

Adabiyot mashg‘ulotlarida o‘quvchilar oldiga ochiq topshiriq va muammolar qo‘yish ularni kerakli matn va materiallar bilan tanishibgina qolmay, tanishganlari yuzasidan o‘z xulosasini chiqarishga ham undaydi.

Zamonaviy metodik adabiyotlarda muammoli ta’lim ko‘pincha o‘z ichiga tadqiqot metodi, evristik metod va muammoli vaziyatlar yaratish kabi o‘qitish metodlarini olishi qayd etiladi.

Evristik metodlar o‘z nomini yunoncha “izlayman”, “topaman”, “kashf *qilaman*” ma’nolarini anglatuvchi heurisko so‘zidan olgan bo‘lib, u ham alohida bir fan, ham o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan metodlar yig‘indisi ma’nolarida qo‘llaniladi. Evristika fan sifatida insonning ijodiy faoliyatiga doir qonuniyatlarni o‘rganadi. Metod ma’nosida esa, yangicha holatlarda yangicha xatti-harakatlarni qo‘llashni anglatadi. Ushbu o‘qitish metodi o‘quvchini ta’lim jarayonida haligacha duch kelmagan vaziyatga yuzma-yuz qilib, shu vaqtga qadar hal etmagan masalani yechishga yo‘naltiradi.

Evristik metodlar ijodiy xarakterdagi o‘quv muammosini yechish jarayonida o‘quvchida ko‘proq intuitiv tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan tamoyil va qoidalar yig‘inidisidan iboratdir. Evristik metodlardan foydalanilganda, o‘quvchilar qanday muammoni hal etish kerakligini bilishsa-da, aksar hollarda uni qanday hal qilish kerakligini tasavvur qilishmaydi.

Ta’lim jarayonida evristik usullardan foydalanilganda, o‘quv materiallari o‘quvchilar tomonidan shaxsan o‘zining ijodi mahsuli bo‘lmish ta’lim mazmunini yaratishga xomashyo vazifasini o‘tashi mumkin. Evristik metodlar ta’limning ochiq shaklini ko‘zda tutib, bir xil majburiy yakunga, yagona to‘g‘ri javobga kelishni talab etmasligi lozim.

Ta’lim jarayonida adabiy ta’limida evristik metodlardan mo‘l-ko‘l foydalanish mumkin. Chunonchi, erkin mavzudagi insholar yozish, tabiat hodisasi haqida og‘zaki yoki yozma hikoyalar qilish, muayyan mavzuda topishmoq to‘qish, taklif etilgan yoki tanlab olingan yo‘nalishda maqol yaratish, biror bir mavzudagi asarning o‘zgacha tugallanishini berish kabi ko‘plab muammolarni hal qilish adabiy ta’limga evristik metodni qo‘llashning ko‘rinishlari hisoblanadi. Evristik ta’limda o‘quvchilar o‘qituvchi kutgan javobni berishga majbur bo‘lmaydilar. O‘quvchilar oldiga qo‘yilgan o‘quv muammosi ularning xayolot parvozi, bilim darajasi, intellektual saviyasi va hayotiy tajribasidan kelib chiqib hal etiladi.

O‘qituvchi evristik metodlar yordamida ta’lim olayotgan ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimini baholashda muammoni hal etishning amaliyot nuqtayi nazaridan ma’qulligi va hayotiyligidan ham ko‘ra, yechimning kreativ, kutilmagan, nostandart, xayolot bilan to‘yingan, nazokatli ekaniga ko‘proq e’tibor bergani ma’qul. Evristik metodlar ta’lim muammosining kutilmagan va nostandart yechimi orqali o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Adabiyot mashg‘ulotlarida evristik metodlarni qo‘llashda o‘qituvchi ta’limning bu usulini suiiste’mol qilmasligi lozim. Shuning uchun ham o‘qituvchidan adabiyot predmetida o‘tiladigan har bir mavzu yoki bo‘limdagi eng muhim muammolarni xatosiz topa bilish va ularni o‘quvchilarning ijodiy izlanuvchanligini uyg‘otadigan yo‘sinda qo‘ya olish talab etiladi. Shundagina ta’lim jarayonida o‘quvchilar uchun o‘qituvchi bilan darslik bilim olishning birdan-bir manbasi bo‘lib qolmaydi, ular tizimli tafakkur va o‘zga manbalarni qidirish orqali bilim egallash mumkin ekaniga ishonch hosil qilishadi. Ana shundagina o‘quvchilarda tizimli va tanqidiy tafakkurning chin mahsuli bo‘lmish refleksiya shakllanadi. Yunoncha “qayta aks ettirish”

ma’nosini bildiradigan refleksiya atamasi shaxsning o‘z faoliyat usullari, ruhiyati, tutgan yo‘lini tahlil eta olishini anglatadi. O‘zini o‘zi taftish qila biladigan o‘spirin nafaqat intellektual, balki ma’naviy-ruhiy jihatdan ham taraqqiy etayotgan shaxsdir.

Ko‘rinadiki, o‘quv muammosi muammoli vaziyat yaratish va uni yechishga qaratilgan ijodiy jarayonning modelini yaratishga xizmat qiladigan usul va vositalar tizimidan iboratdir.

O‘qitish jarayoniga hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etishda tayaniladigan eng muhim ilmiy-metodik tamoyillardan biri ta’lim jarayoni qatnashchilari o‘rtasida birgalikda faoliyat (hamkorlik) bo‘lishiga erishishdan iboratdir. Odamdagi ezgu sifatlar u jamoaga qo‘shilib faoliyatga kirishganda yorqinroq namoyon bo‘ladi. Hayotda bo‘lgani kabi o‘qish jarayonida ham birgalikda qilingan faoliyat ko‘proq samara berishi juda qadim zamonlardayoq ma’lum bo‘lgan. O‘quvchilarni bir joyga to‘plab guruh qilib o‘qitish tajribasi ham bejiz paydo bo‘lgan emas. Joriy eraning I asridayoq Rim mutafakkiri Kvintilian: “O‘quvchilar birgalikda bir-birlarini o‘qitganlarida, mustahkam va chuqur bilim egallashlari mumkin”ligini ta’kidlagan edi.

Hamkorlik pedagogikasi odatda a) inson intellektining o‘sishi nazariyasi; b) shaxslarning o‘zaro ijtimoiy bog‘liqligi nazariyasi; v) bixeviorizm nazariyasi kabi uch ilmiy asos ustiga qurilgan bo‘ladi.

Inson intellektining o‘sishi nazariyasi Jan Piaje tomonidan shakllantirilgan bo‘lib, har qanday shaxsning aqliy taraqqiyoti boshqa shaxslarning ongi bilan bo‘lgan bevosita yoki bilvosita muloqot natijasida ro‘y beradi. Bu qarashga muvofiq o‘zaro munosabatga kirishgan odamlar o‘rtasida, albatta, muayyan ziddiyat kelib chiqadi va bu ijtimoiy konfliktni hal etish zaruriyati odam tafakkurining rivojlanishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, hamkorlik pedagogikasi asosida ta’lim jarayonini tashkil etishda, o‘quvchilaridan tizimli tafakkur yuritishni, u esa tadqiqotchilik ko‘nikmalarini, bu o‘z navbatida, birgalikdagi ta’limni, bu har bir o‘quvchidan ijodiy fikr qilishni talab etadiki, shu tariqa o‘quvchilar o‘zlarini o‘zlari o‘qitadigan darajaga yetadilar.

Hamkorlikda o‘qitishning asosida nafaqat o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati, balki har bir o‘quvchining boshqa o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorligi yo‘lga qo‘yish turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Амонашвили Ш. А. Личностно-гуманная основа педагогического процесса. –Минск: 1990.

2. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. -T.: O‘qituvchi, 1996. -142 b.

3.Yo‘ldosheva N., Murodova S. Adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning afzalligi. -T.: IPT va nashr ishlari bo‘limi, 2007. -14 b.

4.Гин А. ТРИЗ-педагогика. –http;//www.krs.fio.ru/learn/

5. Сафин Д., Мусина Р. Интерактивные методы преподавания и учения. Модуль 2. –Т., 2007. - С. 56.

6. Мир философии. –Москва: Политическая литература, 1991. - С. 305.

7.Husanboyeva Q. Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fanl. dokt. … diss. –Toshkent, 2006. 200-bet.

8.Husanboyeva Q. Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fanl. dokt. … diss. –T.: 2006. 202-bet.

9.Сафин Д., Мусина Р. Интерактивные методы преподавания и учения. Учебное пособие. Модуль 3. –Т., 2007. - С. 37.

KURASHCHI TALABALARNING TEXNIK VA JISMONIY TAYYORGARLIGINI MAJMUAVIY AYLANMA MASHG‘ULOT USLUBIDA SAMARALI RIVOJLANTIRISH

Nuraliyeva O‘g‘iloy Shomuratovna
Qarshi davlat universiteti
Sport faoliyati kafedrasi dotsenti
ugiloy_nuraliyeva@mail.ru
ORSID 0009-0002-5792-7993
UDK 796.81.378.180.6 (045)

Annotatsiya. Maqola kurash bilan shug‘ullanuvchi talabalarning texnik va jismoniy tayyorgarligini majmuaviy-aylanma mashg‘ulot uslubida rivojlantirishni ilmiy-nazariy tadqiq qilish, qo‘llanilgan uslubiyatning samaradorligini tajriba natijalari yordamida asoslashga bag‘ishlangan.

Pedagogik tajriba davomida tajribagacha bir yil davomida kurash bilan shug‘ullangan ikkinchi kurs talabalarining jismoniy va texnik tayyorgarligining ba’zi asosiy ko‘rsatkichlarini tarbiyalash samaradorligiga majmuaviy-aylanma mashg‘ulotlarning ta’siri aniqlangan. Pedagogik tajriba mabaynida barcha qayd etilgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha ishonchli o‘sishlar kuzatilgan, ya’ni mashg‘ulotlarning motor zichligi 27,9% ga

oshgan, talabalarning tezlik-kuch tayyorgarligi sezilarli darajada oshgan (91,7% o‘sish), son va orqadan oshirib tashlashlar sifati 59,1% va 60% ga, chaqqonlik, majmuaviy jismoniy fazilat sifatida 14,6% ga oshgan.

Talabalar bilan majmuaviy aylanma mashg‘ulotlarni o‘tkazish butun o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga yordam berishi, bu ularni kurashning sport turlari rivojlanayotgan universitetlarda joriy etish uchun yaxshi sabab ekanligi, ulardan foydalanish nafaqat o‘quv mashg‘ulotlarining motor zichligini oshirishi, balki sport bilan shug‘ullanadigan talabalarning jismoniy va texnik tayyorgarligi natijalariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy dalillar bilan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kurash, mashg‘ulotlarning motor zichligi, majmuaviy-aylanma mashg‘ulot, texnik tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik.

EFFECTIVE DEVELOPMENT OF TECHNICAL AND PHYSICAL PREPARATION OF STUDENT WRESTLERS USING COMPREHENSIVE CIRCUIT TRAINING METHOD

Annotation. The article is devoted to a scientific and theoretical study of the development of technical and physical fitness of students engaged in kurash using the method of complex circular training, substantiating the effectiveness of the applied technique using experimental results.

In the course of pedagogical practice, the influence of complex circular training on the effectiveness of education of some basic indicators of physical and technical fitness of sophomores who were engaged in wrestling during the year before the experiment was revealed. During the pedagogical experiment, there was a significant increase in all the noted indicators, i.e. The motor density of classes increased by 27.9%, the speed and strength training of students increased significantly (an increase of 91.7%), the quality of throws through the hips and backs increased by 59.1% and 60%, dexterity as a complex physical quality increased by 14.6%. It is scientifically proven that conducting complex circular training sessions with students helps to increase the effectiveness of the entire educational process, which is a good reason for their introduction in universities where types of wrestling are developing, their use not only increases the motor density of training sessions, but also positively affects the results of physical education and technical training of students involved in sports.

Keywords: kurash, motor training density, complex circuit training, technical training, physical training.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Kurash” milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2017-yil 2-oktabrdagi PQ-3306-son qarori, shuningdek, “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-sonli qarorini qabul qilingani halollik, oliyjanoblik, mardlik, yurtparvarlik singari bebaho fazilatlarni o‘zida mujassam qilgan bobomeros qadriyatimiz – kurashga bo‘lgan e’tiborni yanada oshirdi va soha mutaxassislaridan ko‘proq ter to‘kib ishlashlariga zamin bo‘ldi.

Shu bilan birga, hozirgi vaqtda kurashni yanada ommalashtirish va tizimli rivojlantirish, Yevropa, Afrika va Panamerika qit’aviy o‘yinlari qatoriga rasman kiritish va xalqaro «GAISF — Global Association of International Sports Federations» tashkilotining e’tirofiga sazovor bo‘lish, Xalqaro olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritish maqsadida Kurash milliy sport turini 2025-yilgacha yangi bosqichga olib chiqish Konsepsiyasi ishlab chiqildi. Konsepsiya O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda kurashni tizimli rivojlantirishning maqsadi, vazifalari, ustuvor yo‘nalishlari, istiqboldagi bosqichlarini belgilab berdi hamda kurashni rivojlantirish dasturlari va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda ushbu sohada to‘planib qolgan muammolarni bartaraf etish orqali kurashning jahondagi nufuzini yanada oshirish, barcha aholi qatlami, ayniqsa yoshlarning sog‘lom turmush tarziga intilishlarini ta’minlash, ularni mardlik, sadoqat, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, milliy xalq o‘yinlaridan jahon sport turiga aylangan kurashga nisbatan g‘urur, iftixor va faxrlanish hissini uyg‘otish bugungi kundagi kurash mashg‘ulotlarining asl mohiyatini belgilaydi.

Qadimgi davrlarda yoshlar turli xil jismoniy mashqlarga qiziqar edilar va ular orasida kurash eng sevimli va xalqona mashg‘ulot turi edi. Uning jismoniy rivojlanish uchun ommaviyligi va ahamiyati shundan dalolat beradiki, qadimda ommaviy xalq sayillarida, to‘ylarda kurash eng birinchi sport turi hisoblangan. Kurash bugungi kunda ham yoshlar, ayniqsa universitet talabalari orasida keng rivojlanganlik xususiyatiga ega milliy sport turidir.

Milliy qadriyatlarimiz, xususan, mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, gumanizm g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan milliy sportimiz bo‘lgan kurashni ommalashtirish, rivojlantirish va

dunyoga tanitish hamda ushbu qadriyatimizni umumjahon durdonasiga aylantirish bo‘yicha hukumatimiz tomonidan qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, kurashning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport jihozlari va kiyimlari ta’minotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek, soha uchun malakali kadrlar, professional trenerlar, hakamlar tayyorlash, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish, kurashning ilmiy-metodologik bazasini boyitishga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirish talab etilmoqda.

Bugungi kunda xalqimizning milliy qadriyatlaridan biri bo‘lgan kurash milliy sport turi O‘zbekiston dovrug‘ini butun jahonga tanitishga xizmat qilmoqda. Kurashning tobora ommalashib borayotgani soha mutaxassislari oldiga malakali kadrlar tayyorlashga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirish bo‘yicha vazifalar qo‘ymoqda. Buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan kurash sportining boy an’analari va qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazish, o‘zbek sporti brendi nomi bilan kurashning jahon arenasidagi rolini oshirish, yoshlarning milliy sportga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish orqali ularda vatanparvarlik tuyg‘usini yanada mustahkamlash, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning, shuningdek, jahon xalqlarining mazkur sport turi bilan shug‘ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Kurashchilarning texnik va jismoniy tayyorgarligi har doim tadqiqotchilar va mutaxassislarning diqqat markazida bo‘lgan asosiy tayyorgarlikdir. Bu bo‘yicha ko‘plab ilmiy-uslubiy adabiyotlar nashr etilgan, biroq barcha muammolar o‘rganilgan va hal qilingan deb aytib bo‘lmaydi.

Kurashchilarning bellashuvlari natijalarida hal qiluvchi rol ularning jismoniy va texnik tayyorgarligi bo‘lib, ular qo‘llar, oyoqlar va tana tomonidan olib boriladigan turli usullar vositasida doimiy ravishda boyitilib boriladi.

Shu nuqtayi nazardan, muallif J.Xurramovning fikricha [3], har bir mashg‘ulot maxsus tayyorlangan jismoniy mashqlar va bitta harakat tuzilishi hamda fiziologik rejimdagi tashlashlar texnikasi orqali tezlik-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘zida mujassamlashtirgan majmuaviy-aylanma mashg‘ulot xarakteriga ega bo‘lishi, ya’ni har bir mashg‘ulot mushaklarning qizishi uchun zarur bo‘lgan o‘ziga xos jismoniy qobiliyatlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Natijalar va muhokama. Pedagogik tajribaning maqsadi tajribagacha bir yil davomida kurash bilan shug‘ullangan ikkinchi kurs talabalarining jismoniy va texnik tayyorgarligining ba’zi asosiy ko‘rsatkichlarini tarbiyalash samaradorligiga majmuaviy-aylanma mashg‘ulotlarning ta’sirini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari va uslublari.

Tadqiqotda quyidagi vazifalar hal qilindi:

1. O‘quv mashg‘ulotlarining motor zichligiga majmuaviy-aylanma mashg‘ulotning ta’sirini aniqlash.

2. Ko‘rsatkichlarni aniqlash:

a) talabalarning tezlik-kuch tayyorgarligini;

b) majmuaviy jismoniy fazilat sifatida chaqqonlikni;

c) son va orqadan oshirib tashlashlarni bajarish sifati.

Vazifalarni hal qilish uchun quyidagi tadqiqot uslublari qo‘llanilgan:

1. Ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish.

2. Pedagogik tajriba.

3. Natijalarni qayta ishlashning matematik va statik uslublari.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, talabalar bilan aylanma mashg‘ulotlarni o‘tkazish doimiy tarzda o‘quv mashg‘ulotlarining motor zichligini oshirishga olib keladi. Shu bilan birga, kurash bilan shug‘ullanuvchi talabalar bilan majmuaviy-aylanma mashg‘ulotlarni o‘tkazish samaradorligi to‘g‘risida yetarlicha ilmiy ma’lumotlar mavjud emas.

Talabalarning tezlik-kuch tayyorgarligi ko‘rsatkichlari G.P. Galochkin, N.V. Shetininlar ishlab chiqqan test bo‘yicha soniyalarni 5 ballik tizim bo‘yicha ochkolarga o‘tkazish orqali aniqlandi [6].

Kurashchilarning chaqqonlik ko‘rsatkichlarini aniqlash E.M. Chumakov va S.F. Ionovning tavsiyasiga binoan soniyalarda [8] va G.P. Galochkin, A.A. Lukinlar tomonidan ishlab chiqilgan test [4; 5] asosida ikkita sherikda 3 m aylanada 10 marta sondan oshirib tashlash orqali o‘tkazildi.

Tashlashlar sifati kurash bo‘yicha 3 mutaxassisdan iborat ekspert komissiyasi tomonidan 5 ballik ochkolar tizimi bo‘yicha o‘rtacha baho berib, kuzatish orqali baholandi.

To‘rt oylik pedagogik tajriba ikkinchi kurs kurashchilar guruhida (n=24 kishi) tashkil etildi, ular uni o‘tkazishda ishtirok etish istagini bildirdilar (2022 yil sentyabr – dekabr). Tajribaning qulayligi va o‘tkazilishi kurash bilan shug‘ullanuvchilarning har birida 12 kishidan iborat ikkita kichik guruh (1-kichik guruh, murabbiy O. Norov) va 12 kishi (2-kichik guruh, murabbiy O‘.Nuraliyeva).

Kichik guruhlarning tarkibi yoshi, malakasi, vazni va umumiy jismoniy tayyorgarligi taxminan bir xil edi.

Talabalar bilan mashg‘ulotlar haftasiga 2 marta 1,5 soat davomida o‘tkazildi.

Ikkala kichik guruhning kurashchilari ham bitta uslubiyat bilan shug‘ullanishdi, harakatlarning biomexanikasini va bitta fiziologik rejimni hisobga olgan holda tezlik-kuch fazilatlari va tashlashlar texnikasini birlashtirgan bir xil bilim va jismoniy yuklamani olishdi.

Dars mazmuni – 90 daqiqa.

1. Saflanish, sanash, qatnashayotgan talabalarni tekshirish, tarbiyaviy xarakterdagi qisqa suhbat, dars vazifalarini yetkazish – 5 daqiqa.

2. Umumiy chigal yozish – 6 daqiqa.

3. Tana bilan oldinga tashlashlarni amalga oshirish uchun maxsus mashqlarni bajarish – 10 daqiqa.

4. Tajriba ishtirokchilarini bekatlar bo‘yicha taqsimlash va ularni ishlab chiqilgan me’yorlarga muvofiq son va orqadan oshirib tashlash – 50 daqiqa.

5. Turgan holatda o‘quv bellashuvlari o‘tkazish (Turli sheriklar bilan 2 ta bellashuv).

6. Yotgan holatda bellashuv – 3 daqiqa.

7. Yakuniy qism (guruhni saflash, dars natijalarini sarhisob qilish) – 6 daqiqa.

Jami 90 daqiqa.

Tajriba guruhi ishtirokchilariga murakkab vazifa qo‘yildi: har bir darsda tashlashlar texnikasini takomillashtirish va mashq qilish uchun zarur bo‘lgan jismoniy fazilatlarni rivojlantirish.

Darslarning birinchi oyida (2022-yil sentyabr) har bir talaba tomonidan rejalashtirilgan tashlashlar soni 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

2022-yil sentyabr oyi davomida har bir talaba tomonidan bitta darsda o‘tkaziladigan tashlashlar soni

Mashg‘ulotlar, № / Tashlashlar, soni	1	2	3	4	5	6	7	8	Bir oy davomida
Orqadan belbog‘ni ushlab sondan oshirib tashlash	10	12	18	22	24	26	28	30	**170**
Yelkadan ushlab orqadan oshirib tashlash	10	12	18	22	24	26	28	30	**170**
Ikki qo‘ldan ushlab orqadan oshirib tashlash	10	12	18	22	24	26	28	30	**170**
Jami	**30**	**36**	**54**	**66**	**72**	**78**	**84**	**90**	**510**

Keyingi darslarda (2022-yil oktyabr, noyabr, dekabr) tashlashlarning oylik soni o‘tgan oyning 5 foiziga oshirildi (2-jadval).

2-jadval

Pedagogik tajriba davrida har bir talaba tomonidan o‘tkazilgan tashlashlar soni

Oylar / Tashlashlar, soni	sentyabr	oktyabr	noyabr	dekabr	To‘rt oy davomida
Orqadan belbog‘ni ushlab sondan oshirib tashlash	170	179	188	197	**734**
Yelkadan ushlab orqadan oshirib tashlash	170	179	188	197	**734**
Ikki qo‘ldan ushlab orqadan oshirib tashlash	170	179	188	197	**734**
Jami	**510**	**537**	**564**	**591**	**2202**

Eslatma. Har oylik darsda tashlashlar soni avvalgisidan 5% ga oshadi.

Ikkala kichik guruhning kurashchilari ham bitta uslubiyat bilan shug‘ullanishdi, harakatlarning biomexanikasini va bitta fiziologik rejimni hisobga olgan holda tezlik-kuch fazilatlari va tashlashlar texnikasini birlashtirgan bir xil bilim va jismoniy yuklamani olishdi.

Tajriba guruhi ishtirokchilariga murakkab vazifa qo‘yildi: har bir darsda tashlashlar texnikasini takomillashtirish va mashq qilish uchun zarur bo‘lgan jismoniy fazilatlarni rivojlantirish.

Barcha ishtirokchilar har bir mashg‘ulotda tavsiya etilgan me’yorlarga muvofiq belgilangan miqdordagi sondan va orqadan oshirib tashlashlarni bajarishlari kerak. Mashg‘ulotlarning birinchi oyida ishtirokchi har bir usulning 170 ta rejalashtirilgan tana bilan tashlashlarni bajaradi. Birinchi oyda jami 510 ta tashlashlar amalga oshiriladi. Har bir keyingi oyda tashlashlar soni avvalgisining 5 foizga ko‘payadi va mos ravishda 537, 564 va 591 ni tashkil qiladi. Tajribaning 4 oyi davomida bu ko‘rsatkich o‘rtacha 2202 ta tashlashga yetkaziladi.

Pedagogik tajriba natijalari. Pedagogik tajriba mobaynida barcha qayd etilgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha ishonchli o‘sishlar mavjud (3-jadvalga qarang.). Mashg‘ulotlarning motor zichligi 27,9% ga oshdi, talabalarning tezlik-kuch tayyorgarligi sezilarli darajada oshdi (91,7% o‘sish), son va orqadan oshirib tashlashlar sifati 59,1% va 60% ga, chaqqonlik, majmuaviy jismoniy fazilat sifatida 14,6% ga oshdi. Bu juda tushunarli. Uni tarbiyalash, albatta, tajribaga qaraganda ko‘proq vaqt talab etadi.

3-jadval

Kurash bilan shug‘ullangan ikkinchi kurs talabalarining to‘rt oylik pedagogik davri natijalari

Tajriba muddati / Ko‘rsatkichlar	Boshlanishi, sentyabr 2022 y.	Yakunlanishi, oktyabr 2020 y.	Ko‘rsatkichlarning o‘sishi %
1. Mashg‘ulotning motor zichligi	58	74,2	+27,9
2. Talabalarning tezlik-kuch tayyorgarligi, ochkolar	1,2	2,3	+91,7
3. Chaqqonlik, soniya	35,3	30,8	+14,6
4. Tashlashlarning sifati, ochkolar			
- sondan oshirib	2,2	3,5	+59,1
- orqadan oshirib	2,0	3,2	+60,0

Xulosa va takliflar. Talabalar bilan majmuaviy aylanma mashg‘ulotlarni o‘tkazish butun o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi, bu ularni kurashning sport turlari rivojlanayotgan universitetlarda joriy etish uchun yaxshi sababdir. Ulardan foydalanish nafaqat o‘quv mashg‘ulotlarining motor zichligini oshiradi, balki sport bilan shug‘ullanadigan talabalarning jismoniy va texnik tayyorgarligi natijalariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyatining amaliyoti. Madaminov B., Salomov R. – Toshkent: Muharrir, 2013. – 132 b.

2. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. Darslik. Qayta to‘ldirilgan nashri. ITA-Press nashr. T., 2017. -367 b.

3. Xurramov J.Q. – Aylanma mashg‘ulot uslubi va uning jismoniy tarbiya darslarida samarali qo‘llanilishi. –Toshkent: Tipograff MChJ, 2023. 154 b.

4. Галочкин Г.П., Лукин А.А. Эффективность проведения комплексно-круговых тренировок со студентами, занимающимися самбо. В сборнике: Физическое воспитание и спорт в высших учебных заведениях. Сборник статей XIII международной научной конференции. - Белгородский государственний технологический университет им. В.Г. Шухова, 2017. - С. 63-73.

5. Галочкин Г.П., Лукин А.А. Особенности ловкости как физического качества, воспитание и его оценка у борцов самбистов / Г.П. Галочкин, А.А. Лукин // Физическая культура, спорт и здоровье в современном обществе: сборник научных статей Всероссийской с участием очно-заочной научно-практической конференции / под редакцией Бугаева Г.В., О.Н. Савинковой. – Воронеж: Издательско-полиграф. центр «Научная книга», 2016. – 466 с. - С.267-273.

6. Галочкин Г.П., Шетинин Н.В. Скоростно-силовая подготовка студентов, занимающихся спортивной борьбой / Г.П. Галочкин, Н.В. Шетинин. – Воронеж: Воронежский государственный архитектурно-строительный университет, 2011. – 35 с.

7. Горбачев М.С. Комплексы упражнений круговой тренировки. Физическая культура в школе. – 2007. – № 7. – 62 с.

8. Чумаков Ю.М., Ионов С.Ф. Физическая подготовка борца-самбиста / Ю.М. Чумаков, С.Ф. Ионов. – М.: Главное управление спортивных единоборств, 1980. – 96с.
9. Шолих М. Круговая тренировка. //общ. ред. и предисловие Л. П. Матвеева; пер. с немецкого Л. М. Мирского. – 2-е изд., стереотип. – М.: Спорт, 2021. – 216 с.
10. Williams Pamela A., Cash Thomas F. Effects of a Cir ects of a Circuit Weight T eight Training Pr aining Program on the Body Images am on the Body Images of College Students. International Journal of Eating Disorders. ISSN: 0276-3478. Volume: 30. №1. 2001. Page 75-82.
11. G. R. Vadivel, D. Maniazhagu. Effects of Circuit Training and Circuit Weight Training on Muscular Strength Endurance. Journal of Advances in Sports and Physical Education. Scholars Middle East Publishers, Dubai, UAE. Mar, 2022; 5(3): 38-42.
12. E.S. Potovskaya, I.T. Krupitskaya. Endurance and stress tolerance building circuit training model for female students. Theory and Practice of Physical Culture № 11, 2019.

MAKTAB O‘QUVCHILARINING TEZLIK-KUCH QOBILIYATLARINI EKSTENSIV-ORALIQLI AYLANMA MASHG‘ULOT USLUBI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH

Xurramov Jasur Qo‘yliyevich
Qarshi davlat universiteti
Sport faoliyati kafedrasi mudiri, p.f.f.d. (PhD), professor
jasur_xurramov@mail.ru
ORSID 0009-0008-3424-857X
UDK 796:370.182 (045)

Annotatsiya. Maqolada hozirgi vaqtda o‘quvchilar jismoniy sifatlarini maktabda o‘qishning birinchi yillaridayoq, iloji boricha, to‘liqroq rivojlantirish lozimligi, harakat funsiyalarini rivojlantirishda sensitiv (sezuvchan) davrlar, ya’ni bolalarning harakatchanlik qobiliyatlari va jismoniy rivojlanishlariga yanada samarador ta’sir ko‘rsatuvchi chegara doirasidagi maqsadga yo‘naltirilgan ta’sirotlardan unumli foydalanilmasa, jismoniy qobiliyatlarning mukammallashuvi umuman amalga oshmasligi yoki juda katta mehnatlar bilan va kech davrda yuzaga kelishining ro‘y berishi va bu qulay davrlardan maksimal darajada ma’lum bir jismoniy sifatlarni maqsadga yo‘naltirib rivojlantirishda foydalanib, kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy imkoniyatlarini o‘zaro muvofiq tarzda rivojlantirish kerakligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, kichik maktab yoshida sensitiv davrlardan foydalangan holda tezlik-kuch qobiliyatlarini jadal sur’atlarda aylanma mashg‘ulotning ekstensiv-oraliqli uslubi yordamida rivojlantirishga imkon beruvchi uslubiyat bayon qilingan. Tezlik-kuch qobiliyatlarini aniqlovchi test natijalari, ya’ni turgan joydan uzunlikka sakrash 6,3 % ga, mokisimon yugurish 13,5 % ga, gavdani ko‘tarib-tushirish 8,1 % ga, to‘ldirma to‘p uloqtirish 10,1 % ga, besh hatlab sakrash 6,5 % ga yaxshilanganligi va tajriba guruhining ekstensiv-oraliqli aylanma mashg‘ulot uslubi asosida ishlab chiqilgan dasturi an’anaviy uslubiyatdan ko‘ra samaraliroq ekanligi aniqlanganligi to‘g‘risida daliliy xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tezlik-kuch qobiliyatlari, aylanma mashg‘ulot, sensitiv (sezuvchan) davrlar, kichik maktab yoshi, jismoniy tarbiya darslari.

DEVELOPMENT OF SPEED-POWER ABILITIES OF SCHOOL STUDENTS THROUGH EXTENSIVE-INTERMEDIATE CIRCULAR TRAINING METHOD

Abstract. The article notes that at present it is necessary to develop the physical qualities of students as fully as possible in the first years of school, provided that sensitive periods are not used in the development of motor functions, i.e. targeted impacts within the threshold that more effectively affect the motor abilities and physical development of children, evidence is provided that the improvement of physical abilities does not occur at all or occurs with very high labor costs and in the late period, and that it is necessary to maximize these favorable periods for the purposeful development of certain physical qualities and the development of physical abilities of children. primary school age in an interconnected way.

It also describes a technique that allows developing speed and strength skills at primary school age using sensitive periods using an extensive interval technique of circuit training at a fast pace. The results of the test for determining speed and strength abilities, namely, an improvement in long jumps from a standing position by 6.3%, shuttle running by 13.5%, lifting and lowering the torso by 8.1%, throwing a stuffed ball by 10.1%, five-fold jumps by 6.5%, as well as an experimental group program developed based on the training method With extension rotation, evidence-based conclusions have been drawn that it is more effective than others.

Keywords: speed and strength skills, circuit training, sensory periods, primary school age, physical education lessons.

Kirish. Ijtimoiy jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichida o‘quvchilarda umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini ko‘tarish va ularning harakatchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar jismoniy madaniyat va sport sohasidagi asosiy dolzarblikni tashkil qiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quv jarayoni tayanch jismoniy tayyorgarlik asoslarini hosil qilish, o‘quvchilarda zarur harakatchanlikning ko‘nikma va malakalar jamg‘armasini shakllantirish ularning har jihatdan uyg‘un rivojlanishini ko‘zda tutadi. Jismoniy tayyogarlik – salomatlikning zarur tarkibiy qismidir, uning yaxshilanishi esa – maktab jismoniy tarbiya darslarining asosiy vazifalaridan biridir[1].

Shu bilan birga, o‘quvchilarning jismoniy tarbiyasi amaliyotini o‘rganish natijalari so‘nggi yillarda bolalar va o‘smirlar harakat tayyorgarligining umumiy dinamikasi yaxshilanmayotganigagina emas, balki pasayish rag‘batiga ega bo‘layotganligiga guvohlik beradi [1]. Jismoniy sifatlar rivojlanishining umumiy darajasi keyingi sport faoliyatida qanday bo‘lsa, shunday bo‘lajak zamonaviy tadbirkorlik va ishlab chiqarishning turli jabhalari mehnat faoliyatida, shuningdek, qurolli kuchlardagi xizmatda ham yetarli bo‘lmayapti. Shuning uchun, yosh avlod salomatligini kamolotga yetkazish, maktab o‘quvchilarini aqliy va jismoniy mehnat, Vatan himoyasiga tayyorlashga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy dolzarblik kasb etmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Maktab yoshidagi bolalarda tezlik-kuch qobiliyatlarini aylanma mashg‘ulot uslubida rivojlantirishning samarali uslubiyatini ishlab chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi. Harakat sifatlarini rivojlantirishning yanada samarali uslubiyatlarini izlash – o‘quvchilar jismoniy tarbiyasining asosiy vazifalaridan biridir. Hozirgi vaqtda o‘quvchilar jismoniy sifatlarini maktabda o‘qishning birinchi yillaridayoq, iloji boricha, to‘liqroq rivojlantirish lozimligi haqida yanada ko‘proq dalil va ma’lumotlar yig‘ilmoqda. Harakat funksiyalarini rivojlantirishda sensitiv (sezuvchan) davrlar, ya’ni bolalarning jismoniy qobiliyatlari va jismoniy rivojlanishlariga yanada samarador ta’sir ko‘rsatuvchi chegara doirasidagi maqsadga yo‘naltirilgan ta’sirotni ajratib ko‘rsatishadi. Jismoniy tarbiya sohasidagi mutaxassislarning ko‘psonli tadqiqotlari agarda bu davrlardan unumli foydalanilmasa, jismoniy qobiliyatlarning mukammallashuvi umuman amalga oshmasligi yoki juda katta mehnatlar bilan va kech davrda yuzaga kelishining ro‘y berishi haqida fikr bildiradilar [1,2]. Yuzaga kelgan juz’iy sabablarga ko‘ra hozirgi kunda haftaning har kuni jismoniy tarbiya darslarini olib borishning iloji yo‘q. Shuning uchun o‘quvchilar jismoniy tarbiyasini yaxshilash maqsadida ko‘pgina mutaxassislar bu qulay davrlardan maksimal darajada ma’lum bir jismoniy sifatlarni maqsadga yo‘naltirib rivojlantirishdan foydalanib, kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy imkoniyatlarini o‘zaro muvofiq tarzda rivojlantirishni taklif qilmoqdalar [1,4,8].

Shundan kelib chiqib, ushbu qulay davrlarda jismoniy tarbiya o‘qituvchilari jismoniy qobiliyat va sifatlarni, jumladan tezlik-kuch qobiliyatlarini ham samarali rivojlantirishda aylanma mashg‘ulot uslubidan muvaffaqiyatli foydalanishlari mumkin [6,9]. Aylanma mashg‘ulot majmualarining mashqlari, odatda, dars materiallari, dars mavzulari bilan yaxshi bog‘lanadi, hamda nafaqat o‘quvchilarning umumiy va jismoniy rivojlanishiga, balki o‘quv dasturining barcha bo‘limlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga ham yordam beradi [3,11,12]. Mualliflarning ta’kidlashicha, [5,7,10], aylanma mashg‘ulotning muayyan yo‘nalishi, unga kiritilgan mashqlar majmuasi, yuklamalarni miqdorlash va texnikaning boshqa xususiyatlari, albatta, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga va tayyorgarlik darajasiga qarab belgilanadi. Biroq maktab jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini darsning tayyorlov, asosiy qismlarida rivojlantirishda aylanma mashg‘ulot uslubidan foydalanish samaradorligi to‘g‘risida yetarlicha to‘liq ma’lumot mavjud emas. Shu sababli, ushbu muammoni o‘rganilishi o‘z vaqtida va dolzarb deb hisoblash mumkin.

Natijalar va muhokama. Kichik maktab yoshidagi bolalarda sensitiv davrda tezlik-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishning eng maqbul uslubiyatini aniqlash maqsadida Qarshi shahridagi № 29-umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘quv jarayoni sharoitida tajriba o‘tkazildi.

Sinalayotgan 9-10 yoshli 3- sinf o‘quvchilari 60 tani tashkil qiladi. Bulardan 3 “A”sinfi nazorat sinfi, 3 “B”sinfi tajriba sinfi sifatida tanlab olindi. Tajriba boshlanishidan avval jismoniy tarbiya darslarida yuqorida keltirilgan sinflarning barcha o‘quvchilari organizmini tajribaga tayyorlash va test mashqlari texnikasini o‘zlashtirish maqsadida tezlik-kuch qobiliyatiga yo‘naltirilgan mashqlar bajartirildi.

Dastlabki tayyorgarlik o‘tkazilgandan so‘ng tajriba oldidan kuzatilayotgan barcha sinf o‘quvchilari tekshirishdan o‘tkazildi. Tezlik-kuch qobiliyatlarini aniqlash va baholash uchun quyidagi nazorat me’yorlaridan foydalanildi:

- joydan uzunlikka sakrash;

- mokisimon yugurish;
- gavdani ko‘tarib-tushirish;
- to‘ldirma to‘pni uloqtirish;
- besh hatlab sakrash.

Barcha sinflarda haftasiga 2 soatdan jismoniy tarbiya darslari chorak davomida Xalq ta’limi tavsiya qilgan maktab dasturi asosida maktab jismoniy tarbiya o‘qituvchisi tomonidan o‘tkazildi. Nazorat sinfi an’anaviy uslubiyat asosida shug‘ullandi. Tajriba sinfi esa darsning asosiy qismida 8-10 minut davomida tezlik-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirib maxsus ishlab chiqilgan ekstensiv-oraliqli aylanma mashg‘ulot uslubiga asoslangan uslubiyatni bajardilar. Mazkur uslubiyatning tarkibi quyidagilardan iborat:

mashg‘ulotlar uslubiyat asosida I chorakda 8 hafta davomida olib borildi;

har haftada 2 soat jismoniy tarbiya darslarining asosiy qismida 8-10 minut davomida tezlik-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirib maxsus ishlab chiqilgan mashqlar bajartirildi;

mashg‘ulot ekstensiv-oraliqli aylanma mashg‘ulot uslubi vositasida amalga oshirildi.

Bu jamlanmaga quyidagi mashqlar kiritildi:

1-bekat. Turgan joyda yugurish (signaldan so‘ng tajriba o‘tkaziluvchi iloji boricha tezroq navbatma-navbat tizzalarini soniga to‘g‘ri burchak ostida gorizontal holatda tortilgan rezina chilvirga tekkazishga harakat qiladi).

2-bekat. Arg‘amchi bilan sakrash (tajriba qilinuvchi signaldan so‘ng ikki oyoqda iloji boricha ko‘proq sakrashga harakat qiladi);

3-bekat. Chalqancha yotgan holda gavdani ko‘tarib tushirish (dastlabki holat oyoqlar tizzalardan bukilgan holda signaldan so‘ng sinaluvchi iloji boricha ko‘proq harakat qilishga intiladi);

4-bekat. Oyoqlarni orqaga siltab yugurish (signaldan so‘ng sinaluvchi iloji boricha ko‘proq navbatma-navbat oyoq kaftlarining tashqi tovon qismini dumba mushaklari ustida joylashgan qo‘l kaftlariga tekkazishga intiladi).

5-bekat. Mokisimon yugurish 3x10 (yuqori start dastlabki holatidan oldinga qarab);

6-bekat. Yuqoriga sakrash (o‘tirish d.h. dan, yuqoriga sakrab gavdani to‘liq rostlash);

7-bekat. Yotib qo‘llarga tayanish (d.h. – o‘tirish holati – yotib qo‘llarga tayanish holati – o‘tirish holati – d.h.)

8-bekat. 10 m.ga tezlanish olishlar (yuqori startdan).

Tiklovchi mashqlar sirasiga nafas olishni tiklanishi uchun mashqlar, uloqtirishlardan so‘ng yuqori yelka kamari muskullarini va sakrashlardan keyin oyoq muskullarining pastki qismlarini bo‘shashtiruvchi mashqlar kirdi. Mazkur dastur asosidagi darslar 8 hafta davomida o‘tkazildi.

Tajriba o‘tkazilishi umumiy o‘qitish va tarbiyalash prinsiplariga muvofiq holda va asosiy guruhga kiruvchi shug‘ullanuvchilar to‘liq tarkibda sinf-dars mashg‘ulotlari doirasida amalga oshirildi. Nazorat va tajriba guruhlarining nazorat normativlaridagi dastlabki ko‘rsatkichlari inobatli farq qilmadi ($p>00,5$).

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tajriba natijalari kichik maktab yoshidagi bolalarda sensitiv davrda tezlik-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ekstensiv-oraliqli aylanma mashg‘ulot uslubi asosida ishlab chiqilgan dasturning ta’sir ko‘rsatish darajasini baholashga imkon berdi.

Ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini namoyon qilish uchun tajribadan avval va keyin nazorat testlari o‘tkazildi va bu kichik maktab yoshidagi bolalarda sensitiv davrda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishda eng sara metodikani aniqlash imkonini berdi.

Tajriba guruhida foydalanilgan dastur natijalarni, ya’ni turgan joydan uzunlikka sakrashni 6,3 % ga, mokisimon yugurishni 13,5 % ga, gavdani ko‘tarib-tushirishni 8,1 % ga, to‘ldirma to‘p uloqtirishni 10,1 % ga, besh hatlab sakrashni 6,5 % ga oshirishga imkon berdi. Test natijalariga ko‘ra tajriba guruhining ekstensiv-oraliqli aylanma mashg‘ulot uslubi asosida ishlab chiqilgan dasturi an’anaviy uslubiyatdan ko‘ra samaraliroq ekanligi aniqlandi.

Shunday qilib, tajriba natijalari ekstensiv-oraliqli aylanma mashg‘ulot uslubi asosida ishlab chiqilgan dasturning kichik maktab yoshidagi bolalarda sensitiv davrda tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlashga imkon berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2019. – 172 b.
2. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyatining amaliyoti. Madaminov B., Salomov R. –Toshkent: Muharrir, 2013, – 132 b.
3. Xurramov J.Q. Aylanma mashg‘ulot uslubi va uning jismoniy tarbiya darslarida samarali qo‘llanilishi. Monografiya. – Toshkent. Tipograff MChJ, 2023. – 154 b.
4. Xurramov J.Q. Jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda aylanma mashg‘ulot uslubidan foydalanish. // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. – Buxoro, 2023 yil №3-son. 278-282-betlar.
5. Горбачев М.С. Комплексы упражнений круговой тренировки.- Физическая культура в школе. – 2007. – № 7. – 62 с.
6. Егорова К.В., Гамбарян А.А. Развитие скоростно-силовых качеств у юношей среднего возраста на уроках физической культуры методом круговой тренировки. - Научный журнал «Научный альманах». 2019. №12-2(62), стр. 46-48.
7. Ибраева Р.Ж., Кононенко А.О. Применение метода «круговой тренировки» на занятиях по легкой атлетике среди учащихся 15-16 лет. Вестник КГПИ №3 (55), 2019, стр. 48-55.
8. Лях, В. И. Двигательные способности школьников: основы теории и методики развития. - Москва: Терра Спорт, 2000. – 192 с.
9. Малозёмов О.Ю., Прохорова О.И., Белькова А.В., Давыдова Е.Ю., Галицин А.Г. Возможности метода круговой тренировки в развитии скоростно-силовых способностей школьников (на примере игры в баскетбол). Международное научно-практическое периодическое сетевое издание «Форум молодых ученых». http://forum-nauka.ru. Выпуск № 10(38), 2019, стр. 407-411.
10. Серебрянская О.Д., Забелин К.А. Метод круговой тренировки в начальных классах. Международный научный журнал «Молодой учёный». № 28 (132). 2016, стр. 991-993
11. Шолих М. Круговая тренировка.// общ. ред. и предисловие Л. П. Матвеева; пер. с немецкого Л. М. Мирского. – 2-е изд., стереотип. – М.: Спорт, 2021. – 216 с.
12. Paul Kumar. The Effect of Circuit Training on Cardiovascular Endurance of High School Boys. Global Journal of HUMAN SOCIAL SCIENCE. Arts, Humanities & Psychology. Volume 13, Issue 7, Version 1.0, Year 2013. Page 1-6.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF IMPROVING EDUCATIONAL TASKS IN PHILOLOGICAL EDUCATION

Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,f.f.f.d.v.b.dots
ohazratqulova36@gmail.com
ORCID 0009-0002-9070-8477
UDK 37018

Abstract. It is appropriate to consider the communicative development of the language from the point of view of the socialization of each child, that is, from the point of view of the development of communication skills with adults among peers. The success of formation of professional skills depends on motivational factors and the level of formation of general educational skills. Humboldt, the founder of the science of linguistics, showed that speech occurs as a product of language, and Saussure showed that language is realized through speech. Saussure emphasizes that language as a social phenomenon is a possibility, and speech as an emergent phenomenon, the use of language means of expression. Among the psychological conditions affecting the level of formation of the language carrier, linguistic ability is of particular importance. The formation of speech in a person is not limited only to the process of higher education, but continues throughout the entire conscious life of a person.

Keywords. Professional skills, emotional sensations, communicative development, language competence, speech competence, competency that develops thinking, communicative competence.

FILOLOGIK TA’LIMDA O‘QUV TOPSHIRIQLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Tilning kommunikativ rivojlanishi har bir bolaning ijtimoiylashuvi nuqtayi nazaridan, ya’ni tengdoshlar o‘rtasida kattalar bilan muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan, ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Kasbiy qobilyatni shakllantirish muvaffaqiyati motivatsion omillar va umumiy ta’limiy ko‘nikmalarini shakllantirish darajasiga bog‘liqdir. Tilshunoslik fanining asoschisi Gumboldt nutqning til mahsuli sifatida yuzaga kelishini, De Sossyur esa, til nutq orqali reallashuvini ko‘rsatib o‘tganlar. De Sossyur ijtimoiy hodisa bo‘lgan tilni imkoniyat, nutqni esa yuzaga chiqadigan hodisa sifatida tilning ifoda vositalaridan foydalanishini alohida ta’kidlaydi. Til tashuvchisining shakllanish darajasiga ta’sir qiluvchi psixologik sharoitlar orasida lingvistik qobiliyat alohida ahamiyatfa ega. Insonda

nutqning shakllanishi faqat oliy ta’lim jarayoni bilan chegaralanib qolmay, balki insonning butun ongli hayoti davomida davom etadi.

Kalit so‘zlari: Kasbiy ko‘nikmalar, ongosti sezgilar, kommunikativ rivojlanish, til kompetensiyasi, nutq kompetensiyasi, tafakkurni rivojlantiruvchi kompetensiya, kommunikativ kompetensiya.

Introduction. Speech appears in the process of movement of speech organs. The means of expression of language, which is a mental phenomenon, become a reality when speech is at the discretion of speech. So, speech consists of the product of speech activity, entering into a certain form [1]. “...to make a good speech, it is necessary to use the cooperation of the sciences of language, language, and logic. It is impossible not to pay attention to one of them, to violate the rule of one of them, without affecting the other two [2].

The formation of professional skills in language education also depends on psychological factors, in which professional skills are continuous intellectual development: mental processes (memory - visual and auditory, thinking - abstract and figurative, observation, imagination - reproductive and creative);

– the spiritual wealth of a person includes such things as continuous spiritual development, moral standards, first of all, compliance with the standards of communication.

This is both a didactic and a psychological (spiritual) process, for example, psychologist M. Nepp says that a child begins to master grammar at the age of 2-3, because he understands the speech of other people, in the combination of words and the structure of sentences. accepts the objective laws coded through the senses of the ancestors, the experience of many ancestors. Along with the development of speech in the human mind, an internal plan of possible actions is created in the mind, models of actions to be implemented in a specific situation are created [3].

Literature review. The analysis of the psychological studies of L.S. Vgotsky, I.Ya.Zimnyaya, A.A.Leontev, S.L.Rubinshtein allows us to talk about the fact that the success of the formation of the language carrier depends on the level of communicative development of the language. According to I.Ya.Zimnyaya, it is necessary to consider the "communicative development of language" as a complex multifaceted phenomenon:

- ✓ amount of vocabulary (lexical minimum);
- ✓ skill level of acquiring professional skills;
- ✓ the ability to express one's opinion in a coherent manner, the ability to adequately respond to the interlocutor's replies, the level of knowledge of forms of oral communication that have the indicators of reacting to what they hear;
- ✓ level of text reading speed;
- ✓ level of formation of written speech skills;
- ✓ level of formation of cognitive interests;
- ✓ level of general outlook [4].

Competencies required for communication include:

- ✓ language competence;
- ✓ speech competence;
- ✓ competence that develops thinking;
- ✓ communicative competence.

The implementation of these requirements, the formation of competencies, of course, requires the development of a system of special educational tasks in language education. This, in turn, requires studying the advantages of education that develops cognitive-thinking, which allows for the expression of ideas suitable for different speech situations, serves for the effectiveness of mutual communication.

Pragmatism is a philosophical-pedagogical direction that advocates bringing education closer to life and practical achievement of educational goals. The ideas of the first pragmatists were the American philosopher and pedagogue Developed by Dewey.[5]

According to him, it is not a means of preparing a person for life, it is life itself. Education should bring people together, educate young people in the spirit of social peace and harmony. According to D. Dewey, education is a crucial tool for improving the social environment and changing the type of society without revolutionary changes. The American Descriptive Linguistics OTM has been able to demonstrate the need for education that develops thinking and offers educational goals that are consistent with the development and interests of the general population.

Research Methodology. Linguistics that develops thinking studies the speech process

manifested through a specific communication situation. Many other issues related to the speaking subject and the addressed addressee, their mutual relations in communication-intervention, and the situation of communication-intervention are included.

Today, the priority of developing practical speech skills in language education, the inclusion of the competence that develops thinking in the composition of professional competences, starting from vocational education and training in students, in accordance with the speech situation It requires the training of speaking skills, the ability to become a participant in dialogue, polylogues, enter into polemics with interlocutors and justify one's opinion.[6]

When teaching a word that performs denotative and connotative functions as the main language unit, teaching the student to understand its spiritual aspects and to use it correctly in accordance with professional situations is part of mother tongue education. is the primary task.

However, this is not enough. The next task of language education is to be able to convey one's thoughts to the speaker completely and clearly by adding learned words, and at the same time to understand the content of the thoughts expressed by the interlocutor.

Analysis and results. In the competency-based approach to language education, these aspects are taken into account, and the basic and language-related competencies are separately distinguished. The function of the given communicative competence is defined as part of the basic competence.[7] Language and professional competencies are included in the specific competences from this DTS (DTS, 2017).

There is a need to improve the educational tasks based on the requirements of DTS, and if the following linguo-didactic requirements are met, the educational task will be relevant and effective:

– to be able to develop several professional skills while completing one educational task;

– students' conscious approach to the implementation of educational tasks, compliance with the didactic sequence;

– able to properly communicate with artificial intelligence to find educational tasks from modern information sources;

– o‘quv lug‘atlaridan mavzu doirasida unumli foydalana olishi.

Improved educational tasks should comply with the following main psychological-pedagogical goals of problem-based teaching:

– to develop students' thinking abilities, to develop their creative abilities;

– that students master the knowledge and skills acquired in the process of active research and independent problem solving, as a result of which these knowledge and skills are stronger than in traditional training;

– it is necessary to achieve the development of tasks suitable for educating the active creative personality of the student who can see, set and solve non-standard problems.

Discussions and results. In the content of state education standards, there is also the task of training creative thinkers, teaching students to think independently and creatively. In this sense, the main issue is how to organize a modern lesson, how a teacher communicates with his students, what tasks and questions to develop thinking. The general requirements that such a modern lesson should meet are:

1. Using the latest scientific achievements and the best pedagogical practice, organize a lesson on the basis of questions and answers to the process of philological education.

2. Implementation of the lesson with appropriate and purposeful use of educational tasks.

3. To create all the necessary conditions for students' cognitive activity, to develop educational tasks for the text or topic, taking into account their interests, inclinations and needs.

4. Taking into account interdisciplinary connections when creating questions and assignments.

5. Connecting with previously acquired knowledge and skills, providing remedial exercises and assignments based on students' levels of knowledge.

6. Development of all professional skills of the person necessary for all communication, stimulation and activation according to the results.

7. Taking into account the criteria of logicality and emotionality of speech at all stages through all types of educational tasks that develop thinking.

8. Effective use of educational resources in working with educational tasks that develop thinking.

9. Connecting educational tasks that develop thinking with students' lives, activities, and personal experience.

10. In order to develop the knowledge, skills and abilities necessary for creative thinking and practice while working with educational tasks that develop thinking.

11. Educational tasks that develop thinking should include the task of analyzing, diagnosing, designing and planning acquired knowledge, in addition to acquiring knowledge, thinking, and professional skills.

It is known that each lesson is aimed at achieving three goals: teaching, educating and developing. In language education, development of grammatical knowledge was mainly envisaged. It is true that there is no lesson or textbook without grammar, but it should be in moderation. It is necessary not to turn language learning into a complex process, to pay special attention to such skills, to check why the knowledge of teachers is undervalued, because knowledge, skills and skills are being measured incorrectly possible. The teacher is not asked about the theory of language - laws, in fact even scientists know only a small branch of linguistics. Of course, it is wrong to require a teacher to know all areas of linguistics.

Conclusion. Exercises that develop thinking are not through grammar rules, but in language education, moving to work with the text, understanding the meanings of words in the text, pronunciation and writing, and understanding what the author of the text actually wants to say. creation of a system of questions and assignments ensures the student's love for literature, the content of texts specific to different speech situations, understands the necessary information, and feels the expressive possibilities of the native language.

References

1. Соссюр Ф. Труды по языкознанию. - М.: Прогресс, 1977. - С. 52-53.
2. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 1972. – 144 бет.
3. Беруний. Танланган асарлар, 1-том, 64 бет. Кейинги кўчирмалар ҳам ўша асарнинг 64 бетидан олинди.
4. Нэпп М., Холл Д. Невербальное общение. Мимика, жесты, движения, позы и их значения. – М., 2007. – 512.
5. Зимняя И.А. Личностно-деятельностный подход в обучении как фактор гуманизации образования // Русский язык за рубежом. 1991. -№ 3. - С. 91-95.
6. Компетенцион ёндашувга асосланган Давлат таълим стандарти. – Тошкент, 2017.
7. Компетенцион ёндашувга асосланган Давлат таълим стандарти. – Тошкент, 2017.
8. Khazratqulova O.A. //Linguistic foundations of philological education reform.// JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH. I SSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4/2023, SJIF(2023)-3,778. 27.12.2023 P.870-874.
9. Hazratqulova O.A. Oliy filologik ta’limda o‘quv topshiriqlari ustida ishlash bilan bog‘liq muammolar // O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2024, [1/11/1] ISSN 2181-7324. B.259-261.
10. Ҳамроев Ғ. Умумий ўрта таълим тизимида фонетикага доир ўқув материалларининг илмий-методик таъминотини такомиллаштириш. Педагог. фанл. фалс. докт.(PhD) дисс. –Самарқанд, 2019. – 147 б.
11. Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 2010. – 323 б.

YOSHLAR TARBIYASIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

K.Dusyorova
QarDU Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariasi kafedrasi
katta o‘qituvchisi
ORCID 0009-0008-3573-2021
УДК 371.044.4:008(045)

Annotatsiya. O‘smirlik – shaxs kamolotining va rivojlanishining muhim bosqichidir. Bu qadam bolalikdan mustaqil va mas’uliyatli, katta yoshlar safiga o‘tish, jismoniy kamolotni yakunlash va ijtimoiy kamolotga erishish bosqichidir.

Ushbu yosh davrining yangitdan shakllanishi, shaxsiy va kasbiy o‘zini o‘zi belgilashidir. Bu dunyoqarash va hayotiy qadriyatlar tizimini shakllantirish bilan bog‘liq. O‘smirlik davri bilimlar hajmining ortishi, aqliy dunyoqarashning kengayishi, nazariy qiziqishlarning paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi.

Ushbu maqolada shaxs kamolotini rivojlantirish hamda yoshlarning internetdan to‘g‘ri va samarali foydalanishi hamda tarmoqdan foydalanishda axborot xavfsizligini ta’minlashda e’tiborga olish kerak bo‘lgan chora-tadbirlar va bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Asr, intellektual, qonun, qaror, axborot, internet, global tarmoq, portal, kutubxona,

ZiyoNET, ma’lumot, Google, virtual tahdid.

FORMING INFORMATION CULTURE IN YOUTH EDUCATION.

Abstract. Adolescence is an important stage of personal maturation and development. This stage is the transition from childhood to independent and responsible adulthood, the completion of physical maturity and the achievement of social maturity.

The central new formation of this age period is personal and professional self-determination. This is associated with the formation of a worldview and a system of life values. Adolescence is characterized by an increase in the volume of knowledge, the expansion of intellectual worldview, the emergence of theoretical interests.

This article discusses the measures that should be taken into account in developing personal maturation and ensuring the correct and effective use of the Internet by young people and information security when using the network, and the priority tasks that should be implemented in this regard.

Keywords: Century, intellectual, law, decision, information, internet, global network, portal, library, ZiyoNET, data, Google, virtual threat

Kirish. Yurtimizda sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan, har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar keng ko‘lamda aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlar asosida amalga oshirilib borilmoqda. “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo‘ravonlik, hayosizlik va shafqatsizlikni targ‘ib qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda esa behayolik, shafqatsizlik va zo‘ravonlik haqida hikoya qiluvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta’sir ko‘rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etishlariga sabab bo‘luvchi adabiyotlarni tarqatish, filmlarni namoyish etishning ta’qiqlanishi belgilab qo‘yilgan. 2014-yilda “Bolalarni, ularning jismoniy va ma’naviy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi va 2017-yil 8-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinishi fikrimizning yaqqol isbotidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda dunyoda qadriyatlar almashinuvi, integratsiyalashuv, globallashuv, madaniyatlar aralashuvi, sintezlashuvi jarayoni kechayotgan bir paytda, ma’naviy qadriyatlarning, milliy tarbiyaning o‘rni masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillarda ko‘plab tadqiqodchilar islohotlarida kishilar ongini programmalashtirish, axborot ekspansiyasi, madaniy gegemonlik, madaniy imperalizim kabi iboralar tobora keng qo‘llanilmoqda. Unda yangi madaniy tamoyillarga, hukmron madaniy tamoyillarga ko‘r-ko‘rona ergashish, hukmron madaniy axloqqa bo‘ysunish maylini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Achinarlisi shundaki, bunday sa’y-harakatlar nafaqat kattalar, birinchi galda yoshlar ongi va qalbini zabt etishga qaratilgan. Farzandlarimiz ma’naviy dunyosini egallash borasida barcha mavjud vositalar qo‘llanilmoqda, yangi texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. Yoshlar ong-u shuurini egallash qurollaridan biri global tarmoq hisoblanib, u boshqa vositalarga qaraganda yetakchilik qilmoqda. Yoshlarimiz tarbiyasiga bevosita va bilvosita tahdid solmoqda. Xavf-xatarning hosilasi raqamli tahdidning turli xil shakllari beozor ko‘rinishda hayotimizning ko‘p jabhalarida namoyon bo‘lmoqda.

Bugun axborot kommunikatsion texnologiyalari hayotimizda mustahkam o‘ringa ega, kompyuter savodxonligi ko‘rsatkichi esa ko‘p hollarda insonning yuqori saviyasini belgilab beradigan omillardan biriga aylanib bormoqda. Oilada, jamiyatda, fuqarolar oldida ota-onalarning raqamli kompetentlik mas’uliyatini yanada kuchaytirish lozimligini ta’kidlanmoqda.

Agar o‘tgan asrning 90-yillari o‘rtalarida yoshlarning eng sevimli mashg‘ulotlari musiqa tinglash va teleko‘rsatuvlar ko‘rish bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi paytda esa raqamli ma’lumotlar bilan muloqat qilish va ularni muhokama qilish ularning eng sevimli mashg‘ulotiga aylangan. Global dunyodagi axborotlar – yosh avlodni avvalgi qiziqishlarini hayotida siqib chiqarmoqda. Zamonamiz yoshlarining aksariyati o‘z qiziqish va sevimli mashg‘ulotlari haqida so‘z yuritganda sport, do‘stlar bilan suhbatlashish, ma’naviy va madaniy hordiq chiqarish bilan bir qatorda, virtual makonlarga sayr-sayohat qilishni birinchi o‘rinda tilga oladi. Ularning bu virtual makondagi soni soat sayin oshib bormoqda, o‘zlarinng turli xil ehtiyojlarini shu makonlarda qondirmoqdalar. Axborotga bo‘lgan chanqoqlik, ilmga bo‘lgan intilish, sirlariga sirdosh do‘stlarni, ya’ni o‘zlarining

raqamli dunyolarini yaratib bo‘lishgan. Aksariyat hollarda bu holat biz ota-onalarni farzandlarimiz dars, uy vazifasini tayyorlayapti, zamonaviy tezkor bilimlarni o‘z vaqtida olyapti degan bir tomonlama fikrga kelishimizga sabab bo‘lmoqda.

Qaysidir jihatdan bu yaxshidir, ammo masalaning boshqa tomoni ham borki, unga chuqurroq nazar tashlash lozim bo‘ladi. Alohida e’tibor talab etadigan jihat – global tarmoq orqali vujudga keladigan xavf-xatar tahdid (virtual tahdid) deb nomlanadi.

Hozirda maktab yoshdagi bolalar maktab yon-atrofidagi kafe yoki klublarga kirib, Internetdan foydalanishi mumkin. Shu bois ular uyida ham Internetga ulanish imkoni bo‘lishini xohlashi tabiiy. Lekin mutaxassislarning fikricha, yoshi o‘nga yetmagan bola odatda mustaqil ravishda Internetdan foydalanish uchun zarur bo‘lgan tanqidiy, tahliliy fikrlash va shu asosda ma’lumotlarni farqlash, ularni ajrata bilish, boshqacha aytganda “filtrlay” olish qobiliyatiga ega emas.

Biz real hayotda yosh bolalarimizni asrab-avaylashni odat qilganmiz. Biroq ular virtual olamda ham turli xavf-u xatarlarga uchrab qolishlari mumkinligi borasida hamma vaqt ham qayg‘urmaymiz. Har bir havola yoki ijtimoiy tarmoqdagi akkauntlar ortida bolalarni turli xatarlar kutishi mumkin. Bular pornografiya, pedofiliya, diniy oqimlar yoki o‘z joniga qasd qilishni o‘rgatuvchi guruhlar va hokazolar bo‘lishi mumkin.

Yosh bolalarni bunday xavf-xatarlardan ihotalash lozim. Buning uchun dastlab uyda kompyuterni risoladagidek qilib o‘rnatish shart. So‘nggi vaqtlarda yosh bolalari bir burchakda miq etmay o‘tirishlari uchun ota-onalar tomonidan ularning qo‘llariga aypad, noutbuk yoki smartfon kabi qimmatbaho o‘yinchoqlarni tutqazish odat bo‘lgan.

Kompyuterni kattalar nazari doim tushadigan joyda o‘rnatish lozim. Uni shunday joyda qo‘yish kerakki, uzoqdan turib bo‘lsa-da, bola internetda nimalarni izlayotganini kattalar kuzata olsinlar.

Mashhur Google qidiruv tizimiga “Bolalar uchun saytlar” topshirig‘ini bersak, 150 mingdan ortiq o‘zbek tilida, 23 milliondan ortiq rus tilida, 1 milliardga yaqin ingliz tilida ilovalarni topadi. Ulardan keraklisidan qayerda, qanday foydalanish foydalanuvchi xohishiga qoladi.

Global tarmoqda bolalarning xavfsizligi uchun birinchi navbatda ota-onalar javob beradi. 92% ota-onalar bolalarni internetda ishlashi uchun aniq ko‘rsatmalar berganligini ta’kidlasa, 34% bolalar ota-onalari ularga hech qanday foydalanish uchun to‘siq yoki me’yorlar belgilamaganliklarini aytishgan. “EU Kids Online” loyihasining onlayn-resurslar doirasida o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, zo‘ravonlik, hayosizlik va shafqatsizlikni targ‘ib qilishga qaratilgan axborotlarning mavjudligi “YouTube”da (32%)ni, veb saytlarda (29%)ni, sotsial tarmoqlarda (13%)ni va o‘yinlarda (10%)ni tashkil etgan. “YouTube”dagi video lavhalarning (30%) shafqatsizlik, (27%) pornografiya va (30%)dan ortig‘i nomaqbul kontentlardan iborat ekanligi, sotsial tarmoqlardagi xavfni (48%)ni nojoiz harakatli va (30%) nomaqbul kontentlardan, veb saytlardagi axborotlarning (43%) pornografiya, o‘yinlarda (39%) zo‘ravonlik, shafqatsizlik bilan yoritilgan sahnalar mavjudligi aniqlangan.

Internet muammosi tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda, ekstremik xarakterdagi sekta va uyushmalar saytlarni foydalanishga ochiqligi, virtual firibgarlikka keng yo‘l qo‘yilganini ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Bolalarning qiziquvchan tabiati ularni yuqorida tilga olingan turdagi saytlarga yetaklashi, bu veb saytlarda ularning ruhiy yoki jismoniy sog‘lig‘iga xavf soluvchi ma’lumotlarni ko‘rishiga olib kelishi tabiiy. Bank yoki kredit kartochkasidagi hisob raqamlarni bilgan bolakaylar onlayn savdolarda qatnashib kichik o‘yinchoqdan tortib, eng so‘nggi rusumdagi avtomobil sotib olish huquqiga ham ega bo‘lmoqda. Bu esa ularni virtual firibgarlarning nishoniga aylantiradi.

Natijalar va muhokama. Virtual olamda kechayotgan zo‘ravonlik, behayolik, o‘g‘irlik, buzuqlik ertaga real hayotga ko‘chmaydi deb hech kim kafolat bera olmaydi. Internet kafelarda, uydagi kompyuterlarda saytlarni “kovlayotgan” bolalarning ota-onalari o‘ylab mulohaza yuritsalar, farzandlarining tarbiyasiga ozroq vaqt ajratsalar yaxshi bo‘lar edi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek,

buning uchun ota-onalarning o‘zlari kompyuter bo‘yicha savodxonliklarini yanada oshirishi foydadan xoli bo‘lmas edi. Bu farzandlariga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishga yordam beradi. Chunki yuqoridagi holatlardan nafaqat o‘zlari, balki butun bir jamiyat zarar ko‘radi.

Farzandlari internetdan foydalanayotgan ota-onalar uchun tavsiyalar:

Bolalar internetga ota-onalari bilan birga tashrif buyursin, ularni tarmoqdagi tajribalarini o‘rtoqlashishiga undang, rag‘batlantiring.

Bolalarga – ularni internetda nimadir bezovta qilsa, ichki hissiyoti (intuitsiyasi) ga ishonishga va ota-onalariga ma’lum qilishga o‘rgating.

Bolalarga shaxsiy ma’lumotlar (uning ismi, elektron pochta manzili, telefon raqami, turar joy manzilidan) dan foydalanmay, ro‘yxatdan o‘tish nomi hamda shaklini to‘ldirishni talab etadigan dasturlarda ro‘yxatga o‘tishga yordam bering. Buning uchun maxsus elektron pochta ochish maqsadli.

Bolalarga hech qachon o‘z turar joy manzili, telefon raqami yoki boshqa shaxsiy axborot, masalan, o‘qish joyi, sayyor joylarini notanish kishilarga bermasligini qat’iy talab qiling.

Bolalarga - internetda ham, real hayotda ham yaxshi va yomon farqi bir xil bo‘lishini tushintiring.

Bolalar-internetda tanishga insonlar bilan real hayotda ota-onalarining nazoratisiz uchrashishlari mumkin emas.

Bolalarga – internetda o‘qigan yoki ko‘rgan ma’lumotlarining barchasi to‘g‘ri emasligini o‘rgating. Ular ota-onalaridan muhokama so‘rasinlar.

Ota-onalar – farzandlaringiz qaysi manzillarga kirayotganini maxsus dasturlar yordamida nazorat qilishni yo‘lga qo‘ying.

Ota-onalar – farzandlaringizga boshqaning mulkini hurmat qilishni o‘rgating. Noqonuniy ko‘chirib olingan ma’lumotlar – o‘g‘rilik ekanligini tushintiring.

Ota-onalar – farzandlaringizni boshqalarni hurmat qilishga, ularni virtual olamdan ham yaxshi muomala madaniyatiga amal qilishga o‘rgating.

Xulosa. Internetdan oqilona foydalanish, oqni qoradan ajrata olish va to‘g‘ri xulosalar chiqarish ko‘nikmasini shakllantirish g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada taqiqlash yo‘lidan borish kutilgan samara bermaydi. Chunki biror nimani taqiqlashdan avval unga muqobil boshqa yaxshi narsani taklif qilish maqsadga muvofiqdir.

Ota-onalar farzandlariga berayotgan tarbiyada yuqoridagi fikr-mulohazalar qanchalik muhim ekanligini tushunib yetishlari va hozirgi vaqtda axborotning xavfsizligiga e’tibor berib, ish olib borishlari lozim. Chunki mukammal tarbiya uchun zamonaviy bilimlarni bilish, ulardan samarali foydalanish bugungi kunda asosiy ishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Global tarmoqning yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ta’sirini kamaytirish, oldini olish uchun, ota-onalar oldida raqamli kompetentlik darajasini oshirish masalasini ko‘ndalang qo‘ymoqda. Jamiyatdagi barcha fuqarolar, o‘zlarida raqamli tahdidga javob bera oladigan ma’naviy immunitetni shakllantirishlari davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi “2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 781-sonli Qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 13-sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘grisida”gi PQ-3271 sonli Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘grisida”gi 4354-sonli qarori.

4. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish –xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. (Prezident Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi) / “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 4-avgust.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatishni rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish

bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Famoyishi / “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 13-yanvar.
6. Munavvarov A. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: O‘qituvchi, 1996-2008.
7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
8. Галактионова Т.Г. Чтение школьников как социально-пкдагогический феномен открытого образования. Монография. – Санкт-Петербург, 2007. – С.164-168.

KIMYODA MODDALARNI SIMMETRIK KO‘RINISHLARGA AJRATISH ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI TAKOMILLASHTIRISH USLUBLARI

Xolmurodova Laziza Erkinovna
Qarshi davlat universiteti Kimyo-biologiya fakulteti Noorganik kimyo kafedrasi o‘qituvchisi
Salimova Adiba Bahromovna
Qarshi davlat universiteti Kimyo-biologiya fakulteti Kimyo yo‘nalishi talabasi
l.xolmurodova@gmail.com
ORCID 0009-0005-1301-4182
UDK:546.0.371:3(021)

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’limda umumiy va noorganik kimyo kursining kasbiy-pedagogik yo‘naltirilganligi, tuzilmaviy tarkibi va tahlili, tamoyillari haqida fikr yuritilgan. Barchaga ma’lumki, yurtimizdagi aksariyat oliy ta’lim muassasalarida umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun kimyo fanidan o‘qituvchilar tayyorlanadi. O‘qituvchilik kasbi, birinchi navbatda, insonparvarlik xususiyatiga ega bo‘lishligi lozimligi sir emas. Kimyo fani o‘qituvchisi kimyo sohasidagi boshqa mutaxassislardan farqli o‘laroq, nafaqat kimyoni bilishi, balki o‘z bilimni boshqalarga (to‘g‘rirog‘i ta’lim oluvchilarga) yetkaza olishi hamda ularni tarbiyalay olishi ham lozim. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, oliy ta’limning asosiy maqsadi – kimyo fani bo‘yicha o‘z bilimlarini va o‘qitish mahoratini mustaqil ravishda oshirib borishga qodir bo‘lgan o‘qituvchilarni tayyorlashdan iboratdir.
Tayanch so‘zlar: kimyo, metodika, tizim, kasbiy-pedagogik, tamoyil, tarkibi va tahlili, ilmiylik, simmetriklik.

METHODS OF IMPROVING THE TEACHING METHODOLOGY BASED ON DIVIDING SUBSTANCES INTO SYMMETRICAL FORMS IN CHEMISTRY

Abstract. Professional-pedagogical orientation, structural composition and analysis of the general and inorganic chemistry course in higher education, and these principles are discussed in the article. It is known to everyone that in the majority of higher educational institutions in our country, teachers of general and secondary schools of this subject are engaged in training. It's no secret that the teaching profession must first of all have humanitarian characteristics. Unlike other specialists in the field of kimuo, a teacher of kimuo should not only know kimuo, but also be able to convey his knowledge to others (more precisely, students) and train them. From this, it can be concluded that the main goal of higher education is to train teachers who are able to improve their knowledge and teaching skills independently..
Keywords: chemistry, methodology, System, Professional-pedagogical, principle, composition and Reasoning, Science, symmetricity.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilganligini ko‘rsatadi [1,2,3,4].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu mavzu yuzasidan buyuk allomalarning ilmiy ishlarini kuzatishimiz mumkin. I.N. Borisov, X.T. Omonov, Sh.M. Mirkomilov, M.S. Hotamova, M. Nishonov, Sh.A. Mamajonov, N.X. Avliyaqulov, N. Boltayev, X.A. Mavlyanova va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

MDH davlatlarida kimyo o‘qitish metodikasini takomillashtirish, axborot texnologiyalarini qo‘llashga mo‘ljallangan kimyoga oid o‘quv materiallarining pedagogik samaradorligi oshirish bo‘yicha A. A. Kuznetsov, A.A. Grechixin, T.M. Lepsova, E.S. Po‘lat, V.A. Vul, V.M. Gasov, A.M. Siganenko, V.N. Ageyev, M.M. Subbotin, Y.M. Sivenkov, E.Y. Semenov va boshq. (Y. I.Chervyakova, O.V. Chibisova. Elektron darslik yangi axborot texnologiyalari vositasi sifatida. “Eksperimental ta’lim” xalqaro jurnali, 2010. 4-son) ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda fan sohalarini o‘qitishda elektron darsliklar, interaktiv

multimedia, web-quest, intellektual o‘yin texnologiyalaridan foydalanishga oid samarali tadqiqotlar B. Dogde, S.Goodman, R. Kozma, Zephrinus C, Njoku, Maria Limniou, Nikos Papadopoulos, David Roberts, N. Rizk, A. Sorgo, L.Masterman, T. March, Newton, J. Huppert, Ying Ouyang, Aleksey Porollo, Jaroslaw Meller, Milada Tepla olimlar tomonidan amalga oshirilgan [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy maqolada “Rovin doirachasi” ham “Nima uchun” deb nomlangan metodlardan foydalanilgan holda yoritilgan. Noorganik kimyo fanini moddalarni simmetrik ko‘rinishlarga ajratish asosida talabalarga o‘qitish metodikasi nuqtayi nazaridan kimyo, psixologiya, pedagogika hamda metodikaga tegishli adabiyotlarni tadqiqot muammosi yuzasidan tahlil etish;

turli kurslarga tegishli noorganik moddalarni tarkibiy tuzilmasiga ko‘ra simmetrik ko‘rinishlarga ajratib talabalarga o‘rgatish muammosi yuzasidan aniqliklar kiritish;

kimyo ixtisosliklari talabalari uchun noorganik kimyo fanidan moddalarni simmetrik ko‘rinishlarga ajratish asosida o‘qitish modelini ishlab chiqish;

talabalar uchun kimyo elementlarini ta’lim mazmuniga ko‘ra tanlash va moddalar tavsifini simmetrik ko‘rinishlarga ajratish asosida o‘qitish metodikasini taqdim etish, mazkur metodikaning natijadorligini aniqlash [6].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Noorganik kimyo fanini o‘qitish mazmuni o‘quv kursining an’anaviy, tizimli-tuzilmaviy, tizimli-shajaraviy komponentlarini harakatlar sxemasini kontekstual yondashuvning izomorfeg, minimallashtirish, majmuaviylik kabi tahliliy mezonlar orqali algoritmini qurish asosida aniqlashtirilgan;

noorganik kimyo fanini o‘qitish jarayoni kasbiy kompetensiyani rivojlantirish elementlari ta’limning ilmiy hamda amaliy xususiyatlarini tashxislovshi imkoniyatini hisobga olish kabi metodologik jihatlariga urg‘u beruvchi didaktik tizimning texnokratik komponentini faoliyatga integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

noorganik kimyo fanini o‘qitishda konseptual mezonlar asosida taklif etilgan funksional modelining mazmun komponenti kimyoviy elementlar, jarayonlar va reaksiyalarni simmetrik ko‘rinishlarga singonik ajratish orqali o‘qitish bosqichlarining muayyan iyerarxik tuzilmasini kognitiv o‘quv jarayoniga tatbiq etish asosida takomillashtirilgan;

noorganik kimyo fanini o‘qitish metodikasi invarianti, subinvariant hamda variativ elementlar tizimini simmetrik ko‘rinishlarga ajratishga doir vizual o‘quv materiallari, grafik organayzerlar va virtual o‘quv materiallarini aralash ta’lim tamoyillariga ko‘ra innovatsion muhitga integratsiyalash orqali takomillashtirilgan.

Noorganik kimyo fanini o‘qitish jarayoni kasbiy kompetensiyani rivojlantirish elementlari kimyo fanini o‘qitishning izomorflik, minimallashtirish, ahamiyatlilik, xususiylik, majmuaviylik va optimallik mezonlari asosida amalga oshiriladigan kognitiv ko‘rsatkichlar, empirik ko‘rsatkichlar, setodik ko‘rsatkichlar tavsifi asosida takomillashtirilgan ma’lumotlar “Umumiy va noorganik kimyo” nomli o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli qaroriga asosan №68-717 son guvohnomasi). Natijada kimyo fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish metodlarini kimyo elementlarini ta’lim mazmuniga ko‘ra tanlash hamda kompetentlilik, aprobatsion korreksiyalash va elementlarni faktologik tavsifiga ko‘ra simmetrik ko‘rinishlarga ajratish asosida o‘qitish imkonini beradi [7,11].

Roven doirachalari. Roven doirachalari asosida bu ikki davr oralig‘idagi qonuniyatlarni, holatlarni o‘zaro taqqoslash va bu ikki davr xulosalarining o‘hxsashlik tomoni tahlil qilinadi.

1-rasm. Roven doirachalari.

Kimyoviy bog‘lanish hosil bo‘lish tabiatiga ko‘ra 5 ta asosiy turga bo‘linadi.

1.Kovalent bog‘lanish.

2. Ion bog‘lanish.
3. Metall bog‘lanish.
4. Vodorod bog‘lanish (bog‘lanishning o‘ziga xos turi).
5. Donor – akseptor bog‘lanish [8].

Atomlar orasida kimyoviy bog‘lanish natijasida 3 turdagi bog‘ paydo bo‘ladi.

“Nima uchun”– metodi. “Nima uchun?” metodi – daslabki muammoning yechimini o‘rganish uchun qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik metodlardan biri hisoblanib, tizimli, ijodiy, tahliliy, muhokama, mulohoza qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Talabalar “Nima uchun?” sxemasini dars jarayonlarida qo‘llashda dastlab uning qoidalari bilan tanishadi.



2-rasm. Nima uchun sxermasi.

Bu jarayon yakka tartibda hamda juftlikda amalga oshiriladi. Dastlab talabalar tomonidan mavzu yuzasidan fikr bidiriladi va ushbu fikrga ketma-ket “Nima uchun?” savoliga javoblar berib boriladi. Bu jarayon muammoning asl yechimi topilmagunga qadar davom ettiriladi. Talabalar kichik-kichik guruhlarga ajratiladi. Jarayon davomida talabalar o‘z ma’lumotlarini taqqoslaydi va qo‘shimcha fikrlarini aytadilar. Jarayon oxirida fikrlar umumiylashtiriladi va natijalar taqdim etiladi:

1.“Nima uchun?” sxemasida piktogrammadan: aylana yoki to‘g‘ri to‘rtburchak shakllaridan foydalanishingiz mumkin bo‘ladi.

2. “Nima uchun?” sxemasi tuzilishini chiziqli, nochiziqli, spiralsimon (dastlabki holatni markazga yoki chetga joylashtirib) shakllarda ifodalash mumkin.

3. Jarayon davomida “Nima uchun?” savoliga javob berib boriladi va natijada dastlabki holatdan jarayon oxiriga qadar tahlil qilib boriladi. Bu metod yordamida dastlabki muammo yechiladi, talabalarda mavzu ushbu metod yordamida batafsil yoritib boriladi. Talabalarda fanga nisbatan qiziqishlar, ko’nukmalar yanada oshib boradi [9,10].

Pedagogik tadqiqot natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish, oliy o‘quv yurtlarida kimyo fani o‘qituvchilarini tayyorlash amaliyotiga joriy etish uchun metodik tavsiyalarni ishlab chiqish quyidagi xulosalarga olib keldi.

Xulosa va takliflar. Shakllantiruvchi tadqiqotning natijalari tahlili shuni ko‘rsatayaptiki, invariantlar va subinvariantlarni ajratish asosida elementlar kimyosini o‘rganishning taklif etilayotgan modeli o‘rinli bo‘lib, modda va u bilan bog‘liq xossalarni tizim tavsiflashning umumlashma ko‘nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirishni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to’g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017. – № 6. 70-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-637-son. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2020-yil 23-sentyabr.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2016. – B. 56.
5. Nishonov M., Teshaboyev S. Kimyoni o‘qitishda didaktik o‘yinlardan foydalanish // Bioorganik kimyo fani muammolari. Respublika yosh kimyogarlar konferensiyasi materiallari. –Namangan. -2014. -B. 226-229.
6. Nurullayeva Sh.U. Modellashtirish – ilmiy tadqiqot metodi sifatida // Mug‘allim həm ɣzliksiz bilimlendirio‘. –Nəkis, 2020. –№6/1. – 26-29-b.
7. Rahmatullayev N., Omonov H., Mirkomilov Sh. Kimyo o‘qitish metodikasi //– Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2013. –10-40 b.
8. Tashmatova R.V., G‘ofurov A., Muhammadiyeva H.Q. Kimyo fanlarini o‘qitishda modulli texnologiyadan foydalanish // Bioorganik kimyo fani muammolari, VIII Respublika yosh kimyogarlar konf. –Namangan, 2014 yil, 21-22 noyabr. –B.81-87.
9. Mutalboyev A., Murodov E., Masharipov S., Islomova H. Kimyo // 10-sinf uchun darslik. –

Toshkent, 2017. – B. 48-66.
10. Meliboyeva G.S. Kimyoni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar. –Toshkent, 2020. – B. 38-56.
11. Новиков В.С. Горизонты новой экономики, модель и инфраструктура интеграции субъектов и объектов виртуальных взаимодействий // Научный вестник ЮИМ. УДК 65.01 ББК 65.05 Н 73. – 2013. № 3. - С.13-17.

TAJRIBA JARAYONIDA BOLALARNING TABIATGA OID TADQIQIY-IJODIY KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Bo‘riyeva T.A.
Qarshi DU Maktabgacha ta’lim kafedrasi
tayanch doktorant
buriyevatursunoy680@gmail.com
ORCID 0009-0006-2200-5103
UDK 372.6 (021)

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida real modellardan ta’limiy faoliyatlar jarayonida o‘rinli foydalanish, aynan maktabga tayyorlov guruhlarida atrof-olam bilan tanishtirish ta’limiy faoliyatida ularning o‘rni va ahamiyati, bolalarning tadqiqiy-ijodiy ko‘nikmalarining shakllanganlik mezonlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, ta’limiy faoliyatda kichik tajribalardan foydalanish jarayoni o‘z oldiga quyidagi vazifalarni belgilab olishi ko‘rsatib o‘tilgan: atrof-olam bilan tanishtirish ta’limiy faoliyati jarayonida mantiqiy fikrlashni jadal rivojlantirish, ta’limiy faoliyat jarayonida real modellardan foydalanishni jadallashtirish, tarbiyalanuvchilarning ta’limiy faoliyat jarayonida tajribalar o‘tkazishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, ta’limiy faoliyat jarayonida olib borilayotgan kichik tajribalarda faol ishtirok etish ishtiyoqini rivojlantirish. Shuningdek, maqolada mavzu doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining sharhi hamda ularning tahlili bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: real, model, modellashtirish, mantiqiy fikrlash, tadqiqot, pedagogik modellashtirish, komponent, yondashuv, motivatsion, kreativ.

METHODOLOGY FOR FORMING CHILDREN'S RESEARCH AND CREATIVE SKILLS ABOUT NATURE IN THE EXPERIMENTAL PROCESS

Abstract. This article provides information on the appropriate use of real models in the process of educational activities in preschool educational organizations, their role and importance in the educational activity of familiarization with the world around them in preparatory groups for school, and the criteria for the formation of children's research and creative skills. In particular, it is shown that the process of using small experiments in educational activities sets itself the following tasks: intensive development of logical thinking in the process of familiarization with the world around them, intensive use of real models in the process of educational activities, increasing the interest of students in conducting experiments in the process of educational activities, developing the desire to actively participate in small experiments carried out in the process of educational activities. The article also provides a review of scientific research conducted within the framework of the topic and their analysis.
Keywords: real, model, modeling, logical thinking, research, pedagogical modeling, component, approach, motivational, creative.

Kirish. Mamlakatimizda Prezidentimizning “Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ta’lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to‘g‘ri keladi: ta’lim-tarbiya – biz uchun hayot-mamot masalasidir. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog‘lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi” [1] degan fikrlari ostida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini zamonaviylashtirish va ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo‘yildi. Xususan, maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma’lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi shu dalilning o‘zi bolalarning yetuk va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida maktabgacha ta’lim tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Yana bir muhim masala – bu sohada zamonaviy talablarga javob beradigan ilg‘or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish ham g‘oyat dolzarb vazifadir. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda ta’limiy faoliyatlar jarayoniga to‘g‘ri va faol yondashuv, har bir faoliyat turini real modellar

asosida tashkil etish, ta’limiy faoliyat jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlariga qat’iy amal qilish muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda zamonaviy ta’lim jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida atrof-olam bilan tanishtirish ta’limiy faoliyatini zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda real modellar asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida ko‘zga tashlanmoqda. Jumladan, bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish masalalarining turli jihatlarini ishlab chiqish va uning ahamiyatini yoritishda pedagog olimlardan: P. Yusupova, G.E. Djanpeisova, X.D. Jabborova, A. To‘xtayev, M.I. Nuriddinova, M. Umarova, Sh. Sodiqova, M.A. Rasulxo‘jayeva, M. A’zamova, A. Ergashev, B.G‘.Ziyomuhammedov, U. Yoziyeva, Y. To‘rayev kabilarning xizmatlari katta.

Jumladan, P. Yusupova o‘zining “Формирование начал материалистического миропонимания у старших дошкольников в процессе ознакомления их с растениями в условиях Узбекистана” deb nomlangan tadqiqot ishida metodist olim A.V. Zaporojesning quyidagi fikrini o‘rinli keltiradi: “... maktabgacha yosh didaktikasini shunday yo‘lga qo‘yish kerakki, bolalar tevarak-atrofdagi buyumlarning tashqi jihatlari bilangina emas, balki ular orasidagi eng oddiy bog‘lanishlar, kuzatilayotgan hodisalarning eng yaqin sabablari, o‘zgarish va rivojlanishlaridagi ayrim xususiyatlar bilan ham tanishsinlar, bunday material saviyaga mos bo‘libgina qolmay, maktabgacha yoshdagi bola uchun qiziqarli hamdir”. Bola ana shu bog‘lanishlarni anglash orqali tabiat qonunlarini bilib boradi.

X.D. Jabborova o‘zining “Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berishning o‘ziga xosligi” nomli darsligida ekologik tarbiyaning maktabgacha yoshdagi bola ta’lim-tarbiyasidagi, aqliy va axloqiy rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati haqida, atrof-olam bilan tanishtirish mashg‘ulotlari, mashg‘ulot jarayonida foydalaniladigan usul va metodlar va tarbiyachining o‘rni va unga qo‘yiladigan talablar haqida batafsil ma’lumot keltirib o‘tilgan.

MDH olimlaridan R.S. Nemov, A.S. Simonovich, O.V. Dibina, V.P. Zinchenko, E.F. Kozina, S.A. Kozlova, T.A. Kulikova, B. Spinoza, A.P. Usova, M.E. Ferreira, R.A. Fisher kabilar tabiat va jamiyat uyg‘unligi, shaxs shakllanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta’siri, bola tarbiyasida atrofdagi voqea va hodisalarning o‘rni va ahamiyati, atrof-olam bilan tanishtirish bolaning intellektual rivojlanishi uchun zamin yaratishi haqida turli g‘oyalarni ilgari surganlar.

Psixolog olim R.S. Nemov o‘z asarlarida shaxs shakllanishida muhit va atrof-olam va muhitning ta’siri, ular orqali bolada bilish faoliyatining rivojlanishi haqida qimmatli ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. Shu o‘rinda uning quyidagi fikrlari keltirib o‘tish maqsadga muvofiq: “Inson barcha bilimlarni turli manbalardan olishi mumkin. Inson bolalikda atrofidagi odamlarga duch keladi, ya’ni ota-onasi, qarindoshlari va ularning o‘rnini bosadigan boshqa kishilar bilan muloqotda bo‘ladi. Bola kattalar bilan muloqotga kirishar ekan, ularning bolaga bildirgan munosabati, fikri ta’sirida nutqni o‘zlashtiradi, unda o‘zini o‘zi baholash va o‘ziga ishonch hissi paydo bo‘ladi, shaxsiy tasavvurlar shakllanadi, atrofidagi narsa va buyumlar, odamlarni tushunishni o‘rganadi” [5; 13-b]. Natijada bola o‘zining bilish faoliyati hamda irodaviy va boshqa sifatini baholaydi”.

Portugaliyalik olim M.E. Ferreira “Bolalarga atrof-muhitga do‘stona munosabat asosida ekologik ta’lim berish” mavzusidagi ilmiy ishida amaliy mashqlar orqali ekologik tarbiya berish, atrof-muhit ta’limini singdirish muhimligini asoslab bergan [6]. Shaxs shakllanishida tabiatning o‘rni va roli o‘ta muhim ahamiyatga egaki, insonning ta’lim olishi, mehnat qilishi, ma’naviy shakllanishida ham uning ahamiyati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mehnat faoliyati tabiat qo‘ynida, ish qurolidan foydalanish orqali tashkil etiladi. Bunda inson o‘z ehtiyojlarini qondirish yo‘lida faollik qiladi va bajargan ishlaridan ma’naviy ozuqa oladi. Shu va boshqa ehtiyojlar bolalarda ham mavjud bo‘lib, ularni turli faoliyat asosida qondirishga harakat qiladi. Olim mazkur jarayonda integratsion yondashuvni amalga oshirish zarurligini asoslab bergan. Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishda davlat talablarining barcha rivojlanish sohalarini uyg‘unlikda amalga oshirishda integratsion yondashuv muhim sanaladi.

Rossiyalik olima A.P. Usova bolalarda bilimlar ikki kategoriyada shakllanishini asoslaydi: “Birinchi kategoriyada bolalar oilaviy sharoit, kattalar bilan kundalik muloqotda, o‘yin va kuzatish jarayonida bilimlarni o‘zlashtiradilar; ikkinchi kategoriyada bilim va tajribalar ta’lim jarayonida mashg‘ulot va ta’limiy faoliyatda o‘zlashtiriladi” [7].

A.S. Simonovich “Bolalarda bir-biri va atrofidagi boshqa odamlarga bo‘lgan ijobiy munosabatning rivojlanishiga yordam berish; o‘yinlar orqali borliq va atrof-olamni tahlil qilish; bolalarda hissiy intellektni amaliy va hayotiy yo‘llar bilan rivojlantirish; syujetli o‘yinlar orqali

xulosa chiqarish; biror bir voqelikning kelib chiqish sababi va oqibatini o‘rgatish; bolalarga maktabda va sinfda o‘zini qanday tutish kerakligini o‘rgatish zarur” deb ta’kidlaydi [8]. Tengdoshining yutug‘i, o‘zining shaxsiy muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligini qiyoslaydi, o‘zini tahlil qilish ko‘nikmasi shakllanadi. Bularning barchasi atrof-olamning bolaga ta’siri natijasida sodir bo‘ladi.

AQShlik olim R.A. Fisher (The University of Tennessee at Chattanooga) “Maktabgacha ta’lim yoshdagi tarbiyalanuvchilarning so‘zlarni anglashi va ijodkorligiga atrof-muhit ta’limining ta’siri” mavzusidagi doktorlik ishida bolalar so‘z boyligi va nutqining rivojlanishiga atrof-muhitning ta’siri tahlil etilgan [9]. Ma’lumki, bizni o‘rab turgan atrof-olam butun borliq – bu tabiat in’omi hisoblanadi. Ilk yoshlikdan bolalarni tabiatni asrashga o‘rgatib borish muhim masalalardan biri.

Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish jarayonida ilmiy adabiyotlar bilan birgalikda adabiy va ommabop adabiyotlarni ham o‘qib, foydalanish muhim hisoblanadi. O‘rganilayotgan mavzu ustida bola eshitib, ko‘rib, beixtiyor tajribada o‘zi ishtirok etsa, mustaqil bajarsa uni bir umr esda olib qolishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tadqiqiy-ijodiy ko‘nikmalarining shakllanganlik mezonlari (tasavvurning boyligi, ijodiy fikrlashning yuqoriligi, dunyoqarashga egalik, qiziquvchanlik) bola shaxsiga individual yondashuvning o‘ziga xoslik, harakatchanlik, sezgirlik, chaqqonlik kabi sifatlariga ustuvorlik berish asosida aniqlangan;

bolalar tadqiqiy-ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirish modelining jarayonli-mazmunli va faoliyatga yo‘naltirilgan bloki bola shaxsi bilish jarayonining sezgi, diqqat, idrok, xotira kabi bosqichlariga moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

real modellar asosida bolalar tadqiqiy-ijodiy ko‘nikmalarinini shakllantirish jarayoni ta’limiy-o‘yin faoliyatning tajriba, ekskursiya, sayr kabi shakllari bilan bolalar tadqiqiy-ijodiy ko‘nikmalarinini rivojlantirish metodlarini integratsiyalash orqali takomillashtirilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalar tadqiqiy-ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi (didaktik o‘yinlar va integrativ mashqlar) ta’limiy-o‘yin faoliyatning bola ijodiy faoliyatini mustaqillikka yo‘naltirish, vazifalarni bajarishda ijodiy va kreativ yondashuv, ta’lim-tarbiyada bolani rag‘batlantirish, biror-bir faoliyatni erkin tashkil etish prinsiplariga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirilgan.

Natijalar va muhokama. Jamiyatni isloh qilishning zamonaviy sharoitida, shu jumladan ta’limni modernizatsiya qilishda, shaxsning voqelikka faol kognitiv munosabatini shakllantirishda, o‘zgaruvchan dunyoning yangiligi va murakkabligini o‘rganish istagi va qobiliyatini, xulq-atvor va faoliyatning yangi original strategiyalarini ixtiro qilish qimmatli bo‘ladi. Ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bolalarda dunyo haqida mustaqil ravishda bilim olish, natijaga erishishning maqbul usullarini topish, tadqiqot faoliyatini rivojlantirish orqali erishiladigan o‘ylash va tushunish qobiliyatini rivojlantirishdir.

Tadqiqot – bu atrofdagi voqelikni o‘rganish va o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat, natijada subyekt to‘g‘ridan to‘g‘ri idrok etish orqali bilish uchun mavjud bo‘lmagan obyektlarning xususiyatlari va aloqalarini o‘rganadi.

Bolalar tajribasi kognitiv jarayonlar va aqliy operatsiyalarni rivojlantirish uchun ham, mustaqillik, maqsadlarni belgilash, muayyan natijaga erishish uchun obyektlar va hodisalarni o‘zgartirish qobiliyatini shakllantirish uchun ham muhimdir. Bu bolaning chuqur shaxsiy tuzilmalariga ta’sir qiladigan hissiyotlarning to‘yinganligi bilan tavsiflanadi. Yangi obyektlarni mustaqil ravishda o‘rganish jarayoni maktabgacha yoshdagi bolalarni nafaqat ushbu obyektlarni tekshirish va his qilish, balki ichki aloqalar va munosabatlarni bilish imkonini beradi.

Bolalar eksperimenti o‘ta moslashuvchanlik bilan ajralib turadi, u faoliyat jarayonida bola kutilmagan natijalarga erishganda va natijada faoliyat yo‘nalishini o‘zgartirganda o‘zini namoyon qiladi. Obyekt haqida yangi ma’lumotlar paydo bo‘lganda, bola o‘z oldiga yangi, yanada murakkab maqsadlarni qo‘yishi va ularni amalga oshirishga harakat qilishi mumkin. Shunday qilib, maqsadni shakllantirish harakatlarining murakkablashishi va rivojlanishi sodir bo‘ladi.

Bolalar tajribasida bolalarning o‘z faoliyati eng kuchli namoyon bo‘ladi, bu mustaqillik va ijodkorlikning rivojlanishiga olib keladi. Tajriba holati bolaga tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish uchun katta imkoniyatlar beradi. Bunday holda, bola faoliyat uchun teng huquqli sherik sifatida harakat qilishi mumkin.

Tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda bolalar eksperimentining majburiy va muhim tarkibiy

qismi bo‘lgan namunalar va xatolar muhim rol o‘ynaydi. Ularning mavjudligi, maqsadga erishish uchun bola eski harakat usulini sinab ko‘rishga harakat qilishi, muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda ularni birlashtirishi va qayta qurishi bilan izohlanadi. Muammoni hal qilishning yangi usullarini topish zarurati qidiruv faoliyatini rivojlantirishga, tadqiqot faoliyatining namoyon bo‘lishiga olib keladi. Tajriba jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar xato qilish qo‘rquvini yengishadi, bu esa fikrlash jasoratini rivojlantiradi. Shunday qilib, eksperiment faoliyati bolaning o‘zini o‘zi rivojlantirish lahzalarini o‘z ichiga oladi. Obyektning o‘zgarishi uning yangi xususiyatlarini ochib beradi va ular haqidagi yangi bilimlar yangi, yanada murakkab o‘zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Bolalar tajribasida real modellardan o‘rinli foydalanish samarali natija beradi. Real modellar orqali olib borilga tajribalar orqali bola o‘rganilayotning jarayonning mohiyatini teranroq anglab yetadi.

“Model” tushunchasi fransuz tilidan olingan bo‘lib, modele – o‘lchov, me’yor ma’nolarini anglatadi. Biror narsaning xuddi o‘zidek yoki kichraytirib, kattalashtirib olingan, ko‘plab ishlab chiqarish uchun andoza bo‘ladigan nusxasi.

Zamonaviy ilm-fanda tadqiqot usuli sifatida quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

Tadqiqot obyektiga doir ma’lumotlar to‘liq bo‘lmaganda; obyektning kelajakdagi faoliyatini taxmin qilish ehtiyoji bo‘lganda; mavjud qarashlar muammo mohiyatini ochib berish uchun yetarli bo‘lmaganda; yaratilgan g‘oyani real vaziyatda sinovdan o‘tkazish ehtiyoji bo‘lganda; tadqiqot obyekti juda kichik yoki juda katta bo‘lganda; tadqiqot obyektini sinovdan o‘tkazish atrof-muhit uchun xavfli bo‘lganda yoki katta xarajat talab etganda; yaratilgan g‘oyaning real vaziyatda interpretatsiyasi uchun ehtiyoj mavjud bo‘lganda.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida biz tarbiyachilarga quyidagi savollar bilan murojaat qildik:

1. Sizningcha, bolalar tajribasi nima?
2. Sizning guruhingizdagi bolalar tajribada ishtirok etadimi? Agar shunday bo‘lsa, maktabgacha yoshdagi bolalar qanday materiallar va narsalar bilan tajriba o‘tkazayotganlarini sanab o‘ting.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda eksperimentda qanday qobiliyatlar rivojlanadi deb o‘ylaysiz?
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tajribasi va tadqiqot faoliyatini rivojlantirish uchun qanday usul va usullardan foydalanayotganingizni sanab bering?
5. O‘g‘il bolalar va qizlar tajribalarida farqlar bormi? Eksperimentni tashkil qilishda buni qanday hisobga olasiz?

Quyida bolalar tajribalaridan namunalarni ko‘rib chiqamiz:



Xulosa qilib aytganda, bolalarda tabiatga oid tadqiqiy-ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirish muammosi nafaqat bugungi zamonaviy ta’limning dolzarb muammolaridan biri, balki qadimgi

davrlarda ham ushbu masala alloma va mutafakkirlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ayniqsa, ularning “tarbiyani tabiat bilan uyg‘un holda olib borish lozim” – degan fikrlari bugungi davr uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shu boisdan bu kabi g‘oyalarni yosh avlodga o‘rgatish va ularning tabiatga oid tadqiqiy-ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirish pedagogikaning oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni // www.lex.uz.

2. Найдаров Q., Нишонова С. Табиатшунослик асослари ва болаларни атроф-табиат билан таништириш. -Т.: “Ўқитувчи” 1992. 177 б.

3. Xasanboeva O.U., Djabborova X.D. “Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi”. -T.: “Cho‘lpon” 2007. 128 b.

4. Yusupova P “Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish”.–T.: “O‘qituvchi” 1995. 235 б.

5. Xuraliyeva T.L, Teshabayeva Z.S. “Maktagacha yoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishda milliy va xorijiy tajribalar” Ta’lim va innovasion tadqiqotlar (2022 yil №7) ISSN 2181-1709 (P).

6. Немов Р.С Практическая психология: познания себя. Влияние на людей. Пособие для учащихся. -М.: Гуманит.изд.центр ВЛАДОС, 1998.- 320 с.

7. Ferreira M.E. Stage-based egological education of preschool children on the basis of environmentally friendly approach. Portugal. 2015. - 149 p.

8. Усова А.П. Обучение в детском саду / Под.ред. А.В.Запорожца. -3 изд. испр -М.: Просвещение, 1991. - 176 с.

9. Спиноза Б. The Philosophy of Spinoza As Contained in the First, Second, and Fifth Parts of the Ethics and in Extracts from the Third and Fourth. Creative Media Partners, 2016. -220 p

10. Fisher R. A. Impact of Early-Exposure Environmental Education on a Child’s Selection of Words and Creativity. 2013. -267 p.

YUQORI MOLEKULYAR BIRIKMALAR KIMYOSI FANIDAN POLIMERLAR SINTEZI MAVZUSINI GRAFIK ORGANAYZERLAR HAMDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘QITISH

Abduraxmonova Tuxtapashsha Rustamovna
Urganch Davlat universiteti dotsenti, k.f.n.
toxtaposhsha73@mail.ru
ORCID 0009-0006-8541-414X
Achilov Izzat Ismoil o‘g‘li
Urganch Davlat universiteti Kimyo kafedrasi o‘qituvchisi
mustaqil tadqiqotchi
jumaniyozovagulbahor@gmail.com
ORCID 0000-0002-6512-9134
UDK 547.92:378.147:004

Annotatsiya. Maqolada “Polimerlar sintezi” mavzusida olib borilgan ilmiy-metodik tajribalar va yangi axborot texnologiyalari yordamida mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha olib borilgan ishlar va tavsiyalar keltirilgan. Grafik organayzerlardan “Klaster”,’’Venn diagrammasi’, ”Nima uchun?” metodlariga asoslangan holda mashg‘ulotlarni samarali olib borishga doir misollar ko‘rsatib o‘tildi. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan yuqori molekulyar birikmalarni o‘rganishda foydalanish talabalarni mavzuni tez, oson o‘zlashtirib olishlariga, intellektual qobiliyatlarini va imkoniyatini oshirishga zamin yaratadi.

Axborot texnologiyalarini polimerlar sintezi jarayoniga tatbiq qilish, talabalarni yanada interaktiv, ko‘proq amaliy tajriba olish imkoniyatlari bilan ta’minlaydi. Bunday usullar nafaqat o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi, balki talabalar uchun xavfsiz va qulay sharoit yaratadi. Elektron qo‘llanmalar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiya dasturlari yordamida polimerlarni sintez qilish jarayonini o‘rganish talabalarni bilimlarini mustahkamlashga va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Radikal polimerlanish, Venn diagrammasi, Klaster metodi, yangi axborot texnologiyalari, yuqori molekulyar birikma.

TEACHING THE TOPIC OF POLYMERS SYNTHESIS IN THE CHEMISTRY OF HIGHER MOLECULAR COMPOUNDS BASED ON GRAPHIC ORGANIZERS AND INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGIES

Abstract. Scientific and methodological experiments on the topic ”Polymer synthesis" and

recommendations on the organization of training using new information technologies are presented. From the graphic organizers "cluster", "Venn Diagram" . Examples of effective teaching based on the "Why" methods are shown. The use of modern pedagogical and information technologies in the study of high-molecular compounds creates the basis for the rapid and easy assimilation of the subject by students, increasing their intellectual abilities and capabilities.

The introduction of information technology into the polymer synthesis process gives students the opportunity to gain a more interactive and hands-on experience. Such methods not only make the learning process interesting and effective, but also create a safe and comfortable environment for students. Studying the process of polymer synthesis using electronic manuals, virtual laboratories and simulation software helps students consolidate their knowledge and develop intellectual abilities..

Keywords: Radical polymerization, Venn diagram, cluster method, new information technologies, high molecular weight compound.

Kirish. Har qanday davlat ta’lim-tarbiya sohasining rivojlanishi mamlakatda olib borilayotgan siyosatning olib borilishi bilan chambarchas bog‘liq. Ta’lim-tarbiya jarayoni, sifati va samaradorligini oshirish kelgusi taraqqiyotimizning asosi ekanligi barchaga ma’lum. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarda o‘z aksini to‘la topgan.

Ularda tabiiy fanlar qatoridan joy egallab turgan “Kimyo” faniga, xalq xo‘jaligidagi salmoqli o‘rni hisobga olingan holda uning kelgusi mavqeyiga katta e’tibor qaratilgani diqqatga sazovordir. “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash” bugungi kunning dolzarb vazifalari ekanligini Prezidentimiz ta’kidlaganlar.

Yuqoridagi Prezidentimiz fikrlaridan ko‘rinib turibdiki, barcha turdagi ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari innovatsion ta’lim texnologiya metodlarini o‘rganib olishlari va ta’lim sifatini va kadrlar tayyorlash saviyasini oshirish uchun ularni amalda qo‘llashni egallashlari zarur.

So‘nggi paytlarda kimyo fanini o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muammosi tobora ko‘proq ko‘tarilmoqda. O‘qitishda yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyati sezilarli darajada kengaydi. Zamonaviy axborot texnologiyalari nafaqat kimyo fanini balki boshqa fanlarni ham o‘qitishda foydalanila boshlandi. Kollej hamda universitet integratsiyasida zamonaviy axborot texnologiyalari elementlarining joriy etilishi munosabati bilan o‘quvchilar uchun kompyuter ta’lim texnologiyalari atamasi paydo bo‘ldi. Ta’limda kompyuter texnologiyalari pedagogik texnologiyalar usul va uslublarini amalga oshirish vositalaridan biri hisoblanadi. O‘quvchilarga ta’lim berish, ularni intellektual qobiliyatini shakllantirish va tarbiyalashda, o‘ziga xos texnologiyani tanlab yondashmasdan eng samarali natijalarga erishish mumkin emas, bu faqat bitta texnologiyani qo‘llash orqali amalga oshiriladi, salbiy yoki ijobiy samara aniqlanadi. Barcha mavjud texnologiyalar elementlari, vositalar va usullarni qo‘llashda muayyan ta’lim muassasasiga moslashtirilgan tizimli, murakkab bo‘lmagan, o‘quvchini yosh doirasidan kelib chiqgan holda qo‘llanilsa, natijalarga erishishga imkon beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlili. Ma’lumki, kimyo fani boshqa fanlarga nisbatan o‘zlashtirish qiyin bo‘lgan fanlardan hisoblanadi. Shu sababli kimyo fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi [1,2]. Yuqori molekulyar birikmalar kimyosi fanining “Polimerlar sintezi” mavzusini o‘qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda interfaol metodlar yordamida o‘qitish o‘quvchilarda fanga doir qiziqish uyg‘otadi hamda mavzuni o‘zlashtirishda yordam beradi. Bunda yangi axborot texnologiyalari o‘qituvchiga ajralmas yordamga keladi. Bu haqiqiy laboratoriya uskunalari va kimyoviy moddalar bilan ishlashdan voz kechish degani emas, balki mavjud vositalar, texnikalar, texnologiyalarning mavjud arsenaliga qo‘shimcha ravishda slaydlar va animatsiyalar namoyishidir. Mashg‘ulotni katta qiziqish, xilma-xillik, rang-baranglik, yodda qolarlik darajasida olib borilishini ta’minlanish uchun yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish mumkin. Masalan, Crocodil Chemistry, virtual laboratoriya, mavzuga oid ppt taqdimotlardan foydalanishni misol qilish mumkin [3,4]

Ma’lumki, XXI asr o‘quvchilari – bu kompyuter texnologiyalari davri o‘quvchilari, ular

har qanday ma’lumotni o‘qituvchidan oldin egallashga erishishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi – o‘quvchi yoki talabaga nisbatan axborot texnologiyalari yo‘nalishida bir qadam oldinda yurishi zamon talabiga mosdir. Ta’lim berish axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash, ta’lim resurslaridan foydalangan holda multimediya darslarini o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Multimedia texnologiyalari axborotni taqdim etishning bir necha usullarini birlashtiradi: matn, harakatsiz tasvirlar, harakatlanuvchi tasvirlar va ovoz interaktiv mahsulotlari, media vositalari sezilarli idrok barcha yo‘llarini faollashtirish orqali o‘quv materiallar boyitish imkonini beradi [5].

-Klaster metodi orqali o‘quvchilar mavzuni o‘zlashtiradi hamda bilimlarini mustahkamlab olishadi;

-Venn diagrammasi metodi orqali mavzu yuzasidan olgan bilimlarini tekshirish va bilimlarini mustahkamlash;

-elektron ta’lim testlarini qo‘llash (o‘quv testlarining tuzilishi o‘quvchiga amalga oshirilgan o‘quv harakatlariga muqobil to‘plamlarni izchil taqdim etishni nazarda tutadi, bu oxir-oqibatda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ketma-ketlikni yaratadi;

-vazifalar, talaba o‘zi uchun o‘quv materialining muayyan darajasini shakllantiradi va ayni paytda uni o‘qituvchiga namoyish etadi;

-test tayyorlash dasturlari yordamida test nazorati, shuningdek, radikal polimerlar ish mavzusida talabalar uchun onlayn test sinovi olib boriladi;

- prezentatsiyalar hamda videofilmlarni yaratish va namoyish qilish orqali mavzu talabalarga yetkaziladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqori molekulyar birikmalar texnikada keng ishlatilishi bilan bir qatorda inson hayoti va faoliyatida ham ishlatiladi. Kiyim-kechak, jun, teri, paxta, yog‘och, oziq-ovqatlar go‘sht, sut, don, sabzavotlar, sellyuloza, oqsil hamda kraxmal kabi polimerlardan tashkil topgan.

Yuqori molekulyar birikmalar va ularni sintezi haqidagi bilimlarni o‘quvchilarga noan’anaviy usullar orqali tushuntirish oquvchilarni mavzuni tez va oson o‘zlashtirishlariga imkon beradi.

“Ming marta eshitgandan bir marta ko‘rgan afzal” iborasiga rioya qilgan holda mavzuni ko‘rgazmali interfaol usullarni qo‘llagan holda mashg‘ulotni olib borish yuqori samara beradi [42-49].

“Polimerlar sintezi” mavzusini o‘qitish metodlarini tanlash texnologiyasiga alohida ahamiyat berilishi talab etiladi [23-28].

Polimerlarni o‘rganish jarayonida “Grafik organayzerlar” usulidan foydalanish ancha qulay va afzalliklarga ega. Grafik organayzerlar (tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlarni ko‘rgazmali taqdim etish vositasi hisoblanadi.

Grafik organayzer quydagi turlarga bo‘linadi:

1. Ma’lumotlarni tarkiblash va tarkibiy bo‘lib chiqish, o‘rganilayotgan tushunchlar (voqea va hodisalar, mavzular) o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatish usul va vositalari: Klaster, Toifalash jadvali, Insert, B/B/B jadvali.
2. Ma`lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usuli va vositalari.T-jadvali, venn diagrammasi.
3. Muammolarni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalari: ” Nima uchun?”, “Baliq skeleti”, “ Piramida”, “ Nilufar guli” sxemalari, “ Qanday?” ierarxik diagrammasi, Kaskad” tarkibiy-mantiqiy sxema kabi turlari mavjud.

Klaster metodi –Tarmoqlar metodi (Klaster) texnologiyasi bo‘lib, ushbu metod mantiqiy fikrlash, umumiy fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan. Biron-bir mavzuni chuqur o‘rganishdan oldin o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishga xizmat qiladi:

1.Katta o‘lchamdagi qog‘oz yoki doskaning o‘rtasiga mavzuga doir so‘z yoziladi.

2.O‘quvchilar ushbu so‘z bilan bog‘liq xayolga kelgan so‘z va jumlalarni uni atrofiga yoza boshlaydilar.

3.Yangi g‘oyalar paydo bo‘lishi bilan xayolga kelgan so‘zlar ham darhol yozib qo‘yiladi.

4.So‘zlarni yozish jarayoni o‘qituvchi tomonidan belgilangan vaqt tugaguncha yoki barcha so‘z va g‘oyalar tugaguncha davom etadi.

Klasterlarga ajratishda bir qator qoidalarga ham rioya qilish zarur.

1.Xayolga kelgan hamma narsani ularning mazmuniga e‘tibor bermasdan yozib borish.

2.Orfografiya va boshqa omillarga e‘tibor bermaslik.

3.Vaqt tugaguncha, iloji boricha to‘xtalmasdan yozish.

4.Iloji boricha ko‘proq bog‘lanishlar hosil qilishga harakat qilish.

5. G‘oyalar va so‘zlar sonini cheklab qo‘ymaslik.

Venn diagrammasi:

Venn diagrammasi ikki va uch jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun qo‘llaniladi. Talabalarda tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Undan foydalanish bosqichlari:

-talabalar ikki guruhga bo‘linadi;

-plakatga chizilgan diagramma doskaga osib qo‘yiladi;

-har bir to‘g‘ri fikrga qo‘yiladigan ball oldindan kelishib olinadi;

-qo‘yilgan topshiriq bo‘yicha guruhlarning har qanday to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri fikrlari bir talaba tomonidan ikki xil rangdagi flomasterda diagrammaning tegishli joylariga yozib boriladi;

-kichik guruh ichidan biror talaba sheriklarining ismi-shariflari to‘g‘risiga ular aytgan fikrlarni qayd qilib boradi;

-fikr bildirishlar nihoyasiga yetgach, o‘qituvchi va talabalar hamkorligida to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar aniqlanadi;

-to‘g‘ri javobga uch ball qo‘yiladigan bo‘lsa, har bir noto‘g‘ri fikr uchun guruhning umumiy balidan uch ball olib tashlanadi;

-eng ko‘p ball to‘plagan guruh g‘olib hisoblanib ular rag‘batlantiriladi;

-bu jarayonda kichik guruhda qayd etilgan javoblarning noto‘g‘rilari o‘chirib chiqiladi va natijalar e’tiborga olingan holda talabalarga tabaqalashtirilgan ball qo‘yiladi. Venn diagrammasi metodini barcha talabalar bir-biriga bog‘liq mavzularni tahlil qilish, solishtirish, taqqoslash va mustahkamlashda foydalanish yaxshi samara beradi. Quyida ushbu metodni Zamonaviy iqtisodiyot darslarida qo‘llash mumkin: Rag‘batlantiruvchi marketing bilan Remarketing umumiy va farqli tomonlarini aniqlashga doir quyidagi diagrammani misol tariqasida keltirish mumkin mavzularni umumlashtiris maqsadida “Venn diagrammasi” qo‘llanilsa dars samaradorligi oshadi.

Ular orasida kimyo fanida eng samarali qo‘llaniladigan organayzerlardan Venn diagrammasi, Klaster, Baliq skeleti, Nima uchun? grafik organayzerlar bo‘lib, ulardan foydalanib yuqori molekulyar birikmalarni olinishi, xossalari, klassifikatsiyasini o‘xshash va farqli jihatlarini tushuntirish mumkin.

Tahlil va natijalar. Ta’lim jarayonini tashkil etishda qo‘yiladigan muhim talablardan yana biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish asosida ma’lum faoliyat ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta’lim jarayonida nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Polimerlarni hosil bo‘lishi ya’ni sintezlanish jarayonlari jihatidan hamda xususiyatlarining o‘ziga xosligi jihatidan ham murakkablikka ega. Shu sababli ular to‘g‘risida o‘quvchilarda tasavvur hosil qilish, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish o‘qituvchidan o‘ziga xos uslublarni qo‘llashni taqozo qiladi. Bu esa hozirgi kunda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

Klaster ya’ni tarmoq usulida mavzuga oid m’lumotlarni o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha asosiy kalit so‘z yozilib boshqa ma’lumotlar tarmoqlar hosil qilib tuziladi. Tarmoqlar qanchalik keng va davomli bo‘lsa o‘quvchi mavzu doirasida ma’lumotlarni yaxshi o‘zlashtirgani namoyon bo‘ladi [49].

Masalan, o‘qituvchi plakatni o‘rtasiga ”Polimerlar sintezi ” iborasini yozib, o‘quvchilarga 5 daqiqa vaqt beradi. Shu vaqt ichida o‘quvchilar ma’lumotlarni yozib o‘zaro bog‘lab klaster tuzadilar. ”Polimerlar sintezi ” mavzusiga oid klaster quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin:



Venn diagrammasidan dars o‘tish jarayonida foydalanilganda o‘qituvchi dastlab Venn diagrammasi haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tadi, keyin doskaga bir-birini kesib o‘tgan ikkita aylana chizadi, ularning birinchisiga Polimerlanish va ikkinchisiga polikondensatlanish so‘zlarini uchinchisiga modifikatsiyalanish so‘zini yozadi va bu diagrammalarni to‘ldirishda o‘quvchilarga bugun o‘zlashtirgan yuqori molekulyar birikmalarni sintez qilish usullari haqidagi o‘zlashtirgan bilimlaridan foydalanishini aytib o‘tadi. O‘quvchilar ularning o‘zaro farqini yozishlari kerak, so‘ng uchta aylanani tutashtiruvchi uchinchi aylanani chizib, bunga umumlashtiruvchi tomonlarini yozishlarini aytadi. Diagramma quyidagicha shaklda to‘ldirilgan bo‘lsa to‘g‘ri hisoblanadi:

Kimyoviy modifikatsiya

Polimerlar sinteziga oid Venn diagrammasi

Venn diagrammasini to‘ldirish uchun 10 minut vaqt beriladi, vaqt tugagach o‘qituvchi o‘quvchilar to‘ldirgan diagrammalarni doskada tekshiradi.

Bu metodni qo‘llash orqali nafaqat bugungi mavzu, balki o‘quvchilar o‘tilgan mavzularni ham yodlariga tushirib mustahkamlaydilar.

“Nima uchun?” metodi, ushbu metod yangi o‘quv materialining mavzusidan kelib chiqqan holda turli muammoli masala yoki vaziyatlarni yaratish, mavzuning asosiy tayanch tushunchalarini ajratib olish, har bosqichda nima uchun? savolini berib muammoni hal qilishda yordam beradi. Ushbu metodni qo‘llashga oid misolni keltirib o‘tamiz:

Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, talabalarni interaktiv muhitda o‘qitish imkoniyatini beradi. Masalan:

- *Simulyatsiyalar va modellashtirish:* Polimer sintez jarayonini simulyatsiya qilish yoki molekulyar struktura bilan ishlash uchun dasturlar va ilovalar yordamida talabalarga jarayonning har bir bosqichini ko‘rsatish mumkin.
- *Onlayn resurslar:* Internetda mavjud bo‘lgan video darsliklar, interaktiv kurslar va ilmiy maqolalar talabalarni yanada kengroq ma’lumot olishga undaydi.

Shuningdek, talabalar tomonidan polimerlarni sintez qilish jarayonini axborot

texnologiyalarini tatbiq qilgan holda virtual tarzda amalga oshirish imkoniyati mavjud. Zamonaviy axborot texnologiyalari, ayniqsa, simulyatsiya dasturlari, 3D modellashtirish va virtual laboratoriyalar yordamida, talabalar polimerlar sintezining turli jarayonlarini xavfsiz va samarali tarzda o‘rganishlari mumkin. Quyida bu jarayonning qanday amalga oshirilishi mumkinligini ko‘rib chiqamiz:

Virtual laboratoriyalar — bu kompyuter yordamida ilmiy tajribalarni amalga oshirish imkonini beradigan dasturlar. Polimerlarni sintez qilish jarayonini simulyatsiya qiluvchi virtual laboratoriyalar talabalar uchun amaliy tajriba o‘tkazish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun:

- *Polimerlanish jarayonini simulyatsiya qilish***:** Talabalar, virtual laboratoriyalarda polimerlanish jarayonlarini o‘rganishlari va ularning qanday sodir bo‘lishini, katalizatorlarning va reaktivlarning roli qanday ekanligini kuzatishlari mumkin.
- *Reaktsiyalarni model qilish***:** Polimerlar sintezidagi kimyoviy reaksiyalarni virtual model orqali ko‘rsatish, talabalarni bu jarayonning asosiy mexanizmlari haqida yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Polimerlanish reaksiyalarini elektron qo‘llanmalardan foydalangan holda olib borish, talabalar uchun ilmiy jarayonni samarali va interaktiv tarzda o‘rganishga imkon beradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari, shu jumladan elektron qo‘llanmalar va simulyatorlar, polimerizatsiya jarayonlarini ko‘rsatishda, talabalarni nazariy bilimlarni amaliy jihatdan o‘zlashtirishda yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga oid qator ilmiy va uslubiy adabiyotlar tahlil qilindi. Natijada interfaol usullardan Grafik organayzerlar o‘qitish usuli eng samarali, ta’limiy nuqtayi nazardan foydalanishga qulay degan xulosaga kelindi;

Yuqori molekulyar birikmalar kimyosi kursinining “Polimerlar sintezi” mavzusi bo‘yicha interfaol metodlarga asoslangan dars mashg‘ulotlari talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, erkin fikrlash imkoniyatini kengayishiga yordam beradi;

Yuqori molekulyar birikmalar kimyosi kursining “Polimerlar sintezi ” mavzusi bo‘yicha ishlab chiqilgan “Grafik organayzerlar”ga asoslangan tavsiyalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish bilan birga ularning fanga qiziqishini oshirishga katta hissa qo‘shadi.

Axborot texnologiyalarini polimerlar sintezi jarayoniga tatbiq qilish, talabalarni yanada interaktiv, ko‘proq amaliy tajriba olish imkoniyatlari bilan ta’minlaydi. Bunday usullar nafaqat o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi, balki talabalar uchun xavfsiz va qulay sharoit yaratadi. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiya dasturlari yordamida polimerlarni sintez qilish jarayonini o‘rganish, talabalarni bilimlarini mustahkamlashga va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu mavzuni yoritishda “Grafik organayzerlar” metodi hamda axborot kommunikatsion texnologiyalar sifatida taqdimotlardan foydalangan holda ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlarni olib borilganda talabalar tomonidan mavzuni to‘liq, oson va tez o‘zlashtirilishi kuzatildi.

Yuqoridagi metodlar va yondashuvlar, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari bilan birga, talabalar uchun polimerlar sintezini o‘rganishda yangi imkoniyatlar yaratadi va ularning intellektual salohiyatini oshiradi. Bu yondashuvlar o‘quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qiladi, talabalarni faol o‘rganishga undaydi.

Polimerlanish reaksiyalarini elektron qo‘llanmalardan foydalangan holda olib borish talabalarni ilmiy jarayonlarga chuqurroq jalb etadi, ular o‘zlari turli sintez jarayonlarini virtual tarzda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday yondashuv, o‘quv jarayonini yanada interaktiv va samarali qilishga yordam beradi, shuningdek, talabalar uchun xavfsiz va qulay sharoitlar yaratadi. Elektron qo‘llanmalar va simulyatorlar yordamida polimerlanish reaksiyalarini o‘rganish, talabalarning ilmiy va amaliy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atamuratova B., Muminova X., Abduraxmonova T.R. “Yuqori molekulyar birikmalar” mavzusini o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari / “Science and Education” Scientific Journal / ISSN 2181-0842 April 2022 / Volume 3 Issue 4. Impakt factor 3,567. – P911-914.

2. Зайцев О.С. Методика обучения химии: Учебн. для студ. высш. учеб. заведений. – М.: ВЛАДОС, 2000. – 386с.

3. Пак М. С. Дидактика химии: Учебное пособие для вузов. – М.: ВЛАДОС, 2004. – 315 с.

4. Сайидахмедов Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат –Т: Молия, 2003. – 160 б.

5. Nasimov A.M., Nosirova R.N. Kimyo fanini o‘qitishning hozirgi zamon texnologiyalari va innovatisiya. – Samarqand: SamDU, 2011. – 81 b.

6. Ниязхонов Т. Элементы компьютерных технологий обучения в учебный процесс. – Бухара: ПНИЛ КТО, 2002. – 40 с.
7. Wills, s. & Ellis, E. (2008). Theoretical and Empirical Basis for Graphic Organizer Instruction. Retrieved June 30, 2017.
8. Strangman, N., Vue, G., Hall, T., & Meyer, A. (2004). *Graphic organizers and implications for universal design for learning.* Wakefield, MA: National Center onAccessing the General Curriculum. (Links updated 2014).
9. Рашидова С.Ш., Кудышкин В.О. Введение в химию высокомолекулярных соединений. Учебное пособие. – Ташкент, 2014. – 194 с.
10. Бобоев Т.М. Юқори молекуляр бирикмалар. – Тошкент: Фан ва технология, 2015. – 528 б.
11. Юқори молекуляр бирикмалар кимёсида “Карбоксиметилцеллюлоза олиш” мавзусидаги тажрибани янги педагогик технологиялар асосида ўқитиш. Электрон ўқув қўлланма. Ўзбекистон Республикаси Интеллектуал мулк агентлиги патент гувоҳномаси. № DGU 04002, 13.06.2016. – 38 б.

MUZEY BINOLARI DIZAYNINING ME’MORIY VA BADIIY XUSUSIYATLARIGA OID XORIJIY TADQIQOTLARNING O‘RGANILISHI

Jabbarova Latofat Tulkinjonovna
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
Muzeyshunoslik kafedrasi dotsenti v.b
latofat_85@bk.ru
ORCID 0009-0004-9608-3345
UDK 069:721.012 (575.1)

Annotatsiya. Muzey arxitekturasiga oid xorijiy tadqiqotlar ko‘lami o‘rganilganda ularning aksariyatida muzey dizayni tushunchasining xronologik rivojlanish bosqichlari xususida tizimli tasavvur bermaydi. E.Verner, C.Joanne, M.Gautran, E.Bogle, R.Banham va arxitektorlar R.Meyer, P.Pyano, T.Ando ilmiy ishlarida muzey arxitekturasi, uning ixtisosligi, ashyolari negizida shakllantirish tamoyillari xususida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, asosan tabiiy-ilmiy va zamonaviy san’at muzey obyektlari misolidagi loyihalar ilova qilingan edi. Mazkur manbalarda, asosan, birinchi navbatda hududiy munitsipal yoki aksincha markaziy muzeylar faoliyati negizidagi ilk ko‘rgazmalar, ekspozitsion faoliyat yoki tarixiy binolarni muzeylashtirish tamoyillari qisman yoritilgan. Ushbu maqolada muzey arxitekturasining rivojlanish tamoyilllari asosidagi ilmiy tadqiqotlar va manbalar ko‘lami muzeyshunos, san’atshunos va me’morlik yo‘nalishlari kesimida tahlil etilgan. Ilmiy adabiyotlarning tahliliy bayoni xronologik asosda berilgan bo‘lib, bu esa o‘z navbatida muzey dizaynini shakllanishi va takomillashuvi xususiyatlarini nazariy metodologik asoslashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: muzey, muzey dizayni, arxitektura, ekspozitsiya, ekspozitsiya dizayni, muzeyshunos, dizayner, ko‘rgazma, grafik dizayn, landshaft dizayni, degitilizatsiya.

STUDYING FOREIGN RESEARCH ON ARCHITECTURAL AND ARTISTIC FEATURES OF DESIGNING MUSEUM BUILDINGS

Abstract. When studying foreign studies of museum architecture, it was revealed that most of them do not provide a systematic understanding of the chronological stages of the development of the concept of museum design. The scientific works of E.Werner, K.Joan, M.Gautran, E.Bogle, R.Banham and architects R.Meyer, P.Piano, T.Ando contained information about museum architecture, its specialization, principles of formation based on objects, they reflected mainly projects based on the example of museum objects in the scientific and humanitarian fields and contemporary art. Most sources mostly partially cover the principles of museification of early exhibitions, exhibition activities, or historical buildings that underlie the activities of primarily regional municipal or, conversely, central museums. This article analyzes scientific research and sources based on the principles of museum architecture development in the context of museology, art and architecture. The analytical presentation of scientific literature is presented in chronological order, which in turn serves as an important factor for the theoretical and methodological substantiation of the formation and improvement of museum design.

Keywords: museum, museum design, architecture, exposition, exhibition design, museologist, designer, exhibition, graphic design, landscape design, digitization.

Kirish. Muzeylar arxitekturasi va muzey muhitini to‘g‘ri loyihalashtirish tomoshabinga tarixiy-badiiy tadrijini idrok etish dunyoqarashini shakllantirish imkoniyatini beradi. XX asr muzey arxitekturasi turli uslublar kesimida o‘ziga xos rivojlanish davriga ega bo‘ldi. Ushbu maqolada muzey arxitektura dizayni, ekspozitsiya va ko‘rgazmalar faoliyatiga oid xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari ko‘rib chiqilgan. Bu jarayonlar bevosita zamonaviy muzey arxitekturasi dizayni yutuqlari va muammolariga oid faktologik solishtirma tahlillar olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy muzeyshunos, arxitektor olimlar izlanishlari negizida muzey dizaynining rivojlanish omillariga nisbatan XX asr ikkinchi yarmidagi ilmiy manbalar muhim omil

bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi. 1948-yildan boshlab YUNESKO tomonidan bir necha tillarda nashr etilgan “Museum International” xalqaro jurnalida muzeylarning rivojlanish tarixi, muzey va jamiyat, muzey binolari dizayni, bugungi kunda muzeyshunoslik sohasida olib borilayotgan tendensiyalarga doir ilmiy maqolalar yoritib kelinadi. 1980-yildan 2001-yilgacha jurnal rus tiliga tarjima qilingan. 2001-yildan boshlab jurnalni rus tiliga tarjima qilishni moliyalashtirish to‘xtatildi. 2011-yildan beri Rossiyaning “Muzey” jurnali “Museum International” xalqaro jurnalining Rossiyadagi hamkoriga aylandi va faqatgina individual sonlarini tarjima qilib keladi. 2001-yildan 2011-yilgacha Ermitajga bag‘ishlangan maxsus nashr tarjima qilindi. Jurnalning rus tiliga tarjima qilingan aksariyat sonlari YUNESKO veb-saytida joylashtirilgan.

Zamonaviy muzey arxitekturasi dizayni va uning muammolari to‘g‘risidagi manbalar XXI asr muzeylar imidjini o‘zgartirishga munosib hissa qo‘shgan arxitektorlar R.Meyer, P.Pyano, T.Ando” [8; 57] ilmiy tadqiqotlarida keng tahlil etilgan. Me’morlar ijodiy faoliyati davomida loyihalashtirgan xususan, Amerikadagi “Getti muzeyi”, “San’at muzeyi”, Ispaniyagi “Zamonaviy san’at muzeyi”, Fransiyadagi “Jorj Pompidu nomidagi san’at va madaniyat markazi”, Yaponiyadagi “Tityu san’at muzeyi” binolari yutuqlari bilan bir qatorda, mazkur sohaning kamchiliklari borasida ham tahliliy munosabatlari bildirilgan.

Natijalar va muhokama. Ijtimoiy madaniyat, fan va texnika taraqqiyoti bilan muzeylar soni va turlari ortib bormoqda. Turli hududlardagi muzeylarning rivojlanish holati bilan uyg‘unlashgan holda zamonaviy muzeylar interyer dizayni xususiyatlarini umumlashtirgan “Museum Architecture and Interior Design” nomli manba muzeyshunos, san’atshunos, me’mor va boshqa mutaxassislar uchun sifatli ma’lumotnoma ekanligini keltirib o‘tish joiz. Unda AQShning “Solomon Guggenxaym” va Germaniyaning “Berlin Etnografiya muzeyi” arxitekturasidagi me’moriy yechimlar hamda ularning funksional afzalliklari qiyosiy tahlillar asosida yoritilgan bo‘lib, loyiha chizmalari, illyustrativ materiallarning ilova qilinishi nashr mukammalligini oshirgan.

Italiyalik taniqli arxitektura dizayneri, sanoat merosini muzeylashtirish bo‘yicha ilk nazariyotchi olim A.Marotta o‘zining “Contemporary Museums” kitobida muzey arxitekturasiga oid rivojlanish jarayonlarini keng tahlil qilib, bu borada “Tate Modern”, Rimdagi “Maxxi” kabi bir qator muzey binolarini ilmiy tavsiflaydi. Zamonaviy arxitektura sohasidagi muhim yangiliklarni o‘zida jamlagan “Speech” jurnalining maxsus soni aynan muzey binolari arxitekturasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda N.Frolova, Sh.Bernxard, A.Martovskaya, I.Shipova, Y.Kosovskaya, X.G.Mers, M.Yansun kabi tadqiqotchilarning muzey binolari qurilishining rivojlanish tamoyillari, arxitekturaviy yechim birligida ifodalangan chizma loyihalari tahlil etilgan.

Muzey ko‘rgazmalarini tashkillashtirish va konseptual asosda nazariy hamda amaliy birlikni ifodalashga oid tadqiqotlar esa 2000-yillarga kelib yaratila boshlandi. Bu borada AQSh mutaxassislari yetakchi bo‘lib, 2013-yilda umumiy asosda yaratilishiga qaramay o‘ziga hos innovatsion xarakterga ega “Museum Exhibition Planning and Design” [2;135] nashri ko‘rgazmani loyihalash bosqichlari va unga bog‘liq bo‘lgan barcha vazifa va masalalar borasida muhim ilmiy qo‘llanma sifatida baholash mumkin. Nashr negizida ko‘rgazma kuratori, dizaynerlik ishlanmalari, ko‘rgazmaning kreativ badiiy saviyasini baholash va uning muvaffaqiyatini o‘lchash mezonlari, tartiblari, ularning afzallik va kamchiliklari xususida qiyosiy tahlillar bayon etiladi. Ushbu ilmiy qo‘llanmani o‘rganib chiqilganda muzeyshunos mutaxassislar ta’lim jarayonida o‘qitilayotgan “Ko‘rgazma kuratori”, “Muzey interyerini loyihalash” fanlari dasturini tayyorlashda integrasiya qilish samarali natijalarni berishi ham aniqlandi.

2015-yillarga kelib jahonda san’at va madaniyat sohasida keskin o‘zgarishlar grafik, moda, ko‘rgazma, interyer, muzey dizayni va arxitekturasida ham “shaxsiy ijodiy uslublar” shakliga o‘xshash ijodiy ishlanmalarni faoliyatini kuchaytirdi. Ushbu jarayonlar bo‘yicha sharhlovchi xarakterga ega qiziqarli ma’lumotlarni taqdim etib kelayotgan “SendPoints” nashriyot uyi tomonidan tayyorlangan “Museum design: architecture, culture, geographical environment” nashrida ham aynan muzey dizayni qanday mahalliy faktorlar ta’siri ostida o‘zgarishlar kesimiga ega ekanligi isbotlab berilgan. Masalan, AQSh muzeylari binolarida, asosan, dekonstruktivizm uslubi tanlangan bo‘lsa, G‘arbiy Yevropada klassitsizm elementlariga ega yechim, MDH davlatlarida esa funksionallik ilgari surilgan modernizm usulblariga urg‘u berilgani ta’kidlab o‘tilgan. Ammo kitobni elektron nashri bilan tanishgan Angela Hampton, Latasha Hisle, Sandra Maes ва Regina Wingler kabi soha olimlarining onlayn bildirgan mulohazarida matndagi

ma’lumotlar borasida inkor xarakteridagi jumlalar ham uchraydi hamda manbaa umumiy asosda “qoniqarli” baholangan.

Yuqoridagi nashrdan farqli ravishda, L.Xanlin tomonidan nashr etilgan “Museum Design Proposals” kitobida 2007-yildan beri butun dunyo bo‘ylab barpo etilgan mashhur san’at muzeylari, ilmiy muzeylar, tarix muzeylari dizayn loyihalarining eng mukammallari tanlab olinib, saralangan holatda taqdim etiladi. Shuningdek, kitobda muzey dizaynining shakllanish jarayoni, rivojlanish tendensiyalari yoritilgan.

“Muzey dizayni” keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u muzey arxitekturasi, muzey landshaft dizayni, muzey ekspozitsiya dizayni, grafik dizayn kabi sohalarda qollaniladi. Rossiyalik muzeyshunos A.Sherbina ilmiy tadqiqotlarida muzey dizaynini arxitektura, interyer dizayni, grafik dizayni, elektron raqamlashtirish texnologiyalari asosida integratsiyalashayotganligini keltirib o‘tadi. Shu bilan birgalikda bugungi kunda muzey dizayni raqamli media ishlanmalar, yorug‘lik, turli tovushlar, interaktiv mexanizmlar stilizatsiyasi bilan dizayn degitilizatsiyasi ko‘rinishlari ommalashayotganligini ta’kidlaydi [13;32].

T.Kaluginaning fikriga ko‘ra, “XX asr postmodernizmining muzeyshunoslikka xos madaniyat turi sifatida ta’rifi nafaqat yangi muzeylar sonining keskin o‘sishi, butun madaniy landshaftlarni muzeylashtirish, eski shaharlarni tiklash, madaniyatning barcha sohalari va har bir tarkibiy qismlarini tizimli to‘plash va namoyish qilish bilan ifodalanadi”.

Rossiyalik bir qator muzeyshunos olimlar Y.Mastenitsa, L. Shlyaxtna, L. Xudyakova, A. Chugunova, I. Zaxarchenko, K. Surikova, Y.Shipunova muzeylar sohasida yuz berayotgan jarayonlar va muammolar bilan shug‘ullanganlar. Ilmiy tadqiqotlarda yozilgan muzeyning sotsio-madaniy amaliyotlari, muzeyning ilmiy-tadqiqot ishlari, ekspozitsiyasi, ko‘rgazmasi, ilmiy fondlari, muzey makonlarini loyihalashning yangi tendensiyalari ko‘rib chiqilgan, zamonaviy muzey binosi qiyofasining shakllanish jarayonlari madaniy-muzeologik qarashlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Shu o‘rinda, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida muzey dizaynining rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatgan MDH va xorij mamlakatlarining muzey dizayni borasidagi maxsus kurslari ahamiyatini tahliliy, nazariy va tanqidiy o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Rossiya, Amerika, Germaniya va Fransiya mamlakatlarida muzey dizayni bo‘yicha maxsus kurslar muzeyshunoslik, dizayn kabi kadrlarni tayyorlaydigan institut, universitetlar negizida tashkil etilgan.

2011-yilda Rossiya davlat gumanitar universitetining san’at tarixi fakultetida Badiiy amaliyot va muzey texnologiyalari oliy maktabi [HPMT] tashkil etilgan. Mazkur maktab muzey ekspozitsiyasi dizayni bo‘yicha 14 ta ma’ruzadan tashkil topgan dars olib borib, kurs oxirida sertifikat beriladi. 2012-yilda tashkil topgan “MARSH me’morlik maktabi” esa bakalavr va magistr mutaxassislarini tayyorlaydi. Talabalar bilimini mustahkamlash maqsadida 3 oylik ekspozitsiya dizayni pullik kursi tashkil etilgan.

Muzey dizayni, ekspozitsiya dizayni bo‘yicha nafaqat offlayn, balki onlayn kurlar ham talabgir hisoblanadi. Jumladan, muzey ekspozitsiyasi dizayni va grafik dizayn sohasiga qaratilgan FutureLearn platformasidagi “Muzey va galereya dizayni” amaliy kursi muzey, ko‘rgazma ilmiy konsepsiyasini yaratish, ekspozitsiya dizayni, yorug‘lik va ranglardan foydalanish kabi mavzularni qamrab oladi. Tajribali muzey dizaynerlari tomonidan o‘qitiladigan mazkur kurs muzey hamda galereyalar dizayni va loyihalashtirishga qaratilgan bo‘lib, muzey dizayni sohasi bilan qiziquvchilar uchun ayniqsa foydali bo‘lib, amaliy ko‘nikmalar va nazariy bilimlar beradi.

Muzeyshunoslik sohasida muzey eskpozitsiyasi dizaynining o‘rganilishi alohida ahamiyatga ega. Bu borada muzey ekspozitsiyasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan ilk tadqiqotchilardan biri F.Shmitdir. Olim ekspozitsiya yaratish, unda mazkur davr qurilish yutuqlarini ko‘rsatish va ommaviy-oqartuv ishlarida o‘lkashunoslik muzeylarining rolini oshirish zarurligini ko‘rsatgan edi. Ammo muallifning ko‘pgina fikrlari mujmal, noaniq va amaliy tavsiya darajasida talabga javob bera olmasdi. F.Shmitning muzeylarni “ilmiy”, “maktab” va “ommaviy” deb “tipologik” turlarga ajratishi izohga muhtoj edi. Uning muzeylar tarmog‘ini oqilona rejalashtirish muammosini hal etish haqidagi fikri esa oqibat natijasida mamlakat muzeylari kolleksiyalarini o‘zaro taqsimlash masalasiga aylanib ketdi. Lekin shunga qaramasdan F.Shmit asarlari o‘z vaqtida keng tarqaldi. Ularda birinchi marta muzey ekspozitsiyasining eski prinsiplari rad etilgan, sotsialistik qurilish sharoitlarida muzey ishiga ijodiy yondashish g‘oyalari dadil olg‘a surilgan edi [10; 22].

O.Lisikovaning “Музеи мира”, T.Yurenevaning “Музей в мировой культуре” nomli o‘quv qo‘llanmasida muzeylarni jahon sivilizatsiyasi tarixi va madaniyatida tutgan o‘rni, turli davlatlarning muzeylar sohasidagi siyosati, muzeylarda kolleksiyalarni to‘planishi va eng yirik kolleksionerlar, muzey menejmenti va marketingi kabi mavzular keng yoritilgan.

Dizaynning rivojlanish tarixi V.Glazichev, A.Lavrentev kabi mutaxassis olimlar tomonidan o‘rganilgan. Olimlar tomonidan dizaynning shakllanishi, dizayn sohasining rivojlanish aspektlari, uning metodologiyasi kabi muhim ma’lumotlar tadqiq qilingan.

Rossiyada muzey eskpozitsiyasi dizaynining muzeyshunos olimlar tomonidan keng o‘rganilishi XX asrning 1950-yillaridan boshlangan. Bu borada birinchilardan bo‘lib mazkur soha bo‘yicha ilmiy izlanish olib borgan olimalardan biri A.Mixaylovskaya tomonidan yozilgan ilmiy ish muhim ahamiyat kasb etadi. Unda, asosan, ekspozitsiyani yaratishda xorij tajribasining o‘rni, ekspozitsiyani tuzish metodlari, ekspozitsiyaning tematik rejasini yaratish tizimlashtirilgan holda yoritilgan. Olimaning “Организация и техника музейной экспозиции” [6;46] kitobida esa ekspozitya yaratishning umumiy tartiblari, eksponatlar klassifikatsiyasi, ekspozitsiya ustida ishlash jarayoni, eksponatlarni namoyish etish texnikasi, etiketajlar borasida ma’lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, mazkur davrda Y.Rozenblyum rahbarligi ostida “Senejsk studiya”si tashkil etiladi [12; 22]. Mazkur studiya rassom, muzeyshunos, san’atshunos, me’mor kabi mutaxassislar ishtirokida turli xil seminarlar tashkil etib, mutaxassislar hamkorligini ta’minlashda faol o‘rin egallaydi.

1972-yilda Madaniyat vazirligining Madaniyat ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan chiqarilgan “Muzey estetikasi va muzey arxitekturasi” [7] jamoaviy monografiyasi muzey arxitekturasini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qildi. Monografiyada A.Mixaylovskaya, A.Kuznetsov, N.Mastakov, A.Nikitin, I. Kiryanov, I. Bobroviskiy, N.Tarasova, B.Barxin, Y.Grigor, S.Nechayeva kabi muzeyshunos olimlar tomonidan muzey binolarining loyihalash qonuniyatlari, muzey ekspozitsiyasini yaratishda tabiiy yorug‘likdan foydalanish masalalari MDH davlatlari muzey binolari tajribasi misolida yoritilgan.

A.Ryabushinning “Новые горизонты архитектурного творчества, 1970-1980-е годы” [9] nomli kitobida 1970-1980-yillarda arxitektura sohasida yuz bergan “tub burilish”ning asosiy qirralari ochib berilgan holda Sovet davri muzey arxitekturasidagi o‘zgarishlar jahon arxitekturasi fonida tahlil qilingan.

“Shuningdek, I.Gorbunov, M.Chesnokova ilmiy tadqiqotlarida ham muzey ekspozitsiyasining rivojlanish tendensiyalari, ekspozitsiya tuzish metodlari ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, muzeylarning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, muzey laboratoriyalarining paydo bo‘lishi, muzey eskpozitsiyasi tuzish metodlari, muzey kommunikatsiyasi va muzey dizayn tushunchalari A.Sherbina” tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan.

2000-yillarni muzey ekspozitsiyasi dizaynining uchinchi zamonaviy bosqichi deb hisoblash mumkin. “Mazkur davr muzey ekspozitsiyasini loyihalash usullariga yangilik olib kirdi. Bu xususiyatlar ilk bor M.Maystrovskayaning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topdi. M.Maystrovskaya ta’kidlashicha: “muzeylarning uzoq yillik faoliyati, ayniqsa so‘nggi o‘n yilliklarda muzey ekspozitsiyasiga alohida ahamiyat qaratildi. Ekspozitsiya tushunchasining o‘zi ham ko‘pgina yangiliklar olib kirib, bu sohasini qayta ko‘rib chiqish kerakligini anglatdi”. Zamonaviy muzey ekspozitsiya dizaynining maqsadi obyektiv muhitning estetik va funksional vazifalarini shakllantirish edi” [12;28].

Muzey eskpozitsiyasini yaratishdagi muhim elementlardan hisoblangan rang va yorug‘lik yechimi, muzeyda eksponatlarni namoyish qilish usullari, dizayner hamda rassomlarning novatorlik yondashuvlari I.Gorbunovning “Музейная экспозиция: цвет, пластика, пространство” monografiyasida keng tahlil etilgan. Muallif monografiyada nafaqat muzey interyeri, balki eksteryeri dizayni, muzey binosining atrofdagi landshaft bilan uyg‘unligi borasida o‘rinli tavsiyalar keltirgan.

Y.Volkova ilmiy tadqiqot ishida muzey dizayniga keng tahliliy yondoshilib, muzey tushunchasi, muzey morfologiyasi, muzey kommunikatsiyasi, muzey ekspozitsiyasi, muzey dizayni va madaniy meros interpretatsiyasi kabi masalalar o‘rganilgan bo‘lsa, Y.Shmidt, A.Potapov ilmiy maqolalarida esa, asosan, muzeylardagi kommunikativ masalalar va eksponatlarni badiiy his qilish psixologiyasi kabi muammolar o‘rganilgan.

Bundan tashqari L.Skripkina, T.Yureneva, N.Nikishin, G.Knabening ilmiy tadqiqotlarida muzeylarning ijtimoiy madaniy funksiyalari, menejment va marketing jarayonlarini rivojlantirish,

muzey ekspozitsiyasini tuzish metodlari, shuningdek, Amerika, Avstraliya, Hindiston, Turkiya, Yaponiya va Xitoy muzeylari xususida salmoqli fikrlar berilgan.

Rossiyaning “Мир музея” jurnali muzey ishidagi nazariy va amaliy faoliyatning rivojlanishiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy davriy nashr bo‘lib, unda jahon muzeylari ekspozitsiyasi hamda fond ishiga yangicha yondashuv, zamonaviy xavfsizlik tizimi, muzey va ko‘rgazmalarda menejment va marketing, muzey ishida yangi texnologiyalar tahlil etib boriladi.

Yuneskoning Iroqdagi madaniy merosni saqlash hukumatlararo qo‘mitasining iltimosiga ko‘ra Patrik J. Boylan muharrirligi ostida nashr ettirilgan “Управление музеем: практическое руководство” kitobi dunyodagi ko‘plab muzey mutaxassislari uchun fundamental manba sifatida xizmat qilib kelmoqda. Kitobda XXI asr muzeylar boshqaruvida muhim hisoblangan aspektlar, madaniy meros obyeklarini asrash va muzeylashtirish, eksponatlarni saqlash, muzey xavsizligi masalalari yoritilgan. Manbada ushbu masalalarni yechishga qaratilgan nafaqat tavsiya va takliflar hamda amaliyotda qo‘llanilgan tajribalar ham keltirilishi nashr badiiy qiymatini oshirgan.

Xalqaro muzeylar kengashi IKOM homiyligida nashr ettirilgan Peter van Mensh, Andre Devale hamda Fransua Meresslarning ko‘p yillik izlanishlari natijasi, bir vaqtning o‘zida tarixiy va zamonaviy kontekstda muzey atamalarining kelib chiqishi hamda evolyutsiyasini jamlagan ensiklopedik lug‘ati ham oxirgi yillardagi muhim tadqiqotlardan biri sanalanadi.

MDH davlatlarida muzeylar arxitekturasi masalasiga qiziqish 1990-yillar oxirlariga to‘g‘ri kelib, mavjud muzey binolarida reekspozitsiyalar olib borildi. Tadqiqotchilar tomonidan bu sohaning nazariy jihatdan o‘rganilishi keng tus oldi [11; 8].

Zamonaviy muzey binolari arxitekturasi masalalari A.Chugunova tomonidan yozilgan bir qator maqola va dissertatsiya tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan. Muallif tomonidan yozilgan tadqiqotlarda muzey binolari arxitekturasining rivojlanish tendensiyalari san’atshunoslik nuqtayi nazaridan ko‘rilgan bo‘lib, muzey binolari arxitekturasi rivojlanishini o‘rganishda qimmatli manba hisoblanadi.

XXI asr boshlarida muzey binolari qurilishi borasida konferensiya, davra suhbatlari o‘tkazildi. Muzey arxitekturasi, dizayni bo‘yicha turli xil mutaxassislar fikrlari jamlangan alohida jurnal sonlari chop etildi. Sekin-astalik bilan muzey binolarini loyihalash, barpo etish faqatgina arxitektorlarning vazifasiga kirmaydi degan qarashlar shakllana boshladi.

Endilikda muzeyning vazifasi faqatgina eksponatlarni saqlash, o‘rganish, targ‘ib etish va ular haqida tashrif buyuruvchilarga bilim berishgina emas, balki tomoshabinga binoning tashqi ko‘rinishi orqali sezgi-emotsional holatiga ta’sir etib, uni tarixiy muhitga olib kirish vazifasi qo‘yilmoqda [4;11]. Chunki muzeyga tashrif buyuruvchi muzey ichkarisiga kirmasdan turib, u bilan o‘zaro aloqaga kirishadi.

Y.Bakushkinaning “Архитектура музейных зданий второй половины XX-XXI века” deb nomlangan dissertatsiyasida zamonaviy muzey arxitekturasining inson omiliga ta’siri ko‘rib chiqilgan bo‘lib, muallif “emotsionallik” tushunchasi orqali muzey binosi va tashrifchining o‘zaro bog‘liqligi vositalarini o‘rganadi.

100 dan ortiq modernizm uslubidagi binolar tahlili keltirilgan A.Bronoviskaya, N.Malinin, Y.Palmin tomonidan yaratilgan “Москва: архитектура советского модернизма. 1955-1991” spravochnik-putevoditelda [3] mazkur yillari barpo etilgan 5 ta muzey arxitekturasi keltirilgan. Mualliflar ushbu muzey binolari barpo etilish tarixini tarixiy, madaniy va siyosiy jarayonlar kontekstida tahlil qilgan holda XX asr ikkinchi yarmi jahon arxitekturasi negizida ham ko‘rib chiqishgan.

Xulosa va takliflar. Muzeyning me’moriy shakllarini tahlil qilish, ularni tarixiy va madaniy sharoitda o‘zgarish evolyutsiyasini aniqlashga qaratilganligi sababli, Yevropa olimlari tadqiqotlarida muzey arxitekturasini sintetik madaniy hodisa sifatida e’tirof etilganligi AQSh arxitektorlari nazariyasida muzey binolari nafaqat estetik va madaniyatni yaratuvchi, balki obyektning o‘zi alohida ko‘rgazma eksponati ko‘rinishida talabgir bo‘lishi sifatida qabul qilindi.

Muzey arxitekturasi va ekspozitsiyasiga oid xorijiy davlatlar tadqiqotlari turli xil tahliliy materiallarni o‘z ichiga oladi, ammo ilmiy izlanishlar ko‘lami muzey arxitekturasi, ekspozitsiyasining mohiyati, uning rivojlanish bosqichlari va o‘zgarishlar konteksti haqida tizimli tasavvur bermaydi. Ushbu tadqiqotlarning to‘liq holda bayon etilmaganligi (alohida muzey obyektlariga haddan tashqari ixtisoslashuv va konsentratsiya nuqtayi nazaridan) muzey arxitekturasining rivojlanish nazariyasini yaxlit asosda tizimlashtirishda qisman mavhumlikni ham keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ando T. Tadao Ando at Naoshima: Art Architecture Nature. 2006. – 208 p.
2. Bogle E. Museum Exhibition Planning and Design. USA: AltaMira Press, 2013. – 418 p.
3. Броновицкая А., Малинин Н., Пальмин Ю. Москва: архитектура советского модернизма. 1955-1991. Справочник-путеводитель. – 2-е изд., испр. – М.: Гараж, 2016. – 327 с.
4. Исмаилова Ж. Замонавий музейшунослик асослари. – Т.: Турон Замин Зиё, 2016. – 324 б.
5. Meier R. Making Architecture. The Getty Center. The J. Paul Getty Trust Los Angeles, 1997.–179 p.
6. Михайловская А. Организация и техника музейной экспозиции. – М.: Культурно-просветительной литературы, 1951. – 213 с.
7. Музейная эстетика и архитектура музеев. Науч. ред.- сост. д-р ист. наук А.И.Михайловская. – М.: Сов. Россия, 1972. – 271 с.
8. Piano R. Whitney: The Whitney Museum of Art. 2015. – 196 p.
9. Рябушин А.Новые горизонты архитектурного творчества, 1970–1980-е годы. – М.: Стройиздат, 1990. – 327 с.
10. Содиқова Н.Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Т.: Фан, 1981. – 266 б.
11. Сурикова К. Культурный контекст эволюции музейной архитектуры: Автореф. на соискание уч.степ. кандидата культ. – Санкт-Петербург, 2017. – 26 с.
12. Ялова А. Современные тенденции в дизайне экспозиций музеев и выставочных залов. Магистрская программа “Визуальные технологии в музее”. – Санкт-Петербург, 2017. – 138 с.
13. Щербина А. Музейное проектирование. – Тольятти: ТГУ, 2011. – 68 с.
14. Шипунова Е. Современные тенденции в музейной архитектуре / [Электронный ресурс]: http://museumstudy.ru/wp-content/uploads/2015/ 12/shi punova sovr tendencii v muz archi.pdf (Murojaat sanasi: 10.01.2024)

INFORMATIKA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Zaripov Nozimbek Nayimovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
doktoranti (DSc), p.f.f.d. (PhD)., dotsent
zaripov9898@mail.ru
ORCID 0009-0006-7569-7457
UDK 37.018.43

Annotatsiya. Ushbu maqolada informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanishning samarali metodikalari ko‘rib chiqiladi. Turli o‘quv darajalari uchun mos yondashuvlar, interaktiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish usullari va zamonaviy dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda interfaol ta’lim texnologiyalari, sun’iy intellektga asoslangan dasturlar, bulutli platformalar va virtual laboratoriyalarning o‘quv jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, informatika fanini samarali o‘qitish uchun zamonaviy dasturiy vositalarni tanlash mezonlari va ularning o‘quvchilarning bilim darajasiga ta’siri o‘rganiladi. Natijalar zamonaviy o‘qitish metodlarini ishlab chiqishda va ta’lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishda samaralik darajasi hamda o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan metodik modellar keltirilgan.

Tayanch tushunchalar: zamonaviy dasturiy vositalar, informatika ta’limi, interaktiv o‘qitish metodikasi, masofaviy ta’lim, gamifikatsiya, sun’iy intellekt, ta’lim platformalari.

METHODOLOGY FOR USING MODERN SOFTWARE TOOLS IN TEACHING COMPUTER SCIENCE

Abstract. This article examines effective methodologies for using modern software tools in teaching computer science and information technology. Suitable approaches for different levels of education, methods of using interactive educational technologies, and didactic capabilities of modern software tools are analyzed. The study analyzes the impact of interactive educational technologies, artificial intelligence-based programs, cloud platforms, and virtual laboratories on the educational process. It also studies the criteria for selecting modern software tools for effective teaching of computer science and their impact on the level of students' knowledge. The results show the level of effectiveness in developing modern teaching methods and organizing the educational process based on innovative technologies, as well as methodological models used in the teaching process.

Basic concepts: modern software tools, computer science education, interactive teaching methods, distance learning, gamification, artificial intelligence, educational platforms.

Kirish. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar jamiyatimizning barcha sohalariga kirib bormoqda. Shu boisdan, ma’lumotlarni yaratish, tartiblash, saqlash, jadvallarni o‘zaro bog‘lash, so‘rovlar berish, hisobotlarni o‘z vaqtida ajratib olish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

An’anaviy ta’lim usullari hozirgi o‘quvchilarning ehtiyojlariga to‘liq javob bera olmaydi. Shu boisdan, zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish orqali informatika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda informatika va axborot texnologiyalari (IT) ta’limi muhim strategik yo‘nalishlardan biriga aylandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi nafaqat o‘quvchilarning bilim olish jarayonini osonlashtiradi, balki ularning tahliliy va algoritmik tafakkurini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli informatika fanini o‘qitishda ilg‘or dasturiy vositalardan foydalanish zarurati kundan kunga ortib bormoqda. Hozirgi kunda butun dunyo bo‘ylab ta’lim jarayoniga interaktiv vositalar, masofaviy ta’lim platformalari, sun’iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar va gamifikatsiya metodlari faol ravishda joriy qilinmoqda. Ayniqsa, Scratch, Code.org, Kahoot, Moodle, Google Classroom, Python Jupyter Notebook, Colab kabi platformalar o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Bunday dasturiy vositalardan samarali foydalanish informatika fanining nazariy va amaliy jihatlarini yanada tushunarli va qiziqarli tarzda yetkazishga yordam beradi.

Mavzuga doir manbalar tahlili. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish metodikasini o‘rganish uchun turli xil ilmiy manbalar, maqolalar va tajribaviy tadqiqotlar tahlil qilindi. M.Papastergiou (2009) o‘z tadqiqotida ta’limda o‘yinlashtirish (gamifikatsiya) va interaktiv vizual vositalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishini ko‘rsatgan [4]. Uning tadqiqoti shuni isbotladiki, o‘yin elementlari qo‘shilgan ta’lim tizimlari an’anaviy usullarga qaraganda samaraliroq bo‘lib, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. M.Resnick (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, Scratch dasturiy muhiti o‘quvchilarning algoritmik fikrlashini rivojlantirishga yordam berishi aniqlangan [5]. T.Anderson, J.Dron (2011) masofaviy ta’limning uch asosiy modelini o‘rganib chiqdi: kognitivist, konstruktivist va sotsial o‘rganish modellariga asoslangan onlayn ta’lim. Ular masofaviy ta’lim tizimlarining o‘quvchilarga mustaqil ta’lim olish imkoniyatini berishini aniqlagan [1]. B.Means (2013) olib borgan tadqiqotga ko‘ra, Coursera, Udacity, EdX kabi onlayn ta’lim platformalari orqali o‘rganish an’anaviy darslarga nisbatan o‘quvchilar uchun moslashuvchanroq bo‘lishi aniqlangan [8]. Dalgarno (2019) tadqiqotlarida virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) ta’lim sohasida laboratoriya mashg‘ulotlarini interfaol tarzda o‘tkazish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan. Xususan, Google Expeditions va VRLab yordamida o‘quvchilar murakkab fanlarni vizualizatsiya qilish orqali yaxshiroq o‘zlashtirishi aniqlangan [10].

Tadqiqot metodologiyasi. Informatika fanini o‘qitishda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish metodikasi – bu informatika va axborot texnologiyalari sohasida ta’lim berish jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning ilmiy yondashuvlar to‘plamidir. Tadqiqot metodologiyasining asosiy maqsadi zamonaviy dasturiy vositalarni o‘qitish jarayonida qanday qo‘llash mumkinligini o‘rganish va o‘qituvchilarga, shuningdek, o‘quvchilarga bu vositalardan qanday samarali foydalanishni ko‘rsatishdir. Ushbu metodologiya, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ta’lim sifatini yaxshilash va ta’lim tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi informatika fanini o‘qitishda zamonaviy dasturiy vositalardan samarali foydalanishning metodik asoslarini ishlab chiqishdir. Shu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- Zamonaviy dasturiy vositalarning ta’lim jarayonida qanday o‘rin tutishini aniqlash.
- O‘quvchilarning algoritmik va tahliliy fikrlashini rivojlantirishda bu vositalarning ahamiyatini o‘rganish.
- Interaktiv o‘qitish texnologiyalari va masofaviy ta’lim platformalarining ta’lim samaradorligiga ta’sirini tahlil qilish.
- Gamifikatsiya va sun’iy intellekt asosidagi tizimlarning informatika fanini o‘qitishda qanday qo‘llanilishi mumkinligini o‘rganish.
- O‘quvchilarga ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish uchun metodik modellarni ishlab chiqish.

Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy usullar qo‘llaniladi:

- Tahlil: Informatika fanini o‘qitishda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish bo‘yicha mavjud ilmiy manbalarni, maqolalar va tadqiqotlarni tahlil qilish. Bu usul orqali o‘quvchilar va

o‘qituvchilar tomonidan qo‘llanilayotgan metodlarni, shuningdek, bu metodlarning ta’lim samaradorligiga ta’sirini aniqlash mumkin.

- Eksperimental usul: o‘qitish jarayonida zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanishning samaradorligini tekshirish uchun eksperimentlar o‘tkazish. Masalan, Scratch, Code.org, Kahoot, Moodle kabi platformalar yordamida o‘quvchilarning algoritmik fikrlashini rivojlantirish va ularning ta’limga qiziqishini oshirish.
- Anketalar va so‘rovlar: O‘qituvchilar va o‘quvchilardan zamonaviy dasturiy vositalar bilan ishlash tajribasini o‘rganish uchun so‘rovnomalar va anketalar olib borish. Bu orqali o‘quvchilarning yangi texnologiyalarni qanday qabul qilishlarini va bu vositalar orqali o‘z bilimlarini qanday mustahkamlashayotganini bilib olish mumkin.
- Ma’lumotlarni tahlil qilish: Tadqiqot jarayonida yig‘ilgan ma’lumotlarni statistik tahlil qilish, bu orqali o‘quvchilar va o‘qituvchilarning fikrlarini, ta’lim jarayonida qanday metodlarning samarali ekanligini aniqlash.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotning asosiy maqsadi informatika fanini o‘qitishda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish metodikasining samaradorligini tahlil qilishdan iborat. Zamonaviy dasturiy vositalar, masofaviy ta’lim platformalari, interaktiv o‘qitish metodikasi va gamifikatsiya elementlarining informatika ta’limidagi roli muhim hisoblanadi. Shu boisdan quyida ushbu tushunchalarni batafsil ko‘rib chiqamiz.

Zamonaviy dasturiy vositalarning samaradorligi. Hozirgi kunda turli zamonaviy dasturiy vositalar mavjud bo‘lib, Scratch, Code.org, Python Jupyter Notebook, Google Classroom va Moodle kabi dasturiy platformalar ta’lim jarayonining turli bosqichlarida o‘quvchilarni faollashtirish, ularning algoritmik va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali qo‘llanildi [5].

Scratch dasturiy muhiti, ayniqsa, o‘quvchilar uchun dasturlash tillarini o‘zlashtirishlariga zamin hozirlaydi. Ushbu dastur yordamida o‘quvchilarning algoritmik tafakkuri rivojlandi va ular dasturlashning asosiy prinsiplari bilan tanishadilar. Scratch dasturiy muhiti o‘quvchilarda dasturlashni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Code.org platformasi orqali o‘quvchilar algoritmik fikrlash va masalalarni yechish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Code.org platformasi murakkab masalalarni hal qilishda, informatika fanining boshlang‘ich bosqichlarini o‘rganish uchun juda qulay va samarali vosita hisoblanadi [7].

Python Jupyter Notebook va Google Colab dasturlari esa yuqori sinf o‘quvchilari uchun amaliy dasturlashni o‘rgatishda juda foydali hisoblanadi. Bu platformada o‘quvchilar interaktiv tarzda kod yozish, natijalarni real vaqtda ko‘rish va o‘zlari yaratgan dasturlarni optimallashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar [6].

Masofaviy ta’lim platformalarining ta’siri. Masofaviy ta’limning samaradorligini baholashda Moodle va Google Classroom platformalari alohida ahamiyatga ega. Masofaviy ta’lim platformalarining ta’lim jarayonini yanada moslashuvchan va o‘quvchilar bilimini oshirishga xizmat qiladi. Masofaviy o‘qitish orqali o‘quvchilarga o‘z vaqtini boshqarish, o‘quv materiallari bilan erkin tanishish, turli interaktiv vazifalar orqali o‘z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatlari yaratiladi. Bunda o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishi va faolligi yanada oshiradi. Bunday metodlar o‘quvchilarning masofaviy ta’lim imkoniyatlaridan mustaqil foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Gamifikatsiya va interaktiv o‘qitish. Kahoot, Quizizz kabi gamifikatsiya vositalari o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Ushbu vositalar yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini baholash, yangi mavzularni interaktiv tarzda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Gamifikatsiyaning yuqori samaradorligi o‘quvchilarning bilim olish jarayonida motivatsiyani oshiradi, darsni yanada qiziqarli va interaktiv qiladi [3].

Informatika fanini o‘qitishda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish metodikasi bo‘yicha qo‘llaniladigan metodik modellar quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval):

1-jadval

Zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish metodikasi bo‘yicha qo‘llaniladigan metodik modellar

№	Model nomi	Ta’rif	Asosiy vositalar	afzalliklari
1	Interfaol ta’lim modeli	O‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasida faol muloqot tashkil etish	Google Classroom, Microsoft Teams, Zoom, Miro	O‘quvchilarning faolligini oshiradi, real vaqtda fikr almashish imkonini beradi
2	Gamifikatsiya modeli	O‘yin elementlari orqali o‘quv jarayonini qiziqarli qilish	Kahoot, Quizizz, Classcraft, CodeCombat	Motivatsiyani oshiradi, bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi
3	Sun’iy intellekt asosida moslashtirilgan ta’lim modeli	O‘quvchilarning bilim darajasiga mos individual yondashuv	ChatGPT, Google Bard, Coursera, Duolingo AI	Har bir o‘quvchi uchun moslashtirilgan ta’lim trayektoriyasini yaratadi
4	Bulutli texnologiyalar asosidagi model	Ta’lim resurslarini bulut orqali taqdim etish	Google Drive, OneDrive, AWS Educate, Google Colab	Istalgan joydan foydalanish imkonini beradi, saqlash va ulashish qulay
5	Virtual va kengaytirilgan reallik modeli	Virtual muhitlarda interaktiv o‘qitish	Google Expeditions, VRLab, Unity VR	Amaliy tajribalarni oshiradi, real muhitga yaqinlashtiradi
6	Loyihaviy ta’lim modeli	O‘quvchilar loyihalar ustida ishlash orqali o‘rganishi	GitHub, Trello, Notion, Google Sites	Jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi, ijodkorlikni rivojlantiradi

Informatika fanini o‘qitishda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish o‘quvchilarning ta’limdagi samaradorligini oshiradi, ularning bilim olish jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qiladi. O‘quvchilar zamonaviy platformalar orqali o‘qitishda o‘z bilimlarini tezda mustahkamlash va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning algoritmik fikrlash va tahliliy, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, masofaviy ta’limning qo‘llanilishi, o‘quvchilarga o‘z vaqtini mustaqil boshqarish imkoniyatini yaratadi va ta’lim jarayonida moslashuvchan dasturiy vositalar ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa. Zamonaviy texnologiyalar va dasturiy vositalar, o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi ishtirokini faollashtirish, bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qilishda muhim rol o‘ynaydi. Interaktiv ta’lim metodikasi, masofaviy ta’lim platformalari, gamifikatsiya elementlari va sun’iy intellekt asosidagi vositalar yordamida ta’limni yangicha shaklda tashkil etish, o‘quvchilarda yuqori motivatsiya va faol ishtirokni ta’minlaydi. Maqolada keltirilgan zamonaviy dasturiy vositalar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini oshirish, murakkab masalalarni yechish va dasturlash qobiliyatlarini rivojlantirishda sezilarli darajada xizmat qiladi. Scratch, Code.org, Python Jupyter Notebook, Google Classroom kabi platformalar o‘quvchilarning algoritimik va tahliliy tafakkurini rivojlantirishda samarali bo‘lib, ta’lim jarayonini boyitish va mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, zamonaviy dasturiy vositalar yordamida darslarni tashkil etish, o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim sifatini ma’lum darajada oshiradi. O‘qituvchilar uchun esa bu yangi imkoniyatlar, o‘quvchilarning o‘qish jarayonini samarali va sifatli boshqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson, T., Dron, J. (2011). Teaching in the Cloud: The Cognitive, Constructivist and Social Models of Distance Education. *International Review of Research in Open and Distributed Learning*, 12(3), 19-32.

2. Dron, J., Anderson, T. (2014). Teaching Crowds: Learning and Social Media. *Athabasca University Press.*

3. Siemens, G. (2005). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. *International Journal of*

Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 3-10.

4. Papastergiou, M. (2009). Digital Game-Based Learning in Education. *Educational Technology & Society*, 12(3), 94-101.

5. Resnick, M. (2017). Scratch: Programming for All. *Communications of the ACM*, 60(10), 44-53.

6. Gee, J. P. (2003). What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. *Computers in Entertainment (CIE)*, 1(1), 20-20.

7. L. Fernandes, L., A. Ferreira, **Teaching Python Programming: Gamification, Peer Learning, and Online Tools.** *Proceedings of the 52nd ACM Technical Symposium on Computer Science Education*, 2020. 948-953 p.

8. Means, B. (2013). Massive Open Online Courses (MOOCs): An Overview. *Educational Technology Research and Development*, 61(4), 417-419.

9. Zaripov, N. (2024). Maktab o‘quvchilariga dasturlash tillarini o‘qitish usullari: muammolar va yechimlar. *News of the NUUz*, *1*(1.9), 88-90.

10. Dalgarno B., Lee M. *What are the learning affordances of 3-D virtual environments.* British Journal of Educational Technology, 40(6), 2019. 105-113.

11. Zaripov, N.N. (2020). Using methods of foreign experiences in teaching informatics and information technologies in school. *Theoretical & Applied Science*, (3), 111-114.

C++ DASTURLASH TILIDA MAKTAB O‘QUVCHILARINING GRAFIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Rajabov Maxmadiyor Baxtiyorovich
TATU Qarshi filali Optik aloqa tizimlari va tarmoq xafsizligi kafedrasi o‘qituvchisi
rajabovmaxmadiyor@gmail.com
ORCID 0009-0006-4804-8136
UDK 539.18:378(575.1)

Annotatsiya. Ushbu maqolda umumta’lim maktablarida fizika darslarida o‘quvchilarning grafik tayyorgarligini rivovlantirish metodikasi yoritilgan. Grafik ko‘nikmalarni shakllantirishda C++ dasturlash tilida foydalanish orqali innovatsion yondashuv taklif etilgan. Tadqiqotda kompetensiyaviy , tizimli va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida grafik tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan metodlar ishlab chiqildi. Loyihalash metodi orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish ta’minlandi. Fizika darslarida grafik ko‘nikmalarni oshirish uchun C++ dasturlaridan foydalanishning samaradorligi baholandi. Natijalarga ko‘ra, ushbu yondashuv o‘quvchilarning tushuninsh va tahlil qilish qobiliyatlarini oshirishga yordam berdi. Fizika ta’limida grafik tayyorgarlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish orqali o‘quv jarayonining samaradorligi oshirildi. Ushbu metodika o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish hamda amaliy mashg‘ulotlar orqali bilimlarni mustahkamashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: metodika, grafik ko‘nikmalar, fizika, umumta’lim maktablari, strategiyalar, tushunish, malaka.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING SCHOOL STUDENTS' GRAPHIC SKILLS IN THE C++ PROGRAMMING LANGUAGE

Abstract. In this article, the method of developing graphic preparation of students in physics classes in secondary schools is explained. An innovative approach is proposed by using the C++ programming language in the formation of graphic skills. In the study, methods aimed at developing graphic training were developed based on competency-based, systematic and activity-oriented approaches. The formation of students' independent thinking and practical skills was ensured through the projecting method. The effectiveness of using C++ programs to improve graphic skills in physics classes was evaluated. According to the results, this approach helped to increase students' understanding and analysis skills. The effectiveness of the educational process has been increased by improving the methodology of graphic preparation in physics education. This methodology serves to increase students' interest in science and to strengthen knowledge through practical training.

Keywords: methodology, graphic skills, physics, secondary school, strategies, understanding, skills.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29-aprel 2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni [2], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2-fevral 2024-yildagi “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar

to‘g‘risida”gi PQ-54-sonli Qarori [3], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19-mart 2021-yildagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-sonli Qarori [4] hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi. Xalqaro pedagogik tajribaga ko‘ra (Yale University, Stanford University) umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida fizika ta’limi nazariyasi va amaliyoti tendensiyasini yanada rivojlantirish orqali o‘quvchilarni tayanch kompetensiyalarini shakllantirish hamda grafik tayyorgarligini rivojlantirishga alohida ahamiya berilmoqda.

Xususan, umumiy o‘rta ta’limda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishga oid tadqiqotlar olib borilayotgan Belfield Pedagogical University (Germaniya), Ta’lim texnologiyalari navigatori axborot-metodik markazi (Rossiya) va Seoul Cyber University (Janubiy Koreya) kabi nufuzli ilmiy tadqiqot va ta’lim markazlarida salmoqli amaliy natijalarga erishilgan. Shuning uchun umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni fizikadan grafik tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ta’minlash, tashkiliy-funksional modeliga asoslangan metodik modelni ishlab chiqish, fizika o‘qitish metodikasini takomillashtirish, o‘quvchilarda grafik tayyorgarlikni rivojlanganlik darajalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va amliytga joriy qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotning metodologiyasi: Fizikadan o‘quvchilarning grafik tayyorgarligini rivojlantirishda asosiy metodologik yondashuvlarga quyidagilar kiradi: kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatli, shaxsiy, differensial, integral yondashuvlar kiradi (V.I.Baydenko).

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning grafik tayyorgarligini rivojlantirish quyidagi didaktik tamoyillar asosida amalga oshirildi: dasturiy vositalarga ustuvorlik berish tamoyili; o‘z-o‘zini rivojlantirish tamoyili; dinamik tamoyili; to‘liqlik tamoyili; diagnostik tamoyil; konstruktiv yaxlitlik tamoyili.

Keltirib o‘tilgan didaktik tamoyillar maktab o‘quvchilarining grafik tayyorgarligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim sifati samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Natijalar va muhokama: C++ dasturlash tili obyektga yo‘naltirilgan vizual dasturlash tili bo‘lib Borland firmasi tomonidan ishlab chiqilgan va hozirgi kungacha ishlatib kelinmoqda. C++ dasturlash tilini yaxshi o‘rganish uchun avvalo oddiy fizik jarayonlarni vizuallshtirish, matematik amallarni vizuallashtirish kabi jarayonlar muhim ahamiyatga ega. C++ dasturlash tili C va C+ dasturlash tillarining uzviy davomi bo‘lib yuqori imkoniyatlarga ega. So‘ngi vaqtlarda Visual Studio, Embarcadero RAD studio kabi bir necha tillarni o‘zida jamlagan android dasturlash tillari ham ishlab chiqilgan. Har qanday dasturlash tilini mukammal o‘rganish uchun oddiylikdan boshlash va aniq bir yo‘nalishda reja asosida natijaga erishishga intilish kerak bo‘ladi. Shuni inobatga olib, quyida ba’zi funksiyalarning grafiklarini hosil qilishda C++ dasturlash tilidan foydalanish методикасини ko‘rsatib o‘tamiz. C++ dasturlash tilidan foydalanib o‘quvchilarning fizikadan grafik tayyorgarligini rivojlantirishda loyihalash metodidan foydalandik.

Projects metodi. Projects(Loyihalash) metodi – bu o‘quvchilar bir necha kun yoki hafta davomida amaliy muammoni mustaqil ta’limda hal qiladigan ta’lim metodir. Bu loyihalash va boshqa rejaga asoslangan amaliu ishlarni o‘z ishiga olishi mumkin. Loyihalar o‘qituvchi tomonidan taklif qilinishi mumkin, ammo ular iloji boricha o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan individual bajariladi. Loyihalash metodi mustaqil fikrlash, o‘ziga ishonch va ijtimoiy mas’uliuatni rivojlantirish uchun aniq bilim uoki ko‘nikmalarni qo‘llash, talabalarning faolligi va motivatsiyasini yaxshilashga qaratilgan.

Metallarda qarshilikning temperaturaga bog‘liqligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$R = R_0(1+\alpha t) \quad (1)$$

bu yerda R_0 -qarshilikning 0^0C temperaturadagi qiymati, α -termik koeffitsiyent, t -temperatura.

Loyiha quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

C++ dasturlash tilini ishga tushiramiz: *Borland C++->File->New->Application.* Yangi formaga komponentalar palitrasidan kerakli komponentalarni formaga joylashtiramiz:

1. Standard tarkibidan Label, Button va Edit komponentalari formaga joylashtiriladi;
2. System tarkibidan PaintBox komponentasi formaga joylashtiriladi;
3. Standart tarkibidan olingan Button1 tugmachasiga sichqonchaning o‘ng tugmachasini ketma-ket ikki marta bosib quyidagicha dastur kodlarini kiritiladi:

```
void __fastcall TForm1::OKClick(TObject *Sender)
{
```

```
float t, R, R0, alpha;// o‘zgaruvchilar
double x,x1,x2,x0,y0,fx,fy;//funksiya va argument
R0=StrToFloat(Edit1->Text);//kiritish operatori
alpha=StrToFloat(Edit2->Text);
t=StrToFloat(Edit3->Text);
R=R0*(1+alpha*t);//формула
Label1->Caption="R= "+FloatToStr(R)+"  Om";//chiqarish operatori
x0=15;y0=200; x1=15;x2=400;
x=x1;
while (x<x2)
      {
t=x;
fx=x0+x;//argument
fy=y0-2*(20*(1+alpha*x));//funksiya
PaintBox1->Canvas->Pixels[fx][fy]=clBlue;//chizma
x=x+0.0005;
      }
}
```

Kompilyatsiya jarayoni amalga oshirilgandan so‘ng R_0, α, t kiritilgandan so‘ng 2.3.4-rasmdagi natija kelib chiqadi.

Keltirib o‘tilgan dasturlash metodikasining fizika ta’limi jarayonidagi samaradorligi quyidagilardan iborat:

1. *Vaqt samaradorligi;*
2. *Iqtisodiy samaradorlik;*
3. *Xatoliklar samaradorligi;*
4. *Texnik va ekologik samaradorlik;*
5. *Grafik tayyorgarlik samaradorligi.*



C++ dasturlash tilida metallar qarshiligining temperaturaga bog‘lanish grafigi

Yarimo‘tkazgich qarshiligining haroratga bog‘liqligini Arrenius tenglamasi yordamida aniqlash mumkin:

$$R = R_0 e^{T_0/T} \quad (2)$$

Bu yerda R – yarimo‘tkazgichning T haroratdagi qarshiligi, R_0 – ma’lum bir haroratdagi qarshilik, T_0 – yarimo‘tkazgichning mos harorati.

Germaniyli sof yarimo‘tkazgich uchun ta’qiqlangan zona energiyasi $E_g = 1.063 \cdot 10^{-19} J$ ga teng. Bolsman doimiysi- $k = 1.38 \cdot 10^{-23} J/K$. Bundan $T_0 = {}^{E_g}\!/_{k} = 3855,0725K$ kelib chiqadi.

Keltirilgan kattaliklardan foydalanib qarshilikning temperaturaga bog‘lanish grafigini C++ dasturlash tilida ko‘rsatib o‘tamiz.

Dastur kodi quyidagicha kiritiladi:

```
void __fastcall TForm1::OKClick(TObject *Sender)
{
float t, R, R0, T0;
```

```
double x,x1,x2,x0,y0,fx,fy;
R0=StrToFloat(Edit1->Text);
T0=StrToFloat(Edit2->Text);
t=StrToFloat(Edit3->Text);
R=R0*exp(T0/t);
Label1->Caption="R= "+FloatToStr(R)+"  Om";
x0=25;y0=200; x1=15;x2=400;
x=x1;
while (x<x2)
{
 t=x;
 fx=x0+x;
 fy=y0-(200*(T0/x));
 PaintBox1->Canvas->Pixels[fx][fy]=clBlue;
 x=x+0.001;
          }
}
```

Kompilyatsiya jarayoni amalga oshirilib, R_0 , T_0 , T kiritilgandan so‘ng 2.3.5-rasmdagi natija kelib chiqadi.



C++ dasturlash tilida yarimo‘tkazgichlar qarshiligining temperaturaga bog‘lanish grafigi

Fizika o‘qitish jarayonida fizika, matematika va informatika fanlar integratsiyasini ta’minlash, fizik jarayonlarni matematik modellashtirish, algoritmlash, dasturlash, yuqori sifatli dizayn, keng qamrovli pedagogik tajriba-sinov muhim ahamiyat kasb etadi. C++ dasturlash tili vositasida fizika o‘qitish metodikasini takomillashtirish o‘quvchilarning grafik tayyorgarligini rivojlanishini kafolatlaydi.

Xulosa. Ushbu maqolada umumta’lim maktab o‘quvchilarining grafik tayyorgarligini rivojlantirish uchun fizika darslarida faoliyatning umumlashtirilgan metodlaridan foydalangan holda darslarni tashkil qilishga qaratilgan. Maqolaning xulosasiga ko‘ra, ushbu strategiyalarni amalga oshirish o‘quvchilarning fizikadagi grafik ko‘nikmalarini tushunish va malakasini oshirishga yordam beradi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning fizikadan grafik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi takomillashtirildi. Grafik tayyorgarlikni rivojlantirishda C++ dasturlaridan foydalanish metodikasi ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сон Қонуни. https://lex.uz/docs/5013007.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 мартдаги “Физика соҳасидаги таълим сифатини ошириш ва илмий тадқиқотларни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5032-сон Қарори https://lex.uz/docs/5338558

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29-aprel 2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.

5. Карлыбаева Г.Е., Матжанов Н.С. Физика ҳәм астрономия оқытыў методикасы. Ўқув қўлланма. – Т: Фан ва технология, 2017. – 164 бет.

6. Махманов Э.Б. Техника олий таълим муассасаларида талабаларнинг физикадан амалий компетентлигини ривожлантириш методикаси. Педагог. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. –Тошкент, 2022. – 184 б.

7. Мирзаҳмедов Б. ва бошқ. Физика ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. 2 қисм. – Тошкент, 2010. – 130 б.

8. Маҳмудов Ю.Ғ. Физикадан экологик мазмунда лаборатория ишлари // “Халқ таълими“ журнали. – Тошкент, 2002. 2-сон. – Б. 52-57.

9. Axmedova G., Mamatqulov O.B., Xolbayev I. Atom fizikasi. – Toshkent: Istiqlol, 2013. – 416 b.

10. Асмолов А. Г. Системно-деятельностный подход в разработке стандартов нового поколения /А.Г. Асмолов // Педагогика - М.: 2009 - №4.-С18-22.

11. Джораев М. Физика ва астрономия ўқитиш методикаси. – Тошкент: Фан ва технология, 2015. – 352 б.;

12. Казакова Ю.В. Развитие мышления учащихся основной школы в процессе информационной деятельности при обучении физике [Текст] дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.02 / Ю.В. Казакова - М.,2009. - 202 с.

STUDYING LINKED LISTS AND SIMPLE OPERATIONS PERFORMED ON THEM USING SWOT ANALYSIS IN DYNAMIC DATA STRUCTURES.

Samandarova Shaxnoza Mirjamilovna
Teacher of the Karshi branch of the Tashkent
university of information technologies
named after Muhammad Al-Khorazmi
samandarovashaxnozabonu@gmail.com
UDK 004.04

Abstract. This article discusses the use of SWOT analysis in the study of the topic "Singly linked lists" in the subject "Data Structures and Algorithms" to shape the learning process. Instructions are given on operations on singly linked lists and their use in programs. The role and structure of lists in programming are presented. We will consider creating programs using operations such as adding an element to the beginning of a list, removing an element from the beginning of a list, adding to a list, and removing from a list. As we know, arrays are a very useful and necessary structure in programming languages. Linked lists are a sequence of elements of the same type, which are placed in different locations in memory and are linked to each other through pointer fields.

Keywords: List item, SWOT analysis, single-link list, add item to the beginning of the list, remove item from the beginning of the list, add to list, remove from list.

DINAMIK MA’LUMOTLAR TUZILMASIDA BIR BOG‘LAMLI RO‘YXATLAR VA ULAR USTIDA BAJARILADIGAN ODDIY AMALLARNI SWOT TAHLILIDAN FOYDALANGAN XOLDA O‘RGANISH.

Annotasiya. Ushbu maqolada “Ma’lumotlar tuzilmasi va algoritm” fanini “Bir bog‘lamli ro‘yxatlar” mavzusini o‘rganishda SWOT tahlilidan foydalanib dars’tish jarayonlarini shakillantirish . Bir bog‘lamli ro‘yxatlar ustida amallar va ularni dasturda qo‘llanilishi bo‘yicha ko‘rsatmalar berib o‘tilgan. Dasturlashda ro‘yxatlarning o‘rni va strukturasi keltirilib o‘tilgan. Ro‘yxatning boshiga element qo‘shish, ro‘yxatning boshidan elementni o‘chirish, ro‘yxatga qo‘shish va ro‘yxatdan o‘chirish kabi amallarni qo‘llagan holda dasturlar tuzishni ko‘rib chiqamiz. Bizga ma’lumki, massivlar dasturlash tillarida juda foydali va zaruriy tuzilmadir. Bog‘langan ro‘yxatlar bir xil toifadagi elementlar ketma ketligi bo‘lib, ular xotirada turli joylarga joylashtiriladi va o‘zaro bir-biri bilan ko‘rsatkichli maydonlar orqali bog‘lanadi.

Kalit so‘zlar: Ro‘yxat elementi, SWOT tahlili , bir bog‘lamli ro‘yxat, ro‘yxatning boshiga element qo‘shish, ro‘yxatning boshidan elementni o‘chirish, ro‘yxatga qo‘shish, ro‘yxatdan o‘chirish .

Introduction. As is known, programming methods include all variants of data structures. Programs, on the other hand, represent the implementation of abstract algorithms based on a certain representation and structure of data.

A data structure is a software unit that allows a computer to store and process a set of logically related data.

Research methodology. Dynamic data structure as we know, arrays (static structures) are

a very useful and necessary structure in programming languages. But they have two disadvantages:
- Their size cannot be changed during program execution;
- To insert an element into the structure, the remaining elements must be pushed.

This disadvantage leads to working with linked lists. Linked lists are a sequence of elements (nodes) of the same type, which are placed in different places in memory and are connected to each other through index fields. Linked lists can be implemented in a program in different ways.[1]

We can create elements in linked lists as follows:



Picture 1. Structure list element.

The information field contains useful information for the user. The pointer field contains the address of the next element in memory. A structure consisting of such elements is called a linear singly linked list.

Dynamic data structures are classified as shown in Figure 2.



Picture 2. Classification of Dynamic data structure .

In programs, dynamic data structures often include linear lists, stacks, queues, and binary trees. These structures differ from each other in the way elements are linked and the operations that can be performed on them. Dynamic structures, unlike arrays and records, are not located in consecutive areas of RAM. An element of an optional dynamic structure consists of 2 fields: an information field that causes the structure to be created and an index field that provides a connection between the elements. In linear lists, each element can be linked to the next or previous one. In the first case, that is, if the elements are linked to the next element, such a list is called a singly linked list. If each element is linked to the previous and next elements, then such lists are called doubly linked lists. If the last element is linked to the index of the first element, such a list is called a circular list. Each element of the list has a key to identify that element. The key is usually an integer or a string as part of the data field. The following operations can be performed on lists :

- create a list (create the first element);
- add a new element to the end of the list;
- read the element corresponding to the given key;
- add an element to the specified place in the list (before or after the element corresponding to the given key);
- delete the element corresponding to the given key;
- sort the list elements by key.

When working with lists, a pointer to the initial element is required in the program. We will consider algorithms and programs for performing various operations on linearly linked lists.[2]

Linear one-way directed lists.



Picture 3. Linear singly linked lists.

A singly linked list is a sequence of elements arranged in such a way that each element has 2 fields: an information field info and a pointer field ptr (Figure 3).

The peculiarity of the list element pointer in this form is that it indicates only the address

of the next (following) element of the list. In a singly linked list, the last element pointer is empty, that is, NULL.

Lst is the head of the list pointer. It represents the list as a single whole. Sometimes the list can be empty, that is, there can be no elements in the list. In this case, lst = NULL. Now let's consider a program for creating a linear singly linked list. To do this, we need to create a non-standard type that is created by the user. There are several ways to do this, either with classes or structures. For example,[6]

```
class Node{
public:// Allow external access to class data
      int info;   // informatsion area
      Node* next;// index area
};
```

Here we have created a class called Node and our list consists of integers. Now we can declare the elements of the list through this class, that is[7]

```
Node *lst = NULL;// index of the list
 Node *last = NULL;// index of the last element added to the list
```

Now we will create a list using these definitions.

```
Node * p = new Node;
int numb = -1;
          cout<<"enter the  number: ";
   cin>>numb;
   p->info = numb;
   p->next = NULL;
     if (lst == NULL) {
lst = p;
last = p;}
    else{  last->next = p;
          last = p; }
```

In this program, a new element is added at the end of the list.

Results and Discussions: Algorithms for performing operations on singly linked lists:

1. Inserting an element at the beginning of a linked list.



Picture 4. Single-link linear list structure.

a) At the beginning of the list in Picture 4, we place an element whose information field is the variable D. To do this, we need to perform the following steps: a) Create an empty element referenced by the pointer p (Picture 5).

Picture 5. Formation of a new element

b) Assign the value of the variable D to the information field of the created element (Picture 6).

Picture 6. Enter a value in the new element info field

c) Associate a new element with a list: p->ptr=lst; (in this case, the new element is valst– pointing to the beginning of the list)

d) Move the lst index to the beginning of the list (Picture 7). lst=p;

And finally:



Picture 7. Add an item to the beginning of a list

2. Delete an element from the beginning of a linked list.

We will delete the first element in the list, remembering the information in the info field (Picture 8).

Picture 8. Delete the item at the top of the list

To implement the above, the following steps must be taken:
a) insert a pointer p pointing to the element being deleted: p=lst;
b) store the info field of the element pointed to by the pointer p in some variable x: x=p->info;
c) move the pointer lst to the beginning of the new list: lst=p->ptr;
d) delete the element pointed to by the pointer p: delete(p);
As a result, we get the view in Picture 9.



Picture 9. Resulting view of the list

3. Add an item to the list.

In the given list, we insert an element with information area x after the element with index p (Picture 10).



Picture 10. Add a new item to the list

To implement the above, you need to perform the following steps:
a) Create an empty element with a pointer q: Node *q=new Node;
b) Insert x into the information field of the created element: q->info=x;
c) Associate the element q with the element following the element p.
q->ptr=p->ptr – assign the element pointer p to the created element pointer.
d) Associate the element q with the element p.
p->ptr=q – this operation means that the element following the element p will be the element referenced by the pointer q.
As a result, we will have the following image.



Picture 11. Result list view

4. Delete an item from a linked list.

We delete the element after the element pointed to by the index p in the list (Picture 12).



Picture 12. Delete an item from the middle of a list

To do this, you need to do the following:
a) Insert a pointer q pointing to the element being deleted.
q=p->ptr;
b) Link element p to the element following element q.
p->ptr=q->ptr;
c) Store the information in the info field of the element being deleted (if necessary)k=q->info;
d) Delete the element pointed to by q.
delete(q)
The resulting list will look like this:

Picture 13. Result list view

We will put the elements of the linear single-link list into a SWOT analysis.



Before using SWOT analysis during class, students are divided into small groups. Leaders and speakers are assigned to each group.[9]

Conclusion: Working with such structures has its own advantages and disadvantages. The

advantage is that there is no pre-set limit on the length of the structure. The disadvantage is that a pre-existing structure cannot be sorted with the sorting algorithms available for arrays.

References used

1. Adam Drozdek. Data structures and algorithms in C++. Fourth edition. 2013
2. Алгоритмы: построение и анализ. 3-е изд. / Т.Х.Кормен.Ч.И.Лейзерсон, Р.Л.Ривест, К.Штайн. – М.: Вильямс, 2013. – 1328 с.
3. Samandarova, S. M., & Jabborov, E. E. (2023, November). The priority of developing the intellectual potential of students in the conditions of informatization of education. In *International Scientific Research Conference* (Vol. 2, No. 17, pp. 85-87).
4. Mirjamilovna, S. S., Farxodovna, A. N., & Farxodovna, M. D. (2024). application of bubble sorting algorithm in swot analysis. *formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences*, *3*(26), 192-196.
5. Farxodovna, A. N., Mirjamilovna, S. S., & Farxodovna, M. D. (2023). Yechimni avto-testlovchi tizimlardagi asosiy terminlar. reytinglash jarayoning matematik modeli. *O'zbekistonda Fanlararo Innovatsiyalar Va Ilmiy Tadqiqotlar Jurnali*, *2*(24), 151-155.
6. Harry Hariom Choudhary, Bjarne M Stroustrup. C++ Programming Professional: Sixth Best Selling Edition for Beginner's & Expert's 2014.
7. Ergashev A.Q., Akbaraliyev B.B., Yusupova Z.Dj. Ma'lumotlar tuzilmasi va algoritmlar Toshkent "Metodist nashriyoti" 2024
8. М.Самандарова, А.З. Каримова "Биосигналларга лагранж Интерполяциялаш усули асосида ишлов бериш алгоритми" Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qarshi filiali. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning jamiyatdagi o'rni mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalar to'plami. 2023-yil 4-5-may
9. Shodmonova M. Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalari. Monografiya Toshkent: Nodirabegim. 2021 ISBN 978-9943-7314-3-1
10. Вирт Н. Алгоритмы и структуры данных. - М., ДМК, 2010. – 272 с.

BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH KASBIY IDENTIFIKATSIYANING NAMOYON BO'LISH OMILI SIFATIDA

Abdusamiyev Dilmurod Abdug'ani o'g'li
Turan International University dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
abdusamiyev1993@bk.ru
ORCID 0009-0000-0934-5783

UDK 373.3

Annotatsiya. Pedagogik qobiliyatlar o'qituvchining kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishining muhim determinantlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasi va pedagogik qobiliyatlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Kasbiy identifikatsiya jarayoni o'qituvchining shaxsiy va professional o'zligini anglashiga, o'z pedagogik faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Maqolada pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishning innovatsion metod va texnologiyalari, jumladan, refleksiv amaliyot, o'z-o'zini baholash, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim yondashuvlari tahlil qilinadi. Ushbu usullar o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, kasbiy mahoratini mustahkamlash va pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuvini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maqolada pedagogik qobiliyatlarning rivojlanish dinamikasi, kasbiy identifikatsiya jarayonining individual va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi hamda ularning ta'lim sifati va o'qituvchining shaxsiy kasbiy o'sishiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'qituvchilari, kasbiy identifikatsiya, pedagogik qobiliyatlar, innovatsion texnologiyalar, refleksiv ko'nikmalar, o'z-o'zini baholash, ta'lim sifati, kasbiy rivojlanish.

DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL SKILLS IN PRIMARY SCHOOL TEACHERS AS A FACTOR OF REPRESENTATION OF PROFESSIONAL IDENTITY

Abstract. Pedagogical abilities are one of the key determinants of a teacher's success in professional activities. This article provides a scientific-theoretical analysis of the intrinsic relationship between the professional identity and pedagogical abilities of primary school teachers. The process of professional identification helps teachers to develop self-awareness regarding their personal and professional identity, thereby enhancing the effectiveness of their pedagogical activities. The article examines innovative methods and technologies for developing pedagogical abilities, including reflective practices, self-assessment, and

modern educational approaches aimed at shaping professional competencies. These methods play a crucial role in improving teachers' methodological preparedness, strengthening their professional skills, and fostering a creative approach to teaching. Additionally, the article scientifically substantiates the dynamics of the development of pedagogical abilities, the relationship between the professional identification process and individual and social factors, and their impact on the quality of education and the teacher's professional growth. The research findings offer important scientific and practical recommendations for enhancing the effectiveness of pedagogical activities.

Keywords: primary school teachers, professional identification, pedagogical abilities, innovative technologies, reflective skills, self-assessment, quality of education, professional development.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimini isloh qilish va ta'lim sifatini oshirish masalasi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Boshlang'ich ta'lim bosqichi ta'lim jarayonining poydevori hisoblanib, ushbu bosqichda o'qituvchining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatlari nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi, balki o'quvchilarning intellektual, axloqiy va ijodiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur holatni bevosita kuzatib, chuqur tahlil qilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2019-yil 23-avgustda xalq ta'limi, oliy ta'lim xodimlari bilan bo'lgan muloqotda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritib, "… bugungi kunda ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning obro'sini ko'tarish, shu bilan bir qatorda bugun o'qituvchilarning o'zlari ham ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha ijodiy yondashishi lozim"[1], - degan bir qator fikrlarni bildirib o'tdi.

Pedagogik qobiliyatlar o'qituvchining kasbiy identifikatsiyasining muhim tarkibiy qismidir. Kasbiy identifikatsiya o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatiga nisbatan mas'uliyatni his qilishi, o'z shaxsiy va professional o'sish imkoniyatlarini anglash hamda ularni hayotga tatbiq etish jarayonini ifodalaydi. Shu boisdan, pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish nafaqat o'qituvchining samarali faoliyat yuritishi, balki uning kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlash uchun ham muhim omil hisoblanadi.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish kasbiy identifikatsiyaning namoyon bo'lish omili sifatida ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan metodlar, texnologiyalar va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish va kasbiy identifikatsiya jarayonlarini o'rganish bo'yicha qator yondashuvlarni ochib beradi. Quyida mavzuga oid muhim manbalar va ular asosida keltirilgan tahlillar jamlangan.

2. Ta’lim jarayoniga sun’iy intellekt va onlayn baholash platformalarini bosqichma-bosqich joriy etish.
3. Ish beruvchilar bilan integratsiyalashgan o‘quv-amaliy dasturlar ishlab chiqish.
4. O‘qituvchilar uchun zamonaviy menejment va pedagogik innovatsiyalar bo‘yicha malaka oshirish tizimini yaratish.

Hozirgi paytda kasbiy faoliyatga tayyorlashni boshqarish tizimini modellashtirish (OTMda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni baholash tizimi) antroposentrizm tamoyiliga asoslangan zamonaviy ta’lim jarayonining ko’pqirraliligi va o’zgaruvchanligini hisobga oladigan metodologik izlanishlar bilan ajralib turadi. Bu yondashuv, individual xususiyatlar sintezidan hosil bo’lgan yaxlit va integral sifatni ta’minlaydigan o’quv jarayonidagi ta’limiy omillarni o’z ichiga oladi. Ta’lim tizimining xulq-atvori doimiy o’zgarib turishi sababli, uning sifatli xususiyatlari o’zgarishi ham tabiiy bo’lib, bu sifatni universal kategoriyaga aylantiradi. Bu esa mavjud paradigmaviy va aniq-fanlar bilimlarini yagona yaxlit tizimga integratsiya qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, ta’lim jarayonining o’zgaruvchan va ko’p qirrali xususiyatlarini hisobga olib, sifatni boshqarish va baholashda yagona tizimiy yondashuvga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sifat — bu faoliyat va rivojlanishning integral xususiyati bo’lib, yagona matritsani tashkil etuvchi ta’lim omillarining ko’pligini aks ettiradi. Shunday qilib, integratsiya institutsional darajadagi sifat boshqaruvi tizimini modellashtirishning metodologik asosi sifatida qaraladi. Integrativlik sinergetik darajada namoyon bo’lib, sifat tizimini rivojlanishga va o’z-o’zini rivojlantirishga qodir bo’lgan nolinear tuzilma sifatida shakllantirishga imkon beradi.

Boshqaruv nazariyasi va amaliyotida ishlab chiqilgan yondashuvlar birinchi blokning quyi tizimini tashkil qiladi va ma’lum bir ta’lim omilining sifatini ijobiy tomonga o’zgartirishga qaratilgan aniq vazifalarni hal etish uchun ishlatiladi.

OTMda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni strategik boshqarish tizimining ikkinchi bloki umumilmiy, amaliy yo’naltirilgan, taktik, aniq-ilmiy va omil darajalarida nazariy-metodologik asoslar bilan ifodalanadi. Zamonaviy madaniy-ta’limiy sharoitda ushbu darajalar tizimli, sinergetik, kvalimetrik, shaxsga yo’naltirilgan, shaxsiy-faoliyatga yo’naltirilgan, dialogik (ko’p subyektli), madaniy, antropologik va omil yondashuvlari orqali namoyon bo’ladi. Ushbu yondashuvlar va darajalar o’zaro bog’liqligi shartli bo’lib, ular ideal model sifatida ifodalanadi.

Keltirilgan yondashuvlar ro’yxati madaniy-tarixiy vaqt omili bilan bog’liq bo’lib, ular vaqt o’tishi bilan o’zgarishi yoki to’ldirilishi mumkin.

1-rasmda keltirilgan omillarning integratsiyasi vaqt, madaniy-tarixiy vaqt vektorini aks ettiradigan va subyekt, ya’ni talabaning ta’lim bosqichlari (kurslari) bilan bog’liq. Bu jarayonda miqdoriy o’lchanadigan omillar sifatning intensivligi qiymatlariga mos keluvchi sifatli analoglariga o’tkaziladi, natijada har qanday xususiyatlarni yagona asosga – sifatga aylantirish mexanizmi yaratiladi.

Bu yondashuv orqali ta’lim muassasasida sifat boshqaruvi tizimini shakllantirishda turli darajadagi va xususiyatdagi omillarni yagona yaxlit tizimga integratsiya qilish, ta’lim jarayonining rivojlanishi va o’zgarishi jarayonida sifatli yondashuvlarni ishlab chiqish mumkin bo’ladi.



1-rasm. OTMda talabalarni kasbiy faoliyaatga tayyorlashning nazariy modeli

Miqdoriy va sifatiy (shu jumladan, jarayonli) ko’rsatkichlarni hisobga oladigan matritsa o’rganilayotgan hodisaning dekonstruksiyasi va keyingi hermenevtik talqini uchun vosita bo’lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni milliy va global mehnat bozorining o‘zgaruvchan talablari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab muammolarni hal etishni talab qiladi. Ushbu muammolarni samarali hal qilish uchun strategik boshqaruvning integrativ tizimiga asoslangan yondashuvni joriy etish zarur. Mazkur maqolada ishlab chiqilgan integrativ tizim modeli boshqaruv, ta’lim, ilmiy, moliyaviy, ijtimoiy, xo‘jalik va axborot-texnologik tizimlarning o‘zaro bog‘liqligini va ularning umumiy strategik maqsadga yo‘naltirilganligini ko‘zda tutadi.

Integrativ tizim modeli zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslanganligi bois, u ta’lim jarayonini avtomatlashtirish va axborot oqimlarini samarali boshqarishni ta’minlaydi. Shuningdek, tizimning ijtimoiy jihatlari talabalar va professor-o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy dasturlar orqali ta’lim muhitini yanada yaxshilaydi. Moliyaviy va xo‘jalik tizimlari esa resurslarni samarali boshqarish va moddiy-texnik bazani mustahkamlashni ta’minlaydi.

Mazkur modelning samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish muhim:

1. Oliy ta’lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish.
2. Innovatsion va interfaol ta’lim metodlarini keng joriy etish.
3. Ta’lim jarayonida sifatni boshqarishning yagona standartlarini ishlab chiqish.

Integrativ yondashuv orqali talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatlari, ijodkorligi va kasbiy kompetentsiyalari rivojlantiriladi. Bunday tizim nafaqat ta’lim sifatini, balki mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan kadrlar tayyorlash jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Shunday qilib, OTMlar uchun bunday modelni tatbiq qilish zamonaviy ta’limning strategik maqsadlariga erishishda muhim rol o‘ynaydi va yana shuni ham aytish mumkinki, strategik boshqaruvning integrativ modeli talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ta’lim sifatini rivojlantirish va oliy ta’limning raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiluvchi istiqbolli yondashuvdir. Tadqiqot va tajriba natijalari modelning amaliyotga tatbiq etilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жўраев Х.А. Таълим менежментида стратегик бошқарувнинг асослари. – Тошкент: Илм Зиё, 2020. – 224 б.
2. Алимов С., Раҳимова Н. Касбий тайёргарлик тизимида интегратив ёндашувлар. – Самарқанд: Зарафшон, 2019. – 180 б.
3. Kotter J. Leading Change. – Boston: Harvard Business Review Press, 2012. – 194 p.

4. Ҳасанова М.Н. Инновацион бошқарувнинг назарий асослари. – Тошкент: Фан ва Технология, 2021. – 210 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.// Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017. Б.39.
6. Покасов В.Ф. Управление качеством образования современной школы (методические материалы) // автор-состав. – Ставрополь. 2012. – 145 с.
7. Гомулина Н.Н. Применение новых информационных и телекоммуникационных технологий в школьном физическом и астрономическом образованиии: Дисс. канд. пед. наук: 13.00.02. – М.: МГПУ, 2003.-332 с. РГБ ОД, 61:03-13/1698-6.
8. Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», - Тошкент. 2010, №1, -54-57 б.
9. Шоштаева Е.Б. Интегральная технология обучения как основа повышения качества образовательного процесса: автореф. дис. канд. пед. наук. //Е.Б. Шоштаева. – Карачаевск: 2003. – С. 23.
10. Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», - Тошкент. 2010.
11. Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, Scientific Bulletin of Namangan State University: 2019.

ADABIYOTNI TARIX FANI BILAN GORIZONTAL, VERTIKAL BOG‘LAB O‘QITISHDA O‘QUVCHI BADIIY TAFAKKURINI RIVOJLATIRISH SHAKL, METOD VA VOSITALARI

Toshpulatov Akmal Xolmirzayevich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi
akmaljon767626@gmail.com
ORCID 0009-0003-5855-6052
UDK 371.3:82:930

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyot fanini ijtimoiy fanlar bilan gorizontal va vertikal tarzda integratsiyalash orqali o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish masalasi tahlil etiladi. Muallif fanlararo aloqadorlikni o‘quv materiallarini ongli o‘zlashtirish, hodisa va jarayonlarni tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini tushunishda muhim vosita sifatida talqin qiladi. Xususan, tarix, geografiya kabi ijtimoiy fanlar bilan adabiyot fanining mavzularini bog‘lash orqali bilimlarni mustahkamlash, o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirish mumkinligi ta’kidlanadi. Shuningdek, vertikal bog‘lanish orqali sinflararo uzviylikka erishish, gorizontal bog‘lanish orqali esa bir davr yoki hodisa haqidagi bilimlarni turli fanlar kesimida tahlil qilish imkoniyati yoritiladi. Maqolada o‘quv dasturlari, darsliklar, didaktik materiallar va zamonaviy metodik yondashuvlar orqali integratsiyalashgan ta’limning samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatiladi. Shuningdek, chet el tajribasiga tayanilgan holda, integratsiyalashgan fanlar yordamida o‘quvchilarda tabiat va jamiyat haqidagi umumiy dunyoqarashni shakllantirishga alohida urg‘u beriladi. Fanlararo yondashuv natijasida o‘quvchilarda mustahkam kompetensiyalar, insonparvarlik qarashlari va yangicha badiiy tafakkur shakllanishi mumkinligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: o‘qitish, jarayon, bilish, o‘zlashtirish, boshqarish, faoliyat, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, shakl, metod, vosita, tizim, maqsad, vazifa, nazariya, g‘oya, tushuncha, mashq, bayon, tafakkur, muammo.

FORMS, METHODS, AND MEANS OF DEVELOPING STUDENTS' LITERARY THINKING THROUGH HORIZONTAL AND VERTICAL INTEGRATION OF LITERATURE WITH THE SUBJECT OF HISTORY.

Annotation. This article analyzes the issue of developing students' artistic thinking through horizontal and vertical integration of the subject of literature with social sciences. The author interprets interdisciplinary connections as an important tool for the conscious assimilation of educational material, the analysis of phenomena and processes, and the understanding of cause-and-effect relationships. In particular, it is emphasized that linking the topics of literature with social sciences such as history and geography can help reinforce knowledge and enhance students’ independent and creative thinking abilities. The article also highlights the potential of achieving continuity between grade levels through vertical integration, and the opportunity to analyze knowledge about a specific period or event from different subject perspectives through horizontal integration. It outlines ways to improve the effectiveness of integrated education through curricula, textbooks, didactic materials, and modern methodological approaches. Furthermore, drawing on foreign experience, special attention is given to the formation of a holistic worldview about nature and society among students through integrated subjects. It is substantiated that as a result of an interdisciplinary approach, students can develop solid competencies, humanistic views, and a new type of artistic thinking.

Key words: teaching, process, cognition, mastery, management, activity, knowledge, skill, competence, form, method, tool, system, goal, task, theory, idea, concept, exercise, statement, thinking, problem.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — fanni o‘qitish jarayonida o‘quvchining mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, turli fanlar kesimida bilimlarini uyg‘unlashtira olishi, borliq hodisalarini tizimli, chuqur va tanqidiy idrok etishga layoqatli shaxs sifatida shakllanishini ta’minlashdan iboratdir. Bu jarayonda ayniqsa fanlararo integratsiyaning o‘rni beqiyosdir. O‘quv fanlarini gorizontal va vertikal yo‘nalishda o‘zaro bog‘lab o‘qitish orqali o‘quvchilar tafakkurini chuqurlashtirish, ularning bilish faoliyatini faollashtirish, yangi bilimlarni mavjud tushunchalar asosida idrok etish va ularni hayotiy voqelik bilan bog‘lay olish salohiyatini rivojlantirishga erishiladi. Ayniqsa, adabiyot fani kabi estetik, axloqiy va ma’naviy tarbiya berish imkoniyatiga ega bo‘lgan fandan samarali foydalanish, uni boshqa ijtimoiy fanlar, xususan tarix fani bilan uyg‘unlashtirish orqali ta’lim mazmunini boyitish mumkin. Adabiyot va tarix fanlari tabiatan o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu bog‘liqlik ularning integratsiyalashgan holda o‘qitilishini taqozo etadi. Chunki tarixiy voqelikni anglash adabiy obrazlar va badiiy tasvirlar orqali yanada jonli, ta’sirchan va tushunarli bo‘lishi mumkin. Shu bois o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirishda adabiyot va tarix fanlarini gorizontal hamda vertikal yo‘nalishda integratsiyalash zarurati kundan-kunga dolzarb tus olmoqda.

Gorizontal integratsiya deganda, adabiyot darsida tarix, geografiya, falsafa kabi boshqa fanlar bilan tematik bog‘liqlik asosida uyg‘unlashtirilgan ta’lim tushuniladi. Masalan, tarix fanida o‘rganilgan Amir Temur shaxsi haqida adabiyotda Abdualla Oripovning “Sohibqiron” dostoni orqali tasavvur yanada badiiy va hissiy jihatdan boyitiladi. Yoki Jaloliddin Manguberdi haqidagi tarixiy ma’lumotlar adabiyot fanidagi Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasi bilan uyg‘unlashtirilsa, o‘quvchilar tarixiy shaxslarni nafaqat rasmiy faktlar asosida, balki badiiy obrazlar vositasida anglab yetadi. Vertikal integratsiya esa turli sinf bosqichlarida o‘rganilgan fanlar o‘rtasidagi izchillik va uzviylikni anglatadi. Misol uchun, 6-sinf tarix darsligida “To‘maris” haqidagi mavzu 7-sinf adabiyotidagi “Mardlik afsonasi” bilan bog‘lab o‘qitilishi mumkin. Bu kabi bog‘lanishlar o‘quvchining oldingi sinflarda olgan bilimlari asosida yangi bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirishiga yordam beradi. Bugungi kunda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda innovatsion metodikalar, interaktiv usullar, axborot texnologiyalarining o‘rni oshib borayotgan bir paytda, fanlararo aloqadorlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, dars mazmunini chuqur integratsiyalashgan holda shakllantirish pedagogik zaruratga aylanmoqda. Chunki o‘quvchining badiiy tafakkuri faqatgina adabiyot namunalarini o‘qish bilan emas, balki tarixiy kontekstda, hayotiy voqeliklar bilan solishtirish orqali, muayyan davr sharoitida obrazlarning tutgan o‘rni va ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarni tahlil qilish orqali shakllanadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasida ham integratsiyalashgan ta’lim modellari keng qo‘llanilib, ayni bir voqea yoki hodisani bir necha fanlar nuqtayi nazaridan o‘rganish orqali o‘quvchida keng qamrovli, tizimli tafakkurni rivojlantirishga urg‘u beriladi. Shu bois, adabiyot fanini tarix bilan integratsiyalash – nafaqat mazkur fanlar mazmunini boyitadi, balki o‘quvchining estetik didi, tarixiy tafakkuri, madaniy saviyasi va ijtimoiy ongini uyg‘otishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. O‘quvchilar badiiy tafakkurini rivojlantirish va fanlararo integratsiyalashgan ta’limni tashkil etishning nazariy-metodik asoslari bugungi kunda ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan atroflicha o‘rganilmoqda. Jumladan, D.A. Mustafoeva kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini o‘rganib, o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatida integratsiyalashgan yondashuvning ahamiyatini tahlil qilgan. Muallifning fikricha, o‘quv jarayonida turli fanlar mazmunini uyg‘unlashtirish nafaqat bilimlarni ongli o‘zlashtirishga, balki kasbiy mahorat va reflektiv qobiliyatning shakllanishiga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, N.A. Muslimov o‘z tadqiqotlarida kasb ta’limi o‘qituvchisini shakllantirishning nazariy-metodik asoslarini yoritgan bo‘lib, unda integratsiyaga tayanuvchi o‘quv texnologiyalarini qo‘llash zarurligi ta’kidlanadi. U pedagogning kasbiy faoliyatida tahliliy, konstruktiv va kommunikativ ko‘nikmalar rivojlanishini ta’minlash uchun fanlararo bog‘liqlikni samarali yo‘lga qo‘yish muhimligini asoslaydi. J.E. Usarov tomonidan tayyorlangan ilmiy ishda kompetensiyalar asosida ta’lim mazmunini takomillashtirish tajribalari, xususan fizika fanini o‘qitish misolida tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotda turli fanlar kesimida bilimlarni chuqurlashtirish va ularga hayotiy mazmun berish orqali o‘quvchida puxta kompetensiyalar shakllantirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Mazkur yondashuvni adabiyot va tarix fanlarini integratsiyalash jarayonida ham

samarali tatbiq etish mumkin. M.A. Eshmirzaeva esa talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning roli va imkoniyatlarini tadqiq qilgan. Muallif kompetensiyaga asoslangan o‘qitish modelida integratsiya usullarini faol joriy etish nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki ta’limning tarbiyaviy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qilishini ilmiy asoslab beradi.

Xorijiy manbalarda ham fanlararo aloqadorlik va integratsiya masalalari keng o‘rganilgan. Jumladan, J.Bruner, J.Piaje, L.Vigotskiy kabi yirik pedagog-psixologlar o‘z asarlarida bilimlarni bolalarning amaliy faoliyati bilan bog‘lash, turli predmetlar o‘rtasida bog‘liqliklarni ochib berish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirishni ta’limning muhim vazifasi sifatida ko‘rsatganlar. Ularning asarlarida integratsiyalashgan yondashuv shaxsning kognitiv rivojlanishini jadallashtiruvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida talqin etiladi. O‘zbekistonda o‘quv fanlarini integratsiyalashgan holda o‘qitish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ko‘proq amaliy jihatlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning asosiy diqqat markazi sifatida o‘quvchilarning umumiy dunyoqarashini shakllantirish, mustaqil fikrlash va axborotni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish vazifasi turadi. Shu jihatdan, maqolada keltirilgan ilmiy manbalar mazmuni adabiyot va tarix fanlari kesimida integratsiyalashgan o‘qitish metodlarining nazariy asoslarini belgilashga xizmat qiladi. Tahlil qilingan adabiyotlar mazmunidan ko‘rinadiki, fanlararo aloqadorlikni shakllantirishning samaradorligi o‘qituvchining puxta tayyorgarligiga, integratsiya mazmunini ongli ravishda tanlab qo‘llashga va zamonaviy metodlardan foydalanishga bog‘liq. Shu sabab, maqola doirasida qo‘llanilgan adabiyotlar o‘quvchilarda badiiy tafakkur, kompetensiya va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan integratsiyalashgan ta’lim mazmunini ilmiy asoslash uchun muhim nazariy va amaliy manbalar sifatida e’tirof etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda adabiyot fanini tarix kabi ijtimoiy fanlar bilan gorizontal va vertikal yo‘nalishda integratsiyalash orqali o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shakl, metod va vositalarni aniqlash va ularning samaradorligini tahlil qilish asosiy maqsad qilib olindi. Shu bois, tadqiqotning metodologik asoslari zamonaviy pedagogika, metodika, didaktika va ta’lim psixologiyasi nazariyalariga tayandi. Tadqiqotda nazariy va amaliy tadqiqot usullari birgalikda qo‘llanildi. Nazariy jihatdan, mavzu bo‘yicha ilgari olib borilgan ilmiy izlanishlar, monografiyalar, dissertatsiyalar, maqolalar, o‘quv dasturlari va normativ hujjatlar tahlil qilindi. Bu orqali fanlararo integratsiyaga oid nazariy yondashuvlar, badiiy tafakkur tushunchasining shakllanish bosqichlari, integratsiyalashgan o‘quv faoliyatining afzalliklari aniqlashtirildi. Shu bilan birga, milliy va xorijiy tajribalar solishtirildi. Tadqiqotning amaliy qismida esa pedagogik kuzatuv**,** suhbat**,** so‘rovnoma**,** tahliliy tarmoq jadvali**,** dars tahlili kabi empirik metodlar qo‘llanildi. Jumladan, umumta’lim maktablarining 7–9-sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘quv darslari jarayoni kuzatilib, adabiyot va tarix fanlarining birgalikdagi o‘qitilishi orqali o‘quvchilarning tahliliy fikrlash, obrazlarni tarixiy kontekstda anglash, mustaqil xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalari baholandi. Shu asosda o‘quvchilarning badiiy tafakkur darajasini belgilash uchun maxsus mezonlar ishlab chiqildi.

Tadqiqotda taqqoslash**,** tizimlashtirish**,** mantiqiy tahlil**,** deduksiya va induksiya**,** modellashtirish metodlaridan ham foydalanildi. Xususan, turli sinflar kesimida o‘quv dasturlaridagi adabiy va tarixiy mavzular o‘zaro bog‘lanib o‘rganildi. Masalan, 7-sinf adabiyotidagi “Mardlik afsonasi” mavzusi bilan 6-sinf tarixidagi “To‘maris” mavzusi orasidagi integratsiya darajasi, obrazlarning tarixiy-falsafiy talqini, ularning o‘quvchi dunyoqarashiga ta’siri aniqlashtirildi. Shuningdek, tadqiqotda eksperimental metod elementlari ham qo‘llanildi. Darslarda integratsiyalashgan yondashuv asosida tayyorlangan dars ishlanmalari tatbiq etilib, ularning samaradorligi baholandi. O‘quvchilarning darsdan oldingi va keyingi bilim, ko‘nikma va tafakkur darajalari o‘rganildi, tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar statistik jihatdan solishtirildi. Tadqiqot metodologiyasining muhim jihatlaridan biri – kompleks yondashuv tamoyiliga amal qilinganidir. Bu yondashuv asosida adabiyot va tarix fanlari o‘rtasidagi mazmuniy, g‘oyaviy, metodik va estetik jihatlar bir butun pedagogik tizimda o‘rganildi. Natijada, o‘quvchilarda adabiy obrazlar orqali tarixiy tafakkur, tarixiy shaxslar orqali esa badiiy-estetik did shakllanishi kuzatildi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda deskriptiv (tasviriy) va analitik (tahliliy) uslublar uyg‘unlashtirilib, asosiy xulosalar, taklif va tavsiyalar tizimlashtirildi. Tadqiqot metodologiyasi o‘laroq qo‘llanilgan bu usullar maqolada ilgari surilgan g‘oyalarning nazariy asoslanganligini va amaliy jihatdan asosli ekanini ta’minlaydi.

Natijalar va muhokama. Mazkur tadqiqot doirasida adabiyot fanini tarix fani bilan gorizontal va vertikal yo‘nalishda integratsiyalash orqali o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari chuqur tahlil qilindi. O‘rganilgan tajriba va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, integratsiyalashgan yondashuv nafaqat adabiy-estetik tarbiya sifatini oshiradi, balki tarixiy tafakkurni mustahkamlaydi, o‘quvchilarni turli davr va shaxslarni mukammal idrok etishga yo‘naltiradi. Tadqiqot davomida umumta’lim maktablarining 7–9-sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, integratsiyalashgan darslar o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirgan. Jumladan, tajriba guruhidagi o‘quvchilarning 87 foizi badiiy asarlarda ifodalangan tarixiy obrazlar va voqealarni yanada mazmunli tushunishganini bildirgan. Bu natijalar tahlil qilingan ilmiy manbalar va xorijiy pedagogik tajribalarga hamohang bo‘lib, fanlararo integratsiya metodikasi ta’lim samaradorligini oshirishi ilmiy asoslanganligini ko‘rsatadi.

Birinchidan, gorizontal integratsiya imkoniyatlari alohida e’tiborga loyiq. Masalan, adabiyot darslarida tarixiy voqealar va obrazlarni o‘rganish jarayonida turli ijtimoiy fanlar kesimidagi bilimlar uyg‘unlashtiriladi. Shu orqali o‘quvchilar voqea va jarayonlarni har tomonlama, kompleks yondashuv bilan tahlil qilishga o‘rganadilar. Bu holat ularning bilish faoliyatida izchillik va tizimlilikni mustahkamlaydi. Tadqiqotda kuzatilganidek, gorizontal integratsiya asosida tuzilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilgan. Masalan, 7-sinf adabiyotidagi “Mardlik afsonasi” asarini tarixdagi To‘maris qahramonligi bilan bog‘lab o‘rganish, nafaqat tarixiy bilimlarni esga soladi, balki obrazli tafakkurni boyitadi.

Ikkinchidan, vertikal integratsiya orqali turli sinflarda o‘rganilgan bilimlarni izchil takrorlash va yangilashga erishiladi. Tadqiqot davomida aniqlanganki, adabiyot fanidagi tarixiy syujetlarni yuqori sinflarda qayta ishlash o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi. Masalan, Amir Temur obrazini 6-sinf tarix darslaridan boshlab, 9-sinf adabiyotdagi “Sohibqiron” dostoni orqali mukammal tasvirlash, tarixiy fakt va badiiy ifodaning uyg‘unligini tushuntirish imkonini yaratadi. O‘quvchilar bu jarayonda asar qahramonini faqat obraz emas, balki tarixiy shaxs sifatida idrok qiladilar. Bu esa milliy o‘zlik va tarixiy xotira shakllanishiga ijobiy ta’sir qiladi.

Uchinchidan, fanlararo integratsiyaning psixologik va tarbiyaviy samaradorligi ham tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, integratsiyalashgan darslarda qatnashgan o‘quvchilarning 78 foizi estetik didining oshgani, obrazlarni o‘zaro solishtirish ko‘nikmasi shakllanganini bildirgan. Shu bilan birga, ularning tarixga bo‘lgan qiziqishi ham sezilarli darajada ortgan. Bu jarayon, ayniqsa, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari bilan uyg‘unlashgan holda faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv natijasini bergan. Shu munosabat bilan X.A. Jo‘rayevning ta’kidini eslash o‘rinli: “Ta’lim menejmentida strategik boshqaruvning eng muhim vazifalaridan biri – o‘quvchilarni shaxsiy qobiliyatlari va qiziqishlariga tayangan holda faol ta’limga jalb qilish va ular o‘rtasida hamkorlik muhitini shakllantirishdir”[1.224].

To‘rtinchidan, o‘quvchilarning mustaqil tafakkuri va tahliliy yondashuvi rivojlanishi ham kuzatildi. Tajriba guruhida o‘tkazilgan testlar va suhbatlar natijasida, dars jarayonida tarixiy asarlar mazmunini adabiy asar obrazlari bilan taqqoslash, xulosalar chiqarish va dalillash ko‘nikmasi ancha kuchaygani aniqlandi. Bu yondashuvning ahamiyatini N.A. Muslimov ham o‘z izlanishlarida qayd etgan: “Fanlararo integratsiya jarayoni – o‘quvchida mustaqil izlanish, qiyosiy tahlil va individual fikr shakllantirishning qudratli vositasidir” [2.280].

Beshinchidan, pedagogning tayyorgarligi va metodik malakasi integratsiyalashgan darslarning sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy omil ekanligi aniqlangan. Tadqiqot davomida kuzatilganidek, o‘quvchilarda yangi bilimlarni shakllantirish, ularni motivatsiyalash va faollashtirish ko‘proq o‘qituvchining kasbiy salohiyatiga bog‘liq. Shuning uchun integratsiya asosida dars ishlanmalarini tuzish, qo‘shimcha materiallar tayyorlash, vizual va interaktiv vositalardan foydalanish talab etiladi. Bu jihatlarni Mustafoeva ham alohida ta’kidlaydi: “O‘qituvchi o‘zining metodik mahorati bilan o‘quvchilar tafakkurida chuqur ta’sir izlarini qoldiradi” [3.190]

Oltinchidan, adabiyot va tarix fanlarini integratsiyalashgan o‘qitish metodikasi umumiy ta’limning zamonaviy konsepsiyasi – kompetensiya yondashuviga to‘laqonli mos keladi. Chunki bu yondashuvda faqat bilim emas, balki turli ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar shakllanishi ko‘zda tutiladi. Xususan, o‘quvchilar tarixiy obrazlarni adabiy talqin qilish, ularni hozirgi davr

qadriyatlari bilan bog‘lash, estetik baholash kabi murakkab faoliyat turlarini bajara olishi kerak. Shu sababli, integratsiya amaliyoti bilimlarni “tayyor holda berish” emas, balki ularni o‘quvchining o‘z faoliyatida yaratish va kashf etish imkoniyatini beradi. Bu fikrni M.A. Eshmirzaeva quyidagicha izohlaydi: “Zamonaviy ta’limda kompetensiyalarni rivojlantirishning eng muhim sharti – o‘quv jarayonida fanlararo integratsiya va faoliyatga yo‘naltirilgan metodlarni uyg‘unlashtirishdir” [4.210].

Yettinchidan, xorijiy tajribalar bilan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda (Germaniya, Fransiya, Yaponiya) adabiyot va tarix integratsiyasi nafaqat metodik usul, balki pedagogik strategiya sifatida qaraladi. Xususan, ular dasturlarda badiiy asarlarni tarixiy kontekstda o‘rganish, o‘quvchilarni amaliy izlanishga jalb qilish va loyihalash faoliyati orqali faol ta’limni amalga oshirishga katta e’tibor qaratishadi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda olingan natijalar milliy ta’lim sifatini oshirish uchun muhim asos sifatida xizmat qiladi.

Sakkizinchidan, o‘quvchilar fikrlashini tahlil qilish jarayonida shuni kuzatish mumkin bo‘ldiki, tarixiy faktlar bilan bevosita bog‘langan badiiy asarlar ularning ongida obrazli va daliliy bilimlar uyg‘unlashuvini yuzaga keltiradi. Masalan, Jaloliddin Manguberdi obrazini tarixiy darslar va Maqsud Shayxzodaning dramasi orqali birgalikda o‘rganish, nafaqat tarixiy hodisani tushuntiradi, balki milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini mustahkamlaydi. Shu bois, bunday yondashuv ma’naviy tarbiyaning ham kuchli vositasi hisoblanadi.

To‘qqizinchidan, o‘quvchilarning motivatsiyasi va ishtiroki yuqori bo‘lgan sinflarda dars samaradorligi ham oshgan. Masalan, 8-sinfda o‘tkazilgan kuzatuv darslarida gorizontal integratsiya asosidagi faol metodlar (Venn diagrammasi, B/B/B jadvali, Insert texnologiyasi) orqali o‘quvchilarning 85 foizi mavzuni chuqur o‘zlashtirganini bildirdi. Bu holat integratsiyalashgan metodikalar innovatsion pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismi ekanini isbotlaydi. Shu bois Y.E. Usarovning quyidagi fikri bejiz emas: “Ta’limda integratsiyalashgan yondashuv – mazmunni kontekstda anglash va o‘zlashtirishning samarali mexanizmidir” [5.230].

O‘ninchidan, tadqiqotda shakllangan tajriba asosida adabiyot va tarix fanlarini integratsiyalashgan o‘qitishning quyidagi ustunliklari aniqlab chiqildi:

- Bilimlarni izchil takrorlash va mustahkamlash imkoniyati.
- O‘quvchida tarixiy va badiiy tafakkurning uyg‘un rivojlanishi.
- Shaxsning milliy o‘zlik va estetik didini shakllantirish.
- O‘quv faoliyatiga qiziqishni orttirish va o‘zini ifoda qilish imkonini berish.
- Kompetensiyalar va kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam berish.

Yuqoridagi natijalar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, adabiyot va tarixni gorizontal va vertikal yo‘nalishda integratsiyalashgan holda o‘qitish zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib, milliy ta’lim amaliyotida keng qo‘llashga loyiq samarali metodik yondashuvdir.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ilmiy tahlillar, amaliy kuzatuvlar va qiyosiy taqqoslashlar asosida adabiyot fanini tarix kabi ijtimoiy fanlar bilan gorizontal va vertikal yo‘nalishda integratsiyalashgan holda o‘qitishning nazariy va metodik asoslari hamda uning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni yaqqol namoyon bo‘ldi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, bu yondashuv o‘quvchilarda bilimlarni mustahkamlash, ularni tizimli o‘zlashtirish, tarixiy faktlar va badiiy obrazlar o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni tushunish, mustaqil va tanqidiy tafakkur yuritish qobiliyatini rivojlantirishda samarali pedagogik vositadir.

Integratsiyalashgan o‘qitish orqali o‘quvchilar faqat o‘quv materiallarini eslab qolish bilan cheklanmay, uni shaxsiy hayot tajribasi va dunyoqarashi bilan uyg‘unlashtirib anglay boshlaydi. Bunda ayniqsa gorizontal integratsiya – turli fanlarni bir davr, hodisa yoki shaxs asosida bog‘lab o‘rganish shakli – o‘quvchilarning motivatsiyasini sezilarli oshiradi. Masalan, tarix darslarida Amir Temur shaxsi bilan tanishgan o‘quvchi adabiyot darsida ushbu tarixiy shaxs obrazini badiiy talqinda ko‘rish orqali ma’naviy-estetik tushunchalarini ham rivojlantiradi. Vertikal integratsiya esa turli sinflarda o‘rganilgan bilimlar orasidagi izchillik va bosqichma-bosqich takrorlash orqali chuqur va puxta o‘zlashtirish imkonini yaratadi.

Tadqiqot davomida shakllantirilgan amaliy tajriba shuni isbotladiki, integratsiyalashgan yondashuv nafaqat bilim sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarning individual qiziqishlarini hisobga olish, ularni faol izlanishga undash, shaxsiy o‘zini namoyon qilish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ham qulay sharoit yaratadi. Shu bois, ushbu yondashuvni tatbiq etishda o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi, tayyorgarligi va ijodiy yondashuvi hal qiluvchi omil sifatida qaraladi. Bu

jarayonda zamonaviy metodlar – interaktiv texnologiyalar, loyihalash faoliyati, guruhli ishlash, vizual materiallar bilan ta’minlash – alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi asoslar va dalillar umumlashtirilganda, quyidagi asosiy xulosalar chiqarish mumkin:

- Adabiyot va tarix fanlarini gorizontal va vertikal yo‘nalishda bog‘lab o‘qitish badiiy tafakkur bilan tarixiy tafakkurni uyg‘un rivojlantirishga samarali xizmat qiladi.
- Integratsiyalashgan o‘qitish o‘quvchida bilimlarni tizimli va ongli ravishda idrok etish, ularni mustaqil taqqoslash va dalillash ko‘nikmalarini shakllantiradi.
- Bunday metodika milliy o‘zlik, estetik did, ijtimoiy mas’uliyat va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini mustahkamlashga yordam beradi.
- Fanlararo yondashuv zamonaviy kompetensiya yondashuvi talablariga mos keladi va o‘quvchilarda XXI asrga mos ko‘nikma va kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini yaratadi.
- Integratsiyalashgan darslar mazmunan boy, tarbiyaviy ahamiyatli va qiziqarli bo‘lishi uchun o‘qituvchi metodik jihatdan puxta tayyor bo‘lishi lozim.

Shu sababli, umumta’lim maktablarida adabiyot va tarix fanlarini birgalikda o‘qitishning samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy metodik tavsiyalar ishlab chiqish, pedagoglar tayyorgarligini tizimli yo‘lga qo‘yish va ushbu yondashuvni ta’lim jarayoniga muntazam tatbiq etish istiqbolli vazifa sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жўраев Х.А. Таълим менежментида стратегик бошқарувнинг асослари. – Тошкент: Илм Зиё, 2020. – 224 б.
2. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – 280 б.
3. Мустафоева Д.А. Ихтисослик фан ўқитувчиларининг касбий компетентлигини ривожлантириш. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2021. – 190 б.
4. Эшмирзаева М.А. Шахсга йўналтирилган таълим асосида талабаларнинг касбий компетентлигини шакллантириш. – Тошкент: Илм Зиё, 2020. – 210 б.
5. Усаров Ж.Э. Таянч ва фанга оид компетенциялар асосида таълим мазмунини такомиллаштириш. – Тошкент: Фан, 2020. – 230 б.
6. Тўхли Н.Қ. Педагогик инновациялар: назария ва амалиёт. – Тошкент: Илм Зиё, 2018. – 276 б.
7. Каримова М.М. Таълим жараёнида фанлараро алоқаларни ташкил этишнинг назарий асослари. – Тошкент: Фан, 2019. – 190 б.
8. Қурбонов Б.А. Ўқитишда замонавий педагогик технологиялар. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2021. – 240 б.
9. Саидов Н.Н. Ўқувчилар ижодий салоҳиятини ривожлантиришда фанлараро ёндашув. – Тошкент: Турон, 2017. – 185 б.
10. Abdullaeva S.M. Pedagogik integratsiya va ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 220 b.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA FIZIKA YO‘NALISHI TALABALARINI AMALIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA ILG‘OR MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

Mustafoyev Erkin
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
erkinmustafoyev4@gmail.com
ORCID 0009-0002-8201-888X
UDK 371,3:53 (045)

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida fizika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarda amaliy kompetentlikni shakllantirishga doir ilg‘or tajribalar chuqur tahlil qilinadi. Xususan, O‘zbekiston amaliyoti bilan bir qatorda AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarning tajribasi solishtirma tahlil asosida o‘rganiladi. Har bir mamlakatda qo‘llanilayotgan innovatsion pedagogik yondashuvlar, texnologiyalarning o‘quv jarayoniga integratsiyasi va kompetentlikka yo‘naltirilgan metodlar tahlil qilinib, ularning samarador jihatlari aniqlanadi. Mahalliy va xorijiy yondashuvlar o‘rtasida uzviylik asosida umumlashtirilgan integrativ o‘quv modeli taklif qilinadi, bu esa kelajakda fizika ta’limini modernizatsiya qilishda asos bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: amaliy kompetentlik, fizika ta’limi, tajriba laboratoriyalari, STEM, innovatsion yondashuvlar, ta’lim, integrativ o‘quv modeli, innovatsion pedagogik yondashuvlar

ANALYSIS OF ADVANCED NATIONAL AND INTERNATIONAL PRACTICES IN DEVELOPING THE PRACTICAL COMPETENCE OF PHYSICS STUDENTS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation. This article provides an in-depth analysis of advanced practices aimed at developing practical competence among physics students in higher education institutions. It compares the experience of Uzbekistan with that of leading countries such as the United States, Germany, South Korea, and Japan. The study explores the innovative pedagogical approaches employed in each context, the integration of technology into the learning process, and competency-based instructional strategies. By identifying the most effective elements of both domestic and international practices, the article proposes a unified integrative teaching model. This model is intended to serve as a foundation for the modernization of physics education and the development of competitive, skill-oriented graduates.

Keywords: practical competence, physics education, experimental laboratories, STEM, innovative approaches, education, integrative learning model, innovative pedagogical approaches

Kirish. Zamonaviy mehnat bozori shiddat bilan o‘zgarib borayotgan sharoitda oliy ta’lim tizimi faqat nazariy bilim emas, balki kuchli amaliy kompetentlig asosida shakllangan mutaxassislarni tayyorlashni talab etmoqda. Xususan, fizika fanining o‘ziga xosligi – modellar, tajribalar va amaliy kuzatuvlar orqali o‘rganish zarurati – bu ehtiyojni yanada kuchaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-apreldagi PQ–231-sonli qarorida ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bo‘yicha aniq vazifalar belgilangani bejiz emas. Bunda ayniqsa STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yondashuviga asoslangan ta’limni rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Ushbu qaror, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” doirasida [1.4], ta’lim sohasida quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

– ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash. Qarorda ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy o‘quv dasturlarini joriy etish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan. Bu, o‘quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni o‘z ichiga oladi.

– STEM yo‘nalishlarini rivojlantirish. Qarorda STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) yo‘nalishlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu, ushbu sohalarda o‘quv dasturlarini takomillashtirish, laboratoriya bazasini mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

– oliy ta’lim muassasalarining salohiyatini oshirish. Qaror, oliy ta’lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot salohiyatini oshirish, ularni xalqaro reytinglarga kiritish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilaydi [4.6]. Bu, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi.

– masofaviy ta’limni rivojlantirish. Qarorda masofaviy ta’limni rivojlantirish, onlayn o‘quv platformalarini yaratish va raqamli ta’lim resurslarini kengaytirish bo‘yicha vazifalar belgilangan. Bu, ta’limning qulayligi va qamrovini oshirishga xizmat qiladi.

– ta’limda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish. Qaror, ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, nodavlat ta’lim muassasalarini qo‘llab-quvvatlash va ularning faoliyatini tartibga solish bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida fizika yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar nazariy bilimlarga ega bo‘lishsa-da, ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalari yetarlicha shakllanmagan. Laboratoriya mashg‘ulotlari ko‘pincha “ko‘rsatma asosida” olib boriladi, bu esa talabalarni mustaqil eksperiment tashkil qilish, natijalarni tahlil qilish va raqamli texnologiyalar bilan ishlashga yetarli darajada tayyorlamaydi [1.4; 2.36]. Zamonaviy fan va ishlab chiqarish ehtiyojlari esa kuchli amaliy va texnologik kompetentlikka ega mutaxassislarni talab qilmoqda. O‘z navbatida, ta’lim jarayonida innovatsion metodlar va texnologik vositalarning (PhET, Arduino, TEAL va boshqalar) yetarlicha joriy etilmasligi bu muammoni chuqurlashtirmoqda.

Muammo izohi.Chet elning ilg‘or oliy ta’lim muassasalarida (MIT, Stanford, TU Munich, KAIST va boshqalar) amaliy kompetentlik loyihaviy yondashuv (Project-Based Learning), integratsiyalashgan laboratoriyalar va STEM modeli orqali chuqur shakllantirilmoqda [3.12; 4.28; 5.31]. Ularning tajribasidan ko‘rinadiki, amaliy tajriba orqali o‘qitish, nazariya va eksperimentning uyg‘unligi, o‘quvchining faol ishtirokiga tayanadigan yondashuvlar samaradorlikni keskin

oshiradi. Bu esa O‘zbekiston OTMlaridagi mavjud yondashuvlarning isloh qilinishi zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur muammoni bartaraf etish uchun O‘zbekiston OTMlarida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif qilinadi:

Amaliy ta’limni loyihaviy va tajriba asosida tashkil etish, ya’ni talabalarni real muammolarga asoslangan laboratoriya mashg‘ulotlariga jalb etish;

Fizika faniga raqamli texnologiyalarni tizimli integratsiya qilish (masalan, PhET simulyatorlari, Arduino loyihalari, virtual laboratoriyalar) [6.43];

Xorijiy tajribani moslashtirish asosida integrativ o‘quv modelini ishlab chiqish, bu model nazariy bilim, eksperiment va tahlilni uzviy birlashtirgan bo‘lishi lozim;O‘qituvchilar malakasini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish kurslarini joriy etish, bu orqali laboratoriya ishlarining mazmuni chuqurlashtiriladi.Mazkur yondashuvlar O‘zbekiston Prezidentining PQ–231-son qarori bilan belgilangan ta’lim islohotlari va xalqaro kompetentlik standartlariga mos keladi [1.4].

Ushbu qaror, O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni belgilab beradi. Maqolaning maqsadi – O‘zbekiston va ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini solishtirish orqali fizika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning amaliy kompetentligini shakllantirishga oid optimal metodik yondashuvlarni ishlab chiqish.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz olimlaridan B.M.Mirzahmedov, M.Djorayev, G.Axmedova, M.Qurbonov, S.Q.Qahharov K.Nasriddinov, A.M.Xudayberganov, G.E.Karlibayeva, Y.G‘.Mahmudov, K.A.Tursunmetov, J.E.Usarov, S.J.Turayev, E.B.Maxmanov, D.M.Ismoilov va boshqalar raqamli va innovatsion ta’lim texnologiyalari vositasida fizika o’qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borishgan. Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, dasturiy vositalar asosida ta’lim sifatini oshirish masalalari U.SH.Begimqulov, A.D.Asqarov, N.A.Qayumova, G.A.Umarova kabi soxa olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan[2.75; 8.126].

Mustaqil davlatlar hamdo’stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan N.I.Vershinina, V.I.Bogdanov, N.V.Voznesenskaya, G.V.Erofeeva, A.N.Popsov, O.N.Tretyakova, M.D.Dammer, S.Y.Surovikina va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlari fizika o‘qitish sifati va samaradorligini oshirish muammolariga bag‘ishlangan; xorijiy olimlardan Douglas S., E.R.Smith, D.M.Heyes, Jin Shengshu, Lee Y., Kim M., Yoon H., Leslie V., V.P.Bespalko, S.I.Arxangelskiy kabi olimlar tomonidan fizika fani bo‘limlari bo‘yicha metodik tizimni fundamentlashtirish va generallashtirish tamoyillari asosida modellashtirish masalalari o‘rganilgan[6.43];

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot muammosiga oid ilmiy manbalar va tadqiqotlar tahlillari shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab tadqiqotlar iqtisodiy kompetentlik, matematik kompetentlikni shakllantirishga bag‘ishlangan bo‘lib, fizikadan amaliy kompetentlikni rivojlantirishga yetarli darajada etibor berish lozim. Talabalarning fizikadan amaliy kompetentligini rivojlantirishning uslubiy-didaktik ta’minoti va o‘qitish metodikasi ishlab chiqish lozim. Shularni etiborga olib, fizika o‘qitishda ilmiy va o‘quv bilish metodlari va zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalanish, virtual va dasturiy ishlanmalar, mobil ilovalar ishlab chiqish hamda uslubiy-didaktik ta’minotni rivojlantirishga zarurati mavjudligini aniqlash imkonini berdi.

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

- Tizimli tahlil – mahalliy va xorijiy ta’lim modellari asosida amaliy komponentlar solishtirildi.
- Kontent-analiz – o‘quv dasturlar, dars ishlanmalar, laboratoriya topshiriqlari tahlili.
- Empirik usul – Empirik usul – bu bilim olish va tekshirishning amaliy tajriba, kuzatuv va eksperiment asosidagi usulidir. U nazariy farazlarga emas, to‘g‘ridan-to‘g‘ri voqelikdan olingan ma’lumotlarga tayangan holda haqiqatga erishishni maqsad qiladi. Empirik usulning asosiy mohiyati. Empirik yondashuv, “real hayotda nima bo‘layotgani”ni o‘rganadi. Bu usul orqali ilmiy farazlar tekshiriladi, yangi bilimlar olinadi yoki mavjud nazariyalar tasdiqlanadi, yolg‘onligi isbotlanadi.

Empirik usulning asosiy shakllari:

- *Kuzatuv*.Hodisalar yoki jarayonlarni aralashuvsiz, bevosita ko‘z bilan kuzatish orqali ma’lumot to‘plash.Masalan: Talabalarning laboratoriya darslaridagi faol ishtirokini bevosita kuzatish.
- *Eksperiment (tajriba).*Maxsus sharoitda nazorat ostida o‘tkaziladigan sinov, bunda biror o‘zgaruvchini boshqarish orqali sabab-oqibat aniqlanadi.Masalan: O‘qituvchining innovatsion metodika bilan dars o‘tib, amaliy natijalarni baholashi.
- *So‘rovnoma Intervyu*.Shaxsiy fikr, baho yoki tajribani aniqlash maqsadida talaba yoki o‘qituvchilardan savollar orqali ma’lumot yig‘ish.Masalan: Talabalardan STEM metodikasi haqidagi fikrlarini yig‘ish.
- *Diagnostik testlar va baholashlar*. Ishtirokchilarning bilim, ko‘nikma yoki kompetensiyasini empirik baholash. Masalan: Tajriba o‘tkazgandan keyin laboratoriya topshiriqlarini tahlil qilish.
- *Statistik tahlil* – talabalar natijalari va laboratoriya ishlari samaradorligi baholandi.
- *Komparativ metod* – AQSh (MIT, Stanford), Germaniya (TU Munich), Janubiy Koreya (KAIST) va Yaponiyaning Tokyo universiteti tajribasi solishtirildi.

Komparativ metod (lot. *comparare* – taqqoslash) – bu ilmiy-tadqiqot metodlaridan biri bo‘lib, ikki yoki undan ortiq obyekt, hodisa, tizim, qonun yoki jarayonlarni o‘zaro solishtirish orqali ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi. U ayniqsa ijtimoiy fanlar, huquqshunoslik, siyosatshunoslik, pedagogika va tarixiy tadqiqotlarda keng qo‘llaniladi[6.43];

Komparativ metodning mazmuni. Komparativ metod tadqiqotchiga:

- Qiyoslanayotgan obyektlar o‘rtasida strukturaviy, funksional va mazmuniy farqlar va o‘xshashliklarni aniqlashga,
- Ularning rivojlanish yo‘nalishlari va sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilishga,
- Yaxshi namunalarni aniqlab, modellashtirish yoki moslashtirish imkonini beradi.

Natija va muhokama. Mahalliy tajriba tahlili. O‘zbekiston OTMlarida fizika laboratoriya darslari mavjud bo‘lsa-da, ularning aksariyati texnik eskirish, amaliy yo‘nalishdagi integratsiya pastligi, tahliliy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi cheklovlar bilan ajralib turadi.

Ko‘pchilik laboratoriya ishlari “ko‘rsatma” tipida bo‘lib, talabalarda mustaqil kuzatuv va eksperiment olib borish ko‘nikmalarini shakllantirishga to‘liq xizmat qilmaydi. Tajriba asosida o‘qitishdan ko‘ra, nazariyaga urg‘u berilishi natijasida amaliy kompetensiyalar yetarlicha shakllanmayapti.

Xorijiy tajriba. AQShda, MIT va Stanfordda fizika ta’limida o‘quvchilar mustaqil loyiha asosida tajriba yaratish, qurilma yig‘ish va natijalarni tahlil qilishga o‘rgatiladi. AQShning yetakchi universitetlari — Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT) va Stenford Universiteti — fizika ta’limida talabalarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. Bu maqsadda ular loyihaga asoslangan o‘qitish (Project-Based Learning, PBL) yondashuvini qo‘llab, talabalarni mustaqil tajriba yaratish, qurilma yig‘ish va natijalarni tahlil qilishga o‘rgatadilar[6.43];

MIT: Amaliy tajriba va innovatsion yondashuvlar. MICA (Measurement, Instrumentation, Control, Analysis) loyihasi: MITda ishlab chiqilgan MICA tashabbusi talabalarga arzon, simsiz sensorlar, generatorlar va stol usti robotlar orqali amaliy, ma’lumotga asoslangan STEM ta’limini taqdim etadi. Bu tizim talabalarning o‘z tajribalarini mustaqil ravishda loyihalash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Physics Junior Lab (8.13/8.14 kurslari): Uchinchi kurs fizika talabalari uchun mo‘ljallangan bu ikki semestrlik kursda talabalar 20-asrning muhim fizik tajribalarini (ko‘pincha Nobel mukofoti bilan taqdirlangan) takrorlaydilar. Bu orqali ular eksperimental fizika asoslarini chuqur o‘rganadilar.

TEAL (Technology-Enabled Active Learning) dasturi: MITda joriy etilgan TEAL yondashuvi talabalarning elektromagnetizm kabi murakkab tushunchalarni vizualizatsiya qilish va tushunishlariga yordam beradi. Bu usulda talabalar guruhlarda ishlashadi, muammolarni hal qilishadi va o‘z yechimlarini baham ko‘rishadi.

Stenford Universiteti: Innovatsion loyihalar va amaliy mashg‘ulotlar. CHARM Lab – ME327 kursi: Talabalar bu kurs doirasida ikki darajali erkinlikka ega haptik qurilma yaratishadi. Bu qurilma orqali ular gravitatsion maydonlarni o‘rganishadi. Loyiha yakunida qurilma 50 nafar o‘quvchi va bir nechta o‘qituvchilar tomonidan sinovdan o‘tkazilgan va ijobiy baholangan.

PBL Lab (Project-Based Learning Laboratory): Stenforddagi PBL Lab talabalarga real muammolarni hal qilish orqali amaliy tajriba orttirish imkonini beradi. Bu yondashuv orqali talabalar o‘z loyihalarini ishlab chiqishadi va natijalarni tahlil qilishadi.

MIT va Stenford universitetlarida fizika ta’limida loyihaga asoslangan o‘qitish yondashuvi talabalarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu yondashuv orqali talabalar nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash, qurilma yaratish va natijalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini egallaydilar. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari uchun ushbu tajribalarni o‘rganish va moslashtirish ta’lim sifatini oshirishda foydali bo‘lishi mumkin.

Germaniyada TU Munichda “research-based learning” modeli joriy qilingan – talaba har semestrda bir ilmiy loyiha olib boradi.

Janubiy Koreya va Yaponiyada “integrated lab-based curriculum” mavjud bo‘lib, nazariya faqat eksperiment asosida tasdiqlanadi.

Ular hamda UNESCO-ISEE (International Science and Engineering Education) tavsiyalari asosida ko‘p komponentli laboratoriyalar tashkil etilgan.

O‘zaro solishtirma tahlil

Mezoni	O‘zbekiston	AQSh	Germaniya	Janubiy Koreya
Tajriba bazasi	O‘rtacha	Juda yuqori	Yuqori	Yuqori
Mustaqil loyiha ishlari	Kam	Juda keng	Keng	Keng
Tajriba bazasi	O‘rtacha	Juda yuqori	Yuqori	Yuqori
Integratsiyalashgan o‘quv reja	Kam	Yuqori	Yuqori	Yuqori
STEM yondashuvi	Yangi bosqichda	Mukammal	Ilgarilagan	Mukammal

Mahalliy oliy ta’lim muassasalarida fizika yo‘nalishidagi amaliy ta’limni rivojlantirish uchun quyidagilar muhim:

- Amaliy ta’limni loyihaviy asosda tashkil qilish – talabalar o‘z tajribasini loyihalash va tahlil qilish orqali chuqur kompetensiyaga ega bo‘ladi.
- Laboratoriya bazalarini modernizatsiya qilish – zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash, raqamli laboratoriyalarni joriy etish.
- Xorijiy tajribalarni lokalizatsiya asosida implementatsiya qilish – AQSh, Germaniya va Koreya tajribalaridan foydalanib, O‘zbekistonga mos model yaratish.
- O‘qituvchilarni qayta tayyorlash – zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida amaliy ta’limni tashkil etish malakalarini oshirish.

Xulosa. Oliy ta’lim tizimida fizika yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun amaliy kompetentligini shakllantirish – zamonaviy pedagogik strategiyaning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekistonning amaldagi tajribasi va rivojlangan xorijiy mamlakatlar – AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya ta’lim modellari asosida olib borilgan komparativ tahlil shuni ko‘rsatadiki, samarali amaliy o‘qitish faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, balki o‘quvchilarda mustaqil tajriba, tahlil, loyihalash va texnologik vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Tadqiqot davomida MIT, Stanford, TU Munich, KAIST kabi ilg‘or universitetlar tajribasida loyihaga asoslangan ta’lim (PBL), integratsiyalashgan laboratoriya kurslari va raqamli texnologiyalarni chuqur integratsiyasi asosiy omil sifatida e’tirof etildi [3.12; 4.28; 5.31]. Bu yondashuvlar orqali talabalar nafaqat tayyor formulalarni o‘rganadi, balki real muammolarni hal qilish, tajriba loyihalash va tahlil qilish jarayonida faol ishtirok etadi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida fizika fanini zamonaviylashtirish uchun quyidagi xulosaviy takliflar asosida harakat qilish lozim:

Amaliy darslarni loyihaviy va kompetensiyaga yo‘naltirilgan formatga o‘tkazish – bu orqali talabalarning muammoni mustaqil hal etish va eksperiment asosida xulosa chiqarish qobiliyatlari rivojlanadi;

Laboratoriya bazalarini texnik va metodik jihatdan yangilash – sensorli qurilmalar, simulyatsiya dasturlari va raqamli laboratoriyalar (masalan, TEAL va PhET)ni joriy etish zarur [6.43];

Xorijiy tajribalarni lokalizatsiya asosida implementatsiya qilish – chet eldagi muvaffaqiyatli model va metodlarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirib, integrativ o‘quv modelini ishlab chiqish mumkin;

STEM yondashuvini tizimli joriy etish – bu fizika fanining informatika, muhandislik va

matematika bilan uzviy bog‘liqligini ta’minlaydi, natijada ko‘p qirrali kompetentlik shakllanadi [2.75; 8.126];

O‘qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash – zamonaviy o‘quv uslublarini egallagan pedagog kadrlar bu jarayonning asosiy drayveri hisoblanadi.

Yuqoridagi xulosalar asosida fizika ta’limida amaliy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan integrativ, raqamli va tajribaga asoslangan metodik yondashuvlar nafaqat nazariy bilimni chuqurlashtiradi, balki talabalarni XXI asr fan va texnologiyalari sharoitida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantiradi. Bu esa PQ–231-sonli qarorda belgilangan strategik vazifalar va ta’lim sifatini oshirish maqsadlariga to‘la javob beradi [1.4].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–231-son qarori. 12.04.2022.
2. Мусаев Ш. Р. “Fizika o‘qitish metodikasi”. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
3. MIT Department of Physics – Curriculum and Lab Projects. https://physics.mit.edu
4. National STEM Education Strategy. US Department of Education, 2018.
5. TU Munich Physics Education Program Reports, 2020–2023.
6. KAIST – Center for Science and Engineering Education Annual Report, 2022.
7. UNESCO-ISEE Guidelines on Physics Education. Paris, 2021.
8. Гуляев В. И. "Современные подходы к инженерному образованию". Москва: Просвещение, 2020.
9. А.Х. Иброҳимов. “STEM yondashuvi asosida fizika darslarini o‘qitish metodikasi”, TDPU maqolalar to‘plami, 2022.
10. OECD. “Future of Education and Skills: Education 2030”. Paris, 2019.
11. Ishmurodova G. I., Maxmanov E. B. Fizika fanidan laboratoriya mashqlarotlarini innovatsion yondoshuv asosiyda utkarish //Sovremennoe obrazovanie (O'zbekiston). – 2019. – №. 8 (81). – S. 16-22.
12. Ishmurodova G. I., Maxmanov E. B. Master-klass asosida fizikadan masalalar echish mashqlarotlarini tashkil qilish //Sovremennoe obrazovanie (O‘zbekiston). – 2020. – №. 10 (95). – S. 11-17
13. Mustafoyev Erkin. Elektr va magnetizmni talabalarga integrativ yondashuv asosida o‘qitish metodikasi. QarDU xabarlari 2024 (3/2)
14. Mustafoyev Erkin. Integrativ yondashuv asosida fizika yo‘nalishi talabalarining amaliy kompetentligini rivojlantirishning metodik modeli “Mug‘allim” *2024*. 6/3-сан

ILMIY USLUBDAGI MATNLARNI TUSHUNISHDA TIL VOSITALARINING PSIXOLINGVISTIK TAHLILI

Muqimova Dilafro‘z Sherboyevna
Qarshi davlat universitet o‘qituvchisi
D_Muqimova@gmail.com
ORCID 0000-0002-9856-2165
UDK 81'234 + 159.922.7

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilmiy uslubdagi matnlarni talabalarning qanday idrok etishi va bu jarayonda til vositalarining psixolingvistik tahlili o‘rganiladi. Matnni anglashda til birliklarining — ayniqsa ilmiy terminlar, murakkab sintaktik tuzilmalar va diskursiv vositalarning — psixologik qabul qilinishi muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotda til va tafakkur o‘zaro bog‘liqligi, nutqni qayta ishlash, semantik yuklamani idrok etish kabi jarayonlarga psixolingvistik yondashuvlar asosida yondashiladi. Maqola doirasida Vygotskiy, Chomsky, Luriya kabi olimlarning qarashlari asosida talabalarda matn bilan ishlash ko‘nikmalarining shakllanish mexanizmlari izohlanadi. Shuningdek, ilmiy matnlarning strukturaviy murakkabligi ularning anglash jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida ham xulosa chiqariladi. Mazkur maqola tilshunoslik, psixologiya va ta’lim sohalari chorrahasida amalga oshirilgan tahliliy ishdir.

Kalit so‘zlar: ilmiy uslub, psixolingvistika, matn idroki, til vositalari, semantik anglash, sintaktik tuzilmalar, talabalar tafakkuri.

PSYCHOLINGUISTIC ANALYSIS OF LINGUISTIC MEANS IN UNDERSTANDING SCIENTIFIC TEXTS

Abstract. This article explores how students comprehend scientific texts and analyzes the role of linguistic means from a psycholinguistic perspective. Particular attention is paid to the psychological processing of linguistic units — especially scientific terminology, complex syntactic structures, and discourse elements — during text comprehension. The study is grounded in psycholinguistic theories that examine the interrelation of language and thinking, including semantic processing, working memory, and cognitive load. Based on the ideas of Vygotsky, Chomsky, and Luria, the article discusses mechanisms through which students develop comprehension skills when working with scientific texts. Furthermore, it evaluates how the structural complexity of scientific writing affects the process of understanding. The research contributes to the intersection of linguistics, psychology, and pedagogy by offering insights into how academic language functions in educational contexts.

Keywords: scientific style, psycholinguistics, text comprehension, linguistic means, semantic processing, syntactic structures, student cognition.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning ilmiy matnlarni anglay olishi va u bilan faol ishlay bilishi – ularning ilmiy tafakkuri shakllanishining muhim bosqichlaridan biridir. Ayniqsa, oliy ta’lim bosqichida talabalar ko‘p miqdorda ilmiy-uslubdagi matnlar bilan yuzma-yuz keladilar va bu matnlarni tushunish, tahlil qilish hamda ulardan foydalanish orqali ilmiy nutq madaniyatini egallaydilar. Shu bois ilmiy matnlarni idrok etish jarayonining psixologik va tilshunoslik jihatlarini o‘rganish, xususan, til vositalarining qanday psixolingvistik mexanizmlar orqali qabul qilinishini tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ilmiy matnlar o‘ziga xos stilistik va grammatik xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni anglashda til vositalarining to‘g‘ri qabul qilinishi va qayta ishlanishi katta ahamiyatga ega. Bu yerda gap nafaqat lug‘aviy birliklarni tushunish, balki murakkab sintaktik tuzilmalar, terminologik qatlam, sabab-oqibat munosabatlarini bildiruvchi diskursiv bog‘lovchilar, ob’ektiv bayon uslubi kabi ko‘plab lingvistik elementlarni psixologik jihatdan qayta ishlash haqida bormoqda. Shu nuqtai nazardan, ilmiy uslubdagi matnni tushunish talabaning til kompetensiyasi bilan bir qatorda, uning kognitiv, emotsional va motivatsion holatlari bilan ham uzviy bog‘liq.

Psixolingvistika — til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni, nutq faoliyatining idrok etilish va ishlab chiqilish mexanizmlarini o‘rganuvchi fan sifatida — bu borada muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. L.S. Vygotskiy, A.R. Luriya, N. Chomsky, W. Kintsch kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar talabalarda ilmiy matnlarni idrok qilish mexanizmlarini tushunishda metodologik asos vazifasini bajaradi. Masalan, Vygotskiyning “ichki nutq” haqidagi qarashlari ilmiy matnni chuqur anglashda tafakkur va til o‘zaro aloqadorligini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Kintschning "Konstruksion-integratsion modeli" esa matnni idrok qilishda semantik darajadagi tushunish va integratsiyalash jarayonlarini izohlaydi.

Bundan tashqari, ilmiy matnlar ko‘pincha semantik yuklamasi yuqori bo‘lgan, abstrakt tushunchalarga asoslangan, mantiqiy qat’iylikni talab qiladigan axborotdan tashkil topgan bo‘lib, bunday matnlar ustida ishlashda faqat grammatika va lug‘atni bilish yetarli bo‘lmaydi. Bu yerda

kognitiv strategiyalar, xususan, oldingi bilimlarni faollashtirish, kontekst asosida tushunish, asosiy g‘oyani ajratib olish, axborotni mantiqiy bog‘lash kabilar katta ahamiyat kasb etadi. Talabaning ilmiy matnni tushunish darajasi bevosita uning fikrlash doirasi, diqqatni jamlash qobiliyati va axborotni tahlil qilish malakasi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy matnlarni anglashda til vositalarining roli, bu jarayonning psixologik asoslari va kognitiv xususiyatlari haqida qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu yo‘nalishdagi adabiy manbalar, asosan, psixolingvistika, matn lingvistikasi, ilmiy uslub va kognitiv tilshunoslik sohalariga taalluqlidir. Mavzuni chuqur o‘rganishda L.S. Vygotskiy, A.R. Luriya, N. Chomsky, W. Kintsch, D.A. Norman, T.A. van Deyk, G.P. Serebrennikova, M.M. Bakhtin, A.A. Leontyev, G.N. Serikov, shuningdek, zamonaviy o‘zbek tilshunoslari — A. Madvaliev, M. Jo‘rayev, M. Qo‘chqorov kabi olimlarning ishlari muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Psixolingvistik yondashuvlarda tilni idrok qilish va ishlab chiqish — ya’ni nutqni qabul qilish, tushunish va uni ifodalash mexanizmlari chuqur tahlil etiladi. L.S. Vygotskiy o‘zining “Myshlenie i rech” (1934) nomli asarida tafakkur va til o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatib, ichki nutq va ijtimoiy nutq orasidagi tafovutni tahlil qilgan. Unga ko‘ra, til orqali ifodalanuvchi fikr inson psixikasining faoliyati bo‘lib, matnni tushunish jarayoni nutqni semantik va sintaktik darajada qayta ishlashni talab etadi. A.R. Luriya esa nutq va idrok jarayonida miya faoliyatining roli haqida yozib, ilmiy matnlarni qabul qilishda ongli fikrlash, e’tibor va xotira tizimlarining faol ishtirokini ta’kidlaydi. U, shuningdek, murakkab sintaktik tuzilmalarni idrok etish, terminologik qatlamni tushunish kabi komponentlar psixologik jihatdan qanday bosqichlarda amalga oshishini eksperimental asosda o‘rgangan. N.Chomsky o‘zining generativ grammatika nazariyasi orqali insonning tilga oid bilimlari tug‘ma (innate) ekanligini asoslab bergan. Uning bu nazariyasi matn strukturasi va sintaktik bog‘liqliklarning ongda qanday modelga solinishini tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy matnlar ko‘pincha ko‘p darajali sintaktik birliklardan tashkil topgani bois, ularni anglashda aynan generativ tahlil usullari ham o‘z o‘rniga ega. Matnni tushunish psixologiyasini chuqur yoritgan olimlardan biri W. Kintsch bo‘lib, uning "Construction-Integration Model" (1988) modeli matn idrokining ikki bosqichda — axborotning semantik konstruksiyasini yaratish va uni oldingi bilimlar bilan integratsiya qilish — asosida amalga oshishini ko‘rsatadi. Bu model orqali talabalar ilmiy matnni qanday qabul qilishi, qaysi bosqichlarda tushunmovchilik yuzaga kelishi mumkinligi aniqlanadi. Shuningdek, G.P. Serebrennikova (1993) o‘zining "Lingvistik psixologiya asoslari" asarida ilmiy matnlar idrokining individual psixologik omillarini o‘rganadi. U til vositalari va semantik birliklar idrokiga motivatsiya, emotsional fon va o‘quvchining bilim salohiyati ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Bu fikrlar aynan talaba shaxsining individual kognitiv xususiyatlari doirasida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tilshunosligida ham bu yo‘nalishda qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, A.Madvalievning "Tilshunoslikka kirish" (Toshkent: O‘zbekiston, 2007) nomli kitobida matn tahlilining nazariy asoslari, ilmiy uslubning o‘ziga xosliklari va nutq birliklarining kognitiv funksiyasi haqida fikrlar ilgari suriladi. M. Jo‘rayev esa ilmiy nutq va fikrlashning uyg‘unligi haqida yozib, uni o‘quv jarayonida tadbiq etish masalalariga to‘xtalgan. Shuningdek, M. Qo‘chqorov ilmiy uslubda anglash jarayoni, semantik struktura va axborot oqimining qabul qilinishi bo‘yicha o‘z tadqiqotlarida lingvopsixologik jihatlarga e’tibor qaratadi.

Yuqoridagi adabiy manbalar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, ilmiy matnni tushunish bu – faqat til vositalarining bilimiga asoslangan jarayon emas, balki inson psixikasining murakkab idrokiy faoliyatini o‘z ichiga oluvchi ko‘p qirrali hodisadir. Mavzuga oid manbalarni tahlil qilish asosida til va tafakkur, nutq va xotira, semantik yuklama va kontekstual tushunish kabi ko‘plab elementlar bu jarayonda faol ishtirok etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda talabalarda ilmiy uslubdagi matnlarni tushunish jarayonida til vositalarining qanday psixolingvistik mexanizmlar asosida idrok qilinishi o‘rganildi. Bu jarayon ko‘p bosqichli bo‘lib, kognitiv, lingvistik va psixologik komponentlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil usullari uyg‘unlashtirildi, bu esa natijalarni nazariy va empirik jihatdan asoslash imkonini berdi. Birinchi navbatda, ilmiy-uslubdagi matnlar tanlab olinib, ularning leksik, grammatik va stilistik tarkibi lingvistik tahlil qilindi. Matnlar sifatida filologiya va pedagogika yo‘nalishlarida o‘qitiladigan asosiy fanlarga oid ilmiy-adabiy maqolalar, darsliklar va dissertatsiya bo‘limlaridan parchalar tanlandi. Matnlarning uzunligi, terminologik

zichligi, murakkab sintaktik tuzilmalar soni va stilistik vositalardan foydalanish darajasi aniqlanib, maxsus matn indeksatsiyasi amalga oshirildi. Bu tahlil orqali matnning qiyinlik darajasi baholandi. Keyingi bosqichda talabalar bilan eksperimental ishlar olib borildi. Unda 3-4-bosqich talabalari ishtirok etdi (N=60). Talabalarga ikki bosqichli topshiriqlar berildi: birinchisida ular ilmiy matnni o‘qib tushunishlari kerak bo‘ldi, ikkinchisida esa o‘qilgan matn asosida asosiy g‘oya, muhim atamalar, sabab-oqibat aloqalari va umumiy mazmunni qayta bayon qilishga doir savollar ishlab chiqildi. Javoblar kontent-tahlil orqali baholandi. Tadqiqotda psixolingvistik tahlilning quyidagi nazariy modellari asos qilib olindi:

- **Konstruksion-integratsion model (W. Kintsch):** matnni idrok qilishda semantik tuzilmani yaratish va uni mavjud bilimlar bilan bog‘lash mexanizmlari tahlil qilindi;
- **Ichki nutq nazariyasi (L.S. Vygotskiy):** matnni anglashda tafakkur va tilning o‘zaro aloqadorligi, ichki qayta kodlash jarayonlari o‘rganildi;
- **Psixolingvistik dekodlash modeli (A.A. Leontyev):** nutqni tushunishda o‘quvchining idrok, e’tibor va xotira resurslarining roli tahlil qilindi.

Eksperimental bosqichda olingan ma’lumotlar SPSS dasturi yordamida miqdoriy tahlil qilindi. O‘quvchilarning matnni tushunish darajasi, atamalarni eslab qolish ko‘rsatkichi va kontekstni qayta bayon qilishdagi aniqlik foizi hisoblandi. Shuningdek, respondentlar bilan suhbatlar tashkil etilib, ularning matnni tushunishda duch kelgan psixologik to‘siqlari, qiyinchilik darajalari va tushunishga yordam beruvchi strategiyalari aniqlab borildi. Metodologik yondashuvda interaktiv savol-javob, metakognitiv monitoring, test va esse uslublari, shuningdek, lingvopsixologik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Talabalar o‘rtasidagi individual farqlar (diqqat, tafakkur sur’ati, lug‘aviy zaxira) ham hisobga olindi. Tadqiqot davomida nazariy manbalar tahliliga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, tilshunoslik, psixologiya, ta’lim metodikasi va kognitiv fanlarga oid o‘zbek va xorijiy olimlarning ishlari o‘rganildi. Bu nazariy asoslar orqali eksperimental ish natijalari chuqur talqin qilindi va ilmiy xulosalar berildi. Shunday qilib, ushbu metodologik yondashuv orqali ilmiy matnni tushunish jarayonidagi asosiy psixolingvistik bosqichlar, ularni amalga oshiruvchi til vositalari va individual idrok omillari o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilindi. Bu esa mavzuni kompleks yondashuv asosida o‘rganish imkonini berdi.

Natija va muhukama. Ushbu tadqiqotda talabalarning ilmiy uslubdagi matnlarni tushunishida til vositalarini qanday qabul qilishi, ularni semantik va kognitiv darajada qayta ishlashi hamda bu jarayondagi psixologik omillar qanday rol o‘ynashi aniqlanishi maqsad qilindi. Natijalarga tayanadigan bo‘lsak, birinchi navbatda ilmiy uslubdagi matnlarni tushunish jarayonida talabalar ko‘proq semantik murakkabliklar, terminologik zichlik va mantiqiy bog‘lanishlarning aniqligiga bog‘liq qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ayniqsa, grammatik jihatdan murakkab sintaktik tuzilmalar va predmetga xos terminlar talabalarda asosiy tushunmovchilik manbai sifatida qayd etildi. Eksperimentda ishtirok etgan 60 nafar talabaga taqdim etilgan matnlar struktura, mazmun va til vositalarining murakkablik darajasiga qarab baholandi. O‘quvchilarning matnni tushunish darajasi, qayta bayon qilish aniqligi, asosiy g‘oya va tushunchalarni aniqlash salohiyati kontent-analiz orqali tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning 67 foizi ilmiy matndagi asosiy fikrni to‘g‘ri anglay oldi, biroq ularning atigi 41 foizi murakkab termin va tushunchalarni to‘liq tushuntira oldi. Bu esa semantik dekodlash bosqichida talabalar kognitiv yuklamaning ortishiga duch kelayotganidan dalolat beradi. Bu holatni psixolingvistik yondashuvlar yordamida tushuntiradigan bo‘lsak, W.Kintschning konstruksion-integratsion modeliga muvofiq, matnni anglash ikki bosqichda – semantik konstruksiyani shakllantirish va uni avvalgi bilimlar bilan bog‘lash orqali amalga oshadi. Biroq ilmiy uslubdagi matnlar yuqori darajadagi kognitiv resurslar, terminologik tayyorgarlik va metakognitiv strategiyalarni talab qiladi. Shuning uchun talabalarda mazkur bosqichlarning ikkinchisi – integratsiya jarayoni sust kechmoqda.

G.N.Serikov ilmiy tafakkurning shakllanishida til vositalarining axborot yukiga e’tibor qaratib, ilmiy matnni tushunishda “semantik bosqichdagi to‘siqlar”ni asosiy psixologik to‘siqlardan biri deb hisoblaydi. Uning fikricha, “…ilmiy uslubdagi fikr og‘irligi, matn ichida bir-biriga bog‘liq murakkab sintaktik tuzilmalarning ko‘pligi talabalarda mantikiy anglashuvni sekinlashtiradi”[15.125]. Boshqa tomondan, talabalar bilan olib borilgan suhbatlar natijasida aniqlanishicha, ko‘pchilik o‘quvchilar ilmiy matnni o‘qishdan oldin uni tahlil qilishga psixologik jihatdan tayyor emasligini, ya’ni metakognitiv monitoring mexanizmlarini faol qo‘llay olmasligini bildirgan. Bu holat ilmiy tafakkurning mustahkam shakllanmaganligini ko‘rsatadi. D.Qodirova

fikricha, "…ilmiy matn bilan ishlash jarayonida nafaqat til bilimlari, balki tafakkurda mavzuga oid semantik konstruksiyalarni barpo etish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi"[14.88]. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar matnning shakliy jihatlariga (ya’ni grammatika, so‘zlar tartibi, uslub) ko‘proq e’tibor qaratib, uning mazmuniy strukturasini aniqlashda qiynalishadi. Bu holat ko‘pincha ilmiy uslubdagi murakkab sintaktik bog‘lanishlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, sabab-oqibat bog‘liqliklari, shart-sharoit ifodalovchi gaplar, ta’riflovchi birliklar bilan to‘yingan matnlar ongli dekodlashda ortiqcha yuk keltirib chiqaradi. O‘rganilgan manbalarda qayd etilishicha, psixolingvistika nuqtayi nazaridan matn idrokining muvaffaqiyati o‘quvchining individual kognitiv maydoniga, ya’ni uning avvalgi bilimlari, lug‘aviy boyligi va tafakkur moslashuvchanligiga bog‘liq. Л.С.Выготский bu jarayonda "…tafakkur va xotiraning ko‘lamiga, emotsional fon va motivatsiyaga bog‘liq bo‘lgan idrok bosqichlari" haqida yozadi [5.142].

Eksperimentda qatnashgan talabalar orasida yuqori natija ko‘rsatganlar (ya’ni ilmiy matnni tushunishda yuqori darajadagi aniqlikka ega bo‘lganlar) odatda muntazam ravishda ilmiy matnlar bilan ishlaydigan, o‘zlashtiruvchi o‘quvchilardir. Ularning fikricha, ilmiy matnni tushunishda asosiy yordamchi vosita bu – "qiyosiy tahlil, asosiy g‘oyani tez aniqlash, kontekstda terminlarni taxmin qilish, qisman tarjima qilish" strategiyalaridir. Shuningdek, ijtimoiy-psixologik omillar ham talabalar tomonidan ilmiy matnni anglash darajasiga bevosita ta’sir qilishi aniqlandi. Jumladan, stress, tashqi bosim, matnga qiziqmaslik, avvalgi salbiy tajribalar, sinfdagi o‘zini namoyon qila olmaslik – bularning barchasi matnni to‘liq tushunishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shunday holatlarda matnni idrok qilishda emotsional fonning salbiyligi semantik tizimni faollashtirishni susaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari ilmiy uslubdagi matnni tushunish jarayoni ko‘p qirrali psixolingvistik hodisa ekanligini ko‘rsatdi. Bu jarayonda til vositalarining leksik-semantik xususiyatlari, sintaktik murakkabliklari, stilistik qatlamining o‘ziga xosligi muhim rol o‘ynaydi. Ammo ayni vaqtda, ushbu omillarni tushunishda o‘quvchining kognitiv, emotsional va motivatsion holatlari ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, ilmiy matnlarni tushunishga doir ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida psixolingvistik yondashuvlar asosida strategiyalar ishlab chiqish, matnlar strukturasini soddalashtirish, semantik bloklarga ajratish, terminologiyani izohli kontekstda berish va talabalarda metakognitiv faollikni oshirishga qaratilgan o‘qitish metodikalarini ishlab chiqish zarur bo‘lib qoladi. Aynan shu yo‘nalish keyingi tadqiqotlar uchun metodik asos vazifasini o‘tashi mumkin. Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar shuni ko‘rsatdiki, talabalar ilmiy uslubdagi matnlarni idrok etishda turlicha psixolingvistik strategiyalardan foydalanadi. Bunda asosan til vositalarining murakkabligi, matn strukturasi, semantik yuklama va talabaning individual kognitiv xususiyatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Ilmiy matnlar — odatdagi badiiy yoki ommabop matnlardan farqli ravishda — maxsus terminlar, ko‘p darajali sintaktik tuzilmalar, ob’ektiv bayon va qat’iy mantiqiy bog‘liqliklar asosida quriladi. Bu esa ularni idrok qilishni nafaqat til bilimi, balki tafakkur darajasi, xotira hajmi va tahliliy fikrlash salohiyatiga ham bog‘laydi.

Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, respondentlar o‘rtasida ilmiy matnlarni tushunish darajasi o‘zgaruvchan bo‘lib, bunda asosiy farqlar matn ichidagi terminlar soni, murakkab grammatik birliklar (masalan, qo‘shma gaplar, passiv konstruktsiyalar), va kontekstual izohlarning mavjudligiga qarab belgilanadi. Matnda tez-tez uchraydigan nomoddiy tushunchalar, abstrakt iboralar va referensial bog‘liqliklar (masalan, ko‘rsatkich olmoshlar bilan ilgari aytilgan gaplarga murojaat qilish) talabalar uchun asosiy to‘siqlardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Masalan, ilmiy matnda "lingvistik determinatsiya" yoki "kognitiv dekodlash modeli" kabi iboralarni anglash uchun talabalar faqat lug‘aviy bilimga emas, balki oldindan shakllangan umumiy tafakkur, fanlararo bilim va kontekstni taxmin qilish qobiliyatiga tayanishga majbur bo‘ladilar. Bu esa L.S. Vygotskiyning tafakkur va nutq o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik haqidagi g‘oyasini yana bir bor tasdiqlaydi. U o‘zining mashhur asarida shunday yozadi: "Til tafakkurning tashqi shaklidir, fikr esa — uning ichki mohiyati. Matnni anglash — bu fikrni ongda qayta kodlash demakdir"[5.88]. So‘rovnomalar va suhbatlar orqali olingan ma’lumotlarga ko‘ra, talabalar ilmiy matnlarni tushunishda bir necha strategiyalardan foydalangan: 1) tushunarsiz so‘z yoki iboralarning ma’nosini kontekstdan taxmin qilish; 2) asosiy g‘oya va asoslovchi fikrlarni ajratib olish; 3) terminlar uchun sinonim yoki oddiyroq so‘zlar bilan almashtirishga urinish; 4) bir necha bor qayta o‘qish orqali ma’noni aniqlashtirish. Ushbu strategiyalar psixolingvistik jihatdan metakognitiv

faoliyat elementlari hisoblanadi. W.Kintsch tomonidan ilgari surilgan konstruktsion-integratsion model bu holatni quyidagicha tushuntiradi: “Matnni anglash ikki asosiy bosqichda — semantik struktura yaratish va uni mavjud bilimlar bilan integratsiyalash orqali amalga oshadi[9.41]. Talabalarning matnni birinchi marta o‘qigandagi tushunish darajasi past bo‘lgan bo‘lsa, qayta o‘qish jarayonida ular avvalgi bilimlari bilan bog‘lanishga harakat qilib, semantik birliklarni yaxlit kontekstda integratsiyalashgan.

Tadqiqotda 60 nafar talaba ishtirok etdi. Ularning 45 foizi o‘rtacha darajadagi ilmiy matnni birinchi marta o‘qiganda umumiy mazmunni to‘g‘ri anglab olishgan bo‘lsa, 35 foizi asosiy terminlarni noto‘g‘ri yoki umumlashtiruvchi tarzda talqin qilgan. 20 foizi esa faqatgina so‘zma-so‘z tarjima qilish bilan cheklanib, matnning mantiqiy-tuzilmaviy birliklarini anglamagan. Bu natijalar G.P. Serebrennikovaning quyidagi fikrini isbotlaydi: “O‘quvchilar ilmiy matnni idrok etishda tildan tashqari bilimlarga ham murojaat qiladi. Ammo, bu bilimlar yetarli darajada faol bo‘lmasa, semantik bog‘liqlik uziladi”[3.122]. Empirik kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, ilmiy matnni tushunishda til vositalari, ayniqsa, bog‘lovchilar, nisbatlar, izohlovchi konstruksiyalar va ma’no aniqlovchi sintaktik birliklar muhim rol o‘ynaydi. Matnda biror fikrning sababini izohlovchi “chunki”, “shuning uchun”, “sababi shuki” kabi konstruktsiyalar mavjud bo‘lsa, talabalar fikrni aniqlashda qiynalmaydi. Aksincha, agar matn xolislikni saqlash uchun passiv konstruktsiyalar (masalan, “ko‘rib chiqildi”, “nazariy asosda izohlangan”) bilan haddan tashqari to‘yingan bo‘lsa, idrok qiyinlashadi. Tilshunos A.Madvaliev ilmiy uslubga oid tahliliy ishlarida bunday qiyinchiliklarni alohida ta’kidlaydi: “Ilmiy uslubda foydalaniladigan grammatik birliklar tushunchalarni maksimal aniq va ob’ektiv ifodalashga xizmat qiladi. Ammo bu birliklarning ko‘pligi nutqni murakkablashtiradi va idrokka ortiqcha yuklama beradi”[1.141]. Talabalarning yozma va og‘zaki izohlari asosida aniqlanishicha, ilmiy matnlarni tushunishda asosiy to‘siqlar quyidagilardan iborat bo‘lgan:

1. **Terminologik zichlik:** Matnning qisqa bo‘lishiga qaramasdan, ko‘plab yangi atamalar berilishi.
2. **Sintaktik murakkablik:** Ko‘p darajali qo‘shma gaplar, referensial olmoshlar, passiv formalarning ko‘pligi.
3. **Kontekstdan uzilgan ma’lumotlar:** Ba’zi matnlarda ma’lumotlar ketma-ketligi buzulgan bo‘lib, talabalarda tushunmovchilik uyg‘otgan.
4. **Matnning ob’ektiv bayoni:** Emotsional ekspressiya yo‘qligi, fikrlar orasidagi konnotativ bog‘liqliklar yetishmasligi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etishda talabalar, odatda, o‘zlarining psixologik kompensatsiya mexanizmlariga tayanishgan: qayta o‘qish, sinonim qidirish, kontekstual analiz, yoki o‘rtoqlari bilan muhokama qilish. Bu jarayonlar kognitiv jihatdan qaraganda o‘quvchilarning yuqori bosqichdagi tafakkur faoliyatini — ya’ni reflektiv va metakognitiv faoliyatni ishga soladi. Bu esa ilmiy matnlarni tushunish bo‘yicha ko‘nikmalar asta-sekinlik bilan shakllanishini ko‘rsatadi.

Tadqiqotdan chiqadigan muhim muhokamaviy xulosa shundaki, ilmiy uslubdagi matnlarni tushunish nafaqat tilshunoslik bilimlariga, balki keng ko‘lamli psixolingvistik mexanizmlarga asoslanadi. Unda aqliy konstruksiya, semantik struktura yaratish, oldingi bilimlar bilan bog‘lanish, nutq birliklarini tanib olish va ularni tafakkur tizimida joylashtirish kabi bosqichlar o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Bunday murakkab tizimni o‘zlashtirish esa ma’lum psixologik va lingvistik tayyorgarlikni talab qiladi.

Xulosa va takliflar: Ilmiy uslubdagi matnlarni talabalarning idrok etishiga oid psixolingvistik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ushbu jarayon murakkab, ko‘p qatlamli va kognitiv faoliyatga bevosita aloqador bo‘lgan fenomen hisoblanadi. Tadqiqot davomida talabalar tomonidan ilmiy matnlarni tushunishda uchraydigan asosiy to‘siqlar, ularning sababiy omillari hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan individual va guruhiy strategiyalar aniqlandi. Bu holat ilmiy uslubdagi matnlar bilan ishlashda talabalarni maxsus metodik tayyorlovdan o‘tkazish zarurligini isbotlaydi. Eng avvalo, ilmiy matnni to‘g‘ri va chuqur anglash uchun faqat til vositalarini bilish yetarli emasligi aniqlandi. Bunday matnlar struktura va semantik jihatdan murakkab bo‘lib, ularni anglashda o‘quvchining oldingi bilimlar bazasi, tafakkur darajasi, psixologik moslashuvchanligi va mantiqiy tahlil qilish ko‘nikmalari asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ilmiy matnning tarkibiy xususiyatlari — sintaktik murakkablik, terminlar

zichligi, passiv konstruktsiyalar, sabab-oqibat bog‘liqliklarning noaniqligi — talabalarning idrok faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotda aniqlangan natijalar asosida quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish mumkin:

1. **Ilmiy uslubdagi matnlar** — bu mantiqiy-tushunchaviy yuklamasi yuqori bo‘lgan kommunikativ birliklar bo‘lib, ularni idrok etish faqat tilshunoslik emas, balki psixologik jarayonlarga ham asoslanadi.

2. **Talabalarning matn idrok etish jarayoni** shaxsiy tafakkur xususiyatlari, kognitiv kompetensiyalar va bilimlarni integratsiyalash salohiyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Bunda, metakognitiv faoliyatlar — o‘z fikrlash jarayonini tahlil qilish va boshqarish, tushunilmagan qismlarni aniqlash va ularga nisbatan strategiyalar ishlab chiqish — hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

3. **Psixolingvistik nuqtai nazardan**, ilmiy matnlarni tushunishda asosiy omillar sifatida quyidagilar ajratiladi: semantik struktura yaratish qobiliyati, kontekst asosida xulosa chiqarish, tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqliklarni anglash, til birliklarining psixologik qabul qilinishi va nutq materialini xotirada saqlab qolish salohiyati.

4. **Tajriba natijalari** shuni ko‘rsatdiki, matnni birinchi bor o‘qiganda tushunish darajasi ancha past bo‘lgan, ammo takroriy o‘qishlar va o‘quvchilarning strategik yondashuvi orqali mazmunning qayta tuzilishi kuzatilgan. Bu holat matnni idrok qilishda refleksiya va tafakkur faoliyatining zaruriyligini ko‘rsatadi.

5. **Ilmiy matn idrokidagi qiyinchiliklar** ko‘pincha til vositalarining murakkabligi, abstraktlik darajasining yuqoriligi, terminologik zichlik, kontekstual izohlarning yo‘qligi yoki yetishmovchiligi, va fikrlar ketma-ketligining mantiqiy uzilishlari bilan bog‘liqdir.

Yuqoridagi xulosalarga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. **Ilmiy matnlar bilan ishlash bo‘yicha maxsus metodik darslar** tashkil etilishi lozim. Bu mashg‘ulotlarda talabalarga ilmiy uslub xususiyatlari, terminlar bilan ishlash, matnni struktura bo‘yicha tahlil qilish, kontekstual tafakkur orqali ma’no ajratish ko‘nikmalari shakllantirilishi zarur.

2. **Psixolingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan treninglar** o‘quv dasturlariga kiritilishi kerak. Chunki o‘quvchi matnni nafaqat tushunishi, balki uni ongli ravishda tahlil qilishi va unga nisbatan baho berishni ham o‘zlashtirishi zarur.

3. **Ilmiy matnlar tanlovida darajalangan yondashuv** joriy etilishi kerak: ya’ni, boshlang‘ich bosqichda soddalashtirilgan, keyinchalik esa asl va murakkab ilmiy matnlar bilan ishlash orqali idrok bosqichma-bosqich rivojlantiriladi.

4. **Multimodal ta’lim texnologiyalari** — grafik izohlar, kontsept xaritalari, interaktiv topshiriqlar orqali ilmiy matn mazmunini tushunishni osonlashtirish mumkin. Bu vositalar mantiqiy va semantik bog‘liqliklarni tasviriy ifodalash orqali talabaning idrokini kuchaytiradi.

5. **Talabalarda til va tafakkur uyg‘unligini shakllantirish** uchun lingvistik-psixologik yondashuv asosida dars materiallari ishlab chiqilishi, ya’ni har bir termin, ibora yoki sintaktik birlikning nafaqat grammatik, balki psixologik qabul qilish shakli ham tahlil qilinishi zarur.

6. **Shaxsiy o‘quv strategiyalarini rivojlantirish**ga ko‘maklashish. Har bir talabaning matn bilan ishlash uslubi turlicha bo‘lgani sababli, ularga o‘zlarining individual yondashuvini anglash va samarali strategiyalarni shakllantirishda yordam berish ta’lim samaradorligini oshiradi.

7. **Tadqiqotga asoslangan ta’lim**ni amaliyotga joriy etish, ya’ni talabalarni matn asosida ilmiy mulohaza yuritishga, savol-javob orqali fikr bildirishga va terminlar asosida yangi matn yaratishga yo‘naltirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda ilmiy uslubdagi matnlarni anglash ko‘nikmalarining shakllanishi psixologik, lingvistik va metodik omillarning uyg‘un integratsiyasini talab etadi. Bu ko‘nikmalar nafaqat matnni idrok etish, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish va yangi bilim yaratish uchun ham muhim poydevor hisoblanadi. Mazkur tadqiqot orqali aniqlangan nazariy va amaliy jihatlar esa nafaqat lingvistik va psixologik fanlar rivojiga, balki ta’lim metodikasi samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Madvaliev A. *Tilshunoslikka kirish.* Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
2. Курбонов А.А. *Матн лингвистикаси ва нутқ стилистикаси*. - Тошкент: Fan va texnologiya, 2016. - 288 б.
3. Каримов А. *Психолингвистика ва нутқ фаолияти*. - Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2017. - 194 б.

4. Лурия А.Р. *Язык и сознание*. - Москва: Просвещение, 1979. - 272 с.
5. Выготский Л.С. *Мышление и речь*. - Москва: Лабиринт, 2001. - 352 с.
6. Назаров Қ., Каримов Э. *Тил ва тафаккур*. - Тошкент: Ўқитувчи, 1993. - 187 б.
7. Hasanov B. *Til va tafakkur uyg‘unligi*. - Toshkent: Akademnashr, 2021. - 245 b.
8. Chomsky N. *Language and Mind*. - Cambridge: Cambridge University Press, 2006. - 208 p.
9. Kintsch W. *Comprehension: A Paradigm for Cognition*. - Cambridge: Cambridge University Press, 1998. - 328 p.
10. Solso R. *Cognitive Psychology*. - Boston: Pearson Education, 2009. - 456 p.
11. Anderson J.R. *Cognitive Psychology and Its Implications*. - New York: Worth Publishers, 2010. - 480 p.
12. Хайруллаева Л.Т. *Нутқ психологияси: назарий ва амалий асослар*. - Тошкент: Илм зиёси, 2020. - 236 б.
13. Ўткирова Н. *Илмий услубда ёзилган матнларнинг тил ва услуб хусусиятлари*. // *Филология масалалари*, 2022, №4. - Б. 112–118.
14. Qodirova D. *Ilmiy uslub xususiyatlari va matn idroki muammolari*. // *O‘zbek tili va adabiyoti*, 2021, №3. - B. 76-82.
15. Serikov G.N. Psixologiya poznaniya. Moskva: Znanie, 2017.

QarDU XABARLARI

Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal

Qarshi davlat universiteti kichik bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: 180003, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17.

Indeks: 4071

Terishga 2025-yil 25.03.da berildi.

Bosishga 2025-yil 30.03. da ruxsat etildi.

2025-yil 02.04.da bosildi.

Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84, 1/8.

Times New Roman garniturasi. Nashriyot hisob tabog‘i 22,35.

Buyurtma raqami: № 35.

Adadi 50 nusxa. Erkin narxda.